


**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA  
INSTITUTI**

**SALOXOV A.Q**

# **FALSAFA**



**BUXORO – 2021**

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 29-avgustdagi 452 - sonli buyruq bilan tasdiqlangan "Falsafa" fani dasturi asosida tuzilgan.

**Taqrizchilar:**

Navro'zova G. N. "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida professori, falsafa fanlari doktori.

Karimov B.X. "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti

**Ma'sul muharrir** "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida mudiri, dotsenti

O'quv qo'llanma "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining 2021-yil "-----" avgustdagi "\_\_\_" son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

## ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv qo'llanma falsafa fanining mohiyati, asosiy tushunchalari, uning qonuniyatlari, o'qitish vositalari va ularning qo'llanishi, falsafa fanini o'tishda innovatsion texnologiyalarini qo'llash, talabalarni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari bayon etilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlangan bo'lib, bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari va falsafa faniga qizisuvchilar uchun mo'ljallangan.

В этом учебном пособии описывается сущность философии, ее основные понятия, ее законы, учебные средства и их применение, использование инновационных технологий в преподавании философии, воспитание учащихся в духе гуманности и патриотизма.

Учебное пособие составлено на основе типовой учебной программы, утвержденной Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, и предназначено для студентов бакалавриата и тех, кто интересуется философией.

This tutorial describes the essence of philosophy, its basic concepts, its laws, teaching tools and their application, the use of innovative technologies in teaching of philosophy, upbringing of students in the spirit of humanity and patriotism.

The textbook is based on a model curriculum approved by the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan, and is intended for undergraduate students and those interested in philosophy.

## KIRISH

Falsafa fani insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, unda falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash, olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandır. Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirish, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Olam haqidagi bilimlarning tobora rivojlanib borishi insoniyat tafakkurining yuksalishiga va taraqqiyotiga olib keladi. Shuning uchun falsafa fanini chuqurroq o'rganish talabalar ongi va qalbiga falsafiy g'oyalarni singdirish bugungi globallashuv davrida muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, **"Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"** deb ta'kidlagan edilar. Bu fikrlar zamirida chuqur falsafiy g'oyalar mujassam bo'lganligi anglashimiz lozim. Zero, mamlakat taraqqiyoti ko'p jihatdan ilmi, keng falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlarimizni tarbiyasiga bog'liq.

# 1-MAVZU. FALSAFANING FAN VA DUNYOQARASHGA DOIR MOHIYATI.

Reja:

1. Falsafaning predmeti, tuzilishi, funktsiyalari.
2. Dunyoqarash tushunchasi va uning tarixiy shakllari.
3. Falsafa tarixida fanlar tasnifiga oid qarashlar evolyutsiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** falsafa, faylasuf, dunyoqarash, diniy dunyoqarash, mif, falsafada milliylik, falsafada umuminsoniylik.

Falsafiy fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o'zi kabi uzoq tarixga ega. Falsafa olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati kabi ko'plab muammolar haqida bahs olib boradigan fandır.

Falsafaga oid uslubiy va ilmiy manbalarda ushbu atama yunon tilidagi «**filosofiya**» so'zidan olingani va u «**donishmandlikni sevish**» («filo» — sevaman, «sofiya» — donolik) degan **ma'noni anglatadi**. Bu — ushbu so'zning, atamaning lug'aviy ma'nosi bo'lib hisoblanadi.

«Filosofiya» atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui qadimgi sharqda eramizdan avvalgi VII-V asrlarda yuz bergan buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan edi. O'sha davrda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi.

Qadimgi Yunonistonda «**Filosofiya**» atamasini dastlab, matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma'lum bo'lgan, buyuk alloma **Pifagor** ishlatgan. Evropa madaniyatiga esa, u buyuk yunon faylasufi **Aflotun** asarlari orqali kirib kelgan. SHu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, to'g'rirog'i, «**fanlarning otasi**», **ya'ni asosiy fanga aylangan**.

Sharqda «Ikkinchi Arastu», «Ikkinchi muallim» deya e'tirof etilgan buyuk mutafakkir **Abu Nasr Forobiy** falsofiya so'zini «**Hikmatni qadrlash**» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «**donishmandlikni sevish**» degan **mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan**.

Hayot qonuniyatlarini yaxshi biladigan, umrning o'tkinchi ekani, abadiyat insonga emas, olamga xosligini yaxshi anglab etgan, o'zi va o'zgalar qadrini to'g'ri tushunadigan kishi hech qachon «**Men — donishmandman**» deya ochiq e'tirof etmaydi. Yunon donishmandi Pifagordan siz donishmandmisiz deganlarida «**Yo'q men donishmand emasman, men bor — yo'g'i donishmandlikni sevuvchi oddiy faylasufman**»- deb javob bergan ekan. Ayniqsa, Sharq xalqlari hayotida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo, Forobiy ta'kidlaganidek, hikmatni qadrlash, olam va odam hamda hayotning qadriga etish — boshqa gap. SHu ma'noda, bizda qadim zamonlarda faylasuf deganda, ko'pdan — ko'p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muallim sifatida shuxrat qozongan alloma va mutafakkir kishilar tushunilgan.

Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllardan uzil-kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog'liq. CHunki behuda hayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo'lish ilmiy bilimlarni egallash orqali ro'y beradi. Eng muhimi, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid'at va cheklanishlarga muxolif bo'lgan hurfikrlikdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo'ldi.

«Falsafa» atamasi «filosofiya»ning Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Odatda u tushuncha sifatida tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Xususan, keng ma'noda uni antik — qadimiy falsafada «donishmandlikni sevish» deb tushunilganini aytib o'tdik. Ayrim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, ingliz faylasufi **T. Gobbs** (1588—1679) uni «fikrlash orqali bilishga erishish», nemis faylasufi Gegel «umuman predmetlarga fikriy yondashish», Lyudvig Feerbax «bor narsani bilish», pragmatizm ta'limoti namoyandalari esa, «foydali narsalarni bilish jarayoni» deya talqin etgan.

Bu fanning oldiga qo'yilgan vazifalarga va uning hayotdagi o'rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo'lgan munosabat ham o'zgarib borgan. Bu munosabatlar

dastlabki fanlar paydo bo'lib va ularning bazilari falsafadan ajralib, alohida mustaqil fan sohasiga aylana boshlagan davrlardayoq shakllana boshlagan.

Qadimgi Yunoniston va Rim davridan buyon o'tgan ikki ming yildan ziyodroq vaqt mobaynida «Falsafa endi yo'q bo'ldi, uni o'rganishning hech bir zarurati qolmadi» qabilidagi gaplar ko'p bo'lgan. Lekin zamonlar o'tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiyoj sezgan va **u insonning ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.**

Bu jihatdan quyidagi rivoyat juda ibratlidir. Miloddan oldingi birinchi asrda yashab o'gagan buyuk faylasuf Lukrestiyning shogirdlaridan biri unga qarab, «ustoz, fanning boshqa sohalariga oid ilmlar juda ko'payib ketdi. Endi falsafani o'rganishning hojati bormikan?» debdi. SHunda ulug' faylasuf bamaylixtir gap boshlab, «Falsafani Suqrot, Aflotun, Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan. Lekin endilikda insoniyatning ana shunday buyuk mutafakkirlari yaratgan bu fanni o'rganmaslik har qaysi nodonning ham qo'lidan keladigan ish bo'lib qoldi», degan ekan.

**Falsafa kishilarga olam to'g'risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o'rganadi.** Masalan, biologiya o'simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o'rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo'nalishdagi jarayonlarning ba'zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi. Binobarin, biolog har qanday rivojlanish jarayoni bilan emas, balki faqat jonli tanadagi rivojlanish jarayoni bilan qiziqadi. Umuman, rivojlanish jarayonining o'zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu tahlitda qo'yilishi ilmiy muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi. Ya'ni, shu tariqa muayyan mavzu oddiy ilm sohasidagi yo'nalishdan falsafiy muammo tusini oladi.

Endi **Faylasuf kim**, degan savolga javob beraylik Filosof so'zini, yuqorida aytganimizdek ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qo'llagan. Bu tushunchaning ma'nosini u Olimpiya o'yinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar **bellashish**, kuch sinashish, ya'ni o'zi va o'zligini namoyon etish uchun, ikkinchi **bir guruh savdotsotiq qilish**, boyligini ko'paytirish uchun, uchinchi esa, **o'yindan ma'naviy oziq olish**, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu **uchinchi guruxga mansub kishilar**, Pifagor talqiniga ko'ra, **faylasuflar edi.**

Lev Tolstoy donishmand kishilarning uch xislatini alohida ta'kiddab, shunday yozgan: «Ular, avvalo, boshqalarga bergan maslahatlariga o'zlari amal qiladilar; ikkinchidan, hech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar; uchinchidan, atrofidagi kishilarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydilar».

Xuddi shuningdek, Sharqda ham Konfustiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziy, Beruniy va ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o'z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to'plangan bilim va tajribalarni o'

**Falsafa fanining muammolari**, o'z xususiyatlariga ko'ra, azaliy va yoki o'tkinchi bo'lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo'lgan davrdayoq vujudga kelgan bo'lib, toki odamzod mavjud ekan, yashayveradi. CHunki insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga quyilaveradi. Ularni o'rganish jarayonida ilm-fan taraqqiy etib boradi.

**Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, borliqning voqeligi, undagi o'zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog'liq ko'pdan-ko'p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining azaliy muammolari sirasiga kiradi.**

Falsafada olamning asosida nima yotadi, uni voqe etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat, degan masalalar nihoyatda uzoq, tarixga ega. Qadimgi Yunoniston va Rimda bu masala «**Substanstiya**» tushunchasi va uning mazmunini qanday tushunilishiga qarab o'ziga xos ifodalangan. **Substanstiya deganda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to'g'risidagi fikr tushunilgan.** YUnoniston faylasufi va matematigi **Pifagor** hamma narsa sonlardan tashkil toptan degan bo'lsa, **Aflotun** substanstiya — **g'oyalardir** degan, **Demokrit** esa, olamning asosida **atomlar** (atom tushunchasi o'sha davrda bo'linmas zarracha ma'nosida ishlatilgan) yotadi deb tushuntirgan.

Bu masalalarni qay tarzda hal qilinishiga qarab farqlanadigan falsafiy oqim va yo'nalishlar ham yo'q emas. Masalan, olamning asosida nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat degan

masalada monizm, **dualizm**, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

**Monizm** (yunoncha — monos, ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) — olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir.

**Dualizm** (lotin tilida dua, ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya, ya'ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

**Plyuralizm** (lotin tilida plyural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) — olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

**Materializm** — olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot.

**Idealizm** — olamning asosida ruh yoki g'oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar bilan falsafaning gnoseologiya (gnosis — bilish, logos — ta'limot) degan sohasi shug'ullanadi. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflarni — **gnostiklar**; olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to'g'ri va aniq, haqiqat darajasiga ko'tarila olmaydi deyuvchilarni esa — **agnostiklar** (yunoncha — bilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatadi) deb yuritiladi.

**Olamdagi o'zgarish, rivojlanishi, umumiy aloqadorlik va taraqqiyotning qay tarzda amalga oshishi, qanday sodir bo'lishi kabi masalalar ham falsafaning azaliy muammolari qatoriga kiradi. Falsafada ana shu mavzularga munosabat** va ular bilan borliq muammolarni **hal qilishga qarab** farqlanadigan bir necha ta'limot, qarash, usul va **metodlar bor**. Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, dogmatika kabilar shular jumlasidandir. Ularning tarixi nihoyatda uzoq, bo'lib, qadimgi Yunoniston va Rim davridan (miloddan oldingi VII — I asr) boshlanadi. Keyingi yillarda **sinergetika ham** falsafiy metod va ta'limot sifatida talqin etilmoqda. **Falsafiy metodlar olam qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi** va bu usullardan faylasuflar o'z tadqiqotlarini amalga oshirish yoki izlanishlarining natijalarini izohlashda foydalanadilar.

**Falsafada milliylik va umuminsoiylilik tamoyili.** Albatta, falsafa umuminsoniy fan sifatida bashariyatga doir umumiy muammolarni qamrab oladi. Ma'lumki, olam va odam munosabatlari, jamiyat va tabiatni asrash, umrni mazmunli o'tkazish, yaxshilik va yomonlik kabi qadriyatlar bilan bog'liq masalalarning barchasi insoniyat uchun umumiy. Ammo falsafada muayyan milliy xususiyat, maqsad va intilishlar ham o'z ifodasini topadi. Aslida, yuqorida zikr etilgan umuminsoniy mavzu, masala va muammolarning barchasi avval-boshda xususiy, milliy, mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar tarzida namoyon bo'ladi. O'z yurti, millati, ota-onasi va yor-birodarlarini sevgan vatanparvar inson, avvalo, ana shularning kamoli uchun qayg'uradi, ularni o'ylaydi, ularga xizmat qilishni oliy saodat deb biladi. Bunday shaxs dunyoqarashida ana shu jihat va xususiyatlar albatta aks etadi. Bu esa, o'z navbatida, umuminsoniy fan bo'lgan falsafada milliylikning aks etishiga asos bo'ladi. Umuminsoiylilik — vatansizlik (kosmopolitizm) bo'lmagani singari, milliylik ham — milliy qobiqda o'ralish, milliy mahdudlik degani emas.

SHu bilan birga, bugungi o'zbek falsafasining rivojini ta'minlashda qo'yidagi jihatlar alohida o'rin tutadi:

- xalqimizning o'z milliy an'alariga sodiqligi;
- mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonchi;
- muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e'tiqodi;
- mehnatsevarligi, intellektual salohiyati va boshqalar.

O'zbek falsafasini yanada taraqqiy ettirish vazifalarini amalga oshirish quyidagi muammolarning echimini topishga bog'liq:

- birinchidan, mustamlakachilik sharoitida soxtalashtirilgan tariximizni haqqoniy yoritish falsafiy g'oyalar, qarashlar tarixini ham xolis ko'rsatib berishni taqozo qiladi. O'z davrida qimmatli tarixiy manbalarning yo'q qilingani yoki ayovsiz talon-taroj etilgani bu ishni qiyinlashtirmoqda;

- ikkinchidan, mavjud manbalar arab yoki fors tillarida ekanligi, ularni biladigan faylasuf olimlarning, malakali tarjimonlarning kamligi umuminsoniy ma'naviy merosdan bahramand bo'lish va ulardan ijodiy foydalanishga to'siq bo'lmoqda;

- uchinchidan, odamlar ongidan mustabid tuzumning sohta g'oyalarini, ular qoldirgan

asoratlarni siqib chikarish, mafkuraviy bo'shliqni yangi g'oyalar bilan to'ldishrish, istiqloq mafkurasini shakllantirish muayyan vaqtni taqozo qiladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bugungi falsafa masalalari bilan shug'ullanuvchi olim va tadqiqotchilar zimmasiga nihoyatda katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda, eng avvalo, mazkur sohaga aloqador har bir yurtdoshimiz dunyoqarashining milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan o'zgarishi nihoyatda muhimdir. Mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etilayotgan hozirgi davrda bu jarayonning qanday borishi yangi falsafiy ongning shakllanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

**Dunyoqarash tushunchasi.** Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalari, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, **dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.**

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual; dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

**Dunyoqarashning tarixiylik tamoyili.** Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. SHu ma'noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Dunyoqarashning tarixiyliigi yana shundaki, u ma'lum dialektik jarayonda takomillashib boradi. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi.

Ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida **dunyoqarash nihoyatda oddiy bo'lgan.** Agar shunday bo'lmaganida, har qanday jism o'z hajmiga teng suyuqlik miqdorini siqib chiqarish xossasiga ega ekanini kashf etgan qadimgi zamonning buyuk olimi **Arximed** hammomdan yalong'och holda chiqib, «**Evriska!**», ya'ni «**Topdim!**», deya qichqirmagan bo'lar edi.

Dunyoqarash jamiyag rivojiga mos ravishda asta-sekin takomilashib borgan. Taraqqiyotning keyingi davrlarida fan sohasida qilingan kashfiyotlar inson dunyoqarashi naqadar chuqurlashib, uning bilimlar doirasi kengayib ketganini ko'rsatadi. Bunda vorislik an'anasi yaqqol ko'zga tashlanadi: har bir davrning dunyoqarashi, g'oyasi o'tmishda yaratilgan ma'naviy qadriyatlarining eng yaxshilarini, ilg'or va ijobiyilarini o'zida saqlab qoladi. Shu asosda yangi tamoyillarga ega bo'lgan dunyoqarash ham takomillashib boradi. Oddiy bug' mashinasidan kosmik raketalarigacha bo'lgai fan-texnika taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo'la oladi.

**Falsafiy dunyoqarash.** Bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqea va hodisalarga, o'zgalarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalyarga munosabati, ularni anglashi, tushinishi, qadrlashida namoyon bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy ko'zatishlar va ijtimoiy tarbiyada shakllanadi hamda rivojlanadi. Fanda ijtimoiy borliqning barcha jihatlari aks etadi. Dunyoqarashning shakllanishida his-tuyg'u, aql-idrok va tafakkur ham muhim o'rin tutishi tabiiy. Uning shakllanishi kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bog'liq bo'lib, inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va hokazolar aks etadi. Muayyan davr dunyoqarashida zamon ruhi, ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o'z ifodasini topadi. Masalan, bugungi O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash zarurati istiqloq dunyoqarashini shakllantirishga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda.

**Falsafiy dunyoqarash murakkab tuzilishga ega.**

U muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Bularning ichida e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqarashning mazmunini tashkil



etadigan asoslardan biridir. E'tiqod insonning o'z qarashlari va g'oyalari to'g'riligiga, orzu-umidlarining asosli ekaniga, faoliyati va xatti-xarakatining umumiy maqsadlarga va talablarga mosligiga bo'lgan chuqur ishonchidan paydo bo'ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilashda, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

Inson aqli unga xos hissiyot va tasavvurlar asosida ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi va takomillashtiradi. Har bir kishiga xos hissiyot va fikr, bilim va e'tiqod, intilish va kayfiyat, orzu-umid va qadriyatlar dunyoqarash tarkibida yaxlitlashadi va olamni bir butun holda aks ettiradi. Bir butun, yaxlit dunyoqarashning shakllanishi bolalikdan boshlanib, inson hayotining oxirigacha davom etadi. Bu holat individual dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi.

Inson ongli ijtimoiy mavjudot bo'lgani bois, uning dunyoqarashi muayyan ehtiyoj va manfaatlarga asoslanadi. Demak, **har qanday dunyoqarash muayyan inson**, ijtimoiy guruh yoki tabaqaning o'z ehtiyoj, manfaatlaridan kelib chiqqan holda borliqqa munosabatini ifodalovchi g'oyalar, nazariyalar, bilimlar majmuasi, ruhiy holat va e'tiqod mujassami hamda ularning namoyon bo'lishidir,

Falsafiy dunyoqarash, mohiyat-mazmuniga ko'ra, ma'naviy faoliyat bo'lgani bois, u borliqqa bo'lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari - axloqiy dunyoqarashlarida, huquqiy munosabatlari - huquqiy, siyosiy munosabatlari - siyosiy, diniy munosabatlari - diniy, ekologik munosabatlari - ekologik dunyoqarash shakllarida o'z ifodasini topgan. Buni tizim tarzida izohlaydigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

1. Axloqiy.
2. Diniy.
3. Huquqiy,
4. Siyosiy,
5. Ekologik.
6. Estetik.

Bu tizimni tashkil qilgan nisbatan mustaqil dunyoqarash shakllari o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi.

«Dunyoqarash» tushunchasi o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuyg'u va tushunchalar bilan uzviy borliq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo'lagiga aylanadi.

**Dunyoqarashning tarixiy shakllari** insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo'lib, jamiyat rivojlanishining ma'naviy mezoni sifatida namoyon bo'lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o'zlarining ijtimoiy hayotiga bo'lgan munosabati **turli rivoyat** va **afsonalarda** o'z ifodasini topgan. Ular shu tariqa **mifologik dunyoqarashni shakllantirgan**. Yovuzlik va ezgulik o'tasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmunidan dalolat beradi. Xususan, o'zbek xalqi stivilizastiyasi jarayonida yaratilgan rivoyat, afsona va boshqa janrlardagi og'zaki ijod namunalari millatimiz tarixida qanday ma'naviy qiyofaga ega bo'lganini hanuz ko'rsatib turadi. Ular butungi kunda jahon ahlini hayratga solmoqda. Masalan, qadimiy merosimiz namunasi — «Avesto»da **yaxshilik** ramzi — Axuramazda va **yomonlik** timsoli - Axriman o'rtasidagi kurash tarixi misolida oxir-oqibatda ezgulik baribir g'alaba qozonadi, ya'ni yorug'lik zulmat ustidan g'alaba qiladi, degan g'oya asosiy o'rinni egallaydi va hayotbaxsh g'oyalar ilgari suriladi.

**Mifologik dunyoqarash** qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va haqiqat uchun kurash g'oyalarining ifodasi bo'lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

Dunyoqarashning mifologik mohiyati bugunga fan-texnika taraqqiyoti, insonning aqliy salohiyati bag'oyat yuksalib ketgan davrda juda jo'n va ibtidoiy bo'lib ko'rinadi. Ammo afsona va rivoyatlar o'zining kuchli jozibasi, insonparvarlik g'oyalari bilan hozirgi kunda ham kishilarni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning ta'sirchan va samarali omili bo'lib qolmoqda.

**Diniy qarashlar.** Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo'lgan e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, vujudga kelishiga ko'ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega.

Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e'tirof etish bilan borliq bo'lsa, **diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e'tiqod qo'yish bilan bog'liq**. SHuning uchun ham bu

dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quydagi holatlar belgilaydi:

- emostional-ruhiy holatlar;
- iymon-e'tiqod;
- iymon-e'tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishi.

Bular ayni paytda diniy dunyoqarashning asosiy tamoyillarini ham tashkil qiladi.

Hozirgi davrda fan, texnika, dunyoviy ilmlarning kuchayib ketishi bilan «Diniy dunyoqarash, tafakkurning, insonni o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosbatning yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash zarurdir. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan».

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o'rganadi. **Teologiya - olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarini ilohiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'lab tahlil qilish hamda o'ziga xos mukammal tizimini yaratgan.** Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir talay asosiy vazifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan bog'liq **regulyativ faoliyati** nihoyatda muhimdir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati benihoyat ulkan va u tobora ortib bormoqda.

**Falsafiy dunyoqarashning asosiy yo'nalishlari.** Dunyoqarash tizimi va unga xos nisbatan mustaqil yo'nalishlarning har birini falsafiy mulohazaning oydinlashgan (konkretlashgan) shakli sifatida qarash mumkin. Falsafiy dunyoqarash, sodda qilib aytadigan bo'lsak, insonning olam, odam va borliqqa munosabatini ifodalovchi bilimlar tizimidir. Unga inson borlig'ining mohiyati nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, moddiy yoki ma'naviy jihatlari nechog'lik mutlaqlashtirilishiga qarab, uning tarkibida materialistik va idealistik dunyoqarash yo'nalishlari mavjudligini ko'ramiz.

Agar borliq va uning xossalariga mavjudlik bog'liqlik, o'zgarish va taraqqiyot nuqtai nazaridan bildirilgan munosabatlarni umumlashtiradigan bo'lsak, uning tarkibida metafizik va dialektik, sofistlik va sinergetik kabi qator dunyoqarashlar mavjudligini ko'ramiz. Bular sof nazariy-falsafiy masalalar bo'lib, ular tug'risida «Olam va odam», «Dunyoni falsafiy tushunish» bo'limlarida maxsus to'xtalib o'tamiz.

**Falsafiy dunyoqarash borliq haqidagi ilmiy qarashlar tizimining o'z-o'zicha shakllangan (mexanik) yig'indisi emas, balki ularning umumiy qonuniyatlar asosidagi tizimidir.**

1. **Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, chunki** u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks etgiradi.

2. **Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili** jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va o'zluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. **Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili** har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur etadi.

4. **Falsafiy dunyoqarashning universalligi** boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

5. **Falsafiy dunyoqarash maqsadga mavofiq bo'lib**, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

6. **Falsafiy dunyoqarashning, g'oyaviylik tamoyili**, uning asosida muayyan g'oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o'zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik o'zlikni anglash, millatimiz kelajagani belgilaydigan istiqbol g'oyasiga tayanishi bilan harakgerlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g'oyani e'tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. **Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri nazariya va amaliyot birligidir.** Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo'l kelishi bilan izohlanadi. SHuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilishi jarayonida uning usul va vositalari muhim ahamiyatga ega.

**Falsafiy dunyoqarashning vazifalari (funkstiyalari).** Falsafiy dunyoqarashning zikr etilgan tamoyillari, uning vazifalarini belgilab beradi. YA'ni, bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruhdagi maqsad-muddolaridan, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasidir. SHu nuqtai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko'zga tashlanadi.

Bu - falsafiy dunyo qarashning *baholash* vazifasini anglatada. YA'ni, inson, o'z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi.

Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, buning zamirida uning ijtimoiy hayoti, ya'ni ongli munosabatlari yotadi. Bunda inson yoki jamiyat munosabatlari dunyoqarashning o'zi tayanadigan omillarga (ideallariga) moslantiriladi. Orzu-havaslariga erishishning usullari, vositalari, amaliy yo'nalishlari belgilanadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me'yor, diniy qadriyat, huquqiy hujjat va siyosiy mehanizmlar kabi usul-vositalar orqali *boshqarish* vazifasini ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o'zicha nisbatan mustaqil bo'lgan har bir yo'nalishi o'ziga xos boshqarish usuliga ega bo'ladi. Masalan, insonni ezgulikka yo'naltirish uchun axloq uning aql-zakatiga; din - iymon-e'tiqodiga; huquq - qonunlarga, jazo idoralariga; siyosat-davlat funkstiyalariga tayanadi va o'ziga xos ta'sir yo'nalishlariga ega bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini *nazorat qilish* vazifasi ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidan ko'rinishi nazarda tutiladi. Masalan, o'zbek xalqining tarixiy rivojlaniish va ma'naviy hayot tarzida mahalla ijtimoiy nazoratning muhim instituti tarzida faoliyat ko'rsatgan.

Masalan, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsa, muayyan davrlarda falsafiy dunyoqarash inson tub manfaatlari bilan bog'liq bo'lganligini, millat kelajaggini belgilaydigan **ozodlik g'oyasi atrofida kishilarni birlashgiranini** ko'ramiz. Bu hol mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash davrida yaqqol namoyon bo'lgan. Ushbu g'oya (ozodlik falsafasi) dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida millatning turli tabaqalarini, e'tiqodi, iqtisodiy ahvoli va siyosiy mavqeidan qat'i nazar, birlashtirgan va umumiy kurashga safarbar qilgan.

Binobarin, falsafiy dunyoqarashning *tarbiyaviy* vazifasizni yuqorida zikr egilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu - kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag'rikenglik, murosa, qanday ziddiyatlarni madaniy yo'l bilan hal qilish, kelajak va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

#### **MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR:**

1. «Falsafa» atamasining mohiyati nimadan iborat
2. Dunyoqarash nima?
3. Dunyoqarashning tarixiy tiplari nimalardan iborat?
4. Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Falsafaning baxs mavzusi nima.
6. Falsafaning fan sifatida qanday funktsiya va vazifalarni bajaradi.
7. Falsafa fan sifatida nimani o'rganadi?.
8. Falsafa jamiyat xayotida qanday o'rin tutadi?
9. Falsafa va boshqa fanlarning o'zaro bog'likligi qanday?
10. Falsafaning umuminsoniyiligini qanday tushunasiz.

## MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLAR:

### 1. Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tushuntiradi?

1. Aql va bilimlarda
2. E`tiqodda
3. Tuyg`ularda
4. Sezgilarda

### 2. XX asr nomarksistik falsafaning asosiy xususiyatlari?

1. Idealistik, diniy, irratsionallik, metafizik.
2. Idealistik, dialektik, irratsionallik.
3. Materialistik, dialektik, ratsionallik.
4. Muqobil yo`nalishlar, metafizikaning tiklanishi, dialektika, irratsionalizm, iloxiyot.

### 3. Falsafa atamasini birinchi bo`lib qaysi faylasuf o`z asarida qo`llagan?

1. Aristotel
2. Pifagor
3. Suqrot
4. Platon

### 4. Falsafada butun olamni moddiylikdan iborat deb tushunuvchi oqim.

1. Materializm
2. Metafizika.
3. Agnostitsizm.
4. Dualizm.

### 5. Dunyoqarash nima?

1. Bu sezgilar, tuyg`ular (emotssiyalar) tasavvurlar, obrazlar kayfiyatlar yordami bilan olamni anglashdir
2. Bu insonning qadriyati, yo`l-yo`riq ko`rsatadigan tizmidir
3. Bu bilimlar, baholar, prinsiplar majmuidir
4. Bu umumlashtirilgan bilimlardir

### 6. Falsafa predmetining mohiyati nimadan iborat?

1. Insonning olamga munosabati, uning olamda tutgan o`rni va roli haqida, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlari haqida bilimlar tizimini hosil qilish
2. Tabiatning barcha qonunlarini o`rganish
3. Asosan, jamiyat hayoti va taraqqiyot qonunlarini o`rganish
4. Tabiiy ilmiy bilimlarni tartibga solish

### 7. Falsafiy dunyoqarash tizimini shakllantirish va rivojlantirish nimalarga bog`liq?

1. Mamlakatimizda ijtimoiy siyosiy barqarorlik o`rnatish
2. Aholining siyosiy, iqtisodiy ma`naviy haq huquqlarini, qonuniy asosda kafolatlash
3. Jamiyatning barcha sohalarini demokratlashtirish va erkinlashtirish
4. Barcha javoblar to`g`ri

### 8. Falsafaning asosiy vazifalari

1. Tarbiyaviy, birlashtiruvchilik, biluvchilik
2. Metodologik, dunyoqarash, gnotsiologik
3. Tarbiyaviy, dunyoqarash, biluvchilik
4. Dunyoqarash, oldindan ko`rish, metodologik



### 9. Falsafa metodlari qaysilar?


1. Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika
2. Tarixiy, ob`ektiv, sub`ektiv
3. Doimiy, vaqtinchalik, mavsumiy
4. Analiz, induksiya, deduksiya

### 10. Falsafiy dunyoqarash tizimini shakllantirish va rivojlantirish nimalarga bog`liq?

1. Mamlakatimizda ijtimoiy siyosiy barqarorlik o`rnatish
2. Aholining siyosiy, iqtisodiy ma`naviy haq huquqlarini, qonuniy asosda kafolatlash
3. Jamiyatning barcha sohalarini demokratlashtirish va erkinlashtirish
4. Barcha javoblar to`g`ri.

## MAVZU BO'YICHA TAQDIMOTLAR







**falsafa fanida o'rg'aniladig'an asosiy bo'limlarga teg'ishli masalalar:**

- borliqning' mohiyati va tashkil topishi;
- materiya (substansiya), uning' ko'rinishlari;
- Ong', uning' kelib chiqishi va tabiati;
- inson, uning' mohiyati va mavjudlig'i;
- jamiyat;
- tabiat;
- tsivilizatsiya va madaniyat;
- ekolog'iya, tiriklik muammosi;
- bilimning' xususiyati;
- falsafa kateg'oriyalari;
- harakat;
- dialektika va uning' qonuniyatlari









### **mifolog'iya dunyoqarash sifatida**

**mif – bu turli xalqlarning' dunyoning' kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning' ishlari haqidag'i tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimg'a soling'an dunyoqarashdir.**

**miflar javob bermokchi bo'lg'an asosiy savollar**

• Olamning', Erning' va insonning' paydo bulishi;

• tabiat hodisalarini tushuntirish;

• insonning' hayoti, taqdiri va o'limi; inson faoliyati va uning' erishg'an yutuklari;

**mif xususiyatlari**

**tabiatni insoniylashtirish;**

• fantastik xudolarning' borlig'i, ularning' muloqoti, inson bilan alokada bulishi;

miflarning' konkret hayotiy masalani echishg'a karatilg'ani (xujalik, ofatlardan asrash va b. d.);

### **mifolog'ik tafakkurning' o'zig'a xos xususiyatlari**

bu oddiy rivoyat, biror bir voqea haqidag'i hikoya emas, balki og'zaki matnning' arxaik ong'dag'i voqea-hodisalarig'a, insong'a va u yashayotg'an dunyog'a ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatidag'i in'ikos.

insoniyat tarixining' ilk bosqichlarida odamlar xulq-atvori va o'zaro munosabatlarini tartibg'a solish funksiyasini bajarg'an. chunki, unda axloqiy qarashlar, insonning' borliqqa estetik munosabati o'z ifodasini topg'an.

## din dunyoqarash sifatida

din – dunyokarashning' shakli bulib, inson hayoti va olamg'a ta'sir kiluvchi fantastik, g'ayritabiiy kuchlar borlig'ig'a ishonishg'a asoslang'an. diniy dunyoqarash olamni hissiy, emotsional (ratsional emas) qabul kilish shakli bilan belg'ilanadi. din miflar ko'rib chikkan savollarni ko'rib chikadi.

Asosiy dunyo dinlari

- xristianlik;
- islom;
- buddizm.

ko'p tarkalg'an dinlar

- sintoizm;
- induizm;
- iudaizm.

23

*muayyan e'tiqod din deb atalishi uchun uch asosiy xususiyatg'a eg'a bo'lishi lozim*

birinchisi

g'ayritabiiy iloh (yoki ilohlar) haqidag'i tasavvurning mavjudlig'i. har bir dinda topinish ob'ekti – Xudo bo'lishi shart hisoblanadi.

mavjud dinlardag'i Xudo haqidag'i tasavvurlarni shartli ravishda ikkig'a bo'lish mumkin.

**trAnstsEndEnt**

insonlar olamidani tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo'lmag'an, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi

**immAnEnt**

tabiatning' bir bo'lag'i sifatida tasavvur qiling'an, insonlarga o'xshab ketadig'an, biroq g'ayrioddiy yaratuvchilik, buzg'unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga eg'a bo'lg'an Xudolar kiradi

Falsafiy dunyoqarashning'  
**mifolog'ik** va diniy dunyoqarashdan  
asosiy farqi:

Ag'ar mifolog'ik va diniy dunyoqarashda  
e'tiqod va tuyg'ularg'a tayanilg'an bo'lsa,  
**falsafiy dunyoqarashda**  
aql va bilimlarga tayaniladi.


49

### **Falsafa dunyoqarash sifatida**

Falsafa – o'zig'a xos ilmiy-nazariy dunyokarash turi.  
dunyokarashning' eng' yukori pog'onasi va turi, ratsionallik,  
sistemalilik, mantik va nazariy shakli borlig'i bilan ajralib turadi.

falsafaning' dunyokarash  
sifatidag'i evolyutsiyasi etaplari

- **Kosmotsentrizm** – falsafiy dunyokarash, uning' asosida olamni, tabiat hodisalarni tashqi kuchlar–koinot (kosmos)- qudrati va cheksizlig'i orqali tushuntirish, ung'a ko'ra butun borliq koinot va kosmik tsikllarg'a bog'lik (bu falsafa qadimg'i hindiston, Xitoy, va kadimg'i g'retsiyag'a xos).
- **G'eotsentrizm** – falsafiy dunyoqarashning' turi bo'lib, uning' asosida butun borlikni tushuntirib bo'lmaydig'an, g'ayritabiiy kuch-Xudoning' hokimiyati orkali tushuntirish (o'rta asrlarda Evropada tarqalg'an).
- **ANTROPOTSENTRIZM** – falsafiy dunyoqarashning' turi, uning' markazida inson masalasi turadi (renessans davridag'i Evropa, yang'i va eng' yang'i davrlar, hozirg'i zamon falsafiy maktablari).



## 2-MAVZU: BORLIQ – FALSAFASI (ONTOLOGIYA)

Reja:

1. Ontologiya borliq haqidagi ta'limot.
2. Falsafiy qonunlar.
3. Borliqning mavjudlik shakllari: harakat, fazo, vaqt.

**Tayanch tushunchalar:** olam, odam, monizm, dualizm, idealizm, materializm, borliq, yo'qlik, materiya, harakat, fazo, vaqt, substanstiya.

**1. Borliq tushunchasi.** Faylasuflar qadim zamonlardan buyon «borliq» va «yo'qlik» haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nimaga? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'ringani bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo'q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq - ob'ektiv reallikning qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o'y-xayollarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar ob'ektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.

Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi — **ontologiya** deb ataladi. (Bu tushunchani **falsafada birinchi bor X. Volf qo'llagan**). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

**Yo'qlik** hech nima demakdir. Hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo'qlikdir. Bu ma'noda yo'qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasi ham yo'qlikdir. Borliq yo'qlikdan yo'qlikkacha bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qlikni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q.

Siz bilan biz yashayotgan shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi, butun go'zalligi bilan yagona olamni tashkil etadi. Olam tushunchasi, eng avvalo, olam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Agar odam bo'lmaganida edi, bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo'lmas edi. Demak, olam odam bilan mazmundordir. Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Hech narsasi yo'q olam yo'qlikdir. U mavhum tushuncha, ya'ni abstrakstiyadir.

Olam asosida yotuvchi to'rt unurni: havoni, suvni, tuproqni va olovni muqaddaslashtirish singari g'oyalar vujudga keldi hamda, olam to'g'risidagi sodda kosmologik qarashlar paydo bo'lgan. Odamning tirikchiligini ta'minlovchi narsalarni odam uchun, uning yashashi uchun xudo tomonidan yaratilgan ne'matlar deb bildi. Bunday qarashdan olam odam uchun yaratilgan, degan ma'no kelib chiqadi. Aslida qanday? Bu falsafiy muammodir.

Odam hayvonlardek tabiatdagi bor narsalardan oziqlanish bilangina chegaralanib qolmasdan, ularni o'ziga moslashtirishga, sovuq bo'lsa - isitishga, xom bo'lsa - pishirishga, issiq bo'lsa - sovutishga intiladi. Olamni odam o'ziga, o'z ehtiyojlariga moslashtirishga intilib kelgan. SHu tarzda odam ham, olam ham takomillashib, er yuzi o'ta "xonakilashtirilgan" olamga aylangan. Odamzod va hayvonot olami, o'simlik va hasharotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy olam va shu singari boshqa ko'plab tushunchalar bor. Ular dunyoda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar nomi bilan ataladi.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni birlashtiruvchi shunday bir umumlashtiruvchi tushuncha ham borki, u obektiv olamning mazmunini ifoda etadi. Bunday tasavvurlar butun fan tarixi mobaynida rivojlanib kelgan. Bu umumlashtiruvchi tushuncha, narsalarning asosida nima yotadi, degan nuqtai nazardan kelib chiqib, substanstiya (lotincha, substantia - nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat, degan ma'noni beradi) deb ataldi.

**Substanstiya** - muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma - xil ko'rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo'luvchi mohiyatdir. Shuningdek, olamning asosida ham moddiy jism yoki materiya, ham g'oya yoki ruh yotadi deb hisoblovchi faylasuflardualistlar (dualizm lotincha, dualis - ikkilangan degan tushunchani anglatadi) deb

hisoblanadi. Olamning asosida substansiyalar yotadi, deb hisoblovchilarni esa plyuralizm (lotincha pluralis ko'pchilik so'zidan olingan) tarafdorlari deb atashadi.

Olamni anglash to'g'risida turlicha, hatto bir – biriga qarama – qarshi qarashlar mavjud. Bunday qarashlar odamlarning olamga o'z o'lchovlari bilan qarashlari oqibatida paydo bo'ladi. Birov uchun olam yaxshi va yomon, oppoq va qora ranglardan tashkil topgan, boshqa ranglarning bo'lishini u tasavvuriga ham sig'dira olmasligi mumkin. Ular oq bilan qora oralig'ida oqimtirroq yoki qoraroq ranglar ham bo'lishi mumkinligiga e'tibor qilishadi.

Olam tushunchasi keng qamrovli va keng yo'nalishli tushuncha bo'lib, ma'lum ma'noda voqelikka tizimli, ya'ni sistemali yondashishni talab qiladi. SHu nuqtai nazardan olam tushunchasi nisbiy mohiyatga ega. ba'zi kishilar olam deganda, barcha narsalarni qamrab oluvchi universal sistemani tushunadi. Bu ma'noda olam kosmologik koinot tushunchasiga mos keladi.

**Diniy – kosmologik qarashlarda olam** ilohiy qudrat kuchi bilan yaratilgan, deb talqin etiladi. Bu olamning vaqtda boshlanishi mavjudligiga, ya'ni uning chekli ekanligiga ishoradir. Islom dinidagi kosmologik qarashlarda o'n sakkiz ming olam haqida gapiriladi va mazkur qarash bo'yicha biz yashayotgan moddiy olamdan tashqari, undan mustaqil bo'lgan ko'plab boshqa olamlar ham mavjuddir, deyiladi.

**Hozirgi zamon kosmologiyasida** ham fanga asoslangan bir qancha konstepstiyalarda olam o'tkinchi, tabiiy ravishda paydo bo'lgan, degan g'oya ilgari suriladi. Angliyalik olim Stiven Loking "Olam vujudga kelmasdan ilgari nima bo'lgan?" degan savolning mantiqsizligini, vaqtning faqatgina kelajakka yo'nalgan oqimini ifodalovchi modeli vositasida asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, bu shimoliy qutb nuqtasidan turib qaraganda, hamma nuqtalar faqat janubga olib boradigan holatni eslatadi. Bu olamning boshlang'ich holatidir. Vaqtning kelajakka olib boruvchi yo'nalishigina mavjud bo'lgan holati olamning boshlanishidir. Bunda faqat kelajak mavjud.

**Olam haqidagi diniy tasavvurlar** uning kelajagi, yaratilishi yoki o'tmishiga oid murakkab masalalarni, asosan, ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin etadi. Dinda olamni "bu dunyo" – o'tkinchi olam va "narigi dunyo" – abadiy olamga ajratib tushuntirishadi. Bu dunyodagi mashaqqatlari evaziga odam narigi dunyoda rohat – farog'atga muyassar bo'ladi, degan g'oyaga asoslaniladi.

**Fan olam to'g'risida** o'ziga xos fikr yuritadi. Unda olamga oid murakkab masalalarni amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga uriniladi. Mavjud ilmiy mantiq doirasidan chetga chiquvchi hodisalar esa izohlanmaydi. Ayrim ajoyibot hodisalarining fan fan tadqiqot ob'ektiga kiritilmaganining sababi ana shunda. Falsafadagi olam tushunchasi kosmologiyadagi, dindagi va boshqa bilim sohalaridagi olam tushunchalariga nisbatan boyroq, sarmazmunroq va kengroqdir.

Olamning namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Faqat moddiy jismlarigina o'ziga qamrab oluvchi olamni moddiy olam deyishadi. Ayrim kishilar uni jismoniy, ya'ni fizik olam deb atashadi. Odamning ma'naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamni ma'naviy olam deyishadi. Aynan shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo'lgan olam aktual olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo'lish imkoniyati bor va bo'lishi mumkin bo'lgan olam potentsial olam deyiladi.

Olamning mavjudligi shubhasiz bo'lgan va barcha e'tirof etadigan qismi real olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo'lishi ehtimoli bo'lgan olam virtual olam deyiladi (virtual so'zi lotincha virtualis – ehtimoldagi degan ma'noni beradi). Aniq ma'lum bo'lgan olam konkret olam deyiladi, hayoldagi, tasavvurdagi olam abstrakt olam deyiladi. Odamning kundalik hayotidagi hammaga ma'lum bo'lgan, tan olingan hayoti real olamga mansub bo'lsa, uning xayoliy rejaları virtual olamga, uning o'zi va atrofdagilar konkret olamga, kelajakka yo'naltirilgan orzu-umidlar abstrakt olamga mansubdir. Odam o'z rejalarini real olamga asoslanib tuzsa, potentsial olamning konkret reallikka aylanish ehtimolligi oshadi.

Odamlar jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, faoliyatlari, o'y – xayollari, idnallari, maqsad va maslaklari bilan birgalikda ijtimoiy olamni tashkil etishadi. Individual olam, ayni paytda tashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks ettiradi, o'zida ifodalaydi.

**Borliq haqidagi konstepstiyalar.** Tarixdan ma'lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha

g'oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zardo'shtiylik ta'limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alangalanib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkin bor bo'ladi, insonning bilimi qancha keng bo'lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi dunyoning atomist olimi Demokrit borliq atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo'lmagan narsa yo'qlidir.

**Islom ta'limotida esa borliq** bu ilohiy voqelikdir. Ya'ni u Olloh yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta'limotlari bo'lgan.

Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta'limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy fikricha, ilk borliq azaliy Ollohning o'zidir. Beruniy fikricha, borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir. Evropada o'tgan olimlar David Yum va Jorj Berkli borliqni sezgilarimiz majmuasi deb talqin etishgan.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo'lib o'ziga butun mavjudlikni, uning o'tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo'qlik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabiyotlarda borliqni ob'ektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o'ziga ob'ektiv va sub'ektiv reallikni, mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va kelajakni, o'limni va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

**Borliq va mavjudlik.** Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y-xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta'rifiga faqat ob'ektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan jismoniy mohiyatga ega bo'lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potentsial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan tashqarida qoladi.

Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstrakstiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat ob'ektiv reallikni, balki sub'ektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An'anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borlig'i kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. **Tabiat borlig'i** odatda tabiatdagi narsalar (jismlar), jarayonlar, holatlar borlig'i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo'linadi: azaliy tabiat borlig'i (yoki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo'lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i («ikkinchi tabiat» borlig'i, ya'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig'i esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- **inson borlig'i** (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borlig'i);
- **ma'naviy borliq** (individuallashtirilgan va ob'ektivlashtirilgan ma'naviy borliq);
- **sostial borliq** (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

**Borliqning moddiy shakli materiya** o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari u tafakkurni ham, olamda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir.

Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir yo'nalishi moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish yo'li bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, substansiyani aniqlash yo'lidir. Ikkinchi yo'l esa — moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi «qurilish elementlarini»- substratni axtarish yo'li. Uchinchi yo'l — hamma narsaning vujudga keltiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ya'ni pramateriyani axtarish yo'li. Mana shu yo'l haqida maxsus to'xtab o'taylik.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy ob'ektlarni, butun ob'ektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning maxsuli va abstrakstiyasidir» deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy ob'ektlarga xos eng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.

XX asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning ob'ektiv olam hakidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada, tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishining imkoni bo'lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqotlar olib bora boshladi.

**Borliqning atributlari.** Muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari bo'ladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir. «lar: harakat, fazo, vaqt, in'ikos, ong va boshqalar. Borliq o'zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Endi borliqning atributlari, ya'ni ajralmas tub xususiyatlari haqida to'xtab o'taylik.

**Harakat.** Borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling, qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo'lmaganida edi, yorug'lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo'lar edi, ya'ni biz uni ko'rmagan bo'lar edik. Shuningdek, bu jismning yaxlitligini saqlab turgan molekularlar, atomlar, elementar zarrachalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar ham bo'lmasdi. Natijada bu jismning strukturaviy birligiga putur etgan bo'lar edi. Tevarak-atrofimizdagi predmetlar va hodisalar harakat tufayli o'zining muayyan tartibini va birligini saqlab turadi, shu tufayli, o'sish, ulg'ayish, ravnaq topish, rivojlanish mavjuddir.

Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o'rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomondan esa, ulardagi o'zgarishlar sifatida sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ham falsafaning harakat bu umuman har qanday o'zgarishdir, deyilgan ta'rifi juda o'rnlidir. Harakatning manbai haqida gap ketganda, ana shu o'zgarishlarning asosida yotuvchi o'zaro ta'sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Demak, har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o'zaro ta'sirlar ekan, har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklari ta'minlaydi.

**Harakatning turlari** haqidagi mulohaza, asosan, o'zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. O'zgarishlar oddiy fazovi y siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o'zgarishlargacha takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtai nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o'zgarishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan sifatiiy farq qiladi.

Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik o'zgarishlar bilan ijtimoiy o'zgarishlarni aslo taqqoslab bo'lmaydi. To'g'ri, bu o'zgarishlar uchun umumiy bo'lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Lekin hamma o'zgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo'lmaydi. Masalan, erning Quyosh atrofidagi, Oying er atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko'rinishi deyishimiz mumkin. Lekin er bag'rida ro'y berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, er sirtidagi biosferaning yashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo'lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, u bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar ham shu qadar murakkab bo'ladi. Materiyaning tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.



O'zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. **Rivojlanish** bu — muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir.

**Ijtimoiy harakat** bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarining faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o'ta murakkabdir.

Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. **Fazo** narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, **vaqt** hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma'lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko'lamga, hajmga ega. Fazo — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt esa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha substansial va relyastion yondashishlar mavjud. Substansial konstepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo'shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o'ziga narsalarni sig'diruvchi substansiya. Hech narsasi yo'q, ya'ni narsalar solinmagan fazo ham bo'lishi mumkin, deyiladi. Relyastion konstepsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o'lchamga ega, deyishadi.

**Fazo va vaqtning xususiyatlari.** Fazo va vaqt borliq miqdoriy va sifatiy jihatlarni ifodalashiga qarab, metrik va topologik xususiyatlarga ega. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o'lchanadigan, ko'zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko'lam, bir jinslilik, izotropik (anizotropik) kabi xususiyatlar kiradi. Fazo (vaqt) ning metrik o'zgarishlari borliq strukturasi jiddiy o'zgartira olmaydi, topologik o'zgarishlar esa borliqning sifatiy o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Masalan, bir bog'langan sistemaning ko'p bog'langan sistemaga o'tishi fazo topologiyasini tubdan o'zgartiradi, ya'ni fazoning ikki nuqtasini tutashtiruvchi turlicha yo'llar paydo bo'ladi. Bunday fazoda katta idishning ichiga kichik idishni sig'dirish mumkin bo'ladi. O'lcham darajasi ko'p bo'lgan sistema o'lchov darajasi kam bo'lgan sistemaga nisbatan ko'rinmas va murakkab bo'ladi. SHuningdek, fazo va vaqtning metrik xususiyatlarini kuchli o'zgarishi topologik xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fazoning egrilik darajasi kuchli o'zgarsa, bir bog'langan fazo ko'p bog'langan fazoga aylanishi mumkin.

#### **MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Borliqning mavjudlik shakli nimalardan iborat?
2. Sub`ektiv va ob`ektiv borliq, ularning farqi?
3. Borliq va materiyaning mavjudligida harakat, fazo va vaqt kategoriyalarining nima ahamiyati bor?
4. Borliq, substantsiya va materiya tushunchalarining mohiyati nimadan iborat?
5. Harakat nima uchun materiyaning mavjudlik shakli deyiladi?

#### **MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR:**

##### **1. Materiya ob`ektiv reallik va substantsiya sifatidagi asosiy belgisini ko`rsating.**

1. Bilish mumkin emasligi.
2. Bilish mumkinligi.
3. Ongga bog'liq bo'lmagan holda mavjudlik va ongga nisbatan birlamchilik.
4. Sezgilarga nisbatan birlamchilik.

## **2. Harakat bu...**

1. Materiyaning yashash usuli.
2. Progress.
3. Regress.
4. Rivojlanish.

## **3. Ong nima?**

1. Moddiy borliq.
2. Ob`ektiv olamning inson miyasidagi aksi.
3. Miyaning xususiyati.
4. To`g`ri javob yo`q.

## **4. Insonda tabiiylikni ifodalovchi tushunchalar qatorini ko`rsating.**

1. Ong, Axloq, madaniyat.
2. Tug`ilish, bolalik, qarilik.
3. Ishlab chiqarish, nutq, munosobat.
4. YUqoridagilarni barchasi.

## **5. Borliqning ikki asosiy shaklini ko`rsating.**

1. Ma`naviy borliq, narsalar va jarayonlar borligi.
2. Inson borligi va narsalar borligi.
3. Inson borligi va ijtimoiy borliq.
4. Narsalar va jarayonlar borligi.

## **6. Inson borlig`i o`z ichiga nimalarni oladi.**

1. Ijtimoiy borliq va narsalar dunyosida inson borligi.
2. Narsalar dunyosida inson borlig`i va maxsus inson borlig`i.
3. Jamiyatda aloxida inson borlig`i va maxsus inson borlig`i.
4. Jamiyatda aloxida inson borlig`i.

## **7. Borliqning asosiy kategoriyasi nima?**

1. "Makon" va "Zamon"
2. "Borliq" va "Yo`qlik"
3. "Sifat" va "Miqdor"
4. To`g`ri javob yo`q.

## **8. Hamma narsaning asosiga faqat bir narsani olib qarovchi falsafiy ta`limot.**

1. Materializm.
2. Idealizm
3. Monizm.
4. Dualizm.

## **9. Klassik falsafada substansiya sifatida asosan nima qabul qilingan.**

1. Inson borligi.
2. Bir butunlik va Xudo.
3. Materiya va ong.
4. Umuman barcha borliq.


## **10. N.Kuzanskiy falsafasida paradokslar.**


1. Xato bilishni fosh qilish kuroli.
2. Bilishni inkor qilish vositasi.
3. CHin bilim yaratish vositasi.
4. Xammasi to`g`ri.


## MAVZU BO'YICHA TAQDIMOTLAR

Faylasuflar qadim zamonlardan buyon «borliq» va «yo'qlik» haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nima Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'ringani bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo'q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y-xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

### Olamning xilma-xilligi







Fazo va vaqt o'zining quyidari xsysiyatiga ega:

- ❖ Fazo uch o'lchovli: uzunligi, eni va balandligi.
- ❖ Vaqt bir o'lchovli: o'tmishdan bugungi kun orqali kelajakka tomon yo'nalishi. U qaytarilmasdir, takrorlanmasdir.

### 3-MAVZU: RIVOJLANISH FALSAFASI.

Reja:

1. Rivojlanish kontseptsiyasi
2. Falsafiy qonunlar.
3. Kategoriya tushunchasi va uning turlari.

**Tayanch tushunchalar:** rivojlanish, o'zgarish, takrorlanish, miqdor, sifat, qarama – qarshilik, inkor, inkorni inkor, umumiylik, yakka, xususiylik, butun, qism, sistema, kategoriya.

Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o'rtasida turli bahs, munozara, tortishuvlarga sabab bo'lgan. Chunki ular to'g'risida aniq bilimga ega bo'lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya'ni eng mayda zarrachalardan tortib to er, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Ular o'rtasida abadiy o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o'zgarish ham yuz bermaydi.

**Bog'lanishlarning turlari.** Biz narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo'ladi, deymiz. Albatta, olamdagi har qanday bog'lanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bog'lanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bog'lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan va hokazo bog'lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog'liq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o'zaro bog'lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o'zgarish sodir bo'ladi. Lekin, barcha o'zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo'lishi turli darajada bo'lganligi sababli, o'zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o'zgarishini, ya'ni ulg'ayishini yoki bo'lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga o'tishdagi o'zgarishlarni oddiy ko'z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, er qa'ridagi ichki jarayonlarni ma'lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana shu sababdan ham odamlar zilzilalar, vulqonlar otilishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g'aflatda qolib kelmoqdalar. YA'ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug'lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'z ko'radi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo'ladi. ulardagi o'zaro bog'liqlikni ham oson ko'rish, ilg'ash mumkin. Ana shunday oson ko'rish va ilg'ash mumkin bo'lgan, ochiq-oydin ro'y beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan «zohiriylik» tushunchasi, mohiyatini ilg'ash qiyin bo'lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar va o'zgarishlarga nisbatan «botiniylik» tushunchasi qo'llaniladi. O'rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e'tibor berilgan.

**Qonun tushunchasi.** Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o'rganganimizda ana shunday holni idrok etganmiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi.

Xo'sh, qonun o'zi nimag' U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga egag' Qonunni bilmasdan, o'rganmasdan turib yashash mumkinmig' Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo

qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h. k. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarining uchinchi ham qonun to'g'risida bo'lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. Yuqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo'lgan xossa, xususiyatlar bormig'

Qancha ko'p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin o'tmishda iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil s'ezd, plenum, konferenstiya qarorlari asosida eksperimentlar o'tkazib, barcha uchun farovon hayot — kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo'lishganini va bunday siyosat qanday oqibatlariga olib kelgani barchaga ma'lum.

Endi shunday savol: **Nima uchun inson qonunni bilishi kerak?** Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo'lqop va h. k.) sotib olishadi, o'tin yoki ko'mir g'amlab qo'yishadi va h. k. Yoki yana bir, jo'nroq bo'lsa-da, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo'lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I. Nyuton kashf qilgan «Butun olam tortishish qonuni»ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o'z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo'lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nimag' erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni ob'ektiv tarzda amalga oshish, o'z-o'zidan namoyon bo'lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o'zingizning faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo'lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo'ymaysiz.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga qo'yidagicha ta'rif berish mumkin: **Qonun** olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Endi qonunning belgilariga to'xtalamiz:

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;

- qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi.

- qonun narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2001 yili qishdan keyin bahor kelib, 2002 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. CHunki, bu tabiat qonuni — fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

**Tabiat qonunlarining** yana bir eng muhim xususiyati — u ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo'q qilish mumkin emas. CHunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar ob'ektiv xususiyatga ega.

Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo'lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat va h. k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo'lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo'lolmaydi.

**Ayniyat tushunchasi** narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshash tomonlarni ifodalaydi. SHu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo'lgan narsaning o'zi yo'q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg xam bir-biridan farq qiluvchi ba'zi jihatlarga ega. Hech bo'lmaganda, ular bir-biridan makondagi o'rni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o'xshash bo'lgan

Hasan va Husanlarda ham juda ko'p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fe'l-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo'lishi, ya'ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, **tafovut** narsa — hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

**Qarama-qarshilik** deb esa, narsa, voqea-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o'zaro munosabatiga aytiladi.

Qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatni **ziddiyat** degan tushuncha ifodalaydi. Ko'p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me'yoriy o'zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma'noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo'lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

Sobiq Ittifoqning mafkurasi darajasiga ko'tarilgan marksizmda asosan ziddiyatga ko'proq e'tibor berilar edi. U mutlaqlashtiril va jamiyatga ko'chirilib, asosan, antogonistik ziddiyatlar to'g'risida gapirilar va ularning echilishi insoniyatni baxtli hayotga olib boradi, deya xayol qilinar edi. Holbuki, insoniyat paydo bo'libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'lib kelmoqda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo'lgan, kishilarning xilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g'oyalari uyg'unlashgan, barqarorlik ustuvor bo'lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmoqda.

**Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqeligi** tarzida ham namoyon bo'ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. **Sifat** — narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha ko'rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarni bog'liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligi yoki o'xshamasligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi, muqarrar sur'atda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir etavermaydi, ayrim xossalarni narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. **Miqdor** predmetning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o'z solishtirma og'irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidagina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo'lgan, ya'ni sifati bo'lib miqdori, miqdori bo'lib aksincha, sifati bo'lmagan narsaning o'zi yo'q.

Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi **me'yoriy** tushunchasida ifodalanadi. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi sodir bo'ladi. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta'sir etmaydi. Miqdoriy o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo'qolib, yangi sifat yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tishi bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi:

- birinchidan, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish



faqat ma'lum bir davrda boshlanadi;

- ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo'qotmaydi, keyin esa bug'ga aylanadi, sifatini o'zgartiradi. Demak, sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;

- uchinchidan, miqdor o'zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko'p hollarda sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to'satdan sodir bo'ladi;

- to'rtinchidan, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

**Sakrash nima?** Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o'z harakteriga ko'ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo'lib, ular birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o'ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo'q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o'rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo'lish mumkin: birinchisi — portlash yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadrijiy yo'l bilan bo'ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o'tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo'qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to'planishi natijasida yangi sifat paydo bo'ladi.

SHunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

- birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan ob'ektiv va qonuniy jarayondir;

- ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tishidir;

- uchinchidan, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

- to'rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog'liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o'tish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o'zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi orqali sodir bo'ladigan jarayonlardan iborat. Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bunday eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida **o'z-o'zini inkor etish tamoyili** nihoyatda muhim. Bunda **vorislik** - eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi **inkorni inkor qonunining** mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

**Inkor** tushunchasi kundalik ongda «yo'q», so'zi bilan qo'shib ketadi, inkor qilmoq — «yo'q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri «yo'q» degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

**Inkorni dialektik tushunish** yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning

muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamq lozim. Falsafaning bu ta'limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko'ra, har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdur. Demak, har bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi - avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, ya'ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba'zi belgilar takrorlanadi. Masalan, don o'simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o'simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to'g'ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo'lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir yangi o'rami oldingi o'ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi bog'lanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg'or bo'lmasin, u yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki eskining qobig'ida asta-sekin shakllanadi. SHuning uchun ham ko'p hollarda eskidan yangiga o'tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o'rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Har qanday fanning o'ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo'ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og'irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda ko'p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan bog'langan. Masalan, fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro va hokazo. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin. Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni o'rganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur. An'anaviy tavsiflarga ko'ra, «Qonun» falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o'zaro bog'lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini ko'rib o'tdik. Endi kategoriyalarning mohiyati va mazmuni bilan qisqa tanishaylik.

**Kategoriya o'zi nima?** Bu so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, **Arastu ta'riflab bergan**. U o'zining «**Kategoriyalar**» degan asarida ularni ob'ektiv voqelikning umumlashgan in'kosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o'rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik Arastu «**Metafizika**» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o'rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e'tirof qilinadi. Ma'lumki, ungacha Yunonistonda ko'proq politika va ritorika (notiqlik san'ati) fanlari sistemalashgan, ya'ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o'sha davrda qo'shinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ammo o'sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri

Suqrotni ham ana shunday, hali go'yoki shakllanmagan fan bilan shug'ullangani va yoshlarni bu ilm yo'liga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga ko'targan. O'sha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novoqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Hegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borlik» (sifat, miqdor, me'yor), «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik), «tushuncha» (ob'ektiv, sub'ektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlagan.

**Alohidalik, xususiylik, umumiylik.** Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylik - olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa - hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir. Alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat «xususiylik» kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo'lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo'lish shaklidir.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlar, bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo'ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to'laqonli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Ya'ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat tarkibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo'nalishlarga asos bo'lgan. Bu madaniyat yo'nalishlari nisbatan mustaqil bo'lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendensiyasi umuminsoniyat stivilizastiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi.

Falsafaning bu kategoriyasi bilan «butun», «qism» «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud. YA'ni «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog'lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo'lsa, «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. SHu nuqtai nazardan, butunni - umumiylik, qismni yoki elementni - alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. SHuningdek, muayyan o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmui ham bo'lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni tarkibiy jihatdan «butun», «qism», element»larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo'lib, uning samaradorligini ta'minlaydigan zaruriy shartdir. SHunga ko'ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

**Sistema, struktura, element** falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. **Sistema - grekcha so'z bo'lib**, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi. Xususan, bu elementlarning funkstional faoliyatini, ahamiyatiga ko'ra

turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasiidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. YA'ni, insonning ob'ektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema — narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma'noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg'un bog'lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollari belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko'rinishlari, DNK yoki RNK larning o'zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan xolda, moddiy olamning ob'ektiv realligi tarzida mavjud bo'lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiiga ega bo'lgan sistemalaridir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura» ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko'rinishlari tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo'lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko'zga tashlanadi. YA'ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O'z navbatida, sistemani to'laligicha bilish, uning strukturaviy tuzilishidagi har bir elementning funkstional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Falsafa fanidagi an'anaviy tarzda yozilgan darsliklar, o'quv qo'lanmalaridan farqli o'laroq, bu kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa juft kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. CHunki, «mohiyat va hodisa», «mazmun va shakl», «sabab» va «qibat», «zaruriyat va tasodif», «imkoniyat va voqelik» kategoriyalarining mazmuni, yuqorida ko'rsatilgan «alohidalik», «xususiylik» «umumiylik», «butun», «qism», «struktura», «element», kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. SHuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. Lekin, buning uchun har bir kategoriyaning mazmunini alohida tahlil qilish zarur.

**«Mohiyat va hodisa»** kategoriyasini olib ko'raylik. Mohiyat-o'zida alohidalik, maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning bog'lanishi, aloqadorlik va munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Mohiyatni alohidalik, maxsuslik, umumiylik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashtirib o'rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, sub'ekt nazarida ahamiyatiga va funkstiyasiga ko'ra, asosiy va asosiy bo'lmagan, nisbatan barqaror yoki o'zgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida o'rnini almashtirib turishlarini e'tiborga olish zarur.

Narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat. Masalan, jamiyat ustqurmasining siyosiy elementi bo'lgan davlatning maqsadi va vazifasi, ularni amalga oshirish usul hamda vositalari mamlakat hududida yashayotgan kishilarning muayyan hayot sharoitlarini ta'minlashdan iborat bo'lib, uning mohiyatini tashkil qiladi. Shunga ko'ra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga, stivilizastiya kelajagiga bog'lab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega bo'ladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda o'zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondoshadi. Bu yondoshish sub'ektiv harakterga ega bo'lib, uning konkret ehtiyojlari va manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi. Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqog'ini qondirish, fizik uchun-agregat holati, elektr tokini o'tkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning N2O

kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun-tegirmon parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham o'zgarib turadi. Mohiyatdagi har qanday juz'iy o'zgarish ham, uning muqarrar o'zgartirgan hodisasida ifodalanadi. Masalan, suvning elektr tokini o'tkazish xususiyati, uning temperaturasi bog'liqligi aniqlangan. Agar biz suvning temperaturasi ma'lum darajada ko'tarsak, uning elektr tokini o'tkazish xususiyatini o'ldiradigan asboblardan bu o'zgarishlarni qayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokini o'tkazuvchanlik xususiyati yo'qolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bog'lanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa o'z xususiyatlariga ko'ra sistema, struktura va elementlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. SHuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda aniq tamoyillarga asoslanish lozim.

**Mazmun va shakl.** Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun - narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishi bo'lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa - sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o'rtasidagi bog'lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an'anaviy xarakterga ega. YA'ni, mazmunning o'zgarishi shaklning o'zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo'lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy bog'lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo'lish mumkin bo'lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo'lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juz'iy o'zgarish ham bir-biridagi o'zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo'lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. Ya'ni, suv bug' holatida chanqoqni qondirmaydi, o'simliklarni sug'orish uchun yaramaydi. Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog'lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, strukturaviy bog'lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. SHunga ko'ra, shaklni mazmunga nisbatan «ikkilamchi» deyish noo'rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e'tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning ob'ektiv xarakteriga putur etkaza olmasa ham, ularni baholashdagi sub'ektiv, muqobil qarashlarda o'z ifodasini topadi.

**Sabab va oqibat.** Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko'ra, ularning mazmuni va shakli o'zgarib turadi. O'z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o'rtasidagi strukturaviy bog'lanish konkret mazmunga ega bo'lib, unga mos mazmunlarda o'z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish, munosabatning xakteri muayyan sababga asoslanadi. YA'ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo'lishi, muayyan sabab oqibatidir. Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. SHunga ko'ra, sabab - biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo'lib hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo'lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bo'lmagan, muhim va muhim bo'lmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar

uchun sababligidadir. SHunga ko'ra, sababni bir vaqtning o'zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo'ladi. SHu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog'lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning istiqbollarini ham belgilab beradi. Hegel tili bilan aytganda, sabab-mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1) uning ob'ektiv xarakteri narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo'lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;

2) sababning konkretligi narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta'minlaydi;

3) sabab umumiy xarakterga ega bo'lib, hech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo'lmaydi;

4) sabab zaruriy bo'lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi;

5) sababning uzluksizligi, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog'lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog'liqligini xarakterlaydi.

**Zaruriyat va tasodif.** Ob'ektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat - narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa - zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir.

Shu nuqtai nazardan, zaruriyatni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. SHuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatdan kelib chiqadi hamda ob'ektiv sabablar tizimiga asoslanadi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi tarixiy ob'ektiv zaruriyatdir, uning «o'zbek modeli» asosida amalga oshirilishi zaruriyatning konkret namoyon bo'lishidir. Bunda tasodif «sub'ektivlashtirilgan» jarayon sifatida ko'zga tashlansa ham, ob'ektiv hodisadir. CHunki, O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, bozor munosabatlariga o'tishning xarakterini belgilab beradi. Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruriyatlar tasodiflar tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, zaruriyat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Zaruriyat va tasodif, kategoriyasiga boshqa kategoriyalar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan sub'ekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtai nazardan yondashiladigan bo'lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi. Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, ob'ektiv qonuniy xarakteri inkor etilmoqda. Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hech qanday imperiyaning abadiy bo'lmasligini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruriyatni ko'rib turibmiz.

### **MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Bog'lanishlarning turlari?
2. Qonun va Ayniyat tushunchalari nima?
3. tushunchasi ?
4. Qarama-qarshilik nima?
5. Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqeligi?
6. Sakrash, Inkor, Inkorni dialektik tushunish, Kategoriya nima?
7. Sistema, struktura, element, «Mohiyat va hodisa» kategoriyasi nima?
8. Mazmun va shakl, Sabab va oqibat, Zaruriyat va tasodif, Imkoniyat va voqeliklar?

## MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR:

### 1. Bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish mexanizmi bu...

1. Dialektik sakrash.
2. Inqilob.
3. evolyusiyasiya.
4. Progress.

### 2. O'tish harakatlariga ko'ra sakrash qanday bo'ladi.

1. Integral va differensial.
2. Evolyutsion va Revolyutsion.
3. Kerakli va keraksiz.
4. YAxshi va yomon.

### 3. Element va strukturaning dialektik birligi nimani tashkil qiladi.

1. Me`yor.
2. Qarama – Qarshiliklarning birligi.
3. Sistema.
4. Birlik

### 4. Bir voqealikni keltirib chiqaruvchi hodisalar majmui nima deyiladi.

1. Baxona.
2. Stimul.
3. Oqibat.
4. Sabab.

### 5. Rivojlanish mexanizmi masalasi qaysi qonunda ochiladi?

1. Qarama – Qarshiliklar birligi va kurashi.
2. Inkorni – inkor.
3. Sifat va miqdor uzgarishlarning bir – biriga o'tishi.
4. Determinizm printsiipi.

### 6. Olamni doimo harakatda va rivojlanishda deb targ'ib qiluvchi ta`limot.

1. ekalogik oqim.
2. Metafizika.
3. Dialektika.
4. Sofistika.

### 6. Olamni va borliqni faqat sub`ektning ongiga bog'liq degan ta`limotni ilgari suruvchi oqim.

1. Sub`ektiv idealizm.
2. Laotsizm.
3. Sufizm.
4. Kubroviya.

### 8. In`ikos nima?.

1. Bu xususiyat faqat insonga xos.
2. Bu xususiyat faqat tirik mavjudotlarga xosdir.
3. Bu xususiyat faqat materiyaga xos.
4. Bu xususiyat faqat inson va hayvonlarga xos.

### 9. Sababning natijasida kelib chiquvchi hodisa nima deyiladi.


1. Mos keluvchi uzgarishlar.
2. Tasodif.

3. Zaruriyat.
4. Oqibat.


**10. Materiya ob`ektiv reallik va substantsiya sifatidagi asosiy belgisini ko`rsating.**

1. Bilish mumkin emasligi.
2. Bilish mumkinligi.
3. Ongga bog`liq bo`lmagan holda mavjudlik va onga nisbatan birlamchilik.
4. Sezgilarga nisbatan birlamchilik.

**MAVZU BO`YICHA MATERIALLAR**







**qonun zaruriy munosobatdir** – chunki, tabiat va jamiyatda har qanday qonunga xos belgi zaruriylikdir

**qonun zaruriy munosobatdir** – ya'ni, agar qonun yuz bermoqchi bo'lsa tabiiy ravishda bu munosobatlar bir xil sharoitda doimiy va hamma joyda (umumiy) namoyon bo'ladi.

**qonun nisbiy barqaror munosobatdir** – ya'ni, tabiatdagi narsa va hodisalardagina emas, balki ijtimoiy hayotdagi voqealarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi

**qonun** – Ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning **zaruriy, umumiy, nisbiy** barqarorligini ifodalaydi

**sharoit** – voqeylikdagi narsa va hodisalar yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ob'ektiv omillar yig'indisi

**sharoitning o'zgarishi** bir qonunning boshqasi bilan almashinishi uning harakat doirasining kengayishi  
*Yoki torayishiga olib keladi*

Ayrim holatda ilgari mavjud bo'lgan **sharoitlar qulayroq bo'lmasada** eski qonun o'z harakatini davom ettiradi ammo uning ko'rinish doirasi chegaralangan bo'ladi

Ayrim holatda ilgari mavjud bo'lgan **sharoit anchayin qulay bo'lsa** qonunlarning amal qilishi uchun ham keng ufqlar ochiladi



## tabiat qonunlari



## jAmiyat qonunlari



## ijtimoiy qonunlar

miqdor o'zgarishlardan sifatga o'tishning mohiyati – *narsa va hodisalar sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li orqali sifat o'zgarishlarga olib keladi*



*sifat – narsalarning ichki muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligidir*

*miqdor – predmetning hajm, o'lchovi, ohirligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi*

miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi me'yor tushunchasini hosil qiladi

sakrash – bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilish.

sakrashlar:

o'zgarishning davom-  
lilikiga ko'ra  
(jadal, sust);

o'zgarish shakliga  
ko'ra (bir karra,  
ko'p karra);

o'zgarishning chuqurlik  
darajasiga ko'ra  
(qisman, to'liq);

o'zgarishning yo'nali-  
shiga ko'ra (progressiv,  
regressiv, yo'nalishsiz)  
farq qiladi.

11


**qarama-qarshiliklar birligi va kurashi –tabiatdagi narsa va hodisalarga mavjud bo'lgan tomonlar, xossalari va yo'nalishlar bir-birini inkor qiladi, bir vaqtning o'zida bir-birini taqozo qiladi.**

***bu qonunga muvofiq– har bir narsa bir – biri bilan uzviy aloqada va biri ikkinchisini istisno etuvchi qarama-qarshi tomonlarga ega***

***bu qonunga ko'ra – qarama-qarshi tomon va kuchlar o'rtasidagi kurash taraqqiyotning manbaini ifodalab, eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishiga olib keladi***

12

## Ziddiyatlar tasnifi



13

## Inkorni inkor qonuni

**inkorni inkor qonuni: yangilik doimo eskilikni inkor etadi va uning o'rnini egallaydi, ammo asta sekin o'zi ham eskiga aylanadi va yanada yangi bilan inkor etiladi.**

**Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'rin almashishi (tarixiy jarayonga qivilizatsion yondashuvda), urug' evolyutsiyasi (bolalar qisman ota-onalaridir, ammo yangi pog'onada) va x.k.**

rivojlanish yuqoriga va pastga qarab yo'nalishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur nuqtai nazar haqiqatga eng yaqindir: rivojlanish yuqoriga va pastga yo'nalishi mumkin, ammo umumiy yo'nalish yuqorigadir. Masalan, tarixiy jarayon, yuqoriga rivojlanib boradi, biroqtanazzullar bilan birga – rim imperiyasining gullab yashnashi uning tanazzulga uchrashi bilan o'rin almashadi, keyin Evropaning yuqoriga intiluvchi yangi rivojlanishi davom etaverdi (renessans, yangi davr va x.k.).

rivojlanish – faqat muqarrar jarayon, quyi shakllardan yuksaklariga o'tish, ya'ni yuksalib boruvchi rivojlanish

rivojlanish to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanmaydi, balki spiral ko'rinishiga ega, spiralning har yangi aylanasi eskisini takrorlaydi, lekin, yangi sifat bosqichida.

rivojlanish tartibsizdir va hech qanday yo'nalishga ega emas.

14

## INKORNI INKOR QONUNI

bu qonunning muhim ikki jihati mavjud:  
eskining o'rniga yangining kelishitabiy-  
tarixiy jarayon bo'lganligi uchun  
taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi  
(yangi eski bilan shunchaki chaki almashinmaydi,  
balki eskining bag'rida vujudga kelib, undan  
foydalanib qarortopadi).



yangi eski bilan *vorisiy* bog'liqdir(yangiga o'ti-  
layotganda eski butunlaytashlab yuborilmaydi,  
balki uning ijobiytomonlari saqlanib qoladi va  
rivojlanish davom ettiriladi). bu qonunufayli  
taraqqiyotto'g'ri chiziq shaklida emas, doira shaklida  
bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich nuqtaga  
yaqinlashadi. lekin nuqtalartutashmaydi,  
balki yuqori bosqichda spiral shaklga ega bo'ladi.




15

## KATEGORIYA

**(yunon. *kategoria* –ta'rif, mulohaza)  
– borliq hodisalari va unda hukm suruvchi  
munosabatlarning muhim,tipik  
mazmunini o'zida aks ettiradigan  
o'ta keng tushuncha.**

16



17



18

## mohiyat va hodisa:

*mohiyat – narsa va hodisaning ichki eng muhim o'zaro bog'lanishlarni bu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorligini ifodalaydi*

*hodisa – tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning qonuniy aloqadorligini ifodalaydi*

masalan: inson hayotining **mohiyati** uni sarmazmun o'tkazish, o'z oldiga qo'ygan maqsadi tomon intilishidan iborat bo'lsa, **hodisa** deganda ana shu maqsadga erishish uchun tanlangan yo'l, turli sa'y – harakatlar kiradi.

19

## imkoniyat va voqeylik

*imkoniyat – voqeylikning kurtak holatidagi ko'rinishi, hali yuzaga kelmagan voqeylikdir*

*voqeylik – real mavjud bo'lgan, yashab faoliyat kechirayotgan narsa va hodisadir*

har bir narsa va hodisa rivojlanish natijasida birdaniga bo'lmagan, dastlab imkoniyat davrini boshidan kechiradi

*zruriyat – muayyan sharoitda qat'iy ravishda kelib chiqadigan, o'z ichki bog'lanishlarga ko'ra kelib chiqishi muqarrar bo'lgan voqea yoki hodisaga aytiladi*

**zaruriyat vatasodif**

*tasodif – narsa va hodisalarning mohiyati bilan bog'liq bo'lmagantashqi nomuhim omillar bilan bog'liqligitufayli ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi hammumkin bo'lgan voqea va hodisaga aytiladi*

## FALSAFIY USLUBLAR

**EKLEKTIKA** – muhim va muhim bo'lmagan asosiy va ikkinchi darajali bog'lanishlar o'rtasidagi farqni hisobga olmaydigan narsalarning turli-tuman, ko'pincha qarama-qarshitomonlarini qo'shish uslubidir

**DIALEKTIKA** – (bahs va suhbatlashish) – olamdagi narsa va hodisalarning doimo o'zgarishda o'zaro aloqadorlik va bag'rikenglikda, taraqqiyot va rivojlanishda debtushunish

**METAFIZIKA** – olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularni muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohidaturgan holatiga diqqatni ko'proq qaratadigan usuldir

**SOFISTIKA** – ataylab xilma-xil ma'noda ega bo'lgantushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatdan yiroq ko'chma ma'no-mazmunga erishish.

**SINERGETIKA** – olamning o'z-o'zinitashkil etish, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyantizimlardan iborat sababli bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tiqod etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmui.



#### 4-MAVZU: BILISH NAZARIYASI:

Reja:

1. Bilish va uning turlari.
2. Haqiqatning asosiy shakllari va kontsepsiyalar
3. Amaliyotning predmeti va maqsadi.

**Tayanch tushunchalar:** bilish, hissiy bilish, aqliy bilish, mantiqiy bilish, tafakkur, haqiqat, nisbiy haqiqat, mutloq haqiqat, metod, metodologiya.

**Bilish va bilim.** Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi — gnoseologiya vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. **Gnoseologiya** asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Xususan, XVII asr o'rtalarida evropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug'ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g'oyani olg'a surdilar.

**Bilish nima?** Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. SHuningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Insoniyat ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo'lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sostial guruh vujudga keldi. Bular — ilm-fan kishilari bo'lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug'ullanadilar.

Bilishning ikki shakli: **kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish** bir-biridan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon g'arb sostiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o'rganuvchi maxsus soha — etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Nazariy bilishning ob'ekti, sub'ekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

**Bilish ob'ekti.** Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish ob'ektlari hisoblanadi. Bilish ob'ektlari moddiy, ma'naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish ob'ektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni qamrab oladi. Bilish ob'ektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

**Bilish sub'ekti.** Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish sub'ekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish sub'ektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish ob'ekti, ham bilish sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

**Bilishning maqsadi** ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniyalashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan — fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgan sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish sub'ekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

**Bilish predmeti** sub'ektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish ob'ektining ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

**Bilish darajalarini** shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, **hissiy bilish** deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalaniishi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, **aqliy bilish** (rastional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. SHu boisdan ham hodisa aldanchi va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezon bo'lishi ham mumkin. Masalan, CHARlz Darvinning evolyustion nazariyasi, A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Gnoseologiyada haqiqat tushunchasi muhim o'rin tutadi. **Haqiqat** inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga ko'ra mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o'z mazmuniga ko'ra hamisha ob'ektivdir. YA'ni uning mavjudligi ayrim kishilarning xohish-irodasiga bog'liq emasdir. Masalan, O'zbekistonning milliy mustaqilligi ob'ektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmasligidan qat'i nazar, bu haqiqat o'z mazmunini saqlab qolaveradi. Haqiqatni atayin buzish yoki soxtalashtirish oxir-oqibatda fosh bo'ladi va o'z qadrini yo'qotadi. SHuningdek, haqiqat hech qachon mavhum emasdir. U hamisha konkretidir. Hegel so'zlari bilan aytganda, nimaiki voqe bo'lsa, u haqiqatdir, haqiqat — voqelikdir. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy, vaqt va sharoitni e'tiborga olishni talab etadi.

Gnoseologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar davomida tabiatshunoslik fanlariga xos bo'lgan ob'ektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezon deb hisoblab kelindi. Biroq XX asr o'rtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo'lgan muammolar tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qo'ya boshladi. Aqlli mavjudot bo'lgan inson har qachon tabiatni o'rganishda hamisha o'z manfaatlarini ko'zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bitmas-tuganmasdir, degan bir yoqlama qarash oxir-oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabatni vujudga keltirdi. XX asr oxirlariga kelib tabiatga nisbatan insonlarcha, qadriyatli munosabatda bo'lish zaruriyati chuqurroq anglana boshladi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan etuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy

layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va mexanizmlarni o'rganish, ulug' ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida o'rttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

**Metod** keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. **Metodologiya** tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega – faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi; tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tadbiiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi. Hozirgi davrda metodologiyadan turli yo'nalish va oqimlar, jumladan, fan, falsafa, fenomenologiya, strukturalizm va postpozitivizm kabilarda keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo'lib, sub'ektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat. Biroq:

birinchidan, metod va metodologik muammolarning rolini inkor qilish yoki to'g'ri baholamaslik.

ikkinchidan, metodning ahamiyatini bo'rttirish, mutlaqlashtirish, uni barcha masalalarning kaliti deb tushunish noto'g'ridir.

Har qanday metod ma'lum nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgaradi.

Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l, ya'ni metod ham haqiqiy bo'lmog'i lozim, chunki predmet va metod o'zaro bog'liqdir. Metod real hayotiy jarayonda shakllanadi. Metod, predmet, nazariya, sub'ekt tushunchalarining munosabatlari tahlil qilinar ekan, ikki holatga e'tibor qaratmog'imiz zarur. Birinchidan, metod sub'ektdan tashqarida mavjud jarayon emas, balki u bilan bog'liqdir. Boshqacha qilib aytgan da "inson umum metodologiyaning markazidir". Ikkinchidan, har qanday metod uyoki bu darajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi.

Metodlar xilma – xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi. Eng avvalo g'oyaviy, ma'naviy, amaliy metodlarni ajratmoq lozim.

Fan metodlarining guruhlarga bo'linishi bir nechta asoslarga ega. Bilish jarayonida uning roli va o'rni nuqtai nazaridan: formal, empirik, nazariy, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. Bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hmda faoliyatli metodlari mavjud.

Taraqqiyot jarayonida avlodlar, davrlar, siyosiy tuzumlar, umuman ijtimoiy voqea va hodisalar o'z-o'zidan avtomatik tarzda sodir bo'ladi. Bir davr ikkinchisining o'rniga, bir avlod oldingisidan keyin, bir voqea boshqasining ortidan sodir bo'lib turadi. Ana shu abadiy va azaliy uzluksizlik, doimiy aloqadorlik, vaqtning orqaga qaytmasligi tarzidagi bog'lanishlar, rivojlanish va taraqqiyot, olamning rang – barangligi va uyg'unligi dialektikaning asosiy tamoyillarini tashkil qiladi.

Yangi davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davrga kelib taraqqiyotga yangicha munosabat shakllandi. Dialektik metod predmetlarda emas, balki munosabatlarda o'z aksini topadi. Cheksizlik g'oyasining yangicha talqini paradoksal nazariya shaklida namoyon bo'ldi.

Bizni o'rab turgan olam yagona bir butunlik, aniq tizim bo'lib, bir – biri bilan uzviy bog'liq, predmetlar xilma – xilligi yaganalikda, bir – biri bilan o'zaro ta'sir va o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Har qanday narsani faqat undagi ichki va tashqi tomonlar mujassamligini tadqiq qilgandagina to'g'ri tushunish mumkin. Dialektikaning obektivlik, determinizm, konkretlik va boshqa tamoyillari ham mavjud. "Metafizika" dialektika kabi universal metoddir.

Hozirgi zamonda metafizika uch asosiy ma'noga ega:

1. Falsafa umumiy hodisalar haqidagi fandır. Bu ta'limotning asoschisi Aristotel bo'lib, U "narsaning birinchi turi" haqidagi ta'limotdir. Nemis faylasufi M. Xaydegger fikricha, bu kategoriya bilishning ob'ekti va sub'ektini bir vaqtda ifodalovchi tushunchadir.

2. Maxsus falsafiy fan ontologiya, umuman, borliq haqidagi ta'limot bo'lib, nazariya bilish

mantig'i va uning xususiy ko'rinishlaridan mustasnodir.

3. U bilish va harakatni falsafiy tushunish manosida dialektikaga qarama – qarshi qo'yiladi. Bunda shu ma'nodagi tushuncha ,ya'ni antidialektika haqida so'z boradi.

YAngi metafizika eski metafizikadan farqli o'laroq, narsalarning umumiy aloqadorligini va ular taraqqiyotini inkor qilmaydi. Antidialektika yangi shaklining asosiy xususiyati – taraqqiyotni izohlashning turli variantlari va yo'llarini izlashdan iborat.

Buni quyidagi yo'nalishlarda tushunish mumkin:

- eng umumiy, abadiy o'sish, o'zgarish yoki aksincha kichrayio' tarzida;
- xuddi sifat o'zgarishlari kabi sakrashlar zanjiri shaklida;
- takrorlash sifatida qat'iy liniyali yo'nalishga ega bo'lgan doimiy jarayon holatida;
- hech qanday yangiliklarsiz aylana doirasidagi abadiy harakat ko'rinishida;
- mohiyatidan ziddiyat kelib chiquvchi harakat sifatida;
- progress sifatida, ya'ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga intilish tarzida.

Bilimning metafizik usullari turlicha bo'lib, idealizm, sensualizm, rastionalizm, empirizm, dogmatizm va boshqa shakllarda namoyon bo'lib, bilimning alohida shakllari natijalarini mutlaqlashtirish jarayonida paydo bo'ladi.

Sofistika mavjud nazariya va ma'lumotlarni saqlashga intiladi. U yangi fikr eski fikrning bir qismi ekanligini asoslashga yoki mantiq qonunini tuzib, mavjud bilimlar tizimini barcha ziddiyatlardan tozalashga harakat qiladi. Bu metoddan semantik va mantiqiy qonunlarda istalgan narsani isbotlash uchun foydalaniladi. Sofizm – qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali mulohaza bo'lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. Sofistika mavjud bilimlar tizimidan ziddiyatlarni siqib chiqaradi, bu bilan eski va yangi bilimlarni murosaga keltiradi. Sofistika inson bilimi doirasida cheksiz relyativizmni ulug'laydi. Predmet haqida har narsa deyish mumkin. Qanday maqsad ko'zlanmasin, so'zlar ifodasida hech qanday chegara yo'q, shunga ko'ra , sofist – mohir usta, so'zamol donishmand ma'nolarini anglatadi.

Sofistika bilish tizimidagi mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash, eski bilim tizimini qayta qurishda zaruriy element sifati namoyon bo'ladi. Sofizm hodisalarga ta'sirchan bo'lib, eski narsa xavf ostiga olinadi.

Eklektika hech qanday bilim faoliyati bilan bog'lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg'on aks ettiradi. U bilim tizimi rivojidadagi yo'nalish, u hech qanday yagona nazariy asosga ega emas va ba'zida ob'ektni o'rganishning ziddiyatli jihatlarini xarakterlovchi bilim elementlaridir. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Hozirgi zamon fanida sinergetika keng qo'llanilmoqda. Sinergetika yunoncha so'z bo'lib, kelishuv, hamkorlik, o'zaro ta'sir degan ma'nolarni bildiradi. German Xxakenning fikricha, sinergetika ko'p qismlardan iborat bo'lgan, o'zaro murakkab aloqadorlikdagi komponentlar tizimini o'rganadi. Sinergetika orqali sodda tizimlardan murakkablarini yaratuvchi o'lik tabiatdagi o'z - o'zidan harakatning tamoyili shakllandi. Sinergetika va fizikada evolyustion yo'nalish paydo bo'ldi. Sinergetika makroskopik darajalarga tasodifiylikni fanga kiritdi va mexanika metodlarini makroskopik darajaga tatbiq qildi.

**Sinergetika** nisbiylik nazariyasidagi energiya va narsaning o'zaro bir –biriga o'tishini tasdiqlaydi. U biz yashayotgan makrosistemalar qanday paydo bo'lganligi masalasini hal etishga harakat qiladi.

**Sinergetika** – olamning o'z-o'zini tashkiletishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma – ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta'limotni dialektika asosida shakllangan va uni to'ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o'laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo'q emas. Bizningcha, sinergetikaning XX asr oxiridagi shaxdam odimlari o'rta asrlarda evropada aniq fanlar sohasida indukstiya va dedukstiya usullarining muvaffaqiyatli qo'llangani, katta mavqega ega bo'lgani va pirovard natijada, falsafiy metodga aylanganinieslatadi. Sinergetikani XX asr tabiiy fanlarining falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Ammo, bu sinergetika dialektikani falsafadan butunlay

surib chiqaradi, degani emas. Zero, falsafada har bir ta'limot, uslub metodning o'z o'rni va faoliyat doirasi bor. Dialektikaning falsafadagi ahamiyatiga kelganda esa, uning ijtimoiy bilimlar sohasidagi o'rni, qadr – qimmatini nihoyatda katta va u falsafaning metodlaridan biri bo'lib qolaveradi.

**Umumilmiy metodlar** axborotlashtirish, modellashtirish, izomorfizm, strukturalizm, funktsionalizm va h.k.lardir. Bu tushunchalarni harakterlovchi xususiyatlari, birinchidan, ular mazmuniga xossa, belgi, tushunchalarning xususiy fan va falsafa kategoriyalari bilan aralashganligida, ikkinchidan, matematika nazariyalar vositasida formallashtirish va aniqlik kiritishdadir. Agar falsafa kategoriyalari o'zida eng umumiy, ya'ni qonun darajasini ifodalasa, umumiy tushunchalarga mavhum umumiylik xos bo'lib, ularni mavhum – formal vositalarda ifodalashga imkoniyat yaratadi.

**Xususiy ilmiy metodlar**, ya'ni olam harakatining ma'lum shakliga mos keluvchi fanning u yoki bu sohasida qo'llaniladigan usullar, bilish tamoyillari, tadqiqot ishlari yig'indisidir. Ular ijtimoiy – gumanitar va kimyo, fizika, biologiya, mexanika kabi fanlarga xos metodlardir.

### **MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Bilish nima?
2. Bilishning asosiy bosqichlari nimadan iborat?
3. Ularning o'zaro bogliqlik dialektikasi qanday?
4. Haqiqat nima?
5. Nisbiy haqiqatlar va absalyut haqiqatlarning o'zaro bogliqligi qanday?

### **MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLAR:**

#### **1. Bilish haqidagi ta'limot bu....**

1. Gnoseologiya
2. Ontologiya
3. Ideologiya
4. Logika

#### **2. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflar?**

1. Agnostika
2. Gnostika
3. Astika
4. Sofistika.

#### **3. Qaysi faylasuf falsafaga - Filosofiya – to'g'ri fikrlash orqali bilimga erishish deb tarif bergan.**

1. G.Gobbs
2. Aflotun
3. Gegel
4. Forobiy

#### **4. Mantiqiy bilishga quyidagilardan qaysilar kiradi?**

1. Ilmiy, noilmiy, oddiy.
2. Tushuncha, hukm, xulosa chiqarish.
3. Sezgi, idrok, tasavvur
4. Kuzatish, tajriba, faraz.

#### **5. Sezgi a'zolar orqali olingan bilim bu....**

1. Hissiy bilish
2. Ilmiy bilish
3. Aqliy bilish
4. Falsafiy bilish

**6. Hissiy bilishga quyidagilardan qaysilar kiradi?**

1. Ilmiy, noilmiy, oddiy.
2. Tushuncha, hukm, xulosa chiqarish.
3. Kuzatish, tajriba, faraz.
4. Sezgi, idrok, tasavvur,

**7. Harakat turiga ko`ra?**

1. Aqliy va jismoniy.
2. Biologik va fizikaviy.
3. Ijtimoiy va siyosiy.
4. Moddiy va ma`naviy.

**8. “O`zingni bilsang, olamni bilasan” degan ibora qaysi muallif qalamiga mansub?**

1. Suqrot
2. Arastu
3. Aflotun
4. Demokrit

**9. Metodologiya nima?**

1. Metodologiya amaliy faoliyat prinsiplaridir.
2. U gnoseologiya (bilish nazariyasi) ning o`zidir.
3. U ilmiy tekshirish, mantig'i (logikasi) dir .
4. U bilish metodlari (uslublari) haqidagi ta`limotdir.

**10. Bir sifatdan ikkinchi sifatga o`tish mexanizmi bu...**

1. Dialektik sakrash.
2. Inqilob.
3. evolyusiya.
4. Progress.

## MAVZU BO'YICHA SLAYDLAR

Insonning o'zini qurshagan dunyoga bo'lgan munosabatlaridan biri – **b i l i sh** dir. Inson o'z hayoti davomida faqat tashqi dunyoni, ya'ni tabiat va jamiyatnigina bilib qolmasdan, balki o'zini, o'zining ruhiy – ma'naviy dunyosini ham bilib boradi.

**Falsafa** esa inson bilishining eng umumiy tomonlarini, qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganadi va ochib beradi.

# BILISH FALSAFASI (GNOSEOLOGIYA)

## GNOSEOLOGIYA PREDMETI

Inson o'zining bevosita borligini, mavjudligini uni qurshab turgan dunyo bilan doimiy aloqada amalga oshiradi. Dunyoda yashash va optimal moslashish uchun inson, uning aql-idroki va hislari tashqariga, ya'ni dunyoni bilishga qaratilgan.

**SUB'EKT** – bu bilish harakatining sohibi bo'lgan shaxsdir, fikrlovchi «men» dir.

**OB'EKT** – bu sub'ektning bilish faoliyati yo'naltirilgan narsadir, ya'ni bizni qurshab turgan butun olamdir.

**Dunyoni bilib bo'ladimi yoki yo'qmi**, agar bilib bo'lsa bu bizning ongimizda qanday aks etadi, degan masala hamisha falsafiy fikrni qiziqtirib kelgan.

Bilish nazariyasi, yoki **GNOSEOLOGIYA** (yunoncha – bilish haqidagi ta'limot) – falsafiy ta'limotlarning ajralmas qismidir.

**GNOSEOLOGIYA** sub'ektning bilish faoliyatining prinsiplari, qonuniyatlari, shakllari, bosqichlari va darajalarini, shuningdek, shu qonunlardan kelib chiqadigan haqiqiy bilimga erishilishini ta'minlaydigan talablar va mezonlarni o'rganadi.

**AGNOSTISIZM** – bu shunday ta'limotki, unga ko'ra dunyo haqida haqiqiy, ishonchli bilimlarga erishib bo'lmaydi.

**AGNOSTISIZM** bilishni faqat biluvchi aqlning faoliyati deb biladi.



## Hissiy bilishning shakllari

**SEZGILAR** bu – shunday kanallarki, ularning vositasida odam qurshab turgan olam bilan borlangan, olam haqida bevosita axborot olib turadi. sezgilar abstrakt tafakkur amalga oshishining asosi bo'lgan ozuqadir.

*sezgi xissiy bilishning eng oddiy shakli, ob'ektivlik bilan sub'ektivlikning qorishmasidir, u manbai jihatidan ob'ektiv va u yoki bu sezgi a'zolarining tuzilishiga borlik holda shakli jihatidan sub'ektivdir. garchi sezgi bilish uchun yagona kanal bo'lsada, birgina sezishning o'zi tashqi dunyoni butun yaxlitligi, chuqurligi va konkretligi bilan anglab olish uchun etarli emas. sezgi sub'ektga o'rganilayotgan ob'ektning ayrim tomonlari yoki xossalarni bilishga yordam beradi, ammo o'zining tabiiy cheklanganligi sababli ob'ektni yaxlit holda bilishga imkon bermaydi. shuning uchun bilish sezishdan idrok qilish tomon boradi.*

### 5-MAVZU: MANTIQ BILISH NAZARIYASINING TADQIQOT OB'YEKTI.

Reja:

1. Tafakkur mantiqiy fikrlash asosi.
2. Tushuncha va hukm
3. Xulosa chiqarish

**Tayanch tushunchalar:** mantiq, tafakkur, bilish, hissiy bilish tafakkur shakli, ayniyat qonuni, nozidlik qonuni, istisno qonuni, etarli asos qonuni, formal mantiq.

«Mantiq» arabcha soʻz boʻlib, maʼnosi boʻyicha «logika» soʻziga muvofiq keladi. «Logika» atamasi esa, grekcha «logos» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «fikr», «soʻz», «aql», «qonuniyat» kabi maʼnolarga ega. Uning koʻpmaʼnoligi turli xil narsalarni ifoda qilishida oʻz aksini topadi. Xususan, mantiq soʻzi, birinchidan, obʼektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «obʼektiv mantiq», «narsalar mantigʻi» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud boʻlish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar oʻrtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yigʻindisini (masalan «subʼektiv mantiq» iborasida), va nihoyat, uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini oʻrganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

Mantiq ilmining oʻrganish obʼektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» arabcha soʻz boʻlib, oʻzbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» soʻzlarining sinonimi sifatida qoʻllaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan oʻrni, bilishning boshqa shakllari bilan boʻlgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir.

Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish - insonning sezgi organlari yordamida bilish tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya'ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo'ladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma'lumotlar olinadi.

**Hissiy bilish 3 ta shaklda:** sezgi, idrok va tasavvur shaklida amalga oshadi. **Sezgi** predmetning birorta tashqi xususiyatini (masalan, rangini, shaklini, ta'mini) aks ettiruvchi yaqqol obrazdir. **Idrok** predmetning yaxlit yaqqol obrazi bo'lib, u mazkur predmet haqidagi turli xil sezgilarni sintez qilish natijasida hosil bo'ladi. Alohida olingan sezgilardan farqli o'laroq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan (masalan olmani behidan, nokdan va shu kabilardan) farq qilish imkonini beradi. **Tasavvur** esa avval idrok etilgan predmetning obrazini ma'lum bir signallar (berilgan predmet bilan ma'lum bir umumiylikka ega bo'lgan) ta'sirida miyada qayta hosil qilishdan, yoki shu va boshqa obrazlar negizida yangi obraz yaratishdan iborat hissiy bilish shaklidir. Masalan, tanishingizga o'xshagan kishini uchratganda tanishingizni eslaysiz, yoki qurmoqchi bo'lgan imoratingizni mavjud imoratlar obrazlari yordamida yaqqol his qilaisiz.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

**Birinchi**dan, hissiy bilish ob'ektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) sub'ektga (individga, to'g'rirog'i, uning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa predmet-signal ta'sir etadi.

**Ikkinchi**dan, hissiy bilish shakllari predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

**Uchinchi**dan, hissiy obraz predmetning yaqqol obrazidan iborat.

**To'rtinchi**dan, hissiy bilish, konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham, har bir alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

**Beshinchi**dan, hissiy bilish bilishining dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o'zining sezgi organlari orqali bog'langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog'liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo'li bilan, ya'ni tajribada bunday bilimlarning ob'ektini qayd etish orqali asoslanadi. o'z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda, aql tomonidan boshqarilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergan ko'rsatmalari asosida jinoyatchining portreti yaratiladi, yaqqol his qilinadi va qidiriladi.

Lekin, shunga qaramasdan hissiy bilish o'z imkoniyatlari, chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar to'plami), ularning tashqi belgilari haqida ma'lumot beradi. Unda mavjud predmetlar o'rtasidagi aloqadorlik (masalan muz bilan havoning harorati o'rtasidagi bog'lanish) o'rganilmaydi, predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi.

Bundan tashqari, ba'zi hollarda hissiyotimiz bizni aldab qo'yadi. Masalan, uzoqdan sizga qarab yurib kelayotgan kishini tanishingizga o'xshatasiz, lekin yaqinroq kelganda uning boshqa kishi ekanligi ma'lum bo'ladi. Boshqa bir misol. Endi tanishgan kishingiz haqidagi dastlabki taassurot (bu asosan uning tashqi tomonidan ko'rinishiga qarab hosil qilinadi), u bilan muloqatda bo'lgandan keyin o'zgaradi. Mana shu o'rinda «Kiyimiga qarab kutib olishadi, aqliga qarab kuzatishadi» degan maqolning hissiy bilish bilan aql o'rtasidagi o'zaro munosabatni, farqni yaxshi ifoda qilishini ta'kidlash lozim. YUqorida qayd etib o'tilgan holatlar bilishda tafakkurga bo'lgan ehtiyojni, uning mohiyatini, bilishda tutgan o'rnini chuqur anglashga yordam beradi.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori-rastional (lotincha ratio-aql) bilish bosqichi bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1) Unda voqelik abstraktlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan abstraktlashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan)

holda, e'tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilardagi) e'tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, onggaga ega bo'lish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson» tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni, bog'lanish usullarini o'rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o'xshash va muhim belgilariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o'rtasidagi muhim bog'lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2) Tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab, uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo'ladi.

3) Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo'lmagan narsalar-yuqori darajada ideallashtirilgan ob'ektlarni (masalan absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar) ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4) Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda-moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

2. Tafakkur uch xil shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud.

**TAFAKKUR SHAKLI** fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi) dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifoda qilingan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Tafakkur shaklining tabiatini konkret misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (to'plami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bo'lgan tushunchalarda aks ettiriladi. Masalan, «davlat» tushunchasida o'zining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. «Ilmiy nazariya» tushunchasida esa, predmetlarning birorta sohasiga oid bo'lgan va ular haqida yaxlit tasavvur beradigan, ma'lum bir metod yordamida qurilgan tushunchalar sistemasi ifoda etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko'ra bir xildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali fikr qilingan. «o'z maydoniga egaligi», «aholisining mavjudligi», «boshqaruv vositalariga egaligi», «siyosiy tashkilotdan iboratligi» davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, «predmetlarning birorta sohasiga aloqadorligi», «predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga imkoniyat berishi», «ma'lum bir metod yordamida qurilishi», «tushunchalar sistemasi shaklida bo'lishi» ilmiy nazariyaning muhim belgilari hisoblanadi. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya'ni fikrlash elementlarini a, v, s, ..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi A (a, v, s, ..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo'lish yoki bo'lmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan «Temir-metall» degan hukmda predmet (temir) bilan uning xossasi (metall ekanligi) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquqdan ilgari paydo bo'lgan» degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu hukmlar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning Sga xosligi tasdiqlangan. Umumiy xolda hukmning mantiqiy strukturasi (shaklini) S-R formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarishda ham yuqoridagiga o'xshash hollarni kuzatish mumkin. Masalan,

Daraxt - o'simlik

Terak – daraxt

Terak - o'simlik va

har bir ximiyaviy element o'z atom og'irligiga ega

Mis - ximiyaviy element

Mis o'z atom og'irligiga ega

Xulosa chiqarish ko'rinishlari mazmuni bo'yicha turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda-«daraxt», ikkinchi misolda – «ximiyaviy element» tushunchasi) orqali bog'langan.

Tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish tafakkurning universal shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana shular va ularning o'zaro aloqalarga kirishishi natijasida vujudga keladigan boshqa mantiqiy strukturalar (masalan, muammo, gipoteza, nazariya, g'oya, argumentlash va shu kabilari) da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo'lishi va formal jihatdan to'g'ri qurilishi kiradi. CHin fikr deb, o'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (Masalan, «Temir-metall»). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, «Temir-metall emas»). Fikrning chin yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir.

Fikrning chin bo'lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo'lsada, o'z holicha etarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan to'g'ri qurilgan ham bo'lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda hosil bo'ladigan turli xil mantiqiy strukturalarda, sodir bo'ladigan har xil mantiqiy amallarda o'z aksini topadi.

Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. **Tafakkur qonuni** muhokama yuritish jarayonida fikrlar (fikrlash elementlari) o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to'g'ri qurish uchun zarur bo'lgan talablar fikrning aniq, izchil, etarli darajada asoslangan bo'lishidan iborat.

Muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan printsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur printsiplari sifatida amal qilishiga e'tibor berish zarur. Mazkur qoidalarning buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, «qonun – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat», «Buyruq qonun emas», demak, «Buyruq rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat emas») yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, «Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar», «Temir-moddiy jism», demak, «Temir-kimyoviy element») mumkin.

3. Tafakkur ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni turli xil tomonidan, xususan, mazmuni va shakli (strukturasi) bo'yicha, tayyor holda yoki kelib chiqishi va taraqqiyotida olib o'rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlicha metodlardan foydalanishiga, har xil yo'nalishlarga ajralishiga sabab bo'ladi.

Keng ma'noda mantiqni tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan, deb atash mumkin. hozirgi paytda uning formal mantiq, dialektik mantiq va matematik mantiq kabi yo'nalishlarini farq qilish mumkin. **Formal mantiq** tafakkurning strukturasi fikrning konkret mazmuni va taraqqiyotidan chetlashgan holda, nisbatan mustaqil ravishda olib o'rganadi. Uning diqqat markazida muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq qoidalar va mantiqiy amallar yotadi.

**Formal mantiqqa to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy fan,** deb ta'rif berish mumkin.

Dialektik mantiq, formal mantiqdan farqli o'laroq, tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida hamda taraqqiyotida olib o'rganadi. Matematik mantiq esa tafakkurni matematik metodlar yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, tafakkurni mantiqiy hisoblash deb ataladigan yuqori darajada abstraktlashgan va formallashgan sistemada tahlil qiladi.

Biz o'rganadigan fan formal mantiq bo'lib, u hozirgi paytda o'zining maxsus formallashgan tiliga, to'g'ri muxokama yuritish uchun zarur bo'lgan samarali mantiqiy metodlari va usullariga,

konseptual vositalariga ega. Tafakkurni o'rganuvchi boshqa fanlar, xususan falsafa, psixologiya, fiziologiya bilan hamkorlik qiladi hamda ilmiy bilimlar sistemasida o'zining munosib o'rniga ega. Ayniqsa, uning bilish metodi sifatidagi ahamiyati katta.

4. Tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o'stiradi, xususan, fikrni to'g'ri qurish malakasini rivojlantiradi; bahs yuritishda o'zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo'lishiga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to'g'ri qurishga, formal ziddiyatlar, xatolarga yo'l qo'yimaslikka erishish, aytish mumkinki, o'ziga xos san'at-mantiq san'ati hisoblanadi. Bu san'atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladi. SHu o'rinda buyuk mutafakkir Forobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e'tiborga loyiq ekanligini ta'kidlash zarur. U shunday yozadi: «Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda, to'g'ri tafakkurga etaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi extiyot choralarini ko'rsatadigan san'atni-mantiq san'atni o'rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo'lgan munosabati grammatika san'ati qoidalarining tilga bo'lgan munosabatiga o'xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to'g'irlash extiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo'lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo'l quyish mumkin bo'lgan barcha hollarda aqlni to'g'irlab turadi».

Uning ta'lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. o'quv jarayonining samaradorligi ma'lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo'lishiga, muammolarning mantiqan to'g'ri qo'yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasi to'g'ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni echish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasi o'rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo'lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

1. Olamdagi narsa va hodisalar harakati o'ziga xos ichki qonunlar asosida yuzaga keladi. Bu harakatning inson ongidagi in'ikosi, ya'ni tafakkur jarayoni ham o'ziga xos ob'ektiv qonuniyatlar asosida amalga oshadi.

Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Formal mantiqda ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari o'rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo'ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formallashtirilgan mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari ob'ektiv olam va bilish jarayoniga xos bo'lgan eng umumiy qonunlar bo'lib, dialektik mantiq ilmining o'rganish sohasi hisoblanadi. Formallashtirilgan mantiq qonunlari esa, faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o'rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to'g'ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo'lishini e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog'lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari ob'ektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan.

Bu qonunlar fikrlashning to'g'ri amalga oshirishini ta'minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo'lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o'zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlari yuzaki qaraganda sub'ektiv qonunlardek bo'lib tuyulsa ham, aslini olganda, ob'ektiv mazmunga egadir. Bu qonunlar hamma kishilarning fikr yuritishida bir xil amal qiluvchi umuminsoniy qonunlardir. Ularni buzish, almashtirish, o'zgartirish, yangilash mumkin emas.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to'g'ri, tushunarli, aniq izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo'lish va isbotlilik (asoslanganlik) to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo'lganligi uchun ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan muhim xislatlardan biri fikrning aniq bo'lishidir. Ma'lumki,

ob'ektiv voqelikdagi har bir buyum, hodisa o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega. Bu belgi va xususiyatlar buyum va hodisalarni bir-biridan farqlashga, ularning o'ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, buyum va hodisalarning inson tafakkurida aniq aks etishini, har bir fikr, mulohazaning aniq, ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Fikrning noaniqligi fikrdagi mantiqning sayozlashuviga, mantiqsizlikka olib keladi. Masalan, ob'ektiv va sub'ektiv sabab tushunchalarining mohiyatini aniqlab olmasdan birorta hodisaning kelib chiqish sabablari to'g'risida aniq fikr yuritib bo'lmaydi. SHu sababdan fikrdagi aniqlik to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Tafakkurga xos bo'lgan belgilardan yana biri fikrlash jarayonining ziddiyatsizlik xususiyatiga ega bo'lishligidir. Bu belgi ham ob'ektiv asosga ega. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikda har bir buyum yoki hodisa bir vaqtning o'zida biror sifatiga ko'ra ikki zid belgiga ega bo'lmaydi. Masalan, biror buyum bir vaqtning o'zida ham bor, ham yo'q bo'la olmaydi yoki inson ham e'tiqodli, ham e'tiqodsiz bo'la olmaydi. Fikrda mantiqiy ziddiyatlarning mavjud bo'lishi uning noaniq, chalkash, tushunarsiz bo'lishiga olib keladi.

Buyum va hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlar tafakkurga xos bo'lgan asoslilik belgisining ob'ektiv negizidir. Inson fikr yuritish jarayonida iloji boricha chinligi asoslangan mulohazalarni bayon qilishga intiladi.

YUqorida bayon qilingan belgilar tafakkur qonunlarining mazmunini tashkil etadi.

### **Ayniyat qonuni**

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

**Ayniyat qonuniga ko'ra ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir.** Bu qonun formal mantiq ilmida «A-A dir» formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya'ni mulohazalar mantig'i va predikatlar mantig'ida o'ziga xos ko'rinishda ifodalanadi:

Mulohazalar mantig'ida  $a \rightarrow a$  va  $a \leftrightarrow a$ . (Bunda  $a$  - har qanday fikrni ifodalovchi belgi,  $\rightarrow$  implikasiya belgisi,  $\leftrightarrow$  ekvivalentlik belgisi).

Predikatlar mantig'ida ( $\forall x(R(x) \rightarrow R(x))$ ). Bu ifoda quyidagicha o'qiladi: har qanday X uchun, agar X R belgiga ega bo'lsa, X shu belgiga ega, degan fikr to'g'ri bo'ladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va aksincha, o'zaro aynan bo'lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni, bilib yoki bilmasdan, buzish qo'llatlar uchraydi. Ba'zan, bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga ko'ra turlicha bo'lsa ham mazmunan aynandir.

Tilda mavjud bo'lgan omonim va sinonim so'zlarning qo'llanishi ham ba'zan turli fikrlarning o'zaro aynanlashtirilishiga, ya'ni noto'g'ri muhokamaga olib keladi. Masalan: falsafiy nuqtai nazardan «sifat» tushunchasi, o'ziga xos mazmunga ega bo'lsa, biror hunarmand tomonidan bu tushuncha, boshqa mazmunda (yaroqli, foydali) qo'llaniladi.

SHuningdek u, bir tushunchaga kasb-hunari, hayotiy tajribasi va dunyoqarashi turli xil bo'lgan shaxslar tomonidan turli mazmun yuklatilishida ham namoyon bo'ladi.

Bahs-munozara jarayonida qanday qilib bo'lsa ham raqibni aldash va yutib chiqish maqsadida ayniyat qonunining talablarini ataylab buzuvchilar sofistlar deb ataladi; ularning ta'limoti esa sofistika deyiladi.

Ba'zan turli ma'nodagi bir xil so'zlarni mohirlik bilan ishlatish orqali ajoyib she'riy misralar yaratiladi. Sharq adabiyotida «tuyuq» nomi bilan ma'lum bo'lgan bu she'riy misralar go'zalligi, insonga o'ziga xos zavq berishi bilan ajralib turadi. Bunga Fozil Yo'ldosh o'g'lining quyidagi misralari misol bo'la oladi:

qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,  
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot,

Nasihatim yod qilib ol farzandim,  
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

Yuqoridagi to'rtlikda «ot» tushunchasining turli ma'nolarda qo'llanilishi, ayniyat qonuni talabining buzilishini emas, balki unga rioya qilinganligini ifodalaydi.

SHuningdek, o'zbek xalqiga xos bo'lgan askiya san'atida ayniyat qonunlari ataylab buzilishini, tushunchalarning o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nolarda qo'llanilishini kuzatish mumkin. Bu o'ziga xos so'z o'yini bo'lib, unda qo'llaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini ko'rsatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab bo'ladi.

Demak, hayotda, amaliyotda tushunchaning turli ma'nolarda qo'llanilishidan g'arazli yoki beg'araz, yaxshi yoki yomon maqsadlar uchun foydalanish mumkinligini ko'ramiz.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgan holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning o'zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to'laroq bilib borishimiz bilan o'zgarishini e'tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o'rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

### **Nozidlik qonuni**

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

**Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligini, xech bo'lmaganda ulardan biri albatta xato bo'lishini ifodalaydi.** Bu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig'ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi:  $\forall x (r(x) \cdot \bar{P}(x))$ , ya'ni har qanday  $r(x)$  mulohaza uchun  $r(x)$  va uning inkori birgalikda chin bo'lmasligi to'g'ridir.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo'llaniladi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo'lishi mumkin; o'zaro zid mulohazalar esa bir vaqtda xato bo'lmaydi, ulardan biri xato bo'lsa, ikkinchisi albatta chin bo'ladi. qarama-qarshi mulohazalarda esa bunday bo'lmaydi, ya'ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: «Aristotel-mantiq fanining asoschisi» va «Aristotel-mantiq fanining asoschisi emas»-bu o'zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bo'lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo'lgani uchun, ikkinchisi xato bo'ladi. o'zaro qarama-qarshi bo'lgan «Bu dori shirin» va «Bu dori achchiq» mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bo'lishi mumkin. Chunki dori shirin ham, achchiq ham bo'lmasligi, balki bemaza yoki nordon bo'lishi mumkin.

Ba'zida ikki qarama-qarshi fikr aytilganda mantiqiy ziddiyat bo'lmasligi mumkin. Bunda bir masala yuzasidan bayon qilingan qarama-qarshi fikrlar turli vaqtda va turli nisbatda aytilgan bo'ladi. Masalan: Talaba A. mantiq fanidan imtihon topshirmadi» va «Talaba A. mantiq fanidan imtihon topshirdi». Bu zid mulohazalar turli vaqtga nisbatan chin bo'ladi, ya'ni ular o'rtasida ziddiyat bo'lmaydi.

Demak, fikrlash jarayonida, vaqt, munosabat va ob'ekt birligining saqlanishi nozidlik qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi. Nozidlik qonuni to'g'ri fikr yuritish jarayonida amal qiladi.

Mantiq ilmi umuman har qanday zid mulohazalarni ta'qiqlamaydi, balki bir masala yuzasidan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid, qarama-qarshi mulohazalarni bayon qilish mumkin

emasligini ta'kidlaydi.

Formal mantiq dialektik ziddiyatlar bilan mantiqiy ziddiyatlarni chalkashtirib yuborishni qoralaydi. Mantiqiy tafakkurdagi ziddiyat bilan real hayot ziddiyatlarini, ya'ni dialektik ziddiyatni bir-biridan farqlash, ularni almashtirib yubormaslik zarur. Chunki bulardan birinchisi tafakkurda yo'l qo'yib bo'lmaydigan ziddiyat bo'lsa, ikkinchisi buyum, hodisalar taraqqiyotining ichki manbaini tashkil qiladigan dialektik ziddiyatdir. Birinchisi sub'ektiv, ikkinchisi ob'ektiv ziddiyatdir.

Noziddlik qonunini bilish va unga amal qilish raqibning, suhbatdoshning fikrlaridagi mantiqsizlikni aniqlash, ilmiy tahlilni izchil va chuqur mantiqiy asosda olib borish imkonini beradi.

### **Uchinchi istisno qonuni**

Uchinchi istisno qonuni noziddlik qonunining mantiqiy davomi bo'lib, fikrning to'liq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligini ifodalaydi. Bu qonun «A V yoki V emasdir» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig'ida bu quyidagi formula orqali ifodalanadi:  $r \vee \bar{P}$ . Bu formula quyidagicha o'qiladi. r yoki r emas.

Uchinchi istisno qonuni tushunchalar o'rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar tushunchaning to'liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma'lum bo'lsa, unda uchinchi istisno qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «a'lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida noziddlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo'lishi va talaba imtihonda «o'rta» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «a'lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a'lo» baho olmadi», mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki «yaxshi», «o'rta» va «ikki» baholar-»a'lo» baho emas.

Uchinchi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid fikr bildirilganda. Masalan,

Toshkent-o'zbekistonning poytaxti.

Toshkent-o'zbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo'la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o'rin yo'q. Uchinchi istisno qonuni o'zaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

hamma faylasuflar notiqdir.

hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan, birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Bunday holatda «Ba'zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

2. Son va sifatiga ko'ra o'zaro zid mulohazalar bayon qilinganda, buyum va hodisalarning sinfi xaqida tasdiqlab bayon qilingan mulohaza bilan shu sinf buyum va hodisalarining bir qismi xaqida inkor etib bayon qilingan mulohazalardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisiga o'rin bo'lmaydi.

Masalan:

hamma faylasuflar tabiyotshunosdir.

Ba'zi faylasuflar tabiyotshunos emas.

Bu ikki mulohaza bir vaqtda chin ham, xato ham bo'la olmaydi. Ulardan biri (Ba'zi faylasuflar tabiyotshunos emas) albatta chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o'rin yo'q.

Demak, Uchinchi istisno qonuni:

1. Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan;

2. Umumiy tasdiq va juz'iy inkor mulohazalarga nisbatan;



### 3. Umumiy inkor va juz'iy tasdiq mulohazalarga nisbatan qo'llaniladi.

Uchinchi istisno qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchi inkor bo'lishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bo'lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohazaning bir-birini hajm jihatdan to'liq inkor etishi kifoya. Masalan, erkak va ayol tushunchalarining har ikkisi ijobiy bo'lib, inson tushunchasining to'liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

Uchinchi istisno qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, ob'ekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o'z kuchini yo'qotadi, fikrning izchilligiga zarar etadi va mantiqsizlikka yo'l qo'yiladi.

Uchinchi istisno qonuni boshqa mantiqiy qonunlar singari ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o'z bilimlariga asoslangan holda o'zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o'zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo'lmasligini tasdiqlaydi.

Uchinchi istisno qonunini bilish muhokama yuritishda to'g'ri xulosa chiqarish uchun muhim bo'lib, o'zaro zid qarashlarni aralastirib yuborishga yo'l qo'ymaydi.

To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun, uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ya'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati etarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnist ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashicha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun etarli asosga ega. **har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak.** Etarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Etarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o'zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan ob'ektiv, haqiqiy real asosni aralastirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog'liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor» degan mulohazani «U shifoxonada davolanayapti» degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko'rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning etarli asosga ega bo'lishligining obektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo'lish xususiyatlarini ham, ya'ni ob'ektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo'lgan boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Insonning shaxsiy tajribasi makon va zamonda chegaralangan bo'lib, sezgilari bergan ma'lumot esa hamma vaqt ham to'g'ri bo'lmaydi. SHunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli xissiy mushohadadan, bevosita kuzatishdan boshlanadi. Xissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog'lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi.

Nazariy asoslashda keng foydalaniladigan usul-deduktiv xulosa chiqarish usuli, ya'ni umumiy chin mulohazalarga tayanib fikr yuritishdir. Berilgan mulohazani mantiqiy usul orqali boshqa chin mulohazalar yordamida asoslash mumkin bo'lsa, unda berilgan mulohaza chin, ya'ni asoslangan bo'ladi. Bunda fikrlar o'rtasidagi bog'lanish umumiylik, xususiylik va yakkalik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan, to'g'ri tafakkur qonunlarining ob'ektiv xarakterga ekanligini, barcha ilmiy qonunlarning ob'ektiv xarakterga ega ekanligi haqidagi umumiy chin mulohaza yordamida asoslash mumkin.

Umumiy chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalaridan, tushunchalarning ta'riflaridan, shuningdek aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning rastional yoki demonstrativ usullari bo'lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo'lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi.

SHuningdek, asoslashning sub'ektiv xarakterda bo'lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo'lmagan usullari mavjuddir. Intuistiyaga, e'tiqodga, avtoritetlarga va urf-odatlariga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko'proq kundalik ong darajasida foydalanildi.

Intuistiya hech qanday muhokama va isbotlarsiz to'g'ridan-to'g'ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. Intuistiya - lotincha *intutio* so'zidan olingan bo'lib, «diqqat bilan tikilib qarayman», degan ma'noni bildiradi. Intuistiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, hissiy va aqliy bilishdan o'zgacha bir ko'rinishini tashkil etmaydi; o'ziga xos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuistiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e'tibor bermagan holda, fikran yaxlit qamrab tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi-haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuistiya haqiqatni aniqlashda etarli asos hisoblansa-da, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishontirish uchun etarli hisoblanmaydi.

E'tiqod-kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida xatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bo'lib xizmat qiladigan qarashlarning majmuasidan iborat. E'tiqod chinligi isbotlangan mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib ko'rilmagan, chinligi noma'lum boshlang'ich bilimlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Intuistiya kabi e'tiqod ham subektiv xarakterda bo'lib, davr o'tishi bilan o'zgarib turadi. «Anglash uchun e'tiqod qilaman» - degan edi Avliyo Avgustin va Anselm Kenterberiyскиylar (1033-1109).

Frunstuz faylasufi va teologi Per Abelyar (1079-1142) esa aql va e'tiqodning o'zaro nisbatini haqqoniy ko'rsatgan holda «E'tiqod qilish uchun tushunaman», deydi. Albatta e'tiqod haqida fikr yuritganda ko'r-ko'rona e'tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bo'lgan, bilimga asoslangan e'tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e'tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda etarli asos bo'ladi. SHuning uchun ham ular inson qalbida mustahkam o'rinish qoladi. Avtoritet (autoritas - hokimiyat, ta'sir) - keng ma'noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biror shaxsning yoki tashkilotning ko'pchilik tomonidan tan olingan norasmiy ta'siridir. Etarli asos qonuni bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishda avtoritet tushunchasi obro'li, e'tiborli, nufuzli manba ma'nosida qo'llaniladi. Avtoritetlarga asoslanish deganda esa, biror fikr, mulohazaning chinligini asoslashda obro'li, e'tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilish tushuniladi. Nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas diniy kitoblarda yozilgan sura va oyatlar, xalq maqollari va hikmatli so'zlaridan foydalaniladi.

### **MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Tafakkur shakllari nimalardan iborat.
2. Ayniyat qonuni nima?
3. Nozidlik qonuni?
4. Istisno qonuni?

### **MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLAR:**

#### **1. Fikrlash madaniyatini o'rganuvchi san'at turi qaysi ?**

1. Mantiq san'ati
2. Ritorika
3. Dizayn
4. Simvolika

#### **2. Qaysi alloma mantiqni "chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi " fan deb ta'riflagan?**

1. Aristotel
2. Platon
3. Suqrot

4. Demokrit

**3. Mantiqiy qonunlar tizimini aniqlang.**

1. Inkorni inkor, ziddiyat, nikoh xaqida qonunlar.
2. Mehnat haqida, ayniyat, jinoyat haqida qonunlar
3. Ayniyat, noziddiyat, istisno, yetarli asos qonunlari.
4. Axloqiy, huquqiy, ilmiy, ob'ektiv qonunlar.

**4. Ayniyat qonuni formulasi.**

1. A ham V ham V emas bo'la olmaydi.
2. AV yoki V emasdir.
3. Agar V mavjud bo'lsa uning asosi sifatida ham mavjud.
4. A-A dir.

**5. Nozidlik qonuni formulasi.**

1. A ham V ham V emas bo'la olmaydi.
2. AV yoki V emasdir.
3. Agar V mavjud bo'lsa uning asosi sifatida A ham mavjud.
4. A-A dir.

**6. Uchinchi istisno qonuni formulasi.**

1. A ham V ham V emas bo'la olmaydi.
2. AV yoki V emasdir.
3. Agar V mavjud bo'lsa uning asosi sifatida ham mavjud.
4. A-A dir.

**7. Mantiqiy bilishga quyidagilardan qaysilar kiradi?**

1. Ilmiy, noilmiy, oddiy.
2. Tushuncha, hukm, xulosa chiqarish.
3. Sezgi, idrok, tasavvur
4. Kuzatish, tajriba, faraz.

**8. Mantiqiy xulosa chiqarish nima ?**

1. Tafakkur shakllaridan biri
2. Narsa va hodisalarni ifodalovchi fikrning murakkab shakli
3. Ikki yoki undan ortik chin hukmlardan ma'lum koidalar yordamida keltirib chikariladigan yangi mulohazaga aytiladi?
4. Hukm va fikrlardan iborat bo'lgan tafakkurning murakkab shakli

**9. Mantiq ilmining o'rganish ob'ektini nima tashkil qiladi?**

1. Tasavvur.
2. Tasavvuf.
3. Tushuncha.
4. Tafakkur.

## MAVZUGA OID TAQDIMOTLAR



“Ongli, bilimli odam har bir narsani mantiq tarozisida solib ko'radi. o'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida o'rgangan kishi etuk bo'ladi” “Ongli, bilimli odam har bir narsani mantiq tarozisida solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida o'rgangan kishi etuk bo'ladi”

*ISLOM KARIMOV*

## MANTIQA OID TA'RIFLAR:

- **MANTIQ** - insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida tartibli, aniq, ya'ni mantiqiy fikr yuritishdir.  
• *M.M.XAYRULLAEV*
- **MANTIQ** - biror bir fikrning rost yoki yolg'onligini tiklash uchun to'g'ri xulosaga olib keluvchi qoidalardir.  
*R.NAZAROV*
- **MANTIQ** - ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni aniqlovchi, ya'ni “chin fikrdan xato fikrni ajratuvchi” fandır.  
• *ARISTOTEL*
- **MANTIQ** - bu bir shunday san'atki, u har doim odam notiqlikda adashib qoladigan bo'lsa, to'g'ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror bir xulosa qilinadigan bo'lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o'z ichiga oladi.  
• *FOROBIY*

## **TAFAKKUR**- mantiq ilmining o'rganish ob'ekti

inson tushunchasini hosil qiladi

borliqni bilvosita aks ettiradi

Insonning ijodiy faoliyati hisoblanadi

til bilan uzviy bog'liq

**TAFAKKUR QONUNI**- muhokama yuritish jarayonida fikrlar o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat.

**Ayniyat qonuni**

**Nozidlik qonuni**

**Istisno qonuni**

**Etarli asos qonuni**

## TAFAKKUR SHAKLI-fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli

**TUSHUNCHA** – Predmetning umumiy va muhim belgilarini aks ettirgan tafakkur shaklidir.

**HUKM** – Predmetga ma'lum bir belgining xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shakliga aytiladi.

**XULOSA CHIQARISH**- Bir va undan ortiq chin mulohazalarda n ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlar keltirib chiqarishdan iborat

### 6-MAVZU: JAMIYAT VA INSON FALSAFASI

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi va uning falsafiy mohiyati
2. Ongning tabiati, struktasi va funksiyalari
3. Inson – falsafaning bosh mavzusi

**Tayanch tushunchalar:** inson, odam, shaxs, individ, antropologiya, ong, ongsizlik, in'ikos, hayot, o'lim.

**Inson — falsafaning bosh mavzusi.** Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. SHunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning «O'zligingni bil» degan hikmatli so'zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abdulxoliq Fijduvoni insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada baxs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo'lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og'irini engil qilmasa, unday fanning keragi bormikang' Shu ma'noda, inson, avvallo, o'zi uchun zarur bo'lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan.

Tabiat, madaniyat, siyosat, stivilizastiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo'lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog'liqdir.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Inson shunday murakkab va ko'p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik

tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma'nodosh bo'lsa ham, bir-biridan farqlanadi.

**Inson** — o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanih, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos.

Inson boshqa mavjudotlardan sostial xususiyatlari bilan ajralib turadi. CHunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol qilish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (ruxsat va ta'qiqlash) shular jumlasidandir.

Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U yaxlit mavjudot sifatida o'z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta'minlaydi. Insonga xos bo'lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo'yish yoki psixologik xususiyatlarni bo'rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi.

Falsafa tarixida inson to'g'risidagi ta'limotlarda biologizm, sostiologizm, psixologizm kabi yo'nalishlar vujudga kelgan. Biologizm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, sostiologizm insonning ijtimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa, ma'naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariga bir yoqlama yondashishga asoslangan edi.

Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shaxs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir — biridan farqlash muhimdir. **Shaxs** o'zida sostial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi. Chunki insonga xos ijtimoiy sifatlari, fazilatlar avloddan-avlodga irsiy yo'l bilan o'tmaydi. Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum, madaniyat, ishlab chiqarish, oila, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo'ladi.

Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar, siyosiy g'oya, milliy mafkura kabi omillar ta'sirida yashaydi, ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda yangicha fazilat va sifatlar paydo bo'ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

O'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak mas'uliyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsiga xos belgilardir. SHaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo'lida hatto hayotini qurbon qilish shaxs hayotining bosh maqsadiga aylanadi.

Shaxs mustahkam iymon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

Jamiyat o'z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o'z g'argan tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bugungi adabiyotlarda harizmatik, shuhratparastlik, tajovuzkorlik va boshqa shakldagi shaxslar timsoli aks ettirilmoqda.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi.

**Inson tarixning yaratuvchisi** sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta'minlashi barcha ijobiy va foydali yutuqlarni saqlashi va targ'ib etishi kabi xususiyati va qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi.

Antropologiya insondagi insoniylikning namoyon bo'lishi va rivojlanishini ruh bilan

bog'laydi. Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo'lgan biror-bir xususiyatga alohida urg'u bergan va shu orqali insoniy mohiyatni ochib berishga harakat qilgan. Masalan, I. Kant insondagi axloqiy jihatlarga ko'proq e'tibor bergan va uni ezgulikni yovuzlikdan farqlovchi mavjudot sifatida ta'riflagan. Vladimir Solovev insonning boshqa mavjudotlardan farqini uyalish, achinish va oliy kuchlarga sig'inish kabi xususiyatlarda, deb bilgan. Uning fikricha, inson o'zining tuban mayllari va gunohlaridan uyalish qobiliyatiga ega. Faqat odamlarga emas, balki butun tirik jonga achinish va muqaddas kuchlarga sig'inish insongagina xos.

**Antropologiya** inson mohiyatini, uning tabiat va jamiyatdagi o'rnini, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Antropologiyada inson mohiyatini to'laroq ochish uchun «men», «ong», «shaxs», «ruh» tushunchalari qo'llanadi. «Men» — insonning o'zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashidir. «Men» ong tufayligina o'zini boshqa borliqdan farqlaydi. Boshqa narsalar insonga begona voqelik bo'lib tuyuladi. SHaxs insonning mustaqilligini ifoda etadi.

Inson o'z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish inson borlig'ining birlamchi sharti hisoblanadi. Biroq hayotning ma'nosi faqat moddiy ne'matlardan bahramand bo'lish, tanparastlik, lazzatlanish, boylikka ruju qo'yishdan iborat emas. Inson ruhi ham o'ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. Shu bois unda ma'rifatparvarlik, odamiylik, odillik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, olihimmatlik, vatanparvarlik kabi ma'naviy fazilatlar shakllanadi. Yuksak ma'naviyat insonni ruhan poklaydi, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonni ma'naviy-ruhiy jihatdan kamol toptirishga qaratilgandir.

Insonning ma'naviy ehtiyojlarini uning tabiiy-moddiy manfaatlaridan ajratish, unga faqat ilohiy mavjudot sifatida qarash ham biryoqlamalikka olib kelishi, etilgan ijtimoiy muammolar mohiyatini to'g'ri tushunishga xalaqit berishi mumkin.

Antropologiya insonning ma'naviy olamiga chuqurroq kirib borish orqali olam mohiyatini bilish mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Islom Karimov ta'rifiga ko'ra, ma'naviyat (ruh) insonni axloqan poklaydigan, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydigan, ezgulikka undaydigan botiniy kuchdir. YUksak ma'naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdir. Insonning olijanob fazilatlarini etuk shaxslar timsolida o'z aksini topadi. Insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, uning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishida, muayyan mafkurani amalga oshirishida yaqqol ko'rinadi.

Bozor iqtisodiyoti inson ehtiyojlarini to'laroq qondirish, uning qobiliyati, ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bular quyidagilardir:

- mehnatni tashkil etish usul va shakllarining o'zgarganligi;
- mehnatga yangicha munosabatni rag'batlantirishga yordam beruvchi omillar;
- o'z qobiliyati, qiziqishlariga mos bo'lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyatining yaratilganligi;
- shaxs tadbirkorligi va ishbilarmonligining qo'llab-quvvatlanishi;
- turli mulk shakllarining vujudga kelganligi;
- shaxs erki va huquqlarining kengayganligi;
- davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlarining yaratilganligi;
- demokratik qadriyatlar rivoji;
- ma'naviy meros va madaniyat yutuqlaridan erkin foydalanish imkoniyatining yaratilganligi kabilardir.

Ular shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda, uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatlarini, uning ezgu maqsadlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga, uning barkamol sifatlar kasb etishiga qaratilgandir. Shaxs islohot natijalaridan bahramand bo'luvchigina emas, balki ularni sobitqadamlik bilan amalga oshiruvchi kuch sifatida ham yangilanish jarayonida o'zgaradi, yuksaladi, qadr-qimmat topadi va e'zozlanadi.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday kishilar mavjudligini e'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.



**Ong nima?** inson azal-azaldan o'zigagina xos bo'lgan ongning nima ekanligi to'g'risida o'ylab, bahslashib keladi. Bu bahslarning bir jihati, ong tabiat mahsulimi yoki inson ongi ilohiy yaratilganmig' degan masaladan iborat. Ikkinchi jihati esa, inson dunyoni doimo bir xil anglaganmig' Ya'ni asrlar davomida inson ongi takomillashib kelganmi yoki hamon o'sha o'shamig' degan muammo bilan bog'liq.

«O'zingni bilsang, olamni bilasan», - degan edi Suqrot. Aforizmga aylanib ketgan bu fikr ortida olam kabi inson ham siru sinoatlarga boy, u o'zini bilish orqali olam mohiyatini anglashga yo'l ochishi mumkin, degan g'oya yotibdi. Shu ma'noda, inson o'zini tashqi olamdan ajratib, alohida bir mo'jiza va tadqiqot mavzui sifatida o'rganishga harakat qila boshlagan paytdan buyon uni o'ylantirib kelayotgan muammolardan biri ongning mohiyati, uning kelib chiqishi masalasidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ongning tabiatini anglash masalasi - eng qadimiy falsafiy masalalardan biri, deyish mumkin. Garchand ong va uning turli xususiyatlari insonga xos hodisa sifatida psixologiya, adabiyot, sostiologiya kabi fanlarning tadqiqot mavzui doirasiga kirgan bo'lsa-da, ongning mohiyati, uning turli ko'rinishlari o'rtasidagi munosabat kabi masalalarni o'rganish bilan aynan falsafa shug'ullanadi.

Ogning mohiyati masalasi eng qadimiy muammolardan biri ekan, uni anglash jarayonida turli xil javoblar bo'lganligi tabiiy. Bu savolga eng qadimiy javob diniy va mifologik qarashlar doirasida berilgan.

**Ongni diniy tushunish** uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham o'ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsa-da, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, u olam va odamning yaratilganligi masalasi bilan bevosita bog'liqdir. Kimda-kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganing qudrati ekanligini tan olishi tabiiy.

**Ong moddiylikning miyada aks etishi** deb tushunishda, uning mohiyati inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etiladi. Bunday qarashlar ham qadimiy ildizlarga ega. XVIII asrga kelib ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog'lashga harakat qilgan qarashlar ham shakllandi. Ayni paytda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'lgan. Falsafa tarixida «**Vulgar materializm**» deb nom olgan oqim namoyandalarining qarashlari bunga misol bo'la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar safro ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham, o'lchab ham bo'lmaydi.

Xo'sh, ong tarixan qachon va qanday omillar ta'sirida shakllangan? U haqiqatan ham miya bilan bog'liqmig'?

**Ong tarixi** insonning inson bo'lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog'liqdir. Uzoq vaqt davomida inson, uning ongi planetar, ya'ni er shari doirasidagi hodisa sifatida qarab kelindi. Hozirgi zamon fani masalaga kengroq doirada yondashish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki fan dalillari inson paydo bo'lishini faqat erda kechgan jarayonlar bilan cheklab qo'yish to'g'ri emasligini, u koinot evolyustiyasining tabiiy hosilasi ekanligini tobora chuqurroq isbotlamoqda.

Inson biologik va ijtimoiy harakatning tashuvchisi ekan, harakat shakllari o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni, uning yuqori shakllari quyi shakllariga bog'liqligini, tayanishini, ulardan o'sib chiqishini unutmashlik lozim. Boshqacha aytanda, ular o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

Ong tarixi Quyosh sistemasi va unda millionlab yillar davomida sodir bo'lgan o'zgarishlardan ham ayricha olib qaralishi mumkin emas. Aynan mana shu jihatdan olganda, ongning shakllanishini kosmik hodisa sifatida qarash ham mumkin.

**In'ikos shakllari evolyustiyasi va ong.** Ong in'ikosning oliy shaklidir. Xo'sh, in'ikos deganda nima tushuniladi. In'ikos muayyan ta'sir natijasida paydo bo'ladi. Buning uchun esa, hech bo'lmaganda, ikkita ob'ekt bo'lishi va ular o'rtasida o'zaro ta'sir bo'lishi lozim. Eng umumiy ma'noda, har qanday predmetlarning u bilan ta'sirlashuvda bo'lgan boshqa predmetlarning ta'sirini muayyan tarzda aks ettirishi bilan bog'liq xossasiga in'ikos deyiladi.

Shu ma'noda in'ikos hamma joyda mavjud. Ayni paytda har bir holatda u o'ziga xos xususiyatga egadir. Chunonchi, notirik tabiatdagi in'ikos bilan tirik tabiatdagi in'ikos bir-biridan

tubdan farq qiladi. Notirik tabiatda in'ikos oddiyligi bilan ajralib tursa, tirik tabiatda u murakkab xarakter kasb etadi.

Shu bilan birga, notirik tabiatda in'ikos passivligi, tirik tabiatda esa, faolligi bilan ajralib turadi. Tirik tabiatda in'ikos tashqi ta'sir natijalaridan faol foydalanishni keltirib chiqaruvchi axborotli in'ikos shaklini oladi.

**Ong va miya.** Inson miyasi nozik, murakkab tuzilishga ega bo'lgan tizimdir. Aynan uning murakkabligi ong paydo bo'lishi mumkinligining asosiy shartidir. Bunday holat ham uzoq davom etgan evolyustiyaning tabiiy hosilasidir.

Ammo yuksak darajada tashkil topgan miyaning o'zi ham hali ong paydo bo'lishi uchun etarli emasligini unutmaslik lozim. Bu miya normal funkstional faoliyat ko'rsatishi zarur. Va nihoyat, normal funkstional faoliyat ko'rsatuvchi miya sohibi ijtimoiy munosabatlarga tortilgan bo'lishi shart.

Shu o'rinda vulgar materialistlar qarashlariga yana bir marta murojaat qilish lozim. Agar ular haq bo'lganida edi, hayvonot olamiga tushib qolgan inson bolalarida ham ong shakllangan bo'lishi kerak edi. Ular hayvonlar orasida bo'lganida ham jigar safro ishlab chiqaraveradi. Ammo, miya ongni ishlab chiqarmaydi. Bundan ongning ijtimoiy-ruhiy hodisa ekanligi va u faqat jamiyatdagina shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

**Ong va ruhiyat** (psixika). Ong psixik in'ikosning o'ziga xos, yuksak shaklidir. Ammo, bu psixika va ong tushunchalarini aynanlashtirish uchun asos bo'la olmaydi. Negaki, psixika hayvonlarga ham xosdir. Gap inson psixikasi haqida ketganda ham, u ong tushunchasiga nisbatan keng qamrovlilik kasb etishini unutmaslik lozim. **Z. Freyd fikricha**, psixika ongsizlik, ong osti hodisalarini va ongning o'zidan iborat uch qatlamdan tashkil topgan. Inson hayoti va faoliyatida ong bilan bir qatorda ongsizlik va ong osti hodisalari ham muhim ahamiyatga ega.

**Psixologlar fikricha**, inson farzandining kamol topa borishi bilan bir qatorda ko'plab funkstiyalar ong nazorati ostidan chiqib avtomatik xarakter kasb etishi bilan xarakterlanadi. Aytaylik, birinchi marta mashinaga o'tirganimizda, birinchi marta surat olayotganimizda deyarli barcha harakatlarimiz ongning qattiq nazorati ostida bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan esa ko'pgina harakatlarni ongsiz tarzda, anglamagan holda bajara boshlaymiz. Bunday holat inson faoliyatining xilma-xil sohalari, yo'nalishlarida, ularga ongning faol tarzda aralashishini, ya'ni qayta faoliyatni o'z nazoratiga olishi mumkinligini inkor etmaydi. Xatti-harakatlarning ongsizlik sohasiga ko'chishi bir tomondan ong «yuki» ning engillashiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ongning asosiy kuchi, quvvati, «diqqati»ni, inson hayoti uchun muhim bo'lgan harakat, jarayonlarga qaratilishiga imkoniyat yaratadi.

Ongsizlik doirasiga ong nazoratidan tashqarida qolgan sezgi, tasavvur, instinkt va intuistiya kabi hodisalar ham kiradi. Ana shu xususiyatlarni inobatga oladigan bo'lsak, ongsizlik ong mavjudligi va rivojlanishining tabiiy sharti deyish mumkin. Ong osti hodisalari ham psixik jarayonlarning muhim bo'g'inidir. **Z. Freyd fikricha**, ular ongsizlik bilan ong o'rtasidagi chegaraviy sohadir.

«Gap tagida- gap bor, kosa tagida- nim kosa» naqlida ong ostiga xos bo'lgan xususiyatlar ifodalangan, deyish mumkin. Negaki, har qanday faoliyatimizda ayni vaqtda biz uchun ahamiyati bo'lmagan holatlar bo'ladi. Ammo, bu ular kuzatishdan, nazoratdan chetda qoladi, degani emas. Biz uchun ahamiyatli xarakter kasb etganda, ular ong ostidan ong sferasiga ko'chishi mumkin. Masalan, biror joyga borayotganda, asosan, maqsadga tomon harakat qilinadi, ammo yo'lda uchragan boshqa narsa va hodisalar ham kuzatiladi, esda qoladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, ong osti inson ongli faoliyatining o'ziga xos kuzatuvchisi, zarur bo'lgan hollarda stenzori sifatida chiqishdek sifatlarga ega, deyish mumkin.

**Ong va til.** Til ongning insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo'sh, til deganda o'zi nima tushuniladig' Til, bu eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash to'g'ri emas. Negaki, muayyan belgilar tizimi hayvonlarga ham xos, ular yordamida jonzodlar o'rtasida muayyan axborot almashinuvi sodir bo'ladi.

Aytaylik, kabutarlarining «muhabbat» raqsi, jonzodlarning xavf-xatar paydo bo'lganda turli tovush — belgilar yordamida bir-birini ogohlantirishi, ayrim hayvonlarning o'zi yashaydigan hududni turli yo'llar bilan «chegaralab» chiqishi ana shunday belgilar tizimining o'ziga xos

ko'rinishlaridir. Lekin, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, bu belgi — signallar tizimi uzoq davom etgan evolyustiya davomida hosil qilingan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Hatti-harakat yoki boshqa belgilar yordamida uzatilayotgan axborotning mazmuni muayyan vaziyatdagi holat bilan belgilangan bo'ladi. Bundan farqli o'laroq inson nutqi, tili konkret vaziyat, makon va zamondan xoli bo'lishi, unga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Boshqacha aytganda, u o'zida o'tmishni, hozirgi holatni va istiqbolni ham ifodalashi mumkin. Bu inson tilining belgilar tizimi sifatida hayvonot dunyosida amal qiladigan belgilardan tub farqini ko'rsatuvchi muhim xususiyatidir.

Til qayd qilinganidek, belgilar tizimidir. Fan yuksak taraqqiy qilgan hayvonlarda axborot uzatishga xizmat qiladigan murakkab belgilar tizimi mavjud ekanligi va u hayvonot olami evolyustiyasi bilan bir paytda takomillashib borganligini isbotlamoqda. Demak, til yo'q joydan, birdaniga paydo bo'lib qolmagan. Ong in'ikos shakllarning uzoq davom etgan evolyustiyasining tabiiy hosilasi bo'lganidek, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan inson nutqi ham axborot uzatishga xizmat qiladigan belgilarning murakkablashib borishi jarayonining zaruriy natijasidir.

Demak, til belgilar tizimi sifatida kelib chiqishidan qat'iy nazar faqat insongagina xos va u ong bilan uzviy bog'liqdir. Negaki, tilda ong gavdalanadi. Til yordamidagina ong kishining o'zi va boshqalar uchun voqelikka aylanadi. Tilda ifodalanayotgan ma'no — mazmunning anglanishi insonning umumiy bilim darajasi, qiziqishi, qobiliyati, konkret sharoitdagi kayfiyati kabi omillarga ham bog'liq bo'ladi. Til fikrlash quroli, muloqot vositasi sifatida doimiy takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Ayni paytda insoniyat biz kundalik hayotda qo'llaydigan tabiiy til bilan bir qatorda muloqotning rang — barangligini ta'minlaydigan, fikrni ifodalashga xizmat qiladigan o'ziga xos imo-ishoralar raqs, musiqa «tiliga» ham ega. SHunday bo'lsa-da, ular so'zga ko'chgandagina anglashiladi, undagi mazmun tushunarli bo'ladi.

Ong va til munosabati haqida gap ketar ekan, til o'ziga xos tarixiy xotira rolini o'tashini ham unutmashlik kerak. Bu milliy tillar misolida ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Zero, millat tilida uning o'zligi, bosib o'tgan tarixiy yo'li, tafakkur tarzi aks etadi, mustahkamlanadi. SHunday ekan, mustaqillik sharoitida milliy tilimiz rivojiga alohida e'tibor berilayotganligi milliy o'zligimizni anglashimizning o'tish jarayonida milliy istiqbolimizni belgilashning uzviy qismi sifatida qaralmog'i lozim.

**O'z-o'zini anglash, uning shakllari.** Inson ob'ektiv voqelikni aks ettirish bilan bir qatorda o'zi haqida fikr yuritish, ruhida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarini nazariy tahlil qilishdek qobiliyatga ham ega.

O'zini o'zgalardan ajrata bilish, o'ziga munosabat, imkoniyatlarini baholash o'z-o'zini anglash sifatida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglashda o'zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish mumkin. Bu unsurlar o'z-o'zini anglashning sohibiga — subektiga ko'ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi haqida gap ketar ekan, u o'zini alohida organizm, oila, ijtimoiy guruh, millat, madaniyatga mansubligini va yuqoridagi xususiyatlaridan qat'i nazar alohida va betakror «Men» sifatida anglashdek bosqichlarni bosib o'tishini ta'kidlash zarur.

Insonning kamol topish jarayoni, o'z-o'zini anglashning rivojlanishi o'ziga xos xarakter kasb etadi. Masalan, dastlabki davrda bolada avvalo, boshqalar tomonidan berilgan tasavvur va baholar ustunlik qiladi. Bolaning tafakkuri o'sishi bilan, u olamni mustaqil anglay boshlaydi va o'zining imkoniyatlarini o'zi baholashga o'rganib boradi. Aynan mana shu davrda to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, aynan mana shu tarbiya ta'sirida bolada o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash ham yoki unga ortiqcha baho berib yuborish holati ham shakllanib qolishi mumkin.

Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonida u mansub bo'lgan madaniyatning o'rni nihoyatda katta. Zero, aynan madaniyat xalq, millat to'plagan tajriba, bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan holda shaxs dunyoqarashi shakllanishiga faol ta'sir o'tkazadi. SHuning uchun ham shaxs madaniyati, xulqu odobi, ongi, o'z-o'zini anglashining darajasini belgilovchi indikator sifatida namoyon bo'ladi.

**Ong va axborot.** Keyingi yillarda «Information portlash» tushunchasi ham tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim yutuqlaridan biri bu kompyuterlarning yaratilganligidir. Ularning yaratilishi bir tomondan inson ongi, tafakkuri, kuch -qudratining, ikkinchi tomondan, ana

shu kuchga tushadigan yukning engillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo'lidagi urinishlarning natijasi bo'ldi. Asrimizning o'rtasida paydo bo'lgan bu vosita shiddatli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab sekundiga minglab operastiyalar bajara oladigan kompyuterlar bo'lgan bo'lsa, ularning bugungi avlodi 10 millionlab murakkab operastiyalarni qoyilmaqom qilib uddalaydi.

Xo'sh, bularning inson ongi va tafakkurining mohiyati bilan nima aloqasi borg' Gap shundaki, EHM lar ham inson tafakkuriga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarga, uning tobora ko'proq ega bo'lib borishi, EHM fikrlay oladimi, agar inson o'ziga xos xususiyatlarini ularga tobora ko'proq ko'chirib boraversa, oxir oqibatda, bir vaqt kelib, u o'zi yaratgan ana shu qurolning quliga aylanib qolmaydimi, degan savollarning kun tartibiga qo'yilishiga olib keldi. Aytaylik, kompyuter albatta oldindan programmalashtirilgan operastiyalarni, millionlab marta tez bajarishi mumkin. Ularning «xotira» qudrati nihoyatda yuksak va h. k. Ammo bular EHMLarning fikrlashidan, ularning inson ustidan hukmronlik qilishidan dalolat beradimig' Albatta, yo'q. Kompyuterlar qanchalik murakkab operastiyalarni bajarmasinlar, inson tomonidan programmalashtirilgan jarayonlarnigina amalga oshiradilar, undan tashqariga chiqa olmaydilar. Insonning fikrlash jarayoni ongsizlik, onglilik, kechinmalar, ijod kabi hodisalarni qamrab oladi. Kompyuter esa bunday xususiyatlarga ega emas. Shunday ekan, kompyuterlar insonning muayyan yo'nalishlardagi aqliy faoliyatini engillashtirishga xizmat qiladi va o'zining yaratuvchisi ustidan hukmron bo'la olmaydi.

Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hozirgi davrda fan sohasida erishilgan natijalar har o'n yilda, informastiya olish esa har 3-4 yilda ikki barobarga oshmoqda. Ana shunday sharoitda inson ongi, uning xotira qudrati bu axborotlarni o'zlashtira oladimi, degan savol ko'ndalang bo'lmoqda. Yangi bilimlar, axborot oqimi unchalik kuchli bo'lmagan yaqin o'tmishda tirishqoq kishi insoniyat bilimi erishgan asosiy natijalarni o'zlashtira olar edi. Bugungi kunda faqat fanning turli yo'nalishlari bo'yicha yiliga bir necha million kitob nashr etilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, inson eng yangi adabiyotlarni o'rganib borishga harakat qilganda ham, uning har bir o'qigan betiga o'n ming o'qilmagan sahifa to'g'ri kelar ekan.

Kishilarning paydo bo'lgan yangi kitoblarning aksariyatini jismonan o'qib ulgurmaganligi «information portlash» keltirib chiqarayotgan oqibatlarining bir ko'rinishi, xolos. Masalaning yana bir jihati borki, bu inson to'plagan bilim, axborotning ma'naviy eskirishi, keraksiz bo'lib qolayotganligidir. Bunday eskirish sur'ati tobora tezlashib bormoqda. Masalan, oliy — ta'lim sohasida bu jarayon olti — etti yil, kompyuter texnologiyasi sohasida esa bir yil davomida sodir bo'layotganligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Bu agar siz oliy o'quv yurtini bitirganingizga etti yil bo'lgan bo'lsa, o'z vaqtida olgan bilimlaringizning aksariyati bugungi kun talabiga javob bermasligini bildiradi. Ana shunday sharoitda kishilarning o'z bilimlarini yuqori darajada ushlab turishlari ulardan doimiy diqqat-e'tiborni, o'z ustida ishlashni talab qiladi. Aks holda, ta'lim dargohini eng yuqori natijalar bilan bitirgan mutaxassis ham tez orada chalasavod bo'lib qolishi mumkin.

Umumlashtirib aytganimizda, ongning mohiyatini, uning koinot evolyustiyasining tabiiy natijasi ekanligini tushunish, u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ilmiy talqin etish olam va odam birligini anglash imkonini beradi. Ayni paytda, ongning mohiyatini anglash insonning o'zligini, yashashdan maqsadi, hayotining ma'no-mazmuni kabi masalalarni chuqurroq tushunishga yo'l ochadi. Bu ong va u bilan bog'liq masalalar amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Har bir kishiga xos individual ong bo'lishi isbot talab qilmaydiga hol. SHu bilan birga xilma-xil kishilar, turli-tuman sohalar, guruh, partiya, millat kabi ijtimoiy birliklardan iborat jamiyat uchun ham umumiy anglash mezonlari va me'yorlari bormig' Jamiyat yagona jism emas-ku, unda yaxlit anglash usuli va umumiy ong bo'lishi to'g'risida gapirish qanday bo'larking' degan savollar ham uchraydi. Bu savollarning tarixi uzoq.

**Ijtimoiy ong** tabiiy va ijtimoiy voqelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo'lgan umumiy his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuidir.

Ijtimoiy ong tufayli jamiyatning o'z-o'zini anglashi sodir bo'ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi. Ijtimoiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy ong ham o'zgarib rivojlanib boraveradi. Ammo bundan, aslo, ijtimoiy ongning taraqqiyoti faqat ijtimoiy voqelikdagi

o'zgarishlargagina bog'liq ekan-da, degan xulosa kelib chiqmaydi. Zero, ijtimoiy ong o'z taraqqiyotida nisbiy mustaqillik xarakteriga va ijtimoiy voqelikka faol aks ta'sir eta olish xususiyatiga ham egadir.

Ijtimoiy ongning bunday xususiyatlari nimalarda ko'rinadig'

Avvalo, ijtimoiy ongga vorislik xos ekanligini ta'kidlash lozim. Bu ijtimoiy ong shakllarining o'z rivojlanish mantiqiga, qonuniyatlariga ega ekanligida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy ong rivojida uning turli shakllarining o'zaro ta'siri ham muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy ong, undagi o'zgarishlar voqelikka hamma vaqt aks ta'sir etib kelgan. Bilimlar ko'lami, tarixiy tajriba har bir davrda ayricha bo'lganidek, bu ta'sirning kuchi ham turlicha bo'lgan. Ijtimoiy ongning mohiyati uni individual ong bilan solishtirganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

**Ijtimoiy ongning strukturasi** ijtimoiy munosabatlar va kishilar faoliyatining turlari bilan belgilanadi. Odamlar faoliyati qanchalik xilma-xil, ularning ijtimoiy munosabatlari qanchalik boy bo'lsa, ijtimoiy ong ham shunchalik boy va murakkab bo'ladi. Voqelikni aks ettirish darajasiga ko'ra, ijtimoiy ong odatiy va nazariy ongga bo'linadi.

**Odatiy ong** hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuidan iborat bo'lib, kishilarning kundalik hayotidagi voqealarni aks ettiradi va rivojlanadi. Uning sohiblari - sub'ektlari alohida olingan shaxslarning hayotiy tajribasi, qiziqishlari, qobiliyatlari, bilimlari, hayotda egallangan mavqelari hech qachon bir xil bo'lmaydi.

Odatiy ongda nazariy bilimlarga dalil va asos bo'lib xizmat qiladigan elementlar bo'ladi. Olimlar, san'atkorlar turli nazariyalar, badiiy obrazlar yaratishda hayotiy-kundalik ongga asoslanadilar, undan ma'naviy oziq oladilar. Odatiy ongda xalq donishmandligi, an'ana va urf-odatlar, kundalik turmush qoida va talablari, tabiat haqidagi bilimlar, shuningdek turli uydirmalar, noto'g'ri qarashlar ham o'z ifodasini topadi. Ko'p asrlik hayotiy tajribani ixcham shaklda o'zida mujassamlashtirgan xalq maqollari bunga misol bo'la oladi. Odatiy ong sof holda uchramaydi. Chunki, inson farzandi murg'aklik davridanoq o'z atrofidaqilar, so'ngra kitoblar, ta'lim tizimi yordamida inson zakovati erishgan ilmiy bilimlarni ham o'zlashtirishga kirishadi. Boshqacha aytganda, sodir bo'layotgan voqealarga nafaqat o'z tajribasi, balki ilmiy bilimlar nuqtai nazaridan ham baho bera boshlaydi, nazariy ong ta'sirida bo'ladi.

Xo'sh, nazariy ong deganda nimani tushunish kerakg'

**Nazariy ong** deganda nazariyotchilar, olimlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Odatiy ongdan farqli o'laroq nazariy ong o'zgaruvchan xarakterga ega. Bu o'zgaruvchanlik ilmiy bilimlarning shiddatli rivojlanishi, voqelik haqidagi bilimlarning doimiy chuqurlashib va kengayib borishi bilan belgilanadi. SHuningdek, odatiy ongga voqealarning tashqi tomonini ifodalash xos bo'lsa, nazariy ong voqealarning mohiyatini, rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. SHuning uchun ham u odatiy ongga faol ta'sir qila oladi va kundalik tajriba asosida hosil qilingan bilimlarni saralashga yordam beradi.

**Ijtimoiy psixologiya** sotsial muhit, kundalik turmush sharoitlari ta'siri ostida vujudga keladi va rivojlanadi. Uni subektiga ko'ra muayyan ijtimoiy guruh, elat, millat psixologiyasi kabi turlarga bo'lish mumkin. Millatlarning etnosotsial birlik sifatida shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ustuvor ahamiyatga ega. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ayrim hududda yashagan aholining doimiy aloqada bo'lishi, o'zaro ta'siri, munosabati natijasida tilda, madaniyatda umumiylikning shakllanishga ta'sir qilganligini ko'ramiz. Bunday sharoitda psixologiyada ham o'xshash tomonlar yuzaga kela borganligi tabiiy, albatta.

Alohida olingan bir millatga xos bo'lgan psixologik jihatlarni ushbu millat bosib o'tgan tarixiy yo'ldan, xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlardan qidirish zarur. Ijtimoiy voqelikning o'zgarishi bilan milliy psixologiyaga xos bo'lgan xususiyatlar ham o'zgarib boradi. Ammo bu o'zgarishlar nisbatan sekin kechganligi tufayli, u hamma vaqt ham tezda ko'zga tashlanavermaydi.

### **MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Jamiyat tushunchasining mohiyati va mazmuni.
2. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi turli nazariyalar.
3. Ong va uning mohiyati nimadan iborat?
4. Ongning paydo bo'lishi va rivojlanishida mehnat va ijtimoiy mu-xit omillarining roli nimadan iborat?

5. Ong va tafakkur, ong va miya, ong va tilning o`zaro bogliqligi qanday?
6. Uz-o`zini anglash nima?
7. In`ikos tushunchasining mohiyati nima?
8. Ong va instinglar, ularning farqi?
9. Tafakkurning miya va ong faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
10. Kaysi falsafiy ta`limot namoyondalari ongni moddiy-materiyaning shakli va ko`rinishi deb xisoblaydilar?
11. Milliy uz-o`zini anglash nima?
12. Ong va kibernetika. Ularning munosabati haqida suzlang.
13. Ijtimoiy ong nima?

### **MAVZU BO`YICHA TEST SAVOLLAR:**

#### **1. Antroposotsiogenez nima?**

1. G`oyaning shakllanishi.
2. Jamiyatning shakllanishi.
3. Madaniyatning shakllanishi.
4. Jamiyatda insonning shakllanishi.

#### **2. Insoniyat atrof muhitning bilishi mumkin emas degan g`oyani ilgari suruvchi oqim.**

1. Nakshbandizm.
2. Teizm.
3. Agnostizm.
4. Sufizm.

#### **3. Insonlar juda ko`pchilik bo`lib yashaydigan va rivojlanadigan muhitning falsafiy atamasi.**

1. Oila
2. Jamiyat.
3. Maktab.
4. Shaxar.

#### **4. Insonni kamolotga eltadigan yo`llaridan biri.**

1. Rohatlanish.
2. Uyqusizlik.
3. Ma`naviyat.
4. Safarbarlik.

#### **5. Inson tushunchasi arab tilidan olingan bo`lib, ma`nosi?**

1. Madaniyatli, aqli
2. Unutmoq
3. Maxluqot, e`tiqodli
4. Hissiyotli, ongli.

#### **6. Insonda tabiiylikni ifodalovchi tushunchalar qatorini ko`rsating.**

1. Ong, Axloq, madaniyat.
2. Turilish, bolalik, qarilik.
3. Ishlab chiqarish, nutq, munosabat.
4. YUqoridagilarni barchasi.

#### **7. Insoniyat atrof muhitning bilishi mumkin emas degan foyani ilgari suruvchi oqim.**

1. Nakshbandizm.
2. Teizm.
3. Agnostizm.
4. Sufizm.

**8. Insonlar juda ko`pchilik bo`lib yashaydigan va rivojlanadigan muhitning falsafiy atamasi.**

1. Oila
2. Jamiyat.
3. Maktab.
4. SHahar.

**9. Insonni kamolotga eltadigan yo`llaridan biri.**

1. Rohatlanish.
2. Uyqusizlik.
3. Ma`naviyat.
4. Safarbarlik.

**10. Shakllangan inson (ijtimoiylashgan inson).**

1. Individ.
2. Janob.
3. SHaxs.
4. Sub`ekt.

**MAVZUGA OID TAQDIMOTLAR**

**INSONNING BIOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

- OVQATLANISH
- HIMOYALANISH
- ZURRIYOT QOLDIRISH

## INSONNING PSIXIK XUSUSIYATLARI

- ▶ RUHIY KECHINMALAR
- ▶ HAYRATLANISH
- ▶ IZTIROB CHEKISH
- ▶ ZAVQLANISH
- ▶ KAYFIYAT

## INSONNING SOTCIAL XUSUSIYATLARI:

- ▶ til
- ▶ muomala
- ▶ ramziy belgilar
- ▶ bilim
- ▶ ong
- ▶ axloq
- ▶ nutq
- ▶ tafakkur



# *INSON*

**- Har qanday falsafiy ta'limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya. Boshqa tirik mavjudotlardan insonning tub sifatli farqini ifodalovchi xususiyatlaridan yana biri o'z amaliy faoliyatini tartibga sola bilishidir.**

# *SHAXS*

**- o'zida sotcial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi.**

**inson ta'lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, Axloqiy me'yorlar, siyosiy g'oya, milliy mafkura kabi omillar ta'sirida yashaydi, ularni o'zlashtirib, shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi.**



## INDIVID -



atom, alohida ajralib turuvchi mohiyat, ancha keng bo'lgan ijtimoiy yaxlitlikning ayrim olingan vakili.



eng aloqandalik ko'plikning bir vakili, ko'plarning biri. Shu ma'noda deyarli har bir odam - individ (ba'zan individium) ham deyiladi.




insonning spetsifik xususiyati emas, ob'ektiv dunyodagi barcha predmetlar va hodisalar u yoki bu tarzda ajralib turadi.

## ANTROPOLOGIYA -


- insonni o'rganadigan fan. Antropologiya inson mohiyatini, uning tabiat va jamiytdagi o'rnini, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo'lgan biror bir xususiyatga alohida urg'u bergan va shu orqali insoniy mohiyatni ochib berishga harakat qilgan.

# HAZRATI INSON




# INSON MUAMMOSINING FALSAFIY TAHLILI



## ENG MUHIM QADRIYATLAR






## JAMIYAT

- ▶ - Tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanib, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir.

## JAMIYAT TUSHUNCHASI



Jamiyat fanga ma'lum tizimlar orasida eng murakkabi bo'lib, uni o'rganish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. jamiyat hayoti juda faol bo'lib, har bir xalq o'zining alohida, betakror tarixiga ega. Jamiyat hayotining barcha jarayonlari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqki, ba'zan turli vaziyatlarda belgilovchi va belgilanuvchi jarayonlar o'rin almashadi. Tarixiy jarayonda tasodiflar va sub'ektiv omil ayniqsa muhim rol o'ynaydi



## 7-MAVZU: AXLOQIY QADRIYATLAR.

### Reja:

1. Etikaning mohiyati va ahamiyati.
2. Axloqiy kategoriyalar.
3. Axloqiy qadriyatlar va hozirgi zamon.

**Tayanch tushunchalar:** odob, axloq, xulq, axloqiy kategoriyalar, nikoh, oila, ma'naviy muhit, muomala madaniyati, axloqiy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, milliy qadriyat, kasbiy odob, barkamol avlod, «Ommaviy madaniyat», axloqiy tarbiya.

Etika, ya'ni axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan, falsafa fani tarkibidagi asosiy bo'limlardan biri. U asrlar davomida Sharq mamlakatlarida "Ilmi ravish", "Ilmi axloq"; "Axloq ilmi", "Odobnoma" singari nomlar bilan atab kelingan va mustaqil fan darajasiga erishgan. Yevropoda esa "Etika" nomi bilan mashhurdir. Uni birinchi bo'lib, yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga u falsafa, matematika va fizikani; Ikkinchi guruhra - etika va siyosatni; uchinchi guruhra esa - san'at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va "Etika" (taethka) deb ataganlar. Etika, ya'ni axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. "Axloq" so'zi arabchadan olingan bo'lib, "xulq" so'zining ko'lik shaklidir. "Axloq" iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot ob'ektini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va hatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatda olib, uni doira shaklida aks etgiradigan bo'lsa q doiraning eng kichik qismini odob, undan kattapoq qismini hulq eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

**Odob** - inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli hatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

**Xulq** - oila, jamoa, mahalla miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy hatti-harakatlar majmuidir. **Axloq** esa - jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy hatti-harakatlar yig'idisidir.

Bu fikrlarimizni misollar misollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Deyliq metroda yoshgina yigit, talaba hamma qatori o'tiribdi. Navbatdagi bekatdan bir kekxa kishi, chiqib, unning ro'parasida tik turib qoldi. Agar talaba darhol: "O'tiring, otaxon!" deb joy bushatsa, U chiroyli amal qilgan bo'ladi, chetdan qarab turganlar unra ich-ichidan minnatdorchilik bildirib, "Baraka topgur, odobli yigitcha ekan", deb qo'yadi. Aksincha, talaba yo teckari qarab olsa, yoki o'zini mudraganga solib, qariyaga joy bo'shatmasa, g'ashimiz keladi, ko'nglimizdan: "Buncha beodob, surbet ekan!" degan fikr, o'tadi, xullas, u bizda yoqimsiz taassurot uyg'otadi. Lekin, ayni paytda, talabaning qariyaga joy bo'shatgani yoki bo'shatmagani oqibatida vagondagi yo'lovchilar hayotida biror-bir ijobiymi, salbiymi - muhim o'zgarish po'y bermaydi.

Xulqqa quyidagicha misol keltirish mumkin: mahalladagi oila boshliqlaridan biri imkon boricha qo'ni-qo'shnilarning barcha ma'rakalarida xizmatda turadi, hech kimdan qo'lidan kelgan yordamini ayamaydi, ochiq ko'ngil, ochiq qo'l, doimo uz bilimini oshirib borishga intiladi, tirishqoq oila a'zolariga mehribon va hokazo. Unday odamni biz xushhulq inson deymiz va unga mahallamizning namunasi sifatida qaraymiz. Bordi-yu, aksincha bo'lsa, u qo'ni-qo'shnilar bilan qo'pol muomala qilsa, to'y-ma'rakalarda janjal ko'tarsa, sal gapga o'dag'aylab, musht o'qtalsa, ichib kelib, oilada xotin-bolalarini urib, haqoratlasa, uni badxulq deymiz. Uning badxulqliligidan oilasi jabr ko'radi, mahalladagilarning tinchi buziladi, lekin xatti-harakatlar jamiyat ijtimoiy hayotiga yoki insoniyat tarixiga biror ta'sir o'tkazmaydi.

**Axloqqa kelsak**, masala jiddiy mohiyat kasb etadi: deylik bir tuman yohud viloyat prokurori o'zi mas'ul hududda qonun ustuvorlirini, adolat qapop toposhini ko'zlab ish yuritadi, lozim bo'lsa, hokimning noqonuniy farmoyishlariga qarshi chiqib, ularning bekor qilinishiga



erishadi; oddiy fuqaro nazdida nafaqat uz kasbini e'zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolatli tuzum timsoli tarzida gavdalanadi, u – ummii millat, vatan va inson manfaatira bag'ishlagan yuksak axloq egasi; u, o'zi yashayotgan, jamiyat uchun namuna bo'laroq o'sha jamiyatning yana da taraqqiy topishira xizmat qiladi. Agar mazkur prokuror, aksincha. Qonun himoyachisi bo'laturib, uzi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yulida oqni qora, qorani oq deb tursa, u axloqsizlik qilgan bo'ladi: oddiy fuqaro nazdida boshqa kishi prokuror-amaldor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan degan tasavvur uyg'onadi va tasavvurning muntazam kuchayib borishi esa, oxir-oqibat o'sha jamiyat yoki tuzumni tanazzulga olib keladi. Albatta, har uchala axloqiy hodisa va ularning ziddi nisbiylikka ega. Chunonchi, hozirgina misol keltirganimiz prokurorning axloqsizligi darajasi bilan o'z yakka hukmronligi yo'lida millionlab begunoh insonlarni o'limga mahkum etgan Stalin, Gitler, singari shaxslar orasida farq bor: agar prokurorning axloqsizliri bir millat yoki mamlakat uchun zarar qilsa, totalitar tuzum hukmdorlari xatti-harakatlari umumbashariy miqyosdagi fojialarga olib keladi.

Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishda xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi -yohud ezgulik falsafasi deb atash mumkin. Xozir u falsafiy fan sifatida uch yo'nalishda ish olib boradi, ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyoti tadqiq etar ekan u axloqini: 1) bayon qiladi; 2) tushuntiradi; 3) urgatadi. Shunga ko'ra, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va rasmona-me'yoriy tabiatga ega. Kadimrilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero sof nazariy axloqshunoslikning bo'lishi mumkin emas. U insoniyat uz tajribasi orqali ershgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, nakllar, matal-makollar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadi, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradi va falsafiy xulosalar chiqaradi. Ya'ni, axloqshunoslik fanida Aflotun, Arastu, Epikur, Sitseron, Seneka, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Spinoza, Kant, Xegel, Shopehauer Feyerbax, Kirkegaard, Nittsshe, Vl.Solovyov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta'limotlar bilan birralikda "Patanjali", "Kobusnoma", Sa'diyning "Guliston", Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Montening "Tajribanoma", Laroshfukoning "Hikmatlar", Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi amaliy axloqqa bag'ishlangan asarlar ham o'z mustahkam o'rniga ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi, o'ziga xosligi xam undagi nazariya bilan amaliyotning omuxtaliridadir.

Axloqshunoslik ijtimoiy-falsafiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning nafosatshunoslik (estetika) bilan aloqasi qadimiy va o'ziga xos. Avvalo, insoning har bir hatti-harakati va niyati xam axloqiylikka, xam nafosatga terishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go'zallik) xam nafosat (tashqi go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ko'p hollarda axloqiylikni ichki go'zallik nafosatni tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ma'lumki, sanat nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Har bir sanat asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va san'atkor doimo o'zi yashayotgan zamonda erishilgan Eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali bevosita yoki bilvosita aks ettiradi. Demak, nafosatshunoslik o'rganayotran har bir badiiy asar ayni paytda, ma'lum ma'noda, axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi. Axloqshunoslikning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, ular bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadap mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katra ta'sir ko'rsatran. Ayni paytda, dinlar xam axloqni ana shunday ta'sir o'tkazganlar. Chunonchi, islom dinini oladigan bo'lsak, Quroni Karim, Hadisi sharif, Ijmo' va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talablar musulmon Sharqi mallatlari axloqiy darajasininga katta axamiyat kasb ztgan. Shuningdek, komil inson muammosi xar ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farq shundaki, axloqshunoslik bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondoshadi. Axloqshunoslikning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosdagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Zero, etikaning tadqiqot ob'ektlari ko'p jihatdan o'xshash, ular faqat yondoshuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi. Ya'ni huquq me'yorlarining bajarilishi, odatda, maxsus adliya idoralaridagi lavozimli Kishilar orqali, majburiy sanksiyalar vositasida yo'lga qo'yiladi: axloq me'yorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf-

odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, alohida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy guruh jamiyat tomonidan amalga oshipiladi. Shuningdek, huquqshunoslik kasbi uchun muhim bo'lgan amaliy axloq jihatlari axloqshunoslikning huquqshunos odobi deb ataladigan maxsus sohasi tadqiq qiladi va tavsiya etadi.

Axloqshunoslik hamma davrlarda ham yuksak ahamiyat kasb etib kelgan fan. Faqat zulm va zo'ravonlikka, adolatsizlik va huquqsizlikka asoslangan totalitar tuzumlardagina yolg'onga bo'ysundirilgan, soxtalashgirilgan hamda shu yo'l bilan uning ahamiyati pasaytirilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan yana aloqshunoslik yangi jamitda tobora uz yuksak mavqeini egallab bormoda.

Shunday qilib, axloq - oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. Ya'ni axloqning kelib chiqishi ilohiy manbadandir. Ana shu ilohiy asosni asrab-avaylab, taraqqiy toptirish har bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois o'z-o'zini va iloji bo'lsa, o'zgalarni axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda savob sanaladi.

Axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo'lgan omillar, unsurlar to'g'risida to'xtalmaslik mumkin emas. Axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb hisoblaydilar. Bular - axloqiy anglash (axloqiy ong), axloqiy his etish (axloqiy hissiyot) va axloqiy munosabatlar (axloqiy hatti-xarakterlar). Ba'zi mutaxassislar (mashhur rus axloqshunosi A.I. Titarenko) axloqshunoslik mezoniy tushunchalarini (katetoriyalarini), axloqiy meyorlar va tamoyillarni axloq tuzilmasi tarzida taqdim etadilar. Bizning nuqtai nazarimizdan bu fikr unchalik to'g'ri emas. Chunki mazkur tushunchalar, tamoyilar va meyorlar ko'proq axloqqa emas, balki uni o'rganadigan fanga - axloqshunoslikka taalluqlidir. Umuman, shuni aytish kerakki, axloqshunoslik fanida ancha-muncha chalkashliklar mavjudki, ularning sababini mazkur fanning boshqa fanlarga nisbatan aloqqa xususiyatlarga egaligidan, yani unda ko'p hollarda ilmiy-nazariy jihatlarning ilmiy-amaliy tomonlar bilan omuxtalashib ketganidan qidirmoq lozim.

Shunday qilib, axloq tuzilmasi uch asosiy omilni axloqiy anglash, axloqiy aks etish va axloqiy munosabatlarni uz ichiga oladi. Ayni paytda ana shu omillarning tuzilmadagi o'rni, to'g'rirog'i, mavqei masalasida ham turli xil qarashlar mavjud. Ba'zi axloqshunoslar axloqiy anglashni, boshqa birovlar axloqiy hissiyotning o'zini asosiy unsur deb talqin etadilar. Yana ba'zi birovlar axloqiy anglash - axloqiy ongga etakchilik mavqeini beradilar. Xo'sh, aslida qanday qarash haqiqatga yaqinroq?

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, juda ko'p hollarda axloq tuzilmasidagi mazkur uch omil-unsurning birortasiz axloq tumunchacini tasavvur qilib bo'maydi. Boshq.acha aytganda, axloqni inson ko'zi oldida gavdalamiruvchi axloqiy munosabatlarning aks etish va axloqiy anglashsiz yuzaga chiqishi yani mavjud bo'lishi mumkin emas. Bunday holat axloqiy his etishga ham, axloqiy anglashga ham taalluqli. Zero tuzilmadagi bu uchunsur-omil bir-birisiz kamdan-kam mavjud bo'ladi, doimo bir-birini taqozo qiladi.

Endi axloqiy anglashning tuzilmadagi etakchilik mavqeiga, to'g'rig'i, asosiy unsur sifatidagi o'rniga kelsak, uni bu tarzda talqin etish, bizningcha, to'g'ri emas. Vaholanki, sho'rolar davrida va hozirdagi rus olimlari orasida ba'zi g'arbdagi zamonaviy axloqshunoslik yo'nalishlarida ana shunday qarash hukmron ekanini ko'ramiz. Aslida esa, tuzilmada poydevor unsur sifatida aloqiy siyosatyor yoki axloqiy xis etishi namoyon bo'ladi. to'g'ri, juda ko'p hollarda biror bir axloqiy qarorning amalga oshuvi uzok yoki qisqa vaqt mobaynida usha qaror oqibatlarini to'g'risida ongli ravishda xulosa chiqarishga, ularni avval;dan anglab etishga urinish bilan bog'lik bo'ladi, ya'ni biz o'z xatti xarakterimizni axloqiy anglash elagidan o'tkazib, faoliyat ko'rsatamiz. Lekin o'sha anglab amalga oshirilgan axloqiy qaror tubida, so'zsiz, axloqiy hissiyot yotadi. Demak, axloqiy his etish axloqiy anglash uchun material vazifasini o'taydi.

Ba'zan esa o'sha "material" - hissiyotning o'zi axloqiy anglashni chetlab o'tib, - munosabat tarzida namoyon bo'ladi. Bunga insoning favqulodda holatlardagi hatti-harakati misol bo'la oladi. Deylik, yuqori tezlikda ketayotgan avtomobil oldidan yo'l o'rtasida, koptokni quvib, go'dak chiqib qoldi, h aydovchi tormozni bosish barobarida, shu zahoti mashinasini keskin chetga buradi. Bola omon qoladi, haydovchi jarohatlanadi, mashina pachoq bo'ladi. Bu holatda haydovchining go'dakka nisbatan, mehf-shafqati, achinish hissi, inson bolasini oliy qadriyat sifatida his qilishi muhim rol o'ynaydi. Haydovchi o'z xatti-harakatini "Oqilona qarorga" kelishi uchun, "etti o'lchab, bir kesib" amalga oshirmaydi - hamma narsa bir lahzada ro'y beradi. Bunda anglash emas, ong

emas, oniy intuitsiya, uz qavmdoshi hayotini asrashdek tabiiy-biologik hissiyot-instinkt hal qiladi, yani mazkur hissiyot tom ma`nodagi anglash darajasiga ko`tarilib ulgurmasdanoq munosabatga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, bizning axloqiy hayotimiz, barcha axloqiy tajribalarimiz, axloqiy faoliyatimiz ana shu uch omil asosida ro`yobga chiqadi. Axloqiy kodekslarimiz, me`yorlarimiz va tamoyillarimiz ularga asoslanadi. Lekin aldov, yolg`on, soxtalik va totalitar axloqiy tuzum hukmronlik qilgan davrlarda yoki mamlakatlarda axloqiy hissiyot, axloqiy anglash, axloqiy munosabatlar qabul etilgan kodekslar, me`yorlar hamda tamoyillarga ko`pincha to`g`ri kelmaydi. Rasmiy axloqiy qonun-qoidalar bilan haqiqiy axloqiy intilishlar orasida ma`naviy jarlik paydo bo`ladi. Tilda bu qonun-qoidalar ko`klarga ko`tarilgani holda, dilda, ich-ichdan ularga qarshilik hukm suradi. Natijada jamiyat uchun fojea bo`lgan axloqiy so`z bilan axloqiy faoliyatning aloxida-alloqa mavjudligi ro`y beradi.

**Muhabbat bosh mezoniy tushuncha** sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o`z “hissa”siga ega. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vataparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo`maydi. Muhabbat - insonni tashqi olam bilan bog`lovchi, uni yolg`izlikdan olib chiqadgan buyuk kuch bo`lib, uning ob`ekti doimo go`zallik, manfaatsiz go`zallik. U - Allohmi, Vatanni, yormi - muhabbat egasiga undan-da go`zalroq narsa yo`q. Ayni paytda bir ob`ektning cevgan kishi boshqa ob`ektlarni xam sevmasligi mumkin emas. Deylik, yorga bo`lgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero “o`z-o`zicha”, yakka, “xudbin” muhabbat ning bo`lishi mumkin emas. Inson o`zi-o`zgaga aylanganida, o`zgani o`ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Mana shu ob`ekt bilan sub`ekt orasidagi farqning yo`qolishi eng buyuk, eng mukammal lazzatdir. Buni Mavlono Fuzuliy nihoyatda go`zal qilib, bir baytda shunday ifodalaydi:

*Ishqdir ul, nash`ayi komilkim, andandir mudom,  
Mayda ta`siri harorat, nayda ta`siri sado.*

Komil lazzatga faqat komil insongina erisha oladi. Demak, muhabbat inson axloqiy hayotining cho`qqisi, komillik belgisidir. Shu bois haqiqiy muhabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farxod va Shirin, Romeo va Julietta, Otabek va Ra`no va ho kazo.

Shuni ta`kidlash lozimki, muhabbat - oliy tuyg`u, shu ma`noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, quyi narsa hodisalarga nisbatan xam qo`llash hollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari g`arblik mutafakkirlar, ba`zi rus faylasuflari muhabbat tushunchasini o`likka (nekrofil), molidunyoga, pulga nisbatan qo`llaydilar. Ularga nisbatan “o`chlik”, “ruju”, “hirs” singari tushunchalarni qo`llash ma`qul.

Muhabbat ham axloqshunoslikdagi ko`pgina tushunchalardek, “juftlik” xususiyatiga ega, uning ziddi - nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo`lgan ob`ektdan chetlashish, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushidagi tor, “mayda” ko`rinishidir. Nafratning ularga nisbatan “yirikligi” uning ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo`lishidir. Ayni paytda, bu tushuncha g`azabdan, keskin farq qiladi. U g`azabga o`xshab, o`z ob`ektini yo`qotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Ko`rinishdan, nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg`otsa-da, aslida u asosan illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk hissi borki, u -ijtimoiy hodisa emas, faqat jinsiy muhabbat bilan yonma-yon keladi. Ma`lumki, muhabbat egasi o`z sevgisini va sevgilisini qizg`anib, asrab qolishga harakat qiladi. Yana shu qizg`anish hissi me`yoridan oshib-ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta`rif tavsif qilmaylik - me`yorning buzilishi, illat.

Mezoniy tushunchalar orasidagi yana bir juft kategoriya - ezgulik va yovuzlikdir. Ezgulik axloqshunoslikdagi eng asosiy kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi. Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo`ladi. Ezgu o`y, ezgu so`z, ezgu amal” uchligi “Avesto”dan toptib, barcha muqaddas kitoblarda etakchi o`rinni egallashi ham shundan. Ezgulik - inson shaxsining komilikka, baxtga, jamiyatni esa yuksak tarqqiyotga etkazuvchi vositadir. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yohud partiyaviylik qobig`iga o`rash mumkin emas. Chunonchi, “sinfiy dushmanni”, ya`ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo`lgani uchun jisman yo`qotish, qanchalik

bo'yab-bejalmasin, ezgulik bo'lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. Shu bois totalitar tuzumlarda ezgulikni bunday talqin etilishini noilmiylikni soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan ulchanmaydi, ular ham muhabbat singari, qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy- ideal bilan bog'liqligi ham shundan. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o'z ichga oladi. Shuni ham aytish kerakki, muhabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida har ikkisi tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Na faqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida olamni hapakatga keltiruvchi kuch tarzida nomoyon bo'ladi.

Ezgulik va yovuzlikning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faolyaitini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug'ligi va tubanligini ulchaydigan muqaddac torozuga o'xshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishgan-erishmagani shu mezon bilan ulchanadi. Chunonchi, Stalinning yovuz inson, sobiq sho'rolar ittifoqini jamiyat sifatida "yovuzlik saltanati" degan nom bilan atalib kelgani hech kimga sir emas.

Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug'ilzdi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma'lum o'zbek tilidagi barcha axloqshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasi kiritilmagan, u bor- yo'g'i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelishgan. To'g'ri, yaxshilik tushunchasining ko'pgina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba'zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday "singishib ketish" mavjud. Lekin bunday dalillar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo'la olmaydi. Ular orasida qat'iy farq mavjud ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. U asosan shaxsning odobiga, xulqiga bog'liq bo'lgan ijobiy hodisa. Zero unda, mardlik, ochiqko'ngillilik, halollik singari axloqiy meyorlar tajassum topadi. Biroq u qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy mehnatga umrini bag'ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun "Xazoyin ul-maoniy"dek, "Xamsa"dek buyuk asarlar yaratdi. Bu ezgulik - abadiy, zero Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq-shavq ulashib, ularni komilikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, u ko'plab yaxshiliklar qildi - muxtoj odamlarga qarz berdi, bergan qarzidan kechib yubordi v.h. Uning bu yaxshiliklari, ajoyib ijobiy hodisa bo'lgani xolda, o'tkinchilik xuiusiyatiga ega, shuningdek, qahramonlik ham, buyuk jasorat xam, vatanparvarlik ham emas. Demak, yaxshilikni yirik ijtimoiy hodisa - ezgulik bilan aynanlashtirish to'g'ri emas.

Bu ikki juft kategoriyaning yana bir farqli tomoni shundaki, ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo'lib qolaveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa bunday emas biror ob'ektga qilingan yaxshilik boshqa har bir ob'ekt uchun yoki yaxshilik qilgan sub'ekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin. Mashhur o'zbek xalq ertaklaridan biridagi, ovchilar quvib kelayotgan bo'rini qopga yashirib, qutqarib qolgan dehqonning holatini bunga misol sifatida keltirish mumkin. Bo'ri o'ziga yaxshilik qilib, ulimdan qutqargan odamni emochi bo'ladi, xayriyatki, tulki dexqonning joniga oro kiradi. Xullas, muayyan ijtimoiy cheklanganligiga qaramay, yaxshilik va yomonlik ham ancha qamrovli mezoniy tushunchalardan.

Etikaning yana bir qamrovli mezoniy tushunchasi - adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o'zi biror bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor: unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin u talab bilan taqdirlashni ulchab turadigan tarozudir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q. Adolatning mezoniylik xususiyati, ayniqsa, huquqda darhol ko'zga tashlanadi. Huquq vazirligining hatto adliya vazirligi deb atalishi, jinoyatga yarasha jazoni belgilovchi, hukm chiqaruvchi idoralarning xalq sudi, odil sud degan nomlar bilan yuritilishi buning dalilidir. Lekin adolatni faqat huquqiy tushuncha sifatida talqin etish to'g'ri emas. U, yuqorida aytganimizdek, keng qamrovli axloqiy tushuncha. U nafaqat fuqarolar orasidagi munosabatlarni, balki davlat bilan xalq, jamiyat

bilan shaxs o'rtasidagi aloqalar mezonini xam o'z ichiga oladi. Xalq orasida ming yillar mobaynida odil podsho idealining yashab kelgani bejiz emas.

Tarixda adolatsizlik, haqsizlik, munofiqlik hukm surgan davrlar ko'p bo'lgan. Abdulla Avloniy: «Adolat deb boshqalarning mol va nomusini rioya qilmakni aytilur. Har bir millatning taraqqiy va taoliysi, davlat va hukumatlarning uzun yashamogi adolatga bog'lidir. Adolatdan ayrilgan podshohlarning davlatlari yo'q bo'lub, tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi hammaga bilgulidir», deb uqtirgan. Insonning jamiyatdagi o'rni, qadr-qimmati, erkinligi, manfaatlari — hozirga jamiyatimizda adolat mezoni bo'lib hisoblanadi. Adolatga intilish xalqimiz ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyatdir. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi lozim. Milliy mafkura — g'oyaviy ta'sir ko'rsatish yo'nalishlaridan biri — adolatni ulug'lash, adolatparvarlik his-tuyg'usini rivojlantirish bo'lsa, uning mavqei, qudrati oshgan bo'ladi.

Etikaning mezoniy tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon - Zigmund Freyd ta'biri bilan aytganda, agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyagga bog'liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiydir uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya xarakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, vijdon azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi, uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi mo'z tog'iga - aysbergga o'xshatish mumkin, yuzaga uyat tarzidagi chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan -yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon ham boshqa ba'zi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon ob'ektga qaratilmaydi, u sub'ektning hatti-harakatlarini baxolaydi, ya'ni unda sub'ekt o'zi uchun ichki ob'ekt vazifasini o'taydi. Ba'zan jamiyat talablari bilan vijdon o'rtasida ixtiloflar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o'tkinchilik xususiyati, ma'lum ma'noda eskirganligi aybdordir. Zero vijdon ko'zga ko'rinmas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Yana bir muhim mezoniy tushuncha - **burch**. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U yuqorida aytganimizdek, vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bip xatti-harakati zamirida burch tushunchasi - burchga sadoqat - yoki xiyonat yotadi. Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, farzandlik burchi singari keng kamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. Burch tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri-uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati. Chunonchi, bir tuzum yo jamiyatda ijobiy hisoblangan burch talablari ikkinchi bir tuzum yoki jamiyat uchun salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Sobiq sho'rolar fukarosining o'sha davrdagi, mavjud tuzum oldidagi burchi hozirgi kunda o'ta salbiy hodisa sifatida baholanishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Harbiylashgan va o'ta mafkuraviylashgan, yani yagona mafkura hukmronlik qilgan jamiyatlarda esa burch omma hamda shaxs hayotida fojeaviy hodisaga aylanadi. O'ta ustalik bilan yo'lga qo'yilgan targ'ibot natijasida bunday jamiyatlar a'zolari oqni-qora, qorani - oq deb qabul qiladilar. Buni umumbashariy milliy qadriyatlarni oyoq osti qilgan beshafqat sho'rolar sotsializmi yoki fashistlarning milliy sotsializmi yaqqol isbotlab berdi. YUz minglab, hatto millionlab odamlar aldandilar, keyinchalik, uzoq yillar mobaynida vijdon azobida yashadilar. Demak, jamiyat qurishda totalitarchilikka yo'l ko'yilishi o'sha jamiyat a'zolarini burchni noto'g'ri tushunishga va buning oqibatida axloqsizlikka olib keladi.

Shuni ham aytish kerakki, ba'zi hollarda burch shaxsning ko'pgina mayl-istaklariga qarshi boradi uni huzur halovatdan turmush lazzatlaridan mahrum etadi. Masalan, Furqat mustamlakachilar mafkurasiga xizmat qilganida, uning hayoti rohat-farog'atda kechishi mumkin edi. Lekin u Vatan oldidagi, millat oldidagi burchni deb muhojirlikning og'ir qismatiga duchor buldi uni muctamlakachilar mamlakat xududidan chiqarib yuborib, qayta kiritmadilar. Furqat xorijda vafot etdi. Ba'zan burch tufayli odamlar o'z sevgisidan, jon-dilidan cevgan kishisidan kechishga ham majbur bo'ladilar. Xullas, burch axloqshunoslik mezoniy tushunchalari ichidam eng "qattiq qo'l", eng "shafqsizi".

Etikaning mezoniy tushunchalardan yana biri - **nomus**. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqador. Zero nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab etishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasliga munosabati bilan belgilanadi. Goho uni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin aslida, or nomusga nisbatan bir munha tor qamrovdagi, nisbatan zalvorsiz tushuncha. Chunonchi, oriyatli odam deganda, o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam esa - o'z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketaveradigan, aytilgan-aytilmagan joylarga suqilib kiraveradigan surbetnamo kishi. Nomusning esa toshi og'ir - ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin, odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadilar. Bu haqda ko'plab badiiy asarlar yaratilgan. Mehnat, sport singari sohalarida jamoa nomusi ham, alohida ahamiyatga ega shu o'rinda nomus obro' tushunchasi bilan bog'lanib ketadi. Bularning hammasi o'zini hurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofda gilarining hurmat-izzatini yo'qotmaslik uchun o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Biz yuqorida ko'rib o'tganlarimiz - asosiy mezoniy tushunchalarning barchasi baholash tabiatiga ega. Yana qator muhim axloqiy tushunchalar borki, ular o'z echimini talab qilishi bilan, ya'ni muammolik xususiyati bilan ajralib turadi. Ideal, baxt, hayotning ma'nosi, singari tushunchalar shular jumlasidandir. Biz ular orasidagi eng qamrovlisi bo'lishi axloqiy ideal tushunchasiga nisbatan batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Bir qapaganda, ideal kategoriyasida ham baholash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida u qiyoslashga asoslanadi. Antiqa tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga, voqelika real, mavjud, hayotdagi hodisalar qiyoclanadi, ya'ni bor narsa, yo'q narsa bilan o'lehanadi. Zero ideal hayotda mavjud bo'lishi mumkin emas - bu hammaga ayon gap. Buning ustiga, ideal hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti-o'tgan zamon. Lekin, shunga qaramay, inson ideal sari intiladi, o'z hayotida unga qiyoslaydi, unga taqalid qiladi. U inson. hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka etkazadi. Albata, hayotda bunday bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy komillikka erishadi.

Dunyoviy ideal bilan, jug'rofiy, ijtimoiy-axloqiy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda, o'xshashdek ko'rinsa-da, aslida keskin farq qiladi. Chunonchi, musulmonlar uchun Muhammad alayhissalom, nasroniylar uchun - Hazrati Iso, yahudo dinidagilar uchun - Hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o'z garmaydi, boqiy. Ijtimoiy axloqiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan, sho'rolar davrida o'sha tuzum asoschisi Lenin eng yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilardi va ko'pchilik tomonidan shunday qabul qilanardi. Hozir esa "Kuch adolatda!" degan shiorni hayotining ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan ijtimoiy axloqiy ideal, adolatli davlat rahbarning ideal timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum-talablaridan kelib chiqqan xolda, ijtimoiy-axloqiy ideallar o'zgarishi mumkin. Faoliyatini niqoblangan axloqsizlikdan iborat bo'lgan Lenin, Stalin, Hitler kabi ijtimoiy ideallarning umri uzoq bo'lmasa-da, hap xolda ideal edilar, aldangan ko'pchilik ularni namuna deb bildilar.

Bunday salbiy hodisalarga karmay, ideal, umuman, insoniyat jamiyatida, shaxs hayotida ijobiy, yorug' mayoq vazifasini o'tab kelmoqda, bundan keyin ham uning asosiy vazifasi shunday bo'lib qolajak. Chunki idealda hap bir inson o'z baxtining hissiyotli irfodasini ko'radi, hayotining ma'nosini unga qarab intilishda deb biladi.

Asosiy mezoniy tushunchalar - katetoriyalar singari **axloqiy tamoyillar** ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi.

Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yilaligan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jahatlarini belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson hatti-harakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri - insonparvarlik. U - insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, kadr-qimmatini, uning baxtli bo'lishini talab etish imkonining mavjudligiga engilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini,

Ovro'po uyg'onish mutafakkirlari dastlab ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi "namlulu" so'zi bundan 3-4 ming yillar, avvalgi qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

**Insonparvarlik** - umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Uni sho'rolar davridagi sinfiylik nuqtai nazaridan soxtalashtirish proletar diktaturasi va totalitar sotsialistik tuzum hamda ular ijodkorlarining insonparvarligi haqidagi afsonalar juda qisqa umr ko'rdi. Sotsializm mafkurachilarining bu boradagi say-harakatlari o'sha davrlardayoq noilmiyligi, yolg'onga sug'orilganligi bilan kishilarning g'ashini keltirgan edi. Bunday insonparvarlikni xalq qabul qilmaydi. Chunki u aynan o'ta mavhum "xats" tushunchasiga qaratilgan, vaholanki insonparvarlik markazida muayyan shaxs turmog'i lozim har bir shaxsga insoniy huquqlarini ta'minlash uchun kurashish - mana, insonparvarlikning asosiy vazifasi. Bu borada umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni ustuvor deb bilgan bizning davlatimiz xam mamlakat ichkarisida, xam dunyo miqyosida ko'zga ko'rinarli ishlar qilinmoqda.

Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi - erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero erksiz inson - asir, erksiz millat - qul, erksiz mamlakat - mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati o'z Vatani erki uchun, kolversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib quygan insonlar tamoyilidir. Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy siyosiy ma'noda ham qullaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatini ko'rish mumkin.

Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu - **millatparvarlik**. U ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yana da muayyanlashgan shakli. Zero millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmona erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Lekin millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga ingilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan xolda, o'z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini xam fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan xam chambarchas bog'liq. Chunki o'z millatini chin dildan sevmagan, odati hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar - milliy o'zlikni anglab etgan inson. U o'z millati bilan faxrlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do'pi bilan to'p kiygan o'zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko'radi.

*Shohu toju xil'atekim, men tomosha qilg'ali*

*O'zbekim boshida qalpoq, egnida shardog'i bas.*

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g'ururlanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiyga bag'oyat hurmat-izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb qo'l bergan.

Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo'lida o'z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon singari minglab fidoiylarni ham halqimiz hech qachon unutmaydi.

«Milliy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoyli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalari va me'yorlar milliy ma'naviy qadriyatlardir. Shuningdek, urf-odat va marosimlar, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi.

Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bular da millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi. qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baho beriladi.

Milliy qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning axloq bilan bog'liqlari quyidagilardan iborat:

- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;

- urf-odat, an'ana va marosimlar;
- ma'rifat, ta'lim-tarbiya va hokazolar.

Etika fani bilan bog'liq ravishda **axloqiy fazilatlar**da quyidagilar aks etadi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashashruhinig ustunligi;
- oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-ko'y, umuman, jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga — hurmat, kichikka — izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligi ramzi - ayolga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hokazo».

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligini ta'kidlash lozim.

O'zbek oilalarida uch-to'rt, hatto besh avlod vakillari (ya'ni, bobo-buvilar, ota-onalar, farzandlar, nevaralar va chevaralar) o'zaro ahillikda, bahamjihat umr kechiradilar. Har bir bo'lganing o'z burchi va mas'uliyati, o'z erki va mavqei bor.

**Oila** — muqaddas, unda millat kelajagi mujassam.. Oila qurish — o'ta mas'uliyatli ishdir. Oila — eskilik unsuri emas. Yoshlarni tarbiyalash, kamolotga etkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish — aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir. O'zbekning hayotdan ko'zlagan asl muddaosi — bola-chaqali bo'lish, bularning to'yini, orzu-havasini ko'rish. Yosh avlodni hayotga yo'llantirish, bular uchun muayyan boshlangich nuqta — start pozitsiyasi yaratib berishga nisbatan munosabat turli millatlarda turlichadir. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga etgach, oilasi, ota-onasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil oyoqqa turish uchun uyini tark etadi. O'zi ham oila qurib, farzand ko'rib, uni katta qilganda — u ham avlodlar vorisligiga chek qo'yib, oilasini tark etadi.

Oila va nikoh ham axloqiy qadriyat bo'lib hisoblanadi. Xo'sh oila va nikoh nima? Oila so'zining lugaviy ma'nosi haqida xar xil nuqtai nazarlar bor. Masalan, Rimliklarda "oila" sj'zi (Familia) dastlabki mulk egasiga bo'ysunadigan shaxslar (bu shaxslar mulkning bir qismi xisoblangan ; mulk egasining o'z bolalari , xotini, asir, sotib olingan yoki meros bo'lib o'tgan qullar xam xisobga kirgan) majmuini bildirgan. "Ota" so'zi ham dastlab hozirgi ma'nodagi otani emas, balki o'ziga qarashli oilaning xo'jasi yoki egasi degan so'zni anglatgan."Oila"ning lugaviy ma'nosi boshqa bir manbada quyidagicha izohlanadi: "Oila asli arabcha "ayolmand, niyozmand" ma'nolarini anglatuvchi "oil"-suzidan chiqqanligi "Farxangi zaboni tojikiyda qayd etilgan ."O'zbek tilining izohli lug'ati" da xam bu so'zning arabchaligi ta'kidlanib, "er-xotin, ularning bola -chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon" ma'nosidagina izohlanadi. Xar ikkala izohda ham so'zdagi ma'no yuki onalik bulog'idan suv ichgan xolda shakllanganligi etarli ifodalanmagan. Arabchada "zavja" deyilib... ayolmandlik yuzaga kelgan, ya'ni oila shakllangan". (Safarov O, Maxmudov M. Oila ma'naviyati. Toshkent, "Ma'naviyat", 1998, 11-bet.)

**"Oila"so'zining** lug'aviy ma'nosi uning mohiyatini anglashda va ta'kidlashda muhim negiz bo'ladi. Adabiyotlarda oilaning turli ta'riflari mavjud. Shundan eng mukammali quyidagidir: **Oila** - kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, bola tug'ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni davlat yo'li bilan qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat tuygusi va boshqa) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi". **Professor A. Ortiqov** oila haqidagi quyidagi yana da mukammalroq ta'rifni keltiradi: "Oila jamiyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida, uning davomiyligini ta'minlovchi tabiiy-biologik, ijtimoiy ehtiyojlarning qonuniyati asosida shakllanib, takomillashgan kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlariga asoslangan barqaror ijtimoiy birligidan iborat". (Ortiqov A. "Etika asoslari" kursidan leksiyalar tekstlari. Toshkent-1999, 95-bet.) Darhaqiqat, oila er-xotin, ularning bola-chaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, boshqacha aytganda xonadonidir. Chunki oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yohud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindagina



iborat emas. Oila eru xotindan tashqari erning ota-onasi, ya'ni qaynota va qaynonalar, farzandlar, uka va singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonadon. Uning har bir a'zosi o'z mavqeiga ega, shu oilaning ichki intizomiga bo'ysunib yashaydi. SHu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bor: Bunda minglab tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbat i sinovdan o'tadi, shu sinov jarayonida ular bir-birlarini chuqurroq tushuna boradi, bir-birlarini qadrlashni o'rniga kuyadigan bo'ladi, bir-birlariga kechirimli bo'lishadi, er-otaga, xotin -onaga aylanadi, farzandlarni tarbiyalab elga qo'shadi, orzu-xavas quradi. Shu ma'noda oila inson hayotiga to'kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi. Oila ana shu asoslarga tayangan xolda kishilik tafakkuri va ijtimoiy xarakatining ulug' kashfiyoti bo'ldi. Demak, oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini, yacheykasi bo'lib, unda er-xotinlik, ota-onalik, farzandlarning va tug'ishganlarning o'zaro shaxs qarindoshlik va mulkiy maqsadlari, manfaatlari va huquqlari bilan bog'liq munosabatlar mujassamlashgandir. Kishilar uchun muqaddas dargox bo'lgan oila insonlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlari zamirida vujudga keladi. Albatta oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi. Bu jarayonda eng avvalo ikkala jins o'rtasidagi kelishuv, ya'ni nikoh asosiy rol uynaydi. Chunki oila taqdiri rasmiy-nikohiy tus olishidan boshlanadi, shundagina er-xotin oldida, xotin er oldida, ular ota-ona sifatida farzandlaru qavmu qarindoshlar, mahalla-kuy, qisqasi jamiyat oldida, o'z navbatida farzandlar xam o'z ota-onalari va el oldida ma'suliyat sezadilar va burchli ekanliklarini xis etib yashaydilar.

Xo'sh, nikoh nima? **Nikoh arabcha so'z bo'lib**, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: Er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domulla tomonidan o'qiladigan shartnoma ma'nosiga ega ekanligi" qayd etilgan. Boshqa lug'atda: "Er-xotinning huquqiy ravishda rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoqi, "nikoh axdi", "er-xotinlik, uylanish" ma'nolarida ishlatilgan. (qarang: Safarov O, Maxmudov M. Oila ma'naviyati. 15-bet.)

Nikoh to'g'risida xam turli ta'riflar bor. SHundan eng ma'quli quyidagi ta'rifdir: "Nikoh-ikki jinsdagi shaxslarning oilaviy munosabatlarda ishtirok etish uchun o'zaro ahdlashuvidir". (Davlat va huquq asoslari. Izohli lug'at. Toshkent, "O'qituvchi", 1996, 49-bet.) Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDE) bo'limida o'qiladi va rasmiylashtiriladi. Demak, Nikoh-oilaning faqat huquqiy asosi bo'lib, erkak bilan ayolning bir-biriga va bolalariga, ya'ni bir oilaga mansub kishilarning bir-birlari oldida va jamiyat oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma'suliyatini belgilaydigan oilaviy ittifoqidir. Demak, oila nikoh asosida vujudga keladi. Lekin oila va nikoh aynan bir tushunchalar emas. Oila-nikoh va qon-qardoshlik bilan bog'langan kishilarning tarixan shakllangan ittifoqidir, eng avvalo er va xotin, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlardir. Nikoh-oilaning faqat huquqiy asosi bo'lib, bir oilaga mansub kishilarning, eng avvalo er va xotinning va farzandlarning bir-birlari oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma'suliyatini ifodalaydi.

Oila va nikoh tarixiy hodisa bo'lib, ular jamiyatning kelib chiqishi va taraqqiyotida azaldan mavjud bo'lmagan. Oilaning kelib chiqishi xali batamom oydinlashtirilgan emas. Bu to'g'rida turlicha nuqtai-nazarlar mavjud. Mutaxassislarning aksariyatining fikricha oila va nikoh munosabatlarining evolyutsiyasi quyidagicha yuz bergan: Ibtidoiy tuzumining avvalida (ilk va so'nggi paleolit chegaralarida) umuman oila va nikoh bo'lmagan, u davrda promiskuitet deb nomlangan tartibsiz jinsiy aloqalar odati xukm surgan, ya'ni to'dadagi har bir ayol barcha erkaklarniki va har bir erkak barcha ayollarniki xisoblangan. Keyin bu aloqalar o'rnini guruhliy nikoh egallagan. Guruhliy nikohda bir urug'dagi hamma erkaklar boshqa urug'ning barcha ayollariga er bo'lish huquqiga ega bo'lganlar. So'ngra esa mazkur jamiyat oilasining asosiy shakli sifatida juft oila paydo bo'lgan. Juft nikohda esa er-xotin xisoblangan erkak va ayol o'z urug'larida yashagan. Bu oila qarindoshlikni otalikni, ota tomonidan (otalik davri), ona tomonidan xam (onalik davri) xam xisoblab borgan, lekin bu oilalarda xali er-xotin nikohi barqaror, aloxida xo'jalikka ega emas edi. Bu davrda (bronza davri boshlanishi va temir davrida) tabiiy faktor o'z vazifasini tugalladi, ya'ni jinsiy munosabatlar doirasida qon-qardoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatlariga aylangan nikohda xotin er bilan yashash uchun uning urug'iga ko'chib o'tgan. Monlgam (yakka nikohlik) oila paydo bo'ldi. Nixoyat individual oila bo'lib, bu kichik oilada nikoh er-xotinni hamda ularning bolalarini bir-biri bilan mustahkam bog'laydi. Bu holat xususiy mulkchilik rivojlana boshlab ibtidoiy jamoa tuzumi emirilayotgan davrga tug'ri keladi. Oila shakllari nikoh xarakteriga qarab bir-biridan farq qiladi: Poligam (ko'p

nikohlik) va monogam (bir nikohlik) oila; hukmronlik kimning qo'lida bo'lishiga qarab oila patriarxal (ota yoki aka-ukalarning biri tomonidan boshqariladigan), matriarxal (ona tomonidan boshqariladigan), demokratik (er-xotinning tengligiga asoslangan) oilaga bo'linadi. Hozirgi jamiyat oilasi "demokratik" oilaning tipik shaklidir.

Navbatdagi qadriyat mahalla va qo'ni-ko'shnicilik munosabatlari bo'lib hisoblanadi.

**Mahalla** — o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir.

**Mahalla** — tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon. O'zbek xalqining hayoti, kundalik turmushi, qadriyatlari bilan tanishgan xolis fikrli xorijliklar mahallani noyob qadriyat, buyuk kashfiyot sifatida e'tirof etmoqdalar.

Qo'ni-ko'shnicilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. Jahon tarixining oxirgi bir necha asrida hukmron bo'lgan begonalashuv jarayoni bu sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayrim joylarda qo'shnilarga mutlaqo befarqlik yuzaga kelgan. Bunday holatning oldini olish muhim.

O'zbek xalqining qadriyatlari tizimida qo'shnilarga munosabat katta o'rin egallaydi. Xalq yaratgan maqol va matallar (mas, «yon qo'shnim—jon qo'shnim», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal», «Hovli olma — qo'shni ol» va h.k.) uning bu masalada o'ziga xos falsafasi borligidan dalolat beradi.

Yaxshi qo'shnicilik munosabatlari buzilgan, arziyas sabab bilan qo'shnilar yuz ko'rmas bo'lgan hollarda qanchalar teran milliy qadriyat oyoq osti bo'lganligi, bag'rikenglik va murosa tamoyili lat ekanligi ayon bo'ladi.

Keksalarga hurmat — inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yangi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turgazguncha jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish — insoniy fazi-latdir.

Kattalarni hurmat qilishdek milliy qadriyat, ba'zan yoshi va ilmi ulug'lar qolib, mansabi yuqorilarga qulluq qilish kabi salbiy holatlarni e'tirof etmaydi. Ayni paytda, xalq tomonidan ko'rsatiladigan yuksak ehtirom keksalarga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

**Ayol zotiga ehtirom** — insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori cho'qqisidir. Tarixda ayollar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan hukmron bo'lgan davr matriarxat deb atalgan. Hukmronlik erkaklarga o'tgan davrlarda ayolning haq-huquqlari va erkishishlarini kamsitadigan munosabatlar joriy etilgan. Demokratiyaning eng muhim yutug'i — har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo'lishini ta'minlashdir.

**Halollik** — insoniyat yaratgan eng olijanob axloqiy fazilatlardan biridir. Qadimgi rivoyatlarda harom-harishdan hazar qilmagan, axloqsizlik va razolat domiga tushgan qabila va qavmlar bo'lganligi, bular halokatga mahkum etilganligi bayon qilingan. Injilda Sodom va Gomorrani Parvardigor aynan harom ishlari uchun jazolagani aytilgan. Xalollik jamiyat hayoti va inson turmushining hamma jabhalarida o'z aksini topadi. Vatanga va millatga munosabatda ham, siyosat va iqtisodda ham, mehnat va rohatda ham halollik, to'g'rilik bo'lishi ma'naviyatdan dalolat beradi. Ovqatlanish va kiyinishda, muomala va munosabatda poklik, halollik ustuvor bo'lishi lozim. Ma'rifat baxt-saodatga, farovonlikka eltadi. Ma'rifatsizlik esa johillikni tug'diradi. Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan milliy ma'naviy qadriyatlar zamonaviy milliy etiketimizga ma'naviy zamin, negiz bo'lib xizmat qilmoqsa.

Kasb-xunar axloqining muhimligi shifokorlar faoliyatida xam yorqin namoyon bo'ladi. Bemorga mehribonlik, e'tibor bilan g'amxo'rona munosabatda bo'lish vrach oldiga qo'yiladigan asosiy axloqiy talabdir. SHifokorning axloqi kasb-xunar axloqining eng yorqin namunasi. Ular mehnatining eng muhim xususiyati yana shuki yo'l qo'yilgan xato va beparvolik oqibatlarini boshqa birorta ixtisosda bunchalik ahamiyat kasb etmaydi. Birorta boshqa ixtisosning vakili inson hayotiga, uning biologik va ijtimoiy tomoniga shifokorlar singari chuqur va xar taraflama kirib bormaydi. SHifokor uz faoliyati maboynida aytishimiz mumkinki bemor bilan ruxiy munosabatda bo'ladi, uz kasbi bilan bemorlarga ruxiy ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun xam "tibbiyotning otasi" Gippokrat (eramizgacha V-IV asrlar) qo'yidagicha qasamyodni yozgan edi: "Tabiblik bilan shug'ullanayotgan Apollon va Asklepiy, Gigeya va Panokeya, bor xudo va ma'budalarni guvoxlikka chaqirib ont ichamanki, kuchim va faxmim etganicha shu qasamimni va shu yozma va'damni ado etaman..."

Kuchim boricha va faxmim etganicha bemorlar turmush tarzini ular foydasiga xal qilaman va ularni barcha zarar va qusurlardan extiyot qilaman. Xar qancha iltimos qilmasinlar hech kimga o'ldiradigan zaxarni xam, shu moddalarga yarasha ko'rsatmalarni xam bermayman. Shuningdek men hech qachon xomilani o'ldirish uchun ayolga passoriyni (xomilani tushuradigan asbob.) bermayman. Kimning uyiga qadam bosmay, faqat bemorlarga yordam berish uchun kiraman, bemorga zarar etkazishdan, ayollar va erkaklar, ozodlikdagi kishilar va qullarga nisbatan shaxvoniylardan xoli bo'laman. Tabiblik faoliyatimda biror narsani eshitgudek yoki ko'rgudek bo'lsam yoki shu narsalarni kishilarning kundalik hayotida, ishimdan tashqari vaqtda shoxidi bo'lsam, sukut saqlayman va oshkor etish mumkin bo'lmagan taqdirda shu narsani sir-sanoat deb bilaman.

Agar shu qasamimga sodiq qolsam va uni buzmasam hayotdan va kasbidan baxt topib roxatlanaman va hamma kishilarning hurmat-extiromiga sazovor bo'laman. Mabodo qasamimni buzsam, hammasining aksi mening nasibam bo'lsin". (manba: To'laganov F. Tibbiy axloq haqida. Toshkent, "Meditsina" nashriyoti-1973y, 11-bet.) Gippokrat zamonasidagi yunon tabiblarining fikricha, faylasuf xam, tabib xam beg'arazlik, uyatchanlik, iffatlilik, vazminlik, xushfe'llik, ozodalik, mulozamatlik va muloxazalik kabi insonlarga xos olijanob fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Agar tabib yoki shifokor kasallikni aniqlay olmasa, uni qanday davolashni bilmasa, tortinmay va qo'rqmasdan boshqa tabiblarni maslaxat va yordamga taklif qilishi lozim. Shuningdek tabiblar tortishuvlar va bir-birini masxara qilish kabi yomon odatlardan xoli bo'lishi zarur. Donishmand, moxir tabib hech qachon xamkasblariga nisbatan xasad ko'zi bilan qaramasligi, g'iybat qilmasligi va ular obro'siga putur etkazmasligi kerak. Qadimgi Rim shifokori Tsels aytishicha: "Tibning bir qismi kasalliklarning turmush tarzi bilan davolaydi, boshqa qismi dori-darmonlar bilan, uchinchi qismi esa-jarroxlik yo'li bilan davolaydi". O'tgan asrning ko'zga ko'ringan rus shifokori I. Girshman: "Mening qalbidam oxirgi soat yo'k, oxirgi bemor bor",-degan edi. Yana boshqa bir ko'zga ko'ringan rus shifokori V.F. Voyno -- YAsenetskiy (1874-1960) : "Bemor, sizga o'z hayotini topshiradi, buni unutmang va hech qachon vijdon, muhabbat dan maxrum vrachlar kabi uni qizik yoki qizig'i yo'q <<hodisa>>deb qaramang", deb aytgan edi. Ko'zga ko'ringan taniqli rus shifokori M.P. Koncholvskiy (1875-1942) fikricha: "Yomon yozuvchi, iste'dodsiz rassom, qobiliyatsiz aktyor bo'lish mumkin, ammo yomon shifokor bo'lish mutlaqo mumkin emas, bu jinoyat". SHifokor (vrach) faqat o'z odamlariga emas, hatto begona, boshqacha aytganda hatto dushmanlariga xam yordam berishi zarur. Ingliz xamshirasi Florens Nattingeyl o'tgan asr Qirim urushida ishtirok etib, u urush maydonida yarador bo'lgan faqat o'z askarlarinigina emas, balki dushman askarlariga xam tibbiy erdam bergan. Ingliz xamshirasining sofdil odamligini va insonparvarligini e'tiborga olib Xalqaro Qizil Krest jamiyati Florens Nattingeyl nomli xalqaro medal ta'sis etgan. Buyuk kishilar shifokorlar (vrachlar) kasb-axloqi haqida ajoyib fikrlarni bildirib kelganlar. Ayniqsa, shifokorlar (vrachlar) faoliyatida xushmuomalalik, shirinso'zlikning ahamiyati nixoyatda kattadir. Chunki donolar "so'zdan so'zning farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor", deb bejiz aytmaydilar. Rivoyat qilishlaricha, Xorun ar-Rashid tush ko'ribdi. Tushida butun tushlari to'kilib tushgan emish. Shox ta'birchisini chaqirtirib, tushning ma'nosini so'rganida, ta'birchi shoxga: "Sizning avlod va ajdodlaringiz o'lib ketadi",-deb aytadi. Bu shoxga juda kattiq ta'sir qilibdi, u darg'azab bo'lib ta'birchini darhol yuz darra urishga xukm qilibdi. Uning ayonlaridan biri ta'birchini og'ir axvoldan qutqazish uchun shoxga shunday debdi: "Bu kishi (ta'birchi) avlod-ajdodlaringizdan ko'ra siz ko'p umr ko'rasiz demoqchi edilar" debdi. SHox bu gapdan taskin topibdi. Mana, qarang ikki kishining so'zi garchi bir ma'noni anglatsada, bir-biridan osmon bilan ercha farqi bor. Albikus, Gufeland, Pavlov va boshqalar xursandchilik kishini hayotga ruxlantiradi, odamni tetik va sog'lom qiladi, deydilar. Botkin, Mudrov, Pavlovlar ayniqsa bu masalaga jiddiy ahamiyat berganlar. Ular suhbat asnosida kasalni ruxlantirib, ayrim xollarda dori-darmonni ishlatishga yorin xam qolmas edi xisoblashgan.

Shifokorlik (vrachlik) axloqi xaqida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston mutafakkirlari xam ajoyib fikrlarni aytganlar. "Tabib, - deydi ibn Sino,- lochin ko'ziga, qizlar qo'liga, ilon aqliga va sher yuragiga ega bo'lishi lozim", va yana u: "Haqiqiy tabib o'zining kadr-qimmatini sakqlagani xolda davolaydi va besharm hatti-harakatlardan o'zini tiyadi. U mana shu fikrga moyil bo'lsagina kishilarni davolashga borsin. O'z vijdonini davolay olmagan kishi boshqalarni davolayman desa bunday odam eng palid odamdir". **Faylasuf Nosir Xisrav** esa shunday degan:

"Berolmasang birov dardiga darmon,

Jafo bila bo'lma dard uzra chipqon".

Huquqni amalga oshiruvchi va ximoya qiluvchilar xam ma'lum axloqiy fazilatlarga ega bo'lishlari lozim. Ayniqsa, odil sudlov vakillari uchun professionalizm maksimal darajada odillikdan ("adliya iborasining aniq ma'nosi "adolat"dir), sotilmaslik, qonunga sadoqat, qonun oldida barcha tengligini saqlashdan, ko'rilyotgan ish materiallarini jiddiy va chuqur taxlil qilish hamda ularga baxo berishda qat'iy ob'ektivlik, beg'arazlik, mukammallik va xar taraflamalikdan, guvoxlar hamda sudlanuvchilarni so'roq qilganda me'yor tuyg'usini saqlab odob, bosiqlik, xushmuomalalik bilan ish tutish, ishonib yuragini ochgan kishining sirini saqlashdan iborat. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Xalq sudni faqat odamlarni qoralaydigan, jazolaydigan organ deb emas, aksincha, ularning xaq huquqlari va manfaatlarini ximoya kiladigan organlar deb bilish kerak". Demak, huquqiy idora xodimlarining axloqiy madaniyati xam yuqori darajada bo'lishi biz qurmoqchi bulayotgan huquqiy davlatning muhim omilidir. Chunki qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom yoki uyushqoqlik va ma'suliyat ustivor bo'lmasa, qonunlar va ananalar hurmat qilmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi. Qonunlarni mensimaslik illati butun jamiyatni zaxarlaydi, davlat tomirlari emiriladi, chiri y boshlaydi. Bularning hammasi huquqiy idoralar xodimlarining axloqiy tayyorgarligi va ma'suliyati katta ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Taniqli pedagog R. Usmonovning "Odobnoma" risolasida keltirilgan quyidagi qayroqi iboralar olim hayotida axloqsizlikning nihoyatda zararli ekanligini ifodalaydi :

\* \* \*

"Fanga ufqqa qo'yilgan bir yostiq - unga bemalol yonboshlab yotaveraman, deb o'ylagan kishi fanning mohiyatidan bexabardir".

\* \* \*

Bir vaqtlar unvon olib, o'z ustida ishlamay, hayotdan orqada qolib ketgan "olim" suvi qurib qolgan daryoga o'xshaydi.

\* \* \*

Firibgarlik yo'li bilan ilmiy unvon kishining umri ruxiy azobda o'tadi, chunki anjumanlarda bir quloch qilib uning unvonini e'lon qiladilar, ammo bir og'iz so'z uning kimligini fosh etadi.

\* \* \*

Soxta olimlarning eng yomoni ular o'z o'rmiga xam soxta o'rinbosarlar tayyorlashdir.

\* \* \*

Firibgarlik yo'li bilan shuxrat topgan kishi qirg'oqda o'tirib olib, fan ummonining tubidan ne-ne mashaqqatlar bilan bebaxo javoxirlar terib chiqayotgan haqiqiy fan shaydolarining yo'llariga qarmoq tashlab, ulardan cho'tal olish kabi pastkashlikka boradi.

\* \* \*

Odamlar firibgar "olim"dan qanchalik jirkansalar, uning panoxida o'zlariga unvon izlaydigan laganbardorlardan bundan xam ko'ra ko'proq jirkanadilar.

\* \* \*

Rahbar kadrlar xam ma'lum ijtimoiy-siyosiy va madaniy ayniqsa o'z ishini bilish, ish yuritishni uddalay olish, ishga mustaqil va ijodiy yondashish, ma'suliyatni xis etish, o'z bilimi va malakasini oshirib borish, yangicha tafakkur, fikrlar xilma xilligi bilan xisoblashadigan, o'z manfaatlarini insonlar manfaatlari bilan uyg'un ko'rib, "Elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan" fidoyi kadrlar bo'lish muayyan axloqiy fazilatlarga xam ega bo'lishi lozim. Mamlakatimizda rahbar kadrlar va ularga xos xususiyatlarga yondashishda Sharqona boy tarixiy-madaniy ananalar xam doimo e'tibor olib kelishadi. Shu munosabat bilan Abu Nasr Forobiy rahbarning 12 fazilati tug'risidagi fikrlarini keltirish o'rindir. Unda fozil shaxar hokimining to'rt muchali sog'lom bo'lishi, tabiatan nozik, farosatli bo'lib, umumiy axvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi, narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qoladigan, tafsilotlarni unutmaydigan, zexni o'tkir va zukko, o'z fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalaydigan, ta'lim olishga, bilim va ma'rifatga xavasli bo'lishi, uning mashaqqatlaridan qochmaydigan, maishiy buzuqliklardan o'zini tiya oladigan, xaq va xaqiqatni, odil va haqiqiy odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, o'z qadrini biluvchi, oriyatli, tabiatan adolatparvar va o'zi zarur deb xisoblangan chora tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi,

qo'rqoqlik va xadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur ekanligi ta'kidlangan. (qarang: A.N. Forobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent, 1992, 159-160 betlar.)

Mamlakatimiz oldida turgan vazifalarni xalq etishda rahbarlarning yuqoridagi singari fazilatlariga ega bo'lishi birinchi darajali ahamiyatga ega. Ayniqsa rahbarlar o'z faoliyatida o'zaro tinchlik va xamkorlik, bir-birini tushunish, xayrixoxlik, o'z kamchiligini ko'ra oladigan, ayrimlarni ulug'lash, tobelik ruxiyatidan ustun turadigan, xodim mehnatini, salohiyatini xolisona baxolaydigan va rag'batlantiradigan mustaqil ijodiy ishlash, yaratuvchilik kabi fazilatlariga ega bo'lish aloxida ahamiyatga ega. **Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev** ta'kidlaganidek: "Barcha bug'inlarda insofli, diyonatli, tajribali rahbar boshchilik qilmas ekan, mustaqil mamlakatimizning obro'si, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan ishlamas ekan, ishlarimiz ko'ngildagidek bo'lmaydi". Rahbar odam - yurtning otasi, katta-kichikka, boyu-kambag'alga birday munosabatda bo'lishi lozim. Haqiqiy rahbar odamlarning bardoshini sinash bilan emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini engil qilish bilan taniladi. Jasur, matonatli rahbar elning duosini oladi, maqtozni o'zi olib, xato va kamchiliklarni boshqalarga ag'darmaydi. Rahbarning ishiga xalqning o'zi baxo beradi. Xalq nazaridan qolish esa - bu o'lim bilan barobardir. Ayniqsa, rahbar uchun tamagirlik, to'rachilik, poraxo'rlik, kibr-xavo, korruptsiya nixoyatda xavfli va yuqumli kasallikdir: "Yurtga bosh bo'lish hammaga ham nasib etavermaydi. Bu ham Allohning inoyati. Xudo bergan og'ir, ma'suliyatli burchni og'ishmay, dohiylik kasaliga berilmay ado etish uchun juda katta aql-idrok va fahm-farosat kerak". Bu masalada bizga etika fani yordamga keladi.

### **MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:**

1. Etika nimani o'rganadi?
2. Muhabbat, nafrat va rashk tushunchalarining o'xshash va zid jihatlari nimalarda ko'rinadi?
3. Insonparvarlik deganda nimani tushunasiz?
4. Vatanparvarlik haqida nimalarni bilasiz ?
5. Nikoh va muhabbatni milliy qadriyat sifatida nimalar deya olasiz?
6. Oilaviy muhit deganda nimani tushunasiz ?
7. Muomala odobi haqida nimalar bilasiz?
8. Etiket nima va uning turlarini sanab bering?
9. Qanday kasbiy odob turlarini bilasiz?
10. Axloqiy tarbiyaning asosiy vositalari deganda nimalarni tushunasiz?

### **"AXLOQIY QADRIYATLAR" MAVZUSIDAN TESTLAR.**

#### **1. Etika qadimda qanday nomlar bilan atalgan.**

- a) "Ilmi ravish", "Ilmi axloq", "Axloq ilmi", "Odobnoma".
- b) "Odob", "Etika", "Xulq"
- s) Xulq, hatti - harakat, "Odob"
- d) "Axloq, Etika", "Xulq", "Ilmi ravish"
- e) Barcha javoblar to'g'ri

#### **2. "Etika" atamasini birinchi bo'lib muomalaga kiritgan faylasuf.**

- a) Demokrit. B) Aflotun.
- S) Suqrot. D) Arastu. E) Pifagor.

#### **3. Axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar...**

- A) Arablar.
- B) Forslar.
- S) Hindlar.
- D) Yunonlar.
- E) O'zbeklar

#### **4. "Axloq" so'zining lug'aviy ma'nosi?**

- A) "Axloq" so'zi yunoncha odob demakdir.

- B)"Axloq" so'zi arabchadan olingan bo'lib "xulq" so'zining ko'plik shaklidir  
S)"Axloq" so'zi xatti-harakat demakdir  
D)"Axloq" so'zi hind tilidan olingan bo'lib, xulq demakdir.  
E)barcha javoblar to'g'ri.

**5.Inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlar qanday ataladi?**

- A)Etika  
B)Axloq  
S)Odob  
D)Xulq.  
E) barcha javoblar to'g'ri.

**6.Oila, jamoa, mahalla-kuy miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo, jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli xtti harakatlar majmui nima?**

- A)Xulq  
B)Odob  
S)Axloq  
D)Etika.  
E) barcha javoblar to'g'ri.

**7.Jamiyat, zamon insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi qanday ataladi.**

- A)Xulq.  
B)Axloq,  
S)Etika.  
D)Odob  
E) barcha javoblar to'g'ri.

**8) "Dil ba yoru, dast ba kor" shiori kimga tegishli?**

- A) Yusuf Hamadoniy  
B) Ahmad Yassaviy  
S) Abduxoliq G'ijduvoniy  
D) Bahouddin Naqshband  
E) Alisher Navoiy



**9. Komil inson – bu ...**

- A) ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, bu xalqning ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol mehnat qiluvchi kishilardir.  
B) erkin fikr etuvchi,  
S) bu xalqning ideallari uchun kurashuvchi inson,  
D) o'z Vataniga halol mehnat qiluvchi kishilardir.  
E) barcha javoblar to'g'ri.

**10) Axloqiy qadriyatlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating**

- A) kattaga — hurmat, kichikka — izzat;  
B) mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligi ramzi - ayolga ehtirom;  
S) sabr-bardosh va mehnatsevarlik;  
D) halollik, mehr-oqibat;  
E) barcha javoblar to'g'ri.

# MAVZUGA OID TAQDIMOTLAR



**ODOB** -- *inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin janoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli hatti-harakatlarni o'z ichiga oladi*

**XULQ** – *oila, jamoa, mahalla - miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.*



**AXLOQ** – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy hatti-harakatlar yig'indisidir.

*Axloqqa kelsa, masala jiddiy mohiyat kasb etadi: deylik bir tuman yoxud viloyat prokurori o'zi mas'ul hududda qonun ustuvorligini, adolat qapop topishini ko'zlab ish yuritadi, lozim bo'lsa, hokimning noqonuniy farmoyishlariga qarshi chiqib, ularning bekor qilinishiga erishadi; oddiy fuqaro nazdida nafaqat o'z kasbini e'zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolatli tuzum timsoli tarzida gavdalanadi, u – umpni millat, vatan va inson manfaatiga bag'ishlagan yuksak axloq egasi; u, o'zi yashayotgan, jamiyat uchun namuna bo'laroq o'sha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi. Agar mazkur prokuror, aksincha. qonun himoyachisi bo'laturib, o'zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo'lida oqni qora qorani oq deb tursa, u axloqsizlik qilgan bo'ladi: oddiy fuqaro nazdida boshqa kishi prokuror-amaldor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan, degan tasavvur uyg'onadi va tasavvurning muntazam kuchayib borishi esa, oxir-oqibat o'sha jamiyat yoki tuzumni tanazzulga olib keladi.*

## AXLOQIY TAMOYILLAR VA ME'YORLAR

### tamoyillar

*vatannarvarlik*  
*insonnarvarlik*  
*Erknarvarlik*  
*haqiqatnarvarlik*  
*jo'mardlik*  
*o'zbekchilik*  
*mehnatsevarlik*

### me'yorlar

*halollik*  
*to'zrilik*  
*rostgo'ylik*  
*kamtarlik*  
*Andisha*  
*vaqfo va hayo*  
*Xushmuomalalik*

## 8-MAVZU: ESTETIKA NAZARIYASI.

### Reja:

1. «Estetika» tushunchasining mohiyati.
2. Estetika kategoriyalar.
3. Estetik tarbiyada san'atning roli.

**Tayanch tushunchalar:** nafosat, go'zallik, ulug'vorlik, fojeaviylik, kulgulilik, ekologik estetika, texnogen, dizayn, estetik tarbiya, fan, ta'lim, madaniyat, shaxs, shaharsozlik, reklama, «Ommaviy madaniyat», texnologiya.

**ESTETIKA** - yunoncha "estezikos" so'zidan olingan bo'lib "sezish", "his qilish qobiliyati", "hissiy idrok" ma'nosini bildiradi. Bu fan insonning voqelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining eng umumiy konun va kategoriyalari xakidagi fandır. Estetika umuman dunyoni bilish, sezish bilan bog'liq bo'lib, insonning butun hayoti tarzida namoyon bo'ladi. "Estetika" so'zini ilm-fan estetikasi sifatida ilk bor olmon faylasufi **Aleksandr Baumgarten** (1714-1762) ning "Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risida falsafiy mulohazalar" asarida iste'molga kiritilgan. Lekin bu fan kadimdan vujudga kelib, XVIII asrning 2-chi yarmidan mustakil fan sifatida shakllandi.

Estetika fani uzoq vaqt shu nom bilan, ya'ni go'zallik falsafasi -deb ta'riflab kelingan. Chunki estetika so'zi ko'pincha narsa va hodisalarning rang-tusi va shaklidagi mukammallik, mutanosiblik, latofat ma'nolari majmui sifatida xam kullaniladi. Moviy osmon, quyosh botishidagi kirmizi shafak manzarasi, yangi ochilgan gulning tarovati, oxu komatining uta guzalligi, tovuş patlarining nozik jilvasi, sarv daraxtining adlligi kamalakning rangin tovlanishi va boshqalarni bunga misol tarikasida keltirish mumkin chunki bularning hammasi kishiga zavk-shavk bag'ishlaydi. Mazkur tushuncha kishilarning yaxshi fe'l-atvori, muomalasi, nutki, did bilan kiyinishini ham anglatadi. Lekin "go'zallik falsafasi" tushunchasi estetika fanini to'la yorita olmaydi. Chunki go'zallik estetikaning eng umumiy kategoriyalaridan biridir.

**Estetika** - nafosatning mohiyatini o'rganuvi fan bo'lib, ushbu suzning sinonimi o'laroq, nafosatshunoslik tarzida ham ishlatiladi. Shuningdek, nafosatshunoslik fani "go'zallik falsafasi" degan nom ostida ham ma'lum va mashhurdir. Nafosat - insonning uziga, uzi yashayotgan turmush muxitiga xavodek zarur bo'lgan go'zallikdir. Nafosat shu qadar xilma-xil, rango-rang, jozibali, extirosli, mo'jizali, sexrliki, unda moddiy go'zallik bilan ma'naviy go'zallik uyg'un xolda chiroy ochib turadi. Insonning nafosat olamini anglashga intilishi atrof-voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog'liqdir, Inson moddiy go'zallik dunyosini bunyod etish jarayonida ma'naviy go'zalliklarni xam kashf eta borgan, ya'ni nafosat olamining yaratilishi jarayoni - uni anglash mushohada etish jarayoni bilan uyg'unlikda sodir bo'lgan.

Nafosat olamini yaratish bilan bir katorda uni anglash, idrok etish, o'zlashtirish maksadi, ya'ni nafosat olamini tadqiq va tahlil etish zaruriyati paydo bo'ldi. Ayni mahalda bu zaruriyat nafosat (estetika) soxasidagi bilim va tajribalarni tuplashga imkon yaratdi. Nafosat olamini urganish, tadqiq va tahlil etish zaruriyatini voqelikka aylantirish, mazkur soxada ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, uning mohiyatini odamlarga anglatish, uqitish kabi maxsus vyiufalarni estetika fani va ukuv darsi bajaradi.

Nafosat konunlariga rioya kilgan xolda voqelikni amaliy va ma'naviy o'zlashtirish jarayoishda inson faoliyatining nisbatan mustakil soxa si bo'lgan san'at muhim ahamiyat kasb etadi. Estetikaning borlikni estetik o'zlashtirish mohiyati va konuniyatları xakidagi fan sifatida bir kancha xususiyatlari bor. Bular:

- Estetika fani inson tevarak atrofıdagi moddiy va ma'naviy boyliklarning barchasini kamrab oladi.

- Inson faoliyatining barcha jabhalaridagi nafosat olamini san'at turlari vositasida chuqur urganishga da'vat etadi. San'at esa - estetik boyliklarni yaratish manbaidir.

- San'atni ilmiy jixatdan tahlil va tadqiq etish bilan estetik faoliyatning barcha kurinishlariga ilmiy jixatdan yondashish uchun zamin yaratiladi.

- San`at va badiiy ijodning tabiatini va mohiyatini urganish konuniyatlarini o`zlashtirish, go`zallikni urganish uchun kalit vazifasini utaydi.

**Go`zallik** - estetikaning asosiy tushunchasi. Aslida estetikaning barcha muammolari go`zallik muammosi bilan u yoki, bu darajada bog`likdir. Go`zallik, nafasat olamining mag`zi asosiy belgisi bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil kiladi Shu bois estetikasi go`zallik xakidagi fan go`zallik falsafasi xam deb aytadilar Go`zallik - bu asosiy estetik kadriyat bo`lib uni idrok etish qobiliyati esa estetik sub`ektning asosiy xossasidir Bu xususiyat estetik ong va uning asosiy kismlariga xam taalluklidir Estetik xis-tuyg`u, eng avvalo go`zallikni xis etish jarayonini anglatadi Estetik orzu esa go`zallikni inson xoxlagan u yoki bu tasavvurlar tarzida ifodalaydi. Go`zallik - bu anik turdagi hodisalar kamolotining namunasidir. Go`zallik xilmaxil darajada namoyon bo`ladi Tabiatdagi go`zallik ijtimoiy hayot guzalligidan foydali-amaliyfaoliyatdagi go`zallik badiiy ijoddagi go`zallikdan fark qiladi. Lekin go`zallik uzining xilma-xilligi rango-rangligi bilan bir-biridan kanchalik fark kilmasin barchasi kandaydir umumiy belgiga egadir. Mana shu umumiy belgi tufayli hodisalarni go`zallik tushunchasi tarzida in`iko etamiz

**Ingliz faylasufi D.Yum** go`zallik narsalar sifatini bildirmaydi balki narsalarni mushoxada kilayotgan inson ruxi darajasida amal kiladi deb uktiradi Bunda har bir odam ruxi uzi belgilagan tanigan anglagan go`zallikni kuradi Yum ta`limotiga ko`ra inson uzining xis tuyg`ulari bilan tashki dunyo hodisalarini bahramand qiladi. Aflotun, Foma Akvinskiy, Gegel, Yum ta`limotlarida go`zallikning ma`naviy mazmundorligi go`zallikka inson munosabati masalalari aks ettirilgan

Qadimgi yunon mutafakkiri **Arastu go`zallikni** real voqelik in`ikosi sifatida talkin etadi. Arastu go`zallikni moddiy olamning moslik aniqlik xamoxanglik mezon-ulchovpik kabi miqdorli tavsiflari bilan bog`lab mushoxada qiladi Arastu asosiy e`tiborni mezon-o`lchovlik tushunchasiga qaratib bu tushuncha nafakat narsalar yoki san`at asarlari balki insonga ham taalluqlidir. Shunday hodisa guzalki, agar uning mezon-o`lchovlari inson imkoniyatlari va ular ko`lamiga mos kelsa Arastu fikriga ko`ra go`zallik zaminida inson va narsaning bir-biriga muvofiqligi, loyiqligi mosligi aqidasi yotadi. Uzining mazkur g`oyasini asoslash uchun o`ta kichik narsa guzal bo`la olmas edi, chunki juda oz vaqt ichidagi tasavvur qorishib ketadi, o`ta ulkan narsa guzal bula olmasdi chunki uni idroklash birdaniga sodir bulmay, uning birligi va yaxlitligi yuqolib ketadik,- deb uqtiradi.

**Tabiat** – go`zallik manbai - insoniyat xozir tabiatni, atrof-muxitni ximoya qilish zaruriyatini chuqur anglab bormoqda. Inson tabiat haqida qayg`urib, undan oqilona foydalanib ayni vaqtda tabiiy hamohanglik sirlari ichiga yanada chuqur kirib borishi ayni paytda uning yangidan-yangi mo`jizalarini ochib berishi bilan birga undan ta`lim-saboqlar ham olmoqda. Insoniyat tabiat ustidan qozongan g`alabalarni mutlaqlashtirib maqtashdan ko`ra tabiatdan o`zaro alohida ittifoqda bulishga intilmoqda. Guzal ijobiy his-tuyg`u uyg`otadigan narsani ko`rsatish ancha oson. Lekin o`sha narsa nima uchun guzal ekanligini tushuntirib berish qiyin. Go`zallikning tabiati va mohiyati haqidagi savolga aniq javob berish jarayonida juda ko`p fikr-mulohazalarning vujudga kelishi go`zallikni umuman bilish mumkin emasligida bulmay balki uning murakkabligi ko`p qirraliligidadir

**Ulug`vorlik** - estetik va axloqiy sifatlar kasb etib amaliyotda ko`p qo`laniladigan estetik tushunchadir. Ulug`vorlik hodisalarda shu qadar keng kulamliki ularni ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida to`la o`zlashtirib bo`maydi. Shu bois ulug`vorlik odamlarni faol xarakterga o`zlaridagi ijodiy imkoniyatlarni ishga solishga rag`batlantiradi.

Ulug`vorlik me`morchilikda alohida ahamiyat kasb etadi. Misr piramdalari, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi me`morchilik obidalari yunonlarning Parfenoni, rimliklarning Kolizeyi, o`rta asr gotik bosh cherkovlari rus cherkovlari me`morchiligining eng yaxshi namunalari. **Rastrelli** kabi me`morlar yaratgan guzal binolar o`zlarining salobati ulug`vorlik bilan kishini hayratda qoldiradi

**E.Kant** ijodida ulug`vorlik nazariyasi yana da rivojlantirildi. U ulug`vorlikka estetikaning boshqa tushunchalari tizimi doirasida qarab go`zallik va ulug`vorlik barcha o`xshashliklari hamda farqlari bilan bir butun umumiylikka ega ekanini asoslab berdi. Shu bilan birga Kant ulug`vorlikning go`zallikdan muhim farqi borligiga e`tiborni qaratib, agar go`zallik sifatdan olingan ko`nikish orqali vujudga kelsa, ulug`vorlikning zaminida miqdor tasavvuri yotadi deb ko`rsatadi. Ular o`rtasidagi farq bu bilan cheklanmaydi go`zallik hamma vaqt jozibali ulug`vorlik esa goh o`ziga tortadi goh o`zidan qochiradi va nisbiy xis-tuyg`ular qo`zg`aydi

Somoniylar maqbarasi butun kompozitsiyaning ulug'vor soddaligini old va ichki qismlari umumiy ishlanmalarining uyg'unligini uzida namoyon etadi. Undagi naqshlarda yotiq tik diagonal-chalkanchasiga yoki devor yuzasida archasimon terilgan pishiq g'isht. Ushbu naqshlarda biz nafosatning ikki mezoniy o'lchami ulug'vorlik va go'zallikning uyg'unlashganini ko'rib lol qolamiz.

Ulug'vorlik tushunchasi g'oyat keng ko'lamli bo'lib buni biz nafaqat me'morchilikda balki atrofimizni o'rab turgan tabiatda ham uchratamiz. Zaminni tunu-kun munavvar aylaguvchi "Oy" va "Quyosh" kabi ulug'vor mo'jizadan yorning go'zalroq ko'rsatish betakror san'atidir. Garchi ulug'vorlik go'zallik bilan ajralmas tushunchalar ekan go'zallikning o'zi haqida fikr yuritsak. **Go'zallik** - nafosatshunoslikning asosiy kategoriyalaridan bo'lib bu fanning nomi ham go'zallik falsafasiy debatalishi bejiz emas. Zero dunyoni go'zallik qutqaradi degan naql bor.

Rivoyatlarga ko'ra Alloh Taolo ko'rkni barchaga taqsim qilganida yuzdan tuqson to'qqizini Momo Xavoga qolgan bir ulushini yana un ulushga bo'lib tuqqizini Yusufga bir ulushini esa qolgan odamlarga bergan. SHundan buyon go'zallik timsoli Yusuf alayhissalom nomida mujassamdir.

Tasavvuf adabiyotida "go'zallik" tushunchasi axloq bilan bog'liq ravishda aks ettiriladi. Qodiriya tariqatining asoschisi "G'avsul-a'zam" nomi bilan mashhur ulug' mutasavvif olim **Sayyid Abdulqodir Giloniy** xazratlari o'zlarining kitobida "Go'zal axloq" va Go'zal tabiatli bo'lmoq bobida guzal axloq haqida ajoyib hadis keltirilganlar.

- Junayd Bag'dodiy raxmatullox aytdilar "Biz uch narsani uch narsa bilan ya'ni go'zallik va jamolni - muxofaza qilish bilan guzal so'zni - omonat bilan guzal birodar va do'stni - vafo bilan istadik" - degan edi. Ba'zilar esa "Guzal axloqning alomati zulm etmaslik etishmovchilik va qiyinchiliklarga sabr etmoqdir", deganlar.

**Fojiaviylik** - estetik tushunchalari yordamida hayot ziddiyatlari va to'qnashuvlari baholanadi va mushohada qilinadi. Ular orqali insonning ijtimoiy hayot hodisalariga nisbatan estetik munosabati ifodalanadi va mustahkamlanadi. Aytish joizki, fojialilik go'zallik tushunchasidan torroq doirada amal qiladi.

Fojialilik - ijtimoiy xususiyatga molik tushuncha sifatida yolg'iz insonga xos xis-tuyg'u ekanligi, faqat ijtimoiy munosabatlar jarayonidagina namoyon bulishlari bilan izohlanadi.

Fojialilik boshqa estetik tushunchalardan qanchalik farq qilmasin, uni go'zallik va xunuklik kabi ijtimoiy estetik orzular bilan bog'liq holda uning tarixiy va nisbiy tabiatini inobatga olgan holda mushohada qilish zarur bo'ladi.

Fojiaviylikning san'atda namoyon bo'lishi - san'atda fojialilik aks ettirishda realistlar keyingi qadamni bosib, ular bu tushunchalarni yagona estetik yaxlitlikda qurdilar. San'at asarlarida fojialilik yaxlit namoyon bo'ladi. Fojiali yoki kulgili holat insonning u yoki bu xatti-harakati natijasida paydo bo'ladi. Bu xatti-harakat turli-tuman hayotiy kuchlar to'qnashuvi jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi Shu tariqa ular voqelik va inson orzulari urtasidagi nizoli munosabatlarni ochib beradi.

Kulgililik insonning dunyo voqea-hodisalariga munosabatlaridan biridir. Kulgililik ham iqtisodiy-moddiy, ijtimoiy-siyosiy ma'naviy-axloqiy hayot jabhalarida doimiy ravishda namoyon bo'ladi Kulgililik tushunchasi talkini uzining anik okil mazmuniga ega bo'lib xakikatda ham kulgililikka xos bo'lgan ba'zi tomonlarini ochib beradi. Kulgililik boshqa estetik hodisalar singari tashki va ichki tomonlarni uzida birlashtiradi. Kulgililikning ichki tomoni - keng ma'nodagi x azil (yumor) tuyg'usidir.

**Komediya** - kulgi bilan bir-birini izohlaydigan tushunchalar bo'lib kulgi komediyada tasvirlanayotgan voqea-hodisalar mohiyatini ochib berish vositasi tasvirlanayotgan ob'ektga nisbatan estetik baholashning va muallif munosabati ifodasining asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. Komediya, eng avvalo, o'z-o'zini tanqid qilishning maxsus shakli sifatida amal qiladi Kulgi - katta ijtimoiy ma'noga ega bo'lib turli tarixiy davrlarda turlicha ahamiyat kasb etgan. Masalan, feodal tarqoklik o'zaro tinimsiz urush-janjallar u yoki bu diniy falsafiy axloqiy cheklanishlar hukm surgan sharoitlarda kulgi keng o'rin egallay olmagan.

Lekin eng og'ir moddiy-siyosiy ma'naviy-axloqiy sharoitlarda ham oddiy xalq o'z orasidan etishib chiqqan o'tkir so'zli, hozirjavob, zukko vakillar vositasida kulgi quroli bilan ijtimoiy illatlarga qarshi kurashib turmush ikir-chikirlari hayot kamchilik-nuqsonlari ustidan kulib keldi. O'zbek xalqining milliy-ma'naviy mulki bo'lgan askiya vositasida kulish ham uzining ijtimoiy

mazmundorligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Kulgi uz xususiyatiga ko'ra, demokratik mazmunga ega bo'lib u barcha odamlarni bir-biriga qovushtiradi. Ular kulgi vositasida o'zaro tenglashadilar. Kulgi noinsoniy noaxloqiy illatlar bilan kurashning omilkor vositasidagina bo'lib qolmay, balki insonning kuchqudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgi rang-barang va xilma-xil qirralarga ega bo'lib mayin rag'batlantiruvchi xushfe'l hazil-mutoyiba hissiyotdan tortib to ayovsiz achchik istehzo hissiyoti doirasigacha ham amal qiladi.

**Nafosatshunoslik va falsafa.** Nafosatshunoslik dastlab falsafaning uzviy qismi tarzida vujudga kelgan va keyinchalik mustaqil fan bo'lib ajralib chiqqan. lekin u falsafa bilan aloqasini saqlab qolgan, xozir xam falsafiy fan sifatida e'tirof etiladi.

**Nafosatshunoslik va etika.** Nafosatshunoslikning axloqshunoslik bilan falsafiy zamini bir, har bir san`at asari muayyan axloqiy ideal, in`ikosidan iboratdir: unda ma`lum davrda millat, jamiyat yoki insoniyat erishgan axloqiy daraja ifodalanadi. Go`zallikning zamirida ezgulik, ezgulik zamirida go`zallik yotadi: ezguliksiz go`zallik bo`maydi.

**Estetika fani** - bu maxsus-o`quv kurslarining uslubiy-metodologik asosini tashkil etadi. Estetika fani falsafiy bilimlar tizimida o`ziga xos o`rin egallaydi. U, eng avvalo, falsafiy bo`lib, uning nazariy va uslubiy asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarixi tashkil qiladi. Masalan, voqelikni estetik va badiiy o`zlashtirish jarayonlarini o`rganishda xolislik, tarixiy yondashish, bilish jarayonida amaliy tajribaning ahamiyati kabi uslubiy asosni qo`llash ijobiy samaralarga olib kelishi mumkin.

Estetika fan sifatida voqelikning go`zallik asosida in`ikos etishini, inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida go`zallik va xunuklik tuyg`ularini, ayniqsa, badiiy ijodning umumiy qonunlarini o`rganadi. Biz voqelikdagi go`zallik va xunuklikni turlicha tushunamiz. Estetik qarashlarimiz, tasavvurlarimiz, baholarimiz nisbiy bo`lib, ularni xolis baholash estetikaning vazifasidir.

Estetika o`z mohiyatiga ko`ra, din, fan, axlok, xuquq tamoyillaridan farq qiluvchi o`ziga xos qonunlar asosida rivojlanib, unda: Utmish madaniy merosi, hozirgi kun tajribasi, kelajak bashoratlari , uyg'unlashgan, holda namoyon bo`ladi, fan voqea-hodisalarning qonuniyatlarini voqelikka muvofiq keladigan tushunchalar va qoidalar orqali ochib bersa, estetika voqea hodisalarni xayol, to`qima obrazlar vositasida ifodalaydi. Ulardagi timsollar ham o`z tuzilishiga ko`ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, musavvirlik, xaykaltaroshlik, teatr, badiiy adabiyot, kino san`atida voqea-hodisalar bevosita tasvirlanadi: musiqa, raqs, amaliy ko`rgazmali san`at, me`morchilikda san`atkorning voqea-hodisalar va narsalardan tug`ilgan, g`oyaviy-hissiy holati ifodalanadi. Bu jixatdan estetika san`atga yaqin turadi.

Shunday qilib, estetika fani va o`quv darsi voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika - bu nafosat olami, san`at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his etish, sezish, idrok qilish vositalari orqali o`rganadigan va o`rgatadigan fandır.

**Estetika fanining asosiy tushunchalari** - Estetikaning eng umumiy, umumiy va maxsus kategoriyalari mavjud. Eng umumiy kategoriyalariga go`zallik, xunuklik, nafosat, uyg'unlik, ulug`vorlik, tubanlik, fojaviylik, kulgililik kiradi. Umumiy kategoriyalarga qahramonlik, qo`rqoqlik, estetik ideal, estetik did, estetik hissiyot kiradi. Maxsus kategoriyalarga xalqchillik, milliylik, umuminsoniylik, badiiylik, g`oyaviylik kiradi.

**Estetik amaliyot** - tabiat va jamiyat qadriyatlarini munosabatlari tizimidagi estetik xususiyatlar (go`zallik va xunuklik, ulug`vorlik va pastkashlik, fojialilik va kulgililik) qonuniyatlari namoyon bo`ladi. Insonning estetik faolligi sifati va darajasi esa estetik qadriyatlar bilan estetik baholash qobiliyati, estetik idrok etish bilan estetik amaliyot o`rtalaridagi uzviy aloqadorlik madaniyatning barcha sohalaridagi badiiy va estetik o`zaro bog`liqlik bilan o`lchanadi.

**Nafosatli anglash** - har bir mavjudotning o`simlikning, buyumning ichki va tashki go`zalligining dialektik birligini yuksak did bilan anglash. Inson ongli mavjudot sifatida o`zini qurshab turgan voqelikka faol munosabatda bo`ladi, narsalarning xossalarini ham inobatga oladi. Inson xayvonlardan farqli o`laroq, har bir narsaga o`ziga xos mezon nuqtai nazaridan yondashadi. Agar inson mezon tuyg`usidan mahrum bo`lganda, voqea-hodisalar, narsalardagi go`zallikni idrok etish qobiliyatiga ega bo`lmaganda, uning faoliyati bunyodkorlik bilan birga vayronagarchilikka qaratilgan bo`lardir. Nafosat qonunlariga rioya qilish, ya`ni yaratish qobiliyati inson faoliyatining mohiyat va mazmunini tashkil etadi.

**Estetik ong** - ob`ektiv dunyoga nisbatan bo`lgan inson estetik munosabatining sub`ektiv tomonidir u ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida siyosiy ong huquqiy ong diniy ong kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turadi ijtimoiy hayot - ijtimoiy ong barcha shakllarining umumiy poydevoridir.

**Estetik ong** - ma`naviy-ruhiy voqea-hodisalar majmui bo`lib ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his, estetik did, estetik fikr, estetik orzu estetik qarash, estetik nazariya tizimini anglatadi.

**Estetik ehtiyoj** - murakkab ko`p qirrali hodisa estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etadi. Inson faoliyatining xususiyati ana shu talab va ehtiyoj tabiati bilan belgilanadi. Ruxshunos olimlar estetik ehtiyojlarni inson talab-ehtiyojlarining eng oliysi sifatida ta`riflab berganlar. Chunki, estetik ehtiyojlarda barcha moddiy va ma`naviy ehtiyojlar jamlangandir. Garchand bu dunyoda mavjudotlarning eng aqllisi inson ekan go`zallikni chuqur anglash ham insonga xosdir. Shu bois inson hamisha go`zallikka tashna bo`lib yashaydi. Estetik ehtiyoj mohiyati ana shular bilan izohlanadi.

**Estetik ehtiyoj** - ezgulikka, go`zallikka intilishdir. Bu ehtiyoj mehnat, san`at axloqiy munosabatlardagi go`zallikni taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyat qirralari borliqqa estetik munosabati orqali namoyon bo`ladi.

**Estetik munosabat** - falsafiy tushuncha ma`nosida o`zaro xarakter demakdir. Lekin ijtimoiy hayot jabhasida amal qiladigan har qanday o`zaro xarakter insoniy munosabatni anglatavermaydi. Insoniy munosabat - bu sub`ekt va ob`ekt o`rtasidagi o`zaro harakat bo`lib, u yo`nalganlik tabiatiga ega bo`ladi. Munosabat faqat insonga xosdir va u faqat jamiyat bag`rida amal qiladi.

**Nafosatli baho** - dunyoni estetik idrok qilish va baholash qobiliyati nafakat biologik balki ijtimoiy qobiliyatdir u jamiyat bag`rida amal qilar ekan, insondan biologik jonzot sifatida o`z hayotini tashvishlardan ma`lum darajada nisbiy ozod bo`lishini taqozo etadi. Nafosatli qarashlar va nafosatli nazariya - estetik ongning tarkibiy qismidir. Ular estetik ongning g`oyaviy sohasini tashkil etadi va ular tabiat, hayot san`at mohiyati xaqidagi fikr-mulohazalar va g`oyalar tizimini anglatadi.

**Nafosatli faoliyat** - inson faoliyatining barcha turlari ijtimoiy hayot jabhalarida namoyon bo`ladi. Estetik faoliyat inson moddiy yoki ma`naviy faoliyatining o`zagi mag`zi bo`lib, uning barcha shakllari inson kuch-qudrati mohiyatining erkin ifodasi bo`lib borgani sari estetik mazmun kasb etaveradi. Shunday qilib estetik faoliyat inson faoliyati boshqa shakllarining insoniylik mezoniga aylanadi.

**Dizayn** - bu ishlab chiqarishda rassomlar, dizaynerlar tomonidan bulajak buyum loyihasining yaratilishini ham o`z ichiga oladigan estetik faoliyatning turi, hamda ijod natijasi. Estetik sifatga ega bo`lgan tayyor sanoat buyumi predmetlar tartibsizligiga barham berish va predmetlar olamini tartibga keltirish texnika estetikasi va dizayn uning nazariyasi va amaliyotining vazifasi. Ana shunday har qanday texnik shaklga dizayn tomonidan qo`yiladigan asosiy talab - foydalilik qulaylik va go`zallikdir.

**Dizayn mohiyati** - inson badiiy-texnik faoliyatining xususiyatlari va qonuniyatlarini ochib berish texnika estetikasidir. Dizayn moddiy ishlab chiqarish muhitini estetik qayta qurishga, uni insonning manfaatlari va ehtiyojlariga mos keltirishga xizmat qiladi. Dizayn sanoatni loyihalash va ishlab chiqarishni uyushtirishda narsalar - chizmalar, rasmlar modellarning maqsadga muvofiqligini va texnologik foydaliligini xisobga olish faoliyatining ajralmas qismidir .

### **MAVZU BO`YICHA SAVOLLAR:**

1. Estetika kategoriyalarining tasnifini izohlab bering.
2. Nima uchun go`zallik estetikaning asosiy mezoniy tushunchasi hisoblanadi?
3. Ulug`vorlik tabiatda qanday xususiyatlarga ko`ra namoyon bo`ladi?
4. Fojaviylikning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering.
5. Kulgililikning turlarini izohlang?
6. San`atning kelib chiqishi haqida gapirib bering.
7. San`at turlarini alohida-alohida izohlang.
8. Dizayn deganda nimani tushunasiz?
9. Estetik idrok muammolarini izohlab bering.
10. Estetika fani uzoq vaqt qanday nom bilan ta`riflab kelingan.

## **ESTETIKA NAZARIYASI MAVZUSIDAN TESTLAR.**

### **1. Estetika soʻzining maʼnosi ?**

- Grekcha – yaxshi koʻrmoq
- Yunoncha – sezish, his qilish,
- Lotincha – aql,
- Arabcha – soʻz, degan maʼnoni anglatadi.

### **2. Estetika atamasini ilm-fan estetikasi sifatida, ilk bor qaysi faylasuf kiritgan?**

- A)Aflotun
- B)Arastu
- S)Lessing
- D)Aleksandr Baumgarten
- E)Pifagor.

### **3. Estetika faning asosiy kategoriyalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi ?**

- goʻzallik, xunuklik, nafasot, fojaviylik
- tafakkur, dialektika, tubanlik, kulgililik
- mohiyat, sinergetika
- metafizika, eklektika

### **4.Sanʼat nima?**

- A)Sanʼat voqelikni idrok etishning shunday turidirki, uning maqsadi, goʻzallik qonuniga muvofiq borliqni va insonning oʻzini ijodiy ravishda oʻzgartirish jarayonida, uning qobiliyatini rivojlantirishni shakllantirishdir
- B)Sanʼat estetikaning shunday turidirki, maqsadi insonning ijtimoiy siyosiy va aqliy qobiliyatini taraqqiy ettirishdir
- S)Sanʼat estetikaning shunday turidirki, narsa va hodisalarning zohriy tomonlari oʻzgartirib oʻrganadi
- D)A. va S javob toʻgʻri.
- E)Barcha javoblar toʻgʻri.

### **5. Goʻzallik nima?**

- A)Goʻzalshunoslik (estetikaning) shunday umumiy tushunchasi hisoblanadiki, u har qanday hodisani uning komilligi va oliy darajadagi estetik qiymatini ifodalaydi
- B)Sanʼatshunoslik eng muhim va asosiy tushuncha va atamalaridan hisoblanadi
- S)Goʻzallik-bu tabiat va jamiyat hamda insondagi chiroyli tasvir va ifodalaydigan tushunchadir
- D)chiroylilik
- E) takrorlanmaslik

### **6. "Estetika" atamasining maʼnosi "sezish", "xissiy idrok" demakdir. Mazkur atama qaysi tildan olingan?**

- A)lotin tilidan
- B)ingliz tilidan
- S)yunon tilidan
- D)olmon tilidan
- E) rus tilidan

### **7. Estetika "estezikos" yunon tilidan olingan boʻlib qanday maʼnoni bildiradi?**

- A ) his qilmoq, sezmoq qobiliyati;
- B) ) goʻzallik;
- S) muhabbat;
- D) donishmandlikni sevish.
- E) hissiy anglash

### **8.Estetika fanining muammolari?**

- A) Goʻzallik muammosi;
- B ) sanʼatning mazmuni va shakli;
- S) badiiy obraz muammosi;

- D) badiiy did;
- E) javoblarning hammasi to'g'ri.

### 9. Dizayn nima?

- A) ishlab chikarishda, rassomlarning ijod natijasi;
- B) dizaynerlar tomonidan bulajak buyum loyihasining yaratilishini xam uz ichiga oladigan estetik faoliyat turi;
- S) san`at asarining mazmuni va shaklini ifodalagan buyum;
- D) badiiy did vositasida yaratilgan texnika;
- E) javoblarning hammasi to'g'ri.

### 10. Go'zallik nima?

- A) estetikaning asosiy kategoriyasi va estetik xis-tuyg'u;
- B) estetikaning barcha muammolari bilan u yoki bu darajada bog'liq san`atning mazmuni va shakli;
- S) nafosat olamining mag'zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil qiladi;
- D) bu asosiy estetik qadriyat bo'lib, uni idrok etish qobiliyati esa estetik sub`ektning asosiy xossasidir;
- E) javoblarning hammasi to'g'ri.

## MAVZU BO'YICHA TAQDIMOTLAR

**ESTETIKA** - yunoncha "*estezikos*" so'zidan olingan bo'lib "*sezish*", "*his qilish qobiliyati*", "*hissiyidrok*" ma'nosini bildiradi. bu fan insonning voqelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining eng umumiy qonun va kategoriyalari haqidagi fandır. estetika umuman dunyoni bilish, sezish bilan bog'liq bo'lib, insonning butun hayoti tarzida namoyon bo'ladi.

"ESTETIKA" so'zini ilm-fan estetikasi sifatida ilk bor olmon faylasufi **ALEKSANDR BAUMGARTEN** (1714-1762) ning "*Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risida falsafiy mulohazalar*" asarida iste'molga kiritilgan. Lekin bu fan qadimdan vujudga kelib, XVIII asrning 2-chi yarmidan mustaqil fan sifatida shakllandi.





**ESTETIKA-**  
*bu nafasat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his tuyg'u, sezish – idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan fandır.*

**VAZIFASI**

1. INSONNING MAQSAD – MANFAATLARINI ESTETIK BADIY VOSITALARDA NAZARIY ASOSLAB BERILADI.
2. ESTETIK MADANIYAT VA BADIYAMALIYOT ASOSLARINI O'RGANADI.
3. ESTETIK NAZARIYALARNING FALSAFIY ASOSLARINI OCHIB BERADI.
4. VOQELIKNI ESTETIK IN'IKOS ETISH JARAYONLARINI KO'RSATIB BERADI.

**TURLARI**

1. ISHLAB CHIQRISH ESTETIKASI.
2. TEXNIKA ESTETIKASI.
3. TABIAT ESTETIKASI.
4. INSONIY MUNOSABATLAR ESTETIKASI.
5. KUNDALIK TURMUSH VA ODOB ESTETIKASI.
6. SAN'ATNING UMUMIY ESTETIKASI.

## 9-MAVZU. GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT

Reja:

1. Globallashuv tushunchasi va uning mohiyati
2. Global muammolarning tasnifi
3. Jamiyat – axborotlashuvining ijtimoiy- falsafiy jihatlari.

Bugun biz tez o'zgaruvchan, o'ta shiddatkor va murakkab bir zamonda yashayapmiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar asri desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Asrimiz boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas.

Globallashuv jarayonining kelib chiqishi va uning O'zbekiston taraqqiyotiga ta'siri to'g'risida gapirishdan oldin “globallashuv” terminiga izoh bersak. Bitiruv-malakaviy ishimiz mavzusida “globalizm” va “globalizatsiya” tushunchalari ishlatilgan. Bu tushunchalarning farqi nimada? **“Globalizatsiya”** — “gloub” (inglizchadan “global”, ya'ni yer shari), “global” (“global”, ya'ni butun dunyoga tegishli) va “globallashuv” (“globalize”, ya'ni butun dunyoga tarqalishi) so'zlaridan kelib chiqqan.

**Collins English lug'atida** (1998) globallashuv moliyaviy va sarmoya kirituvchi bozorlarga davlatlar va millatlarning o'zaro bog'lanmaganliklaridan foydalangan holda rivojlangan va tartibga solingan aloqalar orqali boshqarish imkoniyatini beradi, deb ta'kidlanadi.

Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayriixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosatlari qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas.

Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodiyoti va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan bab baravar bo'ladi.

**“Globallashuv”** atamasining mazmun-mohiyati nimada, degan savol tug'ilish tabiiydir. Bu borada ko'plab siyosatshunos olimlar va arboblari o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tishgan. **“Globallashuv” iborasi 1983 yilda amerikalik siyosatshunos olim T.Levitta** tomonidan iste'molga kiritilgan. Yangi atamaga yanada keng ma'no Garvard biznes-maktabida berildi. Bu atamaning asosiy targ'ibotchisi yapon olimi K.Ome bo'lib, u 1991 yilda “Chegarasiz dunyo” asarini chop ettirgan. Bu asarda globallashuv tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Globallashuvga BMTning “Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruza” hisobotida quyidagicha ta'rif berilgan: “Globallashuv – jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchi va fikr-kashfiyotlar oqimining kengayishi, shuningdek, mamlakatlarning jahon miqyosidagi iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan birgalikdagi harakatlari tufayli davom etayotgan integratsiyasi” – deyilgan.

Globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Lekin, uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani, bizningcha, frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rif. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

1. Globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
2. Globallashuv – jahonning gomogenlashuvi (1 jinsli) va universallasuvi jarayoni;

3. Globallashuv – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni. B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har uchalariga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko'rishimiz mumkin. Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'darto'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”

Hozirgi paytda globallashuvning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital tovarlar zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli madaniyat, qadriyatlarining umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi va bular borasidagi imkoniyatlarning ortishi – tabiiyki, bularning barchasi globallashuvning natijasidir. Globallashuv dunyo hamjamiyati hayotini, jahon siyosati va xalqaro munosabatlarni belgilab beruvchi yetakchi omilga aylanmoqda va alohida olingan davlat va hududlar ichki siyosatidan tarkib topgan umumdunyoviy sharoit bilan muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro munosabatlarning globallashuvi muammosi asta-sekin eng yuksak darajalarda o'tadigan ko'plab ikki tomonlama va ko'p tomonlama uchrashuvlarda eng asosiy muammo sifatida baholana boshlandi. Shu jihatdan qaraganda, "katta sakkizlik" mamlakatlari rahbarlarining 1999 yil yozda Germaniyaning Kyoln shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi Yakuniy kommyunikesining ikkinchi bandi diqqatni jalb etadi. Mazkur hujjatda globallashuv jarayonining quyidagi xususiyatlari qayd etilgan: - globallashuv g'oyalar, kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo'ylab oqishining jadallashib va keng miqyosga ega bo'lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholanishi; - globallashuv ayrim jamiyatlardagi turli xalqlarni nihoyatda yaqinlashtiradigan ommaviy madaniyat tufayli yuzaga kelgan tub o'zgarishlar bilan bog'liq; - globallashuv borgan sari kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasi yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit deb qaralishi; - globallashuv ishlab chiqarish samaradorligini rag'batlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish hamda iqtisodiyotni o'stirish evaziga qo'shimcha 16 ish joylarini yaratadigan integratsion jarayonlarning yangi shakli sifatida qaralishi; - globallashuv axborot sohasidagi inqilob bilan chambarchas bog'liqligi; - globallashuv turli madaniyatlar va qadriyatlar tizimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning kuchayib borishiga zamin hozirlab, dunyo miqyosida demokratik jamiyat qurish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarining kafolatini shakllantirish tamoyilida o'z ifodasini topishi; - globallashuv ayrim odamlar, oilalar va elatlar uchun yashash joyini o'zgartirish va moliyaviy munosabatlar bilan bog'liq xavf-xatarning ortishida namoyon bo'ladigan muayyan tahdidlarga ega bo'lishdan iborat. Globallashuv jarayonning mohiyati, uning shakllari ko'rinishlari va oqibatlari allaqachon yer shari kurrasida umumiy, ya'ni G'arb va Sharq, Shimol va Janubning barcha qadriyat va an'alarini ifoda etib ulgurdi. Shu bois globallashuv jarayonlari hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda butun dunyoda yaratilayotgan modellar, strategiyalar, dasturlar va loyihalarning o'zaro boyishi va to'ldirilishi uchun keng imkoniyatlarni yaratdi. Ular esa o'z navbatida butun jahon hamjamiyatining manfaatlariga xizmat qila boshladi. Globallashuv jarayonlari oqibatida namoyon bo'layotgan hodisa va harakatlarning natijasi, imkoniyatlari va oqibatlari axborot maydonida namoyon bo'lib, ularning rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, globallashuv jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu ta'sir jahon taraqqiyoti, inson ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojida ijobiy natijalar berish bilan birga salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Globallashuv jarayonining ijobiy jihatlariga quyidagilarni keltirish mumkin: - davlatlar o'rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayganligi, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, ekologik 17 ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarning ortishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi; - global kommunikatsiya tarmog'ining vujudga kelganligi, axborotlar almashinuvining tezlashuvi inson manfaatlarini uchun ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ijtiro va tadqiqotlarni yuqori sur'atlar bilan o'sishiga olib keldi, yoki bu

ham jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining o'zagini tashkil etmoqda; - iqtisodiy globallashuv, turli davlatlarda, qo'shimcha ish o'rinishlarining yaratilishi, transmilliy korporatsiyalar hududlarga tez kirib kelishi bilan xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi hamda bugungi kunda mahalliy biznesga jiddiy qo'shimcha bo'lib, minglab odamlarni ish bilan ta'minlash va shu orqali ijtimoiy muammolar hal etiladi; - tamadduniy taraqqiyot imkoniyatlarini kengaytiradigan jihatlari qatorida insoniyat hayot faoliyatining o'ta muhim tarmoqlarida xalqlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi turli xalqaro tizimlarning paydo bo'lishi, tamadduniy muammolarni hal etish, mamlakatlarning umumjahon tartibot asosida yagona xamjamiyatiga integratsiyalashuv imkonini beradi. (BMT, YuNESKO, MAGATE, Interpol, ShXT, Jahon banki kabi tashkilotlar faoliyatlari). Barcha masalalarning ijobiy jihatlari bilan birga salbiy tomonlari ham bo'lgani kabi globallashuvning salbiy jihatlari quyidagilarda ifodalanadi: - globallashuv sharoitidagi axborot almashuvining tezlashishi va erkinlashishi (Internet, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish natijasida) yoshlarni shakllantiruvchi jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalariga ta'sir o'tkazib, ulardagi muayyan o'zgarishlarga olib keladi, ularning ma'naviy-axloqiy, psixologik qiyofasiga jiddiy ta'sir o'tkazib yoshlarning vatanga, ota-onaga bo'lgan muhabbat oila muqaddasligi hamda kattalarga bo'lgan hurmat xis-tuyg'ularning yo'qolishiga olib kelishi; 18 - umumtamadduniy globallashuv jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalariga ta'sir o'tkazib, ulardan muayyan o'zgarishlarga olib keladi, milliy an'anaviy va qadriyatlarining yo'qolib ketishiga milliy madaniyatlarining kam sonli xalqlarning o'z tilini unutishi, hattoki yo'kolib ketishi holatlarini yuzaga keltirishi; - globallashuv jarayoni va ularning yo'nalishlaridan biri bo'lgan "ommaviy madaniyat" ta'sirida sodir bo'ladigan qadriyatlar tizimidagi tub o'zgarishlar "ijtimoiy mavjudot" bo'lgan insondagi o'zgarishlarga "ommaviy ma'daniyat" kishiga insoniylik, shaxs martabasini beradigan milliy ma'daniyat va ma'naviyatidan, tarixiy xotirasidan maxrum etishiga olib kelishi; - globallashuv jarayonlarining muayyan xususiyatlari ta'sirida sodir bulayotgan ijtimoiy va individual ongdagi destruktiv o'zgarishlarning kayd etilishi, bu xolat individualistik kayfiyatning avj olishi, insonparvarlik tamoyillarining yemirilishi, hayotiy maqsad va tasavurlarning buzilishida namoyon bo'lmoqda; - yetakchilikka da'vogar mafkuralarning rivoji, xalkaro tashkilotlar sonining tez sur'atlar bilan o'sishi, manfaatlar yo'lida jahon bozorini egallash, xom ashyo va energiya zahiralardan foydalanish uchun butun dunyoda demokratik boshqaruv tamoyillari niqobi ostida uni joriy etish, inson huquqlarini himoya qilish yoki terrorizmga qarshi kurash niqobi ostidagi xom-ashyo zahiralarga boy xududlarga ta'sir o'tkazish, buning oqibatida iqtisodiy o'sishni ko'zlab daromad orqasidan quvish, natijadagi tabiatga texnogen ta'sirining ortishiga olib kelmoqda.

### **Global muammolarning tasnifi**

Falsafa nafaqat insonning azaliy muammolari va g'am-tashvishlarini, balki uning so'nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida tobora jadalroq sur'atlarda, shu jumladan dunyo miqyosida o'zgarayotgan real hayoti kundalik amaliyotini ham aks ettiradi. Shu munosabat bilan yuzaga kelayotgan yangi hodisalar, g'ayrioddiy qiyinchiliklar va alohida sharoitlar olimlarning ham, faylasuflarning ham e'tiborini tortmoqda.

Bunda falsafaning fandan ustunligi shundaki – u o'z xulosalarida tafsilotlar va muayyan dalillarga mahkam yopishib olmaydi, ayrim, uzuq-yuluq va o'tkinchi narsalarni osongina chetlab o'tadiki, bu unga asosiy e'tiborni ishning mohiyatiga qaratish, rivojlanishning eng muhim omillari va asosiy jarayonlarini qayd etish imkonini beradi. Falsafaning mazkur fazilatlarini insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida yoki «jamiyat-tabiat» tizimida yuzaga kelayotgan murakkab, kompleks vazifalarni hal qilishga majbur bo'layotgan hozirgi sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan falsafiy tahlilning, muhim narsalarni ikkinchi darajali narsalardan, qonuniy narsalarni tasodifiy narsalardan farqlash, tarixiy rivojlanishda ob'ektiv jarayonlarning sub'ektiv omillardan farqi kabi usullari va metodlari hozirgi vaqtda insoniyat duch kelgan olamshumul muammolarni nazariy anglab yetish va amalda bartaraf etish uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va birbiriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi vaqtda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o'laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida

global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi.

Bu o'zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. globus – yer kurrasi) deb nomlandi. Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashtirish jarayonidir. Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalari XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Global muammolarni yechishda falsafaning roli shundan iboratki, og'ir va murakkab vazifalarni yechishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyoq odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni yechish yo'llarini izlashga majbur qildi. «Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi. Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

#### **MUAMMOLARNING TURLI DARAJALARI quyidagilar kiradi:**

Xususiy, maxalliy, milliy, mintaqaviy, global muammolar.

Xususiy muammolar - davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir. Bular, odatda, turli avariylar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Maxalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqahududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.

Global muammolar to'g'risida so'z yuritilgan holda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqahududi qabul qilinadi. Bunda mintaqahududi soni va ularning miqyosi

ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi.

Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun yuqorida zikr etilgan «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan – ularning sifati, va muhim xususiyatlar nuqtai nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi

Global muammolarning tasnifi. Global muammolarning keltirilgan mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari asosan mazkur sohadagi aksariyat tadqiqotchilarning qarashlarini aks ettiradi va global muammolarni boshqa barcha muammolardan farqlab, aniq aytish imkonini beradi. Bunda u yoki bu muammoning keskinlik va muhimlik darajasini belgilash, uning boshqa muammolar bilan o'zaro nisbatini aniqlash uchun odatda turli tasniflashlar amalga oshiriladi, ular alohida guruhlarga ajratiladi. Tasniflash birdan-bir maqsad hisoblanmaydi, balki hozirgi davrning o'ta keskin ziddiyatlarini kompleks o'rganishning muhim elementi sifatida amal qiladi va mazkur muammolarni ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etishi nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi. U muhim aloqalarni farqlash, ustuvorliklarni va ob'ektiv mavjud global muammolarning keskinlashuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, tasniflash global muammolarning tizimli o'zaro aloqasini yanada teranroq tushunishga ko'maklashadi va amaliy qarorlar qabul qilish ketma-ketligini belgilashga yordam beradi.

Demografik tizim - hozirgi vaqtda insoniyatning eng muhim muammolari orasida, aksariyat davlatlar va mintaqalarda aholi haddan tashqari ko'payishiga sabab bo'layotgan aholining nazoratsiz o'sishi qayd etiladi. XX asrda yer kurrasi aholisining «demografik portlash» deb nomlangan mislsiz darajada o'sishi biologik qonunlarning emas, balki stixiyali, notekis ijtimoiy rivojlanish va insoniyat katta mashaqqatlar bilan bartaraf etishga harakat qilayotgan chuqur ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli bo'ldi. Demografik muammolar juda murakkab va o'ta turg'un bo'lib, ularni tez bartaraf etish mumkin emas. Ayni vaqtda ularni yechish kechga surilgani sari, ular yanada murakkabroq va chigalroq tus oladi. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha hukumatlar tug'ilish darajasini pasaytirishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirishga harakat qilmoqda.

Sog'liqni saqlash muammosi - aholi soni va uning yashash sharoiti, shuningdek atrof muhit holati hozirgi davrning yana bir global muammosi bilan uzviy bog'liq. Aksariyat kasalliklar va atrof muhitdagi antropogen o'zgarishlar o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa mavjud. Hozirgi odamlar avlodiga atrof muhit ifloslanishining hali o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan ko'p sonli fizik (avvalo elektromagnit), kimyoviy va biologik omillari ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi kasalliklarining tarkibi va xususiyatida yuz bergan o'zgarishlar ayni shu hol bilan izohlanadi. Ommaviy kasalliklar (Covid -19 ) va umrning sezilarli darajada qisqarishi sabablaridan biri oziq-ovqat muammosidir. Xususan, surunkali to'yib ovqat yemaslik va nomutanosib ovqatlanish kam rivojlangan mamlakatlar aholisida ommaviy tarzda namoyon bo'layotgan muttasil oqsil ochligi va vitamin taqchilligiga olib kelmoqda. Natijada jahonda har yili ochlikdan bir necha o'n millionlab odamlar, kattalardan ko'ra ko'proq bolalar halok bo'lmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi - rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish va yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish hozirgi davrning global muammolari orasida alohida o'rin egallaydi, chunki bu yerda vujudga kelgan xalqaro munosabatlar tizimi beqarorlashuvining kuchli omillari yashirinib yotadi.

Ta'lim muammosi - ta'limning ijtimoiylashuvi o'quv jarayoni gumanitar fanlarning o'quv soatlari yoki fanlar sonini ko'paytirish emas balki, tabiiy ilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har qanday ilmiy kashfiyotni inson manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirish lozim. Shundagina inson o'z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Urush va tinchlik muammosi - harbiy soha jamiyat hayotining eng isrofgar sohasi hisoblanadi. Ayni shu sababli jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va yerda mustahkam tinchlikni ta'minlash butun dunyoda mavjud barcha global muammolar orasida eng muhimi deb e'tirof etiladi. Uning keskinligi barcha zamonlarda hech qachon pasaymagan bo'lsa-da, XX asrda u nafaqat ayrim kishilar, xalqlar, balki butun insoniyat oldiga «o'lish yo qolish?» degan mudhish savolni qo'yib, alohida, fojeaviy mazmun va ahamiyat kasb etdi

Energetika va xom ashyo resurslari - insoniyatni energetika va xom ashyo resurslari bilan ta'minlash xalqaro maydonda ko'p sonli ziddiyatlar, shu jumladan harbiy mojarolar manbaiga aylandi. Bu resurslar moddiy ishlab chiqarishning negizi hisoblanadi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga qarab inson hayotida tobora muhimroq rol o'ynaydi. Mazkur resurslar

tiklanadigan, ya'ni tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan tiklash mumkin bo'lgan resurslarga (gidroenergiya, yog'och, quyosh energiyasi va sh.k.) va miqdori mavjud tabiiy zahiralardan chegaralangan tiklanmaydigan resurslarga (neft, ko'mir, tabiiy gaz, har xil rudalar va minerallar) bo'linadi.

Globallashuv jarayonlarini nazariy jihatdan anglab yetish va global muammolarni bartaraf etish nafaqat o'ta og'ir va uzoq davom etadigan, balki kutilgan natijalarga qanday erishish mumkinligi xususida hali aniq javoblar va uzil-kesil yechimlarga ega bo'lmagan ishdir. Ayni vaqtda aksariyat tadqiqotchilar global tangliklarni bartaraf etish imkoniyatini ommaviy ongda yangicha axloqning shakllanishi va mustahkamlanishi, madaniyatning rivojlanishi va uning insonparvarlashuvi bilan bog'lamoqdalar. Buning uchun jiddiy asoslar bor, zero odamlarning fe'l-atvori, xatti-harakatlari, pirovard natijada esa ular erishishga harakat qiladigan natija asosan ularning hayotga munosabati va fikrlash tarzi bilan belgilanadi.

Xalqaro kuchlarning lozim darajada birlashuvi, ularning muvofiqlashtirilgan, izchil va eng muhimi, samarali harakatlari ham hali mavjud emas. Nega shunday bo'lyapti va bunga nima xalaqit beryapti? Hozirgi rang-barang va ziddiyatlarga to'la dunyoda kelishilgan harakatlarni amalga oshirish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bunga qanday asosda erishish mumkin? Bular bugungi kunda ijtimoiy tafakkur, shu jumladan falsafa yechishga harakat qilayotgan bosh masalalardir.

Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar. Har bir xalq, har bir mamlakat xalqaro munosabatlarning u yoki bu tartibida, davlatlararo savdo oqimlarining yo'nalishi va kapitallarning taqsimlanishida o'z muayyan manfaatiga ega bo'ladi. Ular tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni saqlash va shu kabi masalalarda doim o'z manfaatlarini himoya qiladiki, bu ularning siyosatida umumiy masalalarda ham, xususiy masalalarda ham bevosita aks etadi va boshqa mamlakatlar siyosatiga o'xshamasligiga sabab bo'ladi. Ba'zan ichki manfaatlar umumiy manfaatlardan ustunlik qiladi. Bunday hollarda mazkur siyosat boshqa davlatlarning manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, ekologiya nuqtai nazaridan bu qo'shni hududlarda yashovchi xalqlarning qarama-qarshi manfaatlarini ta'qib qilish hollarda ko'p kuzatiladi. Ammo hozir, jamiyat hayotining internatsionallashuvi va iqtisodiy aloqalar ning o'sib borayotgan integratsiyalashuvi sharoitida, sayyoramizning turli burchaklarida jahon hamjamiyatining yadro urushi, ekologik tanglik, demografik keskinlik va resurslar taqchilligini bartaraf etishdan iborat ob'ektiv manfaatlarini o'zlarining umumiy manfaati deb biluvchi odamlar soni tobora ko'payib bormoqda. Ma'rifatli siyosiy va jamoat arboblari yanada aniqroq anglab yetayotgan kelishilgan harakatlarga bo'lgan bu ob'ektiv ehtiyoj hozirning o'zidayoq ayrim davlatlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmoqda va hatto ularning ichki va tashqi siyosatini ma'lum darajada belgilamoqda.

Insoniyat o'zini o'zi tashkil etuvchi jonli tizim sifatida o'z mavjudligi uchun kurash olib bormoqda, yaxshiroq kelajakka erishishga harakat qilmoqda. Bunda hozirgi globallashuv jarayonlari va ular yuzaga keltirayotgan turli muammolar insoniyat oldida tarqoqlik va ixtiloflarni yengib, o'z birligi sari harakat qilish, ayni vaqtda madaniyatlar, asriy an'analarning o'ziga xosligini, ayrim millatlar va xalqlarning xususiyatlarini saqlashdan boshqa chora qoldirayotgani yo'q. Bunday birlashuvga esa, yuqorida qayd etib o'tilganidek, faqat umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etish va ularga rioya qilish orqali erishish mumkin.

### **Jamiyat – axborotlashuvining ijtimoiy- falsafiy jihatlari.**

Jamiyat tushunchasining mohiyatini turli falsafiy maktab va yo'nalishlar shuningdek, alohida mutafakkirlar ham turli yo'llar bilan tushuntirishga harakat qilganlar. Shu jumladan jamiyat tug'risidagi yuqorida ko'rsatilgan avvalgi ikkita tushunchani o'z ichiga olgan «sotsium» tushunchasi paydo bo'ldi. Etimologik nuqtai nazardan bu tushuncha turlicha hodisalarning birligini ifodalaydi:

1. Moddiy dunyoning bir qismi bo'lib, odamlarning birligini va shakllarining tarixan rivojlanayotgan barcha usullari majmuidir.

2. Odamlarning tarixiy jihatdan o'zaro ta'sir usuli va birligi shaklining har biri.

3. Yashash vaqti va yashash joyi bir bo'lgan odamlarning (mintaqa, mamlakat va b.) majmui.

4. Odamlarning ma'lum maqsad yo'lida birlashishi.

5. O'z vaqtini birgalikda o'tkazuvchi odamlar guruhi va boshqalar. Frantsuz faylasufi va sotsiologi Emil Dyurkgeym (1858 -1917)ning fikricha, «*Jamiyat – bu individlarning oddiy yig'indisidan iborat bo'lmay, maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan, ularning birlashmasidan tashkil topgan tizim bo'lib, reallikni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan «sui generis» aks ettiradi*».

Nemis faylasufi Maks Veber (1864- 1920) fikricha, jamiyat insonlarning o'zaro ta'siridan, ya'ni ijtimoiy xattiharakatlardan tashkil topgan tizim bo'lib, boshqa odamlarning xatti-harakatiga qarshi javob tariqasida yo'naltirilgandir. M.Veber jamiyat rivojining asosini ijtimoiy faoliyatda, deb hisoblaydi.

«Jamiyat» tushunchasini bir ma'noda ta'rif qilinganda bir qancha nazariy, metodologik va etimologik murakkabliklarga duch kelinadi.

Birinchiidan, bu tushuncha hajmi va mazmuni jihatdan juda keng.

Ikkinchiidan, bu tushuncha mavhum, ya'ni falsafiy kategoriyadir.

Uchinchiidan, bu tushuncha dinamik, ya'ni rivojlanuvchandir. T

To'rtinchiidan, jamiyat faqat falsafa fanining predmeti bo'lmasdan, hamma ijtimoiy fanlar majmuining predmetidir.

Beshinchiidan, «jamiyat» atamasi turli ma'nolarda ishlatilishi mumkin.

«Jamiyat» tushunchasi yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'nolardan tashqari yana: a) biologik tizimlarning eng rivojlangan bosqichi;

b) konkret aniq sotsium;

v) ijtimoiy aloqalar va o'zaro ta'sirlar shakli va b.

Jamiyat to'g'risida gap ketganda, u keng, falsafiy nuqtai nazardan tushuniladi. Eng keng ma'noda, jamiyat – bu odamlar birlashuvining hamma shakllari va ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarining hamma usullari majmuidir. Jamiyat har qanday murakkab bir butun hodisa va tizim sifatida o'z tuzilishi, strukturasi ega. Bu struktura qanday degan savolga faylasuflarning bir emas bir qancha avlodlari javob topishga harakat qilishgan.

So'nggi yillarda «axborot», «invariantlik», «nomuayyanlik» kabi umumilmiy tushunchalar falsafiy tahlil predmetiga aylandi. Bilimning u yoki bu tarmoqlarida yuzaga kelgan va ilmiy bilishning mantiqiy-metodologik vositalari darajasiga ko'tarilgan bu tushunchalar nafaqat ob'ektlar va jarayonlarni ko'rishning umumiy usullari, balki rivojlanayotgan bilimni tahlil qilish shakllari hamdir. Ilmiy ijodning rivojlanishi uning informativlik darajasi oshishi bilan bog'liq. Bu pirovard natijada hodisalarning mohiyatini anglashning teranligi, insonga ham, insoniyatga ham bog'liq bo'lmagan ob'ektiv haqiqatga to'liq erishilishi bilan o'lchanadi. Biroq bilish faoliyati (bilim olish jarayoni sifatida) yaxlit holda juda serqirradir. U ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, ularga erishish vositalari, bilishning shartsharoitlari, sub'ektning informatsion «xulq-atvor» usullari, ob'ekt va faoliyat natijasini o'z ichiga oladi. Bilish faoliyatini amalga oshirish natijasida bilim o'sishining tahlili uning informativligi muammosi bo'rtib ko'rinishiga olib keladi. Ilmiy faoliyatga nisbatan mantiqiy-gnoseologik, sotsiologik va psixologik yondashuvlarning birligini ifodalovchi bu muammo hozirgi zamon fanining metodologik tadqiqotlarida hali yetarli darajada o'rganilmagan. Axborot o'z sub'ekti va ob'ekti (manbai) o'rtasidagi o'zaro aloqa jarayonining mahsuli (natijasi) sifatida vujudga keladi. Aks ettirishning uzatilgan, invariant qismi sifatidagi axborot kontseptsiyasi tanlash jarayonini amalga oshirishga qodir o'zini o'zi boshqaruvchi tizimlar faoliyatini tavsiflashi mumkin. Axborot murakkab tarkibli tizimlarda aks ettirilgan rang-baranglikning boshqaruvga xizmat ko'rsatuvchi muhim qismi, kommunikatsiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U bir qancha xossalarni o'zida mujassamlashtiradi – nafaqat aks ettirish, boshqarish, balki aloqa vositasi sifatida ham amal qiladi. Bu yerda axborotning kommunikativ jihati birinchi o'ringa chiqadi.

Axborot – ob'ektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo'lib, o'zini saqlash, qayta ishlash va ta'sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo'ladi. Axborot tizimlarning faoliyat jarayonida o'z mazmuniga ega. Ob'ektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi – axborotning muhim xususiyatlari. Axborotning evristik mazmunini o'rganishda informatsion vaziyatning quyidagi unsurlari muhim o'rin tutadi: 1) axborot sub'ekti (axborot oluvchi, uni o'zgartiruvchi va undan foydalanuvchi), axborot ob'ekti (axborot manbai): sub'ekt bilan o'zaro aloqaga kirishadi; 2) ehtiyojlar: aks ettirilgan rangbaranglikning muhim qismini tanlash masalasini yechadi. Sub'ektning qizg'in izchil faoliyati axborotning shakllanish jarayonida muhim omillardan biri sifatida amal qiladi. Tashqi ta'sirlardan axborot ob'ektining sub'ektga ta'siri, ta'sirni kodlashtirish va modellashtirish, teskari aloqa, sub'ektning bilim darajasi ta'sirida o'zgarish va hokazolarni qayd etish mumkin. «Axborotni o'rganish axborot-boshqaruv jarayonini tahlil qilish bilan uzviy bog'liq, chunki axborot unda funktsional xossa sifatida mavjuddir». Informatsion vaziyat butun axborot jarayoni maydonini ifoda



etadi. Shu sababli axborotning o'zi emas, balki u amalda o'z aksini topgan faoliyat yoki xulq-atvorni boshqarish tizimidagi aloqalar, funktsiyalar va mexanizmlar o'rganish predmetini tashkil etadi. Axborot kommunikativ jarayonga qo'shilib, bilim muayyan shaxsning boyligiga aylanishiga imkoniyat yaratadi. Bilim – sub'ekt ongining mazmuni, bilish faoliyatining natijasi, amalda mavjud predmetlarga bog'langan bilish obrazlari majmui. Muayyan sub'ekt bilimining mazmuni hech qachon idrok etilgan axborot mazmuni bilangina cheklanmaydi. Idrok etish bilimning alohida turi sifatida olingan axborotni anglab yetish, tushunish, talqin qilishni nazarda tutadi. Ilmiy bilimlar hajmining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan demokratik jamiyat sharoitida bilimning yangi shakllarini izlash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo asosan bilimni semiotika vositalari yordamida soddalashtirish yo'li bilan shaklan o'zgartirish bilan bog'liq. Bilimning informativligi bilish faoliyatining barcha sohalari, kommunikativ jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Bunda «kundalik amaliyot, ishlab chiqarish faoliyati, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda aloqa texnikasi ma'nosidagi axborot miqdori emas, balki avvalo axborotning mazmuni yoki boshqacha aytganda informativlik muhimdir. Zotan, axborot miqdori qancha ko'p bo'lmasin, agar u idrok etilmasa, tushunib yetilmasa, undan zarracha naf bo'lmaydi». Bilimning informativligi borliq qonunlarini aniq aks ettiruvchi va insonga uning amaliy-o'zgartirish va bilish faoliyatida xizmat qiluvchi tushunchalar, mulohazalar, kontseptsiyalar, nazariyalar va bilimning boshqa shakllarida ifodalangan muhim axborot majmuidir.

Ishlab chiqarishni axborotlashtirish va avtomatlashtirish ishchilar va xizmatchilarga turli talablar qo'yib, ularni bevosita ishlab chiqarish jarayonidan olib chiqadi va mazkur jarayon bilan bir qatorda turuvchi sub'ektlarga aylantiradi. Inson shaxsining o'ziga xosliklarini namoyon etish uchun shart-sharoit va ijtimoiy erkinlikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratiladi. Bir kasbiy faoliyatdan boshqa kasbiy faoliyatga o'tish uchun qo'shimcha imkoniyatlar paydo bo'ladi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Globallashtirish tushunchasining mazmini.
2. Global muammolarning tasnifi.
3. Jamiyat – axborotlashuvining ijtimoiy- falsafiy jihatlari.
4. Xususiy, maxalliy, milliy, mintaqaviy, global muammolar.
5. Globallashtirishning ijobiy tomonlari
6. Globallashtirishning salbiy tomonlari

### TESTLAR

#### 1. Ekologik muammo:

1. Global.
2. Lokal.
3. hal qilib bo'lmaydigan.
4. qisman hal qilinadigan.

#### 2. Ekologik muammo nimaning natijasi.

1. Aloxida mamlakatlar rivojlanishi.
2. Butun dunyo tarixiy jarayoni.
3. Kapitalistik mamlakatlar mavjudligi.
4. Insoniyat rivojlanishi notekisligi.

#### 3. Noosfera ta'limoti kim tomonidan ishlab chiqilgan.

1. Marks.
2. Ibn Sino.
3. Kant.
4. Vernadkiy.

#### 4. “globallashtirish” bu....

1. “gloub” (inglizchadan “global”, ya'ni yer shari),
2. “Globalizatsiya” — “gloub” (inglizchadan “global”, ya'ni yer shari),
3. “globallashtirish” (“globalize”, ya'ni butun dunyoga tarqalishi)
4. Barchasi to'g'ri

### **5. “Globallashuv” iborasi kim tomonidan ishlatilgan**

1. “Globallashuv” iborasi 1983 yilda amerikalik siyosatshunos olim T.Levitta tomonidan iste'molga kiritilgan
2. “Globallashuv” iborasi 1953 yilda amerikalik siyosatshunos olim Vernadkiy tomonidan iste'molga kiritilgan
3. “Globallashuv” iborasi 1988 yilda frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi tomonidan iste'molga kiritilgan
4. “Globallashuv” iborasi 1999 yilda siyosatshunos olim F.Bafoyev tomonidan iste'molga kiritilgan

### **6. Frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi tomonidan “Globallashuv” ga berilgan ta’rifni ko’rsating.**

1. Globallashuv – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni
2. “gloub” (inglizchadan “global”, ya'ni yer shari),
3. Aloxida mamlakatlar rivojlanishi.
4. qisman hal qilinadigan muammo

### **7. “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovol bo'lib uyimni ag'darto'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman” Globallashuvga berilgan ta’rif muallifi kim.**

1. Mahatma Gandi
2. Marks
3. T.Levitta
4. Beruniy

### **8. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga qaysi davrdan boshlab duch kelingan.**

1. XV asr oxirlaridan boshlab
2. XIV asr oxirlaridan boshlab
3. XX asr oxirlaridan boshlab
4. XIX asr oxirlaridan boshlab

### **9. Muammolarning turli darajalariga quyidagilar kiradi:**

1. Xususiy, maxalliy, milliy, mintaqaviy, global muammolar.
2. Maxalliy, milliy, mintaqaviy muammolar.
3. Faqat milliy, mintaqaviy muammolar
4. To'g'ri javob ko'rsatilmagan

### **10. Xususiy muammolar bu...**

1. davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir.
2. ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi.
3. ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi.
4. ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi.

**GLOBAL-(frans. global – umumiy, lot. globus – shar) 1) butun Er sharini qamrab oluvchi; 2) har tomoqlama, to'liq, yalpi, universal.**

**GLOBAL MUAMMOLAR - umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolardir.**

**GLOBAL MUAMMOLAR** avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keladi.

**GLOBAL MUAMMOLAR** keng ma'noda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro aloqalarning buzilganligiga aytiladi.

**GLOBAL MUAMMOLARNI  
4 GURUXGA AJRATISH  
MUMKIN:**

**Xalqaro munosabatlarda siyosiy vujudga kelgan global muammolar**

**Xalqaro munosabatlarda iqtisodiy paydo bo'lgan global muammolar**

**ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar**

**inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi qatijasida vujudga kelgan global muammolar.**

• **GLOBALLASHUV** atamasini dastlab amerikalik olim **LEVITTING** 1983 yilda «Garvard biznesrevyu» jurnalida chop etgan maqolasida tilga olingan.

**GLOBALLASHUV** dunyoning birlashuvi va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishi.

**GLOBALLASHUV** milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni.

**GLOBALLASHUV** odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi.



## **GLOBALLASHUV**

**sharoitda**

**zamonaviy**

**tahdidlar:**

**Narkobiznes**

**Terrorizm**

**Odam savdosi**

**Noqonuniy qurol**

**savdosi**

**Uyushtirilgan**

**jinoyatchilik**

**rangli inqloblar**

**eksporti**

**Axborot xurujlari**

**va h.k.**

**BMT ma'lumotlariga qaraganda, ayni paytga kelib har yili dunyoda 2,9 million kishi, jumladan 1,80000-2000000 mln nafar atrofida ayollar va bolalar odam savdosining qurboniga aylanmoqda. ushbu qabih jinoyat tufayli dunyo bo'yicha yiliga 7 milliard AQSH dollari atrofida noqonuniy mablag' aylanadi.**



## 10. MAVZU. GLOBAL KORRUPSIYA IJTIMOY –MADANIY INQIROZ OQIBATI.

Reja:

1. Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va uning tarixiy ildizlari.
2. Korrupsiyaning shakllari, sabablari va turlari.
3. O'zbekiston korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi

**Tayanch so'zlar:** korrupsiya, mansabdor shaxs, lavozim, noqonuniy, poraxo'rlik, hokimiyat, shaxsiy manfaat, xalqaro huquq, xizmat korrupsiyasi, maishiy korrupsiya, oliy hokimiyat korrupsiyasi, antikorrupsiya.

**Korrupsiya** – (lotincha so'zdan olingan bo'lib, corruptio – pora berib sotib olish, buzilish ma'nolarini anglatadi) mansabdor shaxs tomonidan shaxsiy boylik maqsadida uning rasmiy lavozimidan bevosita foydalanish. Bir qator mamlakatlarda keng tarqalgan xavfli ijtimoiy hodisa. Meriam-Vebster lug'atida «Noqonuniy yoki noqonuniy vositalar orqali halollikni, qadr-qimmatni va axloqiy tamoyilni buzilishiga olib kelinishi»dir.

XX asrning 50-yillarida xalqaro hujjatlarda «korrupsiya» terminidan foydalanila boshlandi.

Ko'pchilik korrupsiya so'zini tor ma'noda, ya'ni, mansabdor shaxslarning o'z mansab mavqeidan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanib sodir etishadigan poraxo'rlik bilan bog'liq qilmishlarini tushunishadi. Biroq, bu tushunchaning mohiyatini to'laqonli anglash imkonini bermaydi. Korrupsiya so'zi asli lotincha “corruptio” so'zidan olingan bo'lib, “evrilish”, “buzilish” degan ma'nolarni anglatadi. Milliy qonunchiligimizda, jumladan, O'zbekiston Respublikasining

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni 3-moddasida, korrupsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan.

**Korrupsiya** — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Demak, keng ma'noda korrupsiya deganda bu mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchilarining nafaqat poraxo'rlik jinoyatlariga oid qilmishlari, balki, o'zlarining mansab yoxud xizmat mavqeini suiste'mol qilib shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yo'lida siyosiy homiylik, mahallilichilik, “tanish-bilish”chilik, urug'-aymoqchilikka yo'l qo'yishlari ham nazarda tutiladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlarga qaraganda, korrupsiya rivojlangan jamiyatlarda uning quyidagi turlari tez-tez uchraydi:

– Maishiy korrupsiya, asosan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatida fuqarolar bilan munosabatlarida manfaatlar to'qnashadi;

– Ishbilarmonlik korrupsiyasi, bu hokimiyat vakillarining tadbirkorlik sub'ekt (biznesmen)lari bilan munosabatlarida uchraydi;

– Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi, bu demokratik jamiyatlarda siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari, amaliyotda korrupsiyadan boyish manbalari ham mavjud bo'lib, bularga:

1. Yirik investision loyihalar (asosan, katta pora evaziga horijiy korporasiyalarga tanlovda “g'olib” bo'lib, ichki bozorda monopol savdo qilish huquqi beriladi);

2. Davlat xaridlari (qoida bo'yicha, mansabdor shaxs davlat nomidan vakil sifatida ochiq tanlovda eng yaxshi tijoriy taklif bilan g'olib chiqqan tijorat tashkiloti bilan shartnoma tuzadi, ammo, katta pora evaziga tanlovlar haqidagi ma'lumotlar oshkor etilmaydi hamda oldindan kelishilgan tijorat tashkiloti bilan summasi sun'iy oshirilgan "otkat" shartnoma tuziladi).

3. Byudjetdan tashqari jamg'armalar (odatda, pensiya yoki yo'l jamg'armalari kabi fondlar faoliyati ustidan kuchsizroq nazorat o'rnatiladi va ushbu fondlar byudjetining daromadlar qismi harajatlar qismiga qaraganda bir necha baravar ko'p bo'ladi, bu esa, o'z navbatida mazkur tashkilot rahbarlari uchun kuchli jinoiy motiv beradi) kiradi.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, korrupsiyaning jamiyatda yuqori ekani bir qancha ob'ektiv sabablar bilan bog'liq, masalan:

1) davlat sektorida oylik maoshlarning xususiy sektorga qaraganda ancha pastligi;

2) mamlakat iqtisodiyoti davlat tomonidan boshqarilishi;

3) muayyan xizmat turlarida davlat monopoliyasi (yakka hukmronlik) o'rnatilgani;

4) byurokratiya (davlat boshqaruv organlari)ning xalq bilan aloqalari uzilib qolganligi;

5) iqtisodiy barqarorlikning mavjud emasligi, inflyasiya;

6) xalqning etnik jihatdan birdam emasligi;

7) iqtisodiy rivojlanish (YaIMning aholi jon boshiga o'sishi) sur'atlari pastligi;

8) jamiyatda radikal-diniy qarashlarning mavjudligi;

9) jamiyatning huquqiy madaniyati pastligi;

10) ikki xil talqin etiladigan qonun normalarining mavjudligi;

11) mamlakatdagi siyosiy beqarorlik;

12) fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati sustligi;

13) jamiyat va davlat boshqaruvida siyosiy homiylik, mahalliliychilik, qarindosh-urug' va “oshna-og'aynigarchilik” munosabatlarining yuqoriligi singari illatlar.

Zamonaviy xalqaro huquqda korrupsiyani davlat xizmatchilariga nisbatan poraxo'rlik qilishni qisqartirmay, o'zini o'zi himoya qilish kabi keng talqini ishlatiladi

Bugungi kunda BMT va mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, jumladan, Yevropa Kengashi hujjatlarida korrupsiya uchinchi shaxslar maqsadlari uchun shaxsiy manfaat uchun hokimiyatni suiste'mol qilish deb ta'riflanadi. Milliy darajada korrupsiyani aniqlashning yondashuvlari farq qiladi. Ba'zi davlatlarning, xususan, Finlyandiya va Daniya qonunchiligida u ishlatilmaydi. Boshqa davlatlarda alohida jinoyatlarning tarkibi orqali oshkor etiladi. Masalan, Fransiyada, korrupsiya tushunchasi taxminan 20 ta jinoyatning birlashuvi orqali aniqlanadi. Ular nosog'lom imtiyozlar berish (stat'sya 432-14 Ugolovnogo kodeksa), mulkni noto'g'ri ishlatish yoki kompaniya ishonchini

ta'minlash (statyi 425-4, 437-3, 460, 464 Zakona o kompaniyax) kabi malakali xususiyatlarni belgilaydilar.

Bir qator davlatlarning qonunchiligida korrupsion tushunchani yoki Buyuk Britaniyada bo'lgani kabi, korrupsiyaga bog'liq harakatlarni belgilaydi (statya 2 Zakona Velikobritanii «O preduprejenii korrupsii 1916 g.»), lekin uning to'liq tavsifi berilmaydi.

Korrupsiyaning kengroq tushunchasi AQSh qonunchiligida qo'llaniladi. U Qo'shma Shtatlar ichida ham, tashqarisida ham jismoniy shaxslarni emas, balki yuridik shaxslarni, davlat va xususiy tuzilmalarni o'z ichiga olgan noqonuniy xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi (misol, paragraf 371 titula 18 Svoda zakonov SShA).

Ispaniya qonunchiligida korrupsiyani aniqlash uchun yana bir yondashuv qo'llanilgan. Rasmiy mezonlarga qo'shimcha ravishda, u halollik, betaraflik, mustaqillik, ochiqlik va jamoatchilik manfaatlariga xizmat qilishning axloqiy mezonlarini o'z ichiga oladi. (Zakon o merax po reformirovaniyu grajdanskoy slujby № 30 ot 2 avgusta 1984 g.).

### **Korrupsiyaning shakllari, sabablari va turlari.**

Umuman olganda dunyoning ko'pgina davlatlari qonunchiligida korrupsiya tushunchasini kengaytirish tendensiyasi qayd etiladi.

U poraxo'rlikdan tashqariga chiqadi va homiylik, jamoat fondlarini egallashning ko'plab shakllari kabi korrupsiyani qamrab oladi.

#### **Korrupsiya shakllarining namoyon bo'lishi:**

- poraxo'rlik
- kamomad
- tovlamachilik
- qo'rqitib pul undirish
- suiiste'mollik, o'zboshimchalik
- qiziqishlar to'qnashuvidan foydalanish /qimmatli qog'ozlar noqonuniy operatsiyasi
- noqonuniy yordam, imtiyoz yoki mukofotlar olish
- favoritizm (sevikli, arzanda)
- oshna-og'aynigarchilik
- noqonuniy xayr-ehson va omonatlar.

Korrupsiyaning ikki turi mavjud:

«Qonunga muvofiq ravishda»: - qabul qiluvchining qonun bo'yicha bajarishi kerak bo'lgan narsada ustuvor xizmatni olish uchun pora berish vaqtida pul mablag'larini berish.

«qoidalarga qarshi»: qabul qiluvchining qonun bilan ta'minlashi shart bo'lmagan xizmatlarni olish uchun beriladigan pora.

Korrupsiyaning to'rtta siri mavjud:

- Siyosiy

Davlat muassasalari va organlarining mansabdor shaxslari o'zlarining shaxsiy mavqeiga ega bo'lish uchun o'z lavozimlaridan foydalangan holda qonunni buzishi. Korrupsiya rivojlanayotgan demokratik davlatlar uchun eng yomon ziyon etkazadi.

- Iqtisodiy Milliy boyliklarning qisqarishi. Noqulay davlat mablag'larini iqtisodiy loyihalarga ajratish. Investisiyalarni ushlab turish.

- Ijtimoiy Fuqarolarning hukumatga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Umidsizlikni iyo'qotish va umidsizlikka uchragan jamiyatdag umumiy apatiya uning fuqarolik zaifligiga olib keladi.

- Ekologik tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik. Qoniqarsiz tartibga solish tizimi.

Korrupsiyani baholash mumkinmi? Yo'q. Pora olish qat'iy emas va doimo pul shaklida bo'lmaydi: iltifot ko'rsatish, sovg'a berish va b. Ijtimoiy jihatdan korrupsiyaning miqdorini aniqlash qiyinroq kechadi: narxning xom xayollarcha sovrilishi.

Inson hayotiga korrupsiya qanday ta'sir ko'rsatadi? Eng yomon holatlarda, hayotni, boshqa holatlarda kishilarning erkinligi, sog'ligi, pulini oladi. Korrupsiyaga misollar: Niderlandiyadagi hukumatni sovg'alar bilan ta'minlanishi xavfsizlikka oid qonunbuzarliklarga ko'z yumdi. Borneo shahrida ortiqcha va nazorasiz o'rmonlarni kesish penan xalqning hayotiga tahdid soldi.

Korrupsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar yoki korrupsiya qayerda rivojlansa, o'sha joyda ...

Gunohlar haddan oshib ketadi;

Muassasalarda tekshiruvlar o'tkazilmaydi;

Muhim qarorlar qabul qilishda jarayonlar yopiq o'tkaziladi;

Fuqarolik jamiyati amalda mavjud bo'lmaydi;

Boyligni taqsimlashdagi ulkan tengsizlik odamlarni kambag'allikka olib keladi.

Korrupsiyaning tarixiy ildizlari, ehtimol, eng yaxshisini olish uchun sovg'alar berish odatidan boshlangan deyish mumkin. Qimmatbaho sovg'a insonni boshqalardan ajratib turishga va uning iltimosi amalga oshirilishiga yordam bergan. Shuning uchun ibtidoiy jamiyatlarda kohinga yoki yo'l boshchiga to'lov berish norma sifatida qabul qilingan.

Davlat apparatining murakkablashuvi va markaziy huqumatning kuchayib borishi sababli, hukmdorlarning ikkilanishiga ko'ra, faqat sobit maosh bilan xursand bo'lishlari kerak bo'lgan professional xodimlar paydo bo'ldi. Amaliyotda mansabdor shaxslar daromadlarini yashirin ravishda oshirish uchun o'z pozitsiyasidan foydalanishga harakat qilishdi. Qadimgi Misr, Hindiston, Shumer, Qadimgi Rimda amaldorlarning noqonuniy faoliyati haqida manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Qozilar korrupsiyasi alohida tashvishli edi, chunki u mulkni noqonuniy qayta taqsimlashga va nizoni huquqiy maydondan tashqarida hal qilishga bo'lgan intilishga olib keldi. Shubhasizki, korrupsiyaning barcha turlari bo'yicha yetakchi dinlar birinchi navbatda qozilarni poraxo'rlikda qoralaydi: «...boshliq sovg'alarni talab qilmoqda, qozi esa pora uchun hakamlilik qiladi va zodagonlar qalbining yomon xohishlarini ifodalaydi va bu masalani buzadi ...» (Bibliya. Vetxiy Zavet. — M., 1994. — S. 352.); «In'omlarni qabul qilmanglar, chunki in'omlar ko'zlarni ko'r qilib, solihlarning sababini o'zgartiradi» (Isx. 23:8, Vtor.16:19);

«Bir-biringizni mol-mulkingizni noqonuniy ravishda taqsimlamang va boshqa shaxslarning mol-mulkini qasddan bartaraf qilish uchun qozilarni pora olishiga yo'l qo'ymang». (Qur'oni Karim 2:188) Korrupsiyani tushunish uchun muhim omil Nikolo Makiavellining asarlariga murojaat etilganda, u korrupsiyani kasallik bilan taqqoslaydi. Masalan, sil kasalligiga. «Dastlab uni tan olish qiyin, lekin davolash osonroqdir. Agar u o'tkazib yuborilsa, uni tanib olish oson, lekin davolash qiyin».

### **O'zbekiston korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi.**

Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy mexanizmining vujudga kelishi bir necha bosqichni bosib o'tdi.

Birinchi bosqich (XX asrning 50-60-yillari)da xalqaro tashkilotlar va birinchi navbatda BMT, xalqaro savdo va moliyaviy operatsiyalar sohasida davlat xodimlarining poraxo'rlik bilan kurashish zarurligiga e'tibor qaratilgan.

Bir vaqtning o'zida qator davlatlarda (Belgiya, Velikobritaniya, Germaniya, Indiya, Koreya, Portugaliya, Singapur, SShA, Tailand, Finlyandiya, Fransiya, Yaponiya va b.) korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ikkinchi bosqich XX asrning 70-yillariga borib taqaladi, BMTning korrupsiyaning qonuniy ta'rifini ishlab chiqish va noqonuniy to'lovlar va boshqa turdagi korrupsion amaliyotlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro bitimni tayyorlashga urinishlar bo'lgan.

Bu davr mobaynida bunday g'oyaning BMTga a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga binoan jinoyatchilik bilan jazolanishi uchun tuzilganligi ta'kidlangan. Shuning uchun BMT Bosh Assambleyasining 1975 yil 15 dekabrda № 3514 (XXX) qarori korrupsiyaning barcha shakllarini, jumladan xalqaro tijorat operatsiyalarida pora olishni ham qoraladi. Garchi bu urinishlar umumiy konvensiyani qabul qilish bilan bog'liq bo'lmasada, ular boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida korrupsiya tobora ko'proq xalqaro muammoga aylandi. Xorijiy davlatlarda oliy mansabdor shaxslarning korporatsiyalari tomonidan poraxo'rlik keng tarqaldi. Globallashtirish bir mamlakatdagi korrupsiya ko'plab mamlakatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganiga olib keldi. Shu bilan birga, korrupsiyaning eng yuqori darajasiga ega bo'lgan davlatlar 1990 yillardagi sobiq socialistik mamlakatlarda erkinlashuvini cheklashdan iborat edi. Jirkanch rasmiy noto'g'ri ko'rsatmalar bilan birga. 1995 yil 31 dekabrning "Financial times" gazetasi



1995 yilni “korrupsiya yili” deb e’lon qildi. Korrupsiyani bilishni rag’batlantirish maqsadida BMT Korrupsiyaga qarshi xalqaro kuni (9 dekabr)ni tashkil etdi.

Uchinchi bosqich 1980 – yillarda kuzatilib, noqonuniy to’lovlar va boshqa korrupsion usullarga qarshi kurash bo’yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo’yicha ishlari qayta tiklandi.

BMTning ushbu yo’nalishdagi sa’y-harakatlari BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash va poraxo’rlik bo’yicha Xalqaro savdo operasiyalarida qabul qilingan deklarasiyaning qabul qilinishi bilan yakunlandi, bular qatorida rasmiylar uchun xalqaro xatti-harakatlar kodeksi ham mavjud.

Shu bilan birga BMT va mintaqaviy xalqaro tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikni tartibga soluvchi hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish bo’yicha ishlar boshlandi.

To’rtinchi bosqich XXI asrdan boshlanadi, 2003 yili birinchi BMTning korrupsiyaga qarshi universal Konvensiyasi qabul qilindi.

2009 yilning 8 yanvar kuni 129 davlat ishtirokida yig’ilish bo’lib o’tdi, unda O’zbekistondan ham vakillar qatnashgan.

2010 yilning 20 mayda Konvensiya ishtirokchilari 144 davlatga yetdi.

2011 yil 15 mayda dunyoning 151 ta davlati uni ratifikasiyalashtirdi.

2015 yilning 1 aprelida 175 davlat uni tasdiqlashdi.

BMTga a’zo 192 ta davlatlar bu hujjatni qabul qildi.

Mazkur yo’nalishdagi islohotlarni amalga oshirish davomida milliy qonunlarga xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarini singdirish masalasiga alohida e’tibor berildi va bu munosabat 2008 yilda qabul qilingan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyuyork, 2003 yil 31 oktyabr) O’zbekiston Respublikasining qo’shilishi to’g’risida»gi Qonunda o’z aksini topdi.

2010 yilda O’zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog’ining Istanbul harakat dasturiga qo’shildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida O’zbekiston Respublikasining Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24 noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016 yil 13 dekabrda ma’qullangan. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 3 yanvarda № O’RQ-419 son bilan tasdiqlangan. Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi. Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risidagi qonun hujjatlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

3-modda. Asosiy tushunchalar

korrupsiya – shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo’lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

4-moddada Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat deb ko’rsatilgan:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

7-moddada korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O’zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;  
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoyat daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

14-modda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Korrupsiya bilan qanday kurashish lozim? Dunyoda antikorrupsion dasturlar turli elementlardan tashkil topgan:

Ma'muriy islohot va boshqaruv tartibini o'zgartirish;

Huquqiy sanksiyalar va samarali nazorat tizimi;

Boshqaruv tizimini tartibga solish;

Davlat va xususiy sektorlar faoliyatini tekshirishda.

Fuqarolar ishida mexanizm bo'lishi kerak:

Takomillashtirilgan demokratik jarayonlar;

Davlat organlarining halol va korrupsiyadan xoli ekanligi;

Xizmat muhitida vijdonlilik va fidokorlik tuyg'usi bilan sug'orilgani;

Korrupsiyaga qarshi kurashning roman-german huquqiy modelida rasional me'yoriy huquqlar bilan ta'minlangan.

Bu davlatlarda kurashning asosi oshkora ravishda huquqiy tartibga olinishi bilan ajralib turadi.

Davlat tashkilotlarida ishlash ta'qiqlanadi va barcha ijtimoiy imtiyozlardan mahrum bo'ladi. Dunyo bo'yicha quyidagi avtoritet tuzilmalar mavjud bo'lib, ular butun dunyo korrupsiyaga qarshi kurashish, reytingini aniqlash bo'yicha ishlar olib boradilar.

BMTning rivojlanish dasturida Antikorrupsiya va rasional boshqarish mingyillik Deklarasiyada keltiriladi (Millennium Development Goals (MDGs))

1. Investisiya banklari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va b.

2. Transperensi Interneshnl

Global tarmoq quyidagilarni o'z ichiga oladi:

90 dan ortiq mahalliy milliy bo'limlar ularning vazifasi hukumat vakillari, ya'ni fuqarolik jamiyati institutlari, ishbilarmonlar doirasi, OAVni birlashtirishdir.

Dunyo bo'yicha har yili korrupsiyani o'zlashtirish Indeksi e'lon qilinadi. Bu Indeks 180 ta davlatda ekspertlar va olingan so'rov natijalaridan kelib chiqib korrupsiyani o'zlashtirganlar bo'yicha tartiblangan. Eng yuqori o'rinda: eng past darajadagi davlatlar – Daniya, Yangi Zelandiya va Shvesiya, har bir davlat 9,3 ball dan, undan keyin Singapur 9,2 ball olgan.

Quyi o'rinda: Somali – 1 ball, Iroqva M'yanma esa 1,3 balla va Gaiti 1,4 ballga ega bo'lishgan.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Korrupsiya tushunchasi nimani anglatadi?
2. Korrupsiyaning qanday turlari mavjud?
3. Korrupsiyaning jamiyatga salbiy ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Ilk jamiyat haytida korrupsiya qachon paydo bo'ldi?
5. Korrupsiyaga qarshi kurash nima uchun olib boriladi?
6. Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy mexanizmining vujudga kelishi necha bosqichdan iborat?

## MAVZU BO'YICHA TEST

### **1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qanday tuzilma tashkil etildi?**

- + Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi.
- Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi
- Bosh prokuratura huzurida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha departament
- barcha javoblar to'g'ri

### **2. Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan birini ko'rsating.**

- + Jamiyatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi.
- aholini islohotlardan habardor ekanligi
- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunning mavjudligi
- Aholini huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi

### **3. 2017-2021 yillarda qabul qilingan qonun hujjatlarini aholi va ijrochilarga o'z vaqtida etkazishning samarali tizimini yaratish maqsadida qanday huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish nazarda tutilgan?**

- Jurnalistning kasbiy faoliyatini himoya qilish to'g'risidagi qonun
- Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun
- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun
- + Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun.

### **4 Bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga qaysilar kiradi?**

- Bosh prokuratura, milliy xavfsizlik xizmati
- Ichki ishlar vazirligi, adliya vazirligi
- Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti
- + Barcha javoblar to'g'ri.

### **5. O'zbekiston Respublikasi BMTning Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasiga qachon qo'shilgan?**

- 2017 yil
- 1992 yil
- 2000 yil
- + 2008 yil.

### **6. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarini belgilang**

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti
- + Barcha javoblar to'g'ri.

### 7. “Korrupsiya” atamasi qanday ma’noni anglatadi?

+Lotin tilidagi “**corruptio**” so’zidan olingan bo’lib, mazmuni “buzish, sotib olish” ma’nosini beradi.

-Nemis tilidagi “**corruptio**” so’zidan olingan bo’lib, mazmuni “jinoyat” ma’nosini beradi

-Fransuz tilidagi “**corruptio**” so’zidan olingan bo’lib, mazmuni “huquqbuzarlik” ma’nosini beradi

-Arab tilidagi “**corruptio**” so’zidan olingan bo’lib, mazmuni “o’g’irlik, betob bo’lish” ma’nosini beradi

### 8. O’zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risidagi” qonuni qachon qabul qilingan?

+2016 yilda

-2018 yil


-2012 yilda

-2015 yilda

### 9. Fuqarolarda daxldorlik hissiga salbiy ta’sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?

- Ommaviy madaniyat, beparvolik, loqaydlik
  - Sotqinlik, xudbinlik, mahalliychilik, urug’-aymog’chilik
  - Korrupsiya, qonunni hurmat qilmaslik, vatansizlik
- + Barcha javoblar to’g’ri.

## MAVZU BO’YICHA KO’RGAZMALI MATERIALLAR





2



- \* **KORRUPTSIYA** albatta bugun payado bo'lgan illat emas, u qadimdan buyon mavjud bo'lib kelmoqda.
- \* Qadimgi yunon faylasufi **Aristotel** shunday degan: “har qandaya davlat tizimida – qonunlar va boshqa farmoyaishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo'l bilan boyashiga yo'l qo'yamaslik lozim.”



\*

Korruptsion qilmishlarga oid munosabat vatanimiz tarixida ham ancha qadimdan mavjud.

Xususan, buyuk bobomiz Amir Temurning **“Temur tuzuklarida”** ham amaldorlar xalqdan o'lpon(soliq) yig'ishda ham, “ipak yo'li” dan o'tayotgan savdogarlar karvonlaridan olinadigan yig'implarni olishda adoltili va insof bilan yondoshishlari belgilab qo'yailgan.

O'z davrining mutafakkirlari bo'lmish A.Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Ahmad donishlarning asarlarida ham amaldorlar tomonidan oddiy xalqni ishonchini suistemol qilish holatlari qattiq tanqid ostiga olingan.



O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov mazkur turdagi jinoyatni shunday ta'riflaydi: “Jinoyatning yopiq va eng qabih turi bor ----- bu korruptsiya va poraxo'rlik.

Bu illat nafaqat islohotlar yo'liga jiddiya to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga bevosita tahdid tug'diradi”



- ▶ Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi **“Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”** mavzusidagi ma'ruzasida:
- ▶ **“Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'yamaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yaicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur”** deb ta'kidladi.

## KORRUPTSIYA NIMA?

BMTning ma'lumotnoma-hujjatida (1995):

- **KORRUPTSIYA** – shaxsiy manfaatlar yo'lida foyda olish uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish.

Transparency International  
(xalqaro nohukumat notijorat tashkilot)

- korrupsiya – shaxsiya boyalik orttirish maqsadida xizmat lavozimini suiiste'mol qilish.

## **KORRUPTSIYAGA qarshi kurash bo'yaicha xalqaro huquq manbalari**

**korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida Amerika davlatlari konvensiyasi (1996)**

**jinoyatchilikka qarshi kurashda MDHga a'zo davlatlarning hamkorligi to'g'risida bitim(1998)**

korruptsiya uchun jinoiya javobgarlik to'g'risida konvensiya (Evropa kengashi, 1999)

korruptsiya uchun jinoiya javobgarlik to'g'risida konvensiya (Afrika ittifoqi, 2003)

korruptsiyaga qarshi kurash bo'yaicha BMT konvensiyasi (2003)




### **O'ZBEKISTON** respublikasining qonuni **korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**

1. Oliy Majlis qonunchilik palatasi tomonidan  
2016 yail 24 noyabrda qabul qilingan.
2. Oliy Majlis senati tomonidan 2016 yail 13 dekabrda  
ma'qullangan.
3. Prezident tomonidan: 2017 yail 3 yanvarda imzolangan.  
Matbuotda 2017 yail 4 yanvarda e'lon qilingan.





# O'ZBEKISTONNING Jinoyat kodeksi



24

## O'ZBEKISTONNING JINOYAT KODEKSI

	pora olish (210-modda, 1-qism)	pora berish (211-modda, 1-qism)	vositachilik qilish (212-modda, 1-qism)
1	<b>JARIMA</b> (eng kam ish haqiga nisbatan baravar hisobida)		
	$50 \leq x \leq 100$	$x \leq 50$	
2	<b>OZODLIKDAN MAHRUM QILISH</b>		
	5 yailgacha (musyyan huquqdan mahrum etilgan holda)	3 yailgacha	
3	<b>AXIOQ tuzatish ishlari</b>		
	3 yailgacha		
4	<b>QAMOQ</b>		
	6 oyagacha		

Erkinlik qonun ijozat bergan hamma narsani qilish huquqidir.

27

Monteskie

## 11 - MAVZU. DIN MADANIYAT FENOMENI

Reja:

1. Din tushunchasi, tasnifi va turlari.
2. Qadimgi va milliy dinlar
3. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod haqidagi qonun.

**Tayanch tushunchalar:** Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Fanning falsafa, tarix, psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, arxeologiya kabi fanlar bilan bog'liqligi. Din va dinshunoslik atamalarining ta'rifi.

**Din** insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgarigi dinga agressiv hujum etish uslubining salohiyatsizligi hammaga ochiq-oydin. Lekin keyingi paytda paydo bo'lgan diniy bo'lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo'lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o'zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga prinsipial, professional, ilmiy yondashuv darkordir.

O'zbekiston Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan va jahon hamjamiyatidan ajratilib yashagan bir davrda, G'arbda XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan dinshunoslik fani ancha yo'l bosib o'tib, ko'plab ilmiy natijalarga erishdi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tadqiqotchilari bu yangi soha bilan yaqindan tanishib, mutaxassis-kadrlarni tarbiyalay boshladilar.

**Din** - e'tiqod hamdir, bu esa har bir kishining shaxsiy ishi. Lekin shaxsni har qanday missioner tashkilotlar ixtiyoriga ham tashlab qo'yib bo'lmaydi. Ozod jamiyatda har bir inson o'z shaxsiy munosabatini belgilab olishi uchun unga har tomonlama, boy, xolis-ilmiy axborot zarur. Bunday axborot ko'p qirrali bo'lmog'i, bironing g'arazli sharhisiz asl matnlar shaklida bo'lsa maqsadga muvofiqdir. Eskirgan ma'lumotlar asosida mutaxassis bo'lmagan mualliflar tomonidan yozilgan asarlar hozirgi zamon axborot erkinligi va uning etib kelishi oson bo'lgan sharoitlarda o'quvchilarning ko'z o'ngida mazkur mualliflarning obro'sizlanishiga yoki o'quvchini noto'g'ri tasavvurga ega bo'lib qolishiga olib keladi.

Din va Qonun o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish demokratik jamiyat poydevorini mustahkamlaydi. *O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi* va «*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida*»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni turli diniy jamoa a'zolarining huquqlari, majburiyatlari haqida to'la ma'lumot beradi. O'quvchilarda qonunga hurmat hissini, o'zininggina emas, boshqalarning ham diniy his-tuyg'ularini hurmat qilish, tushunishga harakat qilish, o'z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o'tkazish g'ayriqonuniy xatti-harakat ekanligi, jamoat joylarida diniy masalalarda zo'ravonlik, tajovuzkorlikka yo'l qo'ymaslik dunyoqarashini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda uning fuqarolari turli konfessiyalar vakillari bilan muloqot etishning yuksak madaniyatiga ega bo'lishi ham juda muhimdir.

Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.

Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks

etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

Din nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va eng go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Dunyoda dini, ishonchi bo'lmagan xalq yo'q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi.

Dinshunoslikda dinga «*dinning o'zi nima?*», «*uning mohiyati nimadan iborat?*» degan savol nuqtai nazaridan yondashishdan tashqari «*din qay tarzda faoliyat olib boradi?*» degan savol nuqtai nazaridan ham yondashuv mavjud. Bu masala bilan ko'proq din sosiologiyasi shug'ullanadi.

Sosiologik nuqtai nazardan qaralganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu degani dinni jamiyatdagi bajaradigan vazifalariga ko'ra o'rganish mumkin demakdir.

Dinning vazifalari deganda uning alohida shaxsga va jamiyatga ta'sir qilish yo'li va tabiati nazarda tutiladi. Bunda har bir din unga e'tiqod qiluvchi muayyan bir shaxsga u yoki bu jamoaga va umuman jamiyatga nima beradi? Insonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Shunga o'xshash masalalar o'rganiladi.

Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta'limotni dinshunoslikda funksionalizm rivojlantiradi. Funksi-onalizm jamiyatga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi: unda jamiyatdagi har bir element muayyan funksiyani bajaradi. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, har qanday din o'z e'tiqod qiluvchilari uchun **to'ldiruvchilik**, **tasalli beruvchilik** - **kompensatorlik** vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo'lishi hodisasini olaylik. Inson o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi ilojisiz bo'lib ko'ringanida, unda qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat sezgan. Ana shunday ehtiyoj diniy ehtiyoj edi. Din bu o'rinda ma'naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan va hali ham bajarmoqda.

Masalan, buddaviylik dini rohiblikni targ'ib qilar ekan, bu dunyoda orzu-havaslardan, rohat-farog'atdan voz kechgan inson *nirvana* holatiga erishgach, abadiy rohatda bo'lishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, xristianlikda har bir xristian Iso Masihning qaytishiga umid qilgan holda hayotning turli muammolarini engib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradilar. Chunki xristianlik Iso Masih qaytib kelgach barcha izdoshlarini saodatli hayotga etkazishi haqidagi ta'limotni ilgari suradi.

Shuningdek, islom dinida ham har bir musulmon bu dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istaklariga oxiratda erishishga ishongan holda dunyo orzu-havaslariga ortiqcha berilmay, turmush mashaqqatlariga sabr qiladi.

Ikkinchidan, muayyan din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qilgan va hozirda ham shunday. Bu ijtimoiy hodisa dinning **birlashtiruvchilik** - **integratorlik** vazifasi deb ataladi. Din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotning o'z ta'sirida bo'lishiga intiladi. Bu ta'sirning muntazamligini ta'minlash maqsadida din xalqlarning ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, shuningdek adabiyoti va san'atiga ham ta'sir o'tkazadi.

Masalan, yahudiylikda mazkur din vakillarini bir mafkura atrofida saqlab turish uchun ularni bir millat va yagona maslak egalari ekanliklari, yagona xudo - YAhvening eng sevimli bandalari ekanliklari uqtiriladi.

Xristianlikda ham e'tiqod qiluvchilarni bu dinga yanada ko'proq jalb etish uchun diniy memoriy, tasviriy, musiqa san'ati turlaridan unumli foydalaniladi. Xristianlikda maxsus *ikona* chizuvchilik maktablari faoliyat olib boradi.

Uchinchi, har bir din o'z qavmlari turmushini **tartibga solib, nazorat qiluvchilik - regulyatorlik** vazifasini bajaradi. Dinlar o'z urf-odatlarining, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o'z vaqtida, qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi.

Masalan, islomda kuniga 5 mahal namoz o'qilishi, har hafta juma namozini jome masjidlarda ado etilishi, Ramazon oyida bir oy ro'za tutilishi, ro'za ('iyd al-fitr) va qurbon ('iyd al-adho) hayitlarining nishonlanishi musulmonlarning hayot tarzini tartibga solib turadi.

To'rtinchi, din **aloqa bog'lashlik, birlashtiruvchilik - integratorlik** vazifasini ham bajaradi, ya'ni har bir din o'z qavmlarining birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqadorlikda bo'lishini ta'minlashga intiladi. Bunda u yoki bu dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning o'z dinidagi boshqa kishilar bilan aloqador ekanligi, o'zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

Beshinchi, dinning **integratorlik** vazifasi bilan **legitimlovchilik-qonunlashtiruvchilik** vazifasi chambarchas bog'liq. Dinning bu funksiyasining nazariy asosini yirik amerikalik sosiolog T. Parsons ishlab chiqdi. Uning fikricha, «har qanday ijtimoiy tizim muayyan cheklovlarsiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo'lgan munosabatni ham belgilaydi».

Oltinchi, din vazifalarining **falsafiy, nazariy** jihatlari ham mavjud. Bu vazifa insonga yashashdan maqsad, hayot mazmunini, *dorulfano* va *dorulbaqo* dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turishidan iboratdir.

Dinlar falsafasi, din kelib chiqishi ilmiy-falsafiy o'rganish, ilmiy tadqiq qilish asosan XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda jiddiy tus oldi. Shu davrdan boshlab, Yevropa oliy o'quv yurtlarida bu fan o'qitila boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, «*Dinlar falsafasi*», «*Dunyo dinlari tarixi*» MDH oliy o'quv yurtlarining falsafa va ba'zi gumanitar fakul'tetlarida bu fan o'z o'rnini topa boshladi. Shu davr ichida Yevropa tillarida bir qancha darsliklar va monografiyalar chop etildi.

Shunday qilib, XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida tadqiqotchilar tomonidan to'plangan nazariy ma'lumotlar gumanitar fanlar sohasida yangi fan-«dinshunoslik» ning shakllanishiga olib keldi. XIX asrning ikkinchi yarmida dinshunoslik fani falsafa, antropologiya, etnografiya, arxeologiya, tilshunoslik, qiyosiy mifologiya va fol'klor kabi fanlar bilan to'qnashgan holda jahondagi dinlarni tadqiq qilishga kirishdi.

Din haqidagi yangi fanni vujudga keltirish harakati Yevropa klerikallari (din himoyachilari) tomonidan salbiy qabul qilinib, unga qarshi tanqidiy fikrlar aytili. Ular o'z e'tirozlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslashga harakat qildilar. Ularning fikricha, dinni ratsional (akliy) uslubda o'rganish mumkin emas ekan, chunki din o'z mazmuni bilan irratsional (aqldan yuqori) elementlarga ega. Amaliy jihatdan dinni o'rganish esa, ya'ni turli dinlarning qiyosiy taxlili diniy qadriyatlarining axamiyatining pasayishiga olib keladi.

Bunday e'tirozlarning mavjudligiga qaramasdan Yevropa jamoatchiligida dinshunoslikka bo'lgan qiziqish so'nmadi. XIX asrning 70-yillaridan boshlab dinlar falsafasi va tarixi fanidan Angliya, Gollandiya, Germaniya, Frantsiya, Italiya va boshqa mamlakatlarning yirik universitetlarida ma'ruzalar o'qila boshlandi.

Shunday qilib, dinlar falsafasi diniy xususiyatlarining ichki chuqur mohiyatini ochib bersa, sotsiologiya, psixologiya, fenomenologiya, din tarixi ularning muayyan konkret sharoitda tutgan o'rnini, darajasi, ta'siri haqidagi ma'lumotlar bilan boyitadi.

Dinlar falsafasining shakllanishi va rivojlanishi. Dinlar falsafasining shakllanishi va rivojlanishi falsafiy ta'limotning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan bo'lgan falsafaning dastlabki elementlari qadimgi Bobil, Yunoniston va Rimda miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan bo'lsa, tsivilizatsiyaning keyingi bosqichlarida u muayyan tizim sifatida dinga o'z munosabatini bildirishga harakat qilgan. Falsafaning predmeti ob'ektiv olam va uning yashashi, rivojlanishi hamda taraqqiyoti, hayot va inson umrining mohiyati haqida baxs yuritsa, diniy ta'limotlar ham ana shu masalalarning yechimini o'ziga xos hollarda muayyan dunekarash shaklda talqin qiladi. Shuning uchun falsafa tarixining muhim masalalaridan biri dinning mazmun-mohiyatini, insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi tutgan o'rmini aniqlash hamda taxlil qilish bo'lgan.

Ilohiyot bilan shug'ullanish va uni rivojlantirish. ilohiyotchi-olimlar tomonidan o'rta asrlardan boshlab hozirgacha davom etmoqda. Bu holat faqat islom dinidagini emas, balki dunyodagi barcha milliy va jahon dinlarida mavjud. Hatto qadimgi Yunonistonda din falsafasi bilan shug'ullanilgani manbalardan ma'lum. Masalan, qadimgi Yunovistonda mil. av. VI-V-asrlarda falsafa din bilan juda bog'liq bo'lib, Xudo xaqidagi xalqning oddiy tasavvurlarini tanqid qilish orqali faylasuflar uning oliy-ilohiy holatini tiklashga intilganlar. **Fales, Geraklit, Anaksimandr** din falsafasi bilan xam shug'ullangan bo'lsalar **Pifagor** diniy reformator hisoblangan.

Dinning vujudga kelish sabablarini ilmiy o'rganish qadimgi davrlardan boshlangan. Dastlabki ilmiy qarashlar Qadimgi Sharq va Qadimgi O'rta Yer dengizi sivilizatsiyalarida namoyon bo'lgan. O'rta Yer dengizi havzasida vujudga kelgan Qadimgi Grek va Rim sivilizatsiyalarida dinning vujudga kelishini ilmiy o'rganishda katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Qadimgi grek mutafakkirlari bunga munosabat masalasida ikki oqimga bo'linadi. Birinchi oqim tarafdorlari odamlarning xudoga e'tiqod qilishi sabablarini ruhiy (ideal) kuchlarning obyektiv mavjudligi bilan bog'lab tushuntirganlar; ikkinchi oqim tarafdorlari esa dinning vujudga kelishini tabiiy va ijtimoiy sabablarini axtarib topishga harakat qilganlar. Ularning fikrlariga ko'ra, din o'z-o'zidan (immanent) vujudga kelmagan, balki u odamlarni qo'rqitish va jamiyat qonunlarini bajarishga majbur qilish uchun o'ylab topilgan. Qadimgi grek mutafakkirlaridan biri bo'lgan Demokrit dinni odamlarning tabiatdagi dahshatli kuchlardan qo'rqishlari va ular oldidagi ojizliklar sababli vujudga kelgan deb hisoblagan. Albatta, buni inkor etib bo'lmaydi, lekin xudoga munosabatda odamlarda ko'proq qo'rqinch hissi emas, balki mehr-muhabbat tuyg'usi ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari, qo'rqinch hissining odamda naf- ratni vujudga keltirishini ham unutmash kerak.

Antik davr hurfikrligi dinning vujudga kelishi sabablarini moddiy borliq bilan uzviy bog'lab tushuntirishda erishgan yutuqlari ilmiy dinshunoslikning vujudga kelishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'rta asrlarda ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlar ta'sirida dinning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni va mavqei yanada ortdi. Cherkov va ruhoniylar dunyoviy hokimiyatga da'vogarlik qilish bilan birga hurfikrlilikning har qanday ko'rinishlariga qarshi keskin kurashdilar. Mutafakkirlarning haqiqatni izlash yo'lidagi sa'y-harakatlarida diniy dogmalar doirasidan chetga chiqishga yo'l qo'yilmadi.

Yevropada Uyg'onish davriga kelib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda amalga oshirilgan o'zgarishlar (kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, fan va san'atning yuksalishi, gumanizm va reformatsiya harakatlari) natijasida hurfikrlilik asta-sekin qayta tiklana boshlagan. Ingliz mutafakkiri Tomas Gobbs (1588–1679 yillar) dinning vujudga kelishi sabablarini odamlarning tabiat va jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini bilmasligi, ular oldidagi ojizligi, doimo tahluka va qo'rquvda yashashlari bilan bog'lab tushuntirgan. Niderlandiyalik mutafakkir

B. Spinoza esa (1632–1677 yillar) T. Gobbsning g'oyalarini rivojlantirgan. U o'z kuchiga ishonmaslik, umid va qo'rquv o'rtasida doimiy ikkilanish odamlarga xos deb hisoblagan va diniy e'tiqodning ular ta'sirida vujudga kelgani to'g'risidagi g'oyani ishlab chiqqan.

XIII asrda feodal tuzum inqirozi sababli burjua revolutsiyalarining yangi kuch bilan Yevropada yoyilishi mutafakkirlarning dinga munosabatida o'ta keskin namoyon bo'lgan. Din – feodal tuzumning inqirozi sababchisi va ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi kuch, degan kayfiyat ustuvorlik qilgan. Bunday fikr ayniqsa fransuz ma'rifatparvarlarining qarashlarida keskin namoyon bo'lgan. Ma'rifatparvar P. Golbax (1723–1789) dinni kishining xayolida vujudga kelgan safsata deb baholagan. F. Volter (1694–1778) diniy e'tiqod va cherkov an'analarini tanqid qilib, agar din bo'lmaganida uni o'ylab topish kerak edi, deb P. Golbaxning fikrini qo'llab-quvvatlagan. Ma'rifatparvar **P. S. Mareshal** (1750–1803) dinning tanqid qilishda yanada keskin fikr bildirgan va din inson uchun afyundir degan xulosaga kelgan.

Ma'rifatparvar mutafakkirlarning din vujudga kelishi sabablarini o'rganishda aytgan mulohazalarini amaliyotdan yiroq deb bo'lmaydi. Lekin ularning muammoni o'rganishdagi ilmiy-obyektiv yondashuvlari buzilganligi shubhasizdir, chunki dinni quruq safsatadan iborat voqelik yoki inson uchun afyun deb baholash uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'liq inkor etishdan boshqa hech narsa emas. Ayni damda ma'rifatparvarlarning, o'ta keskin bo'lsa-da, dinning vujudga kelishini ijtimoiy hayot bilan bog'lab tushuntirishga urinishlari antik davr hurfikrligining qayta tiklanishi va jamiyatda mustahkam o'rniga ega bo'lishiga sharoit yaratganini qayd etish lozim.

XIII asrda dinning mohiyati va vujudga kelishi sabablarini kompleks o'rganish boshlagan. Ilmiy dinshunoslik maktablari, yo'nalishlari va ta'limotlari paydo bo'lgan. Birinchilar qatorida **V.Grimm**, **M.Myuller** kabi shaxslar rahbarligida mifologik maktab vujudga kelgan. Ushbu maktab vakillari diniy e'tiqodlarni qadimgi munajjimlar bajarganlar va afsonalarda ta'riflangan marosimlarni o'rganishdan paydo bo'lgan deb hisoblaganlar. Ammo maktab vakillari rivojlangan diniy tizimlarni tahlil qilishda aniq xulosalar bermaganlar.

Dinning paydo bo'lishini o'rganishda o'sha davrda antropologik maktabning vujudga kelishi muhim bo'ldi. Ushbu maktabning vakillaridan biri **L.Feyerbax** (1806–1880) dinni tushuntirishda uning yyerdagi manbalari va ildizlarini izlab topishga harakat qilgan. Odamlar din timsolida o'zlarining tasavvurlari orqali vujudga keltirilgan obrazlarga sog'inadi deb diniy qarashlar va hissiyotlar kishilarda tug'ma mavjudligi to'g'risidagi ilohiyot g'oyasini tanqid qilgan. Uning vujudga kelishi sabablarini odamlarning ruhiy fiziologik xususiyatlari va qurshab turgan tabiatdan axtarib topishga harakat qilgan. Mutafakkir diniy e'tiqodning vujudga kelishida salbiy his-tuyg'ular, ya'ni qo'rqish, qayg'u-iztirob kabilar bilan birga shodlik, mehr-oqibat, sevgi, minnatdorlik singari ijobiy his-tuyg'ular ham ishtirok etishini qayd etgan.

XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan marksizm dinni o'rganishda o'zgacha yondashuvga asoslanadi. Unda ijtimoiy shart-sharoitlar va jamiyat rivojlanishi darajasiga alohida e'tibor beriladi. Marksizm ta'limotiga binoan, individ shaxs sifatida tarixiy shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadi. Shu bois diniy tasavvurlar inson ongida emas, balki tarixiy jarayonlar ta'sirida paydo bo'ladi. Din turlarining rivojlanishi ham o'z-o'zidan yuz bermaydi. Ular ijtimoiy shart-sharoitlarning pishib yetilishi va jamiyatning rivojlanishi ta'sirida o'zgarib boradi.

**Marksizm** dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati masalasida dinni hukmron sinflarning afkor xalq ommasini ezish vositasi, ijtimoiy taraqqiyotga qarshi kuch hamda ma'naviy zulm shakli deb baholagan.

XIX asrda dinning vujudga kelishi sabablarini antropologik yondashuvidagidek ibtidoiy odamning abstrakt tafakkuri mahsuli, ongning mantiq qoidalariga zid kelishi natijasi sifatida baholash va marksizmdagi hukmron sinflarning afkor xalq ommasini ezish vositasi, ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi kuch kabilar bilan bog'lab tushuntirishdan farq qiluvchi g'oyalar vujudga kelgan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida dinni sotsiologik o'rganishda katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Bu sohada nemis mutafakkiri **M.Veber** (1864–1920) va fransuz

mutafakkiri **E. Dyurkgeym**larning (1858–1917) xizmatlari katta bo‘lgan.

**M. Veber**ning fikriga ko‘ra, sotsiologiyani dinning manbalari va metafizik mohiyati masalasi emas, balki uning mavjudligi, shart-sharoitlari qiziqtiradi. Sotsiologiya esa diniy g‘oyalar va tasavvurlarning kishilar xatti-harakatlari va ijtimoiy hayotga ta‘siri kabi masalalarni o‘rganishi kerak.

M. Veber sotsiologiya predmetini dinning sotsial funksiyasidan kelib chiqqan holda belgilagan. Dinni individ va jamiyatning ahamiyati, simvollari va qadriyatlarini belgilovchi madaniy tizim, ijtimoiy institut deb hisoblagan.

Din qadriyatlarining birlamchi asosidir. Zero, din kishi harakatiga ma‘no va mazmun baxsh etuvchi eng muhim usul sifatida uning maqsadini belgilaydi. Din vositasida dunyo manzarasi ishlab chiqiladi, unda amal qiladigan qadriyatlar va normalar tizimi hosil qilinadi. Bu esa hayot uchun nimalar ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini aniqlovchi vosita vazifasini bajaradi.

**E. Dyurkgeym** dinni o‘rganishda **M. Veberga** nisbatan tamoman bosh- qacha yondashadi. U dinni o‘rganishda sotsiologik tadqiqotlarning umumiy prinsiplariga tayanadi. Uning fikriga ko‘ra, sotsial ma‘lu- motlarning manbai tafakkurda yoki alohida olingan kishilarning xatti- harakatlarida emas, balki jamiyatdadir. Sotsial voqelik hosil bo‘lishi uchun kamida bir necha kishi birlashib harakat qilishi va bu jarayon yangi natijani vujudga keltirishi kerak. Mazkur jarayonlarning natijasi individ ongidan tashqarida yuzaga kelganligi sababli, individual tafakkurlar uchun xatti-harakatlar, qadriyatlar va normalar namunasi vujudga keladi va mustahkamlanadi. Natija ijodiy jarayonda ishtirok etayotgan individ uchun obyektiv voqelikka aylanadi. Din ijtimoiy voqelik bo‘lib, unda boshqa ijtimoiy institutlarni o‘rganishdagi uslublar va baholash mezonlaridan ham foydalanish mumkin.

Din muayyan ijtimoiy ehtiyojlarni ta‘minlash maqsadida yuzaga kelgan ijtimoiy institutdir. Uning manbai odamlarning ijtimoiy hayotidan kelib chiqadi. Din orqali jamiyat o‘zini ilohiylashtiradi. Uning mavjudligi va mohiyati ijtimoiy his-tuyg‘ularni muqaddaslashtirishga, jamiyatning shaxsga ta‘sirini mustahkamlashga xizmat qilishdan iborat bo‘ladi.

Dinni sotsiologik o‘rganish uni ijtimoiy voqelik sifatida yondashuvga asoslanadi. Lekin din nafaqat sotsiologik, balki ruhiy voqelik ham hisoblanadi. Din psixologiyasi vakillari uni o‘rganishda ushbu jihatlariga alohida e‘tibor beradilar. Ular dinning vujudga kelishi sabablarini odamni o‘rab turgan tashqi dunyodan emas, balki insonning o‘zida, ichki borlig‘i va hissiy-irodaviy kechinmalarida deb hisoblaydilar.

Din psixologiyasini o‘rganishda **Z. Freydning** (1856-1939) xizmatlari katta bo‘lgan. Z. Freyd dinni inson faoliyatining mahsuli deb hisoblagan. U dinning kishi tabiatga qaramligi sababli vujudga kelganligini qayd etgan holda bilishning irratsional (lotinchada – mantiqsizlik, tafakkurga zid qarashlar degan ma‘nolarni anglatadi) mexanizmlarini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi alohida ta‘kidlagan.

Z.Freydning ta‘limotiga ko‘ra, inson psixikasi uch darajaning o‘zaro hamkorligidan hosil bo‘ladi: ongsizlik, ong oldi va onglilik darajalari. Bularning ichida ongsizlik darajasi psixikada katta ahamiyatga ega. Inson psixikasining bu darajasida tabiiy instinktlar va «birlamchi mayllar» ustuvorlik qiladi. Z. Freyd asosiy mayllar qatorida jinsiy mayllarni ustun qo‘ygan. Individning ongsizlik bilan bog‘liq mayllari jamiyat uchun katta xavf-xatar tug‘diradi. Jamiyat o‘zini kishi mayllaridan himoya qilishi uchun ijtimoiy normalar va boshqa madaniyat elementlaridan iborat ustqurma mexanizmlarni vujudga keltirgan. O‘ta kuchli tabiiy ehtiyojlarni ijtimoiy normalar bilan tiyib turish din yordamida mustahkamlanadi.

Z.Freydning fikriga ko‘ra, tabiiy mayllarning tiyilishi individ psixikasida nevroz holatini vujudga keltiradi. Din ham jamoa nevrozining bir turidir. Lekin din jamoa nevrozi sifatida kishini individual iztiroblardan saqlaydi, individual nevrozning rivojlanishini to‘xtatadi va fojiali

oqibatlariga olib kelishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, dinni vujudga kelishi sabablarini uning alohida xususiyatlarini o‘rganish bilan to‘liq tushuntirib bo‘lmasligiga amin bo‘lamiz. Masalaga bunday yondashuv dinni kompleks o‘rganishni taqozo etadi. Zero, kompleks o‘rganish uning jamiyatda takror ishlab chiqarishga sabab bo‘ladigan ildizlarini aniqlashga yordam beradi.

Dinning vujudga kelishi, avloddan-avlodga o‘tib borishi va ri-vojlaniishi uchun shart-sharoitlarni shakllantiruvchi omillar uning ildizlari deb ataladi. Dinning ildizlari uch qisimga bo‘linadi. Ularning har biri dinni o‘rganishda juda muhim. Bu qisimlar birgalikda dinning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ular quyidagilardan iborat:

1) dinning ijtimoiy ildizi kundalik hayotda kishilarning turmushini belgilovchi moddiy va ma‘naviy munosabatlar tizimidan iborat. Dinning ijtimoiy ildizida moddiy sharoitlar ustuvor. Siyosiy ustqurma institutlari dinga ikkilamchi ta‘sir etadi.

Dinning ijtimoiy ildizini tashkil etuvchi jabhalardan biri ijtimoiy hayotni stixiyali qonuniyatlar asosida rivojlanishidir. Undagi boshqarib bo‘lmaydigan jarayonlar jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy inqirozlarni, urushlarni, kasalliklarni keltirib chiqaradi. Tabiiyki, individ ularning vayron qiluvchi ta‘sirlaridan o‘zini himoya qilishga intiladi va oqibatda g‘ayritabiiy kuchlardan najot so‘rab murojaat qilishga majbur bo‘ladi.

2) dinning gnoseologik (grekcha *gnosis* – bilish, *logos* – ta‘limot degan ma‘nolarni anglatadi) ildizi kishining bilish faoliyati jarayonida diniy e‘tiqodi vujudga kelishiga imkoniyat yaratadigan sharoitlardir. Tabiat va jamiyatni bilish dialektik jarayon. Tajribasizlik, subyektivlik, narsa va hodisalarni absolutlashtirish voqelikning noto‘g‘ri idrok etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, diniy g‘oyalarning paydo bo‘lishi borliqni hissiy idrok etishdan boshlanadi va u ratsional bilish bosqichida ahamiyatini saqlab qoladi.

Dinning gnoseologik ildiziga aloqador va barcha tarixiy davrlarda takrorlanib turadigan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

a) bilishning subyektiv jihatlarini absolutlashtirish (lotinchada – voqelik bilan bog‘lanmagan narsa, nisbatsizlik, so‘zsiz degan ma‘nolarni anglatadi), ya‘ni bo‘rttirib ko‘rsatish;

b) abstrakt (lotincha *abstratio* – diqqatni chetga tortish degan ma‘noni anglatadi), ya‘ni tafakkur;

v) tafakkurning umumlashtirish qobiliyati.

3) dinning ruhiy ildizi. Dinning vujudga kelishida kishining bilish faoliyatiga bog‘liq jarayonlar bilan birga uning hissiyoti, kayfiyati va kechinmalari ham ishtirok etadi. Diniy tasavvurlar dastlab kishilarning his-tuyg‘ulari orqali vujudga keladi.

Dinning ruhiy ildizi individual va ijtimoiy ruhiyatlarga bo‘linadi. Individual ruhiyatga shaxsiy iztirob, g‘am-tashvish, o‘limdan qo‘rqish, yolg‘izlik, muhabbat, mehr-shafqat, minnatdorlik singari ijobiy va salbiy kechinmalarni misol keltirish mumkin.

Ijtimoiy ruhiyatga guruhlar va jamiyatlarga xos voqeliklar – ijtimoiy fikr, ommaviy qo‘rqish hissi, taqlid, an‘ana va urf-odat kabilarni misol keltirish mumkin.

Dinning ruhiy ildizlari deganda diniy g‘oyalarni qayta ishlab chiqarilishi va o‘zlashtirilishiga qulay shart-sharoitlar yaratadigan jamiyatlar, guruhlar va individlarning ruhiy holati, jarayonlari va mexanizmlari tushuniladi.

Ruhiy kechinmalar insonga xos xususiyatdir. Ularsiz inson yashay olmaydi. Odam o‘zining ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularini boshqarishga harakat qiladi, lekin ruhiyat turli obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarga bog‘liqligi, murakkabligi sababli ularni barqarorlashtiradigan kuchga ehtiyoj sezadi. Din ana shunday kuch vazifasini bajarishi mumkin.

O‘rta asrlarning yirik faylasufi va ilohiyotchi olimi **Foma Akvinskiy** (Tomizm ta‘limoti deb yuritiladi) xristian dini aqidalarini nazariy jihatdan tushunishni bir yaxlit tizimga keltirgan edi.



Uning fikricha, dunyoning mavjudligi Xudoga bog'liq. Chunki U-birinchi sabab hisoblanadi. *Foma Akvinskiy* Xudoning mavjudligini narsalarning mavjudligini aposterior yo'l bilan, ya'ni oqibatning mavjudligi sababining mavjudligini isbotlaydi, degan tamoyil asosida isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, materiya shaklga bog'liq bo'lmagan holda, alohida mavjud bo'lishi mumkin emas, ammo shakl materiyadan alohida yashashi mumkin. Bu bilan. Foma Akvinskiy moddiy narsalar oliy shakl - Xudoga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lishi mumkin emas degan g'oyani isbotlashga harakat qiladi. Yana u, hamma narsa va hodisa o'z sababiga ega, sabablarning sababi esa xudodir, deydi.

*Foma Akvinskiy* qarashlari ba'zi sub'ektiv sabablarga ko'ra o'z mavqeini ma'naviy-mafkuraviy hayotda biroz susaytirgan bo'lsa-da XIX asrga kelganda *neotomizm* (lot. neo-yangi) nomi bilan yana jonlandi. U xususiy fanlarning yutug'ini inkor etmadi, ammo ular to'plagan bilimlarni ilohiyot xizmatlariga ishlatgishga harakat qildi.

Foma Akvinskiy ta'limoti katolik falsafasining asosi qilib olingaligi uchun Vatikanda shunga asoslangan qator institutlar, maktablar, katolik markazlari paydo bo'ldi. Yevropada XVI asrdan boshlab diniy-falsafiy ta'limotida ham katta siljishlar kechgan edi. Bu davrda G'arbiy Yevropada xristian dini asta-sekin hukmron mafkuraga, dunyoqarashga aylanib borar edi. Din bilimning barcha sohalarini, shu jumladan, falsafani ham o'ziga buysundirdi. Bu boradagi asosiy yo'nalish va harakat xristian dinining aqidalarini to'g'ri ekanligini nazariy asosda isbotlash lozim edi.

XX asr *neotomizmning* yirik vakillari - J.Marten (1882-1973), E.Jil'son (1884-1978), G.Vetter (1911 y. tug'), I.Boxenskiy (1902 y. tug'), G.Manzer (1866-1949), I.de Friz (1874-1959) va boshqalar o'z ijodlarini *F.Akvinskiy* ta'limotlariga doir muammolarning yechimiga bag'ishladilar.

*Neotomizm* ta'limotida haqiqatga erishishda iymon, e'tiqod va aqidaning uyg'unligi tamoyillariga e'tibor qaratildi. Yana u, haqiqatga erishishning uch shakli bor deydi: fan, falsafa va ilohiyot (teologiya).

- 1) Fan - eng quyi va oqibatlarni aniklashdan nariga o'tmaydi;
- 2) falsofiya bu aqliy bilimining muayyan yuqori bosqichi bo'lib, uning vazifasi olamning yaratgan birinchi sababchisi Xudoni bilishdan iborat;
- 3) ilohiyot (teologiya)ga asoslangan bilimlar neotomistlar qimmatlidir, chunki u, haqiqatni ochishga yordam beradi. Shunga asosan neotomistlar Xudoning mavjudligi, inson ruhining abadiyligi haqidagi aqidalarni ilgari suradi.

*I.Kant* singari *P.A.Florenskiy* insoniyat xristianlik aqidalarining ichki mohiyatiga etib borishi mumkin emas deb hisoblaydi. Buning uchun aqidalarning haqqoniyligini tan olish kerak. Bu bilan *P.A.Florenskiy* insoniyatning bshgash qobiliyatini chegaralab qo'yadi.

Rus pravoslav falsafasida *S.N.Bulgakov* (1871-1944)ning ham ta'siri katta bo'lgan. Diniy ongda ilohiy dunyoni his qilish Bulgakov falsafasining asosini tashkil etdi. Uning dunyo «hechlik» (nichts)dan yaratilgan. Hechlik Bibliyadagi xech narsa (nichego)dan farq qiladi. Hechlikdan Xudo marhamati bilan osmon va sayyoralar, o'simlik va hayvonat dunyosi yaratilgan.

Ilk buddizmga baho bergan yirik rus buddologi *F.I. SHerbatskiy*, «Buddizmda diniylikdan ko'ra insoniylik xususiyatlari ko'proq ko'zga tashlanadi», - deb yozgan edi. Mohiyatan, *S.Radxakrishnan* uning fikrini yoqlab, - «Buddizm bu - ruhshunoslik, mantiq va etika, biroq, metafizika emas» - deb qayd etdi. Hind faylasufi Mukerji fikricha, buddizm mantiq, chuqur metafizikaning ravnaqida o'z ifodasini topgan. *S.Chatgerji* va *D.Dattlar* — «budda etika va reformatsiya tashviqotchisi bo'lib, u faylasuf emas, degan edilar.

Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. Bu guruxlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik etuk bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib

bo'lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi.

Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko'ra;
- etnik jihatga ko'ra;
- e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va h.k.

## **I. TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIF.**

### **1) O'rta er dengizi havzasi dinlari:**

- a) grek;
- b) rim;
- v) ellinistik.

### **2) Qadimiy Yaqin va O'rta Sharq dinlari:**

- a) Misr;
- b) SHumer;
- v) Akkad;
- g) g'arbiy-somiy;
- d) islomgacha arablar dinlari.

### **3) Yaqin va O'rta Sharqning payg'ambarli dinlari:**

- a) zardushtiylk;
- b) yahudiylik;
- v) xristianlik;
- g) manixeizm;
- d) islom.

### **4) Hindiston dinlari:**

- a) vedalar dinlari;
- b) xinduizm;
- v) hind buddizm i (teravada, maxayana);
- g) jaynizm.

### **5) Sharkiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dinlari:**

- a) Shri-Lanka, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi;
- b) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiychilik, buddizm maktablari);
- v) Koreya va Yaponiya dinlari.

### **6) Amerika xindulari dinlari:**

- a) toltok va atsteklar dinlari;
- b) inklar dinlari;
- v) mayyalar dinlari.

## **II. ETNIK TASNIF.**

**1) urug'-qabila dinlari** — totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sexrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jaxon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

**2) millat dinlari** — ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

**3) jahon dinlari** — dunyoda eng ko‘p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qati nazar unga e‘tiqod qilishlari mumkin bo‘lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari, dinlar ta‘limotiga ko‘ra monoteistik — yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik — ko‘pxudolik (hunduizm, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo‘linadi.

Xulosa qilib aytganda, metafizik umumbirlik falsafasi vakillari qarashlarida ayrim farqlar bo‘lishi bilan birga, ularning falsafasida umumiy tomonlar ham uchraydi. Barchasida olamning yaratilishi, insoniyatning yashashi haqida fikrlar bildirilib, gnoseologik, antropologik, psixologik va boshqa jihatlariga e‘tibor qaratilgan.

Din insoniyat ma‘naviy hayotining tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma‘naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan bir paytda din masalasini chetlab o‘tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgari dinga agressiv hujum etish uslubining salohiyatsizligi hammaga ochiq-oydin. Lekin keyingi paytda paydo bo‘lgan diniy bo‘lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo‘lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o‘zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga prinsipial, professional, ilmiy yondashuv darkordir.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, «ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe‘l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta‘sir ko‘rsatdi. U ibtidoiy bo‘lsa ham aqlli, fikr yurituvchi, ma‘lum tahlilga qobiliyatli, konkret holatda fikr yurita oladigan, doimiy faoliyatida vujudga kelgan amaliy tajribalarga ega bo‘lgan odam edi. Bunday tahlil nimaga asoslangan? Bilim miqdorining nihoyatda ozligi va uni doimiy takomillashib borishi, oldinda turgan hayotdan qo‘rquv va uni engishga bo‘lgan intilish, amaliy tajribani uzluksiz ko‘payishi, tabiat kuchlariga mutlaq tobelik va undan qutilishga tirishish, atrof-muhit injiqliklari va ularni engish va h.k. - bularning barchasi shunga olib bordiki, uning ilk qadamidan nafaqat mantiqiy talabchanlik, balki hissiy-ijtimoiy, xayoliy-fantastik munosabatlar kelib chiqdi. Gap «ongli yovvoyi» yoki «abstrakt fikrlovchi kishi» to‘g‘risida borayotgani yo‘q, ayni jamoaning qonun qoidalaridan chiqmagan holda, qolaversa 20-50 kishidan iborat bo‘lgan kichik qabila, mehnat faoliyati jarayoni (ov, ozuqa izlash, qurol yasash, turar joyni jihozlash, olovni saqlash va h.k.) doimiy ijtimoiy munosabatlar, oilaviy urug‘doshlik aloqalari va hodisalar jarayonida (nikoh aloqalari, tug‘ilish va o‘lim) ushbu jamoaning ruh homiylari, g‘ayritabiiy kuchlar va voqeyilik o‘rtasidagi g‘ayrioddiy aloqalar to‘g‘risida ibtidoiy tasavvurlar mustahkamlanib borgan. Real hayot bilan bir qatorda o‘zga dunyo mavjudligi, marhumlar tiriklar hayotiga ta‘sir eta olishi to‘g‘risidagi g‘oyalar yuzaga keldi».

**Dafn etish jarayoni.** Ibtidoiy odam o‘z qarindoshlarini ko‘mishda maxsus marosimlar, ma‘lum tayyorgarlik udumlariga amal qilar edi: jasadni qizil mineral bo‘yoq bilan qoplanar, uning yoniga kundalik ehtiyoj buyumlari, zeb-ziyatlar, asbob-anjomlar va h.k. qo‘yilar edi. Bularning bari o‘z jamoa a‘zolarini dafn etayotgan jamoa oxirat mavjud ekanligi haqida ibtidoiy tasavvurlarga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

**Ov qilish.** Bizga ma‘lumki, arxeologik izlanishlar jarayonida er yuzining turli joylaridagi g‘orlarda ibtidoiy odam tomonidan chizilgan rasmlar topilgan. Fanga ma‘lum bo‘lgan bu g‘orlardagi suratlarining ko‘pchiligi ov sahnasi, odam va hayvonlarning tasvirlari, hayvon terisini kiygan odamlar, yarim odam va yarim hayvon qiyofasidagi mavjudot suratlaridan iborat. Bu suratlar dalolat qiladiki, ibtidoiy odamlar o‘zlari va hayvonlar o‘rtasidagi tabiiy va g‘ayritabiiy aloqalar mavjudligi haqidagi tasavvurlarga ega edilar. Bu bilan birga marhum ajdodlarining ruhlari sehrli usullar bilan hayvonlar hulqiga ta‘sir etish imkoniyatiga ega deb bilar edilar. Bu tasavvurlar tiriklar

bilan marhumlar o'rtasidagi vositachilar, ya'ni turli xildagi sehrgarlar va shamanlar faoliyatining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Ibtidoiy odam hayoti haqidagi tasavvurlarimizga ko'ra, uning hayotida kelib chiqqan diniy tasavvurlar quyidagi ibtidoiy din shakllarida namoyon bo'lgan.

**1. Totemizm.** Totem so'zi - Shimoliy Amerikada yashaydigan *Ojibva* qabilasi tilida «*uning urug'i*» ma'nosini anglatadi. Uning mohiyati «odamlarning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor», deb e'tiqod qilishdir. Ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy ozuqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Ammo bunday totemlar va odamlar orasidagi aloqalar uzoq o'tmishga tegishlidir va bilvosita ularning mavjud bo'lganligini faqatgina qadimgi rivoyatlar tasdiqlaydi. Masalan, hozirgi davrgacha Avstraliya Aborigenlari orasida saqlanib qolgan afsonalardan ularning tasavvurlarini bilib olish mumkin.

Urug'dosh jamiyatning shakllanishi jarayonida totemizm muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, ular qarindosh guruhlarning boshqalardan ajralishiga sabab bo'ldi. «O'zimizniki», ya'ni bir totemga tegishli degan aniq taassurot paydo bo'ldi. Totemizm ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar va normalar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi. Bu totemga xos bo'lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va normalaridan chetda hisoblangan. Totemizmning bunday ijtimoiy roli totemistik ko'rinishlarni evolyusion xarakteriga ham ta'sir ko'rsatdi. Vaqt o'tishi bilan qarindoshlik tizimining mustahkamlanib borishi jarayonida birinchi darajali totem tartibi haqida tasavvur ilgari surildi. *Zooantropofomorf* ko'rinishi bilan aralashgan holda odam bilan uning totemi qarindoshligi orasida oilaviy munosabatlar haqida, ya'ni odam vafot etgach uning o'z totemiga aylanishi yoki aksincha - totemdan qayta inson shakliga kelishi haqidagi tasavvurlar paydo bo'ldi. Birinchi tomondan buning hammasi o'tgan ota-bobolar ruhlarining kuchayishiga va ilohiy kuchlarga ishonchni oshishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan totemga bo'lgan munosabatlarni o'zgarishiga, totemni ozuqa sifatida iste'mol qilishni taqiqlanishiga olib keldi. *Tabu* - ta'qiqlash tizimi paydo bo'ldi. Ulardan eng muhimi totemni ovqat sifatida iste'mol qilishni taqiqlash edi. Faqatgina ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoki qabila boshliqlariga totemni eyish ruxsat etilardi. Shunday qilib, totemizm urug'chilik jamoasi - ijtimoiy jamoalarning eng birinchisida diniy ko'rinishlarning tarixiy asosi bo'lib qoldi.

Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari - birinchi ma'ruzada aytib o'tilganidek **birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik** edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi bo'lishiga qaramasdan, hozirda ham ko'plab xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (Masalan, Hindistonda *sigir*, Avstraliyada *kenguru*, Qirg'izlarda *oq bug'u* afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi).

**2. Animizm** (lotin tilida **anima** – “ruh, jon” ma'nolarini anglatadi). Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ruhlantirish hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk din shakllaridan biri. Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol totemistik qarashlar paydo bo'lgungacha, oilaviy jamoalarning shakllanganicha vujudga kelgan. Biroq etarli tushunib etilgan va barqaror ko'rinishdagi diniy xarakterga ega bo'lgan tizim sifatida kechroq, totemizm bilan bir vaqtda shakllangan.

Animizm totemizmdan farqlanadi. Totemizm ma'lum bir oilaviy guruhning ichki iste'moliga uni boshqalardan farqlash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, animistik tasavvurlar keng va umumiy harakterga ega. Ular hammaga tushunarli va ma'qul bo'lgan. Shu bilan birga u tabiatning qudratli kuchlarini - osmon va er, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmoq kabilarni

ilohiyashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki er yuzining ayrim alohida qismlari - tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar. Hattoki ko'p yillik daraxt, kattaroq xarsang tosh, jarliklarga o'xshash narsalar ham ibtidoiy odamlar tasavvurida jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shunday bo'lgach, ushbu tabiiy narsa, hodisalarga e'tibor bilan munosabatda bo'lish taqazo etilardi, qurbonliklar qilish, ularning haqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilardi.

Animizm zamonaviy dinlarning barchasining asosiy aqidaviy qismini tashkil etadi. Jumladan, jahon dinlari bo'lmish buddaviylik, xristianlik va islomda ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

**3. Shomonlik yoxud sehrgarlik («shomon» so'zining tungus tilidagi ma'nosi «sehrgarlik»).** Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan ritual - urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, u orqali kishilar o'z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. U qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida rivojlanishda davom etib, saqlanib kelgan. Odatda afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus odamlar - shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida ayniqsa uzoq o'tmishda ayollar ko'p o'rinni egallaganlar. Bu shamanlar va afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularni ruhlar bilan mulqotda bo'lish, ularga jamoaning umid va niyatlarini etkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shamanlar, odatda, ma'lum ritual harakatlar orqali ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralalar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida o'zlarini jazavaga solib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga etkazish bilan afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zini yo'qotish darajasiga etib marosimlar ishtirokchilari bo'lib qolishar edi. Odatda shaman marosim oxirida bir holatga kelib hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlar dunyosi bilan mulqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Umuman, olganda ritual marosimlar qismlardan iborat bo'lgan afsungarlik jamiyatning haqiqiy talablaridan kelib chiqqan holda hayotda amalga oshirilgan. Ilohiy kuchlar dunyosi bilan bunday bog'lanish yo'li hayotda noma'lum, oldindan bilib bo'lmaydigan sharoitlardan kelib chiqqan. Lekin shu bilan birga afsungarlik odamlarning fikr yuritish, ongini mustahkamlashda katta rol o'ynadi. Bu esa diniy ongni shakllanish jarayonida muhim o'rin tutdi. Afsungarlik fikr yuritish rivojlangan sari odamga o'z-o'zidan bo'ladigan, faqatgina maqsadli yo'nalishdagi harakatlar natijasida olinadigan emas, balki ilohiy kuchlar afsuni bilan bog'liq bo'lgan sharoitlardan kelib chiqadigan ko'rinish deb hisoblangan. Natijada ko'pchilik aniq hodisalar, hattoki alohida buyumlar sehrlil kuch egasi sifatida qabul qilina boshlandi.

Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirilishi mumkin edi. Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1) Zarar keltiruvchi - yovuz afsungarlik. Uning maqsadi kimgadir zarar etkazishdan iborat; 2) Harbiy afsungarlik. Bu dushmanga qarshi ishlatiladi (masalan, qurol-aslahalarni sehrlash); 3) Sevgi afsungarligi. Undan «issiq» yoki «sovuq» qilish maqsadida ishlatiladi. 4) Tibbiy afsungarlik. Undan davolash maqsadida foydalanish. 5) Ob-havo afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg'ir chaqirish yoki shunga o'xshash ob-havoni o'zgartirish maqsadida foydalanilgan.

Sehrgarlik hozirda ham zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

**4. Fetishizm** (fetish so'zi fransuzcha *fetich* – “but, sanam, tumor” ma'nosidagi so'zni anglatadi). Uning mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inishdir. Unga ko'ra alohida buyumlar kishining o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqea-hodisalarning o'zgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobiy ham salbiy ta'sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlar paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar g'ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rdilar.

Bunday fetishga odatda afsungarlar, shamanlar ega edilar. Ular afsungarlik usullariga binoan bunday buyumlarga ta'sir ko'rsatganlar. Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo'lib qoldi. Haqiqatda, ajdodlarni va tabiatni jonlantirish bilan bog'liq bo'lgan animizm, turli totemlar hamda o'lib ketgan avlodlar shaxsiga bog'liq totemizm orqali ibtidoiy odamlar ongida real buyumlar bilan birga ilohiy va illyuziya dunyosi borligi haqidagi tushuncha paydo bo'ldi. Natijada ularning ongida afsonaviy fikr yuritish qobiliyati mustahkamladi. Va nihoyat fetishlarning paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, afsonaviy qudrat faqatgina vaqt va bo'shliqda ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lib qolmasdan, balki voqeiy dunyodagi buyumlarda ham bo'lishi mumkin. Shunday qilib, urug'chilik jamiyatining tashkil topish jarayonida ibtidoiy odamlarning ongida dastlabki diniy ko'rinishlarning keng, aniq, tartibli majmuasi ishlab chiqildi. Uning ma'nosi shuni anglatadiki, diniy tasavvurlar odam hayotining bo'linmas, hattoki asosiy qismi bo'lib qoldi. Jamiyat va tabiat qonunlarini, albatta, o'sha dunyo kuchlari boshqaradi. Shuning uchun jamoa yaxshi yashayman desa, ozuqalar bilan ta'minlangan, kimningdir tomonidan himoyalangan bo'lishni istasa, birinchi vazifasi u o'sha g'ayritabiiy kuchlarni juda ham hurmat qilishi kerak edi. Dunyo haqidagi bu tasavvurlar vaqt o'tishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt mobaynida o'z ta'sirini o'tkazib keldi.

Fetishizmning unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va e'tiqodlarida saqlanib qolgan. Masalan, barcha dinlardagi haykallar, suratlar, tumor, ko'zmunchoq va turli ramzlar bunga yaqqol misoldir.

**6. Ibtidoiy mifologiya.** Ibtidoiy odamning tasavvuri va e'tiqodlari majmuasi, ularning real hayotdagi qiyinchiliklari, muammolari va yutuqlari og'zaki ijodda aks etgan. Bu narsa odamlarning ongida qolib, turli afsonalarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy mifologiyani tashkil etgan ijod doim odamlarning ma'naviy hayoti, ibodati, hissiyotlari va diniy tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq edi. Buni tushunish oson: agar ibtidoiy odamning asosiy ma'naviy hayotida totemlarga, marhum ajdodlarga ibodat qilish, ular bilan sirli qarindoshligi bo'lsa, mifologiyaning markazida zooantropomorfik ajdodlar yoki har-xil mo'jizalar kuchiga ega bo'lgan ilohiylashtirilgan qahramonlar turardi. «Madaniy qahramon»larning ismlari afsonalarda biron bir muhim yaratilgan ixtiro yoki yangilikda mujassam bo'lgan. Masalan, olovni topish, oila va nikohlar shaklni o'rnatish, mehnat va ov qurollarini yasash va boshqa jasoratlarga oid aqidalarni tashkil qilish. Kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o'rin egallagan. YA'ni er va osmon, quyosh va oy, o'simlik va hayvonot va nihoyat odamning yaratilishi to'g'risida rivoyatlar va afsonalarda diniy tasavvurlarning ta'siri yaqqol namoyon bo'lgan. Ruhlarini yangi shaklga kirish sehrli xususiyatiga, ya'ni o'z qiyofasini o'zgartirish qobiliyatiga ega, bir vaqtning o'zida odam va hayvon shaklidagi monstr deb hisoblashardi.

Ibtidoiy mifologiyada hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkaklar orasidagi muhim aloqalar tasvirlangan edi. Mifologiyaning bunday qarama-qarshiliklarini tahlil qilish hozirgi sharoitda inson tarixining qadimgi bosqichini qayta tiklash uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, bu tahlil ibtidoiy jamoalarda taraqqiyotning borishida diniy tasavvurlarning muhim rolini aniqlashga imkon yaratadi.

**7. Neolit davridagi diniy tasavvurlar.** Neolit revolyusiyasi odamlarning turmushini, ularning ta'sir etadigan barcha sohalarni tubdan o'zgartirdi. Odam o'simliklarni o'stirish, ozuqa zahiralarni hosil etishni asta-sekin o'rgandi. Va bu odamni o'troq hayot kechirishga majbur etdi. qadim hayvonlarni qo'lga o'rgatgan hamda ular berayotgan mahsulotdan foydalanishni o'rgandi. Bu nafaqat go'sht, balki sut va teridir. Ovqat pishirish bilan tanishishi hamda idishlar yasash odamga

yangi muhim materiallarni uzgartirishga majbur etdi. Odam, ovqat va ichimliklar saqlash uchun mo'ljallangan idishlar, uy qurish uchun foydalanadigan loyni tayyorlashga o'rgandi. Neolit davri yuqori poleolitdan keskin farq qiladi. Shu jumladan, tosh buyumlarni silliqlash va sayqal berish - bu esa muhim farq va shu farq davrga nom berdi (Neolit - yangi tosh davri, yangi tosh ishlash yangi usullar davri).

Neolit davri dehqonlarga yangi ishlab chiqarish imkonini berdi. Dehqonlar zich va ko'pchilik guruhlar bilan o'r'nashardi. Dushmandan hamda yovvoyi hayvonlardan himoyalangan qishloqlar kengayib, atroflarida kichik qishloqchalar o'r'nashar edi. Tinchlik va ovqat bilan ta'minlash, tug'ilish va bolalarni tirik qolishi va o'sishiga imkon berar edi. Aholining keskin ko'payishi yangi erlarni o'zlashtirishga, hayot tarzini o'zgarishi diniy tasavvurlarning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratdi.

Dehqonchilikning ehtiyojlari hosilni uzoq vaqt sabrsizlik bilan kutish kerakligi, hamda aniq vaqtni hisoblash muhimligi, er fasllarining sikllarini bilish - bularning hammasi dehqon qabilalarining osmonu erga, quyoshu oyga, yomg'iru shamolga yangi qiziqishini paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu degani qudratli ruhlarga bog'liqlik sezilarli va ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. Iltijo va qurbonlik ularga atala boshlandi. Ammo tabiiy imkoniyatlar to'g'risidagi tasavvurlar keskin o'zgardi. Natijada qadimgi ruhlar -animistik sig'inish ob'ekti asta-sekin o'ta qudratli xudolarga aylandilar. Ular uchun mehrob hamda cherkovlar tashkil etilardi va ularda kecha va kunduz, dehqonlar jamoasidan maxsus ajratilgan mutaxassis xizmatkorlar - kelajakdagi kohinlar xizmat qilardi. Qadimgi totemistik tasavvurlar ham o'zgardi, dehqonlarni hayoti ov natijasiga bog'liq bo'lmagan holda, hayvonlarni qadrlay boshladi, ammo hayvonlar va totemistik tasavvurlar avlodlar xotirasida saqlanib qolavergan. Bu esa zoomorfik tashqi qiyofani biron-bir sig'inilgan xudoda aks etishiga olib keldi. Aksar xudolarning ko'rinishi hayvon, qush, baliqlarning yo boshi, yo tanasi shaklida bo'lar edi. Bu mifologik qahramonlarning yuqorida aytib o'tilgan xudoga qarindoshligi saqlanib qolgan.

Fetishizmning sokin xarakteri o'zgardi, xudolarning qudratli butlari, mehroblar yoki cherkovlar yoniga o'rnatilgan yirik haykallar shakliga aylandi.

Ba'zan butlar o'rniga ramziy haykalchalar, turli shakldagi toshlar guruhi foydalanildi. Fetishizmning rivojlanishida bu haykal va qurilmalar ibodatxonalarining ramzi bo'lib xizmat qildi.

Afsun ham o'zgardi. Afsungarlarning dushmanlarga ziyon etkazish va omadli ov bilan ta'minlash, ruhlar yordamida o'z maqsadiga etishishning ibtidoiy usullari o'rniga yangi, puxta o'ylangan ilohlar bilan aloqa marosimlari, boshqa diniy marosimlar, ibodat va qurbonlik qilish tartiblari yuzaga keldi. Bular asosida qadimgi afsunlar yotar edi. Ammo bir qancha yangiliklar yuzaga keldi. Bunday yangiliklardan biri - fol va bashorat edi. Bular afsunga yaqin bo'lgan, hamda unga asoslangan afsun prinsiplari va usullari edi. Ammo uning maqsadi boshqa edi: bu istakni amalga oshirish emas, balki uni bilishdir. Folbinlikning ilk shakllari neolit davridan ilgari ham amal qilardi. Ammo tizim sifatida neolit davrida yakunlandi. Neolit davridagi dehqonlar qudratli tangridan qo'rqqan holda uning yaxshi niyat munosabatlariga juda qiziqar edi. Buning uchun (qurbonlik) tabiat kuchlari ilohlariga yoki ilohiylashtirilgan ajdodlarga ibodat qilishar edi. Ularning hayolida keltirilgan qurbonliklar hamda ilohiylashtirishga ibodat qilishlari ularga yordam keltiradi va iltimosini rad etmaydi. Ammo buni qanday bilish mumkin? Mana shu yerda barcha usul va prinsiplari bilan fol ochish yordamga kelar edi. Har bir shamanga munsub bo'lgan ibtidoiy afsun marosimlaridan farqli o'laroq, folbinlik yuqori saviyali madaniyatni talab etardi. Marosimlarni olib boruvchi folbin kiyim shartli belgilar tizimiga rioya qilishi shart edi. Bu shartli belgilar ilohini qoniqtirganligini hamda ularning iltijolariga aniq javob berishga tayyorligini anglatardi. Belgilar tizimi har xil - elementar qur'a tashlashdan to murakkab chiziq, yorug' nuqta va chiziq larni qo'shilishigacha bo'lar edi.

**Yahudiylik** - dini eramizdan avvalgi 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelib, yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo'lib, faqatgina yahudiy

xalqiga xos. Yahudiylik ning kitobiy asoslari er. av. IV-III asrlarda shakllandi. Bu dinning ta'limotiga ko'ra olamlarni yaratuvchi yagona xudo Yahve mavjud. U Tavrotni yahudiylarga berish bilan ular bilan ahd tuzgan. Go'yoki yahudiylar Yahvening yer yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi» va keyingi dunyoda berilajak in'omlarning eng haqlisi, Muso Yahvening elchisi, Tora (Tavrot) Yahve tomonidan Musoga Tur tog'ida berilgan muqaddas kitob. Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. Shuning uchun Yahudiylik diniga ko'ra shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hech qanday mehnatga qo'l urilmaydi.

Bundan tashqari Yahudiylik da *messiya* - *xaloskorning* kelishi haqidagi ta'limot ham keng o'rin olgan. Unga ko'ra oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni qaytadan, isloh qilgan holda qurish; 2) butun yahudiylarni Sinion (Quddus yaqinidagi tepalik) atrofida to'plash; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolash.

Muso Turtog'ida Yahve bilan uchrashganda unga 10 ta lavhani tushirdi. Ularda ushbu din asosin itashkil qilgan 10 ta nasihat bor edi:

1. Yahvedanboshqani ilohdebushlamaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;
3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'irlik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.

***Yahudiylikdagi oqimlar.*** Yahudiylik dagi oqimlar haqida gapirganda ularni qadimiy oqimlar va zamonaviy oqimlarga bo'lishimiz mumkin. Qadimiy oqimlarga: *Saduiylar, Farziylar, Esseylar* kiradi.

Saduiy nomi podshoh Dovud payg'ambar davrida yashagan ruhoniylar Saduq nomi bilan bog'liq. Ko'plab mansabdor ruhoniylar saduiy bo'lganlar. Ular diniy ishlarda faqat Qonun (Musoning besh kitobi)ni tan olganlar. Qonunda ruhoniylar, qurbonliklar, ibodatlar haqida so'z boradi, lekin oxirat va qiyomat haqida hech narsa deyilmagan. Shuning uchun saduiylar qiyomatda o'lganlarning qayta tirilishini tan olmaganlar.

Farziy nomi qadimiy yahudiy tilidagi «tushuntirish», «ajratib ko'rsatish» so'zidan olingan bo'lib, ular Musoning qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o'rgatganlar. Farziylar Musoning zamonidan beri og'zaki an'ana davom etib kelyapti deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o'z ehtiyojlarini qondirish uchun Qonunni sharhlay oladi deb bilganlar.

Ular muqaddas manba sifatida nafaqat Musoning qonunini, balki boshqa payg'ambarlarning ham muqaddas yozuvlarini, hatto o'zlarining urf-odatlarini ham qabul qilganlar va bularning hammasiga sinchkovlik bilan amal qilganlar. Shuning uchun ular ovqatga, kiyimga va boshqa narsalarga juda ehtiyot bo'lganlar. Qo'llari va badanlarining ozodaligiga katta e'tibor berganlar. Farziylar juda ko'p payg'ambarlar ta'kidlagan qiyomatga, o'lganlarning qayta tirilishiga ishonganlar.

Esseylar. Quddusdagi ko'pgina ruhoniylar Xudo ulardan talab qilganidek yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar ba'zi diniy mansablarga Musoning Qonuniga muvofiq munosib bo'lmagan shaxslarni tayinlagan edilar. Buni ko'rgan bir guruh ruhoniylar Quddusda ibodat qilish va qurbonlik qilish Qonunga to'g'ri kelmay qoldi, deb hisobladilar. Ular Quddusni tashlab, yahudiy sahrolariga chiqib ketdilar va o'sha yerda o'z jamoalarini tashkil qildilar. Ularni *esseylar* deb atashdi. Esseylar



Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor - Messiyaning kelishi va Quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashar edilar.

Massonizmning ma'nosi «ozod quruvchilar» bo'lib, Yahudiylik dagi yashirin tashkilotdir. U milodiy 44 yili Rim imperatorlaridan Irod Akriba tomonidan o'zining ikki yahudiy maslahatchisi: rais o'rinbosari Heron Abyud va birinchi sekretar Muob Lomiy yordamida tashkil etilgan. Maqsadi – dunyoda yahudiylik hukmronligini o'rnatishga erishish. U tashkil topgan davrda «maxfiy qudrat» deb atalardi. Keyinchalik massonizm deb ataldi.

Sionizm nomi Quddusdagi Sion tog'i bilan bog'liq. Bu oqim avstraliyalik yahudiy jurnalist T. Gerlsning «Yahudiylar davlati» risolasi asosida tuzilgan. Bu oqimning o'z oldiga qo'ygan maqsadi – yahudiylar o'zlari yashab turgan turli o'lkalardan chiqib, Falastinda «milliy birlashish»ga erishish. Sionizm «jahon yahudiy millati» - «oliy millat» kabi g'oyalarni ilgari suradi. O'z g'oyasiga ko'ra sionizm siyosiy oqim bo'lib, maqsadiga erishish yo'lida yahudiy dinidan foydalanadi.

**Yahudiylik manbalari.** Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqaddas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'lib, biri er. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketishga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tora (Tavrot). Bu manba xristianlar uchun ham muqaddas hisoblanganligi uchun u haqida xristianlik mavzusida kengroq to'xtalamiz.

**Talmud.** Talmud(qad. yahud. tilida *lameyd - o'rganish*) miloddan avvalgi IV asrlarda vujudga kelgan va yozma Toradan farqli o'laroq, avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib borgan. Shuning uchun Torani yozma qonun, Talmudni esa og'zaki qonun deb yuritilgan. Talmud Mishna va Gemara kitoblari majmuasi bo'lib, Mishna ravvinlar tomonidan Tavrotga yozilgan sharhlar, Gemara esa Mishnaga yozilgan sharhlardan iborat. Talmudning Falastin (O'rshalim) va Vavilon (Bavliy) nusxalari mavjud. O'rshalim Talmudi eramizning III asrlarida Bavliy talmudi eramizning V asrida tahrir qilingan.

Unda ilgari yahudiylar uchun noma'lum bo'lgan o'ziga xos esxatologik (ya'ni oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo) tasavvurlar o'z aksini topgan. Talmudda Yahudiylik ning marosimlari, urf-odatlarini aniq bayon etilgan bo'lib, ular 248 ta vasiyat va 365 ta taqiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy yahudiylar orasida din, partiya, guruhlar (saduqiylar, farziylar, esseylar)ning kelib chiqishi haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko'rsatmalar yahudiy dinining asosini tashkil etadi.

**Yahudiy marosimlari va bayramlari.** Yahudiylar o'zlarining Yahvega nisbatan sodiq ekanliklarini isbotlash uchun bir necha rasm-rusumlarni ijro etadilar. Ular yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan, marosimlardan iborat. Ibodat uyda ham sinagogada ham birday olib boriladi. Yahudiylar sinagogasining Sharqiy tomonida Toraning nusxalari saqlanadigan sandiq va Ravvin uchun minbar qo'yilgan. Ayollar erkaklardan alohida ibodat qilishadi. Sinagogada ibodat *xor* shaklida olib boriladi.

Yangi tug'ilgan o'g'il bolalar sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Yahudiylik da bir necha tur oziq-ovqatlar, asosan cho'chqa, quyon, qo'shoyoq, tuya, yaxlit tuyoqlilar, o'laksaxo'r qushlar kabi ba'zi hayvon go'shtlarini eyish taqiqlanadi.

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e'tiborlisi Peysax (Pasxa) bayramidir. Bu bayram xristianlarning pasxasidan farqli o'laroq, yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Qadimiy yahudiylarda Pasxa deb qo'zichoq go'shti va vinodan iborat kechki ovqatga aytilgan. Xudo Misrdagi yahudiy bo'lmagan go'daklarni qirib tashlashga qaror qilganda ular o'z uylarining peshtoqini o'sha qoni bilan bo'yab o'zlarini yahudiy ekanliklarini bildirganlar.

Yahudiylar pasxa bayramidan keyingi etti kun davomida tuzsiz, xamirturushsiz patir – *masa* eydilar. Masani eyish bilan har bir yahudiy Muso boshchiligidagi o'z ota-bobolarining chekkan

mashaqqatlarini his etadi. Bu bayram yahudiylarning quyosh-oy kalendarining *Nison* oyining 14 kuni (aprel oyining o'rtalariga to'g'ri keladi) nishonlanadi.

Pasxadan keyingi 50-kuni yahudiylar *Shabuot (SHevuot)* bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami bo'lgan, keyinchalik Sinay tog'ida Musoga Xudo tomonidan Toraning berilishini nishonlab o'tkaziladigan bayramga aylangan. U yahudiylarning kalendari bo'yicha *Sivona* oyining 6-,7-kunlari nishonlanadi.

Kuzda yahudiy kalendaridagi *Tishri* oyining 1-2-kunlari (sentyabr oxiri, oktyabr boshlari) yangi yil bayrami - *Rosh-Ashona* nishonlanadi. Bu bayram yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbonlik qilingan qo'chqor shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, gunohlari qolmasligi uchun cho'ntaklarini to'ntarib yaxshilab qoqadilar.

Tishri oyining 9-kuni gunohlardan poklanish bayrami - *Yom-Kipur* nishonlanadi. *Rosh-Ashona* va *Yom-Kipur* bayramlari o'rtasida yahudiylar ro'za tutadilar. Ro'za kunlari ular yuvinmaydilar, yalangoyoq, eski-tuski kiyimlarga o'ranib yuradilar. Sinagogada nadomatlar bilan yig'lab tavba qiladilar.

*Purim* (qur'a) bayrami yahudiy bayramlarining ichida eng quvnoq hisoblanadi. Bu bayram yahudiylarning ularni qirib tashlamoqchi bo'lgan Fors podshohi Homon zulmidan qutilganliklari sharafiga bahorda nishonlanadi. Ularni Homondan o'z amakisi Mordexay qo'lida tarbiyalangan Esfir ismli qizcha qutqargan. Shuning uchun bu kuni yahudiylar «Homonga la'natlar bo'lsin», «Mordexayga Xudoning rahmatlari yog'ilsin», deb qichqiradilar.

**Yahudiylar O'rta Osiyoda.** Ma'lumki, yahudiylar O'rta Osiyoga qadim zamonlardan ko'chib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Ularning ichida umum e'tirof etilganlaridan biri shuki, yahudiylar bu mintaqaga Eron orqali kirib kelganlar. Bu xalqning O'rta Osiyoga hijrati ko'p asrlar mobaynida davom etdi. Taxminlarga ko'ra, ular Assuriya quvg'inlari paytida – er. av. VII-VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Hatto e.r. av. VIII asrlarda ba'zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o'lkalarda boshpana topganliklari haqida ham xabarlar bor. Fors davlati ma'lum muddat O'rta Osiyoni o'z hukmlari ostida tutib turgan va xuddi shu davrda yahudiylarning ko'chib kelishi amalga oshgan. Bu fikrni mahalliy yahudiylarning fors lahjalaridan birida gaplashishlari ham quvvatlaydi. Ularning hayot tarzlari, urf-odatlar qadimiy yahudiy, fors va mahalliy - O'rta Osiyo madaniyatlarining qorishmasidan iborat. Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan ba'zilarining ta'siri kuchayishi yoki aksincha susayishi kuzatilgan. XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketdi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning ma'lum bir qismining bosib olinishi yana yahudiylarning Turkiston Muxtoriyati va Buxoro Amirliigi jamoalariga bo'linib ketishiga olib keldi. Yahudiylik millat dini bo'lganligi uchun yahudiylar qayerda bo'lmasin, biri-ikkinchisidan qancha uzoq bo'lmasin, o'qiydigan kitobi – Tavrot, e'tiqod qiladigan dini yagona bo'lib qolaverdi. XVIII asrda O'rta Osiyo yahudiylari tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili o'zi Farbiy Afrikadan bo'lib, Falastinning Sfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag'ribiy o'z shahri yahudiylar uchun moddiy yordam to'plash maqsadida Buxoroga keladi. U bu erlik yahudiylarning o'z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko'rib, shu yerda qolishga va millatdoshlariga diniy ta'lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko'rganlar. Agarchi O'rta Osiyolik yahudiylarni *Buxoro yahudiylari* deyilsa ham, ular ko'proq Samarqandda yashaganlar. XVIII asrning o'rtalarida Nodir-shoh Samarqandni bosib olganida uning lashkarlari orasida turklar, lazginlar, afg'onlar, eroniylar, shuningdek, yahudiylar bo'lganlar. Ular Samarqandning Shoh-Kash, Chor-Raga, Novadon, Qo'shhovuz kabi guzarlarida yashab qolganlar. Buxoro hukumati Nodir-shoh davrida yahudiylarga nisbatan yumshoq muomalada bo'lgan.

Son jihatdan ko'paygan yahudiylarning barchalari bir mavzega jam bo'lib yashashni xohlashardi. Biroq, Buxoroda ham, uning Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana kabi viloyatlarida ham yahudiylarni musulmonlardan ajralgan holda alohida yashashga majbur edilar. 1843 yilning bahorida mahalliy yahudiylarga Samarqandning Sharqiy qismidan 2,5 gektar joyni 10000 kumush tangaga sotish haqidagi shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudilardan 32 kishi imzoladi, davlat uning haqiqiylikini to'rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, yahudiylar o'zlarining birinchi mahallalariga ega bo'ldilar.

**Zardushtiylik dini.** Spitama qabilasidan bo'lgan Pourushaspa o'g'li Ashoga Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, pahlaviycha – Zaraxustra “boqiy yulduz” va “chiroyli tuyalarga ega bo'lgan”) ushbu dinning asoschisi hisoblanadi. Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra, bu nom unga **Axura–Mazda** (yunoncha, Ormuzd –“Donishmandlik sohibi”) tomonidan berilgan. Zardushtning yashagan davri va joyi haqida turli taxminlar mavjud. Tadqiqotchi M.Boysning ta'kidlashicha, u mil. avv. 1500–1200 yillar orasida yashagan. Uning fikricha, Zardusht o'z da'vatini Kishtosib Lafrost ismli podshoh davrida boshlagan. Bunga u zamonaviy zardushtiylikning hozirgacha mil.avv. 1738 yil shoh Vishtasp tomonidan qabul qilingan “fasli” kalendaridan foydalanib kelayotganlarini dalil qilib ko'rsatadi. Zardushtiylikning vatani masalasida ikki xil qarash mavjud. Jumladan, ayrim olimlar zardushtiylik Qadimgi Eron hududida keng tarqalgani, “Avesto”ning sharhlari pahlaviy tilida yozilganidan kelib chiqib, uning vatani Midiya (hozirgi Eron hududi) deb hisoblasalar, ko'pchilik tarixchilar esa “Avesto”da Xorazm Zardushtning vatani, Axura–Mazda bilan aloqa bog'langan va ozarxurra (muqaddas olov) birinchi bor yoqilgan joy ekani qayd qilinganiga asoslanib, Xorazmni e'tirof etadilar.

Zardushtiylikning muqaddas manbasi “Avesto” (“Apastak”, “Ovisto”, “Ovusto”, “Abisto”, “Avasto” –“joriy qilingan qat'iy qoidalar”) sanskrit tiliga yaqin o'ziga xos (avesto tili) tilida yozilgan. Uning “Gat”lar nomli qismi Zardusht qalamiga mansub deb hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Xorazm, Gava (So'g'd), Marg'iyona (Marv), Baqtriya (Balx), Orol dengizi (Vorukasha yoki Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) kabi nomlarning tilga olingani “Avesto” O'rta Osiyoda mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelganini tasdiqlaydi. Dastlab “Avesto” matnlari og'zaki ravishda saqlanib kelgan. Uning eng qadimiy qismlari II ming yillik oxiri I ming yillik boshlariga oid bo'lib, keyingi asrlarda uning tarkibi turli diniy urf–odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun–qoidalar bilan to'ldirilib borilgan. Milodiy uchinchi asrda qonunlardan iborat Avestoning sharhi “Zend” (parfiyoncha, “sharhlangan matn”) yozilgan. Zamonaviy zardushtiylikning fikriga ko'ra, “Avesto”ning to'liq qismi etib kelmagan bo'lsa–da, uning dastlabki yozma nusxasi 12 ming qora mol terisiga bitilgan edi. Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy “Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning) o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar (Aleksandr Makedonlik) otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. SHuning uchun o'sha vaqtda Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi”, deb aytgan so'zlari yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. “Avesto” mil. avv. I asrda Arshakiylar sulolasi davrida ilk marta oromiy alifbosida ko'chirilgan. Shopur II (243–273) va Xusrav I (531–579) zamonlarida uning nusxalari yaratilgan. IX asrda yozilgan “Denkart” (“Imon faoliyati”, Sosoniylar hukmronligi davrida yozilgan qomusiy lug'at bo'lib, u o'z ichiga badiiy va tarixiy ma'lumotlarni olgan. Dastavval 9 bo'limga iborat bo'lgan, keyinchalik uning 2 qismi yo'qotilgan. Abbosiy xalifa al–Ma'mun ibn Horun ar–Rashid (813–833) davrida Aturfarnbag (Aturfat ibn Hamat) tomonidan to'plangan) asari “Avesto”ning 21 qismidan iborat bo'lganini qayd etadi. Dindorlar kundalik faoliyati uchun uning ixchamlashtirilgan shakli – “Kichik Avesto” (“Xurdak Avesto”) yaratilgan. VII asrda Eronga islomning kirib kelishi zardushtiylikni Hindistonga ko'chib o'tishga majbur qildi. Ularning avlodlari (forsiyalar) Bombay shahrida o'z jamoalarida hozirgacha “Avesto”ning bir nusxasini saqlab keladilar. “Avesto” – “Videvdat”, “Yasna”,

“Visparad” va “Yasht” nomi bilan yuritiladigan bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. 22 bobdan tashkil topgan “Videvdad” – “Avesto”ning saqlanib qolgan bo‘limlari orasida eng mukammali bo‘lib, unda odamlar yashaydigan barcha yurtlar Axura–Mazda tomonidan yaratilgani, kasallik, o‘lim, azob–uqubatlar bo‘lmagan zamon, ya’ni insoniyatning farovon hayoti, Zardusht bilan Axura–Mazdaning savol–javoblari, qasam ichish, va’dada turish, ahdni buzish, tozalik, yuvinish asoslari kabi masalalar yoritilgan. “Yasna” – diniy marosimlarda o‘qiladigan duolar bo‘lib, 72 bobdan tashkil topgan. Zardushtning so‘zlari hisoblanadigan 17 fasl, 338 qit’a, 896 misra va 5560 so‘zdan iborat “Gat”lari ham shu bo‘limdan joy olgan. “Gat”ning har bir she’ri pahlaviy tilida “Gas” deyiladi. Umuman olganda, bu bo‘limda olovning muqaddasligi, zardushtiylik marosimlari orasida olovga e’tiqod qilish, Axura–Mazda nurining Quyoshda namoyonligi va uning Erdagi zarrasi deb bilinishi, olovning haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg‘onni rostdan ajratib berishi, yolg‘onning chin e’tiqodga xiyonat, deb qoralanishi kabi e’tiqodiy tushunchalar o‘z aksini topadi. “Visparad” – 24 bobdan tashkil topgan bo‘lib, ma’budlar sha’niga o‘qiladigan duo va pand–nasihatlardan iborat. 22 bobdan tashkil topgan “Yasht” esa har bir bobi Axura–Mazdadan boshlanib, u tomonidan yaratilgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalardan iborat.

Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, Zardusht o‘ttiz yoshga etganida unga payg‘ambarlik vazifasi berilgan. U o‘z tarafdorlari bilan birga Aivitaq suvi qirg‘oqlarida xilvat (yolg‘izlik, chilla)ga chiqib ketgan. Xilvatning 45–kechasi samoga ko‘tarilib, Vohumanah (Behmen) deb nomlangan farishta bir necha farishtalar bilan birga uning ko‘kragini yorib, ruhini poklaganlar. Vohumanah uni jannat, ya’ni Axura–Mazdaning huzuriga olib borgan. O‘sha erda u dinning hukmlari bilan birga yulduzlar, sayyoralar, jannat, jahannam va boshqa narsalarning ilmini o‘rgangan. Shundan so‘ng Axura–Mazda unga muqaddas kitob “Avesto”ni in’om etdi. Zardusht ta’limoti ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashning azaliy ekaniga asoslangan axloqiy xarakterdagi din bo‘lib, unda adolatli bo‘lish, oqillik, yaratuvchanlik va mehnatsevarlik bilan yagona xudoga sig‘inish targ‘ib qilingan. Bu kurashda ezgulik tarafdori Axura–Mazda oxir–oqibat yovuzlik tarafdori bo‘lmish Anxra–Maynyu (yunoncha, Axriman – yomonlik, buzg‘unchilik ibtidosi) ustidan g‘alaba qozonadi. Shuning uchun ko‘pchilik dinshunoslar zardushtiylikni assimetrik dualizmga mansubligini qayd qilishgan. Ta’limotga ko‘ra, birinchi inson Govmard (forscha – ho‘kiz–odam) bo‘lgan. Birinchi shoh Yima (Jamshid) hukmronligi oltin davr hisoblangan. Uning davrida kishilar bekamu–ko‘st, baxtiyor yashaganlar. 900 yil o‘tgach, shoh Yima g‘ururga berilib, man etilgan sigir go‘shini eydi va yovuzlik ramzi Axriman hukmidagi kuchlar bosh ko‘taradi. Oqibatda olamni muzlik qoplaydi. Yima Axura–Mazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo‘rg‘on qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtiradi. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash davri bo‘lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Axura–Mazda g‘alaba qilib, ezgulik saltanati qaror topadi, o‘lganlar qayta tiriladi. Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, dunyo sinovlardan emas, balki yovuzlikka qarshi kurashdan iborat, xolos. Ta’limotda insoniyat yashayotgan dunyo muhim hisoblanadi. Shuning uchun unda dunyoviy lazzatlardan oxirat uchun voz kechish masalalari ilgari surilmaydi. Zardushtiylikka ko‘ra, ezgu amallar qilish orqali yovuzlikni engish mumkin. Har bir zardushtiy hayotini ezgu fikr – xumata, ezgu so‘z – xuxta, ezgu amal – xvartsha asosiga qurishi hamda yovuz fikr – dujvartshta, yovuz so‘z – dujuxta, yovuz amal – dujmatadan saqlanishi zarur. Zardushtiy uchun har doim pok holda bo‘lish ahamiyatli hisoblanadi. Inson o‘zini pok saqlashi uchun yomon o‘y–xayollar, kasallik, o‘liklarga yaqinlashmasligi hatto ularga qaramasligi ham zarur. Istisno tariqasida nopok bo‘lib qolgan kishi yangidan poklanishi kerak. Inson jasadini olovda yoqish, muqaddas olovni o‘chirish va ruhoniylarni o‘ldirish eng og‘ir gunohlardan sanaladi.

Zardushtiylikda har bir dindor shubhasiz tasdiqlashi zarur bo'lgan muhim aqidalar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, oliy mehribon xudo Axura Mazdaning yagona va mavjud, Gegig (Er) va Menog (Ruh) olamlari mavjud, Zardusht insoniyat tarixida Axura Mazdaning ilk payg'ambari, "Avesto"ning barcha qismi ilohiy haqiqat, muqaddas olov Xudoning Erdagi timsoli, Mobadlar Zardushtning birinchi shogirdlari va vahiylarning muhofazachilari, poklanish marosimlarini bajaruvchi, muqaddas olovni saqlovchi va ta'limotning sharhlovchilari, barcha yaxshiliklarning barhayot fravashilari mavjud bo'lib, odamlarning fravashilari Erda yovuzlikka qarshi kurashish yo'lini tanlaganlar, yakunda ezgulik va yovuzlik kuchlarining uyg'unlashishi, kelajakda Saoshyanta (xaloskor) kelishi va uning yovuz Frasho Kereti ustidan g'alaba qozonishi, oxiri zamonning sodir bo'lishi, o'limdan so'ng hisob-kitobning bo'lishi, adolatning qaror topishi, yovuzlikka qarshi kurash va poklikni saqlab qolish maqsadida zardushtiylik an'analari va marosimlarga amal qilishning zarurligiga e'tiqod qilish shart qilingan. Zardushtiylikka ko'ra, inson vafotidan uch kundan so'ng uning ruhi jasadidan ajralib, Osmon (Qo'shiqlar uyi)ga olib boruvchi Chinvad ko'prigi (Ajratish ko'prigi)ga boradi. Chinvadda inson ruhini ezgulik yazatlari Sraosha, Mitra va Rashnu himoya qiladi. Agar inson ruhining ezgu amallari bir tola soch vaznida ham yovuz amallardan og'ir kelsa, qo'shiqlar uyiga boradi. Aks holda uning ruhini dev Vizaresh do'zaxga tashlaydi. Chinvadda inson o'z Daen (imon)ini uchratadi. Ezgu amal sohibiga imon go'zal qiz qiyofasida ko'rinib, uni ko'prikdan olib o'tishga yordam beradi. Yovuz amal egasini esa, jodugar ayol ko'prikdan do'zaxga yiqitib yuboradi. Zardushtiylikka ko'ra, dunyoga 3 nafar saoshyanta kelishi lozim. Ular Zardusht ta'limotini qayta tiklaydi, qiyomatga yaqin ularning oxirgisi Anxra-Maynyu bilan jang qilib, barcha yovuzlik kuchlarini mag'lub etadi. Barcha o'lganlar qayta tiriladi va olov orqali hisob-kitob qilinadi. Odamlar erigan metall oqimida barcha gunoh va nuqsonlardan tozalanadi. Yaxshi odamlar uchun olov sut bug'idek tuyuladi, yomon odamlar esa yonib ketadilar. Shundan so'ng olam o'zining asl holatiga abadiy qaytadi.

Zardushtiylikda marosimlar qat'iy belgilangan tartibda o'tkaziladi. Har kim amal qilishi lozim bo'lgan shart amallar bo'lib, ularga ko'ra, barcha marosimlarni diniy malakaga ega erkak kishigina amalga oshirishi mumkin, ishtirokchilar pok holda, Sadre (oq rangli maxsus zardushtiylik ko'ylagi), Kushti (maxsus kamar) va bosh kiyimda bo'lishi, ayollar esa sochlarini ro'mol bilan berkitishi, ishtirokchilar tik turgan holda olovga yuzlanib, ibodatlar avesta yoki pahlaviy tilida olib borilishi ta'minlanadi. Marosimda dinsiz yoki boshqa din vakilining ishtiroki xosiyatsiz hisoblanadi. Zardushtiylik marosimlari zamirida har qanday nopoklikka qarshi kurash ta'limoti yotadi. Bunda poklanish muqaddas olov yordamida amalga oshadi. Zardushtiylik ibodatxonasida (otashkade) uzluksiz ravishda muqaddas olovning yonib turishi ta'minlanadi. Ba'zi ibodatxonalarda bir necha yuz yillardan beri muqaddas olovlar o'chmasdan kelmoqda. Muqaddas olovlarni o'chib qolmasligini Mobad (diniy marosimlarni avloddan avlodga saqlab qolish mas'uliyatini olgan, ruhoniylar oilasi)lar ta'minlaydi. Mobadlar olovni har qanday holatda ham asrashi zarur bo'lgan. Yangi olovni yoqish faqatgina istisno vaziyatlarda amalga oshiriladi. Muqaddas olovlarning Shoh otash Varaxram (oliy darajadagi Shoh Bahrom olovi) maxsus shohona marosimlar, yirik g'alabalarga bag'ishlanib yoqilgan. Uni yoqishda 16 xil olov jamlanib, birlashtirilgan. Ushbu olov bilan bog'liq marosimlarni yuqori martabadagi ruhoniylar amalga oshirishgan. Otash Aduran (o'rta darajadagi aslzodalar olovi) 1000 kishidan kam bo'lmagan aholi turar joylarida Mobadlar tomonidan yoqiladi. Buning uchun jamiyatning ruhoniylar, harbiy, dehqon va hunarmandlardan bo'lgan tabaqalari ishtirok etishi lozim bo'ladi. Olov oldida Nozudi (ruhoniylar, amaldor va hukmdorlar sharafiga o'tkaziladigan marosim), Gavaxgiran (to'y marosimi), Sadre pushi (Zardushtiy shaxsning maxsus ko'ylak kiyish va kamar taqish marosimi), Gaxanbar (Yazatlar sharafiga o'tkaziladigan yil davomidagi bayramlar) kabi marosimlar o'tkaziladi. Otash Dodgoh

(quyi darajadagi olov) mahalliy jamoalarning kundalik diniy ehtiyojlari uchun ishlatilgan. Forslarda bu kabi joylar Dar ba mehr (adolat egasi Mitraning hovlisi) deb atalgan.

Zardushtiylikda dafn marosimi va undan keyingi tadbirlar murakkab bo'lishiga qaramay o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Dastlab kishi jasadni podiyob (o'likni to'liq yuvish) marosimi olib boriladi. Jasadni ko'targan va yuvgan kishilar barashnum (o'likka tegib ketgan va og'ir gunohlar qilgan kishilarni poklash) uzoq vaqt davom etadigan marosim bo'lib, u itlar yordamida amalga oshiriladi. Marosimning o'limdan keyingi hayot uchun foydali ekani uqtirilgan holda, har bir dindorga umri davomida bir marta bo'lsa-da, tavsiya qilinadi. Undan tashqari Yasna (Yasnaning 27 bo'limi o'qilishi) marosimi muqaddas olov oldida Mobadlar tomonidan amalga oshirilib, unda dron (maxsus tayyorlangan non) va xum (xaoma, maxsus tayyorlanadigan ichimlik) ishtirokchilarga tarqatiladi. An'anaviy dafn marosimi bo'yicha jasadni daxma (erdan 4–5 metr balandlikda silindr shaklida bo'lgan maxsus joy)ga qo'yilib, unga o'liklar ustma–ust tartib bilan yotqiziladi. Ta'limotga ko'ra, o'lik Axrimanning vaqtinchalik g'alabasi oqibati bo'lgani bois u nopok hisoblanadi. Shuning uchun yirtqich qush va hayvonlar ixtiyoriga topshirilgan jasaddan qolgan suyaklar terib olinib, nous (maxsus quticha)larga solingandan so'ng daxmaga qo'yiladi. Ammo, 1970–yillar boshlarida Eronda jasadni beton qabrlarga ko'mish amaliyoti boshlangan. Dafn marosimida nasusa (qutiga ko'muvchilar)lar nomli ijtimoiy tabaqa vakillaridan kamida ikki kishi ishtirok etishi lozim. Dafnning bir kishi tomonidan amalga oshirilishi katta gunoh hisoblanadi. Noiloj vaqtda esa itning ko'magidan foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtda zardushtiylikning jebr (Eron) va fors (Hindiston) jamoalari saqlanib qolgan. Jumladan, Hindistonda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi kam sonli forsiylar bo'lib, ular VII asrda Eronga islomning kirib kelishi oqibatida Hindistonga qochib kelgan fors zardushtiylikning avlodlari hisoblanadi. Forsiylar dastlab Kathiavardagi Diu va Gujaratdagi Senjenda yashaganlar. Keyinchalik Bombay (Bombey)ga ko'chib o'tgan zardushtiylik soni 100000 kishi atrofida bo'lib, hozirgi kunda Hindiston aholisining 0,007 foizini tashkil qilmoqda. Undan tashqari Avstraliya, Evropa, Shimoliy va Lotin Amerikasi, Rossiya Federatsiyasi va MDH mamlakatlarida zardushtiy jamoalari mavjud. Hozirgi vaqtda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar soni 200000 dan oshadi. 2003 yil YUNESKO tomonidan zardushtiylikning 3000 yilligi nishonlandi.

**MONIYLIK**- Dualistik dinlarning eng yirigi bo'lgan moniylikka Surayk ibn Fatak (216 – 276) tomonidan asos solingan. Uning arabiyashtirilgan to'liq nomi X–asr arab manbalarida Moniy – Surayk ibn Fatak shaklida zikr qilingan. Ushbu din qadimgi Bobil dinlari, yahudiylik, xristianlik, buddaviylik va zardushtiylikning diniy ta'limotlari asosida vujudga kelgan. O'z davrida Moniylik G'arbda Rimgacha, Sharqda Xitoy va Hindistongacha bo'lgan hududda keng yoyilgan va yuqori nufuzga ega bo'lgan. II – III asrlarda Fors davlati Zardushtiylik dinining kuchli bosimi ostida edi. Shunday bo'lsada, Moniy xristian – yahudiy ta'limotlari asosida ulg'aygan. Uning ota–onasi (Fatak va Maryam) asli Parfiya sarkardalari avlodlaridan bo'lgan. Moniyning yoshligi gnostiklar (ilk xristianlikda xudo va dunyoning yaratilishi haqidagi ta'limotni yaratishga uringan diniy – falsafiy oqim) ibodatxonasida o'tgan va 12 yoshga to'lganida o'ziga ilohiy xabar (vahiy) kelganini ma'lum qilgan. O'ziga xabar bergan ilohning nomini Moniy ya'ni “**ikki mohiyat** (Nur va zulmat, yaxshilik va yomonlik) **ruhi**” deb atagan. Shunga ko'ra, uning ta'limotini ikkixudolik g'oyasi (gnostik dualizm)ga asoslangan deb aytiladi. Shundan so'ng unga Moniy – “Ruh” laqabi berilgan. 241–yil Moniy 24 yoshga etganda unga o'z ilohidan yana vahiy kelgan va nihoyat o'z ta'limotini ochiq va baralla targ'ib qilish vaqti etganini bildirgan. Shundan so'ng Moniy yangi dinga asos solishga qaror qilgan va o'zining diniy targ'ibot ishlarini boshlagan. 242 yilda Fors davlati shohi Shopur I ning taxtga o'tirish va toj kiyish marosimi paytida Moniy birinchi marta o'z ta'limotini ommaviy bayon etib, va'z aytgan. Shundan so'ng Moniy Shopur I ning vafotiga qadar (273 yil) mamlakatda o'zining diniy targ'ibotini olib bordi. U o'zini shu dinning asoschisi va payg'ambari deb bilgan va butun Fors

davlati, Hindiston, Old va O'rta Osiyo bo'ylab safarlar uyushtirgan. U o'z safarlari davomida zardushtiylik, hinduiylik, yahudiylik, buddaviylik va xristianlik dinlari faollari bilan muloqotlar uyushtirgan hamda ularning ta'limoti, ibodatxonalarining faoliyati va targ'ibot uslublarini o'rganib, o'z ta'limotining targ'ibot – tashviqot ishlarida foydalangan. Shunday bo'lsada Moniy, o'z faoliyatini qatl qilingunga qadar Fors mamlakati hududidagina amalga oshirgan. Moniy o'zini Zardusht, Sitxarta Gautama (Budda) va Iso Masihlarning izdoshi deb biladi. Shunga asoslanib Moniylikni, sinkretik (qorishiq) xarakterga ega deyiladi. Ammo ayrim ma'lumotlarda Moniy o'zining ilk targ'ibotini aynan Mesopatamiyada emas, balki Hindistonning shimoliy–Sharqiy qismlarida boshlagani aytiladi. Chunki Moniy, u erda jahon dinlaridan biri bo'lgan buddaviylik ta'limotini o'rganish bilan bir paytda, o'zning targ'ibotchilik ishlarini ham boshlab yuborgan edi, deyiladi. 275 yilda mamlakatda yuqori nufuzga ega bo'lgan Maglar (zardushtiylik ruhoniylari)ning qistovi bilan Fors davlatining yangi shohi Bahrom I Moniyini zindonga tashlashga farmon bergan va 276 yilda katl ettirgan. Shundan so'ng Moniy izdoshlarining ba'zilar qiynoqlarga mahkum etilgan, ayrimlari mamlakatdan badarg'a qilingan. Aksariyat qismi esa g'arbda Rim imperiyasi, Sharqda esa Hitoy, Uyg'uriston hamda ularning atrofidagi davlatlarda panohtopib, moniylik ta'limotini rivojlantirganlar. Moniyning ta'limotida Nur va Zulmat o'rtasidagi azaliy kurash asosiy o'rinni egallaydi. Uning mazmun–mohiyati esa, Nurning Zulmat ustidan g'alaba qozonishiga ishonishdir. Moniylik mahalliy dinlar — zardushtiylik, buddaviylik va xristianlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Moniy o'zini avvalgi dinlarning **“to'g'rilovchi payg'ambari”** deb e'lon qilgan. U xristianlikdan messianizm va “Masih” e'tiqodini o'zlashtirgan.

Moniylik 763–840 yillar davomida Turk–uyg'ur davlatining rasmiy dini bo'lgan. O'z yurtlaridan quvilgan moniylik, Kichik Osiyoning chekka hududlariga yashirinishga majbur bo'lishgan. Moniylik umumiyashtiruvchi din bo'lgani sababli to'g'ridan to'g'ri “payg'ambar”ning yozma buyruqlariga asoslanadi. Uning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Moniylik ta'limoti u tomonidan tuzilgan “Shopurkan”, “Tirik Hushxabarchi” (Moniy va uning ta'limoti haqida), “Pragmataya” (sirlar kitobi), “Kefalaya” (Boblar) kabi kitoblarda asoslab berilgan va ayrimlari rus tiliga tarjima qilingan. Moniylikdan bugungi kunga qadar birgina Xitoyning Futszyan viloyati Syuanchjou tumanida joylashgan moniylik ibodatxonasigina saqlanib qolgan. Bu din qanchalik engillikka va oddiylikka asoslangan bo'lsada, tarixning murakkab sinovlariga bardosh bera olmadi. Natijada u din sifatida unutildi. Undan esa, yirik tadqiqotlar uchun ma'lumotlarga qolgan xolos.

**Veda va veda dinlari.** Braxmanlik, Hinduiylik, Konfutsiylik, Daosizm, Sintoizm. Vedizm. Mil. av. ikkinchi ming yillik o'rtalarida Hindistonning shimoli-g'arbiy qismiga, hozirgi Panjob hududiga g'arbdan Hindikush dovoni orqali o'zlarini *oriylar* deb atalgan jangari xalqlar bostirib kela boshladilar. Bu xalqlar Eronga ko'chib kelgan qo'shni qabila tillariga juda yaqin bo'lgan, hind-evropa tillaridan kelib chiqqan tilda gaplashar edilar. Harbiy jihatdan katta mahoratga ega bo'lishlari bilan birga she'riyatga ham usta edilar. SHu yo'l bilan ular bu mintaqada mavjud dunyoqarashni o'zlari xohlagan tarafdagi o'zgartira olardilar. Ular o'zlari bilan muqaddas yozuvlari – Vedalar (sanskrit. – *muqaddas bilim*)ni ham olib kelgan edilar.

Hind adabiyoti juda boy, uch yarim ming yildan ortiq tarixga ega. Vaqt o'tishi bilan undan anchagina qismi umuman yo'qolib ketdi. Ammo bu adabiyotning boshlanishi Vedalardir. Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular o'z ichiga ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy xabarlarni olgan edi. Vedalar to'rt yirik to'plamdan iborat:

1. Rigveda («madhiyalar vedasi»);
2. Samaveda («qo'shiqlar vedasi»);
3. YAjurveda («qurbonliklar vedasi»);
4. Atxarvaveda («afsun va jodular vedasi»).

**Rigveda.** Rigvedaning qadimiy hindlar madaniyatida shuningdek, umumhind-evropa madaniyatidagi o'rnini tushunish uchun kitobning asli paydo bo'lish tarixiga nazar solish lozim. *Oriy* qabilalarining ko'chib kelishlari ko'p asrlarga cho'zilgan va juda keng miqyosni qamrab olgan uzoq jarayon bo'lgan. Rigveda yagona asar, to'plam sifatida Hindiston hududida, asosan, Panjobda, Hind daryosi havzasida mujassam bo'ldi. Hindiston tarixi bo'yicha qadimiy sana hisoblanmish mil. av. VI asr buddizmning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Vedalar esa undan ancha avval qayd etilgan. SHunday qilib, Rigveda SHimoliy Hindistonda mil. av. ikkinchi-birinchi ming yilliklarda yuz bergan voqealar haqida ma'lumot beruvchi yagona manba bo'lib qolmoqda. Bu yodgorlik juda noyob bo'lganligi sababli u faqat o'zini-o'zi sharhlaydi.

Veda – «muqaddas bilim», Rigveda – «madhiyalar vedasi» ma'nolarini beradi. Veda o'sha davrda yashagan insonning o'zi va uni o'rab turgan olam: xudolar, jin-shaytonlar, fazo, marosimlar, ijtimoiy tuzum, milliy qadriyatlar va boshqalar haqidagi bilimning barchasini o'z ichiga oladi. Rigveda xudolarga aytilgan madhiyalarning to'plami, ya'ni, diniy yodgorlik bo'lib, uning mualliflari, *rishi* kuylovchilarning asosiy vazifalari xudolarni *oriylar* tomoniga og'dirish bo'lgan. Ular madhiyalarni kuylab xudolarni maqtaganlar, ularning qahramonlik va sharaflarini ulug'laganlar, ularni qurbonlik keltirish marosimlariga taklif etganlar va shundan so'ng ulardan *oriylarni* qo'llab-quvvatlash hamda hayot farog'atlarini ato etishlarini so'raganlar. Xudolarga ta'cir etishning eng asosiy yo'li – ularga madhiya aytish bo'lgan.

**Samaveda.** Boshqa vedalar orasida Rigvedaga ko'proq bog'liq bo'lgani bu Samavedadir. U hozirgi davrga ikki tahrirda etib kelgan (çākhā aynan. shahobcha): Kautxuma (Kauthuma) va Ranayaniya (Rānāyaniya). Kautxuma to'plami 1810 she'rdan iborat bo'lib, undan faqatgina 76 tasi Rigvedada uchramaydi. Undagi she'rlar, asosan, Rigvedaning VIII va IX mandalasidan olingan bo'lib, tantanali qurbonlik marosimi paytida o'qiladi. To'plam ikki qismdan iborat: birinchi kichikroq bo'lgan hajmi Agni, Indra ilohiyatlariga, ikkinchisi Somaga qurbonlik keltirish marosimida aytiladigan qo'shiqlardan iborat. She'rlar orasida ichki bog'liklik bo'lmay, ularning tartibi marosimlarning borishiga qarab belgilangan. Bu she'rlar ohang bilan qo'shiq tarzida aytish uchun mo'ljallangan. Ushbu vedaning maqsadi diniy marosimlarda aytiladigan qo'shiqlarni o'rgatishdan iborat.

**Yajurveda** qolgan vedalardan farqli o'laroq, to'laligicha *shrauta* (qurbonlik marosimi) bilan bog'liq. Uning asosiy qismini qurbonlik usullari – *yajus* tashkil qiladi. Mazkur yajuslar marosimning ma'lum bo'limlarida ijro etilib, bu she'rlarni marosimning borishidan kelib chiqib tushunish mumkin.

Hind an'anasiga ko'ra vedaning bu maktablari Qora va Oq Yajurvedaga bo'lingan. Qora Yajurvedaning turli maktablarga xos bo'lgan Katxaka, Kapishtxala-Katxa, Maytrayani, Tayttiriya kabi tahrirlari mavjud. Uning «qora» deb atalishiga sabab unda she'riy yajus va mantralardan tashqari nasriy izohlar – *braxmana* qismini o'z ichiga olganligidir. Oq Yajurvedaning Vajasaneyi nomli birgina tahriri bor. Uning faqat yajus va mantralardan iborat bo'lib, nasriy izohlardan xoli bo'lganligi uchun «sof, oq» deb ataladi.

**Atxarvaveda** «Afsunlar va jodular vedasi» degan ma'nolarni anglatadi. U afsonaviy ruhoniyy Atxarvana («Olov ruhoniysi») nomi bilan bog'liq. Bunga sabab o'sha davrda afsun va jodular olov ustida bajarilganligidir.

Dastavval vedaning uch turi mavjud bo'lgan: Rigveda («Madhiyalar vedasi»), YAJurveda («qurbonlik uslublari vedasi»), Samaveda («qo'shiqlar vedasi»). Bu uch veda ham xudolarning abadiylikini ta'minlovchi ichimlik tayyorlanadigan *soma* o'simligiga bag'ishlangan qurbonlik marosimlari bilan bog'liq. Hind an'anasiga ko'ra bu marosim «shrauta» deb ataladi. Atxarvavedada veda dini ruhoniylarining asosiy ibodati hisoblangan Somaga qurbonlik qilishga umuman e'tibor qaratilmagan. SHuning uchun ham u yuqoridagi uch vedaga e'tiqod qiluvchilar tomonidan tan



olinmagan. U oila atrofida markazlashgan marosimlar bilan ko'proq bog'liq. SHunday qilib, Atxarvaveda o'zidan avvalgi uchta vedadan o'z marosimlarining negiz va mohiyati bilan farqlanadi. Uning asosida uzoq o'tmishga borib taqaladigan xalq sehrarlik marosimlari yotadi.

Atxarvavedaning qachon paydo bo'lganligi masalasi aniqlikdan ancha yiroq. U eng qadimiy hisoblanmish Rigvedadan ancha keyin yaratilgan.

Atxarvaveda olti ming she'rdan iborat 371 madhiyani o'z ichiga oladi. Ular 20 ta kitobda jamlangan.

**Vedalar ta'limoti.** Vedalarda butun tabiatning ilohiyliги haqidagi ta'limot ilgari suriladi. Undagi tasavvurlarda qator biri ikkinchisidan yuqori bo'lgan, ikkinchisi, aksincha, pastroq bo'lgan ilohiyatlar siymosi namoyon bo'ladi. Biroq, bu darajalar to'xtovsiz almashib turadi. Ilohiyatlar orasida «eng ulug'i, eng kichigi, eng qarisi, eng yoshi» bo'lmay, ular barchasi ulug'likda tengdir. Eng yuqori hokimiyat ham ko'pchilikka tegishli. Bir vaqtning o'zida bir xudo butun borliqning hukmdori bo'lishi va shu bilan birga u ikkinchi bir xudoga tobe bo'lishi mumkin. Masalan, Indra va barcha xudolar Varunaga tobe bo'lgan bir paytda, Varuna va boshqa barcha xudolar Indraga bo'ysunadilar. Xuddi shu munosabat boshqa xudolarga ham tegishli. Bu belgi veda ilohiyotiga ham xosdir.

**Veda xudolari.** Vedalarda xudolar – osmon xudolari, quyosh xudolari, havo xudolari, er xudolari, ayol xudolar kabi xudolar toifasi haqida madhiyalar bayon etilgan.

**Osmon xudolari.** Ular sirasiga Dyaus, Varuna, Indra kabi turli osmonlarni boshqarib turuvchi xudolar kiradi. Biroq, Varuna keyinchalik suv va dengizlar xudosi aylanib ketgan.

**Quyosh xudolari.** Rigvedada quyosh energiyasining turlicha namoyon bo'lishidan besh xudo yuzaga kelganligi haqida so'z yuritilgan. Ularning eng qadimiysi Mitra («do'st») dir. Surya quyoshning yorqinroq namoyon bo'lgan ko'rinishidir. U yunonlardagi Apollon kabi etti ot biriktirilgan g'ildirakli aravalarda tasvirlangan. Savitri esa quyoshning quvvat beruvchi kuchida namoyon bo'ladi. Pushan muruvvatli hisoblanib, quyoshning mahsuldorlik faoliyatni o'zida namoyon qiladi. Ularning yana biri Vishnu vedalarda zikr qilingan va keyinchalik unut bo'lib ketgan xudolar orasida abadiy hisoblangan, hozirgi paytda butun Hindistonda ulug'lanadi.

**Havo xudolari.** Ulardan tashqari bu xudolar qatoriga Ashvina va Savitar nomi bilan ataluvchi ikki tong xudosi ham qo'shiladi.

Ularning boshida osmon podshosi va oriylarning milliy xudosi Indra turadi. U avvalo ikkita sariq otga qo'shilgan g'ildirakli aravada turuvchi jang xudosidir. U oriylar urug'ining etuk sardori ramzidir. Dastavval, Indra hind an'analarida chaqmoq xudosi sifatida namoyon bo'lgan. Biroq, bosqinchilar tomonidan ko'p yillar davomida olib borilgan urushlar uni urush xudosi aйлantirdi. YOmng'ir xudosi Panjanya, shamol xudosi Vayyular vedalarda aniq tasvirlanmagan. Ular tez-tez Indra bilan umumlashgan holda tasvirlanadi. Ulardan yana biri Rudna bo'lib, odamlarning unga nisbatan cheksiz qo'rquvlari ularni doimiy ravishda Rudnaga bag'ishlab madhiya va duolar o'qishga undagan. U Rigvedada SHiva («yoqimli») nomi bilan zikr etiladi. Keyinchalik, SHiva Vishnu bilan birgalikda «ikki xudo» sifatida unutilgan Hindiston xudolari turkumi o'rmini egalladi.

**Veda ibodatlari.** Veda ibodatlari ikki turga bo'linadi. Birinchisi, duolar, ikkinchisi xudolarga atab qilinadigan qurbonliklar yoki boshqa bir narsalarni taqdim qilishdan iborat. Dastavval duo kitoblari bo'lmagan paytda ibodatlar faqat qurbonliklar shaklida amalga oshirilgan. Unda ma'budlarga kuydirilgan moy, non, va nihoyat, suv yoki sut bilan aralashtirilgan soma ichimligi tortilgan. SHuningdek, hayvonlar (masalan, ot) ham qurbonlik qilingan. Vaqt o'tishi bilan bu marosimlar murakkablashib borgan. Qurbonlik banda bilan xudo o'rtasidagi savdo, kelishuv ma'nosida qabul qilingan. Masalan, inson bir narsaga muhtoj bo'lsa, xudoga qurbonlik qila turib undan o'z ehtiyojini qondirishni so'ragan. Keyinchalik Rigveda, Atxarvaveda kabi madhiya va

duolarni o'zida jamlagan kitoblar paydo bo'lgach, ibodatning ikkinchi ko'rinishi – xudolarga atab duo va madhiyalar o'qish odat tusiga kirgan.

**Braxmanlik** veda dinlarining bir shahobchasidir. Vaqt o'tishi bilan vedalardagi qo'shiqlar ommaga, hatto ruhoniylarga ham tushunarsiz bo'lib qoldi. Bu qo'shiqlar hali o'zgarishga uchramay, muqaddas til va muqaddas matnlar paydo bo'ldi. Nihoyat, bu tilni o'rganish uchun kishilar alohida guruhlar tuzib, maxsus vaqt ajratdilar. Natijada o'z hayotlarini ibodat qilish, ilohiyot ilmini o'rganish, murakkab marosimlarni o'tkazish va xalq ruhoniy hayotini boshqarishga bag'ishlagan braxmanlar *kastasi* (tabaqasi) vujudga keldi. Dinga xos bo'lgan xususiyatlardan biri – ilohiy tilning o'zgartirib bo'lmasligidir.

Braxmanlikning asosiy elementlari braxmanlar va vedalarga tegishli sutralardir. Sutralar san'atning alohida ko'rinishi bo'lib, yaqqol ajralib turuvchi ustalik bilan sof sanskrit tilida yozilgan. Unda mavjud vaziyatga alohida e'tibor qaratilgan holda ma'lum tabaqaga yuqori o'rin beriladi.

Braxmanlar o'z nomlarini tuzgan dinlarigagina emas, joy nomi (Braxmaniya) sifatida, butun boshli fan va san'atga (braxmanizm she'riyati, tibbiyoti, matematikasi kabi) nom qilib berdilar. Ular o'zlarining kelib chiqishlarini etti ruhoniy oilaning boshliqlari bo'lgan etti rishidan deb hisoblaydilar. Madhiyalarning ilk mualliflari bo'lgan shoirlar, tilshunoslar va hozirjavob kishilar o'z kasblarini avlodlariga uzatganlar. Vedaning o'zida aytilishicha, «rajarshi» («rishi-podshoh»)lar ba'zan shunday madhiyalarning mualliflari bo'lganlar.

Braxmanning hayoti to'rt muayyan belgilangan bosqichdan iborat. Xususan, uning har bir kuni mashaqqatli ibodat, o'rganish va vazifalar bilan to'la. Braxmanning diniy hayoti uning tug'ilishi bilanoq emas, balki uning balog'at yoshiga etib, muqaddas bog'ichni qabul qilishi va «baxshida qilish» marosimidan keyin boshlanadi. SHundan keyin braxmanning yoshligi birorta donishmand braxmanning qo'lida vedalarni yodlash, uning uyida muqaddas olovni doimo tutib turish, ustozining xizmatini qilish, jumladan, uning uchun sadaqa yig'ish bilan o'tadi. Braxman bu bosqichda «braxmacharin» deb nomlanadi. Uzoq vaqt davom etadigan bunday ta'limotdan so'ng u ikkinchi bosqichga o'tadi. Braxman «grixastxa» deb nomlanadigan bu bosqichda uy xo'jayini vazifasini bajaradi. U uylanishi, oilani boqishi (xususan, o'g'il etishtirishi), amaliy hayot ilmini egallashi va o'zining fuqarolik burchlarini bajarishi lozim. Qonun uy xo'jayinining o'zini qanday tutishini soat sayin qat'iy ravishda diqqat bilan kuzatib boradi. Qachon va nimani eyish, nimani ichish, qachon ibodat qilish, marhumlarni qanday dafn etish, mehmonlarni qanday kutish, ovqatni qanday tayyorlash, qariyalarga, ayollarga, yosh bolalarga qanday munosabatda bo'lish va boshqa ko'p narsalar belgilab qo'yilgan.

Braxman «vanaprastxa» (o'rmon zohidi) deb ataluvchi hayotining uchinchi qismida oilasi bilan yoki yolg'iz holda o'rmonga ketishi kerak. Bu erda u «o'z nafsini jilovlab» ildizlar yoki mevalarni eb, diniy amallarni jiddu jahdi bilan bajarishi kerak. Bu bosqichda braxmanga bir qator mashaqqatlarni boshdan kechirish tavsiya etiladi: u tuproqqa qorishib dumalashi yoki kun bo'yi oyoq uchlarida turishi va yo navbat bilan turib o'tirishi mumkin. Jazirama kunda o'zini «besh olov issig'iga» duchor qilishi, yomg'irli paytda ochiq joyda yashashi, qishda esa ho'l kiyimda yurishi kerak.

Braxman hayotining to'rtinchi bosqichi «saniyasi» (zohid) tarkidunyochilik yoki diniy qashshoqlik davridir. U hayotning barcha tashvishlarini ortga tashlab, xursandchilik, qayg'u, orzu-havas va jismoniy ehtiyojlarni tark etib, hamma narsaga befarq bo'lgan braxman bir maqsadga – «Oliy Braxmaga etishish, ya'ni u bilan qo'shib ketish, bu dunyo va o'lgandan keyingi abadiy baxtga erishishga» intilishi kerak. Braxman tarkidunyochilik bosqichida faqat sadaqadan tushgan narsalar hisobiga kuniga bir marta ovqatlanib kun kechiradi.

Zikr etilgan – «braxmanning muqaddas to'rtlik qonuni» deb atalmish hayot tarzini faqatgina diniy qoidalar bilangina bog'lab tushuntirish mumkin emas. Hindiston tarixida ko'plab bunday

hodisalarni kuzatish mumkin. Faqatgina oliy tabaqadan chiqqan kishilar emas, oddiy xalq vakillari ham ba'zan shon-shuhrat istab, o'z irodasini chiniqtirish maqsadida yoki o'zini boshqalardan kam bilmay, o'zlarini ana shunday hayot qiynchiliklariga solganlar. Qadimda kishilar kuzatgan mazkur holatlarni Hindistonda hozir ham tez-tez uchratish mumkin. Budda hayotini o'rganishda uchraydigan ko'pgina hodisalar o'sha davrda ham braxmanlar «to'rtlik qonuniga» amal qilganlarini ko'rsatadi.

**Hinduizm.** Hinduizm juda murakkab dindir. U bir tomondan yirik ijtimoiy tashkilot, ikkinchi tomondan turli dinlar qorishmasidir. Ijtimoiy tashkilot sifatida kastachilik asosiga qurilgan. Ma'lumki, mil. av. VI asrda Hindistonda buddizm dini vujudga keldi. U braxmanizmdagi bir necha jihatlarni qabul qilgan bo'lsada, kasta ta'limotini inkor etdi. O'sha davrda Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolishga, braxmanizm dinini isloh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanizm bilan buddizm o'rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduizm edi.

Bu din, asosan, Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83%, ya'ni 650 mln. kishi shu dinga e'tiqod qiladi. Hinduizm e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda uchinchi o'rinda turadi. Barcha hinduistlarning soni 700 mln. ni tashkil etadi. Yirik jamoalar Bangladeshda (12 mln.), Indoneziyada (3,6 mln.), SHri Lankada (3 mln.), Pokistonda (1,5 mln.), Malayziyada (1 mln.), AQSHda (0,5 mln.), Butanda (0,3 mln.) mavjud. Hinduizm uni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yadigan birinchi va asosiy shart Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilishdir.

Diniy qorishma sifatida hinduizm *oriylargacha* bo'lgan dinlar, hind-skif jamoalarining ibtidoiy diniy tasavvurlarini va qadimgi braxmanlarning buddizm bilan aralashgan qadimiy urf-odatlarini o'zida mujassam qilgan.

SHunisi qiziqki, hinduizm o'zining asosi hisoblanadigan vedizm va braxmanizmdan tashqi ko'rinishda farqlanadi. Unda yangi braxmanizm dinlari, to'g'rirog'i, oqimlari mujassamdir. Ularning barchasini umumiy jihatlarga qarab bir guruhga jamlash mumkin: tushuncha va qonunlarning asl manbai bo'lgan vedalarning muqaddasligi; *guru* (pir, ustoz)ning tan olinishi; muqaddas joylarga ziyoratga borish; sanskritning muqaddas til ekanligi; va nihoyat, sigirning muqaddas ekanligi. Bu besh qoida yoki aqida umum tomonidan tan olingan bo'lsa-da, ko'p sonli e'tiqod qiluvchilar orasida o'ziga yarasha farq va o'ziga xoslik kasb etgan.

Hinduizmda keyingi davrda vedalardan tashqari xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, «Maxabxarata» ham muqaddas yozuvlar qatoriga qo'shilgan. Hinduizm ham braxmanlar asosiy o'rinni egallaydi. SHuning uchun ham mazkur adabiyotlarning ko'pchiligi braxmanlar tomonidan yaratilgan. Ular eski aqidalarning zamon talabiga javob bermasligini ko'rib, yangi qonun qoidalarga mos ravishda turli oqimlarni yuzaga keltirdilar. Ular shu yo'l bilan o'z raqiblari hisoblangan buddistlarga qarshi kurash olib bordilar.

Hinduizm braxmanizmdan katta farq qiladi. Unda Maxabxarata va boshqa she'riy matnlar qadimgi sanskrit tilidan zamonaviy hind tiliga tarjima qilinib, muqaddasligi jihatidan asl matni bilan bir xil hisoblanadi. Hinduizm ta'limotiga ko'ra, braxmanlar nafaqat oliy tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalq ichidan, hatto ayollardan bo'lishi ham mumkin.

Hinduizm *trimurti* (uchlik) – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy xudolar sanalib, Braxma ularning eng kattasi – dunyoni yaratgan xudo hisoblanadi. Biroq, hinduizm faqatgina Vishnu va Shivagagina sig'inadilar. Shunga binoan, hinduizm ikki asosiy oqimga bo'linadi: Shivaga sig'inuvchilar va Vishnuga sig'inuvchilar.

Shiva oddiy xalq ommasi – kambag'allarning ilohiyati hisoblanadi. U Rigvedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxarvavedada Rudraning roli oshib boradi. Yajurvedada Rudra Agni timsolida berilgan. U Ishana, Ishvara, Maxadeva (buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi.

Hindistonda shivaizmning o'n uchga yaqin asosiy oqimlari mavjud. SHivachilar orasida asosiy oqim sifatida *tridandinalar* (uch tayoqlilar) va *smartlar* (*smriti* so'zidan – *haqqoniy rivoyatlar*)ni aytib o'tish mumkin. *Tridandinalarning* markazi Varanasi bo'lib, unda tarkidunyochilikda hayot kechiradilar. *Smartlarning* bir qismi rohiblikda, yana bir qismi – dunyoviylik holatida yashaydilar. Ushbu oqimlarning har ikkalasi ham faqat braxmanlarnigina o'z saflariga qabul qiladilar. *Dandilar*, ya'ni zohidlar oriylarga xos bo'lmagan ba'zi marosimlarni o'tkazadilar. Jumladan, shu oqimga kirayotgan paytda oyoqlarining pastki qismidan qon chiqaradilar. O'lganlarni erga dafn qiladilar yoki muqaddas daryolardan biriga topshiradilar. SHivaizmning katta oqimlaridan yana biri *lingachilar* bo'lib, ular bo'yinlariga *linga* osib yuradilar. Kimdir uni oltin, kumush qutida olib yuradi. Ibodat vaqtida uni chap qo'llarida tutib turadilar. *Lingachilar* bir necha urug'larga bo'linib, o'zaro qudachilik qilmaydilar.

**Jaynizm.** Jaynizmning kelib chiqishi haqida ko'plab afsonaviy rivoyatlar mavjud. Rigveda kitobida jaynizmning ikki *tirtxakarlari* (yo'l tuzuvchi, ruhlarni ozod qiluvchi) Rishabxa va Arishtanem haqidagi rivoyat keltirilgan. Ulardan birinchisi – Rishabxa jaynizm ta'limotining asoschisi hisoblanadi. Bu rivoyatlarda Rishabxa shaxsida ilohiyat Naroyana, ya'ni Vishnu mujassam bo'lgan. Bu ma'lumotlar jaynizmning veda dinlaridan ham qadimiyroq ekanligini ko'rsatadi.

Jaynizm dini vakillarining e'tiqod qilishicha, bu ta'limotga 24 *tirtxakar* (payg'ambar yoki avliyo) asos solgan. Ularning barchasi *kshatriylar* xonadonidan bo'lgan. Ushbu *tirtxakarlarning* 22 tasi haqida ma'lumot deyarli yo'q, 23-si – Vardxamana Maxaviradan 250 avval yashagan Parshvanadxa – Banoras podshohi Ashvasanning o'g'li bo'lgan. Biroq rohiblik yo'lini ixtiyor etib, otasining saroyini tark etgan. U o'zidan keyin juda ham chiroyli nizomga solingan diniy ko'rsatmalar qoldirgan. Vardxamananing ota-onasi, oila a'zolari Parshvanadxaning dinida bo'lganlar. Vardxamanada yoshligidan jaynizm ta'limotiga kuchli qiziqish paydo bo'lgan. SHunday qilib, Vardxamananing o'zi jaynizmning navbatdagi va so'nggi *tirtxakari* bo'lib etishgan.

Vardxamana mil. av. VI asrda (599 y.) Hindistonning Bixar shtatida boy *kshatriy* oilasida tug'ildi. Otasi Siddxardxa Jnatirik qishlog'ining *kshatriylar* sulolasi boshlig'i edi. Onasi Trisala Lichchxavi sulolasidan bo'lgan mashhur podshoh Vayshali hukmdori CHetakining singlisi edi. Magadxi podshohi Bimbisara CHetakining qizi CHillanaga uylangach, Vardxamana qudratli Magatxi sulolasi bilan qarindosh bo'ldi. Buning natijasida uning oldida oliy darajada ta'lim olish, ilm va san'atning barcha sohaları bilan tanishish imkoni paydo bo'ldi.

U Yashoda ismli qizga uylandi va undan qiz farzand ko'rdi. Aynan mana shu qizining eri Jamali Maxaviraning birinchi shogirdi, keyinchalik esa, jaynizm ibodatxonasining hinduizmdan ajralib chiqishining tashabbuskori bo'ldi. Vardxamana o'ttiz yoshigacha oddiy dunyoviy kishilardek hayot kechirgan. Keyin esa barcha mulkidan voz kechib, ko'p yillar sayohat qilgan. Doimiy o'y-fikrga cho'mib, o'zini ichki iztiroblar domiga tashlagan. 13 yildan keyin Parshvanadxa tepaligida go'yoki, «botiniy» bilimga ega bo'ladi. Bu eng oliy bilim bo'lib, Vardxamanani 42 yoshida shodlik va qayg'ulardan butkul ozod qilgan va uni yuqori darajadagi diniy ustozlarga beriladigan Jina nomi bilan mashhur qildi. Keyinchalik unga Maxavira («ulug' qahramon») unvoni berildi. Maxavira o'zining ko'p yillik sayohatlari davomida ko'plab insonlarni o'ziga ergashtirdi. Uning shogirdlari *nigrantxa* («kishandan ozod qilinganlar») deb atala boshlandi. Vardxamana Maxavira rohiblar, oddiy erkak va ayol insonlar barobar e'tiqod qila oladigan diniy ta'limotga asos soldi. Maxavira mil. av. 527 yili 73 yoshida vafot etdi. Jaynizm adabiyotida keltirilishicha, u *nirvana* – so'nggi ozodlik holatiga erishgan.

**Ta'limoti.** Jaynizm ta'limotining asosiy g'oyasi deyarli barcha hind dinlari uchun umumiy bo'lgan *karmalar* va *nirvana* haqidagi ta'limot hisoblanadi. *Nirvanaga* erishgan inson qayta tug'ilishdan ozod bo'ladi. Bunga esa faqat tarkidunyo qilganlarga erishishi mumkin, xolos.

SHuning uchun ham ushbu ta'limotda tarkidunyochilikka alohida e'tibor beriladi. Inson dunyoda o'zining barcha ehtirosalaridan voz kechgach, o'z nafsini tiyishi, o'z-o'zini engishi – yangi *karma* hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Natijada *karmaning* kuchi emirilib, uning ruhi kishanlardan ozod bo'ladi. Kishining *karmasi* qanchalar zaiflashsa, uning ichki dunyosi shuncha boyib boradi. Bu jarayon ruhning to'la ozod bo'lgunigacha davom etadi. Va, nihoyat, ruhning butunlay ozod bo'lishi – *nirvana* holati yuz beradi.

Dunyoviy kishidan ham, tarkidunyo qilgan rohibdan ham ma'lum axloqiy qoidalarni bajarish talab qilinadi. CHunki hayotning maqsadi ruhni yomon *karmadan* saqlash, yangi *karmaning* yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, borini ham asta-sekin yo'q qilib yuborishdan iborat. Buning uchun dunyoviy odam besh narsaga amal qilishi kerak: birinchisi – zarar etkazmaslik (*axinsa*), ikkinchisi – rost so'zlash (*satya*), uchinchisi – o'g'irlik qilmaslik (*asteya*), to'rtinchisi – zino qilmaslik (*braxmacharya*), beshinchisi – ta'magirlik qilmaslik (*aparigraxa*). Mana shular insonning axloqiy mezonini tashkil qiladi. Bundan tashqari, u yana ikki asos – *chin e'tiqod* va *to'g'ri bilim* tamoyillariga ham amal qilishi lozim. Ularning birinchisi jaynizm diniga e'tiqod qilishni bildirsa, ikkinchisi – ruhning abadiy ozodligi va hayotning har bir jismda mavjudligini bilishdir. Rohiblar uchun bir muncha murakkab qoidalar ishlab chiqilgan.

Jaynizm ta'limoti borliqning ilohiyat tomonidan yaratilgani va uning borliq ustidan nazorat qilib turishini tan olmaydi. Unga ko'ra, ruh – abadiy mavjudot, olam esa azaliydir. Ruh moddiy tanani engib o'tib, abadiy hayotga etishi mumkin. Maxaviraning fikricha, dunyodagi har bir jism, uning jonli yoki jonsiz bo'lishidan qat'i nazar, qandaydir darajadagi anglash xususiyati bilan yaratilgan. SHuning uchun jaynizm *axinsa* – zarar etkazmaslik qoidasiga ko'proq e'tibor beriladi, ya'ni jonli yoki jonsiz narsalarga ozor etkazmaslik talab qilinadi.

Maxavira vedalarning ulug'ligini inkor etdi va veda urf-odatlariga braxmanlarning hukmronligiga qarshi chiqdi. U insonni ma'naviy yuksaklikka olib boruvchi hayot qonunlarini, ashaddiy rohiblikni, ruhni ozodlikka olib chiquvchi deb hisoblangan nafsni tiyish fazilatini keng targ'ib etdi.

Maxavira jaynistlarning diniy tashkilotiga asos soldi. Uning ashaddiy rohiblik tamoyillari va sodda bayon qilingan ta'limoti ko'pchilikni o'ziga jalb qildi. Uning *ganadxara* («maktab boshliqlari») nomi bilan mashhur bo'lgan 11 shogirdi bo'lib, ular Maxaviraning vafotidan keyin uning ta'limotini davom ettirganlar.

Jaynizmning asosiy qoida-tamoyillarini o'z ichiga olgan 45 ta asar mavjud bo'lib, ular Maxavira tomonidan bitilgan. Biroq, mil. av. III asr atrofida og'zaki matnlarni kitob holatiga keltirish maqsadida qilingan harakatlar oqibatida jaynizm ikki oqim – *shvetambarlar* yoki *svetambarlar* («oq kiyim kiyganlar») va *digambarlar* («moviy kiyim kiyganlar»)ga bo'linib ketgan. *Digambarlar* jaynizmning asl holatini saqlab qolishga ko'proq ahamiyat berganlar. Ular Rishabxaning qadimiy qonunini yo'qolgan deb hisoblab, *shvetambarlardagi* matnlarni haqiqiy emas deb e'lon qildilar. Jaynizmning ikki oqimga bo'linishi har ikki oqimning o'ziga xos urf-odatlarini, kiyinishi va boshqa hayotiy qirralarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, ular asosiy diniy qoidalarda o'zaro farqlanmaydilar.

**Konfusiychilik.** Konfusiychilik falsafiy g'oya sifatida maydonga kelgan. Uning asoschisi Konfusiy (Kun szi) mil. av. 551 yilda tug'ilib, mil. av. 479 yilda vafot etgan.

Konfusiy otasidan erta ajrab, onasi qo'lida tarbiyalanadi. Onasi ham ko'p o'tmay dunyodan o'tadi. Konfusiy ilm tahsilini olgach, 19 yoshida uylanadi. Birinchi marta u omborchi vazifasiga ishga tayinlanadi. U bir necha yillar davomida turli podshohlar qo'l ostida ishlagandan keyin yoshlarga ta'lim berishga kirishadi. YAngi ustozning ong haqidagi fikrlari, chuqur ma'noli so'zlari mamlakat bo'ylab keng tarqaladi. SHundan so'ng Konfusiy huzuriga mamlakatning turli mintaqalaridan ilmga chanqoq yoshlar oqib kela boshlaydilar. U ilm istab keluvchilarga hech

qachon rad javobini bermas edi. Konfusiyning 3000 ga yaqin shogirdlari orasida 72 eng ko'zga ko'ringan izdoshlari orasida mamlakatning obro'li xonadonlaridan bo'lgan kishilar bilan bir qatorda kambag'al, oddiy kishilar ham bo'lgan. Konfusiy maktabi qadimgi Xitoyda asta-sekin katta ta'sir doirasiga ega bo'lib bordi. Uning ko'plab shogirdlari qadimgi Xitoy podshohliklarida e'tiborli mansablarni egalladilar. Konfusiy yoshlar tarbiyachisi va ustoz sifatida keng shuxrat qozonib, ilk Xitoy ma'rifatparvari nomiga sazovor bo'lgan bo'lsa, u tomonidan taklif qilingan islohotlarning amalga oshirilishida buning aksi bo'ldi.

Garchi Konfusiy o'zining ish faoliyatida podshohlar xizmatida bo'lgan paytlarida ba'zi islohotlarni amalga oshirishga harakat qilgan bo'lsa-da, ammo uning ko'pchilik takliflari amaldorlar va hukmdorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Konfusiyning asosiy e'tiborini tortgan narsa o'z zamonasining kamchiliklari va aybu nuqsonlari edi.

**Konfusiyning falsafiy qarashlari.** Konfusiy komil inson (*szyun-szi*) haqidagi g'oyani yaratdi. *szyun-szi*, ya'ni yuksak ma'naviyatli inson ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak: insoniylik va mas'uliyat (ajdodlar oldidagi qarz)ni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo'lishi lozim. U buning uchun tinimsiz, o'zini ayamasdan o'z ishonchi, hukmdori, o'z otasi va o'zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur.

Konfusiychilikning ilk ko'rinishida axloq masalasi birinchi o'ringa qo'yilgan, diniy e'tiqod esa ikkinchi darajali sanalgan. Diniy masalalar, aqidalarga konfusiychilik ancha sovuqqon munosabatda bo'lgan, ba'zi o'rinlarda ularni inkor qilgan. Konfusiy ham o'z vaqtida qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ruhlarga e'tiqod masalasiga shubhali munosabatda bo'lgan. «Lunyuy» (Konfusiyning falsafiy fikrlari va suhbatlari majmuasi, konfusiychilikning asosiy manbasi)da keltirilishicha, Konfusiy g'ayritabiiy narsalar va ruhlar to'g'risida gapirishni yoqtirmagan. SHuningdek, u taqdir, inson umri, o'lim haqida so'z yuritishdan qochgan. Undan: «O'lim nima?» – deb so'rganlarida, u: «Biz tiriklik nima ekanligini bilmaymiz-u, o'lim nima ekanligini qaerdan bila olar edik», - deb javob bergan.

Biroq, qadimdan davom etib kelayotgan diniy qadriyatlar, urf-odatlariga Konfusiy hurmat bilan munosabatda bo'lgan.

Konfusiyning yana bir ta'limoti – «*Syao*» bo'lib, u inson o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqidagi g'oyani o'zida mujassam qilgan. Konfusiy fikricha, inson uchun *Syaodan* muhimroq narsa yo'q. U: «*Syao* va *Di* (ukaning akaga, kichiklarning kattalarga hurmati) insoniylikning asosidir» degan. *Syaoning* asosiy ma'nosi nima, farzandlik xizmati qanday bo'lishi kerak, degan savolga Konfusiy shunday javob bergan: «Aqlli va ota-onangni boqishga yaroqli bo'lishingdir. CHunonchi, odamlar uylarida itlar va otlarini ham boqadilar-ku? Agar ota-onalariga ortiq ehtirom ko'rsatmasalar, hayvonlarni boqishlaridan nima farqi qoladi?».

*Syao* ta'limotining «Li qonunlari»ga ko'ra, farzand ota-ona hayotlik chog'ida mutlaqo ularning ixtiyoridadir. To ular dunyodan o'tgunicha o'ziga-o'zi egalik qilishga haqli emas. Agar ota-ona vafot esa, farzand qanday ish bilan mashg'ul bo'lishidan qat'i nazar, barcha ishni tashlab uch yil aza tutishi shart. Konfusiychilikning *Syao* ta'limoti asrlar mobaynida Xitoy madaniyati, axloqiy normalariga katta ta'sir o'tkazib keldi.

**Konfusiychilikning Xitoyda tarqalishi.** Konfusiy fikricha, dunyodan befarzand o'tish va o'zidan nasl qoldirmaslik nafaqat shu insonning yoki shu xonadonning, balki butun jamiyatning fojiasidir.

Konfusiychilikning yoyilishi sekin kechdi. Konfusiyning o'zi esa zamondoshlari tomonidan tan olinmay vafot etdi. Uning shogirdlariga ham oson bo'lmadi.

Garchi konfusiychilar o'z ta'limotlarini qadimgi CHjou aqidalariga bog'liq urf-odatlar, marosimlar, axloqiy me'yorlar asosiga qurgan bo'lsalar-da, ular mazkur aqidalar orasida o'z munosabatlari, qolaversa, har bir masala yuzasidan o'z xulosalarini ham berib bayon qilar edilar.

Mana shu narsa konfusiychilikning muvaffaqiyatga erishishiga sabab bo'ldi. Undan tashqari uning muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan omillardan yana biri konfusiychilarning o'zlari foydalangan qadimgi kitoblar, she'rlar, risolalarni yig'ib o'quvchilariga o'rgatganliklaridir. Bu ishning asosiy qismi Konfusiyning o'zi tomonidan bajarilgan edi. U turli podshohlklarda mavjud bo'lgan uch mingdan ortiq qadimiy qo'shiqlar, yozuvlarni jamlab, ularni qayta tahrir qilgan edi. Konfusiylar va uning shogirdlari tomonidan tahrir qilingan asarlar keyinchalik konfusiychilikning asosiy manbalariga aylandi.

Mil. av. IV-III asrlarga kelib Konfusiylar ta'limoti ancha keng tarqaldi va katta ta'sir doirasiga ega bo'ldi. Xan sulolasi davriga kelib (mil. av. III-II asrlar) konfusiychilik davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Xan podshohlari Konfusiylar ta'limotlarini to'liq qabul qilmagan bo'lsalar-da, uning kuchini, jamiyatda egallab ulgurgan mavqeini e'tirof qilgan holda undan davlat boshqaruvida foydalandilar.

Xitoyning deyarli barcha shaharlarida Konfusiylar atab qurilgan ibodatxonalar paydo bo'ldi. Bunday ibodatxonalar soni mingga yaqin edi. Dastlabki paytda ibodatxonaning qurbonlik qilinadigan joyida oddiygina Konfusiylar nomi yozilgan lavha osilgan edi. Xitoyga buddizm kirib kelgach, lavha o'rnini endi Konfusiyning haykali egalladi. suyfudagi ibodatxonadan boshqa hammasi bir xil shaklga ega edi. Unda Konfusiylar haykali yoniga 86 shogirdining nomi bitilgan lavha yoki haykallar qo'yilgan. suyfudagi ibodatxonada ularning soni ko'proq.

Faylasufga atab qilinadigan qurbonliklar va boshqa muhim marosimlar tartibga solingan. Har o'ying birinchi va 15-kunlarida ikki marta Konfusiylar haykali oldida odatiy qurbonliklar, yilda – bahorda va kuzda ikki marta alohida tantanali marosimlar o'tkazilar edi. Tantanaga kelgan imperator va ularning mulozimlari donishmand timsoli oldida turib, unga: «Sen buyuksan, ey mutlaq donishmand, sening fazilatlaring ko'p, ta'limoting beqiyos, o'tganlar orasida senga tengi yo'q!» – kabi hamdu sanolar bilan murojaat qilganlar.

Konfusiylar nomi o'rta asrlarga kelib Xitoyda ilohiylashtirildi. Uning timsoli podshohlar boshidagi tojlardan o'rin oldi.

**Daosizm.** Daosizm falsafiy ta'limot sifatida Xitoyda mil. av. birinchi ming yillikning o'rtalarida konfusiychilik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ldi. Bu ta'limot dastavval bir muncha mavhum xarakterga ega bo'lib, din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan. Ushbu ta'limot tarafdorlari ham konfusiychilar kabi o'z zamonalaridagi harakatlarga qarshi bo'lganlar. Daosizm targ'ibotchilari ham hukmdorlar orasidagi tinimsiz urushlarni qoralar edilar. Ular ham boshqa bir qator falsafiy ta'limotlar qatori orqaga – «Oltin asr»ga – qaytishga chaqirar edilar.

Daosizm o'zining ilk ko'rinishida nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga aloqador edi. Bu shamanizm, folbinlik, tabiblik bilan bog'liq edi. CHunonchi qadimgi davolash uslublari falsafa, ayniqsa, daosizm falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. SHamanlar davolash uslublari inson tanasidagi jarayonlarni tashqi fazoviy kuchlar, har xil ruhlar ta'siri bilan bog'lab, jodugarlik va sehrdan keng foydalanganlar.

Daosizm mil. av. IV-III asrlarga kelib nazariy asarlar paydo bo'la boshladi. Bunday asarlarda ijtimoiy-siyosiy va axloq masalalari daosizm uchun unchalik muhim sanalmadi. Biroq daosizm vakillari ilk bor borliq, tabiat, koinot haqidagi tushunchalarni ishlab chiqar boshladilar. Xitoydagi szis faylasuflar akademiyasida daosizm nazariyotchilari: Tyan Pen, Sun szyan, In Ven, SHen Dao, Xuan YUan va boshqalar to'plangan bo'lib, ular inson va uni o'rab turgan borliq xususida beto'xtov munozaralar olib bordilar va risolalar yozdilar. Bunday asarlar hozirgi kungacha saqlanmagan, biroq daosizmning asosiy manbasi sanaladigan «Daodeszin» risolasida o'z aksini topgan. Mazkur risola muallifi Lao-Szi hisoblanadi. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar kam, borlari ham noaniq. Afsonalarga qaraganda, Lao-Szi onasining qornida bir necha o'n yillar yashab,

kekxa donishmand holida dunyoga kelgan. SHuning uchun uni «Lao-Szi» – «Kekxa donishmand», «Qari bola» deb atadilar.

Lao-Szi mil. av. VII da tug'ilgan, Konfusiyning zamondoshi hisoblanadi. Qadimgi Xitoy yodgorliklarida Konfusiyning Lao-Szi bilan uchrashganligi, uning donoligidan hayratga tushgani va uni *ajdaho* deb atagani haqida rivoyat keltiriladi.

Lao-Szi ta'limotiga ko'ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi «Ulug' Dao» hisoblanadi (*dao, tao* «yo'l», «haqiqat», «tartib» demakdir). *Dao* haqidagi ta'limot konfusiychilikda bo'lgan. CHunki *dao* to'g'risidagi fikrlar konfusiychilik va daosizm shakllanishidan ancha oldin mavjud edi, shuning uchun ham har ikki ta'limotning o'xshash jihatlari ko'p. Konfusi *daoni* jamiyatda muayyan tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlar tajassumi deb hisoblagan. Boshqacha aytganda, *dao* – ijtimoiy me'yorlar, intizom va axloqning yig'indisidir. Daosizm vakillari uchun *dao* o'zgacha mazmunga ega: *dao* umumiy tabiat qonuni va ibtido intihoning o'zagidir. Umumiy mazmunda *dao* – butun borliq demakdir. *Daoni* hech kim yaratmagan, barcha narsalar *daodan* kelib chiqqan va unga qaytadi. *Dao* hech kimga ko'rinmaydi, sezgi a'zolari uni ilg'ay olmaydi. Nimani ko'rish, eshitish, sezish, anglash mumkin bo'lsa, u *dao* emas.

Daosizm dinining asosiy mohiyatlaridan biri bu *dao* va u bilan aloqador tabiat falsafasi hamda kosmogoniya masalalaridir. Ikkinchi asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o'limning nisbiyligi va shunga bog'liq holda uzoq yashash, abadiy hayotga erishish tushunchasidir. Milodning birinchi asrlari – Xan asriga kelib, abadiy hayot masalasi daosizm olimlarining asosiy muammosiga aylandi. Uchinchi va so'nggi masala *uvey* prinsipidir. Daosizm falsafasining mana shu uch ta'limoti Xan asriga kelib daosizm dinining shakllanishiga asos bo'ldi.

Milodiy ikkinchi asrga kelib daosizm dinida yangi sektalar paydo bo'ldi. Ulardan biri «Taypindao» («Buyuk tenglik ta'limoti») bo'lib, uning asoschisi CHjan szue hisoblanadi. U xalq orasida sehr-jodu orqali barcha kasalliklarni tuzatuvchi hamda kishi umrini uzaytiruvchi shaxs sifatida shuhrat topdi. Uning atrofiga ko'plab odamlar yig'ildilar. CHjan szue odamlarni 36 jangovor guruhga bo'lgan. Katta guruhlarga «*da fan*» katta sehrgarlar, kichik guruhlarga «*syao fan*» kichik sehrgarlar boshliq etib tayinlanganlar. Sektada yuqori boshliq CHjan szue («Buyuk osmon rahnamosi») sanaladi. Uning ikki ukasi «Buyuk er rahnamosi» va «Buyuk inson rahnamosi» deb talqin qilinadi. Bu uchtalik daosizmdagi uchtalik ta'limoti – osmon, er va inson birligining ramziy timsoli edi. «Taypindao» sektasi ta'limoti «Taypinszin» kitobiga asoslanadi.

Ushbu sektalar tarixda hukmron tabaqalarning adolasizligiga qarshi ko'plab siyosiy kurashlarga, qo'zg'olonlarga boshchilik qilgan.

Daosizm birinchi ming yillikda buddizm va konfusiychilik bilan raqobatlashib keldi. VI asrga kelib, daosizm konfusiychilikdan keyin ikkinchi o'rinni egallagan edi. XIII asrdan boshlab daosizm ta'limotining aniq asoslarga ega emasligi va ilk davrdagi yuksak ta'limotlari turli xurofotlar bilan almashgani tufayli inqirozga yuz tuta boshladi.

XX asr boshlariga kelib Xitoyda turli daosizm sektalariga qarshi kurash boshlandi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida daosizm tarafdorlari juda ozchilikni tashkil qildi. Ushbu kichik guruhlar monaxlar, targ'ibotchilar va bashoratchilarni o'z ichiga olar edi.

**SINTOIZM**-Sintoizm dini Qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (*sinto* – «xudolar yo'li»). Bu dinning vujudga kelishiga oid aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq, u Yaponiyada Xitoy ta'siridan xoli bir sharoitda paydo bo'lgan va rivojlangan. Yaponlar sintoizmning mohiyati va kelib chiqishini bir-biri bilan aralastirmaslikka harakat qiladilar. Sintoizm ular uchun ham tarix, ham an'ana, ham butun hayot demakdir.

Sintoizm ta'limotiga ko'ra, *mikado* (imperator) – osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar(*kama*)ning vorisidir. Yaponlar *kamani* ajdodlar va



qahramonlarning ruhlari deb e'tiqod qiladilar. Xudojo'y yapon o'lgandan keyin o'zining ham o'sha kamalardan biri bo'lishiga ishonadi.

Sintoizmda «Oliy ilohiyat» tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhiga va tabiatga sig'inishga o'rgatadi. Sintoizmda umumiy hayotiy rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalardan boshqa diniy urf-odatlar yo'q. Unda bir umumiy ma'naviy qoida – «Umumiy qonunlarga rioya qilgan holda tabiat qoidalariga mos harakat qil» g'oyasi mavjud. Yaponlar tasavvurida ular yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tabiatan bilganlar, shu tufayli, jamiyatdagi qoida va talablarga rioya qilish tabiiy. Agar shunday bo'lmaganda, ular o'rgatilmagan yovvoyi hayvonlardan ham pastroq darajada bo'lar edilar.

Sintoizm haqidagi ma'lumotlar «Kodziki» («Qadimiy yozuvlar») va «Nixongi» («Yaponiya annallari») manbalarida uchraydi.

Kodziki – bu sintoizmning muqaddas kitobi. U har bir yaponning eng yaqin kitobidir, boshqacha aytganda, bu kitob Yaponiyani, yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi. Unda ikkita asosiy mazmun mujassam: qon-qabilaviy birlik va siyosiy hokimiyat g'oyasi.

**Ibodot marosimlari.** Oddiy yapon kishi uchun uning o'z ibodatxonasi, unda amalga oshiriladigan marosimlar, yilda bir marta bo'ladigan rangin bayramlar hayotining zaruriy qismi bo'lib qolgan. Uning ota-bobolari ham shunday yashaganlar, o'zi ham undan oshirmasdan shu tarzda yashaydi.

Ibodatxonalar uchun alohida o'ziga xoslik bilan birga ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar mavjud. Bu hukumatning din ishlarini tartibga solish va sintoizmni davlat diniga aylantirishga qaratilgan urinishlari natijasidir. Shunday urinishlarning biri 1868 yilda Meydzi qayta qurishidan keyin bo'lib o'tgan. O'shanda sintoizm ruhoniylarini o'qitadigan ta'lim tizimini yaratishga harakat qilingan edi. *Kannusi* deb ataladigan bunday ruhoniylar lavozimi odatda meros sifatida uzatilar edi. 1946 yilda konstitutiya yo'li bilan din davlatdan ajratildi.

Ibodatxonada turli amallar bajariladi. Dindorlar *mehrob* oldida turib, maxsus katakli qutiga biror tanga tashlaydilar, ta'zim qiladilar, bir necha chapak chalib va ibodat so'zlarini qaytaradilar. Ibodatxonada turli bayramlar ham uyushtiriladi.

**Sintoizm bayramlari.** Sintoizmning keng tarqalgan bayramlaridan biri Mosturidir. Bu bayram ba'zi ibodatxonalarda yilda bir marta, ba'zilarida esa ikki marta nishonlanadi. Ko'pincha bu bayram dehqonchilik ishlarining boshlanishi, hosil yig'ib olish, shuningdek, ibodatxona yoki mahalliy xudoga bag'ishlangan sana bilan bog'liq bo'ladi. Bayram ko'tarinki kayfiyatda o'tadi. Ruhoniylar bayram haqida faqatgina doimiy ibodatga keladigan kishilarni emas, barcha aholini xabardor qiladilar. Mosturi bayramida juda ko'p odam to'planib, ular katta tantanalar bilan o'yin-kulgu qiladilar. Ayrim ibodatxonalarda Mosturi rang-barang karnaval ko'rinishida o'tadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yapon xalq e'tiqodlari juda xilma-xil. Ular bir shakldan ikkinchisiga o'tib hozirgacha yo'qolmay etib kelgan. Bu e'tiqodlar ham o'z navbatida, chetdan kirib kelgan turli dinlardan ta'sirida shakllangan.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Din paydo bo'lishining psixologik omillarini izohlab bering.
2. Milliy dinlar tasnifi. Ularning mohiyati tushuntirib bering.
3. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari.
4. Diniy tolerantlik va plyuralizm.

**1.Dinshunoslik fani nimani o'rganadi?**

1. Islom dinini vujudga kelishi va taraqqiyoti qonunlarini
2. Barcha dinlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti qonunlarini
3. Milliy dinlar vujudga kelishi va taraqqiyoti qonunlarini
4. Urug' qabilaviy dinlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti qonunlarini

**2.Konfessiya so'zini izohlang:**

1. E'tiqod qilish
2. Diniy idora
3. Diniy his – tuyg'u
4. Diniy ong

**3.Din – bu;**

1. Xalq uchun af'yun,
2. Insonning xudo bilan o'zaro munosabat usuli,
3. Tashqi olam kuchlarining kishi ongida g'ayritabiiy ifodalanishi,
4. Axloqiy me'yor va printsiplar tizimi.

**4.“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan (yangi tahrirda)?.**

1. 1992 may
2. 1999 yil may.
3. 1998 yil may
4. 1991 yil may

**5.Dinning qanday funksiyalari bor?**

1. Axloqiy, tarbiyaviy, mafkuraviy, ma'naviy, ijtimoiy
2. To'ldiruvchilik, birlashtiruvchilik, o'zaro aloqadorlik, tartibga soluvchilik, qonunlashtiruvchilik
3. Tinchlik, do'stlik, tenglik, tabiatni muhofaza qilish, ekologik
4. Gnoseologik, antropologik, teologik, psixologik, axloqiy
5. Vijdonini uyg'otadigan, sadoqat, vafo va muhabbat, mehr – muruvvat

**6.Jahon dinlari qaysilar?**

1. Buddizm, xristianlik, islom
2. Buddizm, iudaizm, sintoizm
3. Xristianlik, islom, protestantizm
4. Pravoslavie, katolitsizm, braxmanizm

**7.Qaysi bir din eng qadimgi?**

1. Islom
2. Yaxudiylik
3. Buddizm
4. Nasroniylik

**8.Vijdon erkinligi nima?**

1. Kishilarning o'z milliy diniga e'tiqod qilish huquqi
2. Fuqarolarning albatta biron bir jahon diniga e'tiqod qilish zarurligi
3. Fuqarolarning dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmasligini o'zlari mustaqil hal qilish huquqi
4. Fuqarolarning dinga ishonmasligi va unga qarshi tashviqot olib borish huquqi

**9.“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”. Ushbu fikrlar Konstitutsiyamizning qaysi moddasida ko'rsatib o'tilgan**

1. 41 modda
2. 8 modda.
3. 31 modda
4. 128 modda

**10.Diniy tasavvurlar va umuman dinni inkor qiluvchi hurfikrlik shakli nima?**

1. Monoteizm
2. Panteizm
3. Ateizm
4. Skeptitsizm

## MAVZU BO'YICHA KO'RGAZMALI MATERIALLAR

### **DINSHUNOSLIK FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.**

dinga milliy ma'naviyatning  
bir bo'lagi sifatida yondashib,  
uni xolisona o'rganish

## **DINSHUNOSLIK FANI**

talabalarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniy va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan to'g'ri dunyoqarashni shakllantiradi.

**DIN** – so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi “ishonch, e'tiqod” dir.

- **DIN** insonni qurshab olgan atrof – muhitdan tashqarida bo'lgan, uni va koinotdagi barcha narsalarni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy borliqqa ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.

## DINNING LUG'AVIY VA ISTILOHIY MA'NOLARI

### LOTIN TILIDA

«religio» so'zi semantik, ma'no va morfologik jihatdan «relegere» so'zi bilan bog'liq bo'lib, «yangidan to'plamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish» kabi ma'nolarni anglatadi, deb ta'kidlaydilar.

### ISLOMDAN AVVAL

“**drm**”, “**darm**”, “**nom**” va “**den**” kabi so'zlarni ishlatilgan bo'lib, ular din, aqida ma'nosida sanskritcha (qadim hind tili) “**dharma**”dan (pali tilida dhamma); “**nom**” din ishonch, qonun ma'nosida sug'd tilidan kirib kelganligi aytiladi. jumladan, “Avesto”da “din” sifatida “**daena**”, qadimgi fors pahlaviy tilida “**den**”, “**din**”, “**dena**”, “**daena**” so'zi ishlatilib, «**yo'l**», «**mazhab**», «**marosim**», «**uslub**», «**tarz**» kabi ma'nolarni bildirgan. ibroniy tilida istifoda qilinadigan «**dath**» so'zi «**din**» tushunchasini ifodalash uchun umumiy termin bo'lib, «**hukm**», «**amr**» va «**qonun**» ma'nolarini

**MUAYYAN E'TIQOD DIN DEB ATALISHI UCHUN UCH ASOSIY XUSUSIYATGA EGA BO'LISHI LOZIM**

**birinchisi** g'ayritabiiy iloh(yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligi. Har bir dinda topinish ob'ekti – Xudo bo'lishi shart hisoblanadi.

mavjud dinlardagi Xudo haqidagi tasavvurlarni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin.

**transsendent**

insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo'lmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi


**immanent**

tabiatning bir bo'lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o'xshab ketadigan, biroq g'ayrioddiy yaratuvchilik, buzg'unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo'lgan Xudolar kiradi



DINLAR UNGA E'TIQOD QILUVCHILARNING SONI, MIQYOSI, O'ZINING MA'LUM MILLAT YOKI XALQQA XOSLIGI YOXUD MILLAT TANLAMASLIGIGA KO'RA TURLI GURUHLARGA BO'LINADI

- **TARIXIY-GEOGRAFIK JIHATGA KO'RA;**
- — **ETNIK JIHATGA KO'RA;**
- — **E'TIQOD QILUVCHILARINING**
- **SONIGA KO'RA;**
- — **HOZIRGI DAVRDA MAVJUDLIGI**  
**JIHATIDAN (TIRIK VA O'LIK DINIY**  
**TIZIMLAR) VA H.K.**



## 12-MAVZU. BUDDAVIYLIK VA XRISTIAN DINI TARIXI VA FALSAFASI

Reja:

1. Buddaviylik dinining paydo bo'lishi tarixi, asosiy ta'limotlari.
2. Xristianlikning paydo bo'lishi va asosiy yo'nlashlari
3. Xristianlik dini manbalari va ta'limoti

Buddizm mil.av.I ming yillikning o'rtalarida Hindistonda braxman kastasiga kirmagan aholining braxmanizmga norozilik kayfiyati natijasida, jaynizm dini kabi paydo bo'lgan dindir.

Buddizm dini Hindistonda paydo bo'lgan bo'lsada, Osiyoning katta qismi – Xitoy, Hindixitoy, Mongoliya, Yaponiya, Koreya va boshqa hududlarga tarqalgan jaxon dinlaridan biridir. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli manbalarga ko'ra 700 mln kishini tashkil etadi.

Buddizm dinining asoschisi tarixiy shaxs – Siddxartxa Gautama – SHakya (sakya) qabilasi rojasining o'g'li bo'lib mil.avv. VI asrda tug'ilgan. Uning tug'ilishi haqidagi afsonaga ko'ra onasi Mayya tushida o'zining biqiniga oq fil kirib ketganligini ko'radi va bola ham xuddi shunday o'anasini biqinidan tug'iladi. Gautamaning onasi u tug'ilgandan bir necha kun o'tgandan so'ng vafot etgan. Otasi Siddxartxa Mudxadana xotiniga bo'lgan muhabbat ixotirasiga o'g'lini g'am-tashvishsiz voyaga etkazishga harakat qiladi. Gautama o'z zehni va qobiliyati bilan tengdoshlari orasida ajralib turardi. Donishmand qariyalari tomonidan uni o'ziga xos kelajak kutayotganligi bashorot qilingan. Hashamat va o'yin-kulgi bilan o'ralgan Gautama faqat hayotni quvonchlarini bilardi xolos. U voyaga etadi, uylanadi, o'g'il ko'radi va bu orada hech narsa uning baxtiga to'sqinlik qilmasdi. Kunlarning birida u xizmatkori CHanga bilan saroy tashqarisida aylanib yurib yuzlari yara bosgan kishini ko'rib undan ta'sirlanadi. SHundan so'ng u mukkaygan qariya, dafn marosimi va chuqur uylovga shung'igan zohidni ko'radi. Bu to'rtta uchrashuv hikoya qilinishicha g'amsiz yashayotgan shaxzoda dunyoqarashini tubdan o'zgartiradi. U dunyo o'zi uylaganidek g'am-tashvishsiz emasligini tushunadi. Dunyoda baxsizlik, kasallik, o'lim borligi hamda olamni azob-uqubatlar boshqarishini tushunib, rohat-farog'atda yashayotgan shaxzoda o'z saroyini tark etadi. Gautama mana shu azob-uqubatlarni sabablarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'sha davrdagi hind madaniyati bu muammoga ma'lum shakldagi javobni ishlab chiqqan edi. YUqorida aytganimizdek rivojlangan falsafiy tizimlar, amaliy yoga mavjud edi. SHuning uchun Gautama vedizm va braxmanizmning falsafiy merosini o'rganishga kirishadi va bu merosning ko'p tamonlari u tomonidan o'zlashtirilib, ijodiy qayta ishlandi. Biroq bundan oldin u o'sha davr falsafiy tizimida ta'kidlangan – osoyishtalikga faqat zoxidlik turmush tarzi orqali erishish mumkin degan ta'limotga amal qildi. Mana shu maqsadda zohid ko'rinishiga kirib etti yil haqiqatni izladi. U shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, mana shu davr ichida zoxidlik turmush tarzida eyishdan tiyilib, jismoniy jihatdan yomon bir holatga kelib qoladi. Kunlardan bir kuni u Bodxi (bilish) daraxti ostiga o'tirganida unga birdaniga haqiqat namoyon bo'ladi. U hayot charxpalagining siri va ichki sababini, to'rt muqaddas haqiqatni angelaydi. SHundan so'ng, u Budda (nurlangan, ko'ngli ravshan) bo'ladi. Budda bo'lgan Gautama bir necha kun xolsiz ahvolda, joyidan qimirlay olmasdan muqaddas daraxt ostida o'tiradi. Afsonalarga ko'ra shunda Buddani yovuz ruh Mara haqiqatdan odamlarni boxabar qilmasdan, to'g'rida-to'g'ri nirvanaga sho'ng'ishga undab, uni chalg'itishga harakat qiladi. Lekin Budda barcha qiyinchiliklarga chidab unga qarshi turadi. "Haqiqat"ni anglagan Budda o'z targ'ibotini boshlash maqsadida Banoras yaqinidagi Sarnatxga kelib beshta zoxidni o'ziga shogirdlikga oladi va ularga o'zining targ'ibotini o'qib eshittiradi. Bundan tashqari Budda Urevela o'rmonidagi zohid-braxmanlarga, Magadxining poytaxti Rajagrixda o'z ta'limotini targ'ib qiladi. Uning izdoshlarini soni kun sayin oshib borgan. Bir qism shogirdlarini o'z ta'limotini yoyish maqsadida Hindistonning turli chekkalariga yuboradi, bir qism shogirdlari bilan esa mamlakatni kezib ta'limotini o'zi targ'ib qiladi. Keyingi Buddaning 40 yillik umri mana shunday o'z targ'ibotini



mamlakatning turli chekkalariga yoyish bilan o'tadi. Umrining oxiriga kelib Buddaning izdoshlari Magadxa, Koshal va SHimoliy-SHarqiy Hindistonda ko'pchilikni tashkil etardi. Buddha 80 yoshda vafot etgandan so'ng uning tanasi qadimgi Xindistondagi an'anaga ko'ra kuydiriladi va xoki mamlakatning turli chekkalariga yuborilib, mana shu xududlarda uning nomi bilan ibodatxonalar qurdiriladi.

Buddizm dinining paydo bo'lishi o'sha davr Hindiston aholisining ijtimoiy, diniy ma'naviy hayoti bilan bog'liq. Buddizmning paydo bo'lgan vaqti masalasi ham o'ziga xos ilmiy munozaralarga sababdir. Uning qachon paydo bo'lganligi haqidagi ishonchliroq ma'lumotga ko'ra podsho Ashoka ikkinchi buddistlar yig'inidan 118 yil o'tgandan so'ng taxtga o'tirgan va o'z navbatida buddistlarning ikkinchi yig'ini Buddaning nirvanasi (o'limi)dan 100 yildan keyin bo'lgan. Podsho Ashakaning hukmronligi mil avv. 273-236 yillarga to'g'ri keladi va shunga asoslanib Buddaning to'g'ilishi taxminan mil avv. 570 yillarga, vafoti esa mil avv. 490 yilga to'g'ri keladi.

Demak, buddizm dini mil avv. VI-Vasrlarda Magadxada vujudga kelgan. Magadxada o'sha davrdagi yuqori kasta – braxman va kshatriylar bilan qo'yi kasta vakillari o'rtasidagi ziddiyat, hokimiyat uchun braxmanlar bilan kshatriylar o'rtasidagi kurash; kshatriylar kastasidan yangi harbiy sulolalarni (masalan, Seysunaga sulolasi) vujudga kelishi va ularni hokimiyatdan braxman zadagonlarni siqib chiqarishi braxmanizm dini asosida shakllangan an'anaviy dunyoqarashni inqiroziga sabab bo'ldi. Guyoki xudo Braxma tomonidan o'rnatilgan kasta tuzumiga nisbatan ishonchga putur eta boshladi. Zohidlik, tarkidunyochilik, rohiblikning keng tarqalishi (hatto yuqori kasta vakillari orasida ham) mavjud tuzumdan norozilikni kuchayganligidan dalolat beradi. Mana shu sharoitda tarki dunyochilik ta'limoti, sektalari, hatto charvaka kabi falsafiy oqimlar ham vujudga keldi. SHu davrdagi jamiyat ma'naviy ruhiyatini o'zida ko'proq ifodalagan ta'limotlardan biri buddizm edi.

Buddizmning axloqiy va ijtimoiy g'oyalari jamiyatning keng qatlami vakillari manfaatiga mos kelardi. Uning amaliyoti, ya'ni nirvanaga erishish maqsadi faqat rohiblar uchun mo'ljallangan edi. SHu sababli budda jamoalari rohib-bxikshu ("qashshoq")lar jamoasi edi. Buddaning birinchi izdoshlari yomg'irlar davrida yig'iladigan kichik guruhdan (6 kishidan kam bo'lmagan) iborat zoxidlar bo'lgan. Jamoaga kiruvchilar har qanday mulkdan voz kechishgan va sochlarini olib, sariq rangli maxsus kiyim kiyishgan xaid o'zlari uchun birinchi zarurat bo'lgan narsalarda tashqari hech narsaga ega bo'lishmagan. Ular asosiy vaqtini shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib sadaqa yig'ishda o'tkazgan. Ular faqat tushgacha go'shsiz ovqat eyish huquqiga ega bo'lishgan va ertasi kuni tonggacha umuman ovqat iste'mol qilishmagan. G'orlar, tashlandiq binolarda yomg'ir davrini kutib, o'zaro suxbatlashib, meditasiya amaliyotini bajarib, o'z ta'limotlari nazariyasi va amaliyotini rivojlantirib yashashgan. Ular manzilgohi yaqinida o'lgan bxikshu dafn qilingan. Keyinchalik mana shu ilk buddistlar dafn qilingan joylarda yodgorliklar–gumbazsimon qurilmalar bino qilingan. Mana shu yodgorliklar atrofida asta-sekin boshqa qurilmalar ham qad ko'targan va shu asosda monastirlar vujudga kelgan. Monastir hayoti nizomi asta-sekin shakllana bordi, rohiblar soni oshdi, tinglovchilar, manastir dehqonlari va qul-xizmatkorlar paydo bo'ldi. Avvalgi erkin sayyoh bxikshu monastirda doimiy yashaydigan, nizom talablariga rioya qiladigan, umumiy yig'in, sangxa (ushbu monastir rohiblari jamoasi) va saylangan ustozga bo'ysunuvchi rohibga aylandi.

Rohiblar turmush tarzi Tripitaka ("Uch savat")ning muhim qismi bo'lgan Vinayapitaki matnlari bilan tartibga solingan. U beshta kitobdan iborat bo'lib, budda rohiblari jamoasining tashkiliy dasturlariga, bu jamoaga kirish qoidalariga, rohiblarning farzlariga bag'ishlangan. Suttapitaka ham Tripitakaning tarkibiga kirgan va u ham besh kitobdan iborat bo'lib, unda Buddha ta'limoti uning o'zini tilidan, shogirdlari tilidan masal, suhbat, afsona, doston, xikmatli so'z, sharhlar tarzida bayon qilingan. Tripitakaning uchinchi qismi Abhiidxarmapitaka etti kitobdan

iborat bo'lib, unda diniy ta'limot asosiy qoidalarining ilohiy talqini o'z ifodasini topgan. Bu matnlar buddaviylar tomonidan yuksak baholanib yaxshi saqlangan va rohiblar tomonidan ko'chirilib yirik va mashhur monastirlarning kutubxona-arxivlarida saqlangan. SHunday mashhur monastirlardan biri milodimizning boshlarida Hindistondagi Nalanda monastiri bo'lib, unga ko'pgina hududlardan buddaviylik ta'limotini o'rganmoqchi bo'lgan, ta'lim olishni hohlovchi, buddizmning muqaddas matnlarini ko'chirib olib o'z yurtiga olib ketishni hoxlovchi ko'plab kishilar intilgan.

Buddizmning ilk ta'limotida diniy mazmundan ko'ra falsafiy-axloqiylik ustun turadi. Ilk budda ta'limotida "to'rt haqiqat" nazariyasi asosiy o'rin egallaydi. Bu to'rt haqiqat: azob-uqubatlarning mavjudligi, azob-uqubatlarning sabablari, azob-uqubatlarni tugatish va azob-uqubatlarni tugatish yo'llari haqidagi ta'limot.

Uning ta'limoti insonning xayolida, ishlarida va o'zini tutishida samimiy oliyjanoblik g'oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta'limotini inkor qildi, hayvonlarni vahshiyona qurbon qilishni qoraladi, *varna* (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda «Yaratuvchi oliy kuch»ning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu turmush tarzidir.

Budda ta'limotining asosida «hayot – bu azob, uqubat» va «najot yo'li mavjud» degan g'oyalar yotadi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalar Buddaning ilk da'vatida ta'birlangan to'rt haqiqatda o'z ifodasini topgan.

**1-haqiqat “Azob-uqubatlar mavjuddir”.** Budda ta'limotiga ko'ra butun hayot azob-uqubatdir. Tug'ilish azob-uqubat, keksalik azob-uqubat, kasallik azob-uqubat, yomon ko'rgan kishisi bilan yashash azob-uqubat, yaxshi ko'rgan kishisidan ajralish azob-uqubat, istagan narsasiga erishmaslik azob-uqubatdir.

**2-haqiqat – “Azob-uqubatlarning sabablari mavjuddir”.** Azob-uqubatlarning sabablari – yashash istagi, lazzatlanish, mayl, nafs, hamda hukmronlikga va abadiy hayotga intilish va boshqa.

**3-haqiqat – “Azob-uqubatlarni tugatish mumkin”.** Azob-uqubatlardan qutulish uchun ushbu istaklarni butunlay tugatish lozim. Odam har qanday mavjud bo'lishga intilishni, har qanday istakni, nimaga bo'lishidan qat'iy nazar bog'liqlikni, maylni o'ziga bo'ysundirishi kerak.

**4-haqiqat – “Azob-uqubatlardan qutulish yo'llari”.** Azob-uqubatlardan qutulish uchun Budda tomonidan ishlab chiqilgan “Sakkiz bosqichli yo'l”ga rioya qilish lozim. Bu yo'l haqiqatga erishish va nirvanaga yaqinlashish usullaridir.

1. *To'g'ri qarash, e'tiqod*, ya'ni “ezgu haqiqat” ga asoslangan qarashlar, Buddaning “bu olam g'am-tashvish va azob-uqubatdan iborat hamda inson o'ziga istaklarini bo'ysundirishi kerak” degan fikriga ishonish.

2. *To'g'ri qat'iylik*, niyat ya'ni haqiqat uchun har qanday jasoratga tayyor turish. O'z yo'lini qat'iy belgilash, o'zining istak va intilishlarini cheklash.

3. *To'g'ri so'z, nutq*, ya'ni samimiy, chin, yaxshi niyatli so'z. O'z so'zlarini nazorat qilish va ular yovuzlikga olib bormasligi, nutq chin, yaxshi niyatli bo'lishini ta'minlash.

4. *To'g'ri ish, hatti-harakat*, ya'ni yovuzlik qilmaslik. YOvuz xatti-harakatlardan saqlanish va ezgu ishlarni qilish.

5. *To'g'ri turmush tarzi*, ya'ni tinch-totuv, sof, vijdonli. Tirik mavjudotga zarar keltirmasdan munosib turmush tarzi yuritish.

6. *To'g'ri intilish, to'g'ri fikrlash*, ya'ni o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini boshqarish. O'z fikri yo'nalishini nazorat qilish, yovuz fikrlardan holi bo'lish va ezgulariga yo'naltirish.

7. *To'g'ri diqqat*, ya'ni ongning faol xushyorligi.

8. *To'g'ri yo'naltirish, yaratish*, ya'ni yaratish va meditasiyaning to'g'ri usullari. Doimiy va sabr bilan shug'ullanish, diqqatini bir joyga to'plash qobiliyatiga erishish, haqiqatni izlashga sho'ng'ish.

Buddizm ta'limoti, asosan, uch qismdan iborat: 1) axloq; 2) meditatiya; 3) donolik.

**1. Axloq normalari – «Pancha shila» (Buddaning besh nasihati):**

- 1) qotillikdan saqlanish;
- 2) o'g'rilikdan saqlanish;
- 3) gumrohlikdan saqlanish;
- 4) yolg'on, qalbaki narsalardan saqlanish;
- 5) mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

**2. Meditatiya.**

1) to'g'ri tushunish (to'g'ri e'tiqod qilish) – Buddaning birinchi da'vatida so'z yuritilgan to'rt haqiqatni bilish va unga ishonish;

2) to'g'ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo'lishga, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar etkazib qo'yishdan saqlanishga intilish;

3) o'zini to'g'ri tutish – o'ziniki bo'lmagan narsaga ko'z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;

4) to'g'ri anglash – o'z tanasi va ruhiga o'zini yo'qotib qo'ymaydigan darajada nazoratda bo'lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo'yish;

5) to'g'ri harakat qilish – o'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuyg'ular va harakatlarni rivojlantirish;

6) to'g'ri hayot kechirish – noma'qul hayot tarzidan saqlanish;

7) to'g'ri fikr yuritish – kamolotning to'rt bosqichini ketma-ket bosib o'tish;

8) to'g'ri gapirish – yolg'ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

**3. Donishmandlik** – bu buddizmning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan uch amaliyot bosqichini o'tagan inson oxir-oqibat oliy saodatga, ya'ni *nirvana* holatiga erishadi. *Nirvana* so'zining lug'aviy ma'nosi – «o'chish, so'nish». Unda hayotning har qanday ko'rinishiga intilish yo'qoladi.

**Tarqalishi.** Ushbu ta'limotning yoyilishida buddist jamoalarning (*sangxa*) roli katta bo'lgan. Ular yilning ob-havosi yaxshi bo'lgan to'qqiz oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, aholini bu dinga da'vat qilib yurganlar. Faqatgina *musson* yomg'irlari tinmay quygan uch oydagina o'z ibodatxonalarida muqim bo'lib meditatiya bilan shug'ullanganlar.

Mil. av. 273-232 yillarda hukmronlik qilgan imperator Ashoka davrida buddizm keng hududlarga jadal tarqaldi. U buddist monaxlarga (rohiblar), ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik bildirardi. Buddist missionerlari o'z prinstiplarida mahkam turib, yumshoqlik va kelishuvchanlik bilan harakat qildilar.

Buddizm jamoalari begona din, madaniyat va urf-odatlar ustun bo'lgan sharoitlarda asrlar mobaynida o'zlarini saqlab qolish, fursat kelganda, ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularning bu xususiyatlari Hindistonda musulmon hukmdorlari davrida, Shri Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va Yaponiya konfustiychilari davrida mazkur hududlarga buddizmning yoyilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Buddizm milodning I asrida Xitoy, IV asrda – Koreya, VI asrda – Yaponiya, VII asrda – Tibet, XIII-XVI asrlarda – Mongoliya, XVII-XVIII asrlarda – Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda esa Amerika va Evropa qit'alariga kirib borgan.

Buddizm boshqa xudolarga sig'inishni taqiqlamaydi. Budda, ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berishi mumkin, biroq ular *nirvana* holatiga olib bormaydi, deb ta'lim bergan. Shu

sababli, buddizm ta'limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan ilohiyatlari yoki ulug'langan shaxslari timsollari ibodatxonalarini egallagan.

Masalan, Hindistonning buddizmga mansub ilohiyatlari dunyoni yaratuvchi Braxma, chaqmoq va momoqaldiroq xudosi Indra, hunarmandchilar homiysi Xatimanu, Tibetda qahramon Baser timsoli, Mongoliyada Chingizxon kabi milliy qahramonlar buddizm ilohiyatlari timsoliga aylandi. Biroq, bu ilohiyotlar *nirvana* holatiga olib bormaydi. Faqatgina Buddha *nirvanaga* boshlay oladi va shu yo'sinda insonni azoblardan xalos etadi.

**Manbalari.** Buddizm ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka – «uch savat» ma'nosini anglatadi). U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular – Buddha targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan *sutra* matnlari – Sutra-pitaka, rohiblik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan *vinaya* matnlari – Vinaya-pitaka, buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan *abxidxarma* matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddizmga oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning ilk buddizm tarixi uchun ahamiyati ozroq. Buddha hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi Tripitakada jamlangan.

Buddizmning Maxayana yo'nalishi Xitoyga I asrda kirib kelgan. III-VI asrlarda buddizm Xitoy hududida keng tarqaldi. Bu vaqtda poytaxt yaqinidagi Loyana hamda Chanani kabi shaharlarda 180 ga yaqin buddizm ibodatxonalari hamda diniy markazlari faoliyat yuritgan.

Maxayananing shakllanishida Kushon davlatining ham roli katta bo'ldi. Aynan Kushon davlatidan, ayniqsa, Kanishkaning to'rt qurultoyidan so'ng buddizmning Maxayana yo'nalishi Markaziy Osiyo davlat va shaharlariga tarqala boshladi. Buyuk ipak yo'li orqali ilk buddist targ'ibotchilar mil. av. II asrdayoq Xitoyga kelgan edilar. Buddizmning Xitoyga kirib kelishi haqida keyinchalik ko'plab rivoyat va asotirlar paydo bo'ldi. Biroq, xitoy manbalarida ham, diniy rivoyatlarda ham Xitoydagi birinchi buddistlar haqida biror aniq ma'lumot mavjud emas. Ilk davrga taalluqli ma'lumotlardan biri imperator Min-Dining tushi haqidagi rivoyat hisoblanadi. Unga ko'ra, Min-Di tushida oltindan yasalgan bir but ko'rgan. U Buddaning timsoli ekanligini o'z maslahatchisi Fuidan so'rab bilgach, milodning 60-yillarida buddizm asoschisi va uning ta'limoti bo'yicha diniy matnlar keltirish uchun Hindistonga elchilar yuborgan. Shundan so'ng Xitoyga Hindistondan bir necha buddizm targ'ibotchilari kelib, ular uchun maxsus qurilgan «Baymasi» («Oq ot ibodatxonasi»)ga joylashganlar.

Shunday qilib, buddizm mil. av. birinchi ming yillik oxirlarida Markaziy Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorumizda olib borilgan arxeologik qazilmalar asnosida O'ra-tepa, Dalvarzin-tepa, Quva, Zar-tepa, Qorovul-tepa, Ayritom mavzellaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g'ildiraklar va *stupa* qoldiqlaridan Kushon imperiyasida buddizmga katta ahamiyat berilganini anglash mumkin.

Budda ta'limoti barcha moddiylikdan voz kechish, ilk ma'naviy Absalyut bilan birlashishga intilish tamoyili va amaliyotiga tayanadi. Mana shu asosda inson yuqoridagi “sakkiz bosqichli yo'l”ga rioya etib, oxir-oqibatda komillikga erishadi: u arxat-avliyo bo'ladi va nirvanaga sho'ng'iydi. Nirvana-budda ta'limotiga ko'ra donishmand intilishi kerak bo'lgan oxirgi, ideal holat. Har bir odam nirvanaga erishish uchun ichki erkinlikni axtarish yo'liga kirishi, inson hayotida mavjud bo'lgan barcha bog'lanishdan to'la ozod bo'lishi kerak. Nirvana tushunchasi buddizm ta'limotida markaziy o'rin egallasada, u haqida aniq bir qarash va ta'rif mavjud emas. Nirvana – bu insonning ichki holati bo'lib, unda hamma xissiyot va bog'lanishlar so'nadi. Bu ichki so'nish insonni azob-uqubatga soluvchi “men”dan hamda barcha tirik mavjudotlarni yangidan qayta tug'ilishga olib keluvchi yashash istagidan ozod etadi. SHu bilan karma hukmronligi uziladi va

ravshanlikga erishgan kishi-donishmand oxirigacha mutloq osoyishtalik bo'shlig'iga qorishib ketadi. Nirvananing mohiyati shundan iboratki, u insonni zaruratning narigi tomoniga qo'yadi. SHu jihatdan nirvana erkinlikga tengdir. Biroq dastlab insonga erkinlikni faqat salbiy tomonlari ochiladi. Inson hamma narsadan ozod bo'ladi. Haqiqiy erkinlik esa nafaqat inkor etadi, balki insonning shaxs sifatidagi borlig'ini, uning qadr-qimmatini va ijodiy kuchini ta'kidlaydi ham. Biroq mil.avv. VI asrda Hindistonda shaxs haqidagi bu tushunchalar hali shakllanmagan edi. SHu sababli to'liq erkinlik Buddha tomonidan to'liq inkor sifatida talqin qilingan. Nirvana nafaqat zaruratning narigi tomonida, balki har qanday borliqning narigi tomonida. Nirvana insonni nafaqat zaruratdan, balki o'zining "men"idan ham ozod qiladi. Nirvana "ichki orol"dek o'ziga jalb etadi va unga donishmand odamlar va xudolardan, hatto tabiatni o'zidan ham mustaqil ravishda erishildi. Kamchilik odam bu orolga erishadi va unga erishganlarga xudolar ham xavas qilishini Buddha o'z qarashlarida ta'kidlaydi.

Nirvanaga erishish haqida qarashlarning birinchisiga ko'ra, odam hayotligi davrida unga erishishi mumkin, boshqasiga ko'ra, unga faqat jismoniy o'limdan so'ng erishish mumkin. Buddha ta'limotiga ko'ra odamlar nirvanaga erishish yo'lida bir xil emas va bunda ularga Buddha hamda badxisattvalar – nirvanaga erishishi uchun oxirgi qadam qilishi qolgan va uni ongli ravishda odamlarga osoyishtalikga erishishda yordam berish uchun qilmaydigan mavjudlikdir. Biroq bu yo'ldagi asosiy intilishni insonni o'zi qilishi kerak. Ravshanlik va nirvana insonning intilishlari asosida erishiladi. Buning uchun inson qayta tug'ilish zanjiridan ozod bo'lishi kerak. Bu abadiy qayta tug'ilish zanjiri buddizmga sansara deyiladi. U har qanday tirik mavjudotni azob-uqubatlar orqali bir qayta tug'ilishdan ikkinchisiga olib o'tadi. O'lim insonni borliqning azob-uqubatlaridan ozod qilmaydi, balki undan keyin qaytadan yangi tug'ilish keladi. Bu azobli sansara doirasidan uzoq qayta tug'ilishlar orqali arxat holatiga erishgan – haqiqatni anglagan kishi ozod bo'lishi mumkin. Qayta tug'ilib tirik mavjudot, braxmanizmga ham ta'kidlanganidek nafaqat inson, balki hayvon, o'simlik, yozuv ruh bo'lishi ham mumkin. Qayta tug'ilishning ideal shakli inson bo'lib tug'ilishdir, chunki faqat mana shu holatdangina nirvanaga o'tish mumkin. Buddistlarning ta'kidlashicha, Buddha Gautama SHakyamuni obrazida tug'ilishidan avval bir necha bor erda turli kasta va kasbdagi odam obrazida, osmonda u yoki bu xudo obrazida, hatto Braxmani o'zi bo'lib tug'ilgan odamlar orasida faqat u birinchi bo'lib "ro'shnolik"ga erishgan va shu sababli qayta tug'ilish zanjiridan ozod bo'lgan. Buddaning o'limi – bu bevosita nirvanaga o'tishdir. SHu sababli buddizmga uning o'limi haqida emas, balki uning nirvanaga o'tishi haqida gapiriladi.

**Buddizm falsafasi** qadimgi hind tafakkuri nazariyotchilari ishlab chiqqan asosiy dunyoqarash tamoyillari va kategoriyalariga asoslansada, chuqur va original mazmunga ega. Avvalombor buddizm real yuz berayotgan olamni inkor etadi. CHunki biz yashayotgan real olam – azob – uqubatlarning manbai; ulardan qutilish bu olamdan oliy reallik va mutloq doimiylik olami, ya'ni nirvanaga ketishdir. Demak, bizni o'rab turgan real olam va uning bir qismi bo'lgan biz hammamiz o'ziga xos illyuziya (yanglishlik) va bu illyuziya ob'ektiv mavjuddir. Odam olamni o'z xisssiyoti orqali qabul qiladi va bu hissiyot insonning sub'ektiv tasavvurlari natijasi bo'lmasdan, olamni tashkil etgan dxarmalarning harakati oqibatidir. Dxarma so'zi buddizmga ko'pma'nolidir. U bilan buddizmni butun ta'limoti ham, buddizm qonuni ham, olamni bir bo'laklari ham ifodalanadi. Bu bo'laklar sankxya tizimidagi purushining ma'naviy ibtidosi unsurlarini eslasada, biroq u ichki xajm va turli-tumanlikning ko'pligi bilan farqlanadi. Ular orasida sof ong dxarmasi, xissiy (rupa) dxarma, ya'ni ko'rish, eshitish va boshqa inson xisssiyoti bilan bog'liq ruhiyat dxarmasi va boshqalar. Buddizmga turli oqimlarni ta'kidlashicha odamda bunday dxarmalardan 75-100 ta va xatto undan ortiq mavjud.

Olamdagi barcha tirik mavjudot dxarmadan tarkib topgan, aniqrog'i tirik-harakatlanuvchi dxarmalardan. Hayot – bu uning ob'ektiv asosini tashkil etgan dxarmalarning abadiy harakatini namoyon bo'lishidir. Buni tushunish va harakatlanayotgan o'zining dxarmalarini tinchlantirishga

urinish – bu hayotni o'z qo'liga olishni va oxir-oqibatda budda holatiga erishish, nirvana sho'ng'ishni anglatadi. Har qanday tirik mavjudot tug'iladi, yashaydi va o'ladi. O'lim bu dxarmalarning ushbu majmuasini parchalanishidir, tug'ilish esa ularning yangi shaklda qayta tiklanishidir. Buddizm shu jihatdan jonning yagonaligini inkor etadi. Budda falsafasida dxarmaning asosiy ahamiyati – o'z belgisini tashuvchisiligidadir. Dxarmaning qayta tiklanishi insonning hayoti davomida amalga oshirgan faoliyatida shakllangan karmaga bog'liq. Bu ta'limot, ya'ni cheksiz qayta tug'ilish-Bonarasda Budda tomonidan o'z shogirdlariga aytgan targ'ibotida bayon qilingan. Bu targ'ibotni mohiyati – borliq charxpalagining o'n ikki qatori – nidanlar haqidagi ta'limotdir. Birinchi muhim kator-avidya, bilimsizlikdan boshlanadi. Avidya asosida jamiyatda mavjud ustqurtmalarga qaratilgan hatti-harakatning kundalik normalari kelib chiqadi. Hatti-harakat stereotiplari ma'lum bir ongni shakllantiradi. SHu ongga muvofiq sezgi organlari idrok etadigan ob'ektlar hisoblanuvchi shakl va kategoriya-namlar hosil qilinadi. Sezgi organlari va shakl-kategoriyalar o'rtasida qat'iy aloqalar vujudga keladi hamda mana shu aloqalar hissiyotni, keyin istak, mayl, hayotga bog'lanishni keltirib chiqaradi. O'z navbatida yashash istagi oqibati barcha tug'ilganlar uchun keksalik va o'lim bilan tugaydigan barcha yangi qayta tug'ilishlarga sabab bo'ladi.

Demak, hayot charxpalagi mulohazasiz hatti-harakatlar bilan boshlanib, o'lim bilan tugaydi. U dxarmalarning tinimsiz harakatlanib turishi bilan belgilanadi.

Nirvanaga erishishga harakat qilayotgan buddaviylik rohibining barcha hatti-harakatlari asosan axloq normalariga qat'iy rioya qilishdan iborat edi. Beshta asosiy taqiq: odam o'ldirmaslik, o'g'irlik qilmaslik, zino qilmaslik, gumrohlikdan saqlanish, mast qiluvchi ichimliklar ichmaslik hamda boshqa taqiq va cheklovlar ham asosan shunga olib kelardi. Axloqiy ko'rsatma va taqiqlarga qat'iy rioya qilinishiga sabab, buddizmda karma individning nafaqat hozirgi hayotidagi, balki oldingi qayta tug'ilishlarida ham amalga oshirgan savob va gunoh ishlari yig'indisidir. Aynan mana shu ma'lum (hozirgi hayotdagi) va noma'lum (oldingi tug'ilishlardagi) hatti-harakatlardan vujudga kelgan yig'indi ushbu individning nirvanaga erishishiga tayyorligini belgilagan.

Buddaviylikda karma tamoyili aynan buddizmga xos axloq normalariga asosiy e'tibor qaratishni o'zida ifodalagan: karma deganda nafaqat barcha harakatlar, balki ongli xatti-harakat va xatto niyatlar, ahloqiy (kusala) va axloqsiz (akusala) xatti-harakatlar tushunilgan. Ijobiy va salbiy karmalarni tug'ilishiga ko'maklashuvchi, chuqur ishlab chiqilgan ongning turli tiplari mavjud edi. Ular orasida eng yuqori cho'qqi sifatida maqsadi umuman karmadan xolos bo'lish va shu bilan nirvanaga erishishning ta'minlashni yakunlovchi samoviy ong, donishmandlik ongi tiplari ajratiladi.

Karma qonuni, uning buddaviylik talqinida buddizmni qo'llab-quvvatlovchi dunyoviy kishilarning axloqiy normalari namunalarini mustahkamlashda muhim rol uynadi. Ular rohiblik yo'liga kirmasalarda va nirvanaga intilmasalarda hammasining o'z o'rni borligini anglashgan. Har bir kishi bugungi kunda keyingi tug'ilishlarda nirvanaga imkon beruvchi karmaga poydevor qo'yish mumkinligini anglashgan. Buning uchun har bir kishi o'zida ongning shunday shaklini ishlab chiqishi va o'zini shunday tutishi kerakki, u ijobiy karmani oshishiga salbiy karmani kuchsizlanishiga olib kelsin. Bu buddizmning ixtirosi bo'lmasada, u shunga asosiy e'tiborni qaratdi. Bunga buddistlarning aximsa tamoyiligiga qat'iy rioya qilishini ko'rsatish etarli. Nafaqat ahimsa, balki yovuzlik qilmaslik va hatto yovuzlikga kuch bilan javob bermaslik buddizmning etakchi axloqiy qoidalariga aylandi. Bunda qotilik uchun insonni o'ldirib javob bermaslik, adolat uchun qasos olmaslik kabi hatti-harakatlar nazarda tutiladi.

Xinayana shaklidagi ilk buddizmning axloqi, asosan individual, hatto ma'lum ma'noda egoistik xarakterga ega edi: har bir odam boshqalarga va jamiyatga nisbatan o'zini yaxshi tutishi uning o'zi uchun zarur bo'lganligi, o'z karmasini yaxshi tomonlarini ko'payishiga kerakligi va oxirida nirvanaga erishish zaruratidadir. Bu masalaga nisbatan munosabatning o'zgarishi shimoliy

Hindistonda ta'limotning yangi yo'nalishi – maxayana buddizmi (“Najotga erishishning keng yo'li”) ni shakllanishi bilan o'zgardi.

Afsonaviy rivoyatlarga ko'ra, buyuk ustoz (Gautama SHakyamuni)ning og'zidan tayyor shaklda vujudga kelgan buddizm ta'limoti sifatida hech qachon nimasi bilandir yaxlit va yagona bo'lmagan. Biz Gautama SHakyamunini tarixiy shaxs deb qaraydigan bo'lsak ham, buni to'liq tasdiqlaydigan faktlar etarli emas (Jinna, Iso Masix kabi). Bunga qarama-qarshi ko'pgina ma'lumotlar ta'limotning bosh tamoyillari asta-sekin, turli og'zaki komponentlar asosida va turli xil ko'rinishda paydo bo'lib, keyinchalik ba'zi jihatlari bilan yagona va yaxlit ta'limot hosil bo'lgan. Biroq vujudga kelgan ta'limot ichida qarama-qarshilik saqlanib qolgan va natijada vaqt o'tishi bilan yarim mustaqil va hatto mustaqil yo'nalish, sektalar vujudga kelgan.

Maxayana buddizmi o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Dastlabki, maxayana sutralari xinayananiqidan qadimiylkda, ba'zi mutaxasislarning ta'kidlashicha qolishmagan. Biroq asosiysi ularning qanchalik qadimiyligida emas, balki maxayana mustaqil ta'limot sifatida to'la shakllangan vaqtda qanday yangiliklar kiritilganligidadir. Ta'limotning yangiligi – bu uning dunyoviy hayotga yaqinlashishi va uni odamlarga yaqin va tushunarli dinga aylanishidir. Bunda kam sonli asosiy dindorlar uchun bo'lgan najotga erishish haqidagi ta'limot emas, balki aynan dinni yaqinlashtirish nazarda tutiladi. Masalan, dunyoviy kishini din yo'lidagi sadaqasi rohibning xizmatlari bilan tenglashtirilgan va karmaga qaramasdan najot qirg'og'iga uni yaqinlashtiradi. Maxayananing o'ziga xosligi keyinchalik buddizmga kuchaygan axloqiy normalarga asosiy e'tiborni qaratishda emas, balki shu normalarning xarakteridagi tub o'zgarishlarda. Individual egoistik axloq maxayanada hind an'alariga xos bo'lmagan xususiyatlarni o'zlashtiradi. Bu ruhoniylarni muqaddas bodxisatva darajasiga ko'tarishda yorqin namoyon bo'ladi. Muqaddaslik darajasiga ko'ra bodxisatva xinayanadagi arxatdan yuqori qo'yiladi. Arxat xali nirvanaga erishmagan bo'lsa, bodxisattva to'liq nirvanaga erishgandir. Bundan tashqari bodxisattva nirvanaga sho'ng'igan buddadir. Masalan, Maytreyya ham budda, ham bodxisatva deb ataladi.

Bu holatda gap shundaki, bodxisattvani budda bo'lishi va nirvananing yo'qligiga ketishi uchun oxirgi qadamni qo'yish qolgan xolos. U ongli ravishda bu harkatni amalga oshirmay, odamlar bilan sansara olamida qoladi, chunki u bu ishni besh odamlarga yordam berish, ularning azob-uqubatlarni engillashtirish, najot yo'lida ularni o'ziga ergashtirish uchun qiladi. Bu vazifani amalga oshirish oson bo'lmasada maxayanada ongning karma ta'sirida qorong'ulashi masalasi ikkinchi o'ringa tushadi va birinchi o'ringa har bir odam budda holatiga erishishi mumkinligi chiqadi. Bunda e'tirofga sabab har bir tirik mavjudot buddaning ilk mohiyatiga ega. Maxayanadagi boshqa muhim yangiliklardan biri jannat va do'zzax nazariyalarining kiritilishidir. Hindistonda do'zzaxning hukmdori birinchi odam Yama (zardo'shtiylikdagi Iyimga o'xshash) hisoblanadi va u marhumlardan birinchisi bo'lganligi uchun ilohiylashtirilgan. Lekin qadimgi Hindistonda jannat va do'zzax haqidagi g'oyalar to'liq shakllanmagan edi. Maxayanada esa bu oxiriga etkazildi. Jannati (sukxavati, baxtli manzil) bo'lgan kishilar bodisattva bo'lishadi va oxir-oqibatda nirvanaga erishadi. Jannatning yaratuvchisi Amitaba bo'lganligi uchun u “Amitaba maydoni” deb atalib, uzoq g'arbda joylashgan. Jannat rohati va do'zzax azobi maxayanada barcha karmaga ega mavjudotlarga, shu jumladan xudolarga ham mo'ljallangan, unda bo'lish vaqtinchalik va navbatdagi qayta tug'ilishdan oldingi xolatdir.

**Maxayana buddizmi** tor doiradagi odamlar uchungina tushunarli bo'lgan xinayananing diniy falsafasini nisbatan oddiy va hamma uchun tushunarli bo'lishi uchun xizmat qildi. Bu yo'nalishda ko'pgina budda va bodxisattvalar o'zining ilohiy qiyofasiga ega bo'lib, ayniqsa ibodatxona haykaltaroshligida ko'proq namoyon bo'ldi. Xinayana ham yangiliklardan haykaltaroshlik ikonagrafiyasini qabul qildi. Biroq har ikkala yo'nalish bir-biridan ancha uzoqlashib o'zining keyingi alohida taqdiriga ega.

**Xinayana buddizmining** markazi SHri-Lanka bo'lib qoldi. Bu erda xinayana Ashoki davridan boshlab tarqalgan va Buddha hayoti bilan bog'liq ko'pgina muqaddas buyumlar saqlangan, jumladan Buddaning tishini saqlash uchun maxsus Kandida ibodatxona qurilgan. SHri-Lankadan buddizm milodimiz boshlarida asta-sekin Hindixitoy va Indoneziyaga kirib bordi. Bu hududlarga xinayana buddizmining kirib borishi mahalliy xalqlar madaniyatini hind madaniyatiga singib ketishi va hatto hind emigrantlari tomonidan ilk siyosiy tuzilmalarni yaratilishiga ham olib keldi. Buning natijasida oxir-oqibat Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlarida buddizm mustahkamlandi va ba'zilarida davlat dini darajasiga ko'tarildi. Hindistonning o'zida milodimizning boshlaridan boshlab xinayana kuchsizlana boshladi. Maxayana buddizmi milodimizning boshlarida O'rta Osiyo orqali Xitoy, Koreya, YAponiyaga kirib bordi. SHu bilan birga u V'etnam, Nepal, Tibet, Mongoliyaga ham tarqaldi. Hindistonni o'zida mahayana buddizmi keng tarqalmadi. Gap shundaki buddizm diniy-falsafiy ta'limot sifatida, hatto maxayana shaklida ham Hindistondagi u uchun asosiy to'siq bo'lgan kasta tuzumini bartaraf eta olmadi. Hindistonda buddizm markazlari – Nalonda boshchiligidagi monastir va ibodatxonalar vujudga kelgan bo'lsada, Ashoki va Kanishka hukmronligidan so'ng u inqirozga uchradi. Bu inqiroz agar buddizm ta'limoti tizimiga jaxon dinlariga xos jixatlar kiritilmaganida u jaynizm kabi kam tarqalgan ta'limotlar tipiga kirib qolishi mumkin edi. Bu o'zgarishlar Hindistonni tark etgan buddizmni boshqa mamlakatlarga keng tarqalishi uchun imkon yaratdi va I ming yillik oxirlariga kelib Nalanda monastirining inqirozi natijasida buddizm Hindistondagi o'z mavqeini yo'qotdi va uning o'rniga hinduiylik dini vujudga keldi.

IV asrdan boshlab Xitoy buddistlari Buddha – bu Daoning namoyon bo'lishidir deb ta'kidlaganlar. Ular ta'limotidagi markaziy o'rinni – yuqori axloqiy normalar egallaydi va ular konfusiylilikni syao tamoyiliga katta hurmat bilan qarashgan. Xitoy buddistlari o'z pullari hisobiga g'or ibodatxonalarda Buddha va bodisattva sharafiga ustun va haykallar qurdirib unga xitoy–konfusiylilik ruhidagi yozuvlar qoldirishgan. Xitoy buddizmida Buddaning Xitoyni an'anaviy normalari, g'oyalari va tasavvurlariga mos keladigan tamoyillari etakchi o'rin egalladi. Syanyandagi monastirning asoschisi, buddizmning Xitoylik ilk targ'ibotchilaridan – Dao-an (312-385) shunday o'zgarishlarni boshlab berdi. Konfusiylilikdan ta'lim olgan Dao-an Vinayapitaki asosida bir qancha matnlarni xitoy tiliga tarjima qildi. U o'z qo'li bilan namunali monastir nizomini ishlab chiqdi. U Xitoy Buddha roxiblari uchun SHi-Gautama (SHakya) urug'ining xitoycha transkripsiyasi bo'lgan familiya belgisini kiritdi. U budda Maytreyyaga e'tiqod qilishni joriy qildi va u bilan ko'pgina Xitoy buddistlari avlodi umumiy farovonlik va kelajakka umid bog'lashgan. Buni ko'pincha xristianlikdagi Isoning ikkinchi marta erga qaytishi bilan o'xshatishadi. Ko'pgina Xitoydagi dehqonlar xarakati yo'l boshchilari o'zlarini Maytreyya deb e'lon qilishgan va unga e'tiqod qilish Xitoydagi ko'pgina yashirin jamiyatlar mafkurasida markaziy o'rin egallaydi.

Dao–andan keyin ikkinchi o'rinda Xitoy buddistlari orasida dastlab konfusiylilik va daosizmga e'tiqod qilgan Xuey–yuan (334-417) mashhur yuo'lgan. U tomonidan asos solingan Izyaksi provinsiyasidagi Dunlin–si monastiri katta mashhurlik va ta'sirga ega bo'lib, o'zida butun mamlakatdan e'tiqodchilarni to'plagan. Xuey–yuan Dao–andan farqli ravishda buddizmning nazariyatchisi va bilimdoni emas, balki uni ko'proq ommalashtiruvchisi bo'lgan. Buddizmning Xitoy sharoitiga moslashishi – modernizasiyasidagi uning xizmati – “G'arb jannati”, “Sof tuproq” homiysi bo'lgan Amitaba kultiga e'tiqod qilishning joriy etilishi va shu orqali xitoy va yapon amidizmining boshlanishiga asos solishidir. Amitaba kulti, Maytreyya kulti kabi xitoyda farovon hayot va jannati kelajak haqidagi orzular bilan uzviy bog'liq. Maytreyya izdoshlari bilan o'zaro munosabatda Xitoy amidistlari, ayniqsa szintu (“Sof tuproq”) sektasi tarafdorlari yashirin jamiyatlar va dehqonlar qo'zg'olonlari faoliyatida ishtirok etishgan.



**Lamaizm.** Bizga ma'lumki buddizm o'zining ilk shakli Xinayana (txeravada) orqali Janubiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlariga tarqaldi. Buddizmning maxayana oqimi Xitoy va YAponiyaga kirib borgan. So'nggi o'rta asrlarda xinayana va ko'p darajada maxayana buddizm asosida Tibetda uning o'ziga xos shakli – Lamaizm vujudga keldi.

Lamaizm buddizmni o'ziga xos so'nggi, rivojlangan shakli bo'lganligi sababli o'zining tugallangan qiyofasiga erishdi. SHu sababli hozirgi kungacha uning e'tiqodini asosi bo'lgan. Tibet Dalay-lamalari nafaqat lamaistlar uchun balki Xinayana va maxayanaga e'tiqod qiluvchilar uchun ham o'ziga xos ramz hisoblanadi.

Lamaizmning g'oyaviy asosi buddizm bo'lsada tibetliklarning ungacha bo'lgan mahalliy dini bon (bon-po) o'zining animistik tasavvurlari bilan ham uning ilk manbasi hisoblanadi. Buni Lamaizmni xudolari va e'tiqod marosumlari bilan tanishishda qadimgi tibetliklar va mug'ullarning tomonlik tasavvurlarini saqlanganligida ham ko'rish mumkin. So'nggi o'rta asrlarda (VIII-XV asr) shakllangan lamaizm xinayana va maxayananing maktab-sektalari bilan birga tantrizm vajrayanasi o'ziga xos sintezi asosida vujudga keldi. Tantrizmning ildizi qadimgi xosildorlik e'tiqodi va uning marosimlariga borib taqaladi. Qadimgi Xindlarning najot izlash, mokshi va pirvana haqidagi ta'limotlari hamda qadimgi marosimlari braxmanizm va ilk buddizm ta'siri ostida yangicha qiyofaga ega bo'ldi. Darani haqidagi ta'limot-tantrizm vujudga keldi va Hinduizm bilan Lamaizmni shakllanishida muhim rol o'ynadi. Mustaqil oqim sifatida I ming yillik o'rtalarida shakllangan buddizm tantrizmi o'zining nisbatan mukammal falsafiy asosiga ega. Aynan Budda tantresti mandal – olamning o'ziga xos chizma diagrammasi kiritilgan. Budda tantrasining falsafiy asosiga kalachakra, ya'ni "vaqt aravasi» ni ham kiritish mumkin. Bunga ko'ra 60 yillik hayvonlar sikli sansaraning karma olamidagi odamning aylanib kelishini ifodalaydi.

Lamaizm ko'pgina Markaziy Osiyo xalqlari tarixida katta rol o'ynagan. Lamaizm ta'limoti Dalay-lamani ulug'lab, Tibetni buddizmning muqaddas markaziga aylantirdi. Tibet oxirgi bir necha asrlar davomida XXR tarkibiga kiritilishiga qaramasdan o'zining milliy diniy va siyosiy avtonomiyasini saqlab kelmoqda. Biroq XXR tashkil topishidan so'ng 14-Dalay-Lama bir qancha lamalar va dunyoviy kishilar bilan (yuz ming kishigacha) Tibetni tark etishga majbur bo'ldi. U Hindistonning Himolay oldi hududlariga o'rtnashib, o'z tarafdorlari bilan yangi lamaizm ibodatxonalarini kurib lamaizmning yangi diniy markaziga asos soldi.

**Xristianlikning** O'zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katolisizmdir. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo'lgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga YUstin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta'mirlandi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda armanlar taxminan O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o'n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo'nalishiga qiziqish ortdi. Bunga bir tomondan koreyslarning o'z qarindosh-urug'lari bilan diydor ko'rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo'ldi. Xorijdan ular ma'lum bir diniy oqim ta'siriga tushib, O'zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta'limotlarini targ'ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQSHlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag'ga ega bo'lgan protestantizm yo'nalishi markazlarining hisobiga mahalliy koreys millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar.

O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo'nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo'nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. Hozir O'zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo'nalishidagi cherkovlar hamda birgina metodistlik yo'nalishiga oid cherkov faoliyat ko'rsatmoqda.

Rossiyada hamda O'rta Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asrning boshlarida paydo bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdagi birinchi jamoasi 1910 yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga etgan. Jamoa 1912

yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917 yildan so'ng umumiy soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. SHu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-Sharqiy ittifoqi tarkibida 1925 yili O'zbekistonda adventistlarning O'rta Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi.

1976 yil 26 avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. SHuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1967 yili Toshkentda V.A. SHelkov boshchiligidagi adventist-islohotchilar paydo bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ularning faoliyati hozirgi davrga qadar davom etib kelmoqda. Adventistlar respublikaning besh hududiy tuzilmasida 9 ta cherkoviga ega.

Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 yil 2 iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 yil oktyabr oyida "Samarqand jamoasi" tuzildi.

1921 yildan e'tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 yilda Toshkent baptistlar qurultoyida O'rta Osiyo baptistlar ittifoqi, so'ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo'limi tuzildi.

1946 yildan O'zbekiston hududida evangelchi xristian-baptistlar (EXB) jamoasi sifatida qayd etildi, 1948 yil oktyabr oyidan esa T. Penkov Butunittifoq eXB kengashining O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930-yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi. 1958 yilga kelib O'zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. SHu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko'rsatgan.

1964 yilda bu jamoalar norasmiy O'rta Osiyo evangelchi xristian baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik «Osiyo janubi bo'yicha baptist birodarlar kengashi» deb nomlandi. 1992 yil noyabr oyida Moskvada bo'lib o'tgan baptistlarning 1-qurultoyida evangelchi xristian baptistlar ittifoqi federasiyasi evro-Osiyo eXB ittifoqi nomiga o'zgartirildi. eXBIF respublikaning 8 ta hududiy tuzilmasida o'zining cherkovlariga hamda markaziy boshqaruv organiga ega.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan To'liq Injil xristianlarining (Pyatidesyatniklik) asrimiz 20-yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30-yillarga kelib ularning soni 950 kishiga etdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo'lsalar-da, Toshkent jamoasi markaziy o'rin tutdi. 1945 yilga kelib baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to'liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992 yildan e'tiboran rasmiy faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Respublikamizda mavjud bo'lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e'tirof qilingan ta'limotdir. U protestantizmdagi eng yirik yo'nalishlardan biri hisoblanib, tarafdorlari taxminan 75 million kishini tashkil etadi. Lyuteranlar diniy ta'limoti XVI asrda evropa Reformasiyasida M. Lyuter va uning tarafdorlari, birinchi navbatda, Melanxtonning kuch-g'ayrati bilan qaror topdi.

1989 yildan e'tiboran Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va O'rta Osiyodagi evangelchi-lyuteranlar cherkovi tarkibiga birlashtirilib qayd etildi. Hozirgi vaqtga qadar uning rahbari Georg-Fridrix-Karl Krechmar hisoblanadi. Lyuteranlarning oliy huquqiy organi Bosh sinoddir.

Mazkur cherkov MDH mamlakatlarida 5 eparxiyaga bo'lingan bo'lib, uning markazlari Moskva, Omsk, Odessa, Almati hamda Toshkentda joylashgan.

Evangelchi-lyuteranlar O'zbekiston hududida 1877 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1884 yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890 yilda arxitektor A.L. Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

O'zbekistonda yana bir cherkov Novoapostollik cherkovi bo'lib, u xristian dinining protestantlik yo'nalishiga mansub oqimdir. Novoapostol cherkovi O'zbekistondagi faoliyatini 1992 yildan boshlagan bo'lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Navoiy shaharlarida ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekistondagi Novoapostol cherkovlari Berlin-Brandenburg okrugi tasarrufidadir. Uning apostol-prezidenti Fris SHreder.

O'zbekistonda «Iegova shohidlari» protestant yo'nalishidagi diniy tashkilot ham faoliyat yuritmoqda. Mazkur diniy sektaga 1870 yilda amerikalik ishbilarmon CH.T. Rassel tomonidan asos solingan. Sektaning markazi Bruklin shahri Akioda joylashgan va 15 a'zodan iborat bo'lgan «Rahbar korporasiya»gagina bo'ysunadilar.

Ayrim manbalar O'rta Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40-yillapida paydo bo'lganligini bildiradi. O'sha davrda ular o'zlarini «kanalistlar» deb atab kelganlar.

Iegova shohidlari nomi sifatida O'zbekistonda 1994 yildan Toshkent hamda Farg'ona viloyatlarida rasmiy ro'yxatdan o'tdi. 1998 yil yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilinganidan so'ng qayta ro'yxatdan o'tish uchun respublikaning 3 ta hududiy tuzilmasidagi tashkilotlari hujjatlarini joylardagi adliya bo'limlariga topshirgan.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Buddaviylik oqimlari: janubiy buddaviylik (xinayana), maxayana. Ularni farqi nimada.
2. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari haqida gapirib bering.
3. Xristianlikning paydo bulishi va asosiy yunalishlari
4. O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi

## **MAVZU BO'YICH TESTLAR**

### **1. Buddaviylik ta'limotining asoschisi kim?**

1. Iso Masih
2. Muso
3. Surayk ibn Fatak
4. Sinxarta Gutama

### **2. Buddaviylik dini qachon va qaerda vujudga kelgan?**

1. Millodiy I asrda Hindistonda
2. Milloddan avvalgi III asrda Rim Imperiyasida
3. Milloddan V-VII asrlarda Hindistonda
4. Milloddan avvalgi VI asrlarda Hindistonda

### **3. Mashxur "Tibb qonuni" asarining muallifi kim?**

1. Gippokrat
2. Ibn Rushd
3. Ibn Sino
4. I. P. Pavlov

### **4. Buddaviylik ta'limotining asosiy uch bosqichi bu...**

1. Ta'lim, tarbiya, donolik.
2. Meditatsiya, donolik, Ta'lim-tarbiya
3. Axloq, Meditatsiya, Donolik.
4. Axloq, Tarbiya, Meditatsiya

**5. Buddaviylik dinining asosiy manbasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.**

1. Tavrot
2. Injil
3. Tripitaka
4. Avesto

**6. Xristianlik so'zi qaysi istilohdan olingan?**

1. Masih – siylangan so'zining yunon tilidagi shaklidan.
2. Arab so'zidagi bo'ysunishdan.
3. Iso Masih tug'ilgan joy Nazaret – nasroniyadan.
4. Ya'qub payg'ambarning o'g'li Yahudo nomidan.

**7. Xristianlik dinining asoschisi kim?**

1. Muhammad.
2. Gautama.
3. Iso Masih.
4. Muso.

**8. Nasroniylik qachon paydo bo'ldi?**

1. Eramizgacha II asrda
2. Eramizning I asrida
3. Eramizgacha III asrda
4. Eramizning II asrida

**9. Katolik oqimidagilar Iso Masihning erdagi noibi deb kim hisoblanadi?**

1. Vatikan
2. Cherkov
3. Rim Papasi
4. Kardinallar

**10. Xristianlikning muqaddas kitobi qaysi?**

1. Veda.
2. Tavrot.
3. Bibliya.
4. Zabur.

## BUDDIZM

- ▶ **BUDDIZM**- dunyodagi eng yirik dinlar ichida qadimiylaridan biri hisoblanib, mil. av. VI-V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan.



## BUDDIZMNING VUJUDGA KELISHI



- ▶ Buddizm bundan 2500 yildan avvalroq Hindistonda diniy-falsafiy ta`limot sifatida vujudga kelib, unda ko`p diniy manbalar va diniy yo`nalishlar mavjuddir.

# TA`LIMOTI

- ▶ U vedalardagi gunohsizlik ta`limotini inkor qildi.
- ▶ Hayvonlarni yaxshiyona qurbon qilishni qoraladi.
- ▶ VARNA tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.
- ▶ Buddha "yaratuvchi oliy kuch" ning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan.
- ▶ Inson o`ziga hos mavjudot, tug`iladi, o`zini-o`zi halok qiladi yoki qutqaradi.

# TO`RT HAQIQAT



- ▶ Azob-uqubat mavjuddir.
- ▶ Qiynoqlarning sabablari mavjuddir.
- ▶ Qiynoqlarni tugatish mumkin.
- ▶ Qiynoqlardan qutulish yo`li mavjuddir.

## BUDDIZM TA`LIMOTI

- ▶ T`limoti asosan uch qismdan iborat:
- ▶ Axloq.
- ▶ Meditatsiya.
- ▶ Donolik.



## PANCHA SHILA



- ▶ Buddaning besh nasixati:
- ▶ Qotillikdan saqlanish.
- ▶ O`g`rilikdan saqlanish.
- ▶ Gumrohlikdan saqlanish.
- ▶ Yolg`on, mast qiluvchi narsalardan saqlanish.
- ▶ Mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

# MEDITATSIYA

- ▶ To`g`ri tushunish.
- ▶ To`g`ri niyat qilish.
- ▶ O`zini to`g`ri tutish.
- ▶ To`g`ri anglash.
- ▶ To`g`ri harakat qilish.
- ▶ To`g`ri hayot kechirish.
- ▶ To`g`ri fikr yuritish.
- ▶ To`g`ri gapirish.



# DONISHMANDLIK

- ▶ Bu buddizmning asosiy maqsadi bo`lib, narsalar tabiatini to`g`ri tushunishdan iborat.
- ▶ Ko`rsatilgan uch amaliyot bosqichini o`tagan inson oxir-oqibat oliy saodatga, ya`ni "**nirvana**" holatiga erishadi.
- ▶ Nirvana-o`chish, so`nish.



# MANBALARI

- ▶ Buddizm ta`limoti bir qator kitoblarda aks ettirgan. Ulardan eng asosiysi: **TRIPITAKA- "UCH SAVAT"** ma`nosini anglatadi.
- ▶ U **sutra, vinaya, abxidxarma** matnlaridan iborat



## **Xristianlik atamasi e'tiqodni anglatish ma'nosida Antioxiyada (suriya) 42 – yilda vujudga kelgan**

Xristianlik dini millodning.boshida falastin (rim imperiyasining shimoliy-sharqiy qismi) erlarida vujudga kelgan.

**ASOSIY G'OYASI: Xudoning o'g'li Xudo Odam**  
**Isoning odamzodning xaloskori, ya'ni oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta'limot yotadi.**

Iso masih (Iisus Xristos) 747 yilda falastinning nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi.



**Xristianlik dini 311 yilda rasman ruxsat berilgan dinga aylanib, imperator konstantin 324 yilda davlat dini deb e'lan qilgan.**

**Xristianlik diniy ta'limotining asosiy mazmuni quyidagicha: Xudo muqaddas uchlikda namoyon bo'ladi, ya'ni Xudo uch qiyofali (troitsa) lekin yagonadir. Ota–Xudo, o'g'il–Xudo, muqaddas ruhdan iborat. biroq bu qiyofalar ayni paytda shaxslariga farq qiladi: Xudo – ota tug'ilish yo'li bilan paydo bo'lmagan, uni hech kim yaratmagan. o'g'il – Xudo esa, tug'ilgan. muqaddas ruh esa, Xudo – otadan pado bo'lgan.**

Iso masih o'z ta'limotini 12 apostol (havoriy)ga o'rgatgan



**Xudo kosmik tartibni insonga bog'liq qilib qo'ydi, biroq inson o'zining irodasini, erkini Xudo erki va irodasiga qarama-qarshi qilib qo'yganligi uchun abadiy gunohkorlikka mahkum qilgan: cho'qintirish yo'li bilan Xudo odamlarga najot yo'lini ochib bergan.**

Iso masih 33 yoshida apostollardan biri – **Iudaning xiyonati** bilan quddus ruhoniylari tomonidan mamlakat qonun va an'alarini buzishda **ayblanib**, sud qilingan va golgof tog'ida chormig'ga tortilib **qatl qilingan.**



**Xristianlikni vujudga kelishiga quyidagi 4 sabab asosiy rol o'ynagan:**

- 1. Rim imperiyasidagi tartibsizlik;**
- 2. Falastin podshosi irod Antip zulmi;**
- 3. Ruhoniylarning xalqni soliq va majburiyatlarga ko'mganligi;**
- 4. Yahudiylar orasida xaloskor kelishi haqidagi xabarlarning kuchayishi.**

Rim faylasufi seneka va yahudiy faylasufi filonlarning falsafiy axloqiy qarashlarning xristianlik mafkurasini ishlab chiqishda roli katta bo'lgan.



**Xristianlikni tarqalishiga quyidagi 4 sabab asosiy rol o'ynagan:**

- 1. Elat, millat ajratmaydiga din ekanligi;**
- 2. Barcha mazlumlar manfaatini ifodalanganligi;**
- 3. Unda missianerlik, ya'ni dinni targ'ib qilish kuchliligi;**
- 4. Sinfy va milliy farqlarni birlashtirganligi**



## **XRISTIANLIKDAGI ASOSIY AQIDALAR QUYIDAGILARDAN IBORAT:**

- 1. Xristianlikda iymon kalimasi;**
- 2. Xudoning gavdalanish aqidasi;**
- 3. Gunohni yuvish aqidasi;**
- 4. Osmonga chiqib tushish aqidasi;**
- 5. Isoning qayta tirilishi aqidasi;**
- 6. “Xudo oldida hamma tengdir” aqidasi.**



## **XRISTIANLIKDAGI MAROSIM VA BAYRAMLAR QUYIDAGILAR;**

- 1. Cho'qintirish marosimi;**
- 2. Nikoh marosimi;**
- 3. Tovba qilish marosimi;**
- 4. Rojdestva (Iso payg'ambar tug'ilgan kun) bayrami;**
- 5. Pasxa bayrami.**

**BIBLIYA – XRISTIANLIKNING MUQADDAS  
KITOBI BO'LIB, U 2 QISMDAN “ESKI AHD” VA  
“YANGI AHD” DAN IBORAT.**

“Yangi ahd” 27 kitobdan ya'ni: 4 ta  
“injl” (ya'ni xushxabar),  
havoriylarning (iso shogirdlari)  
amallari, targ'ibotchilarning 21  
risolasi, ioann (ilohiyotchi olim)ning  
“vahiynomasi” dan iborat.



**Pravoslavlik – o'rta Osiyoga XIX asrning o'rtalarida chor  
rossiyasi tomonidan istilo qilingandan so'ng kirib keladi.  
1871 yilda rus imperatorining buyrug'i bilan toshkent va  
turkiston eparxiyasi tashkil etilgan.**

2011 yildan rus pravoslav cherkovi  
toshkent va o'zbekiston Eparxiyasi  
deb nomlanadi.



**KATOLIK** – “umumiy, dunyoviy” degan ma'nolarni anglatadi. katolik diniy ta'limot va cherkov tashkiloti sifatida asosan 1054 yilda cherkovlar bo'linishidan keyin vujudga kelgan

- *Bu ta'limot o'rta asr faylasufi, foma Akvinskiyning diniy ilohiy qarashlariga asoslanadi.*
- *U Evropa, Osiyo, Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlariga keng tarqalgan bo'lib taxminan 800 mln kishini tashkil etadi.*



**PROTESTANTIZM** – xristianlikning 3 asosiy oqimlaridan biri bo'lib, 16 asrda Evropada katoliklarga qarshi qaratilgan reformaviya davrida vujudga kelgan.



- unga ko'ra, xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi, jonning o'lmasligi, jannat va do'zax to'g'risidagi umumxristianlik tasavvurlarni e'tirof etadi.

## Xristianlikdagi oqimlarning aqidaviy bir biridan farqi:

### ➤ Ruhoniylar ning oila qurish masalasida:

- ✓ **katoliklarda** ruhoniylar uylanmaslik shart (uelibat);
- ✓ **pravoslavlarda** faqat monaxlar (qora ruhoniylar) uelibatga rioya etib, oq ruhoniylar oila qurishlari mumkin;
- ✓ **protestanlarda** ruhoniylar oila qurishi mumkin.

## 13-MAVZU. ISLOM DINI TARIXI VA FALSAFASI

Reja:

1. Islom dinining paydo bo'lishi.
2. Islom dinining asosiy manbalari
3. Kalom va tasavvuf falsafasi

**Johiliya davri.** «Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik», ya'ni «yagona xudo – Allohni tanimaslik» ma'nolarini beradi. Bu istiloh musulmon mualliflari tomonidan Arabiston yarim orolining islomdan oldingi davr tarixiga nisbatan ishlatila boshlandi. Bu bilan yangi davr tarixchilari qadimgi davrda Ichki Arabiston aholisi orasida «ko'pxudolik» (*al-Vasaniya*) hukm surardi, degan fikrga urg'u berishni istaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri 100-200 yil davom etgan degan fikrni bildiradilar. Biroq ushbu davrning qancha muddat davom etganligini aniqlash birlamchi manbalar, birinchi navbatda, yozma adabiyotning ozligi, ba'zida butkul yo'qligi tufayli juda mushkul.

Arab erlari Osiyoning janubi-g'arbidagi yarim orolda joylashgan bo'lib, shimol tomondan – SHom (Suriya) sahrolari, Sharqdan Fors (Arab) ko'rfazi, Umon dengizi, janub tomondan Hind okeani va g'arbdan Qizil dengiz bilan chegaralangan. Mana shu bepoyon o'lka bu erda yashagan somiy tillarning birida so'zlashuvchi arablar nomi bilan Arabiston yarim oroli deb atalgan. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, islom paydo bo'lish arafasida yarim orol hududida madaniyat nuqtai nazaridan uch sivilizasiya mavjud bo'lgan:

1. mustaqil ma'noga ega bo'lgan Janubiy Arabiston (tili – janubiy arab tili);
2. nisbatan chetki ta'sirlardan uzoqroqda joylashgan Ichki Arabiston;
3. Vizantiya va Eron imperiyalari madaniy an'analari bilan bog'liq Shimoliy Arabiston.

Islomning paydo bo'lishi tarqoq arab qabilalari uchun olamshumul voqeaga aylandi. Tarixda birinchi arab davlati –Arab xalifaligi vujudga keldi. Arab istilolari oqibatida mazkur uch sivilizasiyalar vakillari aralashib ketdi. Lekin ularning o'tmishdagi nisbiy mustaqil rivojlanganliklari *arablar nasabi* haqidagi tasavvurda saqlanib qoldi. Unga binoan, arablarning barchalari nasab jihatidan ikki katta avlod vakillaridir: *qahtoniylar – janub arablari, adnoniylar – shimol arablaridir*. Mana shu ikki avloddan barcha arab qabilalari tarqalgan. Lekin, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mazkur tasavvur VII asr oxirlari-VIII asr boshlarida Suriya va Iroqda hokimiyat uchun harbiy kurash olib borgan arab qabilalari ittifoqlari (Kalbiylar, Asadiylar va boshqalar) vakillari tomonidan shakllantirilgan. Qadimgi arablar orasida ko'chmanchilik mafkurasi qoldiqlari,

qabilaviy tuzum tasavvurlari kuchli bo'lsada, islom dini paydo bo'lishi davrlarida ularning katta qismi (2/3) o'troq holda shahar va qishloqlarda yashaganlar. Islom dini shakllangan va rivojlangan Makka va YAsrib shaharlari YAqin Sharq sivilizasiyasi qadimiy markazlaridan nisbatan uzoqroqda joylashgan. Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o'z ichiga olgan qismini qadimdan Hijoz deb atalgan.

Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelgunga qadar «*ko'pxudolilik*» e'tiqodi hukm surardi. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm elementlari va o'tmish ajdodlar ruhiga sig'inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalili sifatida ko'pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: *asad* "arslon", *kalb* "it", *bakr* "bo'taloq", *sa'lab* "tulki", *zi'b* "bo'ri" va h.k. Barcha somiy xalqlarga xos bo'lgan samoviy jismlarga sig'inish, ya'ni astral kultlar arablar orasida ham keng tarqalgan edi. Bu haqda Makka Ka'basida joylashgan «Qora tosh» (*al-Hajar al-asvad*) ham dalolat beradi.

Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar kulti bir vaqtda paytda paydo bo'lgan emas, albatta. Ular uzoq vaqt shakllanganlar. Biroq, keyingi davr islom tarixchilarning xabar berishlariga qaraganda, Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ'ib qilgan shaxs Amr ibn Luhay ismli kishi bo'lgan. Rivoyatga ko'ra, u SHomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turar edi. Amr ibn Luhay ba'zi shomliklar odatlaridan qattiq ta'sirlanib, ularning butlaridan birini Makkaga olib kelgan. Keyinchalik butlarga sig'inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlarga sig'inish – dinning yangi bosqichi bo'lgan. Ibn al-Kalbiyning (v. 763 y.) «Kitob al-asnom» asarida ta'kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o'z sanamiga ega edi. Tez-tez bo'lib turadigan qabilalararo urushlardan so'ng, odatda, mag'lub qabila g'olib qabila sanamiga sig'ina boshlardi. Ba'zida g'olib qabila mag'lub qabilaning sanamini ham o'z sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi. Arabistonning turli erlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi. Ulardan biri Makka Ka'basi edi. Makka eski Arabistonning diniy markaziga aylangach, u erdagi Ka'baga sanamlar to'plandi. Ibn al-Asirning (vafoti 1232 y.) uqtirishicha, Makka fath etilgan 630 yili Ka'ba ichida 360 ta sanam bo'lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda katta ko'rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ehtirom qilingan bo'lsa, u Ka'baga shuncha nusxada qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Islomdan oldin Arabistonda yahudiy jamoalari mavjud bo'lgan. Arabiston yahudiylari haqida, asosan, Qur'on, hadis, tafsir, *sira* (Payg'ambar hayoti va muqaddas urushlari haqida hikoya qiluvchi adabiyot janri) va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan va hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi – YAngi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, mil. av. 552-542 yillarda SHimoliy Arabistondagi Tayma shahrini o'ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu erdagi shaharlarni o'zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko'chirgan; ularning ko'pchiligini yahudiylar tashkil qilgan. Ma'lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganida salkam 30 ming yahudiyni asir olib, Bobilga keltirgan va «Bobil asirligi» 50 yil davom etgan edi. SHundan so'ng ham ba'zi yahudiylar Falastinga qaytmay, Bobilda qolib ketgandilar.

Arabiston yarim orolida yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldi. Xristianlar bu erda keng targ'ibotchilik ishlarini olib borar edilar. Ular Arabistonga qachon kirib kelganligi noma'lum. Odatda, targ'ibotchilar tibb va mantiq ilmidan xabardor, kishilar qalbiga yo'l topa oladigan odamlar bo'lganligi uchun ko'pgina qabila boshliqlariga ta'sir etganlar, ularning xristian dinini qabul qilishiga yoki o'zlarining olib borayotgan faoliyatlarida yordam berishiga erishganlar. Islomga qadar Arabiston yarim orolining deyarli barcha hududlarida xristian rohiblari muntazam ravishda din targ'iboti bilan shug'ullanar edilar. YUqorida aytib o'tilganidek, xristianlikning Arabiston yarim oroliga qachon kirib kelgani aniq ma'lum emas.

Hijoz shaharlariga xristianlar (Sharqiy cherkovlar vakillari) asosan Vizantiya qaramog'i ostidagi Falastin va SHomdan ko'chib kelganlar. Islom vujudga kelishi arafasida Dumat al-Jandal, Eylat, Tayma, YAsrib, Makka va Toifda ham talaygina xristianlar bor edi. Habashiston xristianlari bilan aloqalar haqida efiop askarlarining yurishlari va ilk musulmonlarning hijralari dalolat beradi.

Qadimgi Arabiston jamiyatida «haniflar» nomi bilan ma'lum bir jamoa mavjud edi. Bu jamoa vakillari diniy tasavvurlarini fanda «noma'lum monoteizm» deb atash qabul qilingan. Ular sanamlarga sig'inmas, balki yagona Xudoga ibodat qilar hamda ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilishar edi. Ular bir erda muqim turmay, o'lka bo'ylab darbadar hayot kechirardilar. Ushbu



toifa kishilaridan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh va Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayyidolarni keltirish mumkin. Ular keyinchalik ilk islom jamoasida ma'lum mavqega ega bo'ldilar.

**Muhammad payg'ambar hayotlari.** Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al-Muttalib Makka va uning atrofi tarixida «Fil voqeasi» nomi bilan mashhur bo'lgan jangdan 50 kun keyin tavallud topdi. Misrlik munajjim Mahmud poshoning aniqlashicha, Payg'ambarning tavallud topishlari milodiy sananing 571 yil 21 aprel kuniga to'g'ri keladi. Otasi Abdulloh Qurayshning Banu Hoshim, onasi Omina bint Vahb – Banu Zuhra urug'idan edilar.

Ota-onadan etim qolgan Muhammad payg'ambar to 8 yoshgacha bobosi Abdulmuttalib qo'lida tarbiyalandi. So'ngra uni amakisi Abu Tolib o'z himoyasiga oldi. Payg'ambar yoshlik chog'larida ikki marta SHomga, bir marta YAmanga karvon bilan safarga chiqdi.

Arablar orasida o'zaro qon da'vosi sababi bilan bo'lgan urushlarning eng og'ir kechgani «Fijor jangi» hisoblanadi. Islomdan avval ham arablarda Muharram, Rajab, Zulqa'da va Zulhijja oylari muqaddas sanalib, ularda urush taqiqlangan edi. Mazkur urush mana shu oylarda bo'lganligi uchun unga «Fijor jangi» - «Gunohkorlar urushi» deb nom berilgan. Bu urushda Quraysh tarafida Muhammad payg'ambar ham unda ishtirok etdi. To'rt yil davom etgan bu urush sulh bilan nihoyalandi.

Muhammad payg'ambar 25 yoshga to'lganida Banu Asad urug'idan bo'lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylidga uylandi. Muhammad payg'ambarning etti farzandidan (Moriyadan tug'ilgan Ibrohimdan boshqa) 6 tasi (Zaynab, Umm Kulsum, Ruqayya, Fotima, Qosim, Abdulloh)ning onasi Xadicha bint Xuvaylid edi.

Makkadagi Ka'ba binosi ustida tomi bo'lmaganidan, yomg'ir suvlari uni emirib yuborgan edi. Keyinchalik binoni sel oqimidan saqlash uchun bir to'siq qurilgan bo'lsa-da, u ham yillar o'tib emirilgan edi. Payg'ambar davrida Makka ahli Ka'bani yangidan qurishga qaror qildilar. Bu qurilishda Payg'ambar ham qatnashdi.

**Vahiy nozil bo'lishining boshlanishi.** Muhammad payg'ambar 40 yoshga etganida ko'proq yolg'izlikni qo'msaydigan bo'lib qoldi. Shunday paytlarda Makkadan 3 mil uzoqdagi Hiro tog'ida joylashgan g'orga chiqib ketar, erlik aholi odaticha ramazon oyini u erda ibodat bilan o'tkazardi. G'amlagan ozuqalari tugagach, Xadicha oldiga qaytib, bir oz vaqtdan so'ng yana o'sha g'orga ketar edi. U erda o'zini sukunatga berib, chuqur o'yga tolar, g'oyibdan quloqlariga «Sen Allohning elchisan» degan tovushlar eshitilar edi. Ko'p tush ko'rar, tushida ko'rgan narsalari o'ngida to'g'ri chiqar edi.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, shu holda nozil qilingan «Alaq» surasining boshidagi besh oyat ilk vahydir. Xadicha bu xabarni yaxshilikka yo'yib, Varaqa ibn Navfal nomli samoviy kitoblardan boxabar bo'lgan qarindoshining huzuriga borib, bu voqeaning tafsilotini so'radi. SHundan so'ng Muhammad payg'ambar yashirin da'vatga o'tdi. Birinchi bo'lib Xadicha bint Xuvaylid va amakivachchalari Ali ibn Abi Tolib islomni qabul qilishdi. Vaqt o'tishi bilan musulmonlar soni 30 kishiga etdi. Ular o'z dinlarini yashirin saqladilar. Bu holat uch yil davom etdi.

Ochiq da'vatdan so'ng Makka mushriklari Abu Bakr, Usmon ibn Affon kabi islom qabul qilgan ulug' va badavlat zotlarga hech narsa deya olmas ham, ammo zaif, kambag'al, himoyasiz musulmonlarni qattiq siquvga oldilar. Habashistonga borishni istagan 11 erkak va 4 ayoldan iborat bo'lgan birinchi guruh Makkadan yashirin ravishda chiqib, Qizil dengiz bo'ylab ketdi. Ularning ichida Usmon ibn Affon va xotini Ruqayya (Payg'ambarning qizi), Abu Huzayfa va xotini, Zubayr ibn al-Avom, Abdurrahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Mas'ud bor edilar. Guruh boshlig'i Usmon ibn Maz'un edi. Bu 15 kishi vahyning beshinchi yili Habashistonga (Oqsum podshohligi) etib keldilar. Ularni Habashistonda xristianlar juda yaxshi kutib oldilar. U erda yaxshi, sokin hayot kechira boshladilar. Ularning bunday osoyishta hayot kechirayotganliklarini eshitgan boshqa musulmonlar ham bir yildan so'ng ikkinchi guruh hoida u erga hijrat etdilar. Bu guruhning boshida Ja'far ibn Abi Tolib (Alining akasi) bo'lib, ular 80 kishi edilar. Habashiston xalqi va uning podshohi Najoshiy muhojirlarga juda yaxshi munosabatda bo'ldilar.

Makkaliklarning qattiq qarshiliklaridan ko'p ozor chekkan Payg'ambar Toifga yo'l oldi. Biroq toifliklardan hech kim islomni qabul qilmadi. SHu qiyinchilik yillarida «Isro va Me'roj» voqeasi yuz berdi. Qur'ondagi «Isro» va «Najm» suralarida bu hodisa haqida so'z yuritilgan.

Da'vatning o'ninchi yili haj mavsumida Payg'ambar Makkaning shimolida «Aqaba» deb ataladigan bir tepalikda YAsrib (Madina) shahridan kelgan olti kishini uchratib, ularni islomga da'vat etdilar. Ular islomni qabul qildilar. Ushbu uchrashuv islom tarixida «Birinci Aqaba bay'ati» deb nom oldi. Unda As'ad ibn Zarora, Rafi' ibn Molik, Avf ibn Horis, Qutba ibn Omir, Uqba ibn Omir, Jobir ibn Abdullohlar Payg'ambarga din shartlarini bajarishga «bay'at» (qasamyod) qildilar. Keyingi ikki haj mavsumida ham Aqaba bay'ati bo'lib o'tdi. Ikkinchi uchrashuvda madinaliklardan 12 kishi, uchinchisida esa 75 kishi ishtirok etdilar. Bu voqealar so'ng Payg'ambar Madinaga hijrat qilmoqlikka qaror qildi.

**Madina davri.** Madinalik «ansor» (yordamchi)lar makkalik (muhojir)larni samimiy kutib oldilar. Muhammad payg'ambarning Madinaga ko'chib o'tishi rabi' al-avvalning 8-kuni, milodiy 622 yil 20 sentyabrda yuz berdi.

Islomning Madinadan keyingi davri uning tarixida juda katta ahamiyatga ega. Musulmonlar birinchi marta alohida diniy jamoa (Umma) bo'lib yashay boshladilar. Bu esa o'z navbatida diniy qoidalarining shakllanishini tezlashtirib yubordi. Asta-sekin namoz, azon va boshqa amallar tartibga solindi. Payg'ambar bu shaharga uchinchi taraf vakili sifatida taklif etilgan edi. Avval, murosasiz *Avs* va *Xazraj* arab qabilalari hamda *Banu Qurayza*, *Banu Qaynuqo'*, *Banu Nadir* yahudiy qabilalari bilan o'zaro sulh tuzildi.

Hijratning ikkinchi yili ramazon oyida (mil. 624 y.) musulmonlar ummasi qo'shinlari va makkaliklar o'rtasida *Badr* jangi bo'ldi. Bu jang Madinadan 80 mil (taxminan 150 km.) uzoqda Suriya karvon yo'lida joylashgan *Badr* qudug'i yaqinida bo'lib o'tdi. Murosasiz kechgan jang musulmonlar g'alabasi bilan tugadi. Bu jangdan so'ng Umma mavqei Madina ahli orasida beqiyos o'sdi. SHu davrdan boshlab Muhammad payg'ambar etakchiligidagi islom jamoasi kuchli bir davlatning vazifalarini bajara boshladi. Madina ichidagi Payg'ambar muxoliflari *munofiqun* nomini oldi. Barcha arab qabilalari *mushrik* deb e'lon qilindi. Ular yoki islom dinini qabul qilishlari yoki ochiq maydonga jangga chiqishlari shart edi. Bu jamoa-davlat qisqa va uzoq muddatli sulh shartnomalarini tuzish orqali turli arab qabilalari va qabilalar ittifoqlarini o'z hukmiga bo'ysindira boshladi. Bo'ysingan qabilalar har yili jonivorlari hisobidan Madina davlatiga Umma-davlat xarajatlari uchun *sadaqa* (mol to'lovi) bermoqlari lozim edi. *Sadaqa* bermaganlarga qarshi harbiy yurishlar tashkil etilardi. O'ljadan to'lovga o'tish (Makkaning fathidan so'nggi davrda) davlatning shakllanishi haqida dalolat beradi.

Yahudiy, xristian va *sobi'lar ahl al-kitob* mavqeiga ega bo'lishdi. Ular Madina davlati xazinasiga har bir voyaga etgan erkak boshidan to'lov (*jizya*) yig'ib berib, o'z ijtimoiy-diniy avtonomiyalarini saqlab qolish huquqiga ega bo'ldilar. Ammo Madina davlatining asosiy muxolifi Makka jamoasi bo'lib qolaverdi. Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim g'alabalardan biridir.

Makka fathidan (630 y.) so'ng islom davlati Arabiston yarim orolida to'la g'alabaga erishdi. SHuni alohida ta'kidlash zarurki, Makkaning olinishi musulmonlar uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki shundan so'ng musulmonlar jamoasi Arabiston muhitida etakchi davlat va siyosiy kuchga aylandi.

Shu bilan bir qatorda Madina diniy qoida va tartiblar bir tekis shakllana boshladilar. Diniy masalalarga oydinlik kiritishga yahudiy qabilalari bilan bo'lgan mojarolar albatta o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Qiblaning Quddusdan Makkadagi Ka'baga o'zgartirilishi, *ahl al-kitobga* (yahudiylar, xristianlar, sobiylar) *ahl az-zimma* (musulmon davlati himoyasi ostidagi diniy jamoa) mavqei berilishi va islomda arabiy unsurlarning kuchayishi shu voqealar bilan bog'liqdir. Payg'ambar Umma hayotini ko'p hollarda atrofdagi odamlar uchun odatiy bo'lgan qoidalar asosida boshqardi. Muhim hollarda yangi diniy va ijtimoiy qoidalar *vahy* orqali kiritildi. Bu masalalarda biz Madina davlatini teokratik davlat deb atashimiz mumkin.

11 hijriy yil 12 rabi' I/632 milodiy yil 8 iyun kuni Payg'ambar vafot etdi. Bu bilan islom tarixida ilk davr – Qur'oniy davr yoki teokratiya davri tugadi. Bundan buyon musulmon-arab davlati tarixida podshohlar – *xalifalar*, islom dini normalarini shakllantirish va rivojlantirishda diniy ilmlar bilimdonlari – ulamolarning roli tobora oshib boraverdi.

Muhammad payg'ambar vafoti haqidagi xabar Madina ahli orasida yoyilgach, ansorlar *Umma* boshchisi – *xalifalikka* nomzod masalasini hal qilish maqsadida Banu So'ida qabilasining Saqifa nomli guzariga oshiqdilar. Bir qancha muhojirlar va ansorlar o'rtasida bo'lib o'tgan qizg'in bahs va

tortishuvlardan so'ng xalifalikka (*xalifat rasulilloh*) Abu Bakr as-Siddiqni (632-634) saylab, barcha unga bay'at qildilar. Abu Bakr diniy va dunyoviy hokimiyatni o'z shaxsida birlashtirdi. Lekin uning hokimiyatini teokratik deb atab bo'lmaydi. Chunki u Alloh bilan muloqatda emas edi, unga xalifalik ham Payg'ambar tarafidan vasiyat etilmagan edi.

Payg'ambar vafotidan so'ng ancha bo'ysundirilgan qabilalar Madina shahar-davlati yangi yo'lboshchisi Abu Bakrga to'lov (*sadaqa*) bermaslikka qaror qildi. Ba'zi bir qabilalar o'z siyosiy mustaqilliklarini qaytarib olishni o'z oralaridan payg'ambarlar chiqarish orqali ifoda etdilar. Arab davlati tarixida ushbu voqealar «*Ridda*» nomi bilan ataladi. Abu Bakr bunday xatti-harakatlarni qat'iylik bilan bostirdi. Madina shahar-davlatining arab qabilalarini o'z tasarrufiga qaytarishi yo'lidagi olib borgan urushlari Arabiston tashqarisiga chiqib, asta-sekin arab istilolariga aylanib ketdi. Bu esa o'z navbatida islomning arab milliy dinidan jahon diniga aylanishiga zamin yaratib berdi.

**Islom ta'limoti.** «*Islom*» so'zi arabcha bo'lib «*xudoga o'zini topshirish*», «*itoat*», «*bo'ysunish*» ma'nosini bildiradi. Shundan bu dinga ishonuvchilar – «Muslim» deb ataladi. Uning ko'pchilik shakli «muslimun» bo'lib, o'zbeklarda «musulmon», qirg'iz va qozoqlarda «musurmon» deb ataladi.

**Islomning asosiy aqidalari.** *Islom* so'zi arabcha – *Allohga o'zni topshirish, itoat etish, taslim bo'lish, bo'ysunish* ma'nolarini beradi. Islom dini ta'limoti bo'yicha, Muhammad payg'ambar avvalgi payg'ambarlar (O'rta er havzasi sivilizasiyasi ichida ma'lum bo'lgan) ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, *qiyomat* oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo') – nabiy va rasul deb tan olinadi.

Islom dini ichidagi uch asosiy oqimlardan biri bo'lgan sunniylikda IX asrga kelib *besht arkon* (rukn – arabcha «ustun» ma'nosini anglatadi) haqidagi ta'limot shakllanadi. Ko'pchilik ulamolar fikricha, ular quyidagilar:

- 1) imon;
- 2) namoz (arabcha – salot);
- 3) zakot;
- 4) ro'za (arabcha – savm);
- 5) haj;

**Imon.** Imon masalasida islomda (*ahl as-sunna, shi'alar, xavorijlar* ichida) avvalgi davrda turli maktablar vujudga kelib, ular shu kungacha rivojlanib kelmoqdalar. Ba'zi ta'limotlar (masalan, *mu'tazila, murji'a*) yo'qolib, yangi teologik maktablar paydo bo'lgan. SHuningdek, ko'p hollarda alohida olingan mashhur mutafakkir-ulamoning shaxsiy yo'li (*mazhabi*) ancha xususiyatlarga ega bo'ladi. *Ahl as-sunna va-l-jamoa* ichida klassik davrda ikki asosiy maktab – *moturidiylar* va *ash'ariylar* kuchli mavqega ega bo'ldilar. Masalan, *moturidiylar* nazdida aqida masalalarida quyidagicha fikr mavjud:

«Imon» so'zining lug'aviy ma'nosi *ishonmoq, tasdiqlamoq* bo'lib, istilohda esa *Lo iloha illalloh, Muhammadun rasululloh* («Allohdan o'zga ilohiyat yo'q va Muhammad – Allohning payg'ambari») *kalimasini* til bilan aytib (*al-iqror bi-l-lison*), dil bilan tasdiqlash (*at-tasdiq bi-l-qalb*) demakdir. Mazkur ta'limot boshqalaridan *imon* masalasida *amalni* alohidalashi bilan farqlanadi. Imonning etti sharti bor. Ular:

– Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya'ni Allohning Qur'oni karimda va Muhammad payg'ambar hadislarida bayon qilingan barcha *ismlari* va *sifatlariga* imon keltirish. Ibodat qilish va sig'inishga undan o'zga loyiq zot yo'q deb bilish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytargan narsalaridan qaytish. Qur'onning «al-Ixlos» (112-) surasida Alloh taoloning yagonaligini shunday ta'riflanadi: «Aytgin (Ey, Muhammad payg'ambar): Alloh yagonadir, beniyozdir (hech kim va hech narsaga muhtoj emas, balki barcha unga muhtojdir), tug'magan, tug'ilmagan va uning tengi yo'qdir» (Qur'on, 112:1-4);

– farishtalarning borligiga imon keltirish. Farishtalar (*malo'ika*) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so'zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabro'il (Jibril), Miko'il (Mikol) kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur'onda zikr etilgan. Jabro'il farishtaning vazifalaridan biri payg'ambarlarga Allohning *vahylarini* etkazish bo'lgan.

Farishtalardan ba'zilari odamlar bilan doim birga bo'lib, ularning yaxshi va yomon ishlarini yozib boradilar. Qur'onda ular «*Kirom kotibun*» (*mukarram kotiblar*) deb zikr etilgan (Qur'on, 82: 10-12). Bundan tashqari, tafsir kitoblarida Isrofil, Azro'il nomli farishtalarning ismlari qayd etilgan. Qur'on va hadislarda farishtalar haqida juda ko'p erda so'z yuritilgan. Ularga ishonish imonning shartlaridandir;

– ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh Muhammad payg'ambarga Qur'onni nozil qilganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma'lum bo'lganlari: Ibrohim payg'ambarga «Sahifalar», Muso payg'ambarga «Tavrot», Dovud payg'ambarga «Zabur» va Iso payg'ambarga berilgan «Injil» kitoblaridir. Ulardan boshqa payg'ambarlarga yuborilgan kitoblar haqida Qur'on va hadislarda xabar berilmagan. YUqorida nomlari zikr etilgan kitoblarning barchasi Qur'onda Alloh tomonidan nozil qilingan deb ta'kidlanganligi sababli ularga shunday deb ishonish imonning shartlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotiga ko'ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababidan Qur'on ularning ta'limotini tiklab kelgan;

– payg'ambarlarning haqligiga imon keltirish. Alloh insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan. Barcha payg'ambarlar bir zanjirning bo'g'inlari kabidirlar. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan. Musulmonlar uchun ulardan Qur'onda nomi zikr qilingan va zikr qilinmaganlarning barchasiga barobar imon keltirish shart;

– Oxirat kuniga ishonish. Dunyoning ibtidosi bo'lgani kabi uning intihosi ham bor. Islom ta'limotiga ko'ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud. Qiyomat kuniga va oxirat hayotiga ishonish islomning asosiy g'oyalaridan biridir;

– taqdirga – inson boshiga tushgan yaxshiligi yomonlik Allohdan ekaniga – e'tiqod qilish. YUqorida aytib o'tilganidek, islomning ma'nosi «*taslim bo'lmoq*», «*o'zini topshirmoq*»dir. SHunga binoan, inson hayotda ro'baro' bo'ladigan barcha yaxshi-yomon ishlarni o'zi uchun Alloh tomonidan belgilangan sinov va imtihon deb bilishi lozim. YAXshiliklarga shukr qilmog'i, qiyinchilik va mashaqqatlarga sabr qilmog'i imonning shartlaridan biridir;

– o'limdan keyin qayta tirilish. Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni bo'lganda barcha insonlar qabrlaridan turadilar va mahshargoh maydoniga yig'iladilar. U erda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do'zax)ga mahkum etiladilar.

**Islomning asosiy marosim talablari.** *Namoz.* Namoz – islomda imondan keyin musulmonlar ustiga farz qilingan ikkinchi amal hisoblanadi. Namoz arkonlari Qur'oni karimda to'liq bayon etilmagan bo'lsa ham, ammo u haqda ba'zi ko'rsatma va tartiblar berilgan. Namozning vaqti, miqdori hamda ado etish tartiblari hadislar bilan joriy etilgan. Bu masalada musulmonlar orasida har xilliklar mavjud bo'lib, ular negizida turli mazhab ta'limotlari shakllandi. Har kuni besh vaqt: bomdod – (tong otishidan kun chiqquniga qadar), peshin – (quyosh tikkadan oqqanidan to biron narsaning soyasi o'z bo'yiga ikki barobar kelguniga qadar), asr – (peshin vaqti chiqishi bilan to quyosh to'liq botgunga qadar), shom – (quyosh to'liq botganidan ufqdagi qizillik yo'qolguniga qadar), xufton – (shom vaqti chiqqanidan tong otguniga qadar) ado etiladi.

*Zakat.* Zakot – «poklash» ma'nosini bildiradi, ya'ni ehtiyojdan tashqari bo'lgan boylikning qirqdan bir qismini (1/40) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga etgan badavlat kishilar uchun farz etilgan. Zakot etim-esir, beva-bechoralar, musofirlar, qarzdorlar, Alloh yo'lida yurganlar, zakot yig'uvchilarga beriladi. Zakot hijriy hisob bilan bir yil davomida ishlatilmay turgan yoki shaxsiy ehtiyojdan tashqari, xususiy mulk sifatida foydalanilayotgan mablag'dan beriladi. Zakot vositasida jamiyat kishilari orasida o'zaro hurmat-e'tibor ortib, bir muncha tenglik yuzaga keladi. Bu jamiyat taraqqiyoti, tinch va osudaligi yo'lida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

*Ro'za.* Ro'za – yilda bir oy: hijriy qamariy kalendarning *ramazon* oyi davomida kunduz kunlari eyish-ichish va jinsiy aloqada bo'lishdan tiyilish. Ro'za *Hijrat*ning ikkinchi yili farz bo'lgan. Bu ibodat kasal yo safarda bo'lgan kishilardan boshqa kunlarda tutib berish sharti bilan soqit

qilinadi. Sababsiz roʻzani buzgan kishi boshqa kunda tutib berish bilan birgalikda, uning jazosi sifatida ikki oy paydar-pay roʻza tutishi lozim boʻladi. SHuningdek, roʻza ramazondan tashqari oylarda ham tutilishi mumkin. Masalan, *nafl* roʻza yoki qasamni buzishdagi *kafforat* uchun ham roʻza tutiladi.

*Haj* – qodir boʻlgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Kaʼbani ziyorat qilish va ushbu ibodat oʻz ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat. Haj farz amallardan hisoblansada, Oʻrta Osiyo Arabistondan uzoq masofada joylashganligi sababli yuqorida zikr etilga «*qudrati etganlik*» sharti ulamolardan tarafidan kiritilgan. Haj *zuhlajja* oyining 8 kundan boshlanadi. Haj qilishning uch turi mavjud: «ifrod» – faqat haj amallari bajariladi, «qiron» – haj va *umra* amallari oldinma-ketin bajariladi, «tamattuʻ» – avval *umra* qilinib, *ehromdan* chiqiladi va *zuhlajja* oyining sakkizinchi kuni *ehromga* kirib, haj ruknlari ado qilinadi. Hajning farzi uchta: *ehrom* bogʻlab niyat qilmoq, Arafotda turmoq, Kaʼbani *tavof* qilmoq.

Islom dinida yuqorida birinchi rukn sifatida zikr qilingan *imon* va boshqa eʼtiqod masalalari – *ilm al-aqoʻid* (ilohiyot) ilmida oʻrganilsa, keyingi 4 masala – *ibodat* masalalari boshqa koʻpgina savollar bilan *ilm al-fiqh* (diniy qonunshunoslik) doirasida bayon qilinadi va oʻrganiladi.

**Ilk islom davlatchilik munosabatlarining vujudga kelishi.** Muhammad (SAV) ning 632 yildagi vafotlaridan soʻng uning oʻrinbosar sahoba, muhojir, asxobu ansorlari yangi dinni har xil usul vositalarini ishga solib targʻib etganlar, uni arab xalifaligi xalqlarining turmush va madaniyatining gʻoyaviy asosiga aylantirganlar. Toʻrt xalifa- choryorlar davrida istilolar kuchayib bu davlat kengayib YAmandan Sino Rim oroligacha Kizil dengiz sohillaridan Sahroi kabirgacha davom etgan katta hududni oʻz doirasiga olgan. Soʻngra arab boskinchilari Kavkazga, Markaziy Osiyoga yurish kilib soʻnggi xalifa Ali davri oxirlariga kelib, yaʼni 30 yil ichida Amudaryo sohillaridan SHimoliy Afrikagacha, SHimoliy kavkazdan YAman, Ummongacha choʻzilgan yangi imperiyani barpo etganlar. Islom bu imperiyaning davlat dini, hukmron mafkurasiga aylantirilgan.

Arab koʻshinlari badaviy va yollangan jangchilardan tashkil topgan oʻz davrining harbiy sanoat va texnikasi darajasidan ancha past boʻlgan, biroq bosib olingan mintakalarning feodal tarkokligi oʻzaro urushlardan holdan toyganligi istilochilarga jiddiy karshilik koʻrsata olmasligiga sabab boʻlgan.

Kadimiy imperiyalar- Vizantiya va eron oʻzaro urushlarida holdan toygan, kuch- kudrati sinib emirila boshlagan hali arab boskinchilari oyogʻi etmagan Shimoliy Xindiston, Markaziy Osiyo va Kavkazda xam yirik, kuchli davlatlar yoʻk edi. Mayda knyazlik, beklilik, xonliklar oʻzaro urushlarda zaiflashgan va tarqoq boʻlgan, shu sababli arab bosqinchilari VIII asr oxirigacha bu oʻlkalarni nisbatan osonlik bilan egallab, islomni mustamlaka xalqlarning turmush tarziga aylantirib maʼnaviy madaniyatga zoʻr berib singdirganlar.

Islomda bundan keyingi lektsiyalarda bayon etiladigan real, dunyoviy qadriyatlar anchagina mavjud boʻlgani uchun u arablarning oʻzlari tarixida katta ahamiyatga ega boʻlgan; bulardan asosiylari bu qabilalarning urugʻchilik-qabilachilik tuzumidan sinfiy jamiyatga oʻtganligi; markazlashgan davlat vujudga kelganligi; ibtidoiy dinlardan demokratik, insonparvar, tinchlik, doʻstlik, odillikka daovat etadigan yakkaxudolik diniga oʻtilganligi; xalifalik tarkibiga kirgan yuzlab elatlarga yagona arab tili va oʻrta asr arab madaniyatini yoyishga imkon tugʻilganligidir.

Islomning Markaziy Osiyoga kiritilishi ham muayyan darajada ijobiy rol uynagan. Chunonchi, dastlab diniy amallarni bajarishda arab tili ustunligi oʻrnatilgan; fan, adabiyot, falsafa va maʼnaviyat, madaniyatning shakllanishida ham arab tilining taosiri kuchaygan. Lekin, maxalliy xalqlar arab istilosidan ancha oldino, oʻz ona tillarida madaniyatni rivojlantirishda anchagina yutugʻlarga erishgan edilar; bu yutugʻlar keyinchalik islom taosirida bir muncha rivojlangan. Chunonchi, islomni qabul qilganlarning turmush tarzi bu din talablariga moslashtirilgan; bular shariatda ishlab chiqilib, qatoyiat bilan amalga oshirilgan; marosim va urf-odatlar diniy tus olgan; yoshlarga bilim berish uchun maktablar ochilgan; ruxoniylar tayyorlash uchun koʻplab Madrasa, korixona tashkil etilgan.

Xulosa shuki, islom tarqatilgan Markaziy Osiyoda ilm- maorifat, madaniyatning rivojlanishida bu din ijobiy rol uynagan; bu erdagi diniy maktab, Madrasa, dorilfununlar diniy maqsadlarda bunyod etilgan boʻlsa-da, xat-savod, dunyoviy bilimlarga yoʻl olgan.

Dunyoviy, real qadriyatlarga ham ega boʻlgan islom maxalliy xalq turmushi takomillashuviga, madaniyatdagi turli jihatlar rivojiga oʻz ijobiy taosirini koʻrsatgan.

Chunonchi, meomorchilikda masjid, Madrasa, dorilfunun, maqbara va hokazolarni xalq ustalari qurgan, xalqning ijodiga bog'liq moddiy madaniyat boyliklar bo'lgan; bularni qurishda ishtirok etgan binokorlar ish bilan taominlangan, pul ishlagan, oilasini boqqan; quruvchilik kasbini egallagan; uz shaxsiy uylarini qurishda o'sha meomorchilik obidalarini bino qilishda orttirgan tajribadan foydalangan.

Islom istilo etilgan xalqlar turmushiga o'sha davrlardayoq kiritgan va hozirgacha davom etayotgan namoz, xaj qilish, ruza, xayitlarni bayram qilish, mavlud, xatna shialarda ashuro (shaxsey-vaxsey), zikr kabi marosimlar mavjud edi. Bularning har birining uz ta'rifi, o'z tavsifi, uziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgan. Bular bilan bir qatorda maxalliy elatlar orasida islomgacha tarqalgan Navruz, qizil gul, lola sayli boychechak kabi bayramlar davom etgan; yana kinna, fol, dam, ko'chiriq, chilli, o'ltirish, isitma-sovutma, qadam joylarni ziyorat kabi salbiy urf-odatlar o'nashib, tarqalib kelayotgan; ortodoksal islom, xozir respublikamizda qaror topgan islom ham bularni tan olmasligi ijobiy hodisadir.

Xulosa shuki, islom arab istilochilari bosib olgan va bu dinni kiritgan joylarda nisbatan tez, oson qaror topib, maxalliy elatlar turmush tarzi va madaniyatida ijobiy rol uynagan va uynamoqda.

**Qur'onning nozil bo'lishi va jamlanishi va tarkibi.** Islom diniy ta'limotining asoslari – Qur'on va hadis to'plamlarida, shuningdek, VIII-XII asrlar davomida vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan.

**Qur'on** – arabcha o'qimoq, qiroat qilmoq, jamlash ma'nolarini bildiradi. Bu muqaddas kitob er yuzi musulmonlarining dasturulamali, diniy ahkomlar manbai, asosiy muqaddas kitobi. Qur'on ilmi ulamolari Qur'onni quyidagicha ta'riflaydilar:

“*Qur'on* – Alloh taoloning Muhammad alayhissalomga vahiy orqali nozil qilgan, tavotur ila naql qilingan, ibodatda o'qiladigan, barchani lol qoldiruvchi kalomidir”<sup>1</sup>

Tavotur ila naql qilingan degani esa, kalomni yolg'onga chiqarib bo'lmaydigan darajada ko'p sonli kishilar tomonidan naql qilinishiga aytiladi. Ularning hammalari ishonchli odamlar bo'lib, yolg'onga yaqinlashmagan, sonlari jihatidan yolg'onga berilib ketish imkoni ham yo'q bo'lgan.

Qur'oni karim ilohiy kitob bo'lib, u farishta Jabroil alayhissalom tomonidan *610-622 yillarda Makkada, 622-632 yillarda Madinada*, jami 23 yil mobaynida nozil etilgan.

Muhammad alayhissalom Qur'on oyatlarini farishta Jabroildan eshitib yod olar edilar. Keyin boshqa musulmonlar u kishidan eshitib yodlab olishardi. Ayni paytda yozishni biladigan sahobalar jumladan, **Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka'b (r.a.)** kabi sahobalar oyatlarni yod olish bilan birga, ularni xurmo daraxtining po'stlog'iga, yapaloq toshlarga, katta suyaklarga, teriga, qog'oz va shunga o'xshash narsalarga Qur'on oyatlarini yozib borganlar.

Payg'ambar alayhissalom ularga yangi tushgan oyat qaysi suradan ekani va qaerda turishi lozimligini ko'rsatib turganlar.

Muhammad alayhissalom hayotlik vaqtlarida, yana vahiy tushib qolar degan maqsadda Qur'on jamlab kitob shakliga keltirilmagan. U kishining vafotlaridan keyin Qur'on kishilarning qalbida, xotirasida va yozuvlarda saqlanib qoldi. Payg'ambar vafotlaridan so'ng ro'y bergan g'alayonlarning birida Qur'onni to'liq yod olgan ko'plab qorilar shahid bo'ldilar Shunda Hazrati Umar (r.a.) Hazrati Abu Bakr(r.a.)ga qorilar o'lib ketaversa, Qur'onga zarar etishi mumkin, shuning uchun uni kitob shakligi keltirib, jamlab qo'yish kerak degan maslahatni berdi.

Abu Bakr (r.a.) Zayd ibn Sobit (r.a.) ismli sahobani chaqirib, bu ishni amalga oshirishni topshirdi.

Zayd ibn Sobit, Umar ibn Hattob (r.a) va boshqalar Qur'oni karimni puxta yod bilishlariga qaramay, bu ishning mustahkam, ishonchli bo'lishiga harakat qilib, masjidida: “Kimning qo'lida yozilgan Qur'on bo'lsa va uni Payg'ambar alayhissalom huzurida yozilganiga ikkita guvohi bo'lsa, bizga olib kelsin! Qur'onni jam qilishga xalifaning buyrug'i bo'ldi”,<sup>2</sup> deb e'lon qildilar.

Ular masjidida o'tirib guvohlarni tekshirib nihoyatda aniqlik bilan bir yildan ortiq vaqt Qur'onni jamladilar. So'ng ko'pchilikka ko'rsatdilar, hamma rozi bo'ldi. Shunday qilib Zayd va Umar mashaqqatli mehnatdan keyin Qur'onni kiyik terisidan ishlangan sahifalarga yozib bo'ldilar

<sup>1</sup>Ислом маърифати. “Тошкент ислом университети”. Тошкент, 2005, 6-7 бетлар.

<sup>2</sup> Ислом маърифати. “Тошкент ислом университети”. Тошкент, 2005, 6-7 бетлар.

va uni belidan bog'lab, Abu Bakrning uyiga qo'yib qo'ydilar. U kishi olamdan o'tgandan so'ng sahifalar Umar(r.a.)ning uylarida, u kishidan so'ng esa, qizlari va payg'ambarning ayollari Hafsa binti Umar (r.a.) huzurida qoldi.

651 yilda halifa Usmon ibn Affon Hafsa (r.a.)dan Abu Bakr (r.a.) davridagi sahifalarni so'rab olib, undan olti nusxa ko'chiirishga buyruq berdi. Bu ulkan ishni boshqarishni Zayd ibn Sobitga yukladi.

Ko'chirilgan nushalar tayyor bo'lgandan so'ng musulmonlar yashaydigan diyorlardagi markaziy shaharlarga bittadan nusxa, bittadan qori qo'shib jo'natdi va shu qoridan qiroat o'rganishga buyruq berdi. Ko'chirilgan nushalarni Mug'ayra ibn Soibga Makka, Mug'ayra ibn Shahobga Shom, Abu Abdurahmon Silmiyga Kufa, Omir ibn Abdul Qaysga Basra, Zayd ibn Sobitga Madina ahliga Qur'on tilovatini o'rgatish uchun berdi.

*Usmon (r.a.)* o'zlariga bir dona mushab olib qoldilar.

Keyinchalik nusxa ko'chirish yo'lga qo'yilishi jarayonida faqatgina Usmon davrida yozilgan nushalarga suyanish joriy bo'ldi. Oxiri kelib, har bir nushaning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida, bu nusxa Mushabi Usmonga muvofiqdir, deb yozib qo'yiladigan bo'ldi.

Shunday qilib, Qur'on matnining ham yozuv, ham uslubiy bir xilligi saqlanib qoldi.

*Hazrati Usmon* qo'lida qolgan Qur'oni karimning nushasi hozirda O'zbekiston musulmonlar idorasi qoshidagi kutubxonada saqlab kelinmoqda. Qur'oni karimning bunday noyob nushasi yurtimizda bo'lishi Allohning bizning yurtimizga bo'lgan inoyati deb bilmoq lozim. Qur'oni karim 114 sura va 6666 oyatdan iborat.

Mustaqillik sharofati bilan dinga berilgan erkinlik tufayli turli marosimlarimiz Qur'oni karim tilovatlari bilan boshlanmoqda. Bu o'tmishda bir orzu edi, xolos.

Qur'on islom diniga oid barcha hukmlarning asosiy va birinchi manbaidir. Musulmon faqihlar biror narsaning shariatdagi hukmini bilmoqchi bo'lsalar, albatta, oldin Qur'onga murojaat qiladilar. O'sha o'zlari izlayotgan hukm haqida biror hukm bo'lsa, uni darhol qabul qiladilar. Muayyan masalaga Qur'onda aniq javob bo'lmagan taqdirdagina sunnat, ijmo, qiyosga murojaat qilishga o'tadilar.

Ilohiyotda Islom dini uch elementdan – imon, Islom, ehsandan iborat deb etirof etilgan. Imon talablari 7 ta aqidani – Allohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxirat kuniga, taqdirning ilohiyligiga va o'lgandan keyin tirilishga ishonish talablarini o'z ichiga oladi. Islom talablariga, ya'ni din asoslari – arkon ad-din deb nom olgan 5 ta amaliy marosimchilik talablari kiradi. Bular – kalima keltirish, namoz o'qish, ro'za tutish, zakot berish va imkoniyati topilsa Haj qilish talablari. Ehsan aqidalariga sidqidildan ishonish va marosimlarni ado etishdir.

Islomning kishilar ongi va turmush tarziga ta'sir etishi, ular hayotidan mustahkam o'rin olishini ta'minlovchi diniy marosimchilik – xatna, ramazon hayiti, qurbonlik va qurbon hayiti, mavlud, ashuro va boshqalar ham shakllangan. Bundan tashqari, mahalliy halqlarda islomgacha mavjud bo'lgan urf-odatlar, jumladan kinna soldirish, fol ochirish, dam soldirish, muqaddas joylarga, avliyolarga sig'inish kabi odatlar ham islom marosimlariga moslashib ketgan.

Islom ma'naviyatining qirralari rango-rang va mohiyatan terandir.

Qur'oni karim oyatlarida, avvalo insonning er yuzida xalifa ekanligining bir necha qayta ta'kidlanishi islom ma'naviyatining eng ulug' qadriyatlaridandir. Qur'oni karimning juda ko'p oyatlarida insonning aziz va mukarram qilib yaratilgani, unga eru osmondagi barcha narsalar bo'ysundirib qo'yilganligi alohida uqtirib o'tiladi.

Yaxshilik va ezgulik, bag'rikenglik va tinchlik, yaqinlari va begonalarga birdek marhamatli bo'lish, qon to'kmaslikka chaqiruvchi, nafs vasvasasiga uchmaslik, ota-onaga ular hayot ekanliklarida mehribon va sahiylik ila munosabatda bo'lish, dunyodan o'tganlarning haqlariga duo qilishga, vatanni sevishga da'vat qiluvchi muqaddas dinimiz, ayniqsa mustaqillik yillarida o'z qadrini hamda o'zining azaliy vazifasi – ezgu maqsadlarga chin ma'noda xizmat qilish imkoniyatini topdi.

Hadislar Islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba. Hadislar to'plami "sunnat" deb ataladi. Hadisi shariflarda Muhammad alayhissalomning so'zlari, qilgan ish faoliyatlari va sahobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon etilgan.

Hadisi shariflarni yig'ib kitob shakliga keltirish, asosan payg'ambarimiz alayhissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan.

VIII asr boshlarida Ummaviy halifalardan Umar ibn Abdulaziz noiblariga Muhammad (s.a.v.) hadislarini jamlash haqida farmon berdi. Abdumalik ibn Abdulaziz Jurayh, Ar-Rabi' ibn Subayh, Imom Molik ibn Anas, Imom Shofe'iy, Imom Ahmad ibn Xanballar tomonidan dastlabki hadis to'plamlari yaratildi. O'lkamizda esa quyidagi zotlar birinchi bo'lib hadis to'plamlarini tuzdilar: Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imol al-Haysam ibn Qulayb ash-Shoshiy va boshqalar.

Keyingi IX asr hadis ilmining "oltin asri" deb shuhrat qozongan. Chunki bu asrda hadislarini to'plash davri o'tib, endi ularni manbashunoslik va matnshunoslik ilmi qoidalariga muvofiq tahlil va tadqiq etish, ma'lum mazmun asosida tartib berishga kirishildi. Hadisshunoslik deb atalmish jiddiy ilm yo'nalishi mukammal shakllandi. Hadislarini bayon etishda "Musnad", "Sahih" va "Sunan" deb nomlangan yo'nalishlar vujudga keldi. Bu davrda keyingi asrlar uchun namuna bo'ladigan ishonchli hadis to'plamlari yaratildi. Butun Islom olamida eng nufuzli manba sifatida nom qozongan "Qutubi Sitta" ("Olti kitob") mualliflari shu davrda yashab ijod etdilar. Ular: Abu Abdulloh Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom Muslim ibn al-Hajjoj (819-874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-874), Abu Dovud Sulaymon (817-888), Ahmad an-Nasoiy (830-935), Abu Iso Muhammad ibn Yazid ibn Mojja (824-886) kabi muhaddislaridir. Imom Buxoriy o'zlari to'plagan 600 ming hadisdan 7250 ta eng ishonarli "sahih"larini mazmuniga ko'ra tasniflab, butkul yangicha tartibdagi hadislar to'plamini yaratishga erishdi. Uning asarlari keyingi muhaddislar uchun barcha jihatdan o'rnak va namuna bo'ldi.<sup>3</sup>

Islomda ahloqiy-huquqiy qonun-qoidalar majmui shariat XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariat qonun-qoidalar Qur'on va sunnat asosida ishlab chiqilgan. Unda musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy va ahloqiy hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar belgilab berilgan. Bunday tartib-qoidalar "Hidoya", "Viqoya", "Muxtasari hidoya", "Muxtasari viqoya" nomli kitoblarda jamlangan.

Shariatda belgalangan qonun-qoidalar muqaddas hisoblanib, unga har bir mo'min-musulmon ijtimoiy holatidan qat'iy nazar Allohning bandasi sifatida birday amal qilishi talab etilgan.

Yuqorida Islom, uning muqaddas ilohiy kitobi Qur'oni karim, hadislar va shariat haqida ba'zi ma'lumotlarni keltirdik. Endi umuman islom dinida, xususan Qur'oni karim, hadislar va shariatda inson ma'naviyati, ahloq-odobi, ma'rifati haqidagi qarashlarning ba'zi jihatlari to'g'risida fikr yuritamiz.

Qur'oni karim, hadislar va shariat ko'rsatmalari inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotining asosi bo'lgan ahloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o'z ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar ma'naviy-ahloqiy tarbiyaga oid bo'lgan fikrlarning mukammal to'plamidir. Qur'oni karim, hadislarini, shariat ko'rsatmalarini o'rganar ekanmiz, ularda ahloqiy kamolot, halollik va poklik, imon va vijdon bilan bog'liq bo'lgan birorta ham muhim masala e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz.

Payg'ambarimiz hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. Undagi ota-onaga munosabat, ilmga muhabbat, sabr-bardosh, shukronalikka da'vat, o'zaro mehr, inoqlik, mehmondo'stlik, etimparvarlik, vafo va sadoqat, mehnatsevarlik va halol luqmani sharaflash, kamtarlik va kamsuqumlik, samimiyat va rostgo'ylik, to'g'rilik va halollik kabi xislatlarning birinchi o'ringa qo'yilishi insoniyat uchun bebaho ma'naviy qadriyatlar silsilasini tashkil etadi. Qolaversa, islom ahloqi ma'naviy qadriyatlarning shunchaki tasodifiy to'plami emas, balki munazzam va mukammal bir tizim holiga keltirilgan bo'lib, albatta, bunda buyuk muhaddislar, birinchi navbatda yurtdoshimiz Imom Buxoriyning xizmatlari beqiyos va benazirdir. Payg'ambarimiz sunnatlari (hadislari)ning har bir inson uchun ibratli o'rinlari nihoyatda ko'p. Misol tariqasida u zotning ahli ayolga munosabatiga e'tibor beraylik.

Ibn Umar roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "Biz, janob Rasululloh hayotlik vaqtlarida, "Tag'in, biror baloga giriftor bo'lib qolmaylik!" deb xavotirlanganimizdan, ayollarimizga biror (qattiq) so'z aytib, bemalolroq muomala qilishdan qo'rqqar edik. Janob Rasululloh (s.a.v.) vafot qilganlaridan so'ng, ayollarimizga (qattiq) gapirib, bemalolroq muomala qiladigan bo'ldik!"<sup>4</sup>

<sup>3</sup>Қаранг. Имомназаров М., Эшмухамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. Тошкент, "Тошкент ислом университети", 2001, 134-135-бетлар.

<sup>4</sup> Ал-Бухорий. Хадис ("Ал-жомий ас-сахих").3-жилд. Тошкент, 1995, 421-бет.



Ushbu hadis mazmunidan ko'rinib turibdiki, Payg'ambarimiz ayollarga aslo qo'pol muomala qilmaganlar. Aksincha ahli ayollar biror kamchilikka yo'l qo'ysalar, faqat sabr, yumshoq muomala va shaxsiy namuna bilan tarbiya berib borganlar. Boshqa sahobalar ham Payg'ambarimizdan ibrat olib o'z ahli ayollariga ehtirom va yumshoqlik bilan muomala qilishni o'rganib borganlar.

Ayniqsa islom harom va halol masalasiga musulmonlar e'tiborini qaratadi. Shariatda Alloh tomonidan qilinishiga ruxsat etilgan amallar, ishlar halol deyiladi. Harom esa aksincha, qilinishiga ruxsat etilmagan ishlar va amallardir. Odatda, xalqimiz halol va haromni eyladigan va ichiladigan narsalarga nisbatan ishlatib kelgan. Shariatda Alloh tomonidan ijozat etilgan hamma narsalar, eyladigan oziq-ovqatlar, qilinadigan ishlar, hatti-harakatlar halol deb hisoblangan. Ijozat etilmagan narsalar, ishlar va amallar esa haromdir. Alloh harom etilgan ishlarni qiluvchilarga bu dunyoda yoki qiyomat kunida jazosini albatta berishi aytilgan.

Halol qilingan narsalar va ishlar ko'pchilikka ma'lum, u haqida ko'p eshitganmiz. Harom qilingan ishlarni eslatib o'tish va eslab turish joizdir. Bularidan ayrimlarga quyidagilar: Sog' bo'la turib ishsiz yurish, zinakorlik, ota-onaga oq bo'lish, savdo-sotiqda g'irromlik qilish, birovning haqqiga, omonatiga hiyonat qilish, qasamxo'rlik, sudxo'rlik, o'g'rilik, qaroqchilik, mayxo'rlik, g'iybat, tuhmat, bo'hton, josuslik, qotillik, poraxo'rlik va boshqalar kiradi. Xullas, harom inson va jamiyatga zarar keltiradigan ish va amallardan iborat.

Islomda ota-onaga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo'l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo'lish, mehr-shafqatlilik, to'g'rilik, rostgo'ylik, sofdil bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g'oyalari ilgari surilgan.

Qur'oni karim va hadislarda har bir inson uchun zarur bo'lgan hayotidan ma'mun bo'lib yashash-shukronalik va sabrli bo'lish masalalariga ham alohida ahamiyat berilgan. Shukronalik va sabr ham inson ma'naviyatining muhim jihatlardan biridir. Ularning mazmun-mohiyatini bilib olish har birimiz uchun zarur. Qur'oni karimda Alloh bu dunyoda insoniyatni behisob ne'matlar bilan rizqlantirgani, uning sanog'iga etib bo'lmasligi haqida shunday bayon qilingan:

“Sizlarga barcha so'ragan narsalaringizdan ato etdi. Agar Allohning bergan ne'matini sanasangizlar, sanog'iga etolmaysiz. Haqiqatan, inson o'ta zolim va juda noshukrdir”.

Ba'zi kishilar ne'mat so'zining ma'nosini juda tor doirada tushunadilar. Biror orzu-umidlari amalga oshishini, har kim ham etisha olmaydigan narsalarni qo'lga kiritishni, jumladan, katta-moldunyo, boyluk, farzand, biror mansab-martaba va shunga o'xshash orzu-havaslariga erishishnigina ne'mat deb biladilar. Suv, havo, tan salomatligi, el-yurt tinchligi kabi, inson hayotining asosi bo'lgan bu narsalarga beparvo qaraydilar.

Holbuki, kishining dunyo va oxirati uchun manfaat etkazadigan narsalar borki, ularning barchasi ne'mat hisoblanib islom bularning qadriga etib yashashga buyuradi. Zero, ne'matning qadrini bilish, uni e'zozlash ne'mat beruvchi Allohning qadriga etish va shukrini ado etish demakdir.

Payg'ambar alayhissalom hadislarining birida: “Qaysi biringiz tongda uyg'onganda oilasi tinch, tani sog' va uyida bir kunlik eguligi bo'lsa, bilingki, unda dunyodagi barcha ne'matlar mujassam ekan”, deb ne'matni keng ma'noda tushunish lozimligiga ishora qilganlar.

Yuqorida sanab o'tganlarimiz moddiy ne'matlar jumlasiga kiradi. Ma'naviy ne'matlar esa imon, aql, hurriyat, tinchlik kabi ko'zga bevosita ko'rinmaydigan, ammo qalb ko'zi bilan ilg'ab olinadigan moddiy ne'matlarga qaraganda inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'naviy qadriyatlardan iboratdir.

Ko'pincha insonlar ne'matning qadriga qo'ldan ketgandan keyingina etadilar. Sog'liqning qadriga bemorlikda, boylukning qadriga faqirlik etganida, tinchlikning qadri notinchlik vaqtida bilinadi. Ne'matlarning bardavom bo'lishi, uning shukri ado etilishiga bog'liqdir. Bu haqda Alloh Qur'oni karimda: “Qasamki, agar bergan (ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu noshukrchilik qilsangiz, albatta, azobim (ham) qattiqdir”, deb marhamat qilgan. Ne'matlarning eng sarasi mustaqillikning amaliy shukri esa yoshlarimizni vatanga muhabbatli qilib tarbiyalash, tinchlikni shukrini qilib yashash ne'matlarning eng sarasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Islomda inson ma'naviyatining yana bir jihati sabr-toqatli bo'lishda ekanligi ham alohida ta'kidlanganligi bilan ahamiyatlidir. Payg'ambarimiz alayhissalom o'z hadislarining birida: “Sabr

imonning yarmidir”, deb ta’kidlaganlar. Qur’oni karimning yuzga yaqin oyatlarida sabr haqida so’z yuritilgan. Alloh o’zini doimo sabr qiluvchilar bilan birga ekanini ma’lum qilib: “Ey, imon keltirganlar! Sabr va namoz bilan (Mendan) yordam so’rangizlar! Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir”, deydi.

Sabr-bardoshli bo’lish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan ma’naviy fazilatlaridan biridir. Xalqimiz bejizga “Sabrning tagi sariq oltin”, deb aytmagan. Insonlar sabr orqaligina o’z maqsadlariga erishadilar. Shuning uchun ajdodlarimiz o’z farzandlarini sabrli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat berganlar. Sabr kosam to’ldi deb noshukrlik qilish insonni zalolatga boshlaydi.

Yuqorida aytilganlar islom ma’naviyati ummonidan bir zarra, xolos. Fikrimizni ma’naviy-ahloqiy kamolot masalalarida aytilgan ba’zi hadislarini keltirish bilan yakunlashni ixtiyor etdik:

Munofiqlik belgisi uchta: Yolg’on so’zlash, va’dasining ustidan chiqmaslik va omonatga hiyonat qilishdir.

Omonat qo’ygani kishining omonatini o’z vaqtida ado eting;

Haqqingizga hiyonat qilgan kishiga siz hiyonat qilmang;

Qachonki bir gunoh qilib qo’ysangiz, uni yuvish uchun orqasidan bir savobli ish qiling.

O’zimdagi keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo’rqaman:

1. Nafsu havoga berilib yo’ldan ozishdan;

2. Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishidan;

3. Ilmu ma’rifatga ega bo’la turib g’ofillarning ishini tutishidan;

Beshta narsadan oldin beshta narsani g’animat biling:

O’limdan avval tiriklikni, betoblikdan avval salomatlikni, bo’sh vaqtdan avval bandlikni, keksalikdan avval yoshlikni, faqirlikdan avval boylikni.

Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so’ng esa otangga yaxshilik qil. Otanalarni keksalik vaqtida har ikkisini, yoki biri bo’lmaganda boshqasini rozi qilib jannatiy bo’lib olmagan farzand xor bo’lsin, xor bo’lsin va yana xor bo’lsin.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do’zaxga mahkumdur. Hadisi muborakdan keltirilgan ushbu misralarning ma’naviy jihatlariga izoh berishning hech bir hojati yo’q.

Inson tanasi uchun jon qanchalik muhim bo’lsa, uning ma’naviyati, ruhiyatining teranligi uchun ilm shunchalik ahamiyatli sanaladi. Inson ilm egallash yo’lidan yursa yuksaladi, aks holda tubanlikka, johillikka yuz tutadi. Bu foniq dunyoda ilmdan bebahra qalblar jonsiz jasadga o’xshaydi. Alloh bu olamni cheksiz ilmu hikmat bilan yaratgan. Inson aql va tafakkur vositasida bu ilmlardan xabardor bo’ladi, moddiy va ma’naviy hayotda yuksaklikka ko’tariladi. Ilm inson tafakkuriga nur baxsh etadi. U shu nur orqali haqiqatni topadi. Ilm insonni doimo yuksak martabaga erishtiradi. Mana shuning uchun ham islom manbalari Qur’oni karim va hadislarida ilm-fanni egallash, ma’rifatli bo’lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta’kidlanadi. Hadisda beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligini qayd qilinishining o’zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qur’oni karimda: “Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko’tarur” deyilishi negizida ilmli zotlar va unga intilganlar jamiyatda yuksak mavqe va hurmatga sazovor bo’lishlariga ishoradir.

Qur’oni karim insoniyatga ilm orqali ikki dunyo saodatiga erishish yo’lini ko’rsatdi. U ilmning afzalliklari haqida insonlarga habar beradi va ularni ilm olishga chorlaydi. Ilm buyuk ne’mat ekanligi va bu ne’mat olamning gulto’ji bo’lgan insonga berilgan. Ilm najot yo’li ekanligi habar qilingan. Alloh odamga bergan ilm orqali har narsaning siru asrorini bildirgan va barcha mahluqot ustidan hokim qilgan.

Qur’oni karimda “ilm” so’zi asosida “Alima” bilmoq fe’l negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalomga ilk nozil bo’lgan oyat ham “O’qi...” “O’qi...” so’zidan boshlanadi. Ushbu oyat shunday: “O’qi! Sening o’ta karamli Parvardigoring qalam vositasi bilan ta’lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarini o’rgatadi” deb nozil qilingan. Ko’rinadiki, Islom e’tiqodi avval boshdanoq insonni o’qib-o’rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglab etishga targ’ib etadi.

Qur’oni karim ham ilm, ham hayot kitobidir. Ilm yo’lini tutgan inson eng sharafli yo’lni tanlagan bo’ladi.

Payg’ambarimizning “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan hadislarini negizida islomning ilmga bo’lgan yuksak e’tiboridan dalolat beradi. Yana bir hadisda: “Insonlar yo

o'rgatuvchi yoki o'rganuvchilarga bo'linadi. Bundan boshqalari esa arzimasdir, deb ta'kidlansa, boshqa bir hadisda: "Insonlar o'likdir, faqat ilm ahligina tirikdir", deb bu dunyoda faqat ilm sohiblarigina haqiqatga intilganliklari tufayli tirik ekanliklari aytiladi.

Haqiqatan, hoh dunyoviy, hoh diniy ilm yo'lida zahmat chekkanlar jisman yo'q bo'lsalar ham ular ma'nan tirikdirlar. Bunga Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Nasr Forobiy, Imom Marg'inoniy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Beruniy, Imom Zamahshariy va Ahmad Farg'oniy, Hoja Ahror Valiy va Ulug'bek va boshqalar yaqqol misol bo'ladilar. Bu buyuk zotlar yaratgan asarlar insonlarning hayot yo'lini asrlar osha nurafshon etib kelmoqda. Ular meros qilib qoldirgan asarlarni o'qib-o'rganib kishilar ma'nan oziqlanib har on va har lahzada ularni eslab turadilar. Ularga bo'lgan muhabbat insonlar qalbida abadiy yashab kelmoqda.

Inson Allohning xalifasi sifatida bilim egasi, yorug' dunyoning barcha bilimlariga uning idroki etadi. Faqat kibrga berilib ketmasa, o'zini hammadan ortiq qo'ya boshlamasa bas. Parvardigor bizni inson qilib yaratgan ekan, aql-xush, ilmu amal bergan ekan, demak, biz inson sifatida tafakkur qilib, dunyoviy ilmlarni – dunyoni o'rganib, dunyo orqali Allohning zotini, ilmlarini kashf etib yashashimiz kerak. Din – ruhiyatimiz tarbiyachisi, ilm – dunyoni va oxiratni bilish quroli, inson unisini ham, bunisini ham egallamog'i kerak. Bizning bobolarimizning yo'li ana shunday bo'lgan. Bir misol keltiramiz: Rivoyat qilishlaricha, Abu Ali ibn Sino bilan mashhur shayx Abusaid Abulxayr uchrashibdilar. Ular bir kecha bir-birlariga hech narsa demay "suhbatlashib" chiqibdilar. Ertalab shayxning shogirdlari undan Ibn Sino haqida nima deysiz, deb so'rganlarida, Abdusaid Abulxayr: "Men nimaiki vujud (intuisiya) bilan bilgan bo'lsam, u aql bilan bilib olgan", debdi. Ibn Sino esa o'z shogirdlariga: "Men nimaiki aql bilan bilgan bo'lsam, u ko'ngil bilan idrok etadi", deb aytgan ekan. Ko'rinadiki, Ibn Sino dunyoviy ilmlar sohibi, Abusaid Abulxayr esa – tasavvuf shayxi, ilohiyot olimi. Ammo ular bir-birini tushungan va har ikki ilm ham inson uchun kerakligini anglaganlar.

Yoki olaylik, Mirzo Ulug'bek bilan Xo'ja Ahror Valiyni. Ular zamondosh, bir shaharda yashaganlar. Ulug'bek – munajjim va shoh, uning shogirdlari aniq fanlar vakillari. Xo'ja Ahror esa mo'tabar din arbobi, ruhoniylar zoti. Ammo ular bir-birlariga halaqit bermaganlar, aksincha, biri ilmiy ma'rifatni, ikkinchisi bo'lsa ruhoniylar ma'rifatni rivojlantirib, bir-birlariga ko'mak berganlar.

Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Al-Buxoriy, G'azzoliy, Hamadoniy, G'ijduvoniylar va boshqa ulug' zotlarning hayot tarzi, ilm uchun fidoyiligi, e'tiqod-imonining pokligi bilan bizlarga ibratdir. Bularning hammasi ko'rsatadiki, dindorlik ham ma'rifatni, yuksak ma'naviyatni talab qiladi. Kishi qancha chuqur ilm egasi bo'lsa, olam va odam mohiyatini anglasa, Uning Allohni anglashi, imoni ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Gap xoh diniy, xoh dunyoviy ma'rifatni to'g'ri va chuqur anglashda, har ikkovini ham egallamay, johil bo'lib qolmaslikdadir. Dunyoviy ilmlarni egallagan inson o'zining bu dunyosini, diniy ilmlarni egallaganlar esa o'zining u dunyosini obod qilgan bo'ladi.

Har ikki ilmni egallagan kishi esa ikki dunyosini obod qiladi.

Islom bu faqat aqida emas, avvalo, ma'rifat, ilmdir. Islom tarixiga nazar tashlasak, Muhammad Payg'ambarimiz alayhissalomgacha bo'lgan davr arablarda "johiliya" davri deb ataladi. "Johiliya" nodonlik, bilimsizlik davri degani. Islom ana shu nodonlik davri o'rniga keng ma'noda ma'rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san'atni rivojlantiridi, o'ziga xos ma'naviyat va ma'rifatni yaratdi.

Islomda ma'rifatga bo'lgan munosabatni quyidagi hadislarini keltirish bilan cheklanishni lozim topdik:

"Ilm olish yo'lida sarflangan bir soat yuzaki ibodat bilan o'tkazilgan bir kechadan ko'ra hayrliroqdir".

"Ilm yo'lida sarflangan bir kun uch oy ro'za tutishdan afzalroqdir". Bu hadislarida ilm yo'lida sarflangan vaqt eng qadrli ekanligi ta'kidlanmoqda.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Ilm o'rgatgan kishiga ta'zimda bo'lish va izzat-ikrom ko'rsating", deb ilm yo'lida harakat qilganlarni qadrlash kerakligini uqtiradilar. Xalqimiz bejiz "Ustoz otang kabi ulug'dir" deb aytmagan.

"Olimning uyqusi ham johilning ibodatidan afzaldir", chunki uning uyqusi ham ibodatning bir turi sanaladi, sababi olim ilmini davom ettirish uchun charchoqlardan forig' bo'lish maqsadida uxlaydi.

“Sadaqaning eng hayrlisi o’zgaga ilm o’rgatmoqlikdir”, “Dindoshiga ilm o’rgatish yil bo’yi o’qilgan nafl namozidan ko’ra afzalroqdir” kabi hadislarida inson ilmni olimlardan o’rganishi va o’zi ham bilganini boshqalarga o’rgatishi lozimligi ta’kidlangan.

“Ilm o’rganing, ilm o’rgangan haqni nohaqdan ajratadi. Ilm jannat yo’lini yoritadi. Ilm insonga cho’lda yo’ldosh, yolg’izlikda hamroh, kimsasizlikda jondosh do’st bo’ladi”, “Ilm insonlarni saodatga eltadi, falokatdan qutqaradi, do’stlar orasini ziynatlaydi, dushmanga qarshi qalqon bo’ladi”.

Hadislarida har bir o’rganilgan ilmni qalblarga jo aylash kerakligi va unutish lozim emasligiga ham ahamiyat berilgan. Ilmni unutgan kishi jaholatga yuz tutishligi va ilm hazinasini yo’qotishligi “Unutish ilmning ofatidir” hadisida o’z ifodasini topgan

Yuqoridagilardan ko’rinadiki, Islom ilm-ma’rifat dini va ayni paytda barcha insonlarni dunyo sir-asrorlarini bilishga, ya’niki egallashga va yuksak ma’naviylikka chorlovchi din ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Bizning ulug’ bobolarimiz islom ma’naviyati va ma’rifati taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shib kalom va hadis, tasavvuf va fikh ta’limotini rivojlantirdilar.

Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot Islom konferensiyasi tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo’yicha – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilingani ham ana shunday e’tirofning tasdig’idir.

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyati va ma’naviyati ravnaq toptirishga qo’shgan betakror hissasi to’g’risida so’z yuritganda, eng avvalo, xaqli ravishda musulmon olamida “Muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriyning muborak nomini tilga olamiz. Bu mo’tabar zotning ishonchli hadislar to’plami – “Al-jome’ as-sahih” kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manbaa bo’lib, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug’i sanaladi. O’n ikki asrdiki, bu kitob millionlab insonlar qalbini imon nuri bilan munavvar etib, xaq va diyonat yo’liga chorlab kelmoqda.

Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturudiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog’ladi. Moturudiy islom olamida “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo’ldi. Uning asarlarida ilgari surilgan g’oyalar islom dinining asosini to’g’rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan barcha mo’min – musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang bo’lganligi bilan ahamiyatlidir.

Islomiy ilmlar sohasida o’zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratgan, islom huquqshunosligining ulkan namoyondasi Burhoniddin Marg’inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi asrlar osha e’zozlab kelmoqda. Uni Sharq olamida “Burhoniddin va milla”, ya’ni “Din va millatning hujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo’lgan. Marg’inoniyning o’lmas merosi, xususan, 57 kitobdan iborat “Hidoya” – “To’g’ri yo’l” deb atalgan asari sakkiz asrdan buyon musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e’tirof etib kelinayotgani va boshqalar ulug’ bobolarimizning islom madaniyati va ma’naviyati, ma’rifati rivojiga ulkan hissalarining isbotidir.

Yaqin o’tmishning salbiy asoratlaridan biri shuki, sobiq sho’ro tuzumida dunyoviy ilm va diniy-falsafiy ta’limot, ya’niki diniy ilmlar bir-biriga qarama-qarshi qo’yildi. Ular bir-birini inkor etadigan hodisalar tarzida talqin etildi. Diniy tafakkur dunyoviy ilm rivojiga monelik ko’rsatadigan chirkini bid’at sifatida qoralandi.

Biz bugun bunday qarashlarning tubdan zararli va tarixan asossiz ekanligini ochiq aytishimiz mumkin. Dunyoviy va diniy ilm yuqorida ko’rsatganimizdek, o’tmish asrlarda doimo hamkor va hamnafas bo’lib kelganligini tarixning o’zi tasdiqlaydi.

“Dunyoviy va diniy g’oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko’tariladi.. Bunga bashariyat tarixida o’chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturudiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G’azzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko’rsatgan davrlar yorqin misol bo’la oladi”.

Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to’plagan hadislar, Naqshbandiy ta’limoti, Termiziy o’gitlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo’ldik.

Qur'oni karim va Payg'ambarimiz alayhissalom hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga qaratilganligidir. Ulardagi ota-onaga, ilmga munosabat, sabr-bardosh, shukronalikka da'vat, o'zaro mehr, mehmondo'stlik, etimparvarlik, vafo va sadoqat, halol luqmani sharafdash, kamtarlik, kamsuqumlilik, samimiyat, rostgo'ylik va boshqa chin insoniylik xislatlarining birinchi o'ringa qo'yilishi barcha insoniyat uchun bebaho umuminsoniy ma'naviy boylik tizimini tashkil etadi.

Jismoniy va ma'naviy poklikka intilish islom ahloqining, Rasululloh hadislarining yana bir muhim mavzu yo'nalishidir. Tahorat, g'usl masalalari tashqi ozodalik talablari bo'lsa, haromdan, yolg'on so'z, g'iybat, tuhmat, zinokorlik, o'zga haqqiga hiyonat, nohaqlik va zulmga yo'l qo'ymaslik, ulardan qat'iy saqlanish ichki, ma'naviy poklikka oid talablardir. Bularning hammasi Qur'oni karim hamda Rasululloh (s.a.v.) hadislarida va ularga asoslangan shariatda juda qat'iy qilib qo'yilgan.

Xullas, islom barcha mo'minlarni yuksak ma'naviylikka chorlovchi, insonparvar din ekanligini anglab etishimiz zarur. Shundagina dindan ma'naviy va ma'rifiy tarbiyada foydalanish zaruratiga to'g'ri yondoshamiz.

Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti AYSESKO tomonidan Toshkent shahriga 2007 yilda "Islom madaniyati poytaxti" degan nom berilishi hoki poklari O'zbekiston tuprog'ida yotgan ulug' ajdodlarimiz, ne-ne mutafakkir zotlar asrlar mobaynida dunyoviy va diniy ilmlar sohasida qanday buyuk kashfiyotlar yaratgani, buning uchun qancha zahmat va mashaqqatlar chekkanini ko'ramiz. Bugun guvoh bo'lib turgan yuksak e'tirof avvalo ana shunday ajdodlarimizning tabarruk nomlari va qoldirgan merosiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho demakdir.

Bu ulug' zotlar qoldirgan boy ma'naviy merosni asrab-avaylab kelinayotgani, uni har tomonlama o'rganish, keng omma, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, jahon jamoatchiligiga targ'ib va tarannum etish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Barchamizga ma'lumki, yurtimizda ana shunday meros sobiq sho'ro davrida ham mavjud edi. Jumladan, bebaho tarixiy qo'lyozmalar maxsus fondlarda saqlab kelinar va ulardan tor doiradagi mutaxassislar ilmiy maqsaddagina foydalana olardi. Bu merosni sinfiy va mafkuraviy nuqtai nazardan emas, asl insoniy mohiyatiga mos ravishda chuqur o'rganish, ma'naviy hayotimizning uzviy bir qismi sifatida talqin va targ'ib qilishga esa mutlaqo yo'l qo'yilmasdi. Bunga jur'at qilgan odamlarning qanday tazyiq va xavf-hatarlarga uchrashi muqarrarligini yaqin o'tmishimiz bilan tanish bo'lgan har qaysi odam yaxshi biladi. Chunonchi, yaqin o'tmishda namoz o'qish, diniy marosimlarni o'tash ta'qiqlangan edi. Masjidlar, aziz-avliyolarning ziyoratgohlariga qulf urilgan edi. Odamlarning uylaridagi Qur'on, Hadis, turli diniy adabiyotlar, hatto arab yozuvidagi boshqa kitoblar terib olinib, yoqib yuborilgan edi. Mana buni "johiliya", nodonlik desa bo'ladi. Qanchadan-qancha odamlarimiz hozirgi emin-erkin kunlarni qo'msab, ammo ko'rolmay, armon bilan o'tib ketdilar. Shu bois biz mustaqillik keltirgan ne'matlarga har qancha shukronalik aytsak arziydi. Mustaqillik davrida islomiy qadriyatlar tiklandi, imon-e'tiqodimiz o'zimizga qaytdi. Bu savobli, ezgu ishlarga karvonboshi hurmatli Prezidentimiz Islom Karimov ekanini har daqiqa eslab turishimiz lozim. Prezidentimiz ma'naviyat va ma'rifatga oid nutq, ma'ruza va asarlarida islomning ma'naviy-ahloqiy, ma'rifiy tarbiyadagi yuksak roli, o'rni, ahamiyatini muntazam uqtirib kelmoqdalar.

Islom dinining xalqimiz ma'naviy hayotidagi beqiyos o'rni va ahamiyati haqida Prezidentimiz "Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar ana shu zaminda ildiz otadi", -deb ta'kidlagan edi. Bu holat xalqimizga, xususan yoshlarimizga milliy g'oyani singdirishda Islom omilidan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Ana shularni hisobga olgan holda, bugungi kunda biz voris bo'lgan diniy moddiy va ma'naviy meroslarimizni zamon talablari asosida keng va atroflicha o'rganish va tadqiq etish, ulardan xalqimizni bahramand qilish masalasiga O'zbekiston rahbariyati va jamoatchiligi alohida ahamiyat berib kelayotir. Diniy ma'naviy merosimiz qaytadan ko'z ochmoqda.

Avvalo masjidlarga, aziz-avliyolar yotgan maqbaralarga solingan qulflar olib tashlandi. Qarovsiz qolgan masjidlar ta'mirlandi, yangilari barpo etildi. Aziz-avliyolar yotgan, o'tmishda qarovsiz holga kelgan joylar obodonlashtirildi, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yuzaga keltirildi. Ramazon va Qurbon hayitlari dam olish kuni deb e'lon qilindi. Har yili minglab fuqarolarimizning Haj va Umraga borib kelishlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib berildi. Bu o'tmishda faqat hayoliy orzu va armon edi. Ulug' allomalar – Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abduholiq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Abu Mansur Moturidiy, al-Marg'inoniy, va boshqa ulug' zotlarning yubileylari bo'lib o'tdi. Qur'oni Karim, Hadislar va boshqa diniy kitoblar nashr qilindi, qilinmoqda. O'tmishda birorta ham diniy ulamoning yubileyi o'tkazilmas edi, diniy kitoblarni nashr etish ta'qiqlangan edi, yuqorida aytganimizdek borlari ham yo'q qilingan edi. 1999 yilda Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. Mustaqillik yillari islom dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar bajarildi.

Bugungi kunda bizning tarixiy merosimiz, diniy qadriyatlarimizni tiklash masalasiga katta mas'uliyat bilan qarab olib borayotgan ishlarimizning amaliy tasdig'ini ko'p-ko'p misollarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, Samarqand shahridagi XI-XV asrlar yodgorligi bo'lmish, qadim zamonlardan buyon butun musulmon dunyosining e'tiborini o'ziga tortib kelayotgan Shohi Zinda majmuasida uch yil avval boshlangan keng ko'lamlı ishlarimiz bugun ham davom etmoqda.

Eng muhimi, mamlakatimizning barcha hudud va mintaqalarida islomiy qadriyatlarni tiklashdek ezgu maqsad yo'lida hamma uchun ibratli va hayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda so'z yuritganda, Toshkent shahrida joylashgan Qur'oni karimning eng qadimiy va mo'tabar nushalaridan biri bo'lgan mashhur Usmon Qur'oni saqlanayotgan Hazrati Imom majmuasida amalga oshirilgan keng ko'lamlı qayta tiklash va ta'mirlash, qurilish ishlarini eslash, Samarqanddagi Imom Buxoriy va Imom Moturidiy ziyoratgohlari, Buxorodagi Abduholiq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband, Minorai Kalon va Masjidi Kalon majmualari, Farg'onadagi Ahmad Farg'oniy va Burg'oniddin Marg'inoniy yodgorliklari, Surxondaryodagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Xivadagi Ichan qal'a, Shahrisabzdagi Dorut-tilovat, Qarshi shahridagi Odina va Ko'kgumbaz obidalari, Karmana shahridagi Qosim shayx maqbarasini aytish mumkin. Bu amalga oshirilgan ishlar xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ma'naviyatining yuksalishida katta ahamiyatga egadir.

Sobiq Sho'rolar tuzumi tanazzulga yuz tutib, eski hukmron, yakka hokim bol'shevistik-kommunistik mafkura batamom inqirozga uchrab, yangi mustaqil davlatlar shakllanishi jarayonida ma'lum muddat g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq (vakuum) holati vujudga keldi.

G'oyaviy bo'shliq nima? G'oyaviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o'tmishga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o'rnini bosadigan ilg'or g'oyaviy qarash tizimining hali shakllanmagan holatidir.

1990 yillarning boshlarida bunday g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq O'zbekiston hududida ham namoyon bo'ldi.

G'oyaviy bo'shliq paydo bo'lgan joyda muqarrar ravishda begona va zararli mafkuralar huruji boshlanadi. O'tish davrida, yangicha qarashlar mustahkam e'tiqodga aylanib ulgurmagani paytda tashqi mafkuraviy ta'sirlarning foydali yoki zararli ekanini hamma ham darhol fahmlay olmaydi. O'zbekistondagi mafkura maydoniga zararli, xalqimizning orzu-intilishlariga mutlaqo begona g'oyalarning hujumi ana shu bilan ham izohlanadi.

So'nggi yillarda bizning diyorumizda ham taraqqiyotimiz, osoyishtaligimizni ko'rolmaydigan "vahobiylık" va "hizbut-tahrir" kabi oqimlarning guruh va to'dalari paydo bo'lib qoldi. Bunday to'dalar o'zlaricha masjidlarda g'avg'o ko'tarib, o'tish davrining qiyinchiliklaridan foydalanib, ayrim yoshlarning ongini zaharlamoqdalar. Mustaqillikning bergan erkinligini suiiste'mol qilmoqdalar. Bu mutaassib dindorlar o'zlarini "vahobiy" yoki "dinni tozalovchilar", "fundamentalistlar" deb yuritib, aslida esa birinchi navbatda islomning o'ziga zarba bermoqdalar. Vahobiylar bir yarim ming yillik ilm-fan, madaniyat tarixidan voz kechish, Imom Buxoriy, Imom G'azzoliy, Imom Abu Xanifa, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Navoiy, Jomiy, Ulug'bek, Bahouddin Naqshband va boshqa o'nlab mutafakkirlar, so'fiylar, olimlar merosidan voz kechish, ularning asarlarini yoqib yuborishni, maqbaralarni buzib tashlashni tavsiya qilmoqdalar. Ular, umuman, inson aqli, inson qalbi bilan yaratilgan jamiki ma'naviy boyliklarni uloqtirib

tashlashga da'vat etmoqdalar. Axir bu vahshiylik, nodonlik, johillikning o'zi-ku. Ma'naviyatli va ma'rifatli kishi, buni mutlaqo qabul qilmaydi.

Vahobiylik bizni orqaga, jaholatga tortadigan, islomni, islom ahlini buzadigan xavfli oqim. "Dinni tozalash", "sof dinga qaytish" niqobi ostida tashviqotlar olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar qilish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf ostiga qo'yayotganlardan milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrashimiz lozim.

Diyorimizda din niqobi ostida ish ko'rayotgan ekstremistlar, aqidaparastlar mavjud konstitusiyaviy tuzumga qarshi borib, hokimiyatni egallash va O'zbekistonda Islom davlati qurish, xalqni qo'rquvga solib, hukumatga ishonchsizlik uyg'otish uchun turli jinoyatlar va terroristik harakatlar sodir etish yo'li bilan el tinchligini buzishga urinmoqdalar. Ularning asl maqsadi hukumatparastlik, ya'ni davlatni qo'lga olishdan iborat. Mustaqil yurtimizda ularga o'z vaqtida zarba berildi va ularning payi qirqildi.

Xalqimiz endi – erkinligini qo'lga kiritgan, o'zligini anglab etgan bir zamonda allaqanday kimsalarga ergashib yana jaholat va qullik tuzog'iga qaytadimi? Albatta yo'q, ammo hamma gap har qanday tahdid yoki tahlika oldida vahimaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishda, ogoh va sergak bo'lishda. "Shu nuqtai nazardan qaraganda,-deb yozadi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov,-muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli huruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalari keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda".<sup>5</sup> Bu borada yoshlarimizni ularning zararli ta'siridan asrab qolish hozirgi ta'lim-tarbiya ishimizning asosiy yo'nalishi bo'lib qolishi lozim.

Begona va zararli, mohiyatan g'ayriinsoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz zarur. Immunitet (lotincha "ozod bo'lish, qutulish") deganda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli xususiyatlarga ega ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Lekin insonning ko'plab xususiyatlari tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shakllantirib borish ijtimoiy-siyosiy hayotiy ehtiyoj sanaladi. Chunki kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs har qanday oshkora yoki pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera oladi. Yoshlarimiz doimo va har on ogoh va yana ogoh, sergak bo'lishlari zamon talabi. Buning uchun yoshlarimiz ongiga mustaqillik g'oyasini chuqur singdirishimiz lozim. Toki ular milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastning "da'vati" ham, ahloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Muqaddas dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli huruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, avvalambor, uning asl mohiyatini, ya'ni islom dini tinchlik, ma'rifat, yuksak ahloq-odob ifodachisi ekanini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalari keng targ'ib etish orqali ular ongida sog'lom mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim.

Yurtimizda keyingi vaqtlarda ro'y berayotgan ayrim salbiy hodisalar, nojo'ya hatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda.<sup>6</sup>

Har bir fuqaro shuni anglab etishi kerakki, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o'ziga xos va mos yo'li bo'lgani kabi madaniy-ma'naviy rivojlanishida ham o'z yo'li bor. Bu o'ziga xoslikni dinga, diniy qadriyatlarga munosabatimizda, ulardan ma'naviy tarbiyada foydalanishimizda ham ko'rishimiz mumkin. Bu yo'l Prezidentimiz asarlarida, hususan "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" kitobida yoritib berilgan. Uning mohiyati mo'tadil dindorlik, islom ma'rifatini rivojlantirish, ichki-botiniy olamni poklab, Allohni dilda saqlab, aqlu tafakkur, ilmu urfon bilan kamolot sari borish, o'z ma'naviy merosimiz qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam bo'lgan holda olg'a borish.

Turkiston o'lkasi mustamlakachilik davrini boshdan kechirgan davrda, ayniqsa, sho'rolar davrida xalqimiz ma'naviy hayotining uzviy va ajralmas qismi bo'lgan Islom dini va qadriyatlari turli ta'qib va har tomonlama cheklashlarga duch keldi, ulamolarning taqdiri ayanchli bo'ldi. Islomga oid bebaho kitoblar yo'qotildi, muborak yodgorlik va qadamjolar oyoqosti qilindi, din

<sup>5</sup> Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, 37- бет

<sup>6</sup> Қаранг. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси – халқ этикоди ва буюк келажакка ишончдир. 9-бет.

peshvolari eng xavfli yov, muxolif sifatida mahv etildi. Sho'rolar davrida Islomga, asosan, yagona marksistik mafkura nuqtai nazaridan kelib chiqib yondoshildi. Dinga nisbatan bunday mafkuraviy yondoshuv tufayli, u necha asrlar davomida din negizida shakllangan, xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar – bu yozma yoki og'zaki, moddiy yoki ma'naviy meros bo'ladimi, ahloq yoki an'analar bo'ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo'ladimi – bularning barchasini rad etib keldi.

Kommunistik mafkura avj olgan davrlarda, xususan, o'tgan asrning 80-yillari oxirlaridagi mash'um yillarda ko'pchilik hatto janoza marosimlariga borish, yaqin kishisini yo'qotgan odamlardan ko'ngil so'rashga ham hayiqib qolgan edi. Ba'zi mas'ul lavozimda ishlaydigan odamlar mafkura tazyiqidan yurak oldirib, ota-onasi qazo qilganida dafn marosimlarida ishtirok etmaslikka ham majbur bo'lgan edilar. Bu davrda musulmonlar nishonlaydigan va muayyan diniy marosimlar bilan o'tkaziladigan mashhur kunlar – Ramazon va Qurbon hayit bayramlari ta'qiqqa duch keldi.

Mustaqillikka erishgach umuman dinga, xususan Islomga xalqimiz ma'naviyatining yuksalishi mezonlaridan biri sifatida qaraldi. Istiqloq yillarida Islom dini va diniy qadriyatlar yo'lida uzoq yillar davomida o'rnatilgan sun'iy to'siqlar, zararli g'ovlar, qilingan tazyiq ta'qiblar olib tashlandi, fuqarolarning diniy erkinliklariga chek qo'yish, yo'l bermasliklar batamom tugatildi. Diniy tashkilotlari dindorlarga, diniy qadriyatlarga nisbatan munosabat keskin o'zgardi. Chunki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Sho'rolar davrida dinning, xususan Islomning jamiyat va inson ma'naviy hayotidagi ahamiyati ataylab kamsitib kelindi, tazyiq va ta'qiqqa yo'liqdi.

Lekin har qanday shafqatsiz ta'qiblarga qaramay, xalqimiz baribir o'z muqaddas diniga sodiq qoldi. Xulosa shuki, mustaqillik bergan hidoyat yo'lini turli unsurlardan asrash, ularga berilmaslik lozim.

**Hadis va mashhur muhaddislar, Hadislar.** Qur'on ilk islomda yakka-yu yagona manba edi. Ammo arab istilolari natijasida vujudga kelgan xalifalik hududlarida yashayotgan turli xalqlar talab-extiyolariga Qur'on to'la javob bera olmas edi. SHu tariqa o'zgargan tarixiy sharoitdagi talab va extiyolarga javob beradigan yangi manbalar vujudga kelishi zarur bo'ldi. Islom olimlari Muhammad payg'ambarning hayot yo'li, u aytgan hikmatlari, ibratli xabarlar, qo'rsatgan yo'l-yo'riqlari, uning va saqobalarining yaxshi ishlari o'g'it va nasihatlarini bilgan shaxslardan eshitib to'play boshlaganlar. Bu yangi ma'lumotlarni «hadis», ya'ni «hikoya», «xabar», «hikmat» deb aytilish mumkin. hadislar to'plami- Sunna deb yuritiladi. Sunniy yo'nalishdagi musulmonlar tan olgan, hadislarga sunna hisoblanib, u Qur'ondagi keyindagi ikkinchi manba qisoblanadi. qadislarning dastlab Muhammadning qarindoshlari, xalifalar, saqobalar ishlatgan, ya'ni ular biron-bir ko'rsatmani (avvalo huquqiy xarakterdagi ko'rsatmani) qonunlashtirish uchun o'zlari Muhammadning so'zidan eshitgan so'zlarni dalil qilib keltirganlar. UI-IX asrlarda ming-minglab hadis to'plangan yoki to'qilgan. hadisshunoslik savob ish hisoblangan, hadislarini to'plash mustaqil bilimga aylangan, bu ishga ixtisoslashgan ilohiyot peshvolari esa muxaddislar, deb atalganlar. hadislarining aksariyati huquqiy va ahloqiy normalarni, marosim va urf-odatlar, oilaviy munosabatlar, kasb-kor, savdo-sotiq, ilm, ota-ona, farzand, qarindosh-urug', do'stlik, yaxshilik yoki yomonlikka oid bo'lgan. Ammo tarxiy mazmunga ega bo'lgan.

Muhammad tarjimai-holini, xalifalar, saqobalar faoliyatini bayon etgan qadislar qam bo'lgan. Islomda taniqli va nufuzli hisoblangan kishilar tomonidan etkazilgan hadislar (saqih) deb e'tirof qilingan.

Hadislarni etkazgan kishilar ishonchli bo'lsa, bu hadis yaxshi (xasan) deb atalgan. Ishonchli bo'lmagan shaxslar etkazgan hadislar bo'sh (zaif) deb atalgan. Haqiqiy rost, chin hadislarini sohta hadisdan ajratish eng muxim ish hisoblangan. Bu ishda ham qiyoslash, taqqoslash usulidan foydalanilgan. Masalan, biron hadis turli shaxslardan, turli, bir-biridan uzoq joylarda solishtirilgan ular aynan tug'ri kelsa o'shanday hadis saxiq, ya'ni chin hadis hisoblangan, agar bir-biriga bironta so'zda, ma'noda to'g'ri kelmasa unday hadis sohta yoki zaif hisoblangan va tashlab yuborilgan.

IX-X asrlarda hadisshunoslik va hadislarini to'plash tugallangan. To'plangan hadislarini hajmi, chinligi, tartibi, ahamiyati bilan musulmon olamida olti muxaddis (qadis to'plovchi), mashhur bo'lgan. Shulardan uchtasi Markaziy Osiyodan chiqqan. Muhandislar orasida eng orbo'lisi va



mashhuri Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (809-870 yillar) dir. U Buxoroda tug'ilib, shu erda o'z davri ilmlarini, ayniqsa diniy bilimlarini har tomonlama o'rgangan. So'ng o'z bilimlarini mukammallashtirish maqsadida Makka, Madina, Bog'dod, Damashq, Hijoz, Kufa, Nishopur kabi shaharlarga borgan. Bu shaharlarda juda ko'p olimlar: dinshunoslar, muqaddislar bilan uchrashgan, hadislar to'plagan, so'ng Buxoroga qaytgan. U Samarqand yaqinida vafot etgan. Uning maqabarsi hozir ta'mirlangan va ziyoratgohga aylantirilgan.

Buxoriydan bizga juda ko'p meros qolgan. Uning islom dinshunosligiga oid 20 taga yaqin katta hajmdagi asarlari mavjud. «Al-Jome'-Saxix», «At-tarix al-Kabir», «At-tarix as-sag'ir», «Al-Adab al-Mufrad» kabilar shular jumlasiga kiradi.

“Islom olamida hazrati imom Buxoriy va u kishining imom Muslim ikkalalarining ikki saxix kitobi paydo bo'lgach, olimu muxayusiklar juda nozik did bilan tekshirib, bahqs yuritganlaridan keyin eng ishonchli ekaniga qalblari taskin topdi. Ollohning kitobi Qur'oni Karimdan keyin Islomning ikkinchi manbasi- «Eng oliy va eng saxix» manba deb shu ikki kitobni tasdiqladilar». (qarang: Imom Buxoriy ta'rifi. Toshkent.-«CHO'lpon» nashriyoti.-1996 yil. 9-bet).

Buxoriyni butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari to'rt jildli «Al Jome' al-Saxix» («Ishonchli to'plam») bo'lib, u «Saxix- al-Buxoriy» nomi bilan ham ma'lumdir. Bu asar 160 qismdan iborat bo'lib, 3450 bobni o'z ichiga oladi. Chunki, Buxoriy 20 mingdan ortiqroq hadis to'plab, bulardan 7250 tasini mana shu kitobiga kiritgan. Buxoriy to'plamiga haqiqiy bilgan hadislarinigina kiritgan. Uning bu kitobdagi hadislarda inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma'naviy yuksalishi, pokligi, donoligi, yaxshi-yomonni ajrata bilishi kabi g'oyalar bayon etilgan. Xadislarni asosiy maqsadi-do'stlik, adolat, o'zaro yaxshi munosabatlarni mustahkamlash, insonni yomonlikdan asrashdir. Ismoil Buxoriyning «Saxix»i hozir to'rttala jildi o'zbek tiliga tarjima qilinib, undan xalqimiz foydalanmoqda.

Buxoriyning yaqin shogirdlaridan bo'lmish mashhur muxaddislardan biri Imom Iso at-Termiziydir (824-892 yillar). Undan «Jame' al-kabir», «Jome' at-Termiziy», «Ash-SHamoil al-Nabaviya», «At-Tarix», «Kitob az-Zuxd» kabi o'ndan ortiq aearlar qolgan. Termiziyning musulmon olamiga mashhur qilgan aeari «Jome' at-Termiziy» bo'lib, unda insonparvarlik g'oyalari keng ifodalangan. O'g'irlik, zo'ravonlik, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, manmanlik kabi salbiy axloqqa zid qusurlar qattiq tanqid qilingan.

Islomda mashhur bo'lgan muxaddislardan yana biri Abu Abdurahmon an-Nasoyidir (850-915 yillar). U Nisa (Turkmaniston) shahrida tug'ilib, horijiy Sharq shaharlarida, xususan Misrda o'z bilimini oshirgan. U Falastinning Romla shaxrida vafot etgan. Uning «at-sunai al-Kubro» kitobi mashhur bo'lgan. qolgan yana uchta hadis yozganlar Eron va Arab mamlakatlarida edi.

Hadislar Qur'on kabi muqaddas manba sifatida musulmonlarning ta'lim-tarbiya, fikx sistemasida, oilaviy tarbiyada hamon katta ahamiyatini saqlab kelmoqda.

**Tasavvufning va fiqh ilmining kelib chiqishi va taraqqiy etishi. Tasavvuf ta'limoti.** Tasavvuf – islomdagi mistik-asketik oqimdir. Mistisizm, mistika so'zlari qadimiy yunon tilidagi mystikos – «yashirin», «sirli» so'zidan olingan bo'lib, ilohiyat bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta'limot. Bu ta'limot insonning Xudo bilan aql va hissiyotdan yuqori bo'lgan sirli aloqasi bo'lib, uning natijasida insonda Xudoni bilish hosil bo'ladi. Qadimiy Sharq va yunon dinlarida ham insonni g'ayritabiiy kuchlar bilan bog'laydigan urf-odatlar (*misteriyalar*) – mistisizm elementlari bor edi. Yakkaxudolik dinlarining barchasida mistisizmga xos unsurlar mavjud. Hayotning barcha sohalari diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan o'rta asrlarda uning roli katta bo'ldi.

O'rta asrlarda xristianlikda mistisizmning ikki yo'nalishi – mavjud bo'lib, ular ortodoksal-cherkov mistisizmi va eretik mistisizm edi. Birinchisiga ko'ra, inson butunlay Xudoning hukmiga bo'ysungan bo'lib, uning xohishiga qarab unga etishishi mumkin bo'lsa, ikkinchisining ta'limotiga ko'ra, inson o'z harakatlari bilan ham Xudoga etishishi mumkin, deyiladi.

Tasavvuf, sufiy yoki mutasavvif so'zlarining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Sufiylik mualliflari ko'pincha uning kelib chiqishini «svf» («sof bo'lmoq») o'zagidan yoki «*ahl as-suffa*» (Payg'ambarning Madinadagi uyi yaqinidagi suffaga yig'iluvchi zohid kishilar)ga tegishli deb ta'kidlaydilar. G'arbiy evropa tadqiqotchilari to XX asrga qadar uning kelib chiqishini yunoncha – «*hikmat*» (*sophia*) so'zidan kelib chiqqan degan fikrga moyil bo'lishgan. Umar Farid Kam (1861-1944) «Vahdati vujud» asarida, SHamsiddin Somiy (1850-1905) esa «Qomusi turkiy»

asarining «tasavvuf» va «sufiy» moddalarida ushbu fikrni yoqlaydilar. SHayx Saffet Etkin ham shu nuqtai nazarni himoya qiladi. Ismoil Xaqqiy Izmirlik esa bu fikrni rad etib, zohidlik yo'liga suluk solgan kishilarning «sufiya» ismi bilan mashhur bo'lishi, yunoncha asarlarning tarjima qilinishi va falsafaning musulmonlar orasida tarqalishidan avval sodir bo'lgan, degan dalillarni ilgari suradi va «sufiy» so'zining yunon tilidan olinganligiga qarshi chiqadi. Endilikda bu so'zning «suf» (jun chopon) so'zidan kelib chiqqanligi haqidagi o'rta asr musulmon olimlari ta'kidlagan fikr umumqabul qilingan fikr hisoblanadi. Chunki sufiylarning asosiy belgilari ularning dag'al jundan kiyim kiyishlari edi. SHimoliy Arabiston va Suriyada xristianlikning turli sektalariga mansub jahongashta monax va anaxoretlar «sufiy» deb atalar edi, degan ma'lumotlar ham bor.

Tasavvufga asos bo'lgan tarkidunyochilik kayfiyati deyarli islom bilan bir davrda yuzaga keldi. Sufiylikning ilk namoyandalari deb Payg'ambarning Abu-d-Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (vafotlari VII asrning ikkinchi yarmi) kabi sahobalari hisoblanadi. Ammo islomdagi mistik-asketik oqimning shakllanishi VIII asrning o'rtalari-IX asrning boshlariga tegishli. Bu davrda sufiylar qatoriga muhaddislar, qorilar, qussoslar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qatnashgan jangchilar, kosiblar, tijoratchilar, jumladan, islomni qabul qilgan xristianlar kirganlar. Bu davrda *sufiy* yoki *at-tasavvuf* terminlari hali keng tarqalmagan edi: uning o'rniga *zuhd* (tarkidunyochilik) yoki *zohid*, *obid* so'zlari ishlatilar edi. Islomdagi bu mistik-asketik oqimning paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga musulmon jamiyatidagi ilk ikki asr davomidagi siyosiy-ijtimoiy beqarorlik, diniy hayotning murakkabligi, uning natijasida kelib chiqqan ma'naviy-g'oyaviy izlanishlar va boshqa dinlarning, xususan, xristianlikning ta'sirini ko'rsatish mumkin.

Ilk davr sufiylari, aniqrog'i, *zohid* va *obid*lariga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat edi: Qur'oni karim oyatlari ustida chuqur fikr yuritish, Qur'on va Payg'ambar sunnatlariga qat'iy amal qilish, kechalarini nafl ibodatlar bilan bedor o'tkazish, kunduzlari ro'za tutish, hayot lazzatlaridan voz kechish, gunohdan saqlanish, hokim va harbiylardan o'zini yiroq tutish, halol va harom orasini juda uzoq tutish (*vara'*), o'zini Alloh ixtiyoriga topshirish (*tavakkul*) va h.k.

Sufiylik ta'limoti *mu'taziliylar*dagi mavhum ilohiyotga oid fikrlar, obro'li shaxslarga ko'r-ko'rona taqlid qilish, muqaddas matnlarga so'zma-so'z itoat etishdan farqli o'laroq, insonga asosiy ob'ekt sifatida qaraydi: inson amallarini boshqaradigan ruhoniyyatning mayda qirralarini ham chuqur tahlil qilish, shaxsiy kechinmalarga e'tibor bilan qarash va diniy haqiqatlarni chuqur his qilish – ularga xos xususiyatlardan edi. SHu bois ham ziyrak psixolog, *Ilm al-qulub va-l-xavotir* (*Qalblar va fikrlar ilmi*)ga asos solgan al-Hasan al-Basriy (v. 728 y.) sufiylikning asoschilaridan hisoblanadi.

Al-Hasan al-Basriyning ashoblari, basralik zohidlar – Raboh ibn Amr, Rabi'a al-Adaviya (v. 752-53 y.), Molik ibn Dinor (131/748-49), SHaqiq al-Balxiy (v. 770 y.) va Fuzayl ibn Iyod (v. 778 y.), Sulaymon ad-Doroniylarning (VIII-IX asrlar) va'z va ma'ruzalarida Allohga bo'lgan sof muhabbat, unga yaqinlashishga bo'lgan intilish haqidagi fikrlar paydo bo'ldi. O'sha davrdan boshlab ular sufiylikka aniq mistik xarakter bag'ishladilar va bu ta'limotlar sufiylik mafkurasining o'ziga xos xususiyatiga aylandi.

IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish uchun qizg'in harakatlar davom etdi. Basra bilan bir qatorda Bag'dod va Xuroson sufiylik maktablari ham eng nufuzli maktablar sirasiga kirdi. Ularning namoyandalari avvalgidek sufiyning ichki dunyosiga asosiy e'tiborni qaratar edilar. Ularning *ahvol*, *maqom*lariga batafsil tavsiflar berdilar. Boshqa mistik ta'limotlar kabi sufiylikka «dunyo gunohkorligidan» poklanib, ilohiyotga yaqinlashishiga olib boradigan yo'l (*tariq*) sifatida qaradilar. «*Niyatlar*» haqidagi ta'limot yanada chuqurlashtirildi. Bunda o'z-o'zini nazorat (*muroqaba*, *muhosaba*) qilishga erishish uchun ibodatning «ixlos» va «sadoqat» bilan bo'lishiga asosiy urg'u beriladi. Bag'dodlik ilohiyotchi al-Muhosibiy tomonidan shakllantirilgan ta'limotning Xurosonda ham ko'plab tarafdorlari topildi va ular keyinchalik «malomatiylar» nomini oldilar.

Tasavvufda Allohga etishish (*vasl*) – unga qo'shib ketish (*baqo*) bilan bo'lishi mumkin, degan fikr ilgari surildi. Bu masala keng omma orasida tushunarli bo'lmaganligi va mazkur g'oya tarafdorlari al-Husayn ibn Mansur al-Halloj (qatli 922 y.), Ibn Ato, Ayn al-Qudot al-Hamadoni kabi kishilarning qatl etilishi boshqa sufiylarni xushyorlikka chaqirdi.

Tasavvufning manbalardagi talqini quyidagi yo'sinda: bunga ko'ra, ba'zi musulmonlar kalom va mantiq ilmlaridagi turli ko'rinishdagi tortishuvlardan, quruq bahslardan o'z qalblarini saqlab,

Alloh taoloning muhabbati yo'lida *zuhd* va *taqvoni* o'zlariga kasb qilib oldilar. Ularga «sufiy» deb nom berildi. Islom dinida birinchi sufiy nomini olganlardan Abu Hoshim ash-SHomiy (v. 776-77 y.), tasavvuf usuliga birinchi marta sharh bergan kishi Imom Molikning shogirdi Zunnun al-Misriy (v. 869-70 y.), minbardan turib birinchi marotaba tasavvufga chaqirgan kishi Abu Bakr ash-SHibliy (v. 945-46 y.), tasavvuf usulini kengaytirib tartibga solgan kishi Junayd al-Bag'dodiy (v. 1007-08 y.) edilar. Ayollardan birinchi sufiy bo'lgan kishi Robi'a al-Adaviyadir (v. 752-53 y.). Umuman olganda, tasavvufning rivojlanish yo'li islom tarixining ajralmas bir bo'lagidir.

**Tasavvuf tariqatlari.** Movarounnahrda sufiylik Xuroson orqali kirib keldi. Keyingi davr sufiylarining talqiniga ko'ra, Movarounnahrda sufiylik oqimi aqoid olimi shayx Abu YA'qub YUusuf al-Hamadoni (v. 1140-41 y.) shaxsidan boshlanadi. Unga ko'ra, YUusuf al-Hamadoni maktabi ikki tarmoqqa ajratiladi:

***Naqshbandiya tariqati.*** Uning ikkinchi nomi Xo'jagon yo'nalishi bo'lib, u shahar va shahar atroflarida rivojlangan va xalq orasida keng tarqalgan. Bu oqimga Xo'ja YUusuf al-Hamadoniyaning mashhur shogirdi Xo'ja Abdulxoliq al-G'ijduvoni (v. 1179 yoki 1220 y.) murshidlik qilgan. Keyinchalik bu oqimga Xo'ja Bahouddin Naqshband (1318-1389) murshidlik qilgan va shu davrdan e'tiboran Naqshbandiya tariqati butun islom olamiga tarqala boshlagan.

Osiyo zaminida eng keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri Naqshbandiyadir. Uning haqiqiy asoschisi Bahouddin Naqshband bo'lib, u Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog'ida dunyoga keldi. Bahouddin Naqshbandni yoshligida *Xojagon* tariqati shayxlaridan Muhammad Bobo-yi Samosiy ma'naviy farzandlikka qabul qildi. Bir muddatdan keyin Samosiy uning tarbiyasini Amir Kulolga topshirdi. SHu bilan birga Bahouddin Naqshbandning haqiqiy shayxi – *uvaysiya* yo'lida tarbiyalagan Abdulxoliq G'ijduvoni hisoblanadi. Ma'lum muddat Samarqandda yashab, u erdagi shayxlarning *suhat* va *tavajjuh*lariga musharraf bo'ldi. Amir Kuloldan xalifalikni olgach, Qosim shayx, Xalil ota va Mavlono Orif kabi YAsaviya shayxlarining huzurida ko'p yillar qolib, ulardan ilmu fayz olishga muyassar bo'ldi. Ikki marotaba hajga borib kelgan Bahouddin Naqshband hayotining oxirgi yillarini Buxoroda o'tkazdi. Islom olamida juda katta obro'-e'tiboriga ega bo'lgan Naqshbandning hayoti *manoqib*larga to'la bo'lib, bugungacha uning hayoti va tariqatini ifodalovchi juda ko'plab asarlar bitilgan. SHulardan, Faxruddin Ali ibn Husayn Vo'iz Koshifiyning «Rashahot ayn al-hayot» risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma'lumot beradi. Naqshbandiyaning silsilasi ikki boshqa-boshqa shahobchalar orqali hazrat Ali va hazrat Abu Bakrga borib etadi. Mashoyix silsilasiga qaraganda, bu tariqat boshqa ba'zi tariqatlar bilan aloqador ekanligi va shunga ko'ra o'sha davrda farqli nomlar bilan atalgani ma'lum bo'ladi. CHunonchi, hazrati Abu Bakrdan Boyazid Bistomiya qadar Siddiqiya, Bistomiydan Abdulxoliq al-G'ijduvoniya qadar *tayfuriya*, G'ijduvoniyaning Bahouddin Naqshbandga qadar *xo'jagoniya*, Naqshbanddan Xo'ja Ubaydulloh Ahrorga qadar *Naqshbandiya*, Xo'ja Ubaydulloh Ahrordan Ahmad as-Sirhindiya qadar *Naqshbandiya-ahroriya*, «Mujaddidi alfi soni» nomi bilan mashhur Ahmad as-Sirhindiyaning SHamsiddin Mazharga qadar *Naqshbandiya-mujaddidiya*, SHamsiddin Mazhardan Mavlono Xolidiy Bag'dodiyga qadar *Naqshbandiya-mazhariya*, Xolidiy Bag'dodiydan keyin esa *Naqshbandiya-xolidiya* deya tilga olingan.

Naqshbandiya ahli sunna e'tiqodiga amal qiluvchi tariqat bo'lib, *xafiy zikrga* asoslangan. Zohiran ko'zga tashlanadigan xatti-harakatlardan yiroq suhat va robitaga kuchli e'tibor beradi. Ko'pchilik bilan qilinadigan naqshbandiy zikrga «Xatmi xo'jagon» deyiladi. Bu zikrda tariqatga kirmaganlar qatnashishlari ta'qiqlanadi. Naqshbandiyada tariqatga kirgan darvish ushbu shartlarga amal qilishi shart: doimo tavbada bo'lish, sunnatga qat'iy amal qilish, bid'atlardan qochish, hayotiy qulayliklardan voz kechib, taqvoni kuchaytirish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzdor bo'lmaslik, birovni norozi qilmaslik, qazo namozlarini ado etish, Allohni har lahzada zikr qilish.

Naqshbandiya tariqati quyidagi to'rt tamoyil asosiga qurilgan: 1) shariat bilan *zohirni* poklash; 2) tariqat bilan *botinni* poklash; 3) haqiqat bilan *qurbi ilohiya*ga erishmoq; 4) *ma'rifat* bilan Allohga erishmoq.

Bundan tashqari yana o'n bir asos-tamoyil ham borki, Naqshbandiya tariqatiga kirgan har bir darvish unga rioya qilishi talab qilinadi. Abdulxoliq al-G'ijduvoni ishlab chiqqan bu tamoyillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. *Xush dar dam* (har nafasda hushyor bo'lish) – g'aflatga tushmaslik, har lahza Allohni eslash; har nafas olish-chiqarish chog'ida Allohni zikr qilish, agar g'aflatga tushsa, istig'for aytish;

2. *Nazar bar qadam* (qadamga nazar solish) – solik qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, yurayotganida oyoq uchiga qarab yurishi lozim, toki qalb ko'zi va nazari bo'lmag'ur manzaralarga qarashdan xalos bo'lsin. SHunda ma'naviy safarda ro'para keladigan tahlikalar tezda oshib o'tiladi. U tamoyil kamtar bo'lish va mavjud holatga shukur qilishni o'zida mujassam etadi;

3. *Safar dar vatan* (vatanda, o'z erida turib safar qilish) – solikning yomon ahloqdan yaxshi xulqqa, bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yo'nalishi. Darvish bir murshidi komil topgunga qadar jismonan sayohat qilishini bildiradi. Naqshbandiyalar fikricha, sayru suluk chog'ida solikni umidsizlikka tushirib, qiyinchilik keltirib chiqargani uchun murid murshidi komil topgach sayohat qilmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu tamoyil sayru suluk martabalarini bosib o'tishni o'zida mujassam etadi;

4. *Xilvat dar anjuman* (jamoat ichida turib yakkalanish) – zohirda xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo'lish. Solik moddiy borlig'i bilan xalqqa aralashib, turli bashariy va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, hayot talab qilayotgan amallarni ijro etayotib, qalban doimo Allohning huzurida ekanini bir lahza bo'lsa-da, esdan chiqarmasligidir. Bu hol doimiy zikr ma'nosini ham bildirib, zikrda erishiladigan eng oxirgi bosqich – maqomdir. Bahouddin Naqshband Naqshbandiyaning tamalini «xilvat dar anjuman» tashkil etishini ta'kidlagan. «Xilvatda shuhrat bor, shuhratda esa ofat bor» deya Naqshbandiyada xilvatga ko'p rag'bat ko'rsatilmaydi. SHu bois bu tariqatda suhbat va xalq bilan aralashib, ularning dardlariga sherik bo'lib, Haq roziligi yo'lida xalqqa xizmat qilish muhim o'rin tutadi. Naqshbandiyada Qur'ondagi «SHunday kishilar bordirlarki, ularni na tijorat va na oldi-sotdi Ollohni zikr qilishdan, namozni to'kis ado etishdan va zakotni (haqdorlarga) ato etishdan mashg'ul qila olmas» (Nur; 24-37) oyati ushbu holga ishora qiladi deb ta'kidlanadi;

5. *Yodkard* (eslash, zikr etish) – Allohni yod etib, boshqa narsalardan ko'ngilni uzish. Naqshbandiyada bu zikrning usuli quyidagichadir: murid o'zini *huzur* ichra shayxining ko'ngli ro'parasida tasavvur qilib, ko'zi – og'zini yopadi, tilini tanglayiga yopishtirib, tishlarini bir-biriga jipslab, nafas olmay, xoksorlik bilan qalban «kalimai tavhid»ni zikr qiladi. Bir nafas olib – chiqarishda uch daf'a zikr etishga urinadi va hokazo.

Naqshbandiya tariqatining eng mashhur shahobchalari: *ahroriya*, *mazhariya*, *mujaddidiya* va *xolidiya*. Mujaddidiyaning asoschisi Ahmad as-Sirhindiy Ibn Arabiyning *vahdat al-vujud* falsafasini tanqid qilib, *vahdati ash-shuhudni* yoqlab chiqqan. Sunniylik aqidasi zid kelmaydigan tasavvufiy tushunchaga ega bo'lgan Imom Rabboniyning eng mashhur asari «Maktubot» turkchaga ilk bor Mustaqimzoda Sulaymon Sa'diddin tomonidan o'g'irilgan va Istambulda nashr etilgan.

***Yasaviya tariqati.*** Shayx Ahmad Yasaviy (v. 1166-67 y.) va uning shogirdlari nomi bilan bog'liqdir. Ahmad YAsaviy sufiylik tariqatining targ'ibotchisi bo'lish bilan birga shoir ham edi. YAsaviy g'oyalari bir necha marotaba turli tahrirda nashr etilgan «Devoni hikmat»da jamlangan. Ammo, tadqiqotchilar orasida uning YAsaviyga taalluqliligi ilmiy muammo sifatida bahs etilayapti. Uning fikricha, dunyoning noz-ne'matlarini so'ragan kishi sufiy emas, balki *zuhd* va *taqvoni* ixtiyor etib, umrini toat-ibodatda hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi asl sufiydir. Uning «hikmatlar»i xalq orasida keng tarqalgan.

By tariqat asoschisi Xoja Ahmad Yasaviy bugungi Qozog'istonning janubidagi Chimkent viloyati, Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, u YAsida (hozirgi Turkiston) tavallud topgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu erda u Arslon-bob ismli mashhur shayxning xayrli duosiga erishgan. Oddiy xalq ommasi anglaydigan uslubda sufiyona hikmatlari, she'rlari bilan atrofdagi odamlarni xaq yo'lga chaqiradi, ularning ma'naviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. SHE'r-hikmatlari «Devoni xikmat» nomi ostida kitob holiga keltirilgan. Ahmad Yasaviy hayotligidayoq uzoq o'lkalarga muridlarini jo'natib, o'z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. Yasaviy *riyozat*, *chilla*, *zikr* va *mujohadaga* kuchli ahamiyat berib, hayotining aksari qismini *chillaxonada* o'tkazdi. Uning hayoti va karomatlari haqida ko'plab manoqiblar saqlanib qolgan.

Yasaviy tariqatida *jahriy zikr* ijro etiladi. Zikr chog'ida darvishning tomog'idan arraning tovushi kabi ovoz chiqqani uchun Yasaviya zikriga «*zikri arra*», «*zikri minshoriy*» deyiladi. Bu zikr

quyidagicha ijro etiladi: darvish ikki qo'lini tizzasi ustiga qo'yib, nafasini qorniga chiqarib «ha» deb, yana qorni tomonidan nafas olib bosh, bel, elka qimirlamagan holda «Hayy» deydi va zikr shu tarzda davom etadi. Zikrning 12 zarb turi ma'lumdir. Yasaviylikda *xilvat*ga ham katta ahamiyat beriladi. Bu tariqatda muhim o'rin tutgan asoslar quyidagilardan iborat: Allohni tanish (*ma'rifatulloh*), mutlaq jo'mardlik, rostgo'ylik, o'zini Allohga topshirish (*tavakkul*) va teran tafakkur.

Yasaviya tariqati, asosan, sunniy e'tiqodiga amal qilish bilan birga Xuroson *malomatiya* maktabidan biroz ta'sirlangani sababli, terma madaniyat asosiga ega. Uning xususiyatlari keyinchalik yuzaga kelgan ko'plab tariqatlarda aks etgan. Hatto *Naqshbandiyani* Yasaviyaning bir shahobchasi deb biluvchilar ham bor. Ahmad Yasaviyning eng mashhur xalifalaridan Sulaymon Hakim ota Boqirg'oniy (v. 1186 y.), Sufiy Muhammad Donishmand az-Zarnuqiy va boshqalar ma'lum.

**Kubraviya tariqati.** Bu tariqatning asoschisi – shayx Najmiddin Kubro al-Xivaqiy (v. 1221 y.) bo'lib, tasavvuf tarixidagi eng yorqin siymolardan biridir. Xivada tug'ilgan. YOshligida diniy ilmlarni egallagan. Ayniqsa, hadis ilmida tengi yo'q edi. Turli o'lkalarni kezgan. Misrda shayx Ruzbihon al-Misriy bilan tanishib, unga murid bo'lgan. Qattiq riyozatlar natijasida murshidining tavajjuhiga erishib, uning qiziga uylangan. Bundan keyin u Ammor YOsirga murid bo'lgan, uning tavsiyasi bilan esa Ismoil Kasriy dargohiga kirgan va u erdan «*xirqai tabarruk*» kiygan. YAna Misrga – shayxining yoniga – qaytgan Kubro, shayxi tomonidan o'z vatani Xorazmga *irshod* vazifasi bilan jo'natiladi. Kubro Xorazmga ko'chib borib, kubraviya-zahabiya tariqatiga asos solgan. Qisqa vaqt ichida atrofda gilarining muhabbatini qozondi, shogirdlar tarbiyalab, voyaga etkazdi. Chunonchi, Fariddin Attorning ustozisi – shayx Najmuddin al-Bag'dodiy bilan «Mirsod al-ibod» asari muallifi mashhur Najmuddin Doya Kubro shogirdlari jumlasidandir. Najmiddin Kubro mo'g'ullar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan.

Yozgan asarlari orasida eng mashhuri «Usuli ashara» risolasi bo'lib, bu asar barcha tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ismoil Xaqiy Bursaviy tomonidan sharh etilgan. «Favoihul jamol» asari esa tasavvuf ruhshunosligi (psixologiyasi) mavzusidadir. Kubroning asarlari Eron, Kichik Osiyo va Hindistondagi tariqat muhitlariga kuchli ta'sir qilgan. Chunonchi, bu tariqat naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta'sir ko'rsatgan.

Kubraviya ko'proq O'rta Osiyo, Rossiya va Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubraviyaning o'ziga xos jihatlari chordona qurib, jahriy zikr qilish. Uning tariqat silsilasi Ali ibn Abi Tolibga borib ulanadi. Tariqat asoslari «Usuli ashara» asarida tavsif etilgan. Kubraviyaning mashhur shahobchalari quyidagilar: baho'iya xilvatiya, firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, nurbaxshiya, barzanjiya.

Shariat meoyorlari atrofida keskin kurashlar u yuzaga chiqarilgan paytdayoq boshlangan va uzok davom etgan. Natijada shariatning tarkibiy qismi hisoblangan fiqh, so'ngra ijmo'o, qiyoslar vujudga kelgan, so'ngra esa 4 ta diniy - huquqiy mazhab - hanafiya, malikiya, shofioiya, xanbaliya yuzaga kelgan. Bularning asoschilari yirik xuquqshunoslar bo'lib, shariatning muayyan meoyorlarini tavsiflagan, tahlil etgan, sharoitga moslagan, zararli jihatlardan uni tozalagan; ular o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy guruxlarning manfaatlariga moslab talqin etganlar,

Xulosa shuki, shariatda musulmonlarning xuquqiy, oilaviy, maishiy munosabatlari, xulkatvorlari, meros, mulk, urf-odatlariga xaqidagi meoyorlar bayon etilgan.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Islom asoslari. Islomning asosiy oqimlari va yunalishlari. Mohiyati va mazmuni.
2. Hadis tushunchasining ma'nosi, uning islom dinidagi roli va ahamiyati haqida gapirib bering.
3. O'zbekistonda hadisshunoslik rivoji. Kalom falsafasi va fiqh ilmi.
4. Tasavvuf va hozirgi zamon.

## MAVZU BO'YICHA TESTLAR

### 1. Arabiston yarim orolining islom dinidan avvalgi davrini nima deb ataganlar?

1. Johiliya
2. Nodonlik
3. Butparastlik
4. Ma'rifatsizlik

### 2. Islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo'nalishi qanday nomlanadi?

1. Fiqh
2. Hadis
3. Mazhab
4. Tasavvuf

### 3. VII-asrda paydo bulgan musulmon davlati nima deb ataladi?

1. Musulmonlar davlati
2. Islom imperiyasi
3. Arab imperiyasi
4. Arab xalifaligi

### 4. Islomda iymondan keyingi o'rinda turadigan farz?

1. Namoz
2. Ro'za
3. Zakot
4. Haj

### 5. Islom dini qachon paydo bo'ldi?

1. Eramizgacha V-asrda
2. Eramizning VII-asrida
3. Eramizning VIII-asrida
4. Eramizning VI-asrida

### 6. Islomning qanday asosiy yo'nalishlari bor?

1. Modernizm va fundamentalizm
2. Ismoililik va vaxxobiylik
3. Sunniylik va shialik
4. Baxoiylik va bobiylik

### 7. Islom dinining nazariy va g'oyaviy manbalari nima?

1. Shariat qonun-qoidalari
2. Muxaddislar yozgan hadisi shariflar
3. Qur'oni Karim, hadisi sharif
4. Tasavvuf konunlari.

### 8. Shariat nima?

1. Tasavvuf qoidalarini o'rgatuvchi ta'limot
2. Barcha musulmonlar uchun bajarishi majbur bo'lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko'rsatmalar tizimi
3. Hadislar asosida tuzilgan to'plam
4. Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun

### 9. Hadislar nima?

1. Jahon musulmon ulamolari uyushmasi chiqargan qonun-qoidalar
2. Qur'oni Karimga yozilgan sharhlar
3. Muhammad payg'ambarning hayoti, faoliyati, diniy va axloqiy ko'rsatmalarini mujassamlashtirgan ta'limot
4. Shariat qonunlari va oliy ulamolar fatvolari jamlangan diniy kitob.

#### 10. Islomda kimlar to'g'ri xalifalar deb hisoblanadi?

1. Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali
2. Muxammad, Ali, Xasan, Xusan
3. Abu Xurayra, Ibn Xanbal, Ibn Xoshim
4. Ibroxim, Muso, Iso, Dovud

#### MAVZU BO'YICH TAQDIMOTLAR



# ISLOM TALABLARI

- ▶ kalima keltirish
- ▶ namoz o'qish
- ▶ ro'za tutish
- ▶ zakot berish
- ▶ haj qilish



# IYMONNING TALABLARI (ISHONMOQ)

- ▶ Allohga
- ▶ Farishtalarga
- ▶ muqaddas kitoblarga
- ▶ payg'ambarlarga
- ▶ Oxirat kuniga
- ▶ taqdirning ilohiyligiga
- ▶ qayta tirilishga





## ILOHIY KITOBLAR

- ▶ Odam alayhissalomga – 10 sahifa
- ▶ Shis alayhissalomga – 50 sahifa
- ▶ Idris alayhissalomga – 30 sahifa
- ▶ Ibrohim alayhissalomga – 10 sahifa
  
- ▶ Tavrot – muso alayhissalomga
- ▶ Zabur – dovud alayhissalomga
- ▶ Injil – iso alayhissalomga
- ▶ Qur'on – Muhammad (sav) ga



## QUR'ONI KARIM - ISLOM DININING MUQADDAS MANBAI



"Qur'on" – (arabcha "qiroa" – o'qimoq, qiroat qilmoq), muqaddas kitob bo'lib, u **114 sura, 6236 oyaldan tashkil topgan.** unda Islom dinining qonun – qoidalari, iymon – e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlar o'z ifodasini topgan.

# QUR'ONI KARIM

- ▶ 23 yil davomida nozil bo'lgan.
- ▶ u ikki qismga bo'linadi:
- ▶ 88 ta **makkiy** (makka shahrida nozil bo'lgan) suralar;
- ▶ 26 ta **madaniy** (madina shahrida nozil bo'lgan) suralar.
- ▶ Qur'oni Karimning 4 ta nomi bor:  
Qur'on, Furqon, Zikr, Kitob.


# TOSHKENTDAGI USMON MUSHAFI



## HADISLAR (ARABCHA – XABAR, YANGILIK)



Islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba bo'lib, hadislar to'plami **sunnat** deb ataladi. Hadisi shariflarda Muhammad alayhissalomning so'zlari, faoliyatlari va sahobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon etilgan.

## IMOM AL BUXORIYNING "AL-JOME' AL-SAHIH" ASARI QO'LYOZMASI



## TASAVVUF TARIQATLARI NAMOYANDALARI – BARKAMOLLIK TIMSOLLARI

2  
4




## TASAVVUF ALLOMALARI

2  
5



# SO'FIY - DARVESHLAR



## 14-Mavzu. ISLOM QADRIYATLARI.

### Reja:

1. Islom dinida axloqiy qadriyatlar.
2. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlar.
3. Islom dinining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.

Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablarning ko'p asrlik hukmronligi bilan bog'liq. O'rta Osiyoga arab yurishlari 643-644 yillarda boshlangan bo'lsa ham, o'lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so'ng faqat arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo'lishi oqibatida O'rta Osiyo ikki qismga bo'lindi:

1) Movarounnahr («Ikki daryo oralig'i») va 2) Arodi at-turk («Turklar yerlari», ya'ni arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar yerlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshlagan.

Motruidiya ta'limotiga ko'ra, insonning tilda (iqror bi-l-lison va tasdiq bi-l-qalb) dinni qabul qilishi uni musulmon deb tan olish uchun kifoya qiladi. Diniy amallarning to'liq bajarilishi ikkinchi darajali masaladir. Keyinchalik murji'iyalar g'oyalari asosida ilohiyot fanida uch yirik ta'limot – Najjoriya, Karromiya va Moturidiya shakllanadi. Moturidiya kalom maktabining vujudga kelishida Samarqand ulamolar muhiti katta rol o'ynadi. Bu davrda Movarounnahr siyosiy markazi arablar ta'siri ostida shakllangan Buxoro shahri bo'lsa ham, madaniy va iqtisodiy hayotda So'g'diyaning qadimgi poytaxti hali salmoqli o'rin tutar edi. Milliy qadriyatlarni, jumladan ilohiyot sohasida eski an'analarni ko'proq saqlab qolgan Samarqand madaniy muhitida yangi ta'limotning vujudga kelishi bejiz emas edi. U. Rudolf tadqiqotlarining ko'rsatishicha, Moturidiya ta'limotining paydo bo'lishi bir necha bosqichlarda yuz berdi. Birinchi bosqich murji'iy-hanafiy ilohiyotchilari Abu Muqotil as-Samarqandiy (823 y.) va Ahmad ibn Nasr al-'Atakiy (IX asr) nomlari bilan bog'liq. Bu ta'limot keyinchalik Samarqanddan butun islom olamiga tarqalib, ahl as-sunnaning Ash'ariya bilan bir qatorda ikki ilohiyot maktabidan biriga aylandi.

So'nggi tadqiqotlar Movarounnahr hududlarida islomning ilk davrlarida ratsionalizmning keng tarqalganligi haqida guvohlik beradi. O'lkada tabiiyot (Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy,

Abu Rayhon al-Beruniy) va falsafa (Abu Nasr al-Forobiy, Ibn Sino) ilmlari bilan bir qatorda ratsionalistik diniy ilmlar ham barq urib rivojlandi. Mu'taziliylar, ismo'iliylar, ilk sufiylar (al-Hakim at-Termiziy) madaniy hayot tarixida chuqur iz qoldirdilar. Bunga javoban islom dunyosining markaziy hududlaridan traditsionalistlar (an'anachilar, ahl al-hadis) ta'limotlari kirib kela boshladi. Islom ta'limotini keyingi davrda paydo bo'lgan yangiliklardan (bid'at) tozalash bu oqimning asosiy shiori bo'lib qoldi. Bu tanqidiy ruh muhaddislarga siyosiy sohada ham ancha muvaffaqiyatlar keltirdi. Hadislarni yig'ish, tartibga solish va faqat ishonchlilarini to'plamlarga jamlash borasida mislsiz ishlar qilindi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom ad-Dorimiy, 'Abd ibn Humayd al-Kashshiy, Kulayb ibn al-Haysam ash-Shoshiylar hadis to'plamlari bilan islom tarixi zarvaraqalariga o'z ismlarini yozdilar. Natijada muhaddislarning ijtimoiy-siyosiy mavqei Movarounnahrda, jumladan poytaxt Buxoroda, beqiyos o'sdi.

Ma'lumki, islom madaniyati aksariyat hollarda shahar tamadduni bo'lib, u asosan shaharlarda markazlashdi. O'rta Osiyoning chetki hududlari, ayniqsa turk hukmdorlari qo'l ostida bo'lgan mintaqalarda (Arodi at-turk), islomlashuv jarayoni erkin holda kechdi. Buning natijasida xalq urf-odatlari, milliy qadriyatlar, madaniy an'analari, hatto boshqa konfessiyalar amaliyoti bunday bag'rikenglik sharoitlarida islomiy tasavvurlar bilan uzoq muddatli o'zaro muloqot va ta'sir jarayoniga kirishdi. Shunday qorishiq an'analar vakillari bo'lgan xarizmatik shayxlarning XIII asr siyosiy hayotidagi mavqelari behad oshdi. Ular nafaqat ko'chmanchi aholi, balki shahar aholisining ham e'tiborini o'ziga qaratdi. Kosiblar, hunarmandlar, savdogarlar o'z guruhiy manfaatlarini bu shayxlar faoliyatlarida mujassamlashtira boshladilar. Bu esa sufiy tariqatlarining shakllanish jarayonlarini tezlashtirib yubordi. Yangi tariqat nazariy ta'limotlarini ishlab chiqishda tasavvuf tarixining mumtoz davr ta'limotlari qo'l keldi. Bu sohada, masalan Naqshbandiya ta'limoti uchun Xoja Muhammad Porso (1420 y.) xizmatlari beqiyos bo'ldi. Sufizm amaliyotining asosini zikr tashkil etadi. Tariqat hayotini tashkil etishda murshid-murid (binom) aloqalari muhim rol o'ynaydi. Aynan shu aloqa jamiyat ichida o'zaro manfaatlarni birgalashib himoya qiluvchi tashkilot tuzilishi uchun asos bo'lib xizmat etdi. Kichik sufiy jamoalari rahbarlarining tariqat sarhalqasi rahbarligida birlashishi ularning jamiyatdagi qudratli iqtisodiy, ijtimoiy, hatto siyosiy kuchga aylanishiga olib keldi. Ulardan bu o'rinda o'lka hayotida muhim rol o'ynagan Sayf ad-din Boxarziy, Termiz sayyidlari, Sayyid Baraka, Xoja Ahror, Maxdum-i A'zam, Mir-i Arab, Lutfulloh Chustiy, Juybor xo'jalarni aytib o'tish mumkin. Siyosiy tarqoqlik yillarida o'z tashkilotlari madadiga suyangan bu shayxlarning mamlakat siyosiy hayotiga ta'siri yuqori bo'lgan. Xonlar, hukmron doiralar pirlarning qudratli siyosiy mavqeini chegaralash uchun turli uslublardan istifoda etganlar. Naqshbandiya, Kubraviya, Yassaviya, Ishqiya, Qodiriya tariqatlari shayxlarini bir-biriga qarshi qo'yish siyosati, «shariat maqomini ko'tarish» shiorlari bunda qo'l keldi. Tariqat pirlari tez orada ulamolar qatoriga qo'shilib, jamiyatdagi rasmiy diniy mansablarni egallab oldilar. Ular orasida mudarrislik ham bor edi. Ammo an'anaviy madrasa ta'limi va sufiylik tarbiyati orasidagi aloqadorlik, o'zaro munosabat, muvozanat kelajakda tadqiq qilinishi lozim bo'lgan masalalar qatorida qolib kelmoqda.

Musulmon dunyosida diniy ta'limning tashkil etilmagan shakliasosiy bo'lib, unda ustoz-shogird binomi muhim rol o'ynaydi. Maktab-madrasa tizimi vujudga kelishida metsenatlik (homiylar) hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Davlatning yoki shahar boylarining homiyligi bu tizim bitiruvchilariga o'ziga xos ijtimoiy buyurtma vazifasini o'tar edi. Avvaliga ijtimoiy vazifa hisoblangan o'quv jarayonini tashkil etish ustidan nazorat qiluvchi shayx al-islom mansabi ham ko'p o'tmay davlat e'tiborini o'ziga qaratdi. Natijada diniy ta'lim tizimini tashkil etish jamiyat hayotida strategik omillardan biriga aylandi. Kim bu jabha ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqara olsa, u jamiyat rivojlanishi yo'nalishlarini belgilay boshladi.

Mazkur xatti-harakatlarning salbiy oqibatlaridan eng asosiysi – diniy madaniyatning nazariy qismi daf etilib, diniy hayot dinning quyi darajasi – xalq islomi bilan cheklanib qolganligidir. Natijada ma'naviy qashshoqlashish chuqurlashib, milliy madaniyat bir taraflama rivojlana boshlanadi. Diniy hayot oilaviy marosimlar (janoza, xudoyi), tabibchilik, folbinlik, muqaddas joylarga ziyorat (mushkil-kushod) kabi amallar bilan chegaralandi. Oilalarda, hujralarda noqonuniy (yashirin, nolegal) xususiy diniy ta'lim berish kuchaydi. Tabiiyki, tez orada bu sohalardagi faoliyat nazorat qilib bo'lmaslik darajasiga yetdi. Ba'zi diniy faollar siyosiy muxolifat mavqeini egalladilar. Mayda tovar ishlab chiqarish (tomorqa, savdo-sotiq, mayda va o'rta biznes) kapitalistik rivojlanishning negizidir. Bu iqtisodiy muhitning mafkurasi aksar hollarda xalq islomidan ozuqa

oladi. Mazkur ijtimoiy qatlamlarning kuchayishi yangi diniy ideologlarni maydonga olib chiqdi. Noto'liq, bir tomonlama bilim olgan, nazariy jihatdan zaif din peshvolari ikki yo'l o'rtasida turib qoldilar.

Islom madaniyati alohida olingan muayyan jamiyatlarda rivojlandi va buning natijasida ma'lum mintaqaviy shakllarga ega bo'ldi. Konkret islom faqat mintaqaviy shakllardan tashkil topgan. Mintaqaviy islom asosida milliy madaniyat, mafkura va manfaatlar yotadi. Uzoq asrlar rivojlanish jarayonida O'rta Osiyoda ham islom dini milliy madaniyat bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Natijada O'rta Osiyo sivilizatsiyasi doirasida islomning to'la qonli, o'z-o'ziga yetarli, har taraflama boy shakli vujudga keldi. Unda umumislomiy unsurlar bilan birgalikda mintaqaviy milliy xususiyatlar ham mavjuddir. Yuksak darajada tayyorgarlik ko'rgan mahalliy ulamolar asrlar osha mazkur nazariy va amaliy bilimlar xazinasini saqlab keldilar va uni o'zgargan davrga moslab turdilar. Bu ulamolar muhiti – mintaqaviy islomning muhim tashkil etuvchi qismidir. Keyingi ikki asr davomida bu muhitning surunkali zaiflashib borishi mintaqamizga islom dunyosining boshqa qismlaridan begona milliy manfaat vakillari, ifodachilari bo'lgan yot ulamolarning kirib kelib, faoliyatlarini boshlab yuborishiga sabab bo'ldi. Milliy tiklanish, rivojlanish shartlari diniy hayotda normal holatni shakllantirishni talab etadi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda inson qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan bir davrda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy g'oyalar orqali qadriyatlar majmuini yanada boyitishni talab qilmoqda. Ayniqsa, Sharq islom sivilizatsiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan tasavvuf ilmi namoyandalarining ma'naviy merosi bugungi madaniy transformatsiya jarayonini me'yorlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish uchun muhim gumanistik ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda buyuk mutafakkirlar, davlat arboblari va allomalarning hayoti ular qoldirgan ma'naviy meros, nodir qo'lyozmalarni tadqiq qilish, asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish bo'yicha davlatimizning keng ko'lamlı siyosati amalga oshirilmoqda.

Butun jamiyatning dahlsizligi aynan oilaning jipsligi bilan bog'liq. Demak, qaysiki, jamiyatdagi oilalar mustahkam emas ekan, bu jamiyat harbiy qudrati va boyligidan qat'iy nazar halokatga mahkumdir. Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

Oila – jamiyatning eng kichik zarrasi bo'lib, jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Er va xotin–ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam–bu oiladir. Agar oila tinch-totuv, ahil bo'lsa, olam tinch va obod. Aks holda, turmush do'zaxga aylanadi, oila zindonning o'zi bo'ladi, buning jabrini esa, er va xotinning o'zigina emas, balki farzandlari, yaqinlari ham tortadi.

Oilaviy muhabbat odamlar orasida keng tarqalgan eng mustahkam muhabbatdir. Shuning uchun ham u kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatish jihatidan odamning eng muhim va eng hayotbaxsh tuyg'usidir. O'z uyida baxtli bo'lgan kishigina chinakam baxtlidir. Xarob uydagi baxtsiz odamlardan tashkil topgan jamiyatning halokatga mahkumligi shundan kelib chiqadi. Har bir insonning oila oldida, oilaning jamiyat oldida mas'uliyati bor. Bu ikki ijtimoiy tushunchani bir-biridan ayirish qiyin. Soddaroq qilib aytganda, oilasida halovati yo'q, odamning xizmat joyida ham halovati bo'lmaydi.

Oilaga munosabat masalasi qadim davrlardan donishmandlarimizning diqqat e'tiborida bo'lgan. Zardushtiylikning mukaddas kitobi “Avesto” da keltirilgan oila va shar'iy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g'oyatda qimmatli fikrlar bugunda xam o'z axamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, “Avesto”da oila- nikoh munosabatlari, oilaviy burch va farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. Unda qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qat'iy man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Unda ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi, bir yo'la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor ekanligi uqtiliradi

Dunyoga mashhur olim, ma'rifatparvar Abu Nasr Farobiy inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlarini mashhur “Fozil odamlar shahri” va “Baxt-saodatga erishuv xaqida” asarlarida bayon etadi . Farobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir xam oilaviy xayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt-saodatga erishish yo'llari hakida

gapirib, shunday deydi: “Rahbarlar (er yoki xotin) yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni xam o'zgartirmog'i kerak. Aks xolda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech kanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi”. Shuningdek, “Baxt saodatga erishuv yulida nimaiki (bilim, odob-axlok, kasb-xunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustaxkamlamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga xarakat qilmoq zarurligini ta'kidlaydi” .

Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan. Sohirqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orkali sog'lik - salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob- axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosh berib, kelin tushurdim” .

Axmad Donishning «Navodir ul-vakoye» («Nodir voqealar») nomli asarida inson muayyan yoshga yetgandan keyin unda oila qurish, uylanishga zarurat paydo buladi. Albatta, bu davrda inson oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari xakida tushunchaga ega buladi. Darxakikat, donishmand ayolni sevmok, xurmat kilmok xar bir erkak (er)ning vazifasi ekanligini aytib utadi. Oilaviy baxt insonlarning orzu-istaklari, maksadlariga yetishib yashashdir. Axmad Donish oilaviy baxt ko'proq xotinlarga bog'liq, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq xech bir ne'mat yo'qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo'lidir, degan fikrlarni xamda oila qurish motivlarini kengrok yoritib beradi va uylanish shartlari hamda nikoh odoblari haqida to'xtalgan.

Agar hayotimizning barcha maqsad-mazmuni oiladagi shaxsiy baxtimizdan iborat bo'lganida, shaxsiy baxtimiz birgina oiladagi muhabbatda o'z ifodasini topganida edi, hayot deganlari chindan ham qop-qorong'u sahroga aylanib qolgan bo'lardi. Inson uchun yurakning ma'naviy olamidani tashqari hayotning yana bir buyuk olami – ijtimoiy faollik olami ham bor. Buni inkor etish yoki chetlab o'tishga urinish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ham ming yillar davomida bu masaladagi manbalarga g'oyat jiddiy munosabatda bo'lganlar. Payg'ambarlar ummatlarini pok va halol oila qurishga da'vat etganlar. Bu masalada insoniyat tarixi davomida yashab o'tgan donishmand faylasuflarning diqqat-e'tiborlaridan ham chetga qolmagan. O'tmish ustozlarning fikrlari biz uchun hamisha qadrli. Ammo, ular o'z davrlaridan kelib chiqib, oilaga turlicha talablar qo'yganlar.

Naqshbandiya tariqatining nazariyotchisi Xojagiy Ahmad Kosoniy ilmiy merosida oila, nikoh va farzand tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Mutasavvifning oila va farzand tarbiyasiga oid asarlari O'rta Osiyo xalqlari hayoti ma'naviy va ahloqiy rivojlanishida ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan ushbu masalalar mutasavvifning “Asror-un-nikoh”, “Battixiya”, “Ganjnoma”, “Guli Navro'z” kabi risolalarida o'z aksini topgan. Lekin “Asrorun – nikoh” asari bevosita oila va farzand tarbiyasi masalalarni yorituvchi asardir.

Asarda islom dini va shariatining nikoh to'g'risidagi shart-sharoit va siru asrorlariga hamda nikohning muqaddasligi, barcha yaxshi-yomon ishlar oiladan boshlanishi, nikohdan oldingi va keyingi ma'naviy poklik kabilar to'g'risida fikr yuritilgan. “Ammo ba'd bu nusxani ta'lif etishning sababi shu erurkim, bu kambizoat zaif odamlarga nazar tashlab ko'rdiki, ularning ko'pchiligini jahlu nodonlik yuzasidan musulmonlarni Amri sharifga rahnamolik qilish yo'lida mubolag'a ishlatganliklari uchun nihoyatda ko'p ta'nayu malomatlar qilganlar va o'zlarini zararlantirganlar” . Risolaning so'z boshida bu asarning yozilishiga shu sabab bo'lgan kim, o'sha davrda jamiyatning kichik bo'g'ini hisoblangan oilada ma'rifatsiz va madaniyatsiz munosabatlar yuz berayotganligi tufayli bu masalaga muallif ilk risolasini bag'ishlagan. Xojagiy Ahmad Kosoniy o'z davrini tahlil qilar ekan, soxta shayxlar va “chalamulla” lar tomonidan oddiy xalq vakillariga oila, nikoh masalalari bo'yicha Qur'on oyatlari va hadislarida keltirilgan dalillarni noto'g'ri talqin qilinishi natijasida odamlar o'rtasida nikohga oid savollar ko'payib, aksariyat hollarda johillik alomatlari kuzatilayotganligini aytib o'tadi.

Xojagiy Ahmad Kosoniy fikricha, oila borasida Alloh tomonidan berilgan benihoya sirlar mavjud bo'lib, shulardan biri Hazrati Haq subhonahu ta'olo dunyoni yaratib, toki dunyo ma'mur (obod) bo'lishi uchun Hazrat Odam alayhissalomni yaratdi. Faqatgina Odam alayhissalomning o'zi



bilan dunyo obod bo'lmasligini inobatga olib, Hazrati Havoni ham yaratdi va unga juft etdi, ularni xalqning kasrati va ko'payishi uchun yubordi hamda nikohga amr etdi.

“Nikoh” so'zi “qo'shilish”, “kirishish”, “bog'lanish” ma'nolarini bildiradi. Er-xotin o'rtasini bog'lovchi bitimga “nikoh” deyiladi. Chunonchi, birga turmush qurishlari uchun shar'iy to'siq bo'lmagan ayol bilan erkakning bir-biridan lazzat olishlarini halol yo'lga soluvchi bitim nikohdir.

Nikoh ahdi (shartnomasi) bitimlarning eng yaxshisi sanaladi. Zero, nikoh ikki inson o'rtasini mehr-muhabbat rishtasi bilan bog'laydi. Nikoh zurriyot qoldirishga birinchi qadam, jinsiy a'zoni buzuqlikdan saqlash yo'lidir.

Qovushishdan maqsad kullning juz'ga yetishishidir, yoki juz'ning juz'ga yetishishi. Chunki, bu toifa kullning ko'rinish joyi bo'lganlar. Ularni olamning a'zosidan har juz'ga ko'p yetishishi qovushishdur, har narsaga boqsa shuni ko'radi.

Ularning a'zosi olam ekanligi ma'lum bo'ldi, ularning buyukroq va oliyroq juz'ga ko'p yetishi yaxshi ekan, zeroki odam avlodidan bo'lgan, olam a'zosidan hech juz' ayollardan buyukroq va oliyroq, latifroq va sharifroq emas. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Baxtiyor oila” asarida nikohnisharafli, muborakahd, deb ta'kidlaydi. Alloh taolo uni bandalar ifoydasi, ezgu maqsadlarga erishishlari uchun joriy qilgan.

Nikohdan ko'zlangan muhim maqsad zurriyot qoldirish, haromdan saqlanishdir.

1. Zurriyot qoldirish.

Uylanishni istagan kishining birinchi maqsadi Yaratganga ibodat qiladigan, haqiga duo qiladigan, insonlar o'rtasida nomini saqlaydigan solih farzand k o'rish bo'lishi lozim.

2. Haromdan saqlanish.

Uylanishdan eng asosiy maqsad shahvatni qondirishgina bo'lmay, zinodan, boshqa buzuqliklardan saqlanish hamdir. Shahvatni to'g'ri qondirish bandani harom dansaqlaydi. Inson butun fikrinin shahvatni qondirishga qaratib, takror-takror zino qilishga berilsa, maqsadi o'zini zinodan saqlash bo'lmasa, uning hayvonlardan qanday farqi qoladi?!

Shunday ekan, oila qurish va nikohdan erda ham, ayolda ham to'g'ri maqsad bo'lishi kerak. Bu maqsad haromdan saqlanish uchun shahvatni halol yo'l bilan qondirishdir. Ammo uylanishdan murodi faqat jinsiy qo'shilish havasibo'lgan, bundan boshqa fikri yo'q odamlar uchun uylanish faqat shahvoniy hirsni oshiradi. Ular o'zlarining halol ayollari bilan qanoatlanmaydilar, balki haromga og'ib ketadilar.

Xojagiy Ahmad Kosoniy zino haqida quyidagi fikrni “u qanday erkakdirki, ikki - uch kunlik shahvat talabida tab'u nafs yuritish taqozosiga ko'ra, o'zini abadiy azob - uqubatlarga giriftor etadi va u shaxs dunyovu oxiratda uning dushmanidir, uning o'z dushmanini tavba qildirish yo'li bilan rozi qilishdan o'zga chorasi yo'q” deb yozgan.

Islom jamiyati tom ma'nodagi poklik jamiyatdir. Hamma tomon, hamma narsa pok bo'lishi kerak. Bu jamiyatda zino harom sanaladi. Shuningdek, zinoga sabab bo'ladigan narsalar ham haromdir. Zino insonning ruhiy tinchligini yo'qotadigan razolatdir.

Iffatli bo'lish kishiga tinchlik va xotirjamlik baxsh etadi. Zino begona ayolga jinsiy yaqinlik qilish, deb ta'riflanadi. Bu ulkan gunohlardan biri bo'lib, shunday qattiq jazoga sabab bo'ladigan og'ir jinoyat to'satdan, o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Avval ko'riladi, ya'ni shahvat nazari tushadi, shu ma'noda gapiriladi, ikkinchi tomonning gapi eshitiladi, zino joyiga yurib boriladi, qo'l bilan nomahram shaxsning a'zolari ushlanadi va oxiri zino sodir bo'ladi. Alloh taolo Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga shunday degan: “(Ey Muhammad,) mo'minlarga ayting, ko'zlarini (nomahram ayollarga tikishdan) to'ssinlar, avratlarini (haromdan) saqlasinlar! Mana shu ular uchun eng toza (yo'ldir). Albatta Alloh ular qilayotgan ishlardan xabardordir. Mo'minalarga ham ayting, ko'zlarini (nomahram erkaklarga tikishdan) to'ssinlar, avratlarini (haromdan) saqlasinlar!” (Nur surasi, 30-31-oyatlar). Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. zinodan qaytarib aytadilar: “Ey insonlar! Zinodan qo'rqinglar, unda 6 ta zarar bor. Shundan 3 tasi bu dunyoda, 3 tasi oxiratda bo'ladi. Bu dunyodagilari: zino ruhiy go'zallikni ketkazadi, kambag'allik keltiradi, umrni qisqartiradi. Oxiratdagilarga kelsak, ular – Allohning g'azabi, hisobdan yomon o'tish va jahannam azobidir”.

Hozirgi kunda jahon mamlakatlari oila kodekslari va qonunlarida qizlarni qonuniy turmushga chiqish yoshi ko'rsatilgan. Eronda – 9, Saudiyada – 10, AQShda – 12, Hindistonda – 18, Frantsiyada – 18, Xitoyda – 20 yoshdan belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasi birinchi qismi bilan nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilanmoqda. Amalda esa 17 yosh edi. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarni o'zaro kelishuv yo'li hal qilinishi, oilada bolalalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan hamda mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq-manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Sog'lom muhit qaror topgan oilalar yurt koriga yaraydigan, el xizmatiga kamarbasta bo'la oladigan farzandlarni tarbiyalab, kamolga yetkazishning eng asosiy omillaridan biridir. Shu boisdan ham mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta'minlash, uni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur. Ayollar o'rtasida jinoyatchilik, oilalarda ajralishlar ko'paygani, yoshlarning turli diniy-ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlar ta'siriga tushishi kabi xalqimizga xos bo'lmagan achchiq va noxush masalalar bilan bog'liq".

Tarixiy manbalar ko'rsatadiki, million yillar davomida erkak ovchilik, ayol o'choqni asrash bilan shug'ullanib kelgan. Bu turni asrab qolish imkoni edi, ayol va erkak ushbu zaruriyatni instinktiv sezgan. Natijada erkak faoliyati va xayotini oilasini zarur ne'matlar, oziq-ovqatlar bilan ta'minlashga, ayol esa oilasini boqish, o'choqni asrashga ixtisoslashgan. Ushbu differentsiatsiya erkakni ko'cha, dala, qirda kezib ovchilik qilishga, ayolni oilasini to'ydirish, farzandlarining sog'-salomat o'sishini ta'minlashga o'rgatgan. Shuning uchun xam tashqi muhitni kuch bilan o'ziga itoat ettirish yoki o'zgartirish tashabbuskorlari erkaklar, oilani qo'riqlaydigan, farzandlarining qorni to'q, usti-boshi but yashashihaqida qayg'uradigan ayollardir.

Bugungi kunda ayolni onalik vazifasidan butkul mahrum etishga intilayotgan kuchlar ham paydo bo'ldi. Bunday vaziyat vujudga kelishida o'tgan asrning boshlarida ko'p g'arb mamlakatlarida shakllangan va bugungi kunga kelib ijtimoiy harakatga aylangan feminizmning "xizmati" katta bo'lgan. Ularning fikricha: "Nikoh bu – qullikning bir shakli. Shunday ekan, ayollar harakati ana shu institutga qarshi yo'naltirilishi zarur. Negaki, nikoh barham topmagan jamiyatda ayollarning ozod etilishiga umid qilish xomxayoldir". Afsus, bu g'oyalar ta'sirida million-million g'arblik ayollar oila qurish va bola tug'ishdan voz kechmoqda, oilaning barcha dinlarda qoralangan noan'anaviy shakllari paydo bo'lmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, 1970 yildan hozirgi vaqtgacha nikohsiz yashayotganlar soni 523 mingdan 6,5 milliongacha, ya'ni 100 foizga oshgani, faqat to'rt xonadondan bittasida to'liq oila istiqomat qilayotgani, bir jinslilar "nikohi" ko'payib borayotgani, yakka o'zi yashayotgan amerikaliklar mamlakat aholisining 26 foizini tashkil etayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. G'arb mamlakatlarida "erkinlik" martabasining berilishi jamiyatni ham bora-bora izdan chiqardi, ya'ni oila-nikoh munosabatlarining inqirozi g'arbona turmush tarzining eski qadriyatlarini sanalgan fidoyilik, mehribonlik, sadoqat, imon-e'tiqod kabi fazilatlarining shaxsiy manfaatlar qondirilishini yoqlovchi qarashlar quyidagicha ko'rinish oladi:

1. Bir jinslilarning nikohlanishiga qonun doirasida yo'l ochib qo'yilgani.
2. Oila qurmay, yolg'iz yashashga intilish kuchliligi.
3. Xotin erni yoqtirmay qolgani uchun uni tashlab ketishi .

Barchamiz bilamizki, Sharq madaniyatida oila muqaddasligi qadim-qadimdan alohida e'tiborga olingan mezon hisoblangan. Dunyodagi tendentsiyalarning rivojlanishi natijasida oila munosabatlarining ba'zi bir tamoyillariga jiddiy zarar yetmoqda. Xususan globallashuv va manfaatlar to'qnashuvi asrida yashar ekanmiz, davlat qolaversa, millat ertasi uning kelajagi uchun kurashmog'imiz darkor. Zero, Prezidentimiz "Yo'ldan adashgan bolani darrov dushmanga chiqarmasdan, uni o'zimizning farzandimiz, deb bilishimiz kerak. Unga butun qalbimiz, yuragimiz bilan achinayotganimizni shu bola bilsin. Zora, shunda ularning ham qalb ko'zi ochilsa, to'g'ri yo'lga qadam qo'ysa... Bir bolaning yo'ldan adashishi-bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfat. Bundan avvalo shu bolaning ota-onasi, aka-ukalari, yaqinlari jabr ko'radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak. Biz esa, afsuski, ulardan o'zimizni olib qochamiz. To'yga chaqirmaymiz, marosimga chaqirmaymiz, u falonchining akasi yoki o'g'li, deb ularning nafratini

battar avj oldiramiz, aybsiz odamlarni ashaddiy dushman qilamiz. Natijada nima bo'ladi? Kulfat kamayish o'rniga ko'payadi. Boshqa oilalar hayotiga ham kirib boradi. Bugun shu masalani ko'ndalang qo'yadigan vaqt keldi," deb bejizga ta'kidlamaganlar. Darhaqiqat, oilada boshlangan oddiy kelishmovchiliklar, vaqt o'tishi bilan katta bir muammoga aylanishi va oilalarning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtli oila" asarida jamiyatdagi va oilalarimizdagi muammolarning o'rganib, yoshlarimizga katta hayotiy tajriba yetishmasligini aytib o'tadi. Qolaversa, butun jamiyatning dahlsizligi aynan oilaning jipsligiga bog'liq. Demak, jamiyatdagi oilalar mustahkam emas ekan, bu jamiyat harbiy qudrati va boyligidan qat'i nazar halokatga mahkumdur. Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

Islom dinida nikoh qurish kishining jinsiy quvvati, erkaklik mas'uliyatini ado eta olishiga ko'ra besh xil bo'ladi:

1. Farz. Mahrğa, ayol nafaqasiga yetarli moli bor, xotinga zulm qilmaydigan, uylanmasa, zinoga ketishi aniq, faqat uylanish bilan zinodan saqlana oladigan kishilar uchun uylanish farzdir. Bunday erkaklar uylanmay yursalar, qattiq gunohkor bo'ladilar.

2. Vojib. Mahrğa, ayol nafaqasiga yetarli moli bor, uylansa, xotinini boqa oladigan, unga zulm qilmaydigan, uylanmasa, zinoga ketish xavfi bor kishilar uchun uylanish vojibdir. Bunday kishilar ham uylanmasalar, gunohkor bo'ladilar.

3. Sunnat. Mahrğa, ayol nafaqasiga yetarli moli bor, xotinini boqishga qodir, unga zulm qilmaydigan, jinsiy munosabatga layoqatli, uylanmasa ham o'zini zinodan saqlay oladigan kishilar uchun uylanish sunnatdir. Bunday kishilar uylansalar, savobga erishadilar, uylanmasalar, gunohkor bo'lmaydilar.

4. Harom. Mahrğa, ayol nafaqasiga qurbi yetmaydigan, uylansa, xotinini boqa olmaydigan, unga zulm qilishi, jinsiy layoqatsizligi aniq kishilar uchun uylanish harom. Bunday kishilarning uylanishi joiz emas.

Agar jinsiy aloqaga qodir bo'lsa-yu, biroq yetarli mablag'i bo'lmasa, uylanishga imkon topgunicha ro'za tutadi. Chunki ro'za insonni nojoiz ishlardan saqlaydi.

5. Makruh. Uylansa, ayolini kerakli narsalar bilan ta'minlay olmaslik, jinsiy aloqaga yaramaslik ehtimoli ko'proq kishilar uchun uylanish makruhdur.

Sharq mamlakatlarida: "Erlar ayollar uchun birinchi bo'lishni, ayolar esa erkaklar uchun so'nggisi bo'lishni orzu qiladi", degan gap bor. Buning ma'nosi bunday: er uylanmoqchi bo'lgan qizning avval boshqa erkak bilan bo'lmaganini orzu qiladi. Xotin esa, "Erim mengacha yurgan bo'lsa yurgandir, endi yurmasin", deb orzu qilishidir. Bu tushuncha turli madaniyatlarda har xil qabul qilinadi.

Payg'ambarimizsollallohu alayhivasallam: "Ayolni to'rt narsa—mol-mulki, nasl-nasabi, go'zalligi, din-diyonat iuchun nikohlab oladilar. Sen diyonatlisini tanla, barakatopkur!", deganlar. Xojagi Ahmad Kosoniy fikricha, agar adolat o'rnatish qo'ldan kelmasa va boshqasini tanlasa, qarshi amal qilgan bo'ladi va o'zini o'z qo'li bilan ulkan halokat girdobiga solgan bo'ladi.

Mazkur sifatlar erkaklarga ham xos Zero, qiz ham yigitning kelishganligi, boyligi, obro'si, nasabiga aldanib qolmay, diyonatli yigitni tanlashi kerak. Diyonatli, solih yigit juft bo'lish uchun eng muhim sifatlarga ega sanaladi. Diyonatli yigit xotinini har tomonlama himoya qiladi, u bilan totuvyashaydi, uncha-muncha injiqliklarini ko'taradi. Eng muhimi, uni yaxshi ko'rsa, e'zozlaydi. Bordi-yuyomon ko'rsa, zulm qilmaydi. Agar ayol birga yashashni istamasa, uni qiynabushlab turmaydi, yo'liniochib qo'yadi.

Shu jihatdan Hazrat Rasul s.a.v. buyurgan ekan: "Xayr kum xayru kum la havla va ano xayru kum liahli". Ya'ni: "Sizlarning eng yaxshilarning uldirkim, o'z oilasiga azizroqdir. Va men o'z oilamga hammadan azizroqman". Imom G'azzoliy "Nikoh odobi" asarida juft tanlashda quyidagi jihatlar ahamiyat berish lozimligini ta'kidlagan: Bo'lg'usi kelinning din-diyonatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Zero, haqiqiy soliha, diyonatli ayolda keyinchalik boshqa ibratli, yaxshi jihatlar ham jamuljam bo'ladi. Yaxshi axloql ibo'lishi ham muhim. Zero, mahmadona, shallaql, qanoatsiz, buzuqi ayoldan solih farzand dunyoga kelishi dargumon. Shu bois bo'lajak kuyovlarga minnatni xushko'radigan, shahvatparast, molparast, besabr, ko'cha uchunginabezanadigan xulqi yomon qizlar bilanoila qurmasliktavsiya etiladi.

□ Kelinninggo'zal,xushro'ybo'lishihamzaruriyshartlardan sanaladi. Chunki muhabbatni alangalatuvchi omillardan biri chehra go'zalligidir. Ko'rimsiz ayol chehrasi ko'ngilni tezda zada qilishi mumkin. Shu bilan birga, go'zallik diyonat, xushxulqlikdan ayro bo'lmasligilozim. Diyonatsiz, badxulq ayolning chehrago'zalligibuzuqlikka yetaklashi xavfivor.

□ Ayolning nasl-nasabli bo'lishi ham muhim o'rin tutadi. O'zbekchilikda yetti ajdod surishtirilish ibejiz emas.Zotan,tag-tugli, zotiasl, diyonatli qizlargina kelajakda iffatli, hayoli musulima ayol bo'lib,solih, sog'lom farzandlarni tarbiyalashga qodirbo'ladi. Bu o'rinda nasliy kasalliklarni surishtirish ham zarur.

□ Juftlikka tanlangan ayol yaqin qarindosh bo'lmagani ma'qul.Chunki shahvat quvvati ham ehtirosli nazar, erkalashga uzviy bog'liq. Zamonaviy tibbiyot ilmi ehtiroslar jo'shqinligi ayolning notanishligiga bog'liq ekanini e'tirof etmoqda. Aniqlanishicha, yaqin qarindoshlardan qurilgan oilalardagi erkaklarda “ruhiy mijoz sustligi” dardi ancha ko'p uchrarekan.

Hozirda ko'p odamlar kuyov va qiz tanlashda oqibatini o'ylamayish qilishmoqda. Ular imon - e'tiqodi, odob-axloqidan ko'ra otasining mansabiga,boyligiga uchib farzandlari baxtiga zomin bo'lishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 57-moddasida (Qarindoshlik) ko'ra, bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi. Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan-ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan-uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va ular o'rtasida nikoh ta'qiqlanadi deb belgilangan.

Shark mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy «Minerologiya» asarida oiladagi tinchlik-totuvlik, baxtiyorlik ko'prok ayollar zimmasiga tushishini quyidagicha ta'kidlaydi: «Ey kizim! Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning xamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u esa osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi oljanob buladi. Osmon shifobaxsh yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi u xam o'z mexru shafqati bilan seni xushnud etadi. Yana sen unga kanizak bo'lsang, u senga xizmatchi buladi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlargina eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma. Er-xotin o'rtasidagio'zaro huquq-mas'uliyatlarni yoritishdan oldin ijtimoiy oshkor haqiqatni bayon etish lozim. Bu, Alloh taolo erkaklarni ayollarga nisbatan ko'targan darajadir. Baqara surasining 228-oyatida shunday deyilgan: “Ayollar zimmalaridagi mas'uliyatlariga teng, inkor etilmas huquqqa egalar. Erkaklarning ayollarga nisbatan darajasi bor”.

Bu daraja boshqarish, yo'naltirish martabasidir. Boshqarish huquqi erkaklarga berilgan. Niso surasining34-oyatimazmuni bunday:“Erkaklarayollarga homiydir. Buning boisi Alloh taolo erkaklarni ayollardan fazilatli qilgani, erkaklar mollaridan nafaqa berishlaridir”. Erkak ayoldan aqlan, jisman, idrokan kuchlidir. Bunga shubha yo'q. Erkaklarning ayollardan ortiqcha fazilati hech bir aqlli insonga maxfiy emas. Ayoleriga itoat etishi, uning topshiriqlarini–Allohning amriga zid bo'lmasa–bajarishi lozim. Ammo er topshiriqlari Alloh amrlariga zid bo'lsa, uni bajarmaydi. Zero, Xoliqqa gunohkor bo'lgan holda maxluqqa itoat etilmaydi. Lekin erkaklarning ayollardan afzalligini, ba'zi johillar o'ylaganidek, er ayol ustidan mutlaq hokim,unga istagan narsasini yuklaydi,xohlaganini buyuradi, ayolning yo'q, deyishga, erining buyrug'iga qarshi chiqishga haqqiyo'q, chunkiu xato qilsa zolim, qo'pol bo'lsaham,erdir, deb tushunish to'g'ri emas.

Bugungi kunda asr vabosi deb nomlangan dahshatli kasallik – OITS ma'naviy nopoklikdan kelib chiqani fikrimizning yorqin dalilidir. Aslida bunday kasallik paydo bo'lishining o'zi inson zoti uchun sharmandalikdir. Chunki, koinotga parvoz qilayotgan, simsiz aloqani kashf qilib, butun dunyoni ulkan axborot omboriga, muloqot maydoniga aylantirayotgan inson o'zining tiyiqsiz nafsini jilovlay olmay, o'zining asliyatiga zid bo'lgan razolat botqog'iga botib, oqibatda ota-bobolarining yetti uxlab tushiga kirmagan bedavo dardga chalinib o'tiribdi. Vaholanki, Payg'ambarimiz ma'naviy poklikning hayo, ibo, iffat kabi ko'rinishlaridan uzoqlashishning ana shunday oqibatlarga olib kelishi haqida XIV asr muqaddam ogohlantirgan edilar.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Markaziy Osiyda kalom va tasavvuf ilmining vujudga kelishi.
2. Islom ta'limotida oila va nikoh masalasi.
3. Islomda ayolning o'rni.
4. Hozirgi o'zbek jamiyatida islomning o'rni.

### **MAVZU BO'YICH TESTLAR**

#### **1. Islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo'nalishi qanday nomlanadi?**

1. Fiqh
2. Hadis
3. Mazhab
4. Tasavvuf

#### **2. Islom dinining nazariy va g'oyaviy manbalari nima?**

1. Shariat qonun-qoidalari
2. Muxaddislar yozgan hadisi shariflar
3. Qur'oni Karim, hadisi sharif
4. Tasavvuf konunlari.

#### **4. Shariat nima?**

1. Tasavvuf qoidalarini o'rgatuvchi ta'limot
2. Barcha musulmonlar uchun bajarishi majbur bo'lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko'rsatmalar tizimi
3. Hadislar asosida tuzilgan to'plam
4. Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun

#### **5. Hadislar nima?**

1. Jahon musulmon ulamolari uyushmasi chiqargan qonun-qoidalar
2. Qur'oni Karimga yozilgan sharhlar
3. Muhammad payg'ambarning hayoti, faoliyati, diniy va axloqiy ko'rsatmalarini mujassamlashtirgan ta'limot
4. Shariat qonunlari va oliy ulamolar fatvolari jamlangan diniy kitob.

**6.«Islom dini ota-bobolarimiz dini, biz uchun ham imon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlariga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar», degan fikrga kimga tegishli.**

1. Alisher Navoiy
2. Jaloliddin Rumiy
3. Amir Temur
4. I. Karimov

#### **7.Hadisda beshikdan qabrgacha nimani izlash kerakligi uqtirilgan.**

1. boylik
2. yer
3. pul
4. ilm

#### **8. Imom Al-Buxoriy qancha hadis to'plagan**

1. 200 000
2. 500 000
3. 600 000
4. 400 000

#### **9.«Al-Jome' as-sahih» (ishonchli hadislar) asari kimga tegishli.**

1. Alisher Navoiy
2. Bobur

3. Abu Muslim
4. Al-Buxoriy

#### **10. Naqshbandiya tariqatining asosiy g'oyasi?**

1. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal
2. Kuch – adolatda
3. Dil ba Yoru dast ba kor
4. Kuch – birlikda

#### **11. Komil inson – bu**

1. ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, bu xalqning ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol mehnat qiluvchi kishilardir.
2. erkin fikr etuvchi,
3. bu xalqning ideallari uchun kurashuvchi inson,
4. o'z Vataniga halol mehnat qiluvchi kishilardir.

### **MAVZU BO'YICHA TAQDIMOTLAR**

#### **MAHALLIY AHOLINING ISLOMLASHUVI.**

Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari hamda ularning ko'p asrlik hukmronligi bilan bog'liq. O'rta Osiyoga arab yurishlari 643-644 yillarda boshlangan bo'lsa ham, o'lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so'ng faqat arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo'lishi oqibatida O'rta Osiyo ikki qismga bo'lindi: 1) Movarounnahr («ikki daryo oralii») va 2) Arodi at-turk («turklar erlari», ya'ni arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar erlari). mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladi.

## **HANAFIY MAZHABI VA MARKAZIY OSIYO MADANIYATI**

Hanafiy faqihlar Samarqand va Buxoro shaharlari ahlining turli qatlamlari bilan chambarchas mustahkam aloqada bo'lib, o'z diniy-ijtimoiy faoliyatlarida ularning manfaatlarini aks ettirar edilar. shu paytgacha islomshunoslikda Somoniylarning (874-999) hokimiyatga kelishi o'z-o'zidan Hanafiylarning mavqelarini kuchaytirdi, deb hisoblanar edi. Ammo yangi kashf etilgan manbalardan ma'lum bo'lishicha, asli xurosonlik Somoniylar mahalliy aholi va ularning etakchi vakillari – Hanafiylar ta'sir doirasini cheklash va toraytirish uchun ahl al-hadis va Shofi'ylardan foydalanganlar.

## MAHALLIY ISLOM JAMOASINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Islom madaniyati alohida olingan muayyan jamiyatlarda rivojlandi va buning natijasida ma'lum mintaqaviy shakllarga ega bo'ldi. Konkret Islom faqat mintaqaviy shakllardan tashkil topgan. mintaqaviy Islom asosida milliy madaniyat, mafkura va manfaatlar yotadi. uzoq asrlar rivojlanish jarayonida O'rta Osiyoda ham Islom dini milliy madaniyat bilan chambarchas bog'lanib ketdi.

## BUYUK MUHADDISLAR VA ULARNING TO'PLAMLARI

### IMOM BUXORIY

Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil **al-Buxoriy** (810-870) nafaqat markaziy Osiyoda, balki butun Islom olamida tan olingan. U dunyoda birinchi darajali muhaddis sifatida hadis bo'yicha «**AL-JOME AS-SAHIH**» («ishonchli to'plam») kitobini yozdilar. Shu bilan birga bu olim hadis bo'yicha «**al-Adab al-mufrad**» («Odob durdonalari»), «**at-tarix al-kabir**» («katta tarix») «**at-tarix as-sag'ir**» («kichik tarix») kabi asarlar muallifidir.

## SAMARQAND VILOYATI

### IMOM BUXORIY MAQBARASI



## IMOM TERMIZIY

Muhaddis Abu Iso Muhammad ibn Iso al-Bug'iy at-Termiziy (824-892) Termiz yaqinidagi bug' qishlog'ida dunyoga kelgan. Muhammad at-Termiziy o'ndan ortiq asar yozgan. Bular «al-jomi' al-kabir» («katta to'plam») (u shuningdek, «sahih at-Termiziy» yoki «**Sunan at-Termiziy**» deb ham ataladi), «Ash-shamoil an-nabaviyya» («payg'ambarning alohida fazilatlari»), «kitob at-tarix» («tarix kitobi»), «kitob az-zuhd» («taqvo haqida kitob») va boshqa asarlar.



## ISLOMDA OILA MASALASI

- Butun jamiyatning dahlsizligi aynan oilaning jipsligi bilan bog'liq. Demak, qaysiki, jamiyatdagi oilalar mustahkam emas ekan, bu jamiyat harbiy qudrati va boyligidan qat'iy nazar halokatga mahkumdur. Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.
- **Naqshbandiya** tariqatining nazariyotchisi Xojagiy Ahmad Kosoniy ilmiy merosida oila, nikoh va farzand tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Mutasavvifning oila va farzand tarbiyasiga oid asarlari O'rta Osiyo xalqlari hayoti ma'naviy va ahloqiy rivojlanishida ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan ushbu masalalar mutasavvifning “Asror-un-nikoh”, “Battixiya”, “Ganjnoma”, “Guli Navro'z” kabi risolalarida o'z aksini topgan. Lekin “Asrorun – nikoh” asari bevosita oila va farzand tarbiyasi masalalarni yorituvchi asardir.

Islom dinida nikoh qurish kishining jinsiy quvvati, erkaklik mas'uliyatini ado eta olishiga ko'ra **beshtal xil bo'ladi**:

- **1. Farz.** Mahrga, ayol nafaqasiga yetarli moli bor, xotinga zulm qilmaydigan, uylanmasa, zinoga ketishi aniq, faqat uylanish bilan zinodan saqlana oladigan kishilar uchun uylanish farzdir. Bunday erkaklar uylanmay yursalar, qattiq gunohkor bo'ladilar.
- **2. Vojib.** Mahrga, ayol nafaqasiga yetarli moli bor, uylansa, xotinini boqa oladigan, unga zulm qilmaydigan, uylanmasa, zinoga ketish xavfi bor kishilar uchun uylanish vojibdir. Bunday kishilar ham uylanmasalar, gunohkor bo'ladilar.
- **3. Sunnat.** Mahrga, ayol nafaqasiga yetarli moli bor, xotinini boqishga qodir, unga zulm qilmaydigan, jinsiy munosabatga layoqatli, uylanmasa ham o'zini zinodan saqlay oladigan kishilar uchun uylanish sunnatdir. Bunday kishilar uylansalar, savobga erishadilar, uylanmasalar, gunohkor bo'lmaydilar.

- **4.Harom.** Mahrga, ayol nafaqasiga qurbi yetmaydigan, uylansa, xotinini boqa olmaydigan, unga zulm qilishi, jinsiy layoqatsizligi aniq kishilar uchun uylanish harom. Bunday kishilarning uylanishi joiz emas.

Agar jinsiy aloqaga qodir bo'lsa-yu, biroq yetarli mablag'i bo'lmasa, uylanishga imkon topgunicha ro'za tutadi. Chunki ro'za insonni nojoiz ishlardan saqlaydi.

- **5.Makruh.** Uylansa, ayolini kerakli narsalar bilan ta'minlay olmaslik, jinsiy aloqaga yaramaslik ehtimoli ko'proq kishilar uchun uylanish makruhdur.

Payg'ambarimiz sollallohu  
alayhivasallam: “Ayolni to'rt narsa—mol-  
mulki, nasl-nasabi, go'zalligi, din-diyonat  
iuchun nikohlab oladilar. Sen diyonatlisini  
tanla, barakatopkur!” deganlar.

## 15-MAVZU. DINIY MUTAASSIBLIK VA DINDORLIK REJA

1. Diniy mutaassiblik (fanatizm)ning paydo bo'lishi
2. Diniy ekstremizmning tarixiy ildizlari va oqimlari.
3. Diniy fundamentalizmning yunalishlari.
4. Terrorizm va diniy terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va ularga qarshi kurash mexanizmlari. Kibermakon, kiberterrorizm

**Tayanch tushunchalar:** Mutaassiblik, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm: tarix va voqelik. Terrorizmning davlatlar taraqqiyotiga tahdidi, millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglikka tahdidi. Dunyo bo'yicha amalga oshirilgan yirik terrorchilik amaliyotlari. Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy asoslari. "Jaholatga qarshi ma'rifat" kontseptsiyasi.

**DINIY EKSTREMIZM** (ekstremizm – "o'ta" degani) – xavfsizligimizga tahdid soluvchi tashqi omillardan biri bo'lib, u barcha diniy tashkilotlarda faqat o'zi sig'inadigan dinni to'g'ri deb, boshqa har qanday dunyoqarashning to'g'riligini inkor etuvchi (keskin choralalar va harakatlar tarafdorlari bo'lgan), o'ta fanatik (mutaassib) dindor yoki dindorlarning faoliyati tushuniladi.

**TERRORIZM** (lot, terror – "qo'rquv", "dahshat") — yuksak ma'naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo'lida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, o'ldirish, ijtimoiy ob'ektlarni portlatish, xalqni qo'rquv va vahimaga solishga asoslangan zo'ravonlik usulini anglatuvchi tushuncha. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish *terrorizmga* xosdir. U siyosiy, iqtisodiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ta'qib, zo'ravonlik, qo'poruvchilik va qotillik *terrorizmning* har qanday ko'rinishi uchun umumiy xususiyat bo'lib, bularning barchasi insonparvarlik g'oyalari, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun *terrorizm* qanday niqob ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan, insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. *Terrorizmga* hozirgi kunda aniq, hamma uchun tushunarli va mukammal ta'sir berish oson emas. Chunki u o'ta murakkab fenomendir. Bundan tashqari, terrorchi kuchlarga bo'lgan turlicha munosabat unga aniq ta'sir berishni ham qiyinlashtirmoqda. Terror usullaridan konservativ, inqilobiy, diniy, millatchi ruhdagi kuchlar ham foydalanishi mumkin, lekin ularning asosiy mohiyati va maqsad-muddaolari siyosiy tusga egadir.

*Terrorizmning* umumiy jihatlari va asosiy ko'rinishlarini o'rganishda, avvalambor, uning ta'sirini nisbiy bo'lsa ham, aniqlashtirib olish kerak. *Terrorizm* muayyan guruhning ruxsat etilmagan holatda ongli ravishda kuch ishlatishidir. Bunda terrorchilar aniq, maqsadni ko'zlaydi va o'zini to'la xaq deb biladi. Bundan shu narsa aniq bo'ladiki, terrorchilardagi mavjud kuch maqsadni amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bevosita aloqadorlikda bo'ladi. Shuning uchun biron-bir sababga asoslangan yovuz maqsad *terrorizmga* olib boradi. *Terrorizm* ko'p holatlarda keng miqyosdagi harbiy kuchlar bilan aloqador bo'ladi va bunday misollar tarixda bir necha bor kuzatilgan. Bundan tashqari, u ba'zi davlatlarning o'zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ikki xil shaklda kuch ishlatiladi: jazo berish organlari yoki harbiy kuchlar tomonidan. Bunda terror siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yoki aniq bir rejimni joriy qilish uchun amalga oshiriladi.

«**Terrorizm**» tushunchasi hamisha terroristik harakatning tez sur'atda amalga oshirilishini bildiradi. Bunday hodisa siyosiy, etnik, diniy va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. **G'oyaviy terrorizm** siyosiy etakchilar tomonidan yaratiladi. Bunga rasmiy tor doiradagi istisno qilingan ichki sabablar ko'rsatiladi. **Etnik terrorizm** sub'ekti g'oyaviy bo'lmasdan, jamiyatning milliy va etnik jihatlari bilan uzviy bog'liqdir. **Diniy terrorizm** muayyan bir diniy sekta yoki guruh ta'limotining jamiyatda mutlaqlashtirilishi oqibatida paydo bo'ladi. Bunda ushbu g'oya tarafdorlari boshqalar fikri va g'oyalarini keskin tanqid ostiga olib, rad etadi va g'oyaviy mafkuraviy parokandalikni keltirib chiqaradi. **Diniy terrorizmning** xatarli jihati u qo'llaydigan amaliy choralarda ko'rinadi. Chunki **diniy terrorizm** tarafdorlari aksariyat hollarda qo'lida kurol va ba'zan harbiy guruhlariga tayanib harakat

qiladi. Bugungi kunda yadroviy, biologik, bakteriologik qurollarning terrorchilar qo'liga tushib qolishi ehtimoli eng katta xavfdir.

Hozirgi tahlikali zamonda kishilar boshiga mislsiz kulfat solayotgan va ularning hayoti, farzandlari, mol-mulkiga tahdid qilayotgan **jinoiy terrorizm** kundan-kunga kuchayib bormoqda va jahon hamjamiyatida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Iqtisodiy manfaatlarni ko'zlaydigan va moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan bu **terrorizm** korruptsiya kabi katta jinoiy tizim bilan uzviy bog'lanib ketgan. Unda raqiblari yoki ularning yaqinlarini o'ldirish, o'g'irlab ketish, zo'ravonlik, tajovuz bilan qo'rqitib, o'z hukmini o'tkazishga urinish, mol-mulkini o'zlashtirib olish yo'llaridan foydalaniladi. Buning yana bir tomoni - ba'zan bu terror siyosiy, etnik, ba'zan esa diniy xarakter kasb etmokda. Mana shunday vaziyatda terrorchilarning maqsadi hokimiyatni egallashga ham qaratilib, piramidasimon xarakterga ega bo'lib bormoqda. **Individual terrorizمنىڭ** sub'ekti, boshqa **terrorizm** harakatlaridan farqli o'laroq, jamoa emas, yagona shaxsdir. Individual terror ham o'ta xavfli kuch xisoblanadi, negaki u jamiyatning boshqa a'zolariga ta'sir qilishi va buning oqibatida terroming ommaviy turlarini keltirib chiqarishi mumkin. U o'z g'oyalarini singdirish orqali boshqalarni ham jamiyatga qarshi qo'yishi mumkin.

Keyingi yillarda hatto ommaviy axborot sohasida ham **terrorizm** elementlaridan foydalanilmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlar tarqatayotgan axborotlardagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, teleekranlar orqali uzluksiz namoyish etilayotgan jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan, buzg'unchi g'oyalar asosida yaratilgan o'yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan viruslar tarqatish shular jumlasidandir. O'zining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo'lga kiritishni ko'zlaydigan kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo'ladi. **Siyosiy terrorizm** nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi tajovuzkor ruhdagi rasmiy reaksion siyosiy doiralar va kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo'llanishi ham mumkin. Chorizm imperiyasining kolonial va shovinistik siyosati, sovet imperiyasining g'oyaviy qatag'onlari xalqimizga qarshi o'ziga xos terror edi. Bugungi kunda ham mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizga nisbatan g'araz niyat bilan qarovchi yovuz kuchlar **terrorizm** yo'li bilan taraqqiyot yo'limizdan chalg'itishga, bizni yana qaramlik va asoratga solishga urinmokda. Ular vatanfurosh xoinlardan ham, **terrorizمنى** kasb qilib olgan, buyurtma bo'yicha qo'poruvchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanadigan yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmoqda. Bugun jahon hamjamiyati bu baloqazolarning echimini topish ustida bosh qotirmoqda. **Terrorizmga** qarshi kurash hozirgi davrda muhim vazifa, tinchlik va barqarorlikni saqlash omiliga aylandi.

**MUTAASSIBLIK** – o'z g'oyasini «to'g'ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg'unchilikda ayblash.

**AQIDAPARASTLIK** (arab. – “ishonch” so'zidan olingan) – biron g'oya yoki tamoyilni mutlaqlashtirib konkret ob'ektiv sharoitni hisobga olmagan holda ko'r-ko'rona qo'llash buni ijtimoiy hayotning istagan sohasidan topish mumkin. Keyingi davrlarda diniy aqidaparastlik faollashib ketdi. Barcha dinlarda shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan e'tiqod qilish lozim bo'lgan fikrlar – aqidalarni mutlaqlashtirib ularni saqlab qolishga, tiklashga urinishlar kuchaydi.

**EKSTREMIZM** (*lot, extremus* – “ashaddiy”) — siyosatda ashaddiy qarash va choralarga moyillik. **Ekstremizمنى** vujudga keltiradigan omillar ko'p va xilmaxil. Ular orasida bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida yuz beradigan ijtimoiy tuzilmalarning buzilishi, aholi katta guruhlarining qashshoqlashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy tanglik kabi omillarni ko'rsatish mumkin. Bu omillar aholi turmush sharoitlarining yomonlashuviga olib keladi. Davlat hokimiyatining zaiflashuvi, davlat organlarining obro'sizlanishi, ijro intizomining pasayib ketishi, qadriyatlar tizimining emirilishi, aksil ijtimoiy kayfiyat va harakatlarning kuchayib borishi ham **ekstremizمنى** vujudga keltiradigan sabablardan hisoblanadi. **Ekstremizm** aholining siyosiy va ijtimoiy kayfiyatidan mavjud ijtimoiy tuzilmalarni vayron qilish maqsadida foydalanadi. Ekstremistik tashkilotlar Konstitutsiya va boshqa qonuniy hujjatlarga zid tarzda faoliyat yuritadi. Shu ma'noda, **ekstremizm** — huquqiy nigilizmning bir ko'rinishi hisoblanadi.

XX asming 80-90 - yillarida siyosiy **ekstremizمنى** namoyon bo'lish ko'lami kengaydi. Bu davrda odamlarni garovga olish, siyosiy qotilliklar, siyosiy partiyalar a'zolariga qurolli hujumlar uyushtirish, anarxistik, shovinistik va neofashist guruhlarining faollashuvi kuzatildi. **Ekstremizm** siyosiy, psixologik, maishiy va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. **Siyosiy ekstremizمنىڭ** ashaddiy ko'rinishi — terrorizmdir. Ekstremistlar odamlarga qiyinchiliklarni tezda bartaraf qilish, tartibni kafolatlash, ijtimoiy ta'minotni yaxshilash singari va'dalar beradi. **Siyosiy ekstremizm** "so'l" va "o'ng" ko'rinishlarga ega.

Soʻl ekstremistlar marksizm, leninizm, sul radikalizm, anarxizm va shu kabilar, mafkuralar bayrogʻi ostida harakat qiladi. Soʻl *ekstremizm*ga misol tariqasida Italiyadagi "Qizil brigadalar", Kampuchiyadagi polpotchilar, Rossiya Federatsiyasidagi E. Limonov boshchilik qilayotgan natsional bolsheviklar, singari oqimlarni keltirish mumkin. Oʻng ekstremistlar aksilkommunizm, avtoritarizm, millatchilik va shovinizm ruhida harakat qiladi. Oʻng ekstremistlar qator xalqaro tashkilotlar — Evropa ishchi partiyasi, Evropa oʻng kuchlari, Qora Internatsional, Frantsiyadagi "Milliy front" kabilarga birlashgan. Oʻng va soʻl ekstremistlar olib borayotgan faoliyat vakillik demokratiyasi manfaatlariga ziddir. Shuning uchun ham Gʻarb siyosatshunosligida "Yagona Ekstremizm", "Ikki Ekstremizm" va "Uch Ekstremizm" konseptsiyalari mavjud. "Yagona Ekstremizm" kontseptsiyasi kommunistik va fashistik diktaturalarning mavjudligidan kelib chiqadi. "Uch Ekstremizm" kontseptsiyasiga koʻra, fashizm – tsengristlar ekstremizmi, kommunizm – sullar ekstremizm, gollizm esa – oʻnglar ekstremizmidir. Portugaliyadagi Salazar rejimi oʻnglar rejimi hisoblanadi. Diniy asoslarda vujudga kelgan ekstremistik guruh va oqimlar Gʻarbda ham, Sharqda ham mavjud. Oʻrta Osiyo mamlakatlarida, jumladan, Oʻzbekistonda "Hizb ut-tahrir", «Akromiya», «Nurchilar» singari diniy ekstremistik oqimlar vakillari qonunga zid holda faoliyat olib borishga urinmoqda.

**DINIY FUNDAMENTALIZM** (lotincha – “asos” degani) – barcha dinlarda oʻz ilohiy yozuvlarini ishonch uchun asos sifatida “soʻzsiz” qabul qilib, ushbu dinlar paydo boʻla boshlagan dastlabki fundamental gʻoyalarga qaytish, meʼyorlar va tamoyillarga asoslangan davlat barpo qilish, diniy aqidalarni har qanday yoʻllar bilan joriy qilishga urinishdir.

**ISLOM FUNDAMENTALIZMI** – Qurʻon va hadislarga soʻzma-soʻz talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targʻib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim. Islom fundamentalizmi vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari jamiyatning taraqqiyot yoʻlini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga daʼvat etadi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar “fundamentalistlar” deb atalmoqda.

**Diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlarning vujudga kelishi va ularning ayanchli oqibatlari.** Jahondagi koʻpgina davlat va jamoat arboblari, yirik olimlar, mutaxassislar, ayniqsa, yoshlar dunyoni tinchlik hukmron boʻlishi, har qanday havfning oldi olinishidan manfaatdor ekanliklarini sezmoqdalar va buning uchun barcha kuch, imkoniyatlarni safarbar etmoqdalar. Taasufli boʻlishki, oʻtgan ogʻir jinoyat butun dunyoga insonlar boshiga katta havf-xatar solmoqda, zaminimiz tinchini buzmoqda.

Terrorchilik oʻta murakkab jinoiy hodisadir. Bugungi kunda “Terror”, “Terrorizm” “Terrorchilik harakati”, “Davlat terrorizm”, “Xalqaro terrorizm” kabi huquqiy atamalarining har birini tahlil qilishga ehtiyoj sezilmoqda.

Terrorizm mavjud tuzumga qarshi siyosiy kurash olib borish, odam oʻdirish toʻsqinlik qilayotgan guruh (jamiyat) rahbari joniga suiqasd qilish bilan karakterlanadi. Uning tarixi uzoq oʻtmishga boroib taqaladi. xalifa Abu Bakr Siddiq (632-634) vafotlaridan soʻng halifalik qilgan Hazrat Umarning oʻlimi (634-644) va hazrat Usmonning (644-656) oʻldirilishi bunga misol boʻladi. Hazrati Aliga qarshi chiqqan diniy ekstremistlar, yaʼni 12000 kishilik horijiyalar “Bizning yoʻlimizdan bormaganlar kofirdirlar”-dedilar. Ular hazrati Alini (656-661) namoz oʻqigani kelayotganida orqasidan hanjar urib oʻldirdilar.

Abu Rayhon Beruniy ham “Oʻtmishdan qolgan yodgorliklar” kitobida mana shunday jirkanch voqealar hanjar urib oʻldirdilar.

Baʼzilar terrorizmni bundan 150 yil burun boʻlgan, deb hisoblaydilar va uni Yevropadagi anarxistlarning buzgʻunchilik ishlariga bogʻlaydilar. Narkoterrorizm, bioterrorizm, ijtimoiy terrorizm, kompyuter tizimi yordamida terrorchilik harakatini sodir-etish kiberterrorizm kabi turli terroristik usullar mavjud. Masalan, Rossiyada narodniklar va keyinroq eserlarning siyosiy terroristik harakati (Stalinning-SSSR dagi va Gitlarning Germaniyadagi siyosati), oʻrta asrlarda diniy terrorizm (salb yurishlari)ham boʻlgan. Shuningdek bolshevizm ham terrorizmdan foydalanganligini eʼtirof etiladi.

1928 yilda Misrda hasan-al Banno “Ixvon ul-muslimin” (“Muslimin birodarlar”) jamiyatini tuzadi ham “Fan ul-mavt” (Oʻlim fani) kitobini yozadi. 1980-1990yillarda 30 ga yaqin mamlakatlarda ixvonlar ish koʻra boshladilar. “Jamoati al-muslimin” guruhi esa oʻzining terrorchilik ish usulibilan ajralib turardi. Misr harbiy tribunali bu guruhni gʻayriqonuniy deb jazoga tortganidan soʻng ham guruh tarqalib ketmay, “At-takfir val hijro” nomi bilan faoliy olib bordi

1981 yilda suiqasd uyushtirilib prezident Anvar Sadat o`ldirilgandan so`ng, "Musulmon birodarlar" diniy ekstremistik tashkiloti rahbari qamoqqa olindi.

Islom ekstremistlarining yana bir guruhio paydo bo`ldi va u "Al jihod al-islomiy" nomi bilan bugungi kunda ham terrorchilik harakatlarini sodiretmoqda.

1994 yilda Afg`onistonda yuzaga kelgan "Tolibiy" diniy-siyosiy kuchning oyog`i qayerga yetsa, o`sha yyerda inson haq-huquqi toptaladi. Qishloqlar vayron qilindi. Qashshoqlar talandi.

**Xalqaro terrorizm**- biron bir davlatdagi terrorchilarning o`z harakatlarini u yoki bu davlat hududidan tahs qariga chiqib, davom ettirishdir.

Terrorchilarning biron bir horijiy davlatga joylashgan xalqaro terrorizmning o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatib turadi.

Masalan:

terrorchilar ham jinoyat qurbonlari ham bir davlatga mansub yoki bir necha davlatga tegishli bo`lishi mumkin. Ammo jinoyat shu davlatdan tahs qarida sodir etilgan bo`ladi.

Terrorchilik harakati xalqaro himoya ostidagi shaxslarga qaratilgan bo`ladi

Terrorchilik harakatlariga tayyorgarlik bir davlatda amalga oshirilib, jinoyatning o`zi esa ikkinchi davlat hududida sodir etiladi

Terrorchilar bir davlat hududida terrorchilik harakatini sodir etib, ikkinchi davlat hududiga o`tib yahsirinishi mumkin. Pokistonda 37 ta, Afg`onistonda 22 ta alohida lagerlarda terrorchi jinoyatchilar tayyorlanadi. 1990-1999 yillar davomida 29 mingdan ortiq Xindiston fuqarolari terrorchi guruhlar tomonidan o`ldirilgan. Bir yilda dunyo bo`yicha 320 tadan 660 tagacha terrorchilik harakatlari sodir etilib, minglab begunoh aholi qurbon bo`ldi

Terrorchilik tashkilotlarining aksari yashirin faoliyat ko`rsatadi. Ularnng tasodifiy harakatlari keltiradi, begunoh insonlar hayotiga chang soladi, qalbini jarohatlaydi. Shu bois ularning qora niyatlariga chek qo`yish, buzg`unchiliklarining oldini olish, millatlar osoyishtaligini ta`minalsh maqsadida terrorizmga qarshi kurash boshlab yuborildi.

***Hozirgi kunda dunyoga havf solib turgan quyidagi terrorchilik tashkilotlari mavjud:***

- ❖ "Abu Nidol" tashkiloti (rahbari vafotidan so`ng bu tashkiloti faoliyat ko`rsatmagan)
- ❖ "Abu sayyof" guruhi (yaqin Sharq)
- ❖ "Qurollangan Islom" guruhi (Jazoir)
- ❖ "Al Qoida" (asos baza), (Afg`oniston)
- ❖ "Al jihod" (Misr)
- ❖ "Jamoal islomiy" (Misr)
- ❖ "Harakt al mujohid" (Kashmir)
- ❖ "Xamas" (Yaqin Sharq)
- ❖ "Xizbulloh" (Yaqin Sharq)
- ❖ "Turkiston islom partiyasi" (Markaziy Osiyo)
- ❖ "Falastin islom jihodi"
- ❖ "falastin ozodligi fronti"
- ❖ "Falastin ozodligi xalq fronti"
- ❖ "falastin ozodligi xalq fronti-umumiy qo`mondonlik"
- ❖ "AUM Sinrikyo" (yaponiya, uning rahbari xibsga olingach, tashkilotning faolligi pasaydi)
- ❖ "Bask ozodlik harakati" "Eta" (Ispaniya)
- ❖ "kahane Xay" (Xitoy)
- ❖ "qurdiston ishchilar partiyasi" (Turkiya)
- ❖ "Inqilobiy xalq kurashi" (Turkiya)
- ❖ "inqilobiy halahsi"-ELA (Gretsiya)
- ❖ "17 noyabr inqilobiy tashkiloti" (Gretsiya)
- ❖ "Tamil Ilamani ozod qiluvchi yo`lbarlar"(Shri-Lanka)
- ❖ "Mujohiddini Xald" (Eron)
- ❖ "Milliy ozodlik armiyasi" (Venesuella)

❖ “Kolubmiya inqilobiy qurolli kuchlari” “FARC” (Kolumbiya)

❖ “Kolumbiya o`zining o`zi mudofa qilish Birlashgan KUchlari”-“AUG” (Kolumbiya)

Bugungi kunda dunyoda yuzlab kuchli jihazlangan “Abu Nidol” tashkiloti, “Abu sayyof” guruhi (yaqin Sharq), “Qurollangan Islom” guruhi (Jazoir), “Al Qoida” (asos baza), (Afg`oniston), “Al jihod” (Misr), “Jamoat al islomiy” (Misr), “Harakt al mujohid” (Kashmir), “Xamas” (Yaqin Sharq), “Xizbulloh” (Yaqin Sharq), “Turkiston islom partiyasi” (Markaziy Osiyo), “Falastin islom jihodi”, “falastin ozodligi fronti”, “Falastin ozodligi xalq fronti”, “falastin ozodligi xalq fronti-umumiy qo`mondonlik”

“AUM Sinrikyo” (yaponiya, uning rahbari xibsga olingach, tahskilotning faolligi pasaydi), “Bask ozodlik harakati” “Eta” (Ispaniya), “kahane Xay” (Xitoy), “qurdiston ishchilar partiyasi” (Turkiya), “Inqilobiy xalq kurashi” (Turkiya), “inqilobiy halahsi”-ELA (Gretsiya), “17 noyabr inqilobiy tashkiloti” (Gretsiya), “Tamil Ilamani ozod qiluvchi yo`lbarlar” (Shri-Lanka), “Mujohiddini Xald” (Eron), “Milliy ozodlik armiyasi” (Venesuela), “Kolubmiya inqilobiy qurolli kuchlari” “FARC” (Kolumbiya), “Kolumbiya o`zining o`zi mudofa qilish Birlashgan KUchlari”-“AUG” (Kolumbiya), “Oydin yo`l”-“Sendero” (Peru) kabi terrorsitik guruhlar mavjud.

Yaqinda Afg`onistonda Tohir Yo`ldoshev rahbarlik qilayotgan “O`zbekiston islom harakati” diniy ekstremistik tashkiloti terroristik tashkilot sifatida ro`yxatga olindi.

**“O`zbekistonga xavf solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar”:**

1. “Islom uyg`onish partiyasi” (1989-1991)

2. “Adolat”, “islom lashkarlari” (1990-1992)

3. “Tavba”, “Hizbulloh” (1991-1995) Muxolif kuchlar tomonidan ta`minlanib faoliyat ko`rsatmoqda.

4. “Akromiyalar” (1997-1999) Andijonlik Akrom Yo`ldoshev (1960 yilda tug`ilgan) “Imonga yo`l” (1992) nomoli dastur tuzgan.

5. “Vahhobiylik” (1990-1992) Diniy ekstremistik oqimning tashkiliy tizimi bo`limish “O`zbekiston Islom harakati” jahonning yetakchi xalqaro terroristik tashkilotlari-“Tolibon harakati” Usoma bin Ladenning “Al-Qoida” tahskiloti. “harakat ul Ansor”, “Al-Jihod” kabilar bilan til birlashtirib, ularning bevosita rahnamoligida tashkil etilgan.

6. “Hizbut tahrir al-islomiy” diniy ekstremistik partiyasi sunniylik doirasidagi siyosiy partiya bo`lib, 1953 yilda Quddus shahrida falastinlik Taqiyuddin Nahaboniy tomonidan tashkil etilgan.

1999 yil 16 fevralda Toshkentda sodir etilgan terrorchilik jinoyatlari natijasida 16 nafar shaxs halok bo`ldi. 130 nafar shaxsga turli darajadagi tan jarohati hamda davlatga 700 million so`mdan ortiq zarar yetkazildi.

2001 yil 11 sentyabrda AQShning Nyu-York shaxrida ro`y bergan terrorchilik harakatlarida 2000 dan ortiq kishi halok bo`ldi. Undan keyin Moskvadagi “Nord-Ost” kinokonsert zalidagi terrorchilik 200 dan ziyod begunohlar o`limiga sabab bo`lgan. Madriddagi yo`lovchi poyezd portlatilishi bularning hammasi qo`poruvchilik harakatlaridir.

Keyingi yillarda Turkiya, Falastin, isroil, Rossiya, Afg`oniston, Pokiston, Ispaniya va boshqa davlatlarda bir necha marotaba terrorchilik harakatlari sodir etilib, minglab kishilar nobud bo`ldi. 2003-2005 yillar davomida Iroqda sodir etilgan yuzlab portlashlar natijasida begunoh insonlar qurbon bo`lmoqda.

Ayniqsa, 2004 yil 1 entyabr kuni Shimoliy Osetiyaning Beslan shaxrida 30 nafar terrorchi 330 nafar o`quvchini va ularning ota-onalarini nobud qilgani butun dunyo jamoatchiligini larzaga soldi.

2005 yilning 12-13 may kunlari Andijonda “Akromiyalar” deb atalgan terrorchi guruhlar tashkiloti ko`pgina begunoh odamlar umriga zomin bo`li. Ma`muriy binolar vayron qilindi. Davlat mulki va shaxsiy buyumlar talon-taroj qilindi. Ko`pgina terrorchilar qo`lga olinib surishtiruv va sud ishlari davom etmoqda.

**Terroristik tashkilotlarga umumiy tasnif**

**1.Siyosiy maqsadlari:**

➤ imperalizm va kapitalizmga qarshi;

➤ globallashuv va transmilliy kompaniyalarga qarshi;



- biror diniy konfessiya yoki etnik guruhga qarshi;
- o`z hukumatiga qarshi;
- millat yoki din sogligi uchun kurashish
- ayirmachilik maqsadida va o`z davlatini tuzish uchun kurashish;
- biror dunyoqarashga qarshi (Ekologiyaning buzilishiga qaeshi va hakozi).

**2. Diniy yo`nalish aslida o`z maqsadlariga erishish yo`lida dindand niqob sifatida foydalanadilar:**

- soxta islom;
- soxta xristianlik;
- soxta iudaizm;
- yangi din o`ylab topish;
- dinlarni inkor etish kabilardir.

**3. Kelib chiqish sabablari:**

- ✓ muxolifatni siqib qo`yish
- ✓ davlatlararo ziddiyatlar
- ✓ ayirmachilik va mustaqillik uchun kurashish
- ✓ qashshoqlik va ishsizlik
- ✓ mafkuraviy bo`shliq
- ✓ tahsqi davlatlarning qo`llashi;
- ✓ globallashuvga qarshilik
- ✓ amerikacha siyosat, iqtisodiy va madaniy gegemoniyaga qarshilik;

**4. Ijtimoiy tarkibi:**

- asosan qishloq aholisi (kam uchraydi);
- ziyolilar va ishchilar (kam uchraydi);
- ziyolilar va talabalar (ko`p uchraydi);
- aralash tarkib (Kop` uchraydi);

**5. Etnik tarkibi:**

- turli millat vakillari (ko`p uchraydi);
- asosan bir etnik guruh vakillari

**6. Terrorchilik guruhidagi a`zolari soni:**

- ❖ 10 kishigacha kam uchraydi
- ❖ 10-50 kishi ko`p uchraydi;
- ❖ 50-100 kishi ko`p uchraydi
- ❖ 100 kishidan ortiq kam uchraydi

**7. Tashkiliy tuzilishi:**

- qat`iy iyerarxiya kam uchraydi;
- tashkilot bir-biridan mustaqil 5-7 kishidan iborat jangovor shaxobchalardan iborat bo`ladi.

**8. Faoliyat yuritish makoni:**

- ✓ bir davlat hududida biror mintaqada hatto global doirada ham faoliyat ko`rsataveradi;
- ✓ asosan shaxar sharoitida ish olib boradi;

**9. Ish usullari**

- jamoatchilik joylarida portlashlar sodir etish;
- mahalliy aholi vakillarini yoki horijiy fuqarolarni garovga olish;
- ekstremistik mazmundagi varaqalar tarqatish;
- siyosiy qotilliklarni amalga oshirish;
- tartibsizliklar keltirib chiqarish;
- kimyoviy va bakterologik qurollardan foydalanish;

**“Yangi diniy harakatlar” tushunchasining mazmun-mohiyati va ular ilgari surayotgan g’oyalari.** *Yangi diniy-siyosiy harakatlar va mafkuralar* turli diniy aqidalarga tayanadi. Ularning bosh maqsadi nafaqat hokimiyatga ta’sir ko’rsatish, balki o’zlarining hokimiyatini o’rnatishdan iboratdir. Buni ayrim mamlakatlarda, xususan Yaqin Sharq va Osiyoda: (Eron, Pokiston, Afg’oniston, Saudiya Arybistoni) va boshqa mamlakatlar misolida ko’rish mumkin.

***E’tirof etilmagan harakatlar va mazhablar quyifagilar:***

***Murjiylar*** - alohida bir yo’nalish bo’lib emas, balki mazhablar ichida tarkib topganlar. Ular asosida yana bir qancha kichik-kichik oqimlar, ya’ni firqalar vujudga keldi. Ular bu dunyodagi inson holatini muhokama qilishni "orqaga surib" (irja’), ya’ni insonning xatti-harakatini, uning imonini yolg’iz Allohning O’zigina biladi va faqat Uning O’zi inson ustidan hukm qilishi xos deb hisoblaydilar. An-Naubaxtiy murjiylarni 4 xil toifaga bo’ladi:

- 1) jahmiylar yoki xurosonliklar;
- 2) g’aylaniylar yoki suriyaliklar;
- 3) masiriylar yoki iroqliklar (Abu Hanifa ham);
- 4) shukkak (shubhalanuvchilar), bug’riylar, an’anaviy xashviylar. .

Bunday jug’rofiy bo’linish oqibatida (ya’ni Xuroson, Iroq, Suriya) oliy hukmronlik masalasida ham asta-sekin fikrlarning tafriqalanishi boshlanadi. Shunday qilib, VIII asrning 1-yarmida u yoki bu g’oya tarafdorlari o’z yo’nalishlarini yanada aniqroq belgilab, xorijiylar, jabariylar, qadariylar qatoriga qo’shiladilar. Bu toifadagilar iymon masalasida bir to’xtamga kelmaganlar. Al-Ash’ariy fikriga ko’ra, bu haqda 12 xil toifa bo’lganligi qayd qilinadi.

***Mo’taziliylar*** - Kalomda birinchi yirik yo’nalish vakillari hisoblanib, Damashq va Bag’dod xalifaligi hayotida, VII-IX asrlarda muhim o’rin tutganlar. Al-Hasan al-Basriy (vafoti 728 yil) davrasidan shogirdlari Vosil ibn Ato (vafoti 728 yil) va Amr ibn Ubayd (vafoti 761 yil)larning ajralib, alohida bo’lib chiqishlaridan bu nom qolgan. Ularning boshqa: al-adliyyun, al-adliyia, ahl al-adl, ahd ad-adl vat-tavhid kabi nomlari mo’taziliylarning manbalariga binoan besh asosning birinchi ikkitasi tufaylidir. Bu besh asos Abul Xuzayl al-Allaf (vafoti 841 yoki 849 yil) tomonidan quyidagi so’nggi holiga keltiriladi:

1. Al-adl (adolat) — ilohiy adolat insonning irodasini aniqlaydi va Allohning faqat yaxshilik (al-aslah) qilish qobiliyati va asrlar davomida tarkib toptan narsalar tartibining buzilishiga yo’l qo’ymaslik sifati.

2. At-tavhid- qat’iy Allohning yagonaligiga sig’inish, politeizm va atropoforfizmni inkor etadi.

3. Al-va’d val-vaid — xorijiylar bilan ajratilgan xususiyatlari, ya’ni Xudo mo’minlarga jannat, kofirlarga do’zax va’da qilgan bo’lsa, o’z va’dasida turishi lozim, ya’ni Payg’ambar (S.A.V.) shafotlari-yu, Allohning Rahmon, Rahim sifatlari ham yordam bermasligi kerak. Chunki inson xatti-harakati uchun to’liq javob berishi lozim.

4. Al-manzila baynal-manzilatayn (Oraliq holat) — gunohi kabira qilgan musulmon mo’minlar qatoridan chiqariladi (murjiylar fikriga qarshi), kofir bo’lib qolmaydi (xorijiylar fikriga ko’ra), balki oraliq hayotda bo’ladi. Shu fikrda bo’lganliklari uchun birinchi mo’taziliylar Xasan al-Basriy davrasidan chiqadilar, chunki ularni munofiq, deb hisoblaydilar.

5. Al-amr bil-ma’ruf van-nahiy anil-munkar («Yaxshilikka da’vat, yomonlikdan qaytarish») - barcha usulda, hatto qilich bilan bu hukmning bajarilishi lozim.

***Jabariylar*** - Arabcha «*jabr*»dan olingan bo’lib, bu fikr tarafdorlari VII asr oxiri VIII asr boshida Islom ilohiyotida paydo bo’lgan ilk oqimlardan hisoblanadi. Jabariylar inson taqdirini Xudo mutlaq oldindan belgilab qo’ygan, hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo’l, bular faqat Xudoda mavjud, inson esa ana shu faoliyatni o’zlashtirib olish imkoniyatigagina ega, degan ta’limotni ilgari surgan. Iroda erkinligi tarafdorlari bo’lgan qadariylarga qarshi kurash olib borgan. Muhammad (S.A.V.)ning payg’ambarliklari, xalifalarni ilohiy va qonuniy deb asoslashda, jihoddagi o’limning taqdir bilan bog’lanishida bu ta’limot katta o’rin tutadi. Shuning uchun hokimiyatni boshqargan umaviylar jabariylarni qo’llab-quvvatlaganlar, ularga qarshilarni ta’qib ostita olganlar.

***Jahmiylar*** - Abu Muxriz Jahm ibn Safvonning izdoshlari. O’rta asr ilohiyoti olimlari ularni murjiylarga, ba’zan jabariylarga mansub qiladilar. Bu ta’limot Jahm ibn Safvon olamdan o’tgandan so’ng uning nomi bilan ataluvchi tarixga kirdi. Jahm ibn Safvon Abu Muxriz - mashhur ilohiyot olimi Xuroson murjiy - jahmiylarining sardori Al-Xoris ibn Surayjshhg kotibi, Xurosondagi

Umaviy hokimi Nasr ibn Sayyarga qarshi qo'zg'olonda qatnashib asir tushadi va qatl (745 yil) qilinadi. U Al-Ja'd ibn Dirhamning shogirdi bo'lgan.

**Qadariylar** - Taqdir so'zining inson o'z xatti-harakati, taqdirining hukmdori deb talqin qilishlik. Bu ilk ilohiyot oqimlaridan biridir. Bu yo'nalish taqdir va iroda erkinligi masalasida o'ziga xos ta'limotni ilgari suradi, ya'ni jabariylar ta'limotiga qarshi ravishda, inson o'z xatti-harakatining yaratuvchisi (xoliqi), deb tushuntiradi. Ular odillik Xudoning asosiy sifatlaridan biri, degan fikrga borib, gunohni u oldindan belgilab qo'ygan bo'lishi mumkin emas, Xudodan faqat adolatli ishni kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog'liq, demak, inson iroda va faoliyat erkinligiga ega, shuning uchun u gunoh qiladi, degan xulosaga keladilar.

**Mushabbihalar yoki ahli at-tashbih** - Arabcha "*o'xshatuvchilar, o'xshatish tarafdorlari*" yoki antropomorfistlar. Turli xil aqidaviy ta'limotlarning hosila nomi bo'lib, bu yo'nalish vakillari Allohni inson qiyofasi shaklida tasavvur qiladilar.

**As-sifatiya** - Sifat (arabcha - belgisi, xususiyati, tabiati) atamasi, Allohning xususiyatlarini ifoda etishning biri bo'lib, mo'taziliylar tomonidan qo'llangan. Kalom ilmi rivojlanishining ilk bosqichida "Sifat" bilan bir qatorda "maani" (ma'nosi, mazmuni, g'oyasi) atamasi ham qo'llanilgan. Ba'zi mutakallimlar (mo'taziliy Abu Shaxsim al-Jubboiya, Ash'ariy al-Boqilloni, Al-Juvayniy va Faxriddin Roziy) "Sifat" o'rnida "ahvol" atamasini ishlatganlar. Allohda insonlar nazdida ijobiy hisoblangan sifatlarni tan olish "isbat", degan nom oldi va bu g'oya tarafdorlari "sifatiya", deb ataldi.

**Islom dini doirasida yuzaga kelgan yangi diniy harakat va oqimlar. Diniy-siyosiy partiya va oqimlar** quyidagilardan iborat:

**Salafiya** - XX asr boshida Jamol ad-Din al-Afg'oniy va Muhammad Abdu asos solgan ilohiy harakat Salafiya diniy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy mohiyatlarga ega. U musulmonlar hayotini yangilashga qaratilgan bo'lib, Islom dunyosi uzra ko'plab musulmon mutafakkirlari va harakatlariga shakllovchi ta'sir o'tkazgan.

"Salafiya" termini ko'pincha isloh, (reforma) va tajaddud (yangilanish) bilan sinonim sifatida ishlatilib, Islom dunyoqarashining asosiy fundamental konsepsiyalari tushunchalaridan birini tashkil etadi. Biroq Qur'on va sunnatga urg'u berishi va o'tmishni qo'msashi tufayli ayrimlar nazdida reaksiya va fundamentalizm sifatida quriladi.

**Vahhobiylik** - diniy-siyosiy oqim bo'lib, XVIII asrda Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Vahhobiylar bevosita din nomidan ish ko'rgan va uni "tozalash", go'yoki Payg'ambar davridagi asl holatiga qaytarish, barcha arablarni yashil bayroq ostida birlashtirish kabi g'oyalarni ilgari surgan. Ingliz mustamlakachiligi bu vaziyatdan o'z maqsadida foydalangan: g'oya tarafdorlarini qurollantirib, Usmonli turklarga qarshi jangga tashlagan. Shuning uchun ham ular Usmonlilar mansub bo'lmish hanafiy mazhabini kofir mazhabi, deb e'lon qilishgan. Qandaydir doiralar manfaati yo'lida Islomdagi o'z birodarlarini kofirga chiqarishgacha borib yetishgan.

**Ahmadiya harakati** - harakati IX asrning oxirida Panjob (Pokiston)da xristian-protestant diniy oqimining Islomga qarshi faoliyatining faollashuvi hamda ahli hadis maktabi bilan hanafiya vakillarining Qur'on va sunnatning asosiy masalalari haqidagi munoqashalari natijasida vujudga keldi. Ahmadiya harakatining paydo bo'lishi barcha Islomga oid oqimlarning shggilishlarini birlashtirish va ularning asosiy platformasini tashkil qilish bilan bog'liqdir. Shuningdek, boshqa din vakillarining tinch-totuv yashashlari ham bu harakatning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Ahmadiya harakatining fikricha, jamoaning asoschisi xudo tomonidan insoniyatga yuborilgan so'nggi ilohiyotlarni ochuvchi oxirgi payg'ambar bo'lib, unda musulmonlarning maxdiysi, xristianlarning ta'limoti va induslarning Krishnasi mujassamlashgan bo'ladi.

**"Hizbut-tahrir al-islomiy" diniy tashkiloti** - "Hizbut-tahrir al-islomiy" norasmiy siyosiy lashgan diniy partiya 1953 yilda Isroilda paydo bo'ldi. Partiya piramida shaklida, tarkibiy tuzilma ko'rinishida tashkil toptan.

"Hizbut-tahrir al-islomiy" diniy tashkilotining kurash bosqichlari:

1. Tasqif - tushuntirish ishlari. Ongi to'liq shakllanmagan yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirish. Fikri zaif, ta'sirga beriluvchan huquq-tartibot organlari, hokimiyatlardagi mas'ul shaxslarni o'z tarafiga og'dirish;

2. Tafoul - birgalikda harakat qilish, fikriy kurash orqali "Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishishi" yo'lida fikriy inqilobga yetishish;

3. Inqilob - to'ntarish, hukumatni yaratilgan ummat orqali qo'lga kiritish.

**"TABLIG'CHI"lar jamoasi** - "Tablig" arabcha yetkazish ma'nosida, tom ma'noda Allohning kalomini odamlarga yetkazishni anglatadi. Bu oqimga XX asrning 20-yillarida Hindistonda Muhammad Ilyos tomonidan asos solingan. Oqimning maqsadi kishilarni ommaviy Islomga chorlash, musulmonlarga Islom arkonlariga to'liq amal qilishlari lozim ekanligini yetkazish va ularning Alloh oldidagi mas'uliyatini oshirish. Har o'n "tablig"chi uchun bir amir saylanadi, amirga bo'ysunishlik vojib hisoblanadi.

**Akromiyalar** - Taxminan 1997-1999 yilda Fargona vodiysida vujudga kelgan ushbu diniy-siyosiy harakat vakillari yolgiz Allohga e'tiqod qilib, Payg'ambarga imon keltirmaydilar. "Akromiyalar" bugungi mavjud barcha tuzumlarni tan olmaydi, davlatga, qonun-qoidalarga ham, ota-onaga ham emas, faqat oqim sardorlariga bo'ysunish lozim, deb hisoblaydilar. Uning asoschisi 1960 yilda Andijon shahrida tug'ilgan Yo'ldoshev Akrom Sotvoldiyevich hanbaliy mazhabi vahhobiylilik oqimi ta'limotiga tayanib, 1992 yilda 12 darsdan iborat "Imonga yo'l", deb nomlangan dasturni ishlab chiqqan. Ushbu dasturda oqimning pirovard maqsadi Islom davlatini barpo etishdan iborat ekani ta'kidlangan. O'z harakatlariga nomzodlarni tanlab olish va ularni tayyorlashni besh bosqichdagi maqsadli dastur orqali amalga oshiradilar.

**"NUR"chilar jamoasi** - Asoschisi turkiyalik Sayd Nursiy bo'lib, asl maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o'ta diniy - mutaassib kishilarni tarbiyalash. "Nur" jamoasi Allohning kitobi va Rasulullohning (S.A.V.) sunnatlarini hidoyatga boshlovchi dasturulamal qilib olgan. Bu harakat o'ziga ergashgan kishilar qalbida islomiy aqidani uyg'otib, bu bilan Islomga e'tiqod qilish qonun tarafidan jazolanadigan tartibga qarshi kurashishni da'vat etadi. Harakatning asoschisi Badiuzzamon taqvodor, shubhali narsalardan saqlanuvchi shaxs bo'lib, "Seni shubhalantiruvchi narsalarni tark et, shubhasiz narsaga qo'l ur!" degan aqidaga amal qilgan. Mazkur harakat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan yana biri ma'rifat tarqtuvchi — maktab, litsey va kollejlarni tizimini faqat Turkiyada emas, xorijiy davlatlarda ham rivojlantirishdir.

**"Tavba"** - Ekstremistik ruhdagi harakat bo'lib, uning maqsadi "vahhobiychilik"ni qo'llab-quvvatlash, aholi orasida mavjud konstitutsion tuzumga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, jangarilarni o'qitish, ularni moddiy rag'batlantirib turish, respublikada Islom davlatini tiklash shiori ostida hokimiyatni hatto terror yo'li bilan egallashdan iborat. Harakatni xorijdagi katta terroristik guruhlar mablag' bilan ta'minlashi tabiiy, ammo bundan tashqari ular turli talon-taroj va terror yo'li bilan topilgan mablag'lar bilan ham o'zlarining moddiy ehtiyojlarini qondiradilar.

**Islom uyg'onish partiyasi** - 1989-1991 yillari Tojikistondagi tartibsizliklar aynan shu partiya tomonidan vujudga keltirildi. Bu partiyaning tuzish diniy mutaassib jamoalar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ularning asosiy shiori esa — dunyoviy hokimiyat barcha ishlarini dindorlar bilan muvofiqlashtirishi va qilgan ishlariga hisobot berishi, qilajak ishlaridan xabardor etib, ruxsat olishi kerak. Ya'ni, Islom davlati barpo etish bosh maqsad hisoblanadi.

**"Islom Lashkarlari", "Adolat"** - 1990-1992 yillari Namangan shahridagi "Otavalixon" jome masjidida 100-200 kishidan iborat 60 dan ziyod guruhlar tashkil etilgan edi. O'sha payt "Adolat" harakati faollari drujinalar tuzib, kechki payt o'z mahallasidan tashqarida yurgan erkak-ayollarni to'xtatdi, ichkilikka qarshi kurash uchun aybdorlarni masjid oldida ustunlarga bog'lab qo'yishdi. 1992 yil 17 martdan aprel oyi oxirlarigacha ularning faoliyati tugatildi.

**Fiqhiy mazhablar** - Payg'ambarimizning (s.a.v.) muborak hayotlarining ohiriga kelib, Qur'oni Karim oyatlari tushushi ohiriga yetib qoldi. Keyingi bosqichdagi oyoqlarning aksariyati hukmlarga tegishli edi. Turli qabila va yurt odamlari Islomni qabul qilishdi. Yangi musulmonlar qarshisida deyarli yigirma uch yil davomida tushib to'plangan oyoqlarni o'qib-o'rganish, ularga amal qilish, shariat ahkomlarini o'z hayotlarida tadbqiq qilish vazifasi turar edi. Tabiiyki, yosh sahobalar o'zlaridan kattalardan, yangi musulmonlar eskilaridan sha'riy masalalarini so'ray boshlashdi. Bu ishlarda ba'zi sahobalar o'z ilmlari, topqirliklari bilan boshqalardan ajralib chiqdilar. Ulamolarimiz fiqh bilan mashhur bo'lgan to'rt xalifani, Abdulloh ibn Ma'sud, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Amr ibn Oss, Zayd ibn Sobit va Oisha onamizni (r.a.) misol qilib keltiradilar.

Shuningdek payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) aholisi musulmon bo'lgan uzoqroq yurtlarga o'z vakillarini, o'sha yerdagilarga shariat ahkomlarini o'rgatish, ularning hayotida oriz bo'ladigan masalalarni hal etish uchun yubora boshladilar.

Jumladan, Yamanga Muoz ibn Jabalni (r.a.) yuborishni iroda qildilar. Muoz ibn Jabal (r.a.) o'z ish joylariga jo'nab ketayotganlarida payg'ambar (s.a.v.) u kishini to'xtatib, " U yerda senga bar masala oriz bo'lsa, qanday qilib hukm chiqarasan? " deb so'radilar. Muoz ibn Jabal (r.a.) " Allohning kitobi ila ", deb javob berdilar. Rasuli Akram (s.a.v.): " Allohning kitobidan topa olmasangchi? " deb so'radilar. Muoz ibn Jabal (r.a.) " Allohning payg'ambari sunnati ila ", deb javob berdilar. Payg'ambar (s.a.v.): " Allohning payg'ambari sunnatidan ham topa olmasangchi? " deb so'radilar. Shunda Muoz ibn Jabal (r.a.) qarab turmosdan, " fikrim ila ijthod qilaman ", dedilar. Payg'ambar (s.a.v.) bu javoblardan g'oyat mamnun bo'ldilar va: "Alloh rasulining vakilini, Allohni va rasulini rozi qiladigan narsaga muvaffaq qilgan Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin ", dedilar.

Barcha hadis kitoblarida keltirilgan ushbu mashhur voqea asrlar davomida faqihlarimizni yangidan-yangi ilmiy cho'qqilarga, izlanishlarga chorlashi bilan birga, Qur'oni Karim oyatlari, boshqa hadislar bilan bir qatorda fiqh ilmiga hujjat va dalil bo'lib kelmoqda.

Birinchi hijri asrning ikkinchi yarmi va ikkinchi hijriy asrda Islom dini dunyo bo'ylab keng tarqaldi. Turli arab bo'lmagan halqlar ham musulmon bo'ldilar. Tabiiyki, ular o'zlariga Qur'oni Karim va payg'ambarimizning (s.a.v.) sunnatlaridan shariat ahkomlarini chiqarib, tartibga solish imkoniga ega emaslar. Bir tarafdin til bilmaydilar, qolaversa, ilmlari yo'q. Nima qilish kerak? Bilganlardan so'rash kerak. Shunday qilib, asta-sekin kishilarga diniy hukmlarni o'rgatadigan, ularning savollariga javob beradigan kishilar ajralib chiqa boshladi. Keyinchalik sharoit butun boshli kitoblar ta'lif qilish, masalalarni jamlab bayon qilishni ham taqozo qilib qoldi. O'sha davrda hatto davlat boshlig'i ham kishilarga fiqhiy ko'rsatmalar majmuosi lozimligini anglab yetgan. Shuning uchun ham Islom olamining turli joylarida fiqh ulamolari yetishib chiqa boshladilar. Mazkur ulamolalar o'z ilmiy ishlarida fiqhiy ijthodlariga to'rtta narsani asosiy manba qilib olganlar.

Birinchi: Qur'oni Karim, faqih Islomda biror narsaning hukmi qanday ekanligini bilmoqchi bo'lsa, avvalo Qur'onga murojaat qiladi. Unda nima hukm bo'lsa, hech qanday ikkilanishsiz qabul qiladi. Ikkinchi: Payg'ambarimizning (s.a.v.) sunnatlari. Agar faqih o'sha masalaga javobni Qur'ondan topa olmasa, sunnatga murjaat qiladi. Uni topib hukmini bayon ham qiladi.

Uchinchi: Ijmo'-bir davirning ijthod ahli bo'lgan ulamolarning bir ovozdin biror masalani qabul qilishlaridi.

To'rtinchi: Qiyos. Ya'ni, avvalgi manbalarda hukmi kelmagan masalani, shunga o'xshash manbalarda hukmi bor narsaga qiyoslab hukm chiqarish.

O'sha davrda ko'plab faqihlar yetishib chiqqanlar. Ularning ko'pchiligi o'zlari dunyodan o'tishlari bilan fiqhiy ishlari ham qolib ketgan. Ammo musulmonlar ommasiga keng tarqalgan, shogirdlari va orqasidan ergashuvchilari ko'p bo'lgan ulamolalar fiqhiy mazhab sohiblari, deb tan olingan. Shulardan to'rttalari butun dunyoga mashhur bo'lganlar va ularning mazhablari musulmonlar jumhuri tomonidan rasmiy fiqhiy mazhablar, deb tan olingan. Bular quyidagi mazhablar:

1. Hanafiy mazhabi - Shom, Turkiya, Turkiston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh va boshqa yurtlarda keng tarqalgan.

2. Shofe'iy mazhabi - Misr, Suriya, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Tayland va ba'zi Afrika davlatlarida tarqalgan.

3. Molikiy mazhabi - Libiya, Tunis, Jazoir, Mag'rib, Mavritaniya, Nigeriya va boshqa Afrika davlatlarida torqalgan.

4. Hanbaliy mazhabi - Arabiston yarim orolida tarqalgan.

**O'zbekiston Respublikada faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoalar: «Ma'rifatchilar», «Shohidiylar» va «Baxshillochilar».** O'zbekistonda milliy-diniy bag'rikenglik va dunyoviylik. Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas. Aslida diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonma-yon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etilgan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar hayot saboqlarini bir-biridan o'rganganlar, ustoz-shogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zaro teng huquqlilik, hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir.

Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqa-rashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Haqiqatan ham diniy ta'limot-lar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo'lishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani milliy g'oya va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi.

O'zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqloq mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaassiblikka, ayirmachilikka hech qanday o'rin qolmaydi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, Farb tsivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod, an'ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasi, Evangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rim katolik cherkovi, To'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiylar jamoasi, 7 ta bahoiylar jamoasi, 2 ta Krishnanani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon.

### ***Dunyodagi musulmon mamlakatlarini 3 guruhga bo'lish mumkin:***

1. Islom mamlakatlari.
2. Islom davlat dini mamlakatlari.
3. Huquqiy demokratik musulmon (Din davlatdan ajratilgan) davlatlari. *O'zbekiston* ana shu 3-turdagi huquqiy demokratik musulmon davlatlari qatoridan joy olgan. Davlatimiz diniy tashkilotlar bilan quyidagi tamoyillar asosida ish olib bormoqda:

- Dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish.
- Diniy e'tiqodlarini fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.
- Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni taqib qilishga yo'l qo'ymaslik.

-Ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati.

-Dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmas-ligini e'tirof etish kabilardir.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSH senatori Xillari Klinton xonim, AQSHning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik - turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'alarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon etkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslanish turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurish yo'lida, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Demak, millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarini teng qondirish, ular rivojini ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

**Jaholatga qarshi ma'rifat tamoyili.** O'zbekistonliklar jahonda shu jumladan, Markaziy osiyo mintaqasida *terrorchilik* bilan bog'liq qaynoq nuqtalar borligini juda yaxshi biladilar. O'zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh Afg'oniston va bir mintaqada joylashgan Pokiston kabi davlatlar hududida jonoyatshi-terrorchilar harbiy tayyorgarlikdan o'tib, O'zbekistonga kirishishga harakat qilayotganliklari hech kimga sir emas. Ularning maqsadi kimyoviy, bioogik qurollardan, kompyuter tarmoqlaridan foydalanib harbiy harakatlarini boshlashdir.

O'zbekiston hududida sodir etilgan bir necha terrorchilik harakatlari bunday umumiy havfga qarshi kurash markazlari ishlab turibdi. Shuningdek, ko'pgina davlat idoralari, ayniqsa, mudofaa, favqulodda vaziyatlar va ichki ishlar vazirligi, milliy xavfsizlik xizmati, chegara, bojxona va prokuratura idoralarining terrorchilikka qarshi kurashdagi faoliyati jadallashdi, bu boradagi imkoniyatlardan samaraliroq foydalanilayapti. Aholi o'rtasida hushyorlik ogohlik mazmunida tushuntirish ishlari, ommaviy tadbirlar o'tkazilayapti, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlari olib borilmoqda, ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar olib borilyapti.

O'zbekiston respublikasi *terrorchilikni* bartaraf qilish bilan bog'liq ishlarga dunyo jamoatchiligini jalb etmoqda.

Afg'oniston va boshqa musulmon davlatlari hududidagi harbiy lagerlarda terrorchi uyushmalar bemalol tayyorgarlik ko'rayotganligidan tashvishlangan O'zbekiston davlatining rahbari xalqaro terrorizmga qarshi kurash Markazini tuzish zarurligi to'g'risidagi taklifini Yevropa xavfsizlik harakati tahskilotiga a'zo davlat va hukumatlarga MDH davlatlariga, Markaziy Osiyoda, Qirg'iziston, Tojikiston davlati rahbarlariga yetkazadi. Bu taklif Rossiya, AQSh, Xitoy kabi yirik davlatlar tomonidan xam e'tirof etildi. Terrorchilikning har qanday ko'inishlariga zarba berish, terrorchilikni qo'llab quvvatlayotgan davlatlarga qarshi kurash olib borish jahon hamjamiyati bilan birgalikda davom ettirilmoqda.

O`zbekistonda 2000 yil 15 dekabrda “*Terrorizmga qarshi kurash to`g`risida*”gi qonun bilan qabul qilingan. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining

Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki havfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ularni har tomonlama rag`batlantirish va qo`llab quvvatlashga intiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi 1990 yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996 yillarda Tojikistondagi fuqarolik urushi va mojarolar davomida, 1999 yilda Toshkent shahrida, 1999 yil 19- fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillari Qirg`izistonning Bodken, Ozbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatida, 2004 yil mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida amalga oshirgan terrorchilik xarakatlari timsolida o`zini ko`rsatdi.

2001 yil 28-sentyabrda BMT ning Havfsizlik Kengashi 1373-sonli rezolyutsiyasini qabul qilib, terrorizmga qarshi kurash komitetini tuzdi.

BMT ning terrorizm va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta xujjati (11 ta konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. O`zbekiston 12 ana shunday halqaro shartnomalarni ratifikatsiya qildi. Ular qatorida:

1971 yildagi fuqaro aviatsiyasining havfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash:

1973 yildagi xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, shu jumladan diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlar uchun jazolash va ularni bartaraf etish:

1979 yildagi garovga olish xarakatlariga qarshi kurash:

1980 yildagi yadroviy materiallarning himoyasi:

1988 yildagi dengiz kemalari xarakati havfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash:

1997 yildagi bombaviy terrorizmga qarshi kurash:

1999 yildagi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash xalqaro konvensiyalari borligini ko`rish mumkin.

O`zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi 7 ta xalqaro shartnomani imzolagan.

Jamiyatning barqaror rivojlanishida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tadrijiy va tizimli ravishda amalga oshiriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo`lib, tub, sifatiiy o`zgarishlarning asosini tashkil etadi.

Huquqiy davlat qurish borasida respublikamizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilib, bu yo`nalishda katta yutuqlarga erishildi. Halqaro andozalarga javob beradigan va milliy o`zligimzini aks ettiradigan Konstitutsiya qabul qilindi. O`zbekiston inson huquqlarini ta`minlashga qaratilgan, jahon miqyosida e`tirof etilgan ko`plab halqaro deklaratsiya, konvensiya va hujjatlarga qo`shildi va shundan kelib chiqadigan siyosiy va huquqiy qoidalar respublikamizning siyosiy taraqqiyotida va huquqiy me`yoriy tizimni rivojlantirish jarayonida inobatga olinmoqda. Lekin bu borada hali muayyan muammolar mavjud. Chunki qisqa vaqt mobaynida bunday har tomonlama va chuqur o`zgarishlarni amalga oshirish ucha qiyin. Ayni paytda, inson huquqlari va erkinliklarining qamrov doirasi kengayib, rivojlanib borayotganini va har bir mamlakatda o`zoga xos tarzda namoyon bo`layotganini ta`kidlash lozim. Tolerantlik (bag`rikenglik) munosabati barcha ijtimoiy guruhlar va shaxslar orasida amalga oshirilgan taqdirdagina dunyoviy davlat va jamiyat barpo etishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga binoan milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jaomat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlangan. Jahon huquqshunoslik fani tajribasi asosida qabul qilingan bu qoida davlatimizda milliy va diniy asosda nizo paydo bo`lishining oldini olish uchun xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy kafolatdir.

Jamiyat barqarorligiga to`siq bo`luvchi illatlarning yana biri terrorizmdir. Nega inson uni dunyoga keltirgan Ona Yurti, Vatani, millatiga qarshi chiqadi? Nega g`ayriinsoniy faoliyat yuritib, o`z yurtdoshlarini o`ldiradi, butun xalq mehnati bilan yaratilgan binolarni, inshootlarni vayron qiladi? Bunday vahshiyona faoliyat ko`pincha siyosiy maqsadlarda –hokimiyatni egallash uchun amalga oshiriladi.



Shu nuqtai nazardan qaraganda, bozor iqtisodiyotini shakllantirishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, dunyoviy demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishga qaratilgan siyosiy-huquqiy hamda vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyasi va komil insonni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar-yuqoridagi kabi holatlarning oldini olish, barqaror rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi.

**Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri.** **Axborot(informatsion) urushi** (*ingl. information war; information – "axborot", war – "urush"*) – o'zga davlat tinch aholisi va (yoki) harbiylariga muayyan axborot (informatsiya) tarqatish yo'li bilan ta'sir o'tkazish. "*Axborot-ruhiy urushi*" atamasi AQSh harbiy doiralari lug'atidan qabul qilingan. Ushbu atama ingliz tilida shu bilan birga "Axborotlar qarama-qarshiligi" tushunchasini ham anglatib keladi.

**Axborot** (arab, axbor — xabarlar, ma'lumotlar) — muayyan voqea-hodisalar to'g'risidagi xabar yoki ma'lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, keng ma'no kasb etayotgan tushuncha. OAV orqali e'lon qilinadigan ko'rsatuv va eshittirishlarning nomi, jurnalistika sohasidagi maxsus janr ham shunday ataladi. Biron voqea haqidagi batafsil ma'lumot, davlatlar o'rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnomalar to'g'risidagi rasmiy xabar ham axborot deyiladi. Xalqaro huquqda ikki va undan ortiq davlat o'rtasida olib boriladigan diplomatik muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar yoki qabul qilingan boshqa qarorlar haqidagi xabar ikki yoki undan ortiq davlatlar tomonidan e'lon qilinadi. Ikki davlat o'rtasida olib boriladigan muzokaralar haqidagi axborot odatda qo'shma axborot deb ataladi. Kundalik hayotda biror narsa (jarayon, ish, hodisa) to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun kerak bo'ladigan ma'lumot yoki yangiliklar ham axborotdir.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda *internet*dan foydalanish ko'nikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar *internet*dan olinadigan ma'lumotlarning qanchalik haqqoniy va to'g'ri ekanini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o'smirlar uchun zarur. *Internet*da grifingdan tashqari o'smir yoshlar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Ya'ni bolalar va *internet* muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga etaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'ligiga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi tabiiy.

**Informatsion tahdidlar.** Bu turdagi tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto'g'ri shakllantirish va shu tariqa o'zligiga ega bo'lmagan olomonni tarkib toptirishni ko'zlaydi. Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan *Internet* vositasida chetdan turib uyushtirilmogda va uning asosiy ko'rinishlari quyidagilardir: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, kichik muammoni katta (yirik) muammo sifatida tasvirlash, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish, milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish, yoshlarni chalg'itish. Informatsion tahdidlar – ba'zida *axborot xuruji* deb ataladi – shaxsni ikkilantiradi, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi.<sup>7</sup>Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni *internet* doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn savdolarida qatnashish imkoni bilan birga kichik o'yinchoqdan tortib to eng so'nggi rusumdagi mashina sotib olish xuquqiga ham ega bo'ladi. Bu esa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi. Shu sabab, global tarmoqdan foydalanuvchilar ko'p bo'lgan Belarusda bu kabi muammolar qator yangi kasblarning vujudga kelishiga ham turtki bo'lgan. Yangi turdagi mazkur mutaxassislarning vazifasi oilada *internet*dan foydalanish madaniyatini joriy etadigan hamda bolalarga psixologik, ma'naviy hamda jismoniy zarar etkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ko'plab jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar o'z faoliyatini *internet*ning bolalarga ta'siri va undan bo'ladigan zararning oldini olish usullarini

---

<sup>7</sup> Yana qarang: Grinin L.E., Korotaev A.V. Sotsialnaya makroevolutsiya i istoricheskiy prtsess. // Filosofiya i obshestvo. 2007. № 2. –s. 19-66. Jyraev T. Milliy davlatchilik va xavfsizlik. –T.: "Akademiya". 2007. va h.k.

o`rganishga qaratgan. Jumladan, *internet* mazmunini baholash assotsiatsiyasi (ICRA) mustaqil xalqaro tashkilot bo`lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko`ngilsizlik va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kibermakonda bolalarni noto`g`ri axborotlardan himoyalash va so`z erkinligini ta`minlashdan iborat. Ota-onalarga mavjud muammolar yuzasidan maslaxat, ko`mak beradigan kiberfarishtalar (Cyberangels) - *internet*da bolalar huquqini himoya qilishga yo`naltirilgan Evropadagi ilk tashkilotga 1995 yili asos solindi va ayni paytda unga AQSh va Kanada kabi davlatlar ham a`zodir. Muammolar chuqurlashgani sayin bu kabi tashkilotlar xam keng ko`lamda tadqiqotlar o`tkazish va mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishni kuchaytirmokda. Xususan, Bolalarni asraylik (Save the Children) xalqaro huquqiy tashkiloti o`tkazgan so`rovnomalari natijasida ma`lum bo`ldiki, AQShdagi 15-17 yashar o`smirlarning 85 foizi, Kanada yoshlarining 93 foizi muntazam ravishda *internet*dan foydalanadi. Kommunikatsiya vositalari tadqiqoti assotsiatsiyasi (Association for the Research of Communication Media) olgan natijalarga ko`ra esa, o`smirlar katta yoshlilarni 2004 yildayoq *internet*dan foydalanish bo`yicha ortda qoldirgan.

**Virtual ta`qib.** - Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta. *Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim.* Alohida e`tibor talab etadigan jihat - *internet* orqali ta`qib deb nomlanadi. Bugungi kunda virtual ta`qib nihoyatda ommalashib bormoqda. O`tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma`lum bo`ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar *internet*dan tobora erta foydalanishga kirishmoqda. Masalan, boshlang`ich sinf o`quvchilari bemalol maktab yon-atrofidagi kafe yoki klubga kirib, *internet*dan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham *internet*ga ulanish imkoni bo`lishini xohlashi tabiiy. Lekin, mutaxassislarning fikricha, yoshi o`nga etmagan bola odatda mustaqil ravishda *internet*dan foydalanish uchun zarur bo`lgan tanqidiy fikrlash va shu asosda ma`lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, «filtrlash» qobiliyatiga ega emas. Shu sababli *internet*dan yolg`iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo`lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o`zi haqidagi shaxsiy ma`lumotlarni *internet* orqali tanishgan odamlarga aytmaslikni o`rgatish zarur.

**“Kibernetik do`st”.** - Zamonaviy texnologiyalarning tez sur`atlarda o`shishiga qaramay, ba`zan odamlar ulardan qanday oqilona foydalanish kerakligini to`liq anglab etmaydi. Kompyuter va *internet*gacha bo`lgan davrda o`shib ulg`aygan aksariyat ota-onalar va muallimlar agar bola *internet*dan foydalana boshlasa, albatta, foydasidan zarari ko`proq, deb o`ylaydi. Bolani kompyuter yoki *internet*dan chalg`itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya`ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o`zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo`lardir. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo`yish to`g`ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e`tiborga loyiq: bolalarda **kibernetik do`stga** nisbatan munosabat aynan kattalarning tutgan yo`lidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shubhasiz, *internet* bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo`lmaydi. Foydalanuvchilar ma`lumotlarning to`g`riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo`lishi talab etiladi. Buning uchun bolalarga *internet*da xohlagan odam o`z sahifasini ochishi, unga har qanday ma`lumotni joylashtirishi, bu borada unga hech kim to`sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo`naltirish jarayonida faktlarni fikrlardan farqlashga, to`g`riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalashga ularni o`rgatish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

O`tgan asrning oxiri va hozirgi asr boshida axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asrning "Axborot asri" deb atalishiga sabab bo`ldi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari, Axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda axborot asosida ta`lim-tarbiya jarayoni olib borilmoqda, ijtimoiy hayot samarali boshqarilmoqda. Hozirgi kunda hayotning biror-bir sohasini axborotsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Axborotlar banki (AB), Axborot texnologiyalari kishilik faoliyatining ajralmas qismiga aylanmokda. Axborotlarni aniq maqsadda yig`ish, saqlash, tizimlarga ajratish va ulardan ommaviy tarzda foydalanishda texnik, dasturiy, algoritmik ishlar va ularning tashkiliy vositalari beqiyos ahamiyatga ega. Axborotlashtirilgan jamiyatning har bir bo`g`inida ABga murojaat qilinadi va shu asosda zamonaviy ta`lim texnologiyalari yaratiladi va ta`lim-tarbiya jarayonlarini optimal boshqarish imkoniyati vujudga keladi. Axborotli modul — ta`lim maqsadini belgilashga qaratilgan, rejalashtirilgan

natijalar bilan chegaralangan, fanlararo va fan ichidagi bog'liklikni hisobga olib tuzilgan hamda yakuniy nazorat tizimini qamrab oladigan o'quv fani mazmunining muntazam va tugallangan qismidir. Axborot resurslari ma'lumotlar bazalari va banklari, turli xil arxivlar, kutubxonalar, muzeylar fondi va bularni o'z ichiga oladi. Resurs — biror narsa yoki hodisaning zaxirasini belgilaydi, ayni vaqtda u axborot tizimidagi alohida xujjatlar va ularning butun bir majmuidir. axborot resurs markazi (ARM) — ixtisoslashgan muassasada to'plangan hamda markazlashtirilgan bosma va audio-vizual materiallar majmuasidir. ARM kompyuter va aloqa vositalari yordamida qo'shimcha aloqa manbalari va materiallariga kirish imkonini beradi. ARMning asosiy dasturi ta'lim beruvchi va oluvchilar tomonidan o'quv dasturiga muvofiq to'plangan audiovizual materiallarni o'z ichiga oladi. ARM dasturidagi individual va texnologik manbalar ta'lim beruvchilar, mediateka mutaxassislari hamda ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro muntazam aloqani ta'minlaydi. ARM ta'lim muassasasidagi yangiliklarni siyosiyishda o'quv muassasasi bilan jamiyat o'rtasidagi asosiy aloqa tarmog'i bo'lib hisoblanadi va shu orqali u ta'lim oluvchilarni zarur axborotlar bilan ta'minlaydi. Ta'lim muassasasining ARMi uchun kitoblar, davriy nashrlar, mikrofilmlar, slaydlar, gramplastinkalar, kompyuterli tizimlar, audio va video yozuvlar asosiy manbadir. Axborot tarmog'i (AT) — aloqa tizimlarida kompioterlar yordamida axborotlashishga xizmat qiluvchi qurilmalarning bir-biri bilan bog'langan holati.

Axborotni faksimil uzatish (AFU) odamlar o'rtasidagi axborot almashinuvi bo'lib, uning yordamida matn, gazeta, oddiy qulyozma, grafika, fotografiya kabi xujjatlarni bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga asl nusxasidek aniq etkazib berish jarayonidir.

Axborot olish kafolatlari va erkinligi har bir shaxsning o'zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatishga haqli ekanini bildiradi. Mustaqillik yillarida yurtimizda bu borada mustahkam huquqiy poydevor yaratildi. O'zR Konstitutsiyasining 30-moddasida barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar fuqarolarga ularning xuquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjat, qaror va boshqa xil axborotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligi belgilab qo'yilgan. 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi qonunga ko'ra, mamlakatimizdagi har bir fuqaro o'z manfaatlariga daxldor axborotlarni olish imkoniyatiga ega. Hozirgi globallashuv jarayonida axborot g'oyaviy ta'sir o'tkazish vositasiga aylanib bormoqda. Ayrim mafkura poligonlari o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishda axborot xurujlaridan foydalanmoqda.

*Axborot urushida* oddiy urushda qo'llanadigan qirg'in vositalari ishlatilmaydi. Uning ob'ekti — omma yoki alohida shaxslar ongidir. Qarama-qarshi taraflarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladigan shaxslar (prezident, bosh vazir va h.k.) alohida ta'sir ostiga olinishi mumkin.

*Axborot urushi* vositalari vazifasini ommaviy axborot vositalari, pochta, hatto g'iybat tarzida tarqatilgan gap-so'zlar ham bajarishi mumkin. *Axborot urushida* faktlar buzib ko'rsatiladi yoki ularning ta'sir ko'rsatayotgan tarafga foydali tomonlari bo'rtiriladi.

#### **Axborot urushining tarkibiy qismlari**

1) **psixologik operatsiyalar** — dushman askarlari ishonchiga ta'sir ko'rsatish maqsadida axborotni qo'llash;

2) **elektron urush** — dushmanga aniq axborot, ma'lumotga ega bo'lish imkonini bermaydi;

3) **dezinformatsiya** — dushmanni o'zining kuchi va niyatlari to'g'risida soxta ma'lumot bilan ta'minlaydi;

4) **jismoniy vayron qilish** — axborot tizimlarining elementlariga ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'lganida axborot urushining bir qismi bo'lib kelishi mumkin;

5) **xavfsizlik choralari** — dushman shu taraf imkoniyat va niyatlaridan xabardor bo'lishining oldini olish;

6) **to'g'ridan-to'g'ri axborot hujumlari** — axborot mohiyatini saqlagan holda uning ko'rinishini o'zgartirib yuborish.

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z

erkinligining o`ziga xos o`lchovi, ko`rsatkichi bo`lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag`batlantiradi va mustahkamlaydi.

G`arbda *ommaviy axborot vositalariga* qo`pol bo`lsa ham *jamiyat manfaatlarini "qo`riqlovchi ko`prik"*, deb nisbat beradilar. Yetuk demokratik davlatlarda ular jamiyatning "ko`zlari", "quloqlari" vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil kutarib chiqib, ularning turli echimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan. Ta`kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qapamaqarshi nuqtai nazarlardan iborat bulgan dasturlarni yaratish, muqobil fikrlar to`qnashuviga erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag`batlantirishga qodir bo`ladi.

Biz demokratiyani qanday tushunsak, ommaviy axborot vositalariga ham shunday vazifalarni yuklaymiz. Biz demokratiyani mustaqilliq erkinlik va mas`uliyat deb tushunar ekanmiz, ommaviy axborot vositalaridan ham mustaqillik, erkinlik va mas`uliyatni kutamiz. Demak, jurnalistlar bu tushunchalarini anglashi, ularga ehtiyoj sezishi, ularni qadplashi, ulardan foydalana bilishi va ular uchun kurashishi zarur.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqloq g`oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma`naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va o`zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog`liq *Ommaviy axborot vositalarining ta`sir kuchini kursatadigan shunday bir gap bor "har qanday puch g`oya, uydirma haftasiga uch martadan to`rt yil davomida takrorlansa - "haqiqat" tayyor bo`ladi, odamlar unga chippa-chin ishonadilar"*.

Oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning uzgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. ***Bu qurol - axborotdir.*** Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o`q singari insonni jismonan yo`q qila olmasa-da, uning qo`poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg`in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni uz manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demaq insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida, axborot maqcadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun u qadap ko`p mehnat, u qadap ko`p harakat, u qadap ko`p harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon tukishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy uzlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Bunday informatsion qaporuvchilikdan maqcad - mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yul bilan tazyiq utkazish, jahon afkor ommasida o`zbekiston haqida noto`g`ri tasavvur to`g`dirishga intilishdan iborat. "Milliy istiqloq g`oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasidagi ba`zi fikrlar ham bugungi hurujlarning maqsadini oydinlashtiradi. Ushbu risolada aytilishicha, geopolitik maqsadlar - davlatning uzga quduqlarda o`z mavqeyi va ta`sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosatdir. Ochig`i, bu ta`sirif ayrim ommaviy axborot vositalarining faoliyati nimaga yunaltirilganligini fosh etib qo`ymoqda.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri **Margaret Tetcher** *"Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun kislorod vazifasini o`taydi"*, degan. Bu gapning mag`zini chaqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq uylab kursak-chi? Aslida, terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan uldirish orqali millionlarda qo`pqyv va daqshat uyg`otishga intiladilar. Demaq ularning maqcadlari - uldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta`sir qilishdir. Taassufki, ba`zi ommaviy axborot vositalari uzlari bilmagan holda terrorizmning buzg`unchilik qo`poruvchilik ta`sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo`yadilar. Ularning terror oqibatlarini haqidagi vaqimali axborotlari insonlardagi qurquvni, daqshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksiltarg`ibotni uyushtirish zarurati to`g`iladi.

**Global tarmoqdagi g`oyaviy xurujlar va barkamol avlodni mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda milliy g`oyaning o`rni.** Har bir davlat o`z aholisini, ayniqsa bilim va yangilikka chanqoq yoshlarini ilmiy bilimlar, ma`rifiy-ma`naviy ozuq bo`ladigan axborotlar bilan

ta'minlanishidan manfaatdordir. O'zbekistonda ham o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan, printsiptial "axborot siyosati" shakllantirildi va hayotga joriy etilmoqda.

Zamonaviy informatsion vaziyat talablarini hisobga olgan holda aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2006 yili maxsus qaror qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yangi axborot markazlarini barpo etish, mamlakatdagi kutubxonalar tarmog'ini tubdan takomillashtirish edi.

Mazkur qarorda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda ko'p sonli umumta'lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlari tuzish ko'zda tutildi.

*Axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:*

- ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda talim olishiga ko'maklashish;
- milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishini ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyat yaratib berish;
- yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish;
- madaniy, ta'lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masala g'oyaviy nuqtai nazardan **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun** printsiplariga to'la muvofiq keladi.

Ta'lim-tarbiyaga oid milliy merosimizni o'rganishning dolzarbligi nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, kadrlar tayyorlash milliy dasturida zikr etilgan uzluksiz ta'limning milliy modeli tamoyillari mohiyatan ta'limning milliy-ma'rifiy, milliy tarix, xalq an'analari, milliy merosimiz bilan uyg'unlikda olib borilishini anglatadi. Shuning uchun «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 4-bobida, ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, uning zamonaviy tarbiyaviy shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbqiq etish, milliy tarixiy an'analar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan. Umuman ta'lim-tarbiyaning milliy modeliga ko'ra, ta'lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o'rganish va uni pedagogik tafakkur iste'moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Qadrlar tayyorlash milliy modelining birinchi komponenti shaxsdir. Chin ma'nodagi shaxs o'zini-o'zi qayta tarbiyalash salohiyatiga ega bo'ladi. O'zi va millat uchun befoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o'z manfaati, o'z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. O'z vazifasini millatning kuniga yarash, og'irini engil qilishda ko'radi. Shu sababli u o'z shaxsiy qobig'idan chiqib ko'tariladi va millat manfaati uchun, millat farovonligi orqali o'zini kamolotga erishtirish uchun boshqalardan ko'proq, samaraliroq mehnat qiladi. Umummilliy g'oya, maqsadga ishonadi, uni himoya qiladi. Talabada bu fazilatlar birdaniga paydo bo'lib qolmaydi. U, avvalo, oilada ota-ona, oiladan tashqarida qarindosh-urug', qo'shni-mahalladoshlar orasidagi tarbiyaviy muhitni rag'batlantirib borish, so'ngra oliy o'quv yurtida - mafkuraviy bilimlarni egallash orqali tarbiyalanadi. Shu sababli bu jarayonga ijtimoiy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarash lozim.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki, milliy merosimizning g'oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy ehtiyojlariga da'vogar bo'lgan omillarni o'rganishdan iborat bo'lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim jarayoni dunyo bo'yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma'noda global, insoniyat tsivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o'ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta'limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq. Insoniyat tsivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo'yadi.

**XXI asr** - innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta'lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o'qitish uslublari, shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma'naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o'z oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurlu istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga etkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir.

Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik – ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda o'tmish allomalari, mutafakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g'oyat beqiyosdir.

Demak, milliy istiqbol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish sohalari va yo'nalishlari xilma-xil bo'lib, ulardan samarali va to'g'ri, o'rinli foydalanishni talab etadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur va muhimdir. Mafkura bo'lmasa xalq, millat, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Mafkura jamiyat, xalq va millatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotiga maqsad va yo'nalish beradi. **Milliy g'oya, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda:**

1) Nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularning imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur.

2) Mustaqillikni mustahkamlab, ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirib, yagona maqsad yo'lida safarbar etishni taqozo etadi. Ayniqsa fuqarolarni kamol toptirishga yo'naltirilgan va tuzilgan ma'naviyat va ma'rifat Respublika Kengashi targ'ibot-tashviqot ishlarini uzluksiz olib borishni davr taqozo etmoqda.

3) Maktablar, litseylar, kollej va oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutassaddi mutaxassislar lavozimlarini joriy etib, ular hayotini yanada faollashtirish lozim.

4) Oila, mahalla, umumiy o'rta, umumiy maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari muassasalar, oliy ta'lim tizimida bolalar, o'smirlar, talaba yoshlar ongini yuksaltirish, ularni ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli xil tashkilot va to'garaklar tuzish, ongni fikrlashga o'rgatish, ularning tafakkurida bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Diniy mutaassiblik mohiyatini tushuntirib bering.
2. Diniy fundamentalizmning yunalishlari
3. O'zbekistonda diniy ekstremizmning paydo bo'lishi rivojlanish davrlari va unga qarshi kurash vositalari.
4. Kibermakon, kiberterrorizm, kibertzuravonlik (cyberbullying), tushunchalarining mohiyati.

**1.VII-asrda paydo bulgan musulmon davlati nima deb ataladi?**

1. Musulmonlar davlati
2. Islom imperiyasi
3. Arab imperiyasi
4. Arab xalifaligi

**2.“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo’l qo’yilmaydi”. Ushbu fikrlar Konstitutsiyamizning qaysi moddasida ko’rsatib o’tilgan**

1. 41 modda
2. 8 modda.
3. 31 modda
4. 128 modda

**3.O’zbekistonda nechta diniy konfetsiyalar mavjud?.**

1. 31 ta konfetsiya faoliyat yuritadi.
2. 25 ta konfetsiya faoliyat yuritadi.
3. 16 ta konfetsiya faoliyat yuritadi.
4. 26 ta konfetsiya faoliyat yuritadi.

**4.Frantsuz tilidagi “qo’rqitish” so’zidan olingan, o’z fikrini zo’ravonlik yo’li bilan boshqalarga o’tkazadigan, bu yo’lda suiqasd, qo’porovchilik usullaridan foydalanadigan ta’limotning nomi nima?**

1. Ekstremizm
2. Fundamentalizm
3. Traditsionalizm
4. Terrorizm

**5.Ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo’l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan g’oyani qaysi ta’limot ilgari suradi?**

1. Ekstremizm
2. Fundamentalizm
3. Traditsionalizm
4. Evolyutsionalizm

**6.O’z g’oyasini “to’g’ri” deb boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg’unchilikda ayblash qanday nomlanadi?**

1. Mutaassiblik
2. Mujtahid
3. Muhaddis
4. Murshid

**7.Vahhobiylik qachon va qaerda paydo bo’lgan?**

1. XVIII asrdaArabistonda
2. XVIII asrda Iroqda
3. XIX asrda Eronda
4. XX asrdaAfg’onistonda

**8.XIX asrni oxirlarida O'rta Sharqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g'oyasini qaysi siyosiy oqim ko'tarib chiqqan?**

1. Panteizm
2. Panislomizm
3. Paniranizm
4. Ekstremizm

**9.“Hizbut tahrir al-islomiya” tashkiloti qachon tashkil topgan?**

1. 1953-yilda
2. 1946 yilda
3. 1950 yilda
4. 1954 yilda

**10.Diniy ekstremizm nima?**

1. Ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar
2. O'zi e'tiqod qiladigan diniy dunyoqarashni mutloq haqiqat deb tushunish
3. Milliy o'zlikni anglash faqat diniy dunyoqarash orqaligina ro'y beradi deb tushunish
4. Dinga ochiqchasiga xiyonat qilib, boshqa oqimlarga aralashish



▶ **DINIY EKSTREMIZM** – an'anaviy diniy qadriyatlarni rad etish va soxta aqidaviy g'oyalarni murossasizlik va zo'rlik bilan targ'ib qilishdir.

▶ **TERRORIZM** – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish va aholi orasida vahima va qo'rquv uyg'otish uchun zo'ravonlik ishlatishdir.

***AQIDAPARASTLIK*** (aqida - arabcha – ishonch) muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni hamda ularni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash va urinishni anglatadi.



**MUTAASSIBLIK** (fanatizm – frantsuzcha-«ibodat») muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan ketish, «o'zgaralar» va «o'zgacha» qarash va g'oyalarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi. **Mutaassiblik** barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sababchi bo'lgan.



2001 йил 11 сентябрь

**KIBERMAKON** – komyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydoni. Asoschisi: kanadalik yozuvchi **Uilyam Gibson**

«Asabli manzaralar tasvirlovchisi» asarda kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlang'an.

«kibermakonda» din niqobidagi «kiberhujum»lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to'ntarishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi.

«kiber hujum mexanizimi»ga qarshi «kiberhimoya mexanizimi» quyidagilardan iborat: bola tarbiyasiga ota-ona, mahalla, maktab tizimini rivojlantirish

## O`ZBEKISTONGA XAVF SOLAYOTGAN DINIY EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR

“ISLOM UYG`ONISH PARTIYASI” (1989-1991)

“ADOLAT”, “ISLOM LASHKARLARI” (1990-1992)

“TAVBA”, “HIZBULLOH” (1991-1995) MUXOLIF KUCHLAR TOMONIDAN TA`MINLANIB FAOLIYAT KO`RSATMOQDA.

“AKROMIYLAR” (1997-1999) ANDIJONLIK AKROM YO`LDOSHEV (1960 YILDA TUG`ILGAN) “IMONGA YO`L” (1992) NOMOLI DASTUR TUZGAN.

“VAHHOBIYLIK” (1990-1992)

# **GLOSSARIY**

**(falsafa fanidan qisqacha izoh)**

**Falsafa** - "filosofiya" so'zidan olingan bo'lib, "donishmandlikni sevaman" degan ma'noni anglatadi ("filo" - sevaman, "sofiya" - donolik).

**Faylasuf** - qadimgi SHarq va YUnonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, inson ma'naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar.

**SUBSTANTSIYA** - qadimgi YUnoniston va Rimda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to'g'risidagi fikr tushunilgan.

**MONIZM** - (yunoncha - monos, ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) - olamning asosi yakkayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir.

**DUALIZM** - (lotin tilida dua, ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi) -olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya, ya'ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

**PLYURALIZM** - (lotin tilida plyural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) - olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

**MATERIALIZM** - olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot.

**IDEALIZM** -olamning asosida ruh yoki g'oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

**GNOSTIK** - dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflar.

**AGNOSTIK** - olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to'g'ri va aniq haqiqat darajasiga ko'tarila olmaydi deyuvchi faylasuflar.

**DIALEKTIKA** - grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, aloqadorlik va bog'liqlikda, taraqqiyot va rivojlanishda deb tushunishdir. Falsafada mazkur tamoyillarga asoslangan tafakkurni dialektik tafakkur, ana shunday dunyoqarashni dialektik dunyoqarash deb atash an'anaga aylangan.

**METAFIZIKA** - grekcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi "fizikadan keyin" degan mazmuni ifodalaydi. Bu tushuncha, falsafa tarixida birinchi marta, qadimgi YUnonistonning buyuk faylasufi Aristotelning "Ilk falsafa" deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan.

Ko'p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko'proq. qaratadigan usuldir.

**SOFISTIKA** - qadimgi YUnoniston falsafasida vujudga kelgan tafakkur usulidir. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi "sofist" so'zi asosda, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. U nafaqat qadimgi YUnoniston, balki o'rta asrlarda Evropada ham keng tarqalgan.

**SINERGETIKA** - olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Sinergetika XX asr tabiiy fanlarning falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutuq va xususiyatlarni aks etadi.

**O'ZBEK FALSAFASI** - halqimizning o'z milliy an'analari sodiqligi, mamlakatimizning buyuk kelajagiga, muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e'tiqodi, mehnatsevarligi, intellektual salohiyati va boshqalar kiradi.

**DUNYOQARASH** - Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa kishilarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. SHu ma'noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir.

**MIFOLOGIK DUNYOQARASH** - qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va Haqiqat uchun kurash g'oyalarining ifodasi bo'lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi,

vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

**DINIY DUNYOQARASH** - muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo'lgan e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, vujudga kelishiga ko'ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega. Diniy dunyoqarash har bir davrda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarib kelgan. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan.

**FALSAFIY DUNYOQARASH** - muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat. Falsafiy dunyoqarash tarkibida hissiyot va aql muhim o'rin tutadi, hissiyot dunyoqarashning emotsional - ruhiy jihati bo'lib, dunyoni tushunish esa, dunyoqarashning aqliy shaklidir.

**FALSAFIY DUNYOQARASHNING VAZIFALARI**- u muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat. Bo'larning ichida e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqarashning mazmunini tashkil etadigan asoslardan biridir. E'tiqod insonning o'z qarashlari va g'oyalari to'g'riligiga, orzu-umidlarning asosli ekaniga, faoliyati va hatti-harakatining umumiy maqsadlarga va talablarga mosligiga bo'lgan chuqur ishonchidan paydo bo'ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

**FALSAFIY BILIMLAR TIZIMI** . Dunyoda xilma-xil fanlar bor. Muayyan sohaga oid ilmiy bilimlar tizimi fan deb ataladi. Ular "Tabiiy fanlar", "Ijtimoiy fanlar", "Aniq fanlar", "Texnika fanlari" kabi sohalarga bo'linadi. Jamiyat va insonni o'rganuvchi, ular to'g'risidagi turli bilim sohalarini qamrab oladigan tarix, falsafa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi ijtimoiy fanlar yagona fan sohasi - ijtimoiy fanlar sohasiga kiradi. Fizika, ximiya, biologiya, matematika kabi fanlar esa tabiiy fanlar sohasiga mansub.

**FALSAFIY G'OYALAR** - insoniyatning yashashi, rivojlanish istiqbollari, orzu-havaslari, intilishlari, umidlari, turmush tarzi g'oyaviy qarashlarda ham o'z ifodasini topadi. Falsafiy g'oyalar, obrazli qilib aytganda, inson hayot tarzining ko'zguisidir.

**FALSAFIY NAZARIYALAR** - "yaxshi" yoki "yomon", "foydali" yoki "zararli" ekanini tarixiy tajriba asosida faqat bitta mezon umuminsoniy manfaatlarga mos keladimi yoki yo'qmi, degan xulosa asosida baholash mumkin. SHuning uchun biz falsafiy g'oya va nazariyalarni baholashda sub'ektiv fikrlarimizni mutlaqlashtirishdan yiroq bo'lishimiz lozim.

**FALSAFIY TAFAKKUR** - rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqea-hodisalarni barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o'zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o'z-o'zidan yuz bermaydi.

**ZARDUSHT** - SHarq va G'arbda Zaratusht, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardusht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida vatanimiz hududida, xususan Xorazm zaminida yashagan. U o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Lekin uning payg'ambarligi ilohiy kitoblarda o'z tasdig'ini topmagan.

**"AVESTO"** - zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. "Avesto"da olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. "Avesto"da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma'lumotlar ham berilgan.

**BUDDAVIYLIK** - diniy falsafiy ta'limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu ta'limotga asos solgan donishmand Sidharta urug'idan chiqqan Gautama hisoblanadi. Keyinchalik u "Budda", ya'ni "nurlangan" degan laqabga ega bo'lgan. Buddaviylik O'rta Osiyoga eramizdan avvalgi II-1 asrlarga kirib kelgan. Buddaviylikning O'rta Osiyoga yoyilishi quyidagi to'rt bosqichdan iborat.

**MAZDAK TA'LIMOTI** - eramizning V-VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470-529yillar) bo'lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida xalq ommasiga suyangan.

**MONIY TA'LIMOTI** - yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. U zardushtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar yozgan. Lekin ular bizgacha etib kelmagan. Moniy hatto "Moniylik yozuvi" nomli alifbo ham tuzgan. Uning ta'limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi - yaxshilik va zulmat dunyosi yovuzlik bo'lgan. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsur dan (ruh - nur farzandi, jism - zulmat mahsuli)dan iborat.

**DAO** - Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasufi Lao-TSzi (VI-V asrlar)ning ta'limoti bo'lib, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Dao qonuni - tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof ztilishidir.

**TSI** - Dao qonuniga ko'ra beshta unsur tushunilgan ya'ni olov, suv, havo, er va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

**YAN** - yorug'lik kuchi. Odamzod kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonidan turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim.

**IN** - zulmat kuchi. Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-TSzi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutadi.

**GERAKLIT** - yunon faylasufi eramizdan avvalgi 520-460 yillar Kichik Osiyoning g'arbiy kirmog'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. Olamdagi barcha narsa va hodisalarning asosi olovdan iborat deb bilgan. Uning fikricha, olamdagi hamma narsa harakatda "Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, suv har daqiqada yangilanib turadi". Olamda turg'unlik yo'q, harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir.

**PIFAGOR** - (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) YUnonistonning Somos orolida yashab o'tgan. U qadimgi YUnonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor butun olam raqamlarning uyg'unligidan va o'zaro munosabatlaridan iborat deydi.

**SUQROT** - (eramizdan avvalgi 469-399 yillar) (asli Sokrat) qadimgi yunon faylasufi Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, xurfikrli inson, kambag'aldan chiqqan, tosh yo'nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan. Falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim deb ta'kidlaydi. Suqrot qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilgan. "Aflotun mening do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi" degan hikmatli ibora o'sha davr ma'naviyatining yaqqol ifodasidir.

**SOFISTLAR FALSAFASI** - qadimgi yunon madaniyatida katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan.

**AFLOTUN** - (asli Platon) Suqrotning shogirdi, jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflotun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. Jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir, deb aytadi Aflotun. Ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun "g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi" ta'limotining asoschisidir. Uningcha g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir.

**ARASTU** - (384-322 yillar) (asli Aristotel') Aflotunning shogirdi va safdoshi, qadimgi YUnonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan merosi bilan mashhur.

**DEMOKRIT** - yunon faylasufi. Uning fikricha haqiqiy borliq moddiy dunyo bo'lib, ruh, ong, materiyaning mahsulidir. Olam mayda moddiy zarralardan. ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deb ta'lim beradi.

**EPIKUR** - (341-270 yillar) qadimgi yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam - moddiy, abadiy va cheksiz.



Atomlar - bo'linmas, olam -jism va bo'shliqdan iborat. deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lgan.

**NEO** - yangi, zamonaviy demakdir. Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida nomlariga «Neo» qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

**VORISLIK** - eskini inkor qilib, yangilikni shakllantirish.

**STSIENTIZM** - fan ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyo qarash. Stsientizm g'oyalari, neopotizm, texnologik deterinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi.

**ANSTSIENTIZM** - fan jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishni asoslovchi falsafiy dunyo qarash. Bunday dunyo qarash ekzistentsializm, frankrut ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi.

**NEOTOMIZM** - XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XII asr) Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (Neo-yangi, to'limizm-«foma») Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotta ko'ra ilm va e'tiqod o'rtasida muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan haqiqat.

**NEOKANTCHILIK** - XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan. Bu ta'limotga ko'ra inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun insonning hayoti o'zi uchun oliy maqsaddir. SHunday ekan, vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin maxsulot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamoatchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan unga zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq-hukuklarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

**NEOPOZITIVIZM** - okimining yirik namoyandalardir. Neo - yangi; pozitiv-ijobiy degan ma'noni anglatadi. Neopozitivizm G'arbda XIX asrning 20 - yillarida paydo bo'lgan oqimining asoschisi OGYUST KONTdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa - ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.

**VERIFIKATSIYA** printsiptini - neopozitivistlar ilgari suradilar (lotincha Veritas - haqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu printsipti keyinchalik inkor etildi.

**FAL'SIFIKATSIYALASH** metodiki - postpozitivizm (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K.Popper ilgari surdi. Unga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning haqiqiylikni mantiqiy - lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60 - 70 yillariga strukturalizm va germeneytika chikdi.

**STRUKTURALIZM** (asosiy vakillari Levi-Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasi bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb x.isoblaydilar. Masalan Levi - Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq bo'ladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday printsipti, umumiy mantiqqa ega.

**GERMENEVIKA** - qadimgi yunon afsonasidagi xudolarning xoxish va irodasini insonlarga tushuntirib berish uchun erga yuborilgan elchisi - Germes nomi bilan ataladi. Demak, germeneytika - tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalari ga asosiy diqqatini qaratadi.

**EKZISTENSIAL FALSAFA** -- XX asrning 30-yillariga kelib rivojlangan. Ekzistentsiya tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistentsiyalizm nixoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarning insoniy ma'naviy dunyosi, inson takdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi.

**PRAGMATIZM** - yangi zamon falsafasining oqimi. AQSHda keng tarkalgan. Foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday erishish yo'llari haqida muloxaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foйда» tushunchasi «tajriba», «hakikat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

**OLAM** - tor ma'noda bu odam yashaydigan joy. Aslida odamzod va xayvonot olami, o'simlik va hasharotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy olam va boshqa shu singari ko'plab tushunchalar bor. Ular dunyo mavjud bo'lgan narsa va hodisalar nomi bilan ataladi.

**ODAM** - fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson.

**MONIZM** - olamning asosini bitta mohiyat tashkil etadi deb ta'lim beruvchi yo'nalish.

**DUALIZM** - olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekanini e'tirof etuvchi oqimdir.

**PLYURALIZM** - olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

**SUBSTANTSIYA** - muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma-xil ko'rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo'luvchi mohiyatdir.

**SUBSTRAT** (asos ma'nosini anglatadi) - olamning asosida yotuvchi substantsiyani axtarishning yana bir yo'li, narsalarning tarkibidagi bo'linmas eng kichik unurni, asosni axtarishdir. Bunday yo'nalishga mansub oqimlardan biri atomistik oqim hisoblanadi. Masalan, qadimgi yunon faylasuflari Levkipp, Epikur, Demokrit va Lukretsiylar narsalarning va butun olamning asosida eng kichik bo'linmas unsurlar atomlar yotadi, ular o'zlarining shakli, harakatlanishi va vaznlari bilan birlaridan farq qiladi, deb hisoblashgan.

**FAN OLAM TO'G'RISIDA** - o'ziga xos fikr yuritadi. Unda olamga oid murakkab masalalarni amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga uriniladi. Mavjud ilmiy mantiq, doirasidan chetga chiquvchi hodisalar esa izohlanmaydi. Ayrim ajoyibot hodisalarining fan tadqiqot ob'ektiga kiritilmaganligining sababi ana shunda.

**OLAM HAQIDAGI DINIY TASAVVURLAR** uning kelajagi, yaratilishi yoki o'tmishiga oid murakkab masalalarni, asosan, ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin etadi. Dinda olamni «bu dunyo» - o'tkinchi olam va «narigi dunyo» - abadiy olamga ajratib tushuntirishadi. Bu dunyodagi mashaqqatlari evaziga odam narigi dunyoda rohat-farog'atga muyassar bo'ladi, degan g'oyaga asoslaniladi.

**INDIVIDUAL OLAM** - odamning jamiyatdagi boshqalar bilan birgalikdagi ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, o'zida tashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks ettiradi.

**MODDIY OLAM** - moddiy jismlarnigina o'ziga qamrab oluvchi olamga aytiladi.

**IJTIMOIIY OLAM** - odamlarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, faoliyatlari, uy-xayollari, ideallari, maqsad va maslaklari bilan birgalikda bo'lgan.

**MA'NAVIY OLAM** - odamning ma'naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamga aytiladi.

**AKTUAL OLAM** - shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo'lgan olamga aytiladi.

**REAL OLAM** - olamning mavjudligi shubhasiz bo'lgan va barcha e'tirof etadigan qismi.

**VIRTUAL OLAM** - kelajakda mavjud bo'lishi extimoli bo'lgan olam. (virtual so'zi lotincha Virtualis - ehtimoldagi degan ma'noni bildiradi).

**KONKRET OLAM** - aniq ma'lum bo'lgan olam.

**BORLIQ** - ob'ektiv reallikni qamrab oluvchi tushuncha.

**ONTOLOGIYA** - falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismiga aytiladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X.Vol'f qo'llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

**YO'QLIK** - hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi hamma narsaning ibtidosi ham-intixosi bo'lib yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi.

**MAVJUDLIK** - borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi.

**REALLIK** - mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi.

**MATERIYA** - moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy ob'ektlarni, butun ob'ektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning mahsuli va abstraktsiyasidir», - deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy

ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy ob'ektlarga xos eng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.

**HARAKAT** - borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. CHunki borliq harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

**RIVOJLANISH** - bu muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir.

**FAZO** - narsalarning qo'llashini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlikli va uzluksizligini ifodalaydi. Fazo vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan, adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida ishlatiladi.

**VAQT** - hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

**IJTIMOY HARAKAT** - bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarning faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o'ta murakkabdir.

**T a b i a t t u s h u n c h a s i** - keng mahnodagi falsafiy tushunchalardan biridir. Tabiat benixoya xilma - xil shakl va kurinishlari bilan insonni kurshab turgan moddiy olam, butun mavjudotdan iboratdir.

**QONUN** - olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarning namoyon bo'lishidir.

**TABIAT QONUNI.** Tabiat qonunining yana bir eng muhim xususiyati ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas.

**ME'YOR.** Miqdor va sifatning birinchi, o'zaro bog'liqligini ifodalaydigan tushuncha. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi.

**SAKRASH.** Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayondir.

**VORISLIK** - eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi.

**INKOR** - tushunchasi kundalik ongda «yuq» so'zi bilan qo'shilib ketadi, inkor qilmok - «yuq» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik onga ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri «yuq» degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

**INKORNI INKOR QONUNI.** Mazkur qonunga muvofiq ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishidagi jarayonni eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, aksariyat hollarda eskilik butunligicha inkor kilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saklanib koladi.

**YANGILANISH.** Aslida tarixda mafkuradan mutloq xoli davrlar kam bo'lgan. SHunday davrlar bo'lgan taqdirda ham, ulardan so'ng albatta har safar mamlakatning o'ziga xos va o'ziga mos mafkuraviy muhitni qayta tiklash va yangilash jarayoni boshlangan. Vatanimizda kechayotgan bugungi mafkuraviy yangilanishni sohibqiron Amir Temur davrida mo'g'ullar imperiyasiga barham berib, mustaqillik uchun milliy davlatchilik asoslarini qayta tiklash uchun kurash yillariga qiyoslash mumkin.

**DIALEKTIK INKOR** - yangining eski bilan oddiy almashinuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy - tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

**KATEGORIYA** - bu qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

**ALOHIDALIK.** Ba'zi falsafiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, yakkalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha qilib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

**XUSUSIYLIK** - alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat orqali ifodalanadi.

**UMUMIYLIK** - olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa - hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir.

**SISTEMA** - grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi.

**STRUKTURA** narsa hodisalar bog'lanishini, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir.

**ELEMENT** - sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir.

**MOHIYAT** - o'zida alohidalik, maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi.

**HODISA** - narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat.

**SABAB** - biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

**ZARURIYAT VA TASODIF.** Ob'ektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat - narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa - zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir.

**IMKONIYAT VA VOQELIK** - falsafaning muhim kategoriyalaridir. Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendentsiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlannshning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

**BILISH** - insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning maxsuli, natijasili bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Uningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir. Bilishning ikki shakli mavjud: 1. Kundalik (empirik). 2. Nazariy (ilmiy).

**GNESEOLOGIYA** - asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi.

**BILIM.** Bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruriyatidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyat o'up asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyati jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

**KUNDALIK (EMPIRIK) BILISH** - kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilishga aytiladi. Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodga etkazish ancha mushkuldir.

**NAZARIY (ILMIY) BILISH** - insoniyatning taraqqiyoti davomidagi ilmiy faoliyatini o'rganadi. Bu bilan gneseologiya shug'ullanadi. Nazariy bilish to'rt xil turi mavjud: bilish ob'ekti, bilish sub'ekti, bilish maqsadi, bilish predmeti.

**BILISH OB'EKTI.** Tadqiqotchi, olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyat qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish ob'ektlari hisoblanadi. Bilish ob'ektlari moddiy ma'naviy, konkret, mavxum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish ob'ektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni kamrab oladi. Bilish ob'ektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

**BILISH SUB'EKTI.** Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va bugun insoniyat bilish sub'ekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari alohida bilish sub'ektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham bilish ob'ekti, ham bilish sub'eti sifatida namoyon bo'ladi.

**BILISH PREDMETI** - sub'ektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish ob'ektining ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanparni bir-biridan farklashga imkon beradigan muhim belgidir.

**BILISH MAQSADI.** Ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir.

**BILISH DARAJALARI** - shartli ravishda quyi (hissiy) bilish, yuqoriy (akdiy) bilish, oliy (intuitiv, qalban, g'oyibona) bilishga bo'linadi.

**HISSIY BILISH** - bilishning quyi darajasi, barcha tirik mavjudotlarga xos. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

**AQLIY BILISH** (ratsional bilish) - bilishning yuqori bosqichi, faqat insonlargagina xos. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. SHu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari hech qachon uning mohiyatini ochib bera olmaydi.

**INTUITIV BILISH** (kalban, goyibona bilish) - bilishning oliy darajasi. O'zining butun borligini fan, din, siyosat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, echimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gneseologiyada muhim o'rin z gallab keldi. Har bir fan o'ziga xom bilish usullaridan foydalanadi.

**MANTIQUIY BILISH** - tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) orqali namoyon bo'ladi.

**ILMIY BILISH** - fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi.

**ILMIY BILISH METODLARI** - ilmiy fakt va dalillar to'plashning o'ziga xos usuliga aytiladi. Ilmiy bilish-metodlarini o'rganadigan maxsus soha - metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga ko'ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi.

**NAZARIYA** - fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo'lib, u ilgari ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o'sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqazo qiladi.

**XAQIQAT** - inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga ko'ra mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi.

**Mantiq**- arabcha soʻz boʻlib, maʼnosi buyicha grekcha "logika" soʻziga muvofiq keladi. U - "logos"suzidan kelib chiqqan boʻlib,"fikir", "soʻz","aql", "qonuniyat" kabi maʼnolarga ega."Mantiq"soʻzi birinchidan,obʻektiv olam qonuniyatlarini, ikkinchidan,tafakkurning mavjud boʻlish shakllari va taraqqiyotini, fikrlar oʻrtasidagi aloqadorlikni harakterlaydigan qonun-qoidalar yigindisini,uchinchidan tafakkur shakllari va qonunlarini urganuvchi fanni ifodalaydi.

**Tafakkur** - predmet va hodisalarning mohiyatini tushuntiradi.U bilishning yuqori - ratsional (lotincha ratio - aql) bilish bosqichi boʻlib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi,ular oʻrtasidagi ichki,zaruriy aloqalar,yaʼni qonuniy bogʻlanishlar aks ettiriladi.

**AXLOQSHUNOSLIK** - axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini oʻrganadi."Axloq" soʻzi arabchadan olingan boʻlib,"xulq" soʻzining koʻplik shaklidir. "Axloq" iborasi ikki xil maʼnoga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot obʻektini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson feʼl-atvori va hatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan boʻlsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

**ETIKA** - Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega boʻlgan qadimiy fan. U bizda "Ilmi ravish", "Ilmi axloq", "Axloq ilmi", "Odobnoma" singari nomlar bilan atab kelingan. Ovroʻpoda esa "Etika" nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qoʻllar edik. Uni birinchi boʻlib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan.Arastu fanlarni tasnif qilarkan,ularni uch guruhga boʻladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga u falsafa,matematika va fizikani; ikkinchi guruhga - etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa - sanʼat, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. SHunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi taʼlimotni fan darajasiga koʻtarganlar va "Etika"(taethika) deb ataganlar.

**ESTETIKA** - yunoncha "estezikos" soʻzidan olingan boʻlib "sezish", "his qilish qobiliyati", "hissiy idrok" maʼnosini bildiradi. Bu fan insonning voqelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining eng umumiy qonun va kategoriyalari haqidagi fandır.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI.

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. -53 b.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017 -484 b.
3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. -28 b.
4. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston, 1996-2016.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma'naviyat, 2016, -176.

### ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Abdulla SHer. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'FMJ, 2010.
2. Abdulla SHer. Estetika. Darslik. – T.: O'zbekiston, 2016.
3. Основы философии. Учебник. Издание 2-е, переработанное, дополн. Под ред. М.А.Ахмедовой, В.С.Хана. – T.: Mehnat. 2004.
4. Po'latova D., Izzetova E. Filofofiya. -T.: Sharqshunoslik 2012. 340-b
5. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
6. Husanov B. G'ulomov V. Muomaladaniyati. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.
7. SHaripov M. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.
8. SHermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.

### QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.–T.: Yangi asr avlodi, 2016.-318 b.
2. Allayarova S. Badiiy ijod germeneytikasi – T.: Universitet, 2011.
3. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -160b.
4. Guseynov A.A., Apresyan R.G. Etika. Uchebnik. –M.: Gardariki, 2013.
5. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidadagi o'rni.-T.: "Star - Poligraf", 2010. -180 b.
6. Krivsun O.A. Estetika. Uchebnik–M.: Gardariki, 2013
7. Qahhorova SH. Global ma'naviyat-globallashuvning g'oyaviy asosi.-T.: Tafakkur, 2009. -670 b.
8. Madaeva SH. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
9. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi./ Monografiya. – T.: Universitet, 2009.
10. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
11. Plutarx. Saylanma. Z. A'lamva Urfon Otajon tarjimasini. - T.: Yangi asr avlodi, 2006.
12. Pulatova D., Qodirov M., Ahmedova M. Va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI.2013.
13. Pulatova D., Ro'zmatova G., Jalolova O'. Axloqshunoslik. O'quv qo'llanma.-T.: TDSHI.2013.
14. Po'latova D.A., Fayzixo'jaeva D.E. Mantiq. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI., 2013.
15. Soifnazarov I. Kurs leksiyo po filofofii. - T.: TDIU, 2004.
16. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova K. Falsafa. Darslik.–T.: Fan va texnologiya, 2016.

17. To'raev B. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati. –T.: O'zRFA Falsafa va huquq instituti, 2011.\
18. To'raev B. Mantiq: masalalar va mashqlar. O'quv qo'llanma.– T.,2009.
19. O'zbekiston: dinlararo hamjihatlik – tinchlik garovi.-T.:2005.
20. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. Izohli lug'at. –T.: Tamaddun, 2015.
21. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
22. Xayitov SH., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
23. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
24. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi - T.: Axborot texnologiyalari, 2008.
25. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-b.
26. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
27. Shermuxamedova N.A. Fan falsafasi. -T.: Noshir, 2017. -360b
28. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir,2013, 720 b
29. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
30. Shermuxamedova N.A. Siyosiy mentalitet va davr ruhining dialektikasi.-T.: Noshir, 2017, 220 b.
31. Shermuxamedova N.A. Texnika falsafasi. -T.: Universitet, 2017. - 420 b.

#### **Internet saytlari**

1. [www.Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz)
2. [www.faylasuf.uz](http://www.faylasuf.uz)



## MUNDARIJA

<b>1.KIRISH.....</b>	<b>4 bet</b>
<b>1. FALSAFANING FAN VA DUNYOQARASHGA DOIR MOHIYATI.....</b>	<b>5-20 bet</b>
<b>2. BORLIQ – FALSAFASI (ONTOLOGIYA).....</b>	<b>21-29 bet</b>
<b>3. RIVOJLANISH FALSAFASI.....</b>	<b>30-48 bet</b>
<b>4. BILISH NAZARIYASI.....</b>	<b>49-57 bet</b>
<b>5. MANTIQ BILISH NAZARIYASINING TADQIQOT OB’YEKTI.....</b>	<b>57-70 bet</b>
<b>6. JAMIYAT VA INSON FALSAFASI.....</b>	<b>70-87 bet</b>
<b>7. AXLOQIY QADRIYATLAR.....</b>	<b>88-105 bet</b>
<b>8. ESTETIKA NAZARIYASI. ....</b>	<b>106-113 bet</b>
<b>9. GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT.....</b>	<b>114-125 bet</b>
<b>10. GLOBAL KORRUPSIYA IJTIMOY –MADANIY INQIROZ.....</b>	<b>125-137 bet</b>
<b>11. DIN MADANIYAT FENOMENI.....</b>	<b>138-174 bet</b>
<b>12. BUDDAVIYLIK VA XRISTIAN DINI TARIXI VA FALSAFASI .....</b>	<b>175-198 bet</b>
<b>13. ISLOM DINI TARIXI VA FALSAFASI .....</b>	<b>198-228 bet</b>
<b>14. ISLOM QADRIYATLARI.....</b>	<b>228-242 bet</b>
<b>15.DINIY MUTAASSIBLIK VA DINDORLIK.....</b>	<b>243-267 bet</b>
<b>16.GLOSSARIY.....</b>	<b>268-277 bet</b>
<b>17.ADABIYOTLAR RO”YXATI.....</b>	<b>278-279 bet</b>